
INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE

SCIENCE IN THE 21ST CENTURY:

CHALLENGES, SOLUTIONS AND DEVELOPMENT STRATEGIES



January 22, 2026

Moscow • Astana • Osh • Petropavlovsk • Tomsk • Ankara • Tashkent

M.V. Lomonosov Moscow State University (Russian Federation)
Tomsk State University (Russian Federation)
L.N. Gumilyov Eurasian National University (Republic of Kazakhstan)
M. Kozybayev North Kazakhstan University (Republic of Kazakhstan)
Osh State University (Kyrgyz Republic)
Ankara University (Türkiye)
Academic Research Publisher (United Kingdom)
UniScience journal (Republic of Uzbekistan)

****

MATERIALS

the international scientific-practical conference

«SCIENCE IN THE 21ST CENTURY: CHALLENGES, SOLUTIONS AND DEVELOPMENT STRATEGIES»

Moscow, Astana, Petropavlovsk, Tashkent, Osh, Tomsk, Ankara
January 22, 2026

TOM II

****

Science in the 21st century: challenges, Solutions and development strategies // materials international scientific-practical conference. Moscow, Astana, Petropavlovsk, Tashkent, Osh, Tomsk, Ankara. January 22, 2026.

Editorial board of the conference

Temnova L.V. - DSc, Professor (Moscow, Russia); **Sagatbayev Y.N.** - PhD, professor (Astana, Kazakstan); **Duyshenaliev CH.D.** - DSc, Professor (Byshkek, Kyrgyzstan); **Pashkov S.V.** - PhD, professor (Petropavlovsk, Kazakstan); **Khakimov K.A.** - PhD, docent (Tashkent, Uzbekistan); **Melekoglu M.** - DSc, professor (Eskisehir, Turkey).

This event aims to discuss contemporary research across various scientific fields, exchange new scientific ideas, and support scientific activities aligned with global innovative processes.

Within the framework of the conference, scientists, researchers, young scholars, and practicing specialists will have the opportunity to present their research results, exchange scientific ideas, and expand international cooperation.

The main objective of this International Scientific-Practical Conference is to consolidate the results of contemporary research across various scientific fields and strengthen the integration of science and practice through advanced scientific approaches.

**The authors are responsible for the content of the articles, the information, facts, and figures presented therein.*

The proceedings of the International Scientific-Practical Conference have been discussed by the Scientific-Technical Council of the international publisher **„Academic Research Publisher“** (London, United Kingdom) and recommended for publication (January 21, 2026, Protocol No. 1).

CONTENTS

CIVILIZATION AND INTELLECTUAL DEVELOPMENT: HISTORICAL AND PHILOSOPHICAL APPROACHES 12

BUXORO AMIRLIGI DAVRIDA BUXORO SHAHRI SHAHARSOZLIK TUZULMASI 13

O‘ZBEKISTONDA FUQAROLIK JAMIYATI TUSHUNCHASINING SHAKLLANISH BOSQICHLARI 17

TEATR SAN’ATINING FALSAFIY MOHIYATI: SAHNA VA HAYOT MUNOSABATI 23

O‘ZBEK OLIMINING ORGANIK BIRIKMALAR TUZILISH NAZARIYASIGA QO‘SHGAN OLAMSHUMUL KATTA HISSASI 28

ILMIY TADQIQOTDA TUSHUNISH VA TUSHUNTIRISHNING AHAMIYATI 32

RAQAMLI MAKONDA GLOBALLASHUV VA MILLIY MA’NAVIYAT MUAMMOLARI 36

QUR’ONDA BILIM VA TAFAKKUR TUSHUNCHALARI: FALSAFIY-PEDAGOGIK TAHLIL 40

MASOFAVIY TA’LIMNING SHAXS KAMOLOTIGA TA’SIRI: FALSAFIY TAHLIL 46

INTELLECT EVOLYUTSIYASI: TANLOV VA ZARURAT 52

TARIX FANIDA INNOVATSION METODLAR: FANLARARO TADQIQOTLAR ASOSIDA YANGI ILMIY YONDASHUVLAR 58

YANGI O‘ZBEKISTON TARAQQIYOT STRATEGIYASINING MA’NAVIY VA FALSAFIY ASOSLARI 62

XIX ASRDA GERMANIYA VA USMONLI IMPERIYASI O‘RTASIDAGI HARBIY-TASHKILIY MUNOSABATLARNING SIVILIZATSION TAHLILI 66

“XXI ASR ILM –FANI:MUAMMOLAR, YECHIMLAR, VA TARAQQIYOT STRATEGIYALARI” ISLOM SIVILIZATSIYASI VA ILMIY TAFAKKUR TARAQQIYOTI: O’RTA ASRLAR TARIXIY TAJRIBASI 73

JANUBIY O‘ZBEKISTONDAGI MADANIY MEROS OBYEKTLARINING TARIXIY MANBALARDA YORITILISHI 76

АФГАНСКИЕ УЗБЕКИ: БРАЧНЫЕ И СВАДЕБНЫЕ ОБРЯДЫ — ЭТНОГРАФИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ 82

MOVAROUNNAHR TILSHUNOSLIGIDA ARAB TILSHUNOSLIGI VA UNING RIVOJLANISHI 90

SHARQ FALSAFASIDA KOMIL INSON G‘OYASINING SHAKLLANISHI 95

ЕНИСЕЙЛИК КЫРГЫЗ УСТАЛАРЫНЫН МЕТАЛЛ ИШТЕТҮҮ АРКЫЛУУ КУРАЛ-ЖАРАК ЖАСОО ТЕХНИКАСЫНЫН ӨЗГӨЧӨЛҮКТӨРҮ 103

SCIENTIFIC INTERPRETATION OF SOCIAL DEVELOPMENT THROUGH LANGUAGE, CULTURE AND ART 110

METONYMY AND RELATED PHENOMENA 111

O‘ZBEK TILI MORFOLOGIK TIZIMIDA INNOVATSION O‘ZGARISHLAR..... 114

THE INFLUENCE OF SHAKESPEARE ON MODERN ENGLISH LITERATURE 120

ABDULLA QODIRIYNING "O'TKAN KUNLAR" VA "MEHROBDAN CHAYON" ROMANLARIDA MILLIYLIK IFODASI 126

IJTIMOIY TARMOQLAR TILI VA UNDAGI O’ZLASHMALAR: ZAMONAVIY LINGVISTIK JARAYONLAR TAHLILI..... 130

O‘ZBEK ROMANLARINING RUS TILIGA TARJIMALARIDA LINGVOMADANIY ADEKVATLIK MASALASI 135

ILMIY NUTQDA EKOTIZIMGA OID ATAMALARNING PAYDO BO‘LISHI VA QO‘LLANILISHI 139

RAQAMLI MUHITDA IT TERMINLARINING KOMMUNIKATIV TRANSFORMATSIYASI 145

INGLIZ TILIDA ARALASH METAFORANING KOGNITIV TABIATI.. 150

LINGUISTIC AND SOCIOLINGUISTIC ANALYSIS OF “WHITE TEETH” 155

THE DEVELOPMENT OF THE MODERN ENGLISH LEXICON IN THE AGE OF GLOBALIZATION 163

O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGIDA ISAJON SULTON VA NORMUROD NORQOBILOV NASRINING O‘RGANILISHI 168

FORMATION OF SOCIAL CONSCIOUSNESS THROUGH LANGUAGE: A COGNITIVE APPROACH..... 177

QIRG‘IZ ADABIYOTIDA AN’ANA VA ZAMONAVIYLIK: CHINGIZ AYTMATOV IJODI MISOLIDA 180

LEXICAL STRUCTURE OF MODERN ENGLISH: CHALLENGES AND DEVELOPMENT..... 187

O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARIDAGI METAFORIK MODELLARNING CHOG‘ISHTIRMA TAHLILI 192

BADIIY MATNDA RITORIK SO‘ROQ GAPLAR..... 197

LINGVISTIK TERMINOLOGIYADA POLISEMIYA HODISASI 200

TURIZM DISKURSINING ASOSIY JANRLARI VA KOMMUNIKATIV SHAKLLARI 204

TURIZM DISKURSIDA KOMMUNIKATOR VA ADRESAT MUNOSABATI 207

TURIZM DISKURSIDA EMOTSIONAL TA'SIR VOSITALARINING PRAGMATIK FUNKSIYASI 211

YOZUVCHI IJODIDA OKKAZIONAL BIRLIKLAR VA BADIIY IFODA TABIATI (AHMAD A'ZAM ASARLARI MISOLIDA) 215

РАЗВИТИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО НАУЧНОГО ОБРАЗОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ В ГОДЫ НЕЗАВИСИМОСТИ 222

СЕМИОТИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ РЕПРЕЗЕНТАЦИИ ОБЩЕСТВЕННОГО РАЗВИТИЯ В НАЦИОНАЛЬНОМ УЗБЕКСКОМ ТАНЦЕ 227

ВЗАИМОСВЯЗЬ ЯЗЫКА, МЫШЛЕНИЯ И КУЛЬТУРЫ: ПРИНЦИПЫ КОГНИТИВНО-ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКОГО ПОДХОДА .. 232

HUMAN CAPITAL AND LEGAL AWARENESS: DEVELOPMENT STRATEGIES BASED ON EDUCATION AND PSYCHOLOGY **239**

CONSEQUENCES OF VIOLATION OF CERTAIN PROCEDURAL LAW NORMS IN CIVIL COURT PROCEEDINGS 240

JISMONIY IMKONIYATI CHEKLANGAN TALABALAR RIVOJLANISHI UCHUN INKLYUZIV TA'LIMNING IJTIMOIY AHAMIYATI 245

RAQAMLI TA'LIM SHAROITIDA OLIY MATEMATIKANI O'QITISHDA INNOVATSION METODLARDAN FOYDALANISH 249

QONUN USTUVORLIGINI TA'MINLASHDA KONSTITUTSIYAVIY SUDNING O'RNI-HUQUQ NORMALARINI SHARXLASH MISOLIDA 256

O'ZBEKISTON MILLIY MAKTABLARIDA RUS TILINI CHET TILI SIFATIDA O'QITISH: ISTIQBOLLAR VA VAZIFALAR 266

BOSHLANG'ICH TA'LIMDA TANQIDIY FIKRLASHNI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY-METODIK ASOSLARI 272

BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHDA INTERFAOL USULLARNING INTEGRATSIYALASHGAN ROLI (GROW + MUAMMOLI TA'LIM + ROLLI O'YINLAR) 276

NUTQIDA NUQSONI BO'LGAN 8-9 YOSHLI O'QUVCHILARNI INKLYUZIV SINFLARDA O'QITISHNING PEDAGOGIK SHARTLARI 281

P.Y. GALPERIN'S THEORY OF THE STAGE-BY-STAGE FORMATION OF MENTAL ACTIONS IN CORPORATE TRAINING OF TECHNICAL SPECIALISTS 285

TA'LIM TIZIMIDA INTEGRATIV YONDASHUV AVVALGI DAVRDA VA HOZIRGI DAVRDAGI INTEGRATSIYALAR 289

TA'LIM BERISH JARAYONIDA NUTQ MADANIYATINI RIVOJLANTIRUVCHI MASHQLAR TIZIMINI ISHLAB CHIQISH..... 295

YANGI O'ZBEKISTON TA'LIM TIZIMIDA MADANIY SIYOSAT: HUQUQIY ASOSLAR VA AMALIY YO'NALISHLAR..... 299

TA'LIMDA SHAXSIY FAOLIYAT YONDASHUVI: NAZARIY VA AMALIY ASOSLAR 307

TIL O'RGATISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH 313

TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA MUHANDISLIK VA KOMPYUTER GRAFIKASI FANLARINING O'RNI: AN'ANAVIY VA INNOVATSION USULLAR TAHLILI (JIZZAX VILOYATI MISOLIDA) 319

"EKONOMETRIKADA JUFT KORRELYATSION-REGRESSION TAHLIL" MAVZUSINI O'QITISH JARAYONIDA KOMPYUTER MATEMATIKASI TIZIMLARIDAN VA SUN'IY INTELLEKDAN FOYDALANISH 324

"EKONOMETRIK-MATEMATIK MODELLASHTISH ASOSLARI" MAVZUSINI O'QITISH JARAYONIDA AXBOROT TEXNOLOGI-YALARI VA KOMPYUTER MATEMATIKASI TIZIMIDAN FOYDALANISH 331

O'QUVCHILARNI KITOB O'QISHGA JALB QILISH YO'LLARI..... 342

BOSHLANG'ICH TA'LIMDA MASSA O'LCHOV BIRLIGINI O'QITISHDAGI AYRIM MUAMMOLAR 352

BOSHLANG'ICH SINFLARDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH MUAMMOLARI VA YECHIMLARI 357

O'QUVCHILARDA KINEMATIKADAN GRAFIKLI OLIMPIADA MASALALARNI YECHISH METODIKASINI SHAKLLANTIRISH 363

MATEMATIKADA IZCHILLIKDAN FOYDALANIB, TALABALARNING IQTISODIY TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISH 368

UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARIDA FIZIKA FANINI O'QITISHDAGI BA'ZI MUAMMOLAR VA ULARNING YECHIMLARI 377

SPORT FAOLIYATIGA ASOSLANGAN SOG'LOM TARBIYANI SHAKLLANTIRISH 386

TA’LIMDAGI INNOVATSIYALAR, RAQAMLI TRANSFORMATSIYA VA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR 390

OLIY PEDAGOGIKA TA'LIMDA MASOFAVIY TA’LIM SHAKLI TALABALARINING MUSTAQIL ISHLASHIDA VR/AR TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHINING SAMARADORLIGI 398

SUN’IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINING TA’LIMDA QO‘LLANILISHI..... 403

MATEMATIKA VA DASTURLASH INTEGRATSIYASI ASOSIDA KOMPLEKS SONLARNI O‘QITISHNING INNOVATSION MODELI... 409

3D TEXNOLOGIYALAR YORDAMIDA TEXNIK FANLARNI O‘QITISHNING DIDAKTIK MODELI 414

TA’LIM JARAYONIDA ZAMONAVIY AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARIDAN SAMARALI FOYDALANISH METODIKASI 419

O‘QUV JARAYONINI MODERNIZATSIYALASHDA AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARINING O‘RNI VA AHAMIYATI..... 424

TA’LIM JARAYONIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI 429

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA O‘ZBEK MILLIY XALQ ERTAKLARI 434

SHARQ MUTAFAKKIRLARINING TA’LIMIY QARASHLARI ASOSIDA IQTIDORLI O‘QUVCHILARNI ANIQLASHNING PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK MEXANIZMLARI..... 438

THE IMPORTANCE OF TRANSLATION IN DEVELOPING THE PROFESSIONAL COMPETENCE OF FUTURE FOREIGN LANGUAGE TEACHER 441

FUTUROLOGIK KO‘NIKMALAR BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNING KUCHLI TOMONI SIFATIDA 447

SUN’IY INTELLEKGA ASOSLANGAN TA’LIM FUTUROLOGIK KOMPETENSIYANING AJRALMAS QISMI SIFATIDA..... 453

GEYMIFIKATSIYA TA’LIM VA BOSHQARUV SOXASIDAGI INNOVATSION METOD SIFATIDA..... 459

KIMYO VA BIOLOGIYA TA’LIMIDA FIZIKANING INTEGRATSION MODELI 464

KASBIY RIVOJLANISHDA ILMIY SAVODXONLIKNI OSHIRISHNING ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARI: DIZAYN FIKRLASH METODI MISOLIDA 468

DEVELOPING SPEAKING SKILLS THROUGH MOBILE-ASSISTED LANGUAGE LEARNING (MALL): A COMPETENCE-BASED APPROACH IN HIGHER EDUCATION..... 474

KREATIV YONDASHUV ASOSIDA TALABALARNI MA'NAVIY AXLOQIY SIFATLARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI..... 479

MAKTAB KIMYO KURSIDA TUZLAR MAVZUSINI O‘QITISH METODLARI..... 485

INTEGRATSIYALASHGAN FAOLIYAT MARKAZLARI – MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA IJTIMOIY-KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISH OMILI SIFATIDA..... 492

FARG‘ONA SHAHAR AVTOMOBILLAR TO‘XTASH JOYLARINING ARXITEKTURA YO‘NALISHIDA O‘QITILISHI..... 501

KASBIY TAYYORGARLIK TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHDA SUN’IY INTELLEKT ASOSIDAGI PEDAGOGIK PLATFORMALARNING O‘RNI..... 506

KASBIY KOMPETENTLIK: MOHIYATI, TARKIBIY ELEMENTLARI VA RIVOJLANISH MEXANIZMLARI..... 512

СОЦИАЛЬНО-ЭМОЦИОНАЛЬНОЕ ОБУЧЕНИЕ В РАМКАХ ПАРТНЕРСТВА СЕМЬИ И ШКОЛЫ: МОДЕЛЬ РАЗВИТИЯ ОТНОШЕНИЙ МЕЖДУ РОДИТЕЛЯМИ И ДЕТЬМИ В УЗБЕКИСТАНЕ..... 518

YENİ GELİŞİM DÖNEMİNDE ÖĞRENCİLERİN MANEVİ DEĞER SİSTEMİNİN GELİŞİMİ (DOĞU DÜŞÜNÜRLERİNİN ESERLERİ ÖRNEĞİNDE)..... 526

ZAMONAVIY RAQAMLI TA’LIM VOSITALARI VA RAQAMLI KOMPETENTLIK..... 530

ZAMONAVIY PEDAGOGIKADA TIL O‘RGATISH SIFATINI OSHIRISHGA QARATILGAN METODLAR..... 534

O‘QUVCHILARDA TANQIDIY FIKRLASHNI SHAKLLANTIRISHDA PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK METODLAR UYG‘UNLIGI..... 543

INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR YORDAMIDA SHAFFOF VA ADOLATLI BAHOLASH TIZIMI..... 549

RAQAMLI HUQUQIY MADANIYAT TUSHUNCHASI VA UNING AHAMIYATI..... 554

RAQAMLI HUQUQLAR TUSHUNCHASI VA UNING INSON HUQUQLARI TIZIMIDAGI O‘RNI..... 559

TALABALARDA HISOBLASH USULLARI FANINI DASTURIY-METODIK MAJMUALAR ORQALI MUSTAQIL O`ZLASHTIRISH

METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISHNING PEDAGOGIK MODELI 565

KUTUBXONA XIZMATLARIDA SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINI JORIY ETISH IMKONIYATLARI VA MUAMMOLARI 572

AGRESSIV XULQ-ATVORNI KELIB CHIQISHINING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK OMILLARI 576

RAQAMLI PEDAGOGIKA SHAROITIDA AXBOROTLI TA'LIM MODELLARI 582

ARAB TILINI O'QITISHDA ZAMONAVIY METODLAR: KOMMUNIKATIV YONDASHUV VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINING O'RNI 587

BO'LAJAK TARBIYACHILARNING TASVIRIY-IJODIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH XUSUSIYATLARI 591

ADABIYOT DARSLARIDA MUAMMOLI TA'LIM TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH ORQALI O'QUVCHILARDA TANQIDIY TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISH 596

PEDAGOGIKANING IJTIMOIY FUNKSIYALARINING KARYERA DIZAYNI JARAYONIGA TA'SIRI: TARIXIY VA ZAMONAVIY TAHLIL 601

RAQAMLI BAHOLASH VA REFLEKTIV YONDASHUVNING NAZARIY ASOSLARI 607

PEDAGOGIK JARAYONINING YANGI PARADIGMALARGA INTEGRATSIYASI 612

AKADEMIK LITSEYLARDA FIZIKA TA'LIMIDA TANQIDIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRUVCHI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR 619

ДИДАКТИЧЕСКОЕ ОБОСНОВАНИЕ МОДЕЛИ КОМПЕТЕНЦИЙ УРОВНЯ GRADE 1 ДЛЯ СПЕЦИАЛИСТОВ-ИСПОЛНИТЕЛЕЙ 626

ЭКОЛОГИЧЕСКИЕ ПРОБЛЕМЫ КАК ЧАСТЬ ШКОЛЬНОГО КУРСА ФИЗИКИ 631

ОИЛА-ТУРМУШ МУНОСАБАТЛАРИ ДОИРАСИДАГИ ҲУҚУҚБУЗАРЛИКЛАР ТУШУНЧАСИ, ТУРЛАРИ ВА ТАВСИФИ ... 640

ПРАВОВОЕ РЕГУЛИРОВАНИЕ ЭЛЕКТРОННЫХ ТОРГОВЫХ ПЛАТФОРМ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН: СТАНОВЛЕНИЕ, СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ И ПРОБЛЕМЫ 646

НАУЧНОЕ МОДЕЛИРОВАНИЕ И АДАПТАЦИЯ SEL-ПОДХОДА ДЛЯ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СРЕДЫ В УЗБЕКИСТАНЕ 658

СИСТЕМНАЯ МОДЕЛЬ СОЦИАЛЬНО-ЭМОЦИОНАЛЬНОГО ОБУЧЕНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ: ИНТЕГРАЦИЯ ПОДХОДОВ, ОСНОВАННЫХ НА ШКОЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ И ПАРТНЕРСТВЕ СЕМЬИ И ШКОЛЫ 667

ПРАВОВОЕ РЕГУЛИРОВАНИЕ ГОСУДАРСТВЕННОЙ ПОДДЕРЖКИ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН 674

CIVILIZATION AND INTELLECTUAL DEVELOPMENT: HISTORICAL AND PHILOSOPHICAL APPROACHES

BUXORO AMIRLIGI DAVRIDA BUXORO SHAHRI SHAHARSOZLIK TUZULMASI

Atamirzayeva Munavvar Abdurashid qizi
Toshkent Davlat Texnika universiteti

Annotatsiya. *Mazkur tezis Buxoro amirligi davrida Buxoro shahrining shaharsozlik tuzilmasini o‘rganishga bag‘ishlangan. Tadqiqotda qadimgi Sharq urbanistik modeliga xos bo‘lgan ark (qal’a), shahriston va rabotdan iborat uch bo‘lakli shahar tuzilmasining shakllanishi, funksional vazifalari hamda ijtimoiy-siyosiy ahamiyati tahlil qilinadi. Shahar rejalashtiruvida tabiiy-geografik omillarning, iqlim va suv resurslarining ta’siri, shuningdek, diniy-ma’rifiy inshootlarning shahar makonidagi o‘rni yoritib berilgan. Ayniqsa, Ark qal’asining siyosiy hokimiyat markazi sifatidagi mavqei, uning me’moriy va mudofaa xususiyatlari tarixiy manbalar asosida ochib beriladi. Tadqiqot natijalari Buxoro amirligi davridagi shaharsozlik an’analari va ularning ijtimoiy tafovutlarni aks ettiruvchi jihatlarini anglashda muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.*

Kalit so‘zlar: *Buxoro amirligi, Buxoro shahri, shaharsozlik tuzilmasi, ark (qal’a), shahriston, rabot, urbanistika, tarixiy shahar, me’moriy rejalashtirish.*

Kirish

Buxoro amirligi shaharlarining shaharsozlik tuzilmasi qadimgi Sharq urbanistik modeli – ark (qal’a), shahriston va rabotdan iborat uch bo‘lakli tizim asosida rivojlangan. Bu model shahar makonining funksional jihatdan qat’iy ierarxiyalashuvini ta’minlab, hokimiyat, aholi turar joylari va iqtisodiy faoliyat hududlarini aniq chegaralashga xizmat qilgan. Ayniqsa, arkning shahar hayotidagi markaziy o‘rni, uning siyosiy hokimiyat ramzi sifatida namoyon bo‘lishi amirlik davri shaharsozligining muhim belgilaridan biri hisoblanadi.

Mazkur davr shaharlarining shakllanishida tabiiy-geografik omillar muhim rol o‘ynagan. Cho‘l va voha sharoiti, suv resurslarining cheklanganligi, iqlimning quruq va issiq bo‘lishi shahar rejalashtiruvida ixchamlik, tor va egri ko‘chalar, ichki hovlili uy-joylar, paxsa va xom g‘ishtdan foydalanish kabi me’moriy-urbanistik yechimlarni yuzaga keltirgan. Bu holat Buxoro amirligi shaharlarining ekologik jihatdan moslashuvchan va uzoq muddat barqaror yashovchan makon sifatida rivojlanishini ta’minlagan.

Shaharsozlik tizimida diniy-ma’rifiy inshootlarning tutgan o‘rni ham alohida ahamiyatga ega. Masjid, madrasa, maqbara va xonaqohlar shahar markazlari hamda asosiy ko‘cha yo‘nalishlarida joylashib, shahar makonining g‘oyaviy va ma’naviy asosini belgilagan. Ayniqsa, Buxoro shahri islom olamida yirik ilmiy-diniy markaz sifatida shakllanib, bu holat uning shaharsozlik qiyofasida ham yaqqol aks etgan.

Birinchisi, Ark (qal’a)- hukmdor qarorgohi, amaldorlar, saroy hizmatchilari joylashgan.

Ikkinchisi, Shahriston- markaziy bozorlar, madrasa, masjidlar va hunarmandlar mahallalari joylashgan qism.

Uchinchisi, Rabot- savdogar karvonsaroylari, hunarmandlar ustaxonalar, qishloqdan keluvchi dehqonlar faoliyati uchun joylar.

Shaharning shimoliy-sharqiy qismi – kuymalanlar (mohovlar, leproslar) mahallasi, bog’lar va qabristonlar bilan band bo‘lgan. Shimoliy-g‘arbiy qismda esa ark qal’a va amirning bosh saroyi joylashgan. Karvonsaroylar va katta bozor markaziy hududda, jome’ maydoni yaqinida joylashgan. Janubiy va janubiy-g‘arbiy qismlar deyarli to‘liq turar joy imoratlari bilan band bo‘lib, ularda shahar aholisining nisbatan kam ta’minlangan qatlami yashaydi. Boylar esa ko‘proq shahar markazidagi mahallalarda uy-joyga egalik qiladilar[1].

Shaharning shimoliy-g’arbiy qismida qal’a ya’ni Ark joylashgan bo’lib, u alohida mustahkamlangan va qadimdan amirning qarorgohi bo’lgan[2]. U mustahkam devorlar bilan o’ralgan, balandligi shahar devorlaridan ham yuqori bo’lgan. Bu

[1] Шубинский П.П. Очерки Бухары. Истографический вестник, 1892. – Ч. XLIX. -С. 622.
[2] Вамбери, Арминий. Путушествие по Средней Азии. -М.: Восточная литература, 2003. -С. 264.

mustahkam, baland devor bilan o'ralgan qal'a manbalarda "Numishkend" deb keltiriladi. U shaharning markaziy qismida, shimoli-sharq tomonda joylashgan bo'lib, tahminan 200 gaz masofada shahar devoriga tutashib ketgan. Devorlarning umumiy balandligi 10 sajen, tahminan 21 metr, bazi joylari hatto 25 metrga yetadi. Devorlar qurulishida pishmagan g'isht va loydan foydalanilgan. Ark darvozalari g'ishtdan, yog'ochdan yasalgan bo'lib, g'arbiy tomonda joylashgan. Shahar aholisi bu joyni "Registon maydoni" deb atagan[3]. Registon – jamoat joyi bo'lib, bevosita ark oldida joylashgan hamda masjidlar va madrasalar bilan o'ralgan. Bu joyda daraxtlar bilan o'ralgan hovuz atrofida sartaroshxonalar, choyxonalar, xordiq olish uchun turli xildagi chodirlar mavjud bo'lgan[4].

Ingliz sayohatchisining ma'lumotlariga qaraganda, Ark – yirik tepalik maydon bo'lib, sun'iy ko'tarilgan, tugash joyi onda-sonda loyli devorlar orasidan ko'rinib turuvchi, chorqirra shakldagi yog'och bilan mustahkamlangan. Ark dandanali baland devor bilan o'ralgan. Kirish qismida ikkita ulkan doiraviy minoralari qo'riqlanib, tepa qismida arabiy raqamli soat mavjud bo'lgan[5].

Ark ichida hukmdorning saroyi- hukmdor va uning yaqin atrofidagi amaldorlar yashagan, rasmiy qabul va qarorlar qabul qilingan bino, Devonxona ya'ni devonbegi idorasi- moliyaviy va boshqaruv ishlari yuritilgan davlat idorasi, masjid, zindon- arkning pastki yoki yon binolarida joylashgan hibsxona, xazina- davlat xazinasiga zahira buyumlar saqlanadigan joy, qozixona- diniy va sudyaviy masalalarni hal qiluvchi joy, qabulxonalar va mehmonxonalar- tashrif buyurgan mehmonlarni qabul qilish va rasmiy tadbirlar uchun mo'ljallangan xonalar, qurol-yaroqlar saqlanadigan omborlar, bog'lar mavjud bo'lgan[6]. Bularning barchasi tahminan 2 gektar maydonda joylashgan[7]. Uning old qismi darvoza bilan mustahkamlangan, darvoza oldida

[3] Пославский И.Т. Бухара. Описание города и ханства // Сб. геогр. Топогр. И стат. Матер. По Азии. -Т., 1891, - Т.: -С. 52.
[4] Южин Скайлер. Туркистон: Россия Туркистони, Қўқон, Бухоро ва Ғулжага саёҳат қайдлари. Таржимон З. А. Саидбобоев. – Т.: Ўзбекистон, 2019. – С. 297.
[5] Южин Скайлер. Туркистон: Россия Туркистони, Қўқон, Бухоро ва Ғулжага саёҳат қайдлари. Таржимон З. А. Саидбобоев. – Т.: Ўзбекистон, 2019. – С. 298.
[6] Ханыков Н. В. Описание Бухарского ханства. Санкт-Перербург: Тип.Имп. Академии наук, 1843. -С. 58.
[7] Пославский И.Т. Бухара. Описание города и ханства // Сб. геогр. Топогр. И стат. Матер. По Азии. -Т., 1891, - Т.: -С. 52.

doimiy ravishda soqchilar turgan. Ark ichida alohida bir kichik shahar hayoti mavjud bo'lgan. Ark atroflari ham handaqlar bilan o'ralgan bo'lib, bu uning mudofaa kuchini yanada oshirgan[8]. Uning aholisi hukmdor va uning atrofidagi insonlardan iborat bo'lgan. Oddiy xalq esa ark tashqarisida, shaharning tor va chang ko'chalarida yashagan. Shu sababli ark Buxoroda siyosiy va ijtimoiy tafovutning yaqqol ramzi sifatida ko'ringan. Eversmann Buxoro arkini ichida muhim davlat amaldorlarining idoralari, xazinalar va hatto bir masjid ham mavjud, u yerdan uncha uzoq bo'lmagan joyda qamoqxona ham joylashganligini yozib o'tgan. U ark qal'asini "Buxoro xonligining yuragi" sifatida baholagan. Chunki, barcha farmonlar, hukmlar va siyosiy qarorlar shu yerda qabul qilingan. Arkning kirish qismida keng maydon joylashgan bo'lib, u yurishlar va ommaviy yig'ilishlar uchun hizmat qiladi. Bu yerda amir va uning amaldorlari xalq oldida ko'rinish bermoqchi bo'lganida chiqganlar[9].

Buxoro shahrida shahriston qismi- asosiy yashash hududi hisoblanadi. Bu yerda bozorlar, madrasalar, masjidlar va hunarmandchilik ustaxonalari joylashgan. Shahriston Ark bilan darvozalar orqali bog'langan, bu orqali hukumat markazi bilan aloqani ta'minlaydi. Ko'chalari tartibli, asosiy yo'llar tijorat va jamoat binolarini birlashtiradi. Shahar devor bilan o'ralgan bo'lib, mudofaa uchun xizmat qiladi. Binolar va ularning joylashuvi savdo va shahar aholisi hayoti uchun qulaylik yaratgan. Shahriston ichida asosiy maydonlar mavjud bo'lib, u yerda bozorlar va aholi yig'ilishlari o'tkazilgan. Har bir ko'cha va mahalla o'z maqsadiga ega bo'lgan, ya'ni ba'zilari savdo, boshqalari jamoat yig'ilishlari yoki diniy marosimlar uchun mo'ljallangan, bu esa boshqaruvni osonlashtiribgina qolmay, tartibni saqlashga ham yordam bergan[10].

Buxoroda shaharning uchinchi qismi Rabod deb atalib, u shahar tashqarisida, darvoza yaqinida joylashgan qism hisoblanadi. Bu qismda amirlik davrida

[8] Ханыков Н. В. Описание Бухарского ханства. Санкт-Перербург: Тип.Имп. Академии наук, 1843. -С. 58.
[9] Eversmann, Eduard Friedrich. Reise von Orenburg nach Buchara. Berlin: Christiani, 1823. -S.64.
[10] Eversmann, Eduard Friedrich. Reise von Orenburg nach Buchara. Berlin: Christiani, 1823. -S. 46-50.

karvonsaroylar, savdo joylari, ustaxonalar joylashgan. Buxoroda rabotlar savdo va transport markazi vazifasini bajargan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. **Шубинский П. П.** Очерки Бухары // Историографический вестник. — 1892. — Ч. XLIX.
2. **Вамбери А.** Путешествие по Средней Азии. — М. : Восточная литература, 2003.
3. **Пославский И. Т.** Бухара. Описание города и ханства // Сборник географических, топографических и статистических материалов по Азии. — Ташкент, 1891. — Т. I.
4. **Скайлер Ю.** Туркистон: Россия Туркистони, Қўқон, Бухоро ва Ғулжага саёҳат қайдлари / тарж. З. А. Саидбобоев. — Тошкент : Ўзбекистон, 2019.
5. **Ханыков Н. В.** Описание Бухарского ханства. — Санкт-Петербург : Типография Императорской Академии наук, 1843.
6. **Eversmann E. F.** Reise von Orenburg nach Buchara. — Berlin : Christiani, 1823.
7. **Сухарева О. А.** Бухара XIX – начала XX в. — М., 1966.

O‘ZBEKISTONDA FUQAROLIK JAMIYATI TUSHUNCHASINING SHAKLLANISH BOSQICHLARI

Axmadjonov Toxirjon Zokir o‘g‘li

Aniq va ijtimoiy fanlar universiteti

Annotatsiya. *Ushbu maqolada O‘zbekistonda fuqarolik jamiyati tushunchasining shakllanish bosqichlari tarixiy-nazariy asosda tahlil etiladi.*

Maqolada 1991-yildan 2025-yilgacha bo‘lgan davrlar ijtimoiy-siyosiy kontekstda ko‘rib chiqilib, konstitutsiyaviy asoslar, qonunchilik hujjatlari, institutlar rivoji hamda “Yangi O‘zbekiston” davridagi islohotlar jarayonida fuqarolik jamiyatining mazmunan boyib borgani yoritiladi. Shuningdek, zamonaviy tahdidlar, mavjud muammolar va xorijiy tajriba bilan solishtirma yondashuv asosida amaliy tavsiyalar shakllantiriladi.

Kalit so‘zlar: *fuqarolik jamiyati, mustaqillik, davlat va jamiyat, ijtimoiy institutlar, huquqiy islohotlar, Yangi O‘zbekiston, jamoatchilik nazorati.*

Fuqarolik jamiyati zamonaviy demokratik davlatlarning siyosiy va ijtimoiy tuzilmasida muhim o‘rin tutadi. Ushbu tushuncha davlat va jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar, fuqarolarning faolligi, huquqiy madaniyati va o‘zini o‘zi boshqarish institutlari orqali ifodalanadi. Dunyo tajribasi shuni ko‘rsatadiki, fuqarolik jamiyati demokratik institutlarning mustahkamlanishida, ijtimoiy barqarorlik va taraqqiyotda hal qiluvchi omil sifatida namoyon bo‘ladi.

O‘zbekistonda fuqarolik jamiyati tushunchasi mustaqillikdan so‘ng siyosiy amaliyotga kirib kelgan bo‘lib, u dastlab konstitutsiyaviy islohotlar, ijtimoiy-siyosiy institutlarning shakllanishi va fuqarolarning erkin faoliyat yuritishiga yo‘naltirilgan huquqiy bazani yaratish bilan bog‘liq bo‘ldi. Keyinchalik, fuqarolik jamiyati institutlari – nodavlat notijorat tashkilotlar, ommaviy axborot vositalari, kasaba uyushmalari, jamoatchilik kengashlari va mahalla tizimi orqali faol shakllana boshladi.

Yurtimizda amalga oshirilayotgan izchil islohotlar natijasida “Kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyati sari” tamoyilining hayotga tatbiq etilishi fuqarolarning davlat boshqaruvida bevosita va bilvosita ishtirokini ta'minlovchi ijtimoiy institutlar faoliyatini jadallashtirdi. Ayniqsa, “Yangi O‘zbekiston” davrida davlat va jamiyat o‘rtasidagi ijtimoiy muloqot, shaffoflik, hisobdorlik, ochiqlik kabi tamoyillarga asoslangan boshqaruv tizimi shakllanmoqda. O‘zbekiston tajribasida fuqarolik jamiyati nafaqat g‘oyaviy va nazariy kategoriya, balki amaliy-siyosiy institutlar majmuasi sifatida qaralmoqda. Bu esa uning evolyutsion taraqqiyoti davomida

ijtimoiy institut sifatidagi ahamiyatining ortganligini ko‘rsatadi. Fuqarolik jamiyatining shakllanish bosqichlarini bosqichma-bosqich o‘rganish, mavjud qonunchilik va institutlar faoliyatini tahlil qilish bu tushuncha haqidagi tasavvurlarni ilmiy asosda shakllantirishga xizmat qiladi. Fuqarolik jamiyati tushunchasi qadimdan siyosiy tafakkur markazida bo‘lib kelgan. Yunon faylasufi Aristotel fuqarolik jamiyatini erkin fuqarolarning siyosiy tashkilotdagi ishtiroki orqali ifodalagan. Uningcha, bu jamiyat a’zolari umumiy manfaat va maqsadlar asosida birlashgan, siyosiy qarorlar qabul qilishda faol ishtirok etuvchi qatlamdir [1]. G‘arb falsafasida bu tushuncha keyinchalik Jon Lokk va Sharl Monteske tomonidan chuqurroq asoslanib, inson huquqlari, qonun ustuvorligi, davlat hokimiyatining cheklanishi kabi tamoyillar bilan bog‘langan [2].

Sharq tafakkurida esa fuqarolik jamiyati tushunchasi o‘ziga xos axloqiy-ma’naviy asoslarda rivojlangan. Forobiy “Fozil odamlar shahri” asarida insonlarning erkinligi, kasb tanlash huquqi, adolatli boshqaruv va jamiyatdagi tenglik g‘oyalarini ilgari suradi [3]. Beruniy esa ijtimoiy taraqqiyotning negizida adolat, bilim va hamjihatlik yotishi lozimligini urg‘ulagan [4]. Bu qarashlar fuqarolik jamiyati haqidagi zamonaviy tasavvurlar uchun mustahkam asos bo‘lib xizmat qiladi.

1991-2000-yillar: Dastlabki huquqiy asoslar va g‘oyaviy shakllanish davri bo‘ldi. O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, fuqarolik jamiyatining shakllanishi konstitutsiyaviy asosda boshlangan. 1992-yilgi Konstitutsiyada fuqarolarning huquq va erkinliklari, uyushish, fikr bildirish, axborot olish va jamoatchilik faoliyatida ishtirok etish huquqlari kafolatlandi [5]. Shu davrda nodavlat notijorat tashkilotlari to‘g‘risidagi qonunchilik bazasi yaratilgan, ilk fuqarolik institutlari – kasaba uyushmalari, nodavlat tashkilotlar, diniy birlashmalar shakllanib bordi [6]. Ammo bu davrda fuqarolik jamiyati ko‘proq g‘oyaviy-nazariy darajada qolgan, amaliy faollik past bo‘lgan.

2000-2016-yillar: Institutlashuv va normativ mustahkamlash davri bo‘ldi. Mazkur davrda fuqarolik jamiyati institutlari son va sifat jihatdan kengaydi. Nodavlat notijorat tashkilotlari ko‘payib, ularning jamiyatdagi mavqei aniqlasha

boshladi. 2007-yilda qabul qilingan “Nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatining kafolatlari to‘g‘risida”gi qonun fuqarolik jamiyati institutlarining huquqiy maqomini yanada mustahkamladi [7]. 2014-yilda esa “Jamoatchilik nazorati to‘g‘risida”gi qonun qabul qilinib [8], fuqarolarning davlat faoliyatidagi ochiqlik va hisobdorlikka ta’siri mustahkamlandi. Bu bosqichda internet nashrlari va OAV orqali fuqarolik faolligini oshirish imkoniyatlari paydo bo‘ldi.

2017-2025-yillar: “Yangi O‘zbekiston” ochiqlik va hamkorlik davri bo‘ldmoqda. Shavkat Mirziyoyev rahbarligida amalga oshirilayotgan islohotlar doirasida fuqarolik jamiyatini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylandi. “Yangi O‘zbekiston” strategiyasi asosida fuqarolik jamiyatining erkin ishlashi, byurokratik to‘siqlarning qisqarishi va NNTlar faoliyatining ochiqligi ta’minlandi [9]. Interaktiv xizmatlar, “Xalq qabulxonalari”, “my.gov.uz” portali orqali aholining bevosita ariza, shikoyat va takliflar bilan chiqish imkoniyati kuchaydi [10]. Jamoatchilik va davlat organlari o‘rtasida raqamli muloqot shakllandi, ijtimoiy sheriklik amaliyotga tatbiq etildi.

Bugungi kunda O‘zbekistonda fuqarolik jamiyati institutlari faoliyat yuritmoqda, lekin hali ham hal qilinmagan muammolar mavjud. Ayrim hududlarda ijtimoiy faollik past, huquqiy savodxonlik sust, moliyaviy mustahkamlikka ega bo‘lmagan NNTlar barqaror ishlay olmayapti. Bunday muammolar fuqarolik jamiyati salohiyatini to‘liq yuzaga chiqarishda to‘siq bo‘lmoqda.

Shu bilan birga, davlat tomonidan fuqarolik institutlarini qo‘llab-quvvatlashga doir ijobiy tendensiyalar ham mavjud. Xususan, raqamli hukumat xizmatlari, ochiq ma’lumotlar portallari, yoshlar uchun grant dasturlari, OAV erkinligining nisbiy oshishi bu sohada yangi bosqichni boshlab bermoqda. Yangi avlod vakillari orasida ijtimoiy mas’uliyat hissi oshib borayotgani fuqarolik jamiyatining mustahkam asosga ega bo‘lishiga zamin yaratmoqda.

Xalqaro tajribaga nazar tashlansa, G‘arbiy Yevropa mamlakatlarida fuqarolik jamiyati liberal huquqiy asoslar, xususiy tashabbuslar va davlat bilan sheriklik tizimi asosida shakllanadi. Masalan, Germaniyada nodavlat tashkilotlar

davlat grantlari asosida faoliyat yuritadi va siyosiy qaror qabul qilishda muhim o‘ringa ega [11]. Janubiy Koreyada esa media va texnologiyalar orqali jamoatchilik ishtiroki ta’minlanadi, davlat tomonidan ijtimoiy loyihalarni amalga oshirishda NNTlar faol jalb qilinadi [12].

O‘zbekiston esa bu borada o‘zining tarixiy-madaniy an’analariga asoslangan, biroq zamonaviy vositalarni qo‘llagan gibrid modelni ishlab chiqmoqda. Bosqichma-bosqich islohotlar, mahalliy tajribani xorijiy yondashuvlar bilan uyg‘unlashtirish orqali milliy fuqarolik jamiyati modeli shakllanmoqda.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, O‘zbekistonda fuqarolik jamiyatining shakllanishi mustaqillik davridagi siyosiy va huquqiy islohotlar bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, ushbu jarayon bosqichma-bosqich, uzviy taraqqiyot yo‘li bilan amalga oshdi. Dastlabki bosqichlarda Konstitutsiyada fuqarolarning asosiy huquq va erkinliklari kafolatlangan, nodavlat tashkilotlar, diniy birlashmalar va ommaviy axborot vositalari uchun zarur huquqiy baza yaratilgan bo‘lsa, keyingi yillarda fuqarolik jamiyati institutlari faoliyati qonunchilik orqali mustahkamlanib, ijtimoiy hayotda ularning roli sezilarli darajada ortdi. Xususan, 2017-yildan boshlab “Yangi O‘zbekiston” davri boshlanganidan so‘ng fuqarolik jamiyati institutlarining ahamiyati davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Ochiqlik, hisobdorlik, ijtimoiy sheriklik va raqamli boshqaruv kabi tamoyillar asosida davlat va jamiyat o‘rtasidagi muloqot yangi sifat bosqichiga ko‘tarildi. Interaktiv davlat xizmatlari, jamoatchilik nazorati mexanizmlari, elektron platformalar orqali fuqarolarning boshqaruvdagi ishtiroki kuchaytirildi. Mazkur holatga qaramay, muammolar ham mavjud: ayrim hududlarda fuqarolik ongining sustligi, huquqiy savodxonlikning past darajasi, nodavlat tashkilotlarning barqaror moliyalashtirilmasligi kabi omillar fuqarolik jamiyati rivojiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Bu holatlarning bartaraf etilishi fuqarolik jamiyati institutlarining mustahkamlanishiga va jamiyatda erkinlik, adolat, ijtimoiy mas’uliyat kabi demokratik qadriyatlarning chuqur ildiz otishiga xizmat qiladi.

Xalqaro tajribaga tayanilgan holda aytish mumkinki, O‘zbekiston o‘ziga xos milliy model – tarixiy-madaniy meros, milliy qadriyatlar va zamonaviy

yondashuvlar uyg‘unlashgan fuqarolik jamiyatini barpo etmoqda. Kelgusida ushbu yo‘nalishdagi strategik harakatlar davlat boshqaruvida fuqarolarning real ishtirokini chuqurlashtirish, ijtimoiy faollikni oshirish va mustahkam demokratik jamiyatni qaror toptirishga asos bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. **Aristotel.** Siyosiy asarlar. — Toshkent: Fan, 1990. — B. 115–116.
2. **Monteske Sh.** Qonunlar ruhi to‘g‘risida. — Toshkent: Sharq, 2003. — B. 55–61.
3. **Forobiy A.** Fozil odamlar shahri. — Toshkent: Fan, 1993. — B. 189–195.
4. **Beruniy A. R.** Hindiston. — Toshkent: Fan, 1965. — B. 70–72.
5. **O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.** — Toshkent: O‘zbekiston, 1992. — B. 5–22.
6. **O‘zbekiston Respublikasi.** Nodavlat notijorat tashkilotlari to‘g‘risida: Qonun (1999-yil 14-aprel) // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. — 1999. — № 4. — B. 18–20.
7. **O‘zbekiston Respublikasi.** Nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatining kafolatlari to‘g‘risida: Qonun (2007-yil 3-may) // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. — 2007. — № 19. — B. 13–15.
8. **O‘zbekiston Respublikasi.** Jamoatchilik nazorati to‘g‘risida: Qonun (2014-yil 12-aprel) // Xalq so‘zi gazetasi. — 2014-yil 15-aprel. — B. 2–3.
9. **Mirziyoyev Sh. M.** Yangi O‘zbekiston strategiyasi. — Toshkent: O‘zbekiston, 2021. — B. 34–38.
10. **O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti.** PF–60-sonli Farmon (2022-yil 28-yanvar) [Elektron resurs]. — URL: https://lex.uz
11. **Federal Ministry for Family Affairs.** Guide to Civic Engagement in Germany. — Berlin, 2019. — P. 7–10.
12. **Ministry of the Interior and Safety.** Civil Society Innovation Strategy. — Seoul, 2020. — P. 12–15.

TEATR SAN’ATINING FALSAFIY MOHIYATI: SAHNA VA HAYOT MUNOSABATI

Berdimuratov Ulugbek Polat o’g’li
Mirzo Ulug’bek nomidagi O’zbekiston Milliy universiteti
Qudaybergenova Shaxnoza Reymnazarovna
O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti Nukus filiali

Annotatsiya: *Mazkur maqolada teatr san’atining falsafiy mohiyati va sahna hamda hayot o‘rtasidagi dialektik munosabat tahlil qilinadi. Tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, sahna hayotiy voqealarni bevosita takrorlash bilan cheklanmay, ularni badiiy-falsafiy shaklda talqin qiladi va tomoshabinga inson mavjudligi, ichki ziddiyatlar, erkinlik hamda ijtimoiy jarayonlarni anglash imkonini beradi. Ontologik, ekzistensial va estetik yondashuvlar asosida sahna inson ruhiyati va jamiyat tajribasini aks ettiruvchi muhim makon sifatida namoyon bo‘ladi. Shu bilan birga, zamonaviy teatr jarayonlarida sahna va hayot chegaralarining o‘zgarishi, tomoshabinning faol ishtiroki teatrning falsafiy mohiyatini yanada boyitadi. Ushbu yondashuv teatr san’atini hayotiy haqiqatni anglash va tafakkurini rivojlantirish vositasi sifatida tadqiq etishda ilmiy yangilik kasb etadi.*

Kalit so‘zlar: *Teatr san’ati, teatr falsafasi, sahna va hayot munosabati, estetik tajriba, ekzistensial muammo*

Kirish. Teatr san’ati insoniyat madaniy taraqqiyotining eng qadimiy va murakkab shakllaridan biri bo‘lib, u nafaqat estetik hodisa, balki insonning borliqni anglash, o‘zini va jamiyatni idrok etish vositasi sifatida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Teatr sahnasi hayotiy voqelikni bevosita takrorlash emas, balki uni badiiy-falsafiy jihatdan qayta talqin qilish makonidir. Shu bois teatr san’atini falsafiy nuqtayi nazardan o‘rganish, ayniqsa sahna va hayot o‘rtasidagi munosabatni tahlil qilish zamonaviy gumanitar fanlar oldida turgan dolzarb masalalardan biridir. Bugungi globallashuv va madaniy transformatsiyalar sharoitida teatr san’ati

hayotning murakkab ijtimoiy, axloqiy va ekzistensial muammolarini ifodalashda muhim vositaga aylanmoqda. Sahna orqali insoniy kechinmalar, ziddiyatlar va qadriyatlar umumlashtirilgan holda namoyon bo‘lib, tomoshabinni o‘z hayotiga falsafiy nigoh bilan qarashga undaydi. Shu jihatdan sahna va hayot munosabati teatr san’atining falsafiy mohiyatini belgilovchi asosiy omil hisoblanadi. Mazkur maqolaning maqsadi teatr san’atining falsafiy mohiyatini ochib berish hamda sahna va hayot o‘rtasidagi dialektik munosabatni tahlil qilishdan iborat. Tadqiqot jarayonida falsafiy tahlil, umumlashtirish va qiyosiy yondashuv metodlaridan foydalanildi.

Asosiy qism. Teatr san’ati insoniyat madaniy rivojlanishining eng qadimiy shakllaridan biri bo‘lib, u nafaqat badiiy ifoda vositasi, balki insonning hayotiy tajribasini anglash va tafakkurini rivojlantirish vositasi sifatida ham e’tiborga loyiqdir. Falsafa nuqtai nazaridan teatr, bir tomondan, estetik hodisa sifatida qadrlanadi; ikkinchi tomondan esa insonning borliqni anglash va hayotiy muammolarni idrok etish vositasi sifatida talqin qilinadi. Shu jihatdan teatr san’ati o‘zining mohiyati bo‘yicha nafaqat sahnada sodir bo‘layotgan voqeani taqlid etadi, balki uni badiiy-falsafiy shaklda qayta talqin qilish orqali tomoshabinga chuqur ma’no beradi. Aristotel teatrni mimesis, ya’ni hayotning badiiy taqlidi deb bilgan bo‘lsa[11], Gegel esa teatrni inson ruhiyati va jamiyatning murakkab munosabatlarini ifodalovchi vosita sifatida talqin qilgan. Bu yondashuv teatrni nafaqat badiiy hodisa, balki inson tafakkurining mazmunli namoyon bo‘lishi sifatida qadrlash imkonini beradi. Shu bilan birga teatr sahnasidagi voqealar va obrazlar, inson hayoti va jamiyatdagi hodisalar bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, ularni ramziy va umumlashtirilgan shaklda namoyon qiladi. Shunday qilib, sahna va hayot o‘rtasidagi munosabat teatr san’atining falsafiy mohiyatini aniqlashda markaziy ahamiyatga ega bo‘ladi. Teatr sahnasi va hayot o‘rtasidagi munosabat dialektik xarakterga ega bo‘lib, u ikki tomondan o‘zaro ta’sir qiladi. Bir tomondan, sahna hayotdan oziqlanadi: real voqealar, insoniy munosabatlar, ijtimoiy va madaniy muammolar teatr asarining

mazmunini belgilaydi. Ikkinchi tomondan esa teatr hayotga ta’sir ko‘rsatadi, tomoshabinning dunyoqarashi, axloqiy qarashlari va o‘zini anglash jarayonini shakllantiradi. Bu dialektik jarayon sahna va hayotning uzviy bog‘liqligini ko‘rsatadi va teatr san’atini falsafiy tahlil qilishda asosiy tadqiqiy maydonni tashkil etadi. Falsafiy yondashuvdan qaralganda, sahna hayotni bevosita aks ettirmaydi, balki uni ramziy va umumlashtirilgan shaklda talqin qiladi. Shu orqali teatr kundalik hayotda ko‘zga tashlanmaydigan ma’no va tushunchalarni ochib beradi. Masalan, dramatik voqealar orqali insoniy his-tuyg‘ular, erkinlik va mas’uliyat muammolari, shuningdek, hayotiy ziddiyatlar tomoshabinga yetkaziladi. Bu jihatdan sahna hayotiy voqeani badiiy shaklda qayta yaratish orqali tomoshabinning tafakkurini rivojlantiradi va unga hayotiy tajribani falsafiy nuqtai nazardan anglash imkonini beradi. Ekzistensial falsafa vakillari, xususan Kierkegaard, Sartre va Camus, teatrni inson mavjudligini ochib beruvchi muhim makon sifatida baholaydilar. Sahna insonning erkinligi, tanlovi, ichki ziddiyatlari va mas’uliyatini ifodalovchi makon sifatida namoyon bo‘ladi. Aktyorning tirik tanasi, harakati va ovozi orqali insonning mavjudlik tajribasi bevosita tomoshabinga yetkaziladi. Shu nuqtai nazardan teatr sahnasi hayot bilan raqobatlashmaydi, balki uni chuqurroq anglashga xizmat qiladi. Masalan, tragik sahnalar insonning qiyinchiliklar, yo‘qotishlar va ichki qarama-qarshiliklar bilan yuzlashishini ko‘rsatadi. Bu esa tomoshabinni o‘z hayotidagi qarorlar, erkinlik va mas’uliyatni anglashga undaydi. Shu tarzda teatr sahnasi hayotiy tajribani falsafiy talqin qiladi va insonning o‘z mavjudligini anglashida muhim rol o‘ynaydi. Teatr san’ati estetik tajriba vositasi sifatida ham insonni hayotiy muammolarni anglashga undaydi. Kantning estetik hukmi nuqtai nazaridan, badiiy asar tomoshabinga nafaqat zavq bag‘ishlaydi, balki tafakkur va his-tuyg‘ularni uyg‘otadi.

Teatr esa estetik tajribani jonli va interaktiv shaklda taqdim etadi, chunki tomoshabin sahnada yuz berayotgan voqeani nafaqat kuzatadi, balki uning hissiy va ma’naviy ta’sirini his qiladi. Shu sababli teatr falsafiy nuqtai nazardan ham estetik va epistemologik qiymatga ega bo‘ladi. Zamonaviy teatr jarayonlari sahna va hayot o‘rtasidagi chegaralarni yanada noaniq qiladi. Postdramatik teatr, performans san’ati

va interaktiv sahna shakllari tomoshabinni passiv kuzatuvchidan faol ishtirokchiga aylantiradi. Bu holat teatrning hayot bilan uzviy bog‘liqligini yangi darajada namoyon qiladi. Shu orqali sahna nafaqat voqealarni aks ettirish, balki tomoshabinni hayotiy qarorlar, identitet va ijtimoiy o‘zaro munosabatlarni anglashga undovchi vosita sifatida xizmat qiladi. Masalan, interaktiv performanslarda tomoshabin sahnadagi voqealarning rivojlanishida faol rol o‘ynaydi va o‘z qarashlarini sinab ko‘radi. Bu esa sahna va hayot munosabatining dinamik va dialektik xarakterini yanada kuchaytiradi. Shu tarzda zamonaviy teatr falsafiy va ijtimoiy nuqtai nazardan yangi tafakkur maydonini yaratadi. Teatr san’atining falsafiy mohiyatini o‘rganishda bir nechta asosiy falsafiy yondashuvlar mavjud: Ontologik yondashuv: teatr inson mavjudligi va borliqni anglash vositasi sifatida ko‘riladi. Ekzistensial yondashuv: sahna orqali insonning erkinlik, mas’uliyat va ichki ziddiyatlari ifodalanadi. Estetik-falsafiy yondashuv: teatr tomoshabinga estetik tajriba berish orqali hayotiy voqealarni falsafiy anglash imkonini yaratadi. Ijtimoiy-falsafiy yondashuv: teatr ijtimoiy muammolar, qadriyatlar va jamiyatning o‘zgarishini aks ettiruvchi vosita sifatida xizmat qiladi. Ushbu yondashuvlar birlashib, sahna va hayot o‘rtasidagi murakkab dialektik munosabatni ochib beradi va teatr san’atini falsafiy tahlil qilish uchun ilmiy asos yaratadi. Asosiy qismda ko‘rsatib o‘tilganki, teatr san’ati falsafiy fenomen sifatida nafaqat hayotni aks ettiradi, balki uni badiiy, estetik va ijtimoiy jihatdan talqin qiladi. Sahna va hayot o‘rtasidagi dialektik munosabat teatrni inson mavjudligini anglashda, tafakkur va ijtimoiy ongni rivojlantirishda markaziy vosita sifatida ko‘rsatadi. Shu bilan birga, zamonaviy teatr jarayonlarida sahna va hayot chegaralarining o‘zgarishi, tomoshabinning faolligi va interaktivligi teatr san’atining falsafiy mohiyatini yanada boyitadi.

Xulosa. Mazkur maqolada teatr san’atining falsafiy mohiyati, sahna va hayot o‘rtasidagi murakkab dialektik munosabat tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, sahna hayotiy voqealarni bevosita takrorlash bilan cheklanmay, ularni badiiy va falsafiy shaklda qayta talqin qiladi, tomoshabinga inson mavjudligi, ichki ziddiyatlar, erkinlik va ijtimoiy jarayonlarni anglash imkonini beradi. Ontologik, ekzistensial va estetik yondashuvlar asosida teatr sahnasi inson ruhiyati va jamiyat

tajribasini aks ettiruvchi muhim makon sifatida namoyon bo‘ladi. Shu bilan birga, zamonaviy teatr jarayonlarida sahna va hayot chegaralarining o‘zgarishi, tomoshabinning faol ishtiroki va interaktiv tajribasi teatrning falsafiy mohiyatini yanada boyitadi. Ushbu yondashuv teatr san’atini nafaqat estetik hodisa, balki hayotiy haqiqatni anglash, inson tafakkurini rivojlantirish va ijtimoiy ongni shakllantirish vositasi sifatida tadqiq etishda ilmiy yangilik kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. **Aristotle.** *Poetics* / trans. by S. H. Butcher. — New York: Hill and Wang, 1997.
2. **Hegel G. W. F.** *Aesthetics: Lectures on Fine Art*. — Oxford: Clarendon Press, 1975.
3. **Heidegger M.** *The Question Concerning Technology and Other Essays*. — New York: Harper & Row, 1977.
4. **Merleau-Ponty M.** *Phenomenology of Perception*. — London: Routledge, 1962.
5. **Kierkegaard S.** *The Concept of Anxiety*. — Princeton: Princeton University Press, 1980.
6. **Sartre J.-P.** *Being and Nothingness*. — New York: Washington Square Press, 1993.
7. **Camus A.** *The Myth of Sisyphus*. — London: Penguin, 2005.
8. **Gadamer H.-G.** *Truth and Method*. — New York: Crossroad, 1989.
9. **Ricoeur P.** *Interpretation Theory: Discourse and the Surplus of Meaning*. — Fort Worth: Texas Christian University Press, 1976.
10. **Brecht B.** *Brecht on Theatre: The Development of an Aesthetic*. — London: Methuen, 1992.

O‘ZBEK OLIMINING ORGANIK BIRIKMALAR TUZILISH NAZARIYASIGA QO‘SHGAN OLAMSHUMUL KATTA HISSASI

Egamberdiyeva Muqaddas

Yangiyo‘l tuman politexnikumi

Annotatsiya .*Mazkur maqolada organik birikmalar xossalarini tushuntirishda kimyoviy tuzilish nazariyasining shakllanish va rivojlanish bosqichlari yoritilgan. XIX asrda A. M. Butlerov tomonidan asos solingan kimyoviy tuzilish nazariyasidan boshlab, fazoviy va elektron tuzilish nazariyalarigacha bo‘lgan ilmiy qarashlar tahlil qilingan. Shuningdek, organik birikmalar xossalarining nafaqat ichki tuzilish omillari, balki tashqi muhit va sharoitga ham bog‘liqligini e’tirof etuvchi zamonaviy yondashuv ko‘rib chiqilgan. O‘zbekiston Milliy universiteti professori X. S. Tojimuxammedov tomonidan taklif etilgan yangi ta’rifning ilmiy ahamiyati, uning nazariy va amaliy jihatdan asoslanganligi hamda organik kimyo fanining keyingi rivojlanishidagi o‘rni yoritib berilgan.*

Kalit so‘zlar :*Organik birikmalar, kimyoviy tuzilish nazariyasi, izomeriya, fazoviy tuzilish, elektron tuzilish, muhit va sharoit, X. S. Tojimuxammedov.*

Kirish

Organik birikmalar va ularning xossalarini o‘rganish kimyo fanining asosiy va ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Organik moddalarning son jihatdan ko‘pligi, tuzilishining murakkabligi va xossalarining xilma-xilligi ularni tushuntirib beruvchi ilmiy nazariyalar rivojlanishini taqozo etadi. XIX asrdan boshlab kimyoviy tuzilish, fazoviy va elektron tuzilish nazariyalarining shakllanishi organik birikmalar tabiatini chuqur anglash imkonini berdi.So‘nggi yillarda organik birikmalar xossalarining tashqi muhit va sharoitga bog‘liqligi ham muhim omil sifatida qaralmoqda. Ushbu maqolada organik kimyo nazariyasining tarixiy rivoji hamda

o‘zbek olimi X. S. Tojimuxammedov tomonidan taklif etilgan zamonaviy yondashuvning ilmiy ahamiyati yoritiladi.

Organik birikmalar va ularning tarkibi hamda xossalarini o‘rganish azal-azaldan kimyo fanining eng qiziqarli, dolzarb va muhim masalalaridan biri bo‘lib kelmoqda. Har yili millionlab yangi, hatto oldindan belgilangan xossalarga ega bo‘lgan moddalar sintez qilinmoqda. Xususan, 1999 yilda fanga ma’lum bo‘lgan 25 million kimyoviy moddaning 500 mingdan ortig‘i anorganik moddalar bo‘lib, qolgan qismi organik birikmalarni tashkil etgan. Kimyo fanining rivojlanishi natijasida 2014 yilda kimyoviy moddalar soni 87 millionga, 2018 yilda 141 millionga, 2022 yilda esa 204 millionga yetdi. Shundan 700 mingga yaqini anorganik moddalar bo‘lib, qolgan qismi organik moddalar hisoblanadi. Organik birikmalar sonining ko‘pligi, xilma-xilligi va g‘aroyib xususiyatlari insoniyatni hayratga solib kelmoqda.XIX asrning o‘rtalariga kelib organik birikmalarning xossalari, tarkibi va tuzilishini tushuntirib beruvchi nazariyaga ehtiyoj tug‘ildi. Shu davrgacha A. Lavuazye, Yu. Libix, J. Dyuma, N. Zinin va boshqa olimlarning olib borgan tajribalari va natijalari, E. Franklend tomonidan valentlik tushunchasining kiritilishi hamda A. Kekule tomonidan organik moddalarda uglerod atomining to‘rt valentli ekanligi va uglerod atomlarining o‘zaro bog‘lanish qobiliyati isbotlandi. Ushbu ilmiy asoslar negizida 1861 yilda rus olimi A. M. Butlerov moddalar kimyoviy tuzilishi nazariyasining asosiy tushunchalarini shakllantirdi va organik kimyoda birikmalar tabiatiga berilgan birinchi ilmiy ta’rif — tuzilish nazariyasini yaratdi. Ushbu ta’rifda birikma xossasiga ta’sir etuvchi ikki asosiy omil — tarkib va kimyoviy tuzilish ko‘rsatib berilgan.

A. M. Butlerov tomonidan organik birikmalar xossalariga berilgan ta’rif quyidagicha ifodalangan:“Murakkab zarrachaning kimyoviy tabiatini uning tarkibiga kiruvchi elementlar zarrachalarining tabiati, ularning miqdori va kimyoviy tuzilishi belgilaydi”. Ushbu ta’rif 1861 yil 19 sentyabrda Germaniyaning Shpeyer shahrida o‘tkazilgan nemis vrachlari va tabiatshunoslari syezdi yig‘ilishida taqdim etilgan bo‘lib, u A. M. Butlerovning kimyoviy tuzilish nazariyasi deb nom olgan.

ma’naviyatda aqlning o‘rni masalasini sust emas, balki ko‘tarinki, umidvorlik ruhini saqlab qolish zarurdir. Buning uchun muayyan asoslar yo‘q emas. Bu asoslar, bizningcha, avvalo, hozirgi davr olimlari va faylasuflaridan katta qismi fan texnika taraqqiyoti yutuqlarigagina tayanish insoniyatni boshi berk ko‘chaga olib kirib qo‘yganini, shuning uchun insoniyat tafakkurini ham “ekologiyalashtirish”, reallikni ayrim-ayrim emas, balki yaxlit bilish zarurligini, tabiiy fanlar taraqqiyoti reallikni tushunishda cheklanishga olib kelganini, insoniylik va axloqiylik tamoyillari taraqqiyotiga e’tiborni kuchaytirish zarurligi kabi g‘oyalarni tobora keskinroq oldinga surayotganlarida ko‘rinadi.

3. Sun’iy intellekt texnologiyalarini ishlab chiqish va ulardan foydalanish bilan bog‘liq ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishning yaxlit tizimini yaratish maqsadga muvofiqdir.

4. Sun’iy intellekt vositalari imkoniyatlari bilan bog‘liq bo‘lgan ilmiy yangiliklardan keng aholi qatlamlarini doimiy xabardor qilib borish mexanizmlarini yaratish bugungi ilm-fanning actual paradigmasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. **Тураев Б. О.** Фалсафа тарихининг қисқача баёни // Имом ал-Бухорий сабоқлари. — Самарқанд, 2010. — № 2.

2. **Тураев Б. О.** Олам // Фалсафа: қисқача изоҳли луғат. — Тошкент: Шарқ, 2004. — Б. 136.

3. **Тураев Б. О.** Танланган асарлар. — 1-том. — Тошкент: Наврўз нашриёти, 2015. — Б. 352.

4. **Тураев Б. О.** Танланган асарлар. — 2-том. — Тошкент: Наврўз нашриёти, 2015. — Б. 368.

5. **Mustafayev J. Sh.** Tabiiy intellekt va shaxsiyat masalasi: psixofiziologik va sinergetik tahlil // Tamaddun nuri / The Light of Civilization. — 2025. — № 10 (73). — Nukus. — DOI: 10.69691.

6. **Mustafayev J. Sh.** Progressive-ontogonistic properties of artificial and natural intelligence // Sciental Journal of Education Humanities and Social Sciences. — 2025. — Vol. 3. — P. 40–46. — URL: https://www.scientaljournals.com/index.php/SJEHSS/index

7. **Mustafayev J. Sh.** Artificial Intelligence and Social Life Determinism // Open Academia: Journal of Scholarly Research. — 2025. — Vol. 3. — Iss. 10. — P. 11–16. — URL: https://academiaone.org/index.php/4

8. **Mustafayev J. Sh.** Shaxs aql-idroki va sun’iy intellekt dialektikasi // Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universitetining axborotnomasi. — 2025. — № 2 (69).

9. **Mustafayev J. Sh.** International experiences of cross-sectoral human resource management and informal employment in the conditions of Uzbekistan // Modern American Journal of Social Sciences and Humanities. — 2025. — Vol. 1. — Iss. 2. — URL: www.usajournals.org

10. **Mustafayev J. Sh.** Artificial intelligence and human thinking // Sciental Journal of Education Humanities and Social Sciences. — 2025. — P. 82–87. — URL: https://scientaljournals.com/index.php/SJEHSS/index

11. **Mustafayev J. Sh.** HUMAN: Philosophy of natural and artificial intelligence // Web of Humanities: Journal of Social Science and Humanitarian Research. — 2025. — No. 3(4). — P. 94–98. — URL: https://webofjournals.com/index.php/9/article/view/3941

12. **Mustafayev J. Sh.** Genesis, evolution and significance of artificial intelligence in social life // Western European Journal of Historical Events and Social Science. — 2025. — Vol. 3. — Iss. 4. — URL: https://westerneuropeanstudies.com/index.php/4

13. **Хайдаров М.** Синергетика ва фалсафа. — Тошкент: Fan, 2020.

14. **Karimov A.** Sinergetik yondashuv va murakkab tizimlarni boshqarishning falsafiy asoslari // Falsafa va huquq. — 2023. — № 1 (3). — P. 22–34.

15. **Kurzweil R.** The Age of Intelligent Machines. — Cambridge, MA: MIT Press, 1990.

16. **Mitchell M.** Artificial Intelligence: A Guide for Thinking Humans. — New York: Farrar, Straus and Giroux, 2019.

TARIX FANIDA INNOVATSION METODLAR: FANLARARO TADQIQOTLAR ASOSIDA YANGI ILMIY YONDASHUVLAR

Qo’chqorov Axror Abror o’g’li

Toshkent Iqtisodiyot va Texnologiyalari Universiteti

Annotatsiya. *Mazkur maqolada tarix fanida innovatsion metodlarning shakllanishi, rivojlanishi va ularning fanlararo tadqiqotlar doirasidagi o‘rni ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Zamonaviy ilm-fan taraqqiyoti sharoitida tarix fanining an’anaviy tadqiqot usullari bilan cheklanib qolmasdan, falsafa, sotsiologiya, iqtisodiyot, pedagogika, axborot texnologiyalari kabi fanlar bilan integratsiyalashuvi ilmiy izlanishlar samaradorligini oshiruvchi muhim omil sifatida namoyon bo‘lmoqda. Maqolada tarixiy tadqiqotlarda tizimli tahlil, komparativ metod, modellashtirish, raqamli tarix va vizualizatsiya usullarining nazariy asoslari ochib berilib, ularning amaliy ahamiyati yoritiladi.*

Kalit so‘zlar: *tarix fani, innovatsion metodlar, fanlararo tadqiqotlar, ilm-fan integratsiyasi, raqamli tarix, zamonaviy metodologiya, tarixiy tafakkur.*

XXI asr ilm-fan taraqqiyoti fanlararo integratsiya, innovatsion yondashuvlar va ilmiy tadqiqotlarning amaliy yo‘naltirilganligi bilan tavsiflanadi. Bu jarayon tarix

fanining rivojlanishida ham o‘z aksini topmoqda. An’anaviy tarixshunoslik uslublari muhim ahamiyatga ega bo‘lsa-da, zamonaviy ijtimoiy jarayonlarni to‘laqonli tushuntirib berish uchun ularni yangicha metodologik yondashuvlar bilan boyitish zarurati yuzaga kelmoqda[1]. Tarix fanining boshqa ijtimoiy-gumanitar fanlar bilan integratsiyalashuvi ilmiy tafakkurning kengayishiga, tarixiy voqelikni chuqurroq anglashga xizmat qiladi. Fanlararo tadqiqotlar tarix fanini faqat o‘tmishni o‘rganish vositasi emas, balki jamiyatning hozirgi va kelajak rivojini anglashda muhim ilmiy manbaga aylantiradi.[14]

Tarix fanida innovatsion metodlar tushunchasi va mohiyati. Innovatsion metodlar tarix fanida yangi ilmiy yondashuvlar, zamonaviy texnologiyalar va ko‘p tarmoqli metodologik vositalardan foydalanishni anglatadi. Bu metodlar tarixiy faktlarni oddiy bayon etishdan tashqari, ularni tahlil qilish, tizimlashtirish va nazariy umumlashtirish imkonini beradi[15]. **Tarix fanida innovatsion metodlarning asosiy jihatlari quyidagilardan iborat:**

tarixiy jarayonlarni tizimli va kompleks tahlil qilish;

tarixiy voqelikni modellashtirish;

statistik va empirik ma’lumotlardan foydalanish;

tarixiy manbalarni raqamlashtirish va vizualizatsiya qilish.

Mazkur metodlar tarixiy bilimlarni zamonaviy ilm-fan talablariga mos ravishda rivojlantirish imkonini yaratadi. Fanlararo tadqiqotlarning tarix fanidagi metodologik ahamiyati .Fanlararo tadqiqotlar tarix fanining ilmiy imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytiradi. Tarixiy jarayonlar ko‘p omilli bo‘lib, ularni faqat tarixiy manbalar asosida izohlash yetarli emas. Shu bois tarix fanida falsafa,

[14] Toshpo‘latov D. **Tarix fanining metodologiyasi.** – Toshkent: Fan, 2018. – 45–60-betlar.
[15] Karimov I.A. **Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch.** – Toshkent: Ma’naviyat, 2008. – 98–110-betlar.

sotsiologiya, iqtisodiyot va siyosatshunoslik yutuqlaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Masalan, falsafiy yondashuv tarixiy tafakkur va tarixiy bilishning metodologik asoslarini belgilasa, sotsiologiya ijtimoiy tuzilmalar va ommaviy jarayonlarni tahlil qilish imkonini beradi. Iqtisodiyot esa tarixiy taraqqiyotning moddiy asoslarini ochib berishga xizmat qiladi.

Raqamli tarix va zamonaviy axborot texnologiyalari. Raqamli texnologiyalar tarix fanida innovatsion metodlarning muhim tarkibiy qismiga aylandi. Arxiv hujjatlarini elektron shaklga o‘tkazish, tarixiy ma’lumotlar bazalarini yaratish va GIS texnologiyalaridan foydalanish tarixiy tadqiqotlarning sifatini oshirmoqda.[16]

Raqamli tarix quyidagi imkoniyatlarni yaratadi:

tarixiy manbalarni keng miqyosda tahlil qilish;

tarixiy jarayonlarni grafik va vizual shaklda ifodalash;

ilmiy tadqiqotlarning ochiqligi va shaffofligini ta’minlash. Bu jarayon fundamental tarixiy tadqiqotlar bilan amaliy ilmiy natijalar o‘rtasidagi bog‘liqlikni mustahkamlaydi.

Tarix fanida komparativ va modellashtirish metodlari. Komparativ metod tarixiy jarayonlarni turli hududlar va davrlar kesimida taqqoslash imkonini beradi. Bu metod tarixiy taraqqiyot qonuniyatlarini aniqlashda muhim ahamiyatga ega.[17] Modellashtirish esa tarixiy voqelikni nazariy model asosida tahlil qilish imkonini yaratadi. Ushbu metodlar tarix fanida ilmiy umumlashtirish darajasini oshirib, tarixiy xulosalarning aniqligini ta’minlaydi.

[16] Burke P. **History and Social Theory.** – Cambridge: Polity Press, 2005. – pp. 65–90.

[17] Toshmurodova M. **Tarix ta’limida innovatsion yondashuvlar.** – Toshkent: O‘qituvchi, 2020. – 75–100-betlar.

Innovatsion metodlarning tarixiy ta’limdagi o‘rni. Tarix fanida innovatsion metodlarning ta’lim jarayoniga joriy etilishi talabalarning tanqidiy fikrlashini rivojlantiradi. Fanlararo yondashuv asosida tashkil etilgan ta’lim tarix fanini amaliy jihatdan muhim bilim manbaiga aylantiradi. Interfaol metodlar, loyihaviy ta’lim va raqamli resurslardan foydalanish tarixiy bilimlarni chuqurroq o‘zlashtirishga xizmat qiladi.

Tarixiy tadqiqotlarda innovatsion yondashuvlarning amaliy ahamiyati. Innovatsion metodlar tarixiy tadqiqotlarni jamiyat ehtiyojlariga yo‘naltirish imkonini beradi. Tarixiy tajribani chuqur tahlil qilish orqali ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqish mumkin.[18] **Tarix fanining amaliy ahamiyati:** davlat siyosatini shakllantirishda; madaniy merosni muhofaza qilishda; milliy o‘zlikni anglashda namoyon bo‘ladi.

Xulosa qilib aytganda, tarix fanida innovatsion metodlarning fanlararo tadqiqotlar asosida rivojlanishi zamonaviy ilm-fan taraqqiyotining muhim yo‘nalishidir. Tarix fanining boshqa ijtimoiy-gumanitar fanlar bilan integratsiyasi ilmiy izlanishlarning samaradorligini oshirib, fundamental nazariya bilan amaliy tadqiqotlar o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni ta’minlaydi. Bu esa tarix fanining jamiyat va real sektor ehtiyojlariga xizmat qilish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. **Toshpo‘latov D.** Tarix fanining metodologiyasi. – Toshkent: Fan, 2018. – B. 45–60.
2. **Karimov I. A.** Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008. – B. 98–110.
3. **Burke P.** History and Social Theory. – Cambridge: Polity Press, 2005. – P. 65–90.

[18] Toshkent davlat universiteti. **Tarix fanida raqamli texnologiyalar.** – Toshkent, 2021. – 50–70-betlar.

4. **Toshmurodova M.** Tarix ta’limida innovatsion yondashuvlar. – Toshkent: O‘qituvchi, 2020. – B. 75–100.
5. Toshkent davlat universiteti. Tarix fanida raqamli texnologiyalar. – Toshkent, 2021. – B. 50–70.

YANGI O‘ZBEKISTON TARAQQIYOT STRATEGIYASINING MA’NAVIY VA FALSAFIY ASOSLARI

Qurolboyeva Maftuna Olimjon qizi
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Annotatsiya. *Maqolada O‘zbekiston Respublikasining taraqqiyot strategiyasining falsafiy mohiyati, uning ma’naviy ildizlari va inson omiliga asoslangan konseptual yo‘nalishlari tahlil etiladi. “Yangi O‘zbekiston” g‘oyasining ma’naviy-falsafiy mazmuni, qadriyatlar tizimi hamda milliy tafakkur va modernizatsiya o‘rtasidagi uyg‘unlik haqida so‘z yuritiladi.*

Kalit so‘zlar: *Yangi O‘zbekiston, falsafa, ma’naviyat, inson qadri, modernizatsiya, taraqqiyot strategiyasi, qadriyat.*

Аннотация

В статье анализируется философская сущность стратегии развития Республики Узбекистан, её духовные корни и концептуальные направления, основанные на человеческом факторе. Рассматривается духовно-философское содержание идеи «Новый Узбекистан», система ценностей, а также гармония между национальным мышлением и модернизацией.

Ключевые слова: Новый Узбекистан, философия, духовность, ценность человека, модернизация, стратегия развития, ценности.

Annotation

The article analyzes the philosophical essence of the Development Strategy of the Republic of Uzbekistan, its spiritual roots, and conceptual directions based on the human factor. It discusses the spiritual and philosophical content of the “New Uzbekistan” idea, the system of values, and the harmony between national thinking and modernization.

Keywords: New Uzbekistan, philosophy, spirituality, human value, modernization, development strategy, values.

KIRISH

O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, jamiyat taraqqiyotini falsafiy va ma’naviy asosda yo‘lga qo‘yish zarurati yuzaga keldi. Bugungi kunda “Yangi O‘zbekiston – yangicha tafakkur va yangicha hayot” tamoyili nafaqat siyosiy, balki falsafiy jarayonga ham aylandi. Chunki taraqqiyot har doim inson tafakkuri va qadriyatlar tizimiga tayanadi [19]. Davlat rahbari Sh.M. Mirziyoyevning so‘zlari bilan aytganda: “Islohotlarning markazida inson tursa, bu islohotlar albatta samarali bo‘ladi” [20]. Shu bois, taraqqiyot strategiyasi mohiyat e’tibori bilan insonparvarlik, ma’naviy uyg‘onish va adolat g‘oyalari uyg‘unligidan iborat.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Taraqqiyot strategiyasi – bu jamiyatni har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan amaliy dastur bo‘lish bilan birga, uning falsafiy poydevorini ham ifodalaydi [21]. Uning asosida inson tafakkurining yuksalishi, axloqiy va ma’naviy qadriyatlarning ustuvorligi yotadi. Hozirgi strategiyada asosiy falsafiy tamoyillar sifatida quyidagilarni ajratish mumkin:

Inson qadri falsafasi – barcha islohotlar markazida inson manfaatlari; Adolat g‘oyasi – teng imkoniyat va ijtimoiy mas’uliyat uyg‘unligi; Rivojlanish dialektikasi – jamiyat doimiy o‘zgarish va yangilanishda; Ma’naviy uyg‘onish – milliy qadriyatlar asosida modernizatsiya.

[19] G‘ofurov, A. Falsafa va milliy taraqqiyot g‘oyalari. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2019. — 212 b.

[20] Mirziyoyev, Sh. M. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. — Toshkent: O‘zbekiston, 2022. — 368 b.

[21] Hasanov, B. Falsafiy tafakkur va zamonaviy jamiyat. — Samarqand: SamDU nashriyoti, 2018. — 185 b.

Bu tamoyillar milliy falsafaning tarixiy ildizlaridan oziqlanadi, chunki Sharq tafakkuri har doim inson va jamiyat o‘rtasidagi muvozanatni saqlashga intilgan [22]. O‘zbekiston taraqqiyotining zamonaviy modeli “Inson qadri uchun” konsepsiyasiga asoslanadi [23]. Insonni shunchaki iqtisodiy resurs emas, balki ma’naviy mavjudot sifatida ko‘rish bu strategiyaning falsafiy yutug‘idir. Inson qadri deganda faqat moddiy farovonlik emas, balki tafakkur, huquqiy madaniyat, erkin fikrlash, ijtimoiy faollik kabi fazilatlar ham tushuniladi [24]. Shu jihatdan, strategiya “faylasuf davlat” g‘oyasiga yaqin, ya’ni qarorlar inson ongining o‘sishiga xizmat qilishi kerak. Hozirgi zamon falsafasida eng dolzarb masalalardan biri – milliy qadriyatlar va global modernizatsiya o‘rtasidagi uyg‘unlikdir. O‘zbekiston tajribasida bu uyg‘unlik o‘ziga xos ko‘rinishda namoyon bo‘lmoqda. Sharq falsafasiga xos muvozanat tamoyili orqali jamiyat yangilanmoqda: bir tomondan, innovatsiyalar, raqamli texnologiyalar, ilm-fan; ikkinchi tomondan, milliy g‘urur, tarixiy xotira va ma’naviyat saqlanmoqda [25]. Bu jarayon “Uchinchi Renessans” poydevorini shakllantirishga xizmat qilmoqda. Chunki har bir uyg‘onish, avvalo, falsafiy uyg‘onishdan boshlanadi [26]. “Yangi O‘zbekiston” g‘oyasi tasodifiy siyosiy shior emas, balki tarixiy-falsafiy zaruratdir. Uning falsafiy ildizlari qadim Sharq tafakkurida, Forobiy, Beruniy, Ibn Sino va Navoiyning asarlarida mujassamdir [27]. Masalan, Forobiy “fazilatli shahar” tushunchasini ilgari surgan edi – bu tushuncha bugungi zamonaviy O‘zbekiston konsepsiyasi bilan ma’lum ma’noda uyg‘un: adolat, ilm, insonparvarlik. Shuningdek, Navoiyning “Komil inson” g‘oyasi strategiyaning falsafiy asosida yotadi, chunki taraqqiyotning o‘lchovi – insonning o‘zini anglash darajasidir [28]. Kelajakda O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi quyidagi

[22] Jo‘rayev, U. O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasining falsafiy asoslari. // “Falsafa va jamiyat” jurnali. — 2020. — №2. — B. 41–49.

[23] Abdurahmonov, X. Zamonaviy falsafaning ijtimoiy mohiyati va qadriyatlar tizimi. — Toshkent: Iqtisod-moliya, 2021. — 196 b.

[24] Karimov, I. A. Yuksak ma’naviyat — yengilmas kuch. — Toshkent: Ma’naviyat, 2008. — 176 b.

[25] Xolmurodov, R. Taraqqiyot strategiyasi va falsafiy tafakkur uyg‘unligi. // “Falsafa va huquq” jurnali. — 2023. — №1. — B. 58–64.

[26] Jo‘rayev, U. Milliy o‘zlik va modernizatsiya falsafasi. — Toshkent: Fan, 2020. — 204 b.

[27] Al-Farobiy. Fozil odamlar shahri. — Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 1993. — 240 b.

[28] Navoiy, A. Mahbub ul-qulub. — Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 2006. — 312 b.

falsafiy yo‘nalishlar asosida rivojlanadi: Ekologik tafakkur – tabiat va inson uyg‘unligini saqlash; Axborot madaniyati – sun’iy intellektning axloqiy nazoratini ta’minlash; Ijtimoiy ongni yuksaltirish – tanqidiy fikrlash, bag‘rikenglik va hamjihatlikni rivojlantirish [29]. Bu yo‘nalishlar strategiyani faqat amaliy dastur emas, balki falsafiy konsepsiyaga aylantiradi.

XULOSA

O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi o‘z mohiyatiga ko‘ra falsafaning amaliy shaklidir. Uning markazida inson qadri, ma’naviyat va tafakkur yotadi. “Yangi O‘zbekiston” g‘oyasi milliy o‘zlikni saqlagan holda, global tafakkur sari yo‘l ochmoqda. Shu jihatdan, strategiya – bu hozirgi zamon falsafasining amaliy ifodasi, insoniyatning yangi bosqichdagi uyg‘onish yo‘lidir.

Foydalinilgan adabiyotlar

1. **G‘ofurov A.** Zamonaviy falsafa va global muammolar. — Toshkent: **Fan**, 2019.
2. **Mirziyoyev Sh. M.** Yangi O‘zbekiston strategiyasi. — Toshkent: **O‘zbekiston**, 2022.
3. **Karimov I. A.** Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. — Toshkent: **Ma’naviyat**, 2008.
4. **Al-Farobiy.** Fozil shahar ahli haqida risola. — Toshkent: **Fan**, 1993.
5. **Ibn Sino.** Donishnoma. — Toshkent: **Sharq**, 1980.
6. **Navoiy A.** Mahbub ul-qulub. — Toshkent: **G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot**, 2006.
7. **Hasanov B.** Falsafa va ijtimoiy tafakkur tarixi. — Toshkent: **Universitet**, 2018.
8. **Jo‘rayev U.** Ma’naviyat falsafasi. — Toshkent: **Akademnashr**, 2020.
9. **Abdurahmonov X.** Inson qadri va taraqqiyot g‘oyasi. — Toshkent: **Iqtisodiyot**, 2021.

[29] G‘ofurov, A. Inson va jamiyat falsafasi. — Toshkent: Yangi asr avlodi, 2019. — 187 b.

10. **O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti.** O‘zbekiston Respublikasining 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida: PF-60-son Farmon.
11. **Xolmurodov R.** Axborot falsafasi va jamiyat. — Toshkent: **Fan**, 2023.
12. **Lex.uz.** Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. — URL: https://www.lex.uz
13. **Gov.uz.** O‘zbekiston Respublikasi Hukumat portali. — URL: https://www.gov.uz

XIX ASRDA GERMANIYA VA USMONLI IMPERIYASI O‘RTASIDAGI HARBIY-TASHKILIY MUNOSABATLARNING SIVILIZATSION TAHLILI

Raximova Iroda Xalimovna
O‘zbekiston Milliy Universiteti

Annotatsiya. Mazkur maqolada XIX asrda Germaniya (Prussiya) va Usmonli imperiyasi o‘rtasidagi harbiy-tashkiliy hamkorlikning shakllanishi, rivojlanishi va mazmuni tahlil qilinadi. Usmonli davlatining harbiy islohotlarga ehtiyoji, Germaniyaning Sharqdagi geosiyosiy manfaatlari, shuningdek prussiyalik harbiy mutaxassislarning ta’lim va armiyani qayta tashkil etish jarayonidagi o‘rni yoritiladi. Tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, Germaniya XIX asrda Usmonli armiyasining modernizatsiyasida asosiy tashqi hamkorlardan biriga aylangan va uning harbiy boshqaruv tizimi hamda strategik tayyorgarligiga sezilarli ta’sir ko‘rsatgan.

Kalit so‘zlar: Germaniya; Usmonli imperiyasi; harbiy islohotlar; prussiyalik maslahatchilar; harbiy ta’lim; XIX asr; harbiy hamkorlik; xalqaro munosabatlar.

Kirish qismi: XIX asrda Usmonli imperiyasi ichki siyosiy beqarorlik, iqtisodiy inqiroz va harbiy tizimdagi orqada qolish tufayli keng ko‘lamli islohotlarga muhtoj

edi. Ana shunday sharoitda Germaniya (Prussiya) bilan harbiy hamkorlik imperiya rahbariyati uchun eng maqbul yo‘nalishlardan biri bo‘lib qoldi. Germaniya o‘z navbatida Sharqdagi siyosiy va iqtisodiy mavqeini mustahkamlashga intilar, Usmonli imperiyasini geostrategik hamkor sifatida ko‘rardi. Shu bois ikki davlat o‘rtasida harbiy-tashkiliy aloqalar izchil rivojlanib bordi.

XIX asrning o‘rtalarida Usmonli sultonlari prussiyalik harbiy maslahatchilarni taklif eta boshladilar. Shulardan eng mashhuri — general Helmut fon Moltke bo‘lib, u 1835–1839 yillarda Usmonli armiyasida xizmat qilib, harbiy xaritalash, qo‘mondonlik tuzilmalari va artilleriya bo‘yicha muhim tavsiyalar berdi. Moltkening kundaliklari va hisobotlari Usmonli armiyasining ahvoli haqida juda muhim manbadir.

Asosiy qism: Ma’lumki, Usmonli imperiyasida modernizatsiya siyosatini amalga oshirishda armiya eng muhim institutlardan biri bo‘lgan. Selim IIIning iltimosiga binoan, prussiyalik polkovnik fon Goetze turk artilleriya bo‘linmalarining holatini sinovdan o‘tkazdi. Mahmud II esa Kapıkulu qo‘shinlarini tugatib, zamonaviy armiya tuzishni maqsad qilgan holda Prussiyaga murojaat qilgan edi. Har ikki hukmdor o‘z davrida prussiya armiyasini namunaviy model sifatida qabul qilib, zamonaviy harbiy tuzilma yaratishga harakat qildi.

Selim III va Mahmud II ning hukmronlik yillari mos ravishda 1789 va 1839 yillarga to‘g‘ri keladi. Bu davr Kichik Qaynarja (Küçük Kaynarca) shartnomasidan keyingi harbiy muvaffaqiyatsizliklar, Napoleonning Misr yurishi (1789–1802), Rossiya tomonidan Usmonli flotining Navarin jangida yo‘q qilinishi (1827), yunon qo‘zg‘oloni (1821–1828) va Mehmed Ali posho qo‘zg‘oloni (1831–1841) kabi voqealarni o‘z ichiga oladi [45].

Mazkur davrda Usmonli imperiyasi nafaqat Rossiya kabi yirik davlatni yengish, balki o‘zining chegara viloyatlaridagi qo‘zg‘olonlarni ham bostira olmay qoldi. Shu sababli Usmonli davlati Prussiyadan harbiy delegatsiya yuborishni so‘radi. 1836 yilda Prussiya general Moltke boshchiligida uch nafar kapitan ishtirok etgan harbiy missiyani Istanbulga yubordi. Biroq ko‘rsatilgan bu harbiy yordam kutilgan natijani bermadi.

Aslida, XVIII asrning ikkinchi yarmidan boshlab Usmonli imperiyasi harbiy islohotlarni amalga oshirish uchun Yevropadan harbiy mutaxassislar chaqira boshladi. Navarin voqeasiga qadar bu mutaxassislar, odatda, Fransiyadan kelardi. Biroq Fransiyaning yunonlar masalasida tutgan pozitsiyasi va Jazoirni bosib olishi munosabati bilan prussiyalik ofitserlar fransiyalik ekspertlarni almashtira boshladilar.

Krim urushi (1853–1856)dan keyin Usmonli–Fransiya munosabatlari yaxshilangach, fransuz harbiy missiyasi yana osmonli ofitserlarini o‘qitish uchun yuborildi. Fransiyaning Osmonli armiyasiga ta’siri 1870 yilda Fransiyaning Prussiyadan mag‘lubiyatga uchrashiga qadar davom etdi.[1,40]

1877–1878 yillardagi Rossiya–Turkiya urushi Usmonli imperiyasining mag‘lubiyati bilan yakunlangach, usmonli byurokratiyasi armiyani qayta tuzish zarurligini yana bir bor ta’kidladi. Biroq ushbu urush davomida Bolqon va Sharqiy Anatoliyada rus armiyasiga kuchli qarshilik ko‘rsatildi, natijada rus qo‘shinlari Usmonli poytaxti yoki Anatoliyaning ichki hududlariga kirib borolmadi.

Buning asosiy sababi usmonli armiyasining o‘sha davr sharoitlari uchun yetarlicha tayyorgarlikka ega bo‘lgan ofitserlar tomonidan muvaffaqiyatli boshqarilgani yoki harbiy logistikaning to‘liq ta’minlangani emas edi; aksincha, osmonli askarlarining shaxsiy jangovar jasorati va kurbanlikka tayyorligi, shuningdek mamlakatning transport tarmog‘ining bosqinni sekinlashtirish qobiliyati muhim rol o‘ynadi.[1,156]

Berlin kongressidan keyin german harbiy mutaxassislari samarali va uzluksiz ravishda Usmoniy imperiyasiga kela boshladilar.[2,87] Shu tariqa, Germaniya imperializmining Usmoniy imperiyasiga kirib borishi yanada jadallashdi. Bu davr Usmoniy imperiyasining armiyani isloh qilish siyosatidagi o‘zgarishlarni ham anglatadi. Chunki kongressgacha bo‘lgan davrda, 1849 yilda Usmoniy imperiyasiga kelgan polyak va vengr qochqinlari misolidagi kabi islomni qabul qilgan ofitserlar yordamida osman armiyasini isloh qilishga urinishlar qilingan bo‘lsa, kongressidan keyingi davrda Germaniya General shtabi strategiyasi to‘g‘ridan-to‘g‘ri General

shtab tomonidan tayinlangan ofitserlar va harbiy texnologiyalar bilan uyg‘unlashtirila boshladi.

Usmoniy imperiyasining bunday yondashuvi, Germaniyaning Birinchi jahon urushida o‘z samaradorligini ko‘rsata oladigan, sadoqatli, itoatkor va chidamli harbiy ittifoqchiga bo‘lgan ehtiyojiga to‘liq mos kelardi. Shu bilan birga, bu yondashuv Germaniya harbiy sanoati uchun ham foydali edi, chunki u o‘z mahsulotlari uchun yangi bozor izlardi.[3,66]

Sulton Abdulhamidning so‘rovi asosida, nemis elchisi fon Xatsfeld orqali 1880-yil may oyida fuqarolik va harbiy mutaxassislarni yuborish so‘raldi. Natijada, 1882-yil aprel oyida Usmonli imperiyasiga harbiy mutaxassislardan iborat delegatsiya yuborildi. Ular orasida kavaleriya polkovnigi Keler, kavaleriya mayori Gobbe, artilleriya mayori Ristov va piyoda mayori Kampxönever mavjud edi.[4,42]

Germaniya ushbu yordamdan quyidagilarni kutgan edi: Usmonli imperiyasida siyosiy va harbiy ta’sirini oshirish; boshqa buyuk davlatlar, xususan, Stambuldagi harbiy attashelarning faoliyatini nazorat ostiga olish; Usmon armiyasini nemis qurollari bilan jihozlash. Shuningdek, Bismark kelajakda ehtimoliy nemis-rus urushida nemis mutaxassislari boshchiligidagi va nemis qurollari bilan ta’minlangan Usmon armiyasidan foydalanish imkoniyatini ham ko‘rib chiqqan.[2,38]

Shunday qilib, keyingi davrda Usmon–Germaniya aloqalari quyidagicha edi: Germaniyaning Usmonli imperiyasiga ta’siri oshishi ushbu strategiya bilan bog‘liq bo‘lib, buning yaqqol isboti sifatida Usmonli imperiyasi Germaniyadan so‘ragan qurol buyurtmalari va Birinchi jahon urushi voqealari xizmat qilishi mumkin.[5,72]

Sulton xizmatida pasha unvoni bilan tayinlangan ad’yutant Keler uch yil ichida vafot etdi; bu vaqtda uning hamkasblari polkovnik unvonini olishgan edi. Bu, shubhasiz, nemis ofitserlarining Usmonli imperiyasida harbiy xizmatga kirishga bo‘lgan istagini kuchaytirgan. Usmon armiyasida yuqori lavozimlarga tez tayinlanish nemis armiyasidagi teng darajadagi unvonlarga ko‘tarilishga olib keldi.[4,21-28]

Keler vafotidan o‘n yil o‘tib, 1885-yilda polkovnik baron Kolmar fon der Golts nemis harbiy ekspert guruhining rahbari etib tayinlandi. Golts, xususan, yosh

ofitserlarni tayyorlashda muhim rol o‘ynadi va ularda Germaniyaga bo‘lgan hurmat tuyg‘usini singdirdi.[4,42-47] Pasha hech ikkilanmay nemis harbiy hokimiyatlariga Usmon armiyasining holati haqida hisobot berdi va buyuk davlatlar o‘rtasidagi ziddiyatda muvozanat siyosatini olib borgan sulton Abdulhamid IIni Germaniya tomoniga jalb qilishga intildi.[5,89]

Ushbu yo‘nalishdagi urinishlardan biri 1899-yil 16-oktabrda u Valderzeyga yozgan qo‘lga olingan xatida aks etgan. Golts-pashaning amalga oshiradigan strategiyasi qisqacha shunday izohlanadi: Pasha Rossiya va Fransiya sultonni Germaniyaga qarshi qiziqtirayotganini va sultonning ikkilanayotganini ta’kidladi. Shu bilan birga, u aytdiki, ular harbiy bo‘linmalarni ham qo‘zg‘atishi mumkin va hatto ba’zi Usmon pashalarining yordamiga tayana oladi, ular Usmon armiyasi uchun nemis qurollarini xarid qilishda muhim rol o‘ynagan va muntazam maosh olgan. Xatida u shunday yozgan: u soxta qo‘zg‘olon tashkil qilishi va nemis pashalari yordamida sultonni ishontirishi mumkin, chunki Germaniya, yagona do‘stona davlat sifatida, ushbu qo‘zg‘olonni oldini olishi mumkinligi bilan sultonning ishonchini qozonadi.[5,77-78]

Hatto Goltsning sa’y-harakatlari muvaffaqiyatsiz bo‘lsa va u Germaniyaning e’tiborini qozona olmasa ham, bir narsani aniq aytish mumkin: Golts-pasha Usmon armiyasini nemis armiyasi bilan integratsiya qilish vazifasini o‘z zimmasiga oldi. U Turkiya mudofaa tizimiga berishni istagan shakl, Germaniyaning Bolqon siyosatiga mos kelardi; bu siyosat Avstriya-Vengriya emas, balki boshqa Bolqon davlatlariga qaratilgan edi.

Pashaning Usmonli imperiyasidagi missiyasi faqat harbiy masalalar bilan cheklanmagan. Uning ishlab chiqqan islohot rejalarining doimo Usmonli imperiyasini Germaniyadan qurol buyurtmalarini olishga olib kelishi va bu buyurtmalar Krupp konserni tomonidan bajarilishi shuni ko‘rsatadiki, pasha nemis harbiy sanoatining bozor ehtiyojlariga ham mos harakat qilgan. Aslida, Usmonli imperiyasidagi nemis harbiy mutaxassislari va Germaniya Tashqi ishlar vazirligi nemis harbiy sanoatini qo‘llab-quvvatlashning asosiy tarafdorlaridan biri bo‘lgan.

Shunday qilib, Usmon–Germaniya yaqinlashuvi, Usmonli imperiyasining harbiy tayyorgarlik mutaxassislariga bo‘lgan ehtiyojidan boshlangan, Germaniyani qurol sanoati uchun bozorga aylantirishga olib keldi. Ushbu munosabatlar doirasida harbiy mutaxassislar vositachilar rolini o‘ynab, qurol monopoliyalari bilan biznes aloqalarni boshqarishdi. O‘z biznes aloqalari evaziga ular tegishli kompaniyalardan sheriklik takliflari, aksiyalar, komissiyalar va boshqa imtiyozlarni oldilar.

Nemis hukumati ham ofitserlarining Usmon armiyasida xizmat qilishlarini qurol savdosini qo‘llab-quvvatlash uchun zarur deb hisobladi. Hatto u ba’zi lavozimlarni nemis ofitserlari bilan to‘ldirishga barcha choralarni ko‘rdi. 1891-yilda nemis artilleristi Ristov vafot etganda, uning o‘rniga vakil so‘raldi. Bu masalada maslahatlasha olgan fon der Golts, fransuzlar Usmon armiyasini artilleriya bilan ta’minlash uchun katta sa’y-harakat qilayotganini qayd etdi va artilleriya ofitserini tayinlashni tavsiya qildi. Golts qo‘shib aytdiki, ofitser uchun, xususan Krupp kompaniyasi bilan shaxsiy aloqalarga ega bo‘lish juda foydali bo‘lardi, chunki ular Usmon armiyasiga artilleriya yetkazib berish bilan shug‘ullangan. Nemis hukumati ushbu tavsiyaga amal qildi.[4,64]

1880–1890-yillarda baron fon der Goltsning ishi asosan harbiy attashe mayor Morgen tomonidan davom ettirildi. Bir necha yil o‘tgach, uni chaqirib olishganida, Krupp kompaniyasiga berilgan buyurtmalar shunchalik katta bo‘lgan edi-ki, kompaniya savdo vakillari, Huber aka-ukalari, faqat komissiyadan foydalangan holda millionerlarga aylanishdi.

Nemis harbiy mutaxassislari oqimi Golts-pashadan keyin ham Usmonli imperiyasiga davom etdi. Ulardan biri, Lois Kampxönever, 1897-yilda feldmarshalkaga ko‘tarildi. U shuningdek, «yaver-i ekrem» (ad’yutant) unvonini ham oldi — bu unvon sulton tomonidan berilgan bo‘lib, hatto turk feldmarshallariga ham osonlik bilan berilmas edi. Kampxöneverning Usmon armiyasiga qo‘shgan aniq hissasi noma’lum, faqat u ko‘p yillar davomida Usmon piyoda bo‘linmalari bosh inspektori sifatida xizmat qilgan.[5,82]

Shunga qaramay, bir narsani aniq aytish mumkin: u birdaniga Gazi Usmon-pashaga teng unvon bilan yuqoriga ko‘tarildi — Plevnaning qahramoni bo‘lgan pasha, aynan shu unvonni egallagan edi.

1913-yilda muvaffaqiyatsiz Bolqon urushlaridan so‘ng Usmonli imperiyasi yana Germaniyadan harbiy mutaxassislarni so‘radi. Kavaleriya generali Otto Liman fon Sanders boshchiligidagi nemis harbiy mutaxassislari delegatsiyasi Usmonli imperiyasiga yetib keldi. Shu vaqtdan boshlab Germaniyaning Usmonli imperiyasiga ta’siri faqat armiyaga cheklanmay, barcha sohalarda kuchayib bordi.

Garchi britaniyaliklar 1914-yilgacha Usmon floti islohoti bilan qiziqsalar, Fransiya va Italiya esa Usmon jandarmeryasini isloh qilishga intilsalar ham, Usmonlarning quruqlik armiyasi son jihatidan katta edi. Flot va jandarmeryaga nisbatan quruqlik armiyasi universal funktsiyalarga ega edi. Shu jihatdan, quruqlik armiyasidagi nemis ta’siri Germaniyaga Usmonli imperiyasidagi boshqa buyuk davlatlarga nisbatan ustunlik berdi.[6,9]

Xulosa

Germaniya va Usmonli imperiyasi o‘rtasidagi harbiy-tashkiliy aloqalar XIX asrda ikki davlatning strategik manfaatlariga xizmat qilgan muhim omil bo‘ldi. Usmonli imperiyasi harbiy islohotlar orqali davlat barqarorligini tiklashga intilgan bo‘lsa, Germaniya Sharqdagi geosiyosiy mavqeini mustahkamlashni maqsad qilgan. Prussiya harbiy tajribasi, intizomi va boshqaruv tizimi Usmonli armiyasida tub o‘zgarishlar amalga oshishiga sabab bo‘ldi. Germaniya bilan harbiy hamkorlik XIX asrdagi Usmonli harbiy islohotlarining asosiy tayanchlaridan biri bo‘lib, keyingi davrda ham uning harbiy tizimiga chuqur ta’sir ko‘rsatgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. **Армаоглу Фахир.** Политическая история: 1789–1980. — Анкара, 1973. — С. 35–125.
2. **Ахмад Фероз.** Политическая история. — Анкара. — С. 159. **Авджиоглу Доган.** Политическая история. — Анкара. — С. 254.

3. **Валлах Йегуда.** Анатомия военной помощи / пер. Фахри Челикера. — Анкара, 1977.
4. **Ли Стивен Дж.** Разделы из европейской истории (1789–1980) / пер. Саваша Актура. — Анкара, 2002. — Т. II. — С. 153–154.
5. **Трумпенер Ульрих.** Военно-политические исследования. — С. 137. **Wallach Jehuda.** Военная помощь. — С. 23. **Önsoy Rifat.** Военно-экономические исследования. — С. 96–103. **Rathmann Lothar.** Политические исследования. — С. 31–33.
6. **Блондель Ж.** Немецкая политика после Бисмарка / пер. Рашида Эдхема. — Dersaadet, 1332. — С. 8–12.

“XXI ASR ILM –FANI:MUAMMOLAR, YECHIMLAR, VA TARAQQIYOT STRATEGIYALARI” ISLOM SIVILIZATSIYASI VA ILMIY TAFAKKUR TARAQQIYOTI: O’RTA ASRLAR TARIXIY TAJRIBASI

Rixsiboyeva Muazzam Mohirjon qizi
Haydarova Zilola Normurodovna
Chirchiq Davlat Pedagogika universiteti

Annotatsiya. *Mazkur maqolada o‘rta asrlar davrida shakllangan Islom sivilizatsiyasining ilmiy tafakkur taraqqiyotidagi o‘rni tarixiy va falsafiy yondashuvlar asosida chuqur tahlil qilinadi. Islom dunyosida ilm-fan rivojiga ta’sir ko‘rsatgan diniy, ijtimoiy-siyosiy va madaniy omillar, ilmiy muassasalar faoliyati hamda tarjima harakati keng yoritiladi. Shuningdek, Xorazmiy, Forobiy, Ibn Sino, Beruniy, Ibn Rushd kabi buyuk allomalarning ilmiy merosi va ularning jahon sivilizatsiyasi taraqqiyotiga qo‘shgan hissasi ilmiy asosda baholanadi. Maqolada Islom sivilizatsiyasi ilmiy tafakkur uzluksizligini ta’minlagan muhim tarixiy bosqich sifatida talqin qilinadi.*

Kalit so'zlar: *Islom sivilizatsiyasi, ilmiy tafakkur, o'rta asrlar, Bayt ul-hikma, tarjima harakati, musulmon allomalari, falsafa, tarixiy taraqqiyot, sivilizatsion yondashuv.*

Kirish. Insoniyat tarixida sivilizatsiyalarning rivoji, avvalo, ilmiy tafakkur darajasi bilan belgilanadi. Har bir yirik sivilizatsiya o'zining ilm-fan sohasidagi yutuqlari orqali tarixiy jarayonlarga ta'sir ko'rsatgan. O'rta asrlarda yuzaga kelgan Islom sivilizatsiyasi ana shunday sivilizatsiyalardan biri bo'lib, u ilm-fan, madaniyat va tafakkur rivojida alohida bosqichni tashkil etadi [1].

Islom sivilizatsiyasi VIII–XIII asrlarda Sharq va G'arb o'rtasida ilmiy-madaniy ko'prik vazifasini bajargan. Yevropada ilmiy inqiroz kuzatilgan bir davrda Islom dunyosida matematika, astronomiya, tibbiyot, falsafa, tarix va geografiya fanlari yuksak darajada rivojlandi. Bu holat Islom sivilizatsiyasining tarixiy ahamiyatini yanada oshiradi. Mazkur maqolaning maqsadi Islom sivilizatsiyasida ilmiy tafakkur taraqqiyotining tarixiy asoslarini ochib berish, uning jahon sivilizatsiyasi rivojidagi o'rnini ilmiy jihatdan tahlil qilishdan iborat.

Islom sivilizatsiyasining shakllanishi va tarixiy sharoit.

Islom sivilizatsiyasi VII asrda Arabiston yarimorolida vujudga kelib, qisqa vaqt ichida keng hududlarga tarqaldi. Ushbu jarayonda yagona diniy e'tiqod, umumiy axloqiy qadriyatlar va ilmga bo'lgan munosabat sivilizatsion birlikni ta'minladi [2]. Islom dini insonni tafakkur qilishga, tabiat va jamiyat hodisalarini anglashga da'vat etgani bois ilmiy bilishga kuchli rag'bat berdi.

Islom davlatlarida ilm-fan davlat siyosati darajasida qo'llab-quvvatlandi. Xalifalar va hukmdorlar olimlarni homiylik bilan ta'minlab, ilmiy muhitning shakllanishiga sharoit yaratdilar. Natijada ilm-fan jamiyat taraqqiyotining asosiy omillaridan biriga aylandi. Islom sivilizatsiyasining muhim xususiyati ilmiy tafakkur va diniy dunyoqarashning qarama-qarshi qo'yilmaganidadir. Qur'oni karimda ilm, aql va tafakkurga doir oyatlarning ko'pligi ilmiy bilishning diniy asoslarini mustahkamladi [3]. Bu holat ilm-fan rivojida erkin fikrlash va izlanish muhitini yuzaga keltirdi. Musulmon mutafakkirlari ilmni ilohiy haqiqatni anglash

vositasi sifatida talqin qildilar. Shu sababli tabiiy fanlar ham diniy bilimlar bilan bir qatorda rivojlandi. Bu esa Islom sivilizatsiyasining ilmiy tafakkurini keng qamrovli va tizimli tusga keltirdi. Islom sivilizatsiyasida ilmiy markazlarning vujudga kelishi tafakkur taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etdi. Bag‘doddagi Bayt ul-hikma ilmiy markazi buning yorqin misolidir. Ushbu markazda yunon, hind va fors olimlarining asarlari arab tiliga tarjima qilinib, chuqur tahlil etildi [4]. Tarjima harakati ilmiy tafakkur rivojida ikki muhim vazifani bajardi: birinchidan, antik ilmiy meros saqlab qolindi; ikkinchidan, bu meros ijodiy rivojlantirildi. Natijada Islom olimlari yangi ilmiy g‘oyalar va nazariyalarni yaratdilar. Islom sivilizatsiyasi doirasida yetishib chiqqan allomalar jahon ilm-fani tarixida alohida o‘rin egallaydi. Muhammad al-Xorazmiy algebra faniga asos solib, matematik tafakkur rivojiga katta hissa qo‘shdi. Uning ishlari Yevropa ilm-fanida ham keng qo‘llanilgan [5]. Abu Ali ibn Sino tibbiyot, falsafa va mantiq sohalarida mukammal ilmiy tizim yaratdi. Uning “Tib qonunlari” asari asrlar davomida Yevropa universitetlarida asosiy darslik bo‘lib xizmat qilgan. Abu Rayhon Beruniy esa tabiatshunoslik, tarix va geografiya fanlarida ilmiy tafakkurning empirik asoslarini rivojlantirdi.

Forobiy aql va mantiq masalalarini chuqur tahlil qilib, ilmiy bilish metodologiyasini boyitdi. Ibn Rushd esa Aristotel falsafasini izohlash orqali Yevropa scholastik tafakkuriga kuchli ta’sir ko‘rsatdi. Islom sivilizatsiyasi o‘rta asrlarda ilmiy tafakkur uzluksizligini ta’minlab bergan muhim tarixiy bosqich hisoblanadi. Yevropada ilmiy rivoj sustlashgan bir davrda musulmon olimlari ilm-fanni rivojlantirib, uni keyingi avlodlarga yetkazdilar [6]. Shu bois Islom sivilizatsiyasi jahon sivilizatsiyasi tarixida Sharq va G‘arbni bog‘lovchi ilmiy-madaniy ko‘prik sifatida baholanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. **Toynbi A.** Tarixni anglash. — Toshkent: Ma’naviyat, 2001.
2. **Qur’oni karim.** — Toshkent: O‘zbekiston musulmonlari idorasi nashri, 2019.
3. **Shpengler O.** Yevropaning tanazzuli. — Moskva, 1993.

4. **Ibn Sino.** Tib qonunlari. — Toshkent: Fan, 1980.
5. **Beruniy A. R.** Tanlangan asarlar. — Toshkent: Fan, 1973.
6. **Forobiy A.** Fozil odamlar shahri. — Toshkent: Fan, 1993.
7. **Forobiy A. N.** Baxt-saodatga erishuv haqida. — Toshkent: Fan, 1975.
8. **Al-Xorazmiy M.** Al-jabr va al-muqobala. — Toshkent: Fan, 1962.
9. **Ibn Rushd.** Tahofut at-tahofut. — Qohira, 1964.
10. **Nasr S. H.** Islom va zamonaviy ilm-fan. — Kuala-Lumpur, 1987.
11. **Hodgson M. G. S.** The Venture of Islam: 3 vols. — Chicago: University of Chicago Press, 1974.

JANUBIY O‘ZBEKISTONDAGI MADANIY MEROS OBYEKTLARINING TARIXIY MANBALARDA YORITILISHI

Samarov Faxriddin Uralovich
Qarshi Xalqaro universiteti

Annotatsiya. *Mazkur maqolada Janubiy O‘zbekiston hududining boy tarixiy-madaniy merosi turli davrlarga oid tarixiy manbalar asosida tahlil etiladi. Xususan, o‘rta asr yozma manbalar, sayyohlar va tadqiqotchilar qaydnomalari hamda zamonaviy ilmiy tadqiqotlarda ushbu hudud madaniyati va tarixining yoritilishiga alohida e’tibor qaratilgan. Maqolada Surxondaryo va Qashqadaryo vohalarining tarixiy obidalari, arxeologik yodgorliklari haqidagi ma’lumotlarning manbalardagi aks etish darajasi qiyosiy tahlil qilinadi. Shuningdek, ayrim manbalardagi qarashlar va talqinlar o‘rtasidagi farqlar aniqlanib, ularning ilmiy ahamiyati baholanadi.*

Kalit so‘zlar: *Janubiy O‘zbekiston, tarixiy-madaniy meros, tarixiy manbalar, yozma manbalar, arxeologik yodgorliklar, Surxondaryo vohasi, Qashqadaryo*

vohasi, o‘rta asrlar, sayyohlar qaydnomalari, me’moriy yodgorliklar, manbashunoslik, obidalar, tarixiy inshoot.

Kirish. Janubiy O‘zbekiston hududi o‘zining boy tarixiy va madaniy merosi bilan ajralib turadi. Mazkur mintaqa hududi o‘zining arxeologik yodgorliklar, qadimiy me’moriy inshootlar, tarixiy obidalar va turli davrlarga oid yozma manbalar bilan boshqa hududlardan alohida ajralib turadi. Ushbu meros nafaqat mintaqaning tarixiy rivojlanishini, balki uning madaniy hayoti, me’morchilik an’analari va ijtimoiy-iqtisodiy jihatlarini ham o‘rganishga imkon beradi. Tarixiy manbalar qadimiy yozma asarlar, sayyohlar qaydnomalari va tadqiqotchilarning qaydlari, shuningdek, zamonaviy ilmiy tadqiqotlar Janubiy O‘zbekiston hududining madaniy va tarixiy merosini yoritishda muhim manba hisoblanadi. Shu sababli, hududning tarixiy-madaniy merosini manbalarda aks etish darajasini tahlil qilish va ularni qiyosiy nuqtayi nazardan o‘rganish muhim ilmiy vazifa hisoblanadi.

Qashqadaryo va Surxondaryo vohalarining tarixini o‘rganish va yoritib berishda o‘rta asrlar davrida yaratilgan manbalar ham katta ahamiyat kasb etadi. Mazkur manbalarning aksaryati joy nomlari, hududning geografiyasi va toponimikasi hamda aholi turmush tarziga oid manbalar hisoblanadi. Ushbu davrga tegishli bo‘lgan ma’lumotlarni Ibn Xurdodbeh, Yakubiy, Istaxriy, Ibn Havqal, Abu Tohir al-Maqsudiy, Najmiddin Umar an-Nasafiy, Abdukarim as-Sam’oniy kabi o‘rta asr muarrixlarining asarlarida ham uchratish mumkin. Xususan, dastlabki ma’lumotlar X asrda Keshga (hozirgi Shahrisabz) kelgan arab sayyoxi Ibn Xavqal Kitob surat al-arz asarida keltirilib, unda Kesh shahri ko‘handiz, hisna va raboddan tashkil topgani, shahar Madina rabod bilan tutashib ketgani, shuningdek, ichki shahar va ko‘handiz xaroba holatda bo‘lib, shaharning barcha imoratlari loydan va yog‘ochdan qurilganligi qayd etilgan[1.26].

Qadimiy Kesh shahri tarixiga oid yana bir muhim manbalardan biri Istaxriyning “Kitob al-masalik val-mamalik” (Yo‘llar va o‘lkalar kitobi), asari bo‘lib, unda tarixiy Kesh shahri quyidagicha tavsiflangan. “Kesh shahrining ko‘handiz, rabod va uning rabod bilan tutashgan boshqa bir shahristoni bor. Ichki shahriston ko‘handizi bilan birga xarob holatda. Tashqi shahriston oboddir.

Boshqaruv saroyi tashqi shahristonda, rabodi va zindon Musolli nomli joyda, jome masjidi ichki shahristonda xarobdir. Shahar maydoni uch farsaxga teng bo‘lgan shahardir”[2.166].

Shuningdek, ushbu asarning yana bir alohida jihati shundaki, asarda mazkur ko‘hna shaharning qadimiy darvozalarining nomlari ham keltirib o‘tilgan. Jumladan, “Ichki shahristonning to‘rt darvozasi bor. Birinchisi Hadid, boshqasi Ubaydulloh, uchinchisi Qassobin, to‘rtinchisi Shareston darvozasidir. Tashqi shahristonning Ichki Shahriston va Barknan darvozasi bor. Barknan bu darvoza yo‘nalishidagi qishloq nomidir. Ikki arig‘i bor: birinchisini Qassarin arig‘i ataydilar, Sinam tog‘idan chiqadi, boshqasi Asruddir bo‘lib, har ikki ariq ham shahar darvozasidan o‘tadi”[3.166-167].

O‘rta asrlarda qadimiy Nasaf (Qarshi) shahri to‘g‘risida ham bir qator manbalar yaratilgan bo‘lib, ularning aksaryatida ushbu shahar to‘g‘risida ma’lumotlar batafsil qayd etilgan. Abdulkarim as-Sam’oniyning (1113-1166 yy) “Nasabnoma” “(al-Ansob)” asari mana shunday asarlardan biri sanaladi. Mazkur asar muallifining XII asrda Movarounnahrning Nasaf, Kesh va Termiz kabi qadimiy shaharlariga qilgan sayyohati davomida ushbu hududlardagi tarixiy shahar va qishloqlari bilan bir qatorda ijod ahillari bo‘lmish olimlari to‘g‘risida ham qimmatli ma’lumotlarni qayd etib o‘tgan. Jumladan, muallifning yozishicha “Poyon – Nasafning ma’lum va mashhur mahallalaridan biri bo‘lib, bu mahallada Imom al-Buxoriy ham bo‘lganliklar. Men bu qishloqda ko‘p bo‘ldim va Imom al-Buxoriy namoz o‘qigan masjidda namoz o‘qidim”[4.164].

Nasabnoma asarida Nasafning yana bir qadimiy qishloq nomi qayd etib o‘tilgan. Tadyona – Nasafning qishloqlaridan biri bo‘lib, Abul Favoris Ahmad ibn Muhammad an–Nasafiy at–Tadyoniy shu qishloqdandir. Bu kishidan Nasaf mashoyixlari ta’lim olganlar[5.166]. Shu o‘rinda shu aytish lozimki, asarda keltirilgan qadimiy Tadyona qishlog‘i hozirgi Qarshi shahridan 15 km uzoqlikdagi Pudina qishlog‘i bo‘lishi mumkin. Sababi mazkur qishloq IX-X asrlarda Nasaf vohasining Buyuk ipak yo‘lida joylashgan eng ma’lum va mashhur qishloqlaridan biri bo‘lib, qishloq nomi Fudina deb atalishidan avval, aynan, Tadiyona deb atalgan.

Va bu hududdan X asrda yetishib chiqqan olim va fuzalolar o‘zlarining nomlariga Tadyoniy taxallusini ham qo‘shib yozganlar.

O‘rta asrlar davriga tegishli yana bir muhim manba mashhur arab sayyohi, geograf va tarixchisi Ibn Battutaning “Sayohatnoma” (Oltin O‘rda va O‘rta Osiyo bo‘ylab sayohat), asari hisoblanadi. Ibn Battuta asarida qadimiy Nasaf vohasining tarixiy-me’moriy yodgorliklari to‘g‘risida to‘xtalib quyidagilarni qayd etib o‘tgan: “XIII asr o‘rtalaridan va ayniqsa XIV asrda Markaziy Osiyoning shahar hayoti asta-sekin qayta tiklana boshlaydi. Mahalliy me’morlar va hunarmandlar mo‘g‘ullar tomonidan vayron qilingan obidalar o‘rnida yangi me’moriy inshootlar quradilar, mo‘g‘ullardan oldingi badiiy an’anani davom ettirgan holda amaliy san’at asarlarini yaratadilar. Ibn Battutaning qaydlari ko‘ra, bu davrga qadar yetib kelgan eng qadimiy inshootlar asosan maqbara va shunga o‘xshash imoratlar bo‘lgan. Bu davrga qadar bir-nechta saroylar ham saqlanib qolgan bo‘lib, ulardan biri Qarshidagi Kebek saroyidir”[6.70].

Ibn Battuta o‘z qaydlarida Termiz to‘g‘risida ham alohida to‘xtalib o‘tgan. Jumladan, “Chingizxonga qarshi Balxga qo‘zg‘olon ko‘tarilgandan so‘ng, mo‘g‘ullar Balxni yer bilan yakson qiladilar. Shuningdek, aynan shu davrda Termiz ham butunlay varon etilib, o‘z joyidan ikki chaqirim uzoqlikda yangi shahar qurilib, hozir u Termiz deb ataladi”[7.70-71]. Shuningdek Ibn Battuta hozirda Termizdagi binolar go‘zalligini va shaharning bozori ham kattaligini hamda bir nechta bog‘lar mavjud bo‘lib, ayniqsa uzum va behisi juda shirinligini alohida qayd etib o‘tgan.

Yuqorida qayd etib o‘tilgan Abdulkarim as-Sam’oniyning Nasabnoma (al-Ansob) asarida ham Termizlik bir qator olim va ulamolar haqida ham yozib qoldirgan. Xususan, “Termiz – Amudaryo bo‘yidagi qadimiy shahar bo‘lib, bu shahardan ko‘p ulamo, mashoyix va fozillar yetishib chiqqan. Men bu shaharda o‘n kun bo‘ldim”[8.85]. Nasabnomada Termizdan yetishib chiqqan eng mashhur hadisshunos olim Abu Iso Muhammad ibn Iso at-Termiziy to‘g‘risida ham alohida to‘xtalib o‘tilgan. Jumladan, “Zehnlari o‘tkir, yetuk muhaddis, hadis ilmining imomi bo‘lib, har bir hadis yoki so‘zni dalil bilan isbotlab berishlari odamlar og‘zidan tushmas edi. Bu zot Imom al-Buxoriyning shogirdlaridan”[9.85-86]. Shuningdek

asarda mazkur alloma dafn etilgan Bug‘ qishlog‘i Termizdan olti farsax uzoqlikda joylashganligi aniq ko‘rsatib o‘tilgan.

Shu bilan birga, Janubiy O‘zbekiston hududida joylashgan shaharlar, tarixiy joy nomlari, ko‘hna obidalar va aholisining madaniyati to‘g‘risidagi qimmatli ma’lumotlarni Ibn Xo‘rdodbeh, Maqdisiy, Ibn Havqal, Jayhuniy, Tabariy hamda Hofiz Abro‘ kabi o‘rta asrlar sayyoh olim va muarrihlari o‘z asarlarida yozib qoldirganlar.

Mavzuga oid bo‘lgan eng muhim manbalardan yana biri Amir Temur davrida Sharafuddin Ali Yazdiy tomonidan yaratilgan “Zafarnoma” asari hisoblanadi. Ushbu manbaning alohida jihati shunda bo‘lib, unda berilgan joy nomlari va joylashuvi haqidagi ma’lumotlar aniq va mufassal qayd etib o‘tilgan. Jumladan, Amir Temurning Qarshida ma’lum vaqt yashaganligi. Va ana shu davrda qal’a qo‘rg‘onida bunyodkorlik ishlarni amalga oshirilganligi to‘g‘risida quyidagilar qayd etib o‘tilgan. “Hazrat sohibqiron ul qish saodat va iqbol bilan Qarshida turdi va lutfu ehson bilan u yerdagi ulug‘, kichik, faqir miskin ra’iyatlarga shafqat ko‘zi bilan boqib, ziroatqa va imoratqa sayi qildi”[10.49].

Shuningdek, asar muallifi tomonidan Amir Temurning 1399-yil Hindiston safaridan qaytish chog‘ida Termiz shahriga to‘xtab o‘tganligini yozib qoldirgan. Xususan, “Yakshanba kuni, oyning yigirma birida (29.03.1399 y) choshtgohda sohibqiron kema bilan Jayhun suyidin kechib tushdi. Ul tushgan yerda amirzoda Ulug‘bek hamda Iborhim mirzolar, Saroy Mulk xonim, To‘kal xonim, Tuman oqa va o‘zga shahzodalar chiqdilar. Dushanba kuni (30.03.1399 y) Termizga kelib turdi”[11.200]. Shuningdek, Nizomiddin Shomiyning “Zafarnoma”, arab muarrixi Ibn Arabshohning “Ajoyib al-maqdur fi tarix Taymur (“Temur tarixida taqdir ajoyibotlari”), Hofizi Abro‘ning “Geografiya” asarlarida ham janubiy O‘zbekiston hududidagi qadimiy shaharlar, joy nomlari va aholisi to‘g‘risida qimmatli ma’lumotlarni uchratish mumkin.

Yuqorida keltirib o‘tilgan manbalarda yozib qoldirilgan tahliliy ma’lumotlar orqali shuni aytish mumkinki, Janubiy O‘zbekiston hududidagi tarixiy-me’moriy yodgorliklarning aksaryati XIII asrning birinchi choragida vayron etilgan bo‘lib,

keyingi davrlarda ularning ayrimlari yangi imoratlar uchun poydevor vazifasini bajargan bo‘lsa, ayrimlari butunlay yo‘q bo‘lib ketdi. Aynan shu davrda katta-katta shaharlar ham xarobaga aylanib o‘z o‘rnidan ma’lum masofa uzoqlikda yangi shahar ko‘rinishida qad ko‘targan.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, Janubiy O‘zbekiston hududi boy va bir-biridan farqli zamonlarda bunyod etilgan tarixiy-me’moriy yodgorliklarga ega bo‘lib, ushbu qadimiy obyektlar turli davrlarga oid tarixiy manbalarda keng yoritilgan. O‘rta asr yozma manbalari, sayyohlar va tadqiqotchilar qaydnomalari hamda zamonaviy ilmiy tadqiqotlar Surxondaryo va Qashqadaryo vohalarining tarixiy obidalari, arxeologik yodgorliklari va me’moriy inshootlari haqida muhim ma’lumotlarni o‘zida mujassam etadi. Shuningdek, manbalar tahliliga ko‘ra, ayrim tarixiy yodgorliklar va obidalar haqida berilgan ma’lumotlar davr, muallif va tadqiqot yondashuviga qarab turlicha talqin qilingan. Bu holat tarixiy manbalarni qiyosiy va tanqidiy asosda o‘rganish zarurligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, tarixiy manbalar Janubiy O‘zbekiston hududining madaniy rivoji, me’morchilik an’analari va tarixiy jarayonlarini yoritishda muhim ilmiy ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi.

Umuman olganda, mazkur tadqiqot natijalari Janubiy O‘zbekiston tarixiy-madaniy merosini chuqurroq o‘rganish, uni saqlash va kelajak avlodlarga yetkazishda tarixiy manbalarning o‘rni beqiyos ekanini tasdiqlaydi hamda keyingi ilmiy izlanishlar uchun muhim nazariy va amaliy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. **Jo‘rayeva S. N.** O‘zbekistonning janubiy hududidagi ziyoratgohlar tarixi va ularning mahalliy aholi hayotida tutgan o‘rni: monografiya. — Toshkent: O‘zkitob savdo nashriyoti matbaa ijodiy uyi, 2021. — 332 b.
2. **Istaxriy.** Kitab al-masalik val-mamalik (Yo‘llar va o‘lkalar kitobi). — Toshkent: Fan, 2019. — 166 b.
METONYMY AND RELATED PHENOMENA

Akhrorova Jamila Agzamovna
Fergana State University

Abstract. Metonymy is one of the fundamental cognitive and linguistic mechanisms through which human beings conceptualize and structure reality. Unlike metaphor, which is based on similarity, metonymy relies on contiguity and conceptual proximity within a single cognitive domain. This article examines the nature of metonymy, its defining characteristics, and its relationship with closely related phenomena such as metaphor, synecdoche, polysemy, and semantic extension. The study draws on cognitive linguistic theories and classical semantic approaches to demonstrate the central role of metonymy in language, thought, and discourse.

Keywords: metonymy, metaphor, synecdoche, polysemy, semantic transference, cognitive linguistics.

Introduction.

Metonymy has long been recognized as a crucial semantic and rhetorical phenomenon. Traditionally treated as a figure of speech, metonymy is now widely regarded as a cognitive process that underlies everyday language use. In modern linguistics, especially within the cognitive paradigm, metonymy is understood not merely as a stylistic device but as a fundamental mechanism of meaning construction.

As noted by George Lakoff and Mark Johnson, metonymy reflects how human cognition selects salient aspects of experience to stand for more complex conceptual structures. This article aims to explore metonymy and the phenomena closely associated with it, highlighting both theoretical and practical implications.

Defining Metonymy.

Metonymy can be defined as a semantic process in which one entity provides mental access to another entity within the same conceptual domain. The relationship between the two entities is based on contiguity rather than resemblance.

For example, in the sentence *"The White House issued a statement,"* the expression *the White House* stands for the U.S. administration. This is not a metaphorical comparison but a metonymic substitution grounded in institutional and spatial proximity.

According to Zoltán Kövecses, metonymy operates as a domain-internal mapping, in contrast to metaphor, which involves cross-domain mapping.[1]

Metonymy vs. Metaphor

Although metonymy and metaphor are often discussed together, they are conceptually distinct.

- **Metaphor** is based on **similarity** between two different domains
- **Metonymy** is based on **contiguity** within the same domain

For instance:

- *"Time is money"* → metaphor
- *"She read Shakespeare"* → metonymy (author for works)

Cognitive linguistics emphasizes that metonymy is often more basic than metaphor, since it emerges directly from experiential and contextual associations rather than abstract analogical reasoning.[2]

Metonymy and Synecdoche

Synecdoche is traditionally treated as a subtype of metonymy. It involves part–whole or whole–part relationships, such as:

- *"All hands on deck"* (hands → sailors)
- *"The automobile is parked outside"* (whole → specific instance)

Some scholars argue for a strict distinction between metonymy and synecdoche, while others consider synecdoche a structurally constrained form of metonymy. Elena Paducheva supports the view that synecdoche functions as a special case within broader metonymic mechanisms.[3]

Metonymy and Polysemy

Metonymy plays a crucial role in the development of polysemy. Many polysemous words acquire new meanings through systematic metonymic shifts.

For example:

- *"School"* → institution / building / people
- *"Book"* → physical object / content

These meanings are not randomly related but form a structured semantic network grounded in metonymic extension. This phenomenon has been extensively discussed in lexical semantics, particularly in relation to sense relatedness and semantic motivation.[4]

Metonymy in Cognitive and Cultural Contexts

Metonymy is not only linguistic but also cultural. Different languages and cultures may favor different metonymic models depending on social practices and cognitive salience.

In Turkic linguistics, including Uzbek linguistic tradition, metonymy is often analyzed in connection with real-world relations and cultural conceptualization. Mamatkul Mirtojiyev emphasizes that metonymy reflects the interaction between language and objective reality, mediated by human cognition.[5]

Related Phenomena

Several semantic and cognitive phenomena are closely related to metonymy:

- **Autohyponymy** – sense differentiation within a single lexical item
- **Semantic extension** – gradual meaning expansion through contextual use
- **Reference shift** – pragmatic reassignment of referents
- **Conceptual contiguity** – cognitive basis for meaning transfer

These phenomena collectively demonstrate that metonymy is not an isolated process but part of a broader system of meaning construction.

Conclusion

Metonymy is a central mechanism in language and cognition, enabling efficient communication and conceptual organization. Its close relationship with

metaphor, synecdoche, and polysemy highlights its foundational role in semantic structure. Understanding metonymy and related phenomena provides valuable insights into how language reflects human thought, experience, and culture.

References

1. **Kövecses Z.** Metaphor: A Practical Introduction. — Oxford: Oxford University Press, 2010.
2. **Lakoff G., Johnson M.** Metaphors We Live By. — Chicago: University of Chicago Press, 1980.
3. **Paducheva E. V.** Dynamic Semantics of Lexical Meaning. — Moscow, 2004.
4. **Cruse D. A.** Meaning in Language: An Introduction to Semantics and Pragmatics. — Oxford: Oxford University Press, 2000.
5. **Mirtojiyev M.** O‘zbek tilida semantik ko‘chish masalalari. — Toshkent, 2009.

O‘ZBEK TILI MORFOLOGIK TIZIMIDA INNOVATSION O‘ZGARISHLAR

Amirbekova Malika Shovkat qizi

Guliston dalat pedagogika intituti

Annotatsiya: *Mazkur maqolada hozirgi o‘zbek tili morfologiyasida yuz berayotgan innovatsion o‘zgarishlar ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Til taraqqiyoti jarayonida morfologik birliklarning shakl va mazmun jihatidan yangilanishi, so‘z yasash modellari, grammatik kategoriyalarning funksional kengayishi hamda*

zamonaviy kommunikativ ehtiyojlar ta’sirida yuzaga kelayotgan morfologik jarayonlar yoritiladi.

Kalit so‘zlar: *morfologiya, innovatsiya, grammatik kategoriya, so‘z yasash, til taraqqiyoti, zamonaviy o‘zbek tili.*

Til jamiyat bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan murakkab va dinamik tizimdir. Jamiyat taraqqiyoti, ijtimoiy ongning rivojlanishi, ilm-fan va texnologiyalardagi yutuqlar tilning barcha sathlariga, xususan, uning grammatik tuzilishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Tilning grammatik qurilishi esa, avvalo, morfologik tizim orqali namoyon bo‘ladi. Shu bois morfologiyada yuz berayotgan o‘zgarishlar til taraqqiyotining muhim ko‘rsatkichlaridan biri sifatida qaraladi.

So‘nggi yillarda o‘zbek tilida kuzatilayotgan ijtimoiy-madaniy va kommunikativ jarayonlar morfologik birliklarning shakl va vazifalarida yangi tendensiyalarni yuzaga keltirmoqda. Ayniqsa, globallashuv, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining keng qo‘llanilishi, ommaviy axborot vositalari va raqamli muloqotning faollashuvi til tizimida innovatsion o‘zgarishlarning tezlashishiga sabab bo‘ldi. Bu jarayonlar o‘zbek tili morfologiyasida an’anaviy grammatik me’yorlar bilan bir qatorda yangi, zamonaviy ifoda vositalarining shakllanishiga olib kelmoqda.

Morfologiya tilshunoslikning asosiy bo‘limlaridan biri bo‘lib, so‘z turkumlari, grammatik kategoriyalar va shakllarni o‘rganadi. Ushbu bo‘lim tilning tuzilish asoslarini belgilab berishi bilan birga, nutq jarayonida ma’no ifodalashning muhim mexanizmlarini ham namoyon etadi. Shuning uchun morfologik innovatsiyalarni tahlil qilish nafaqat til tuzilishini, balki nutqiy faoliyatdagi o‘zgarishlarni ham aniqlash imkonini beradi.

Zamonaviy o‘zbek tilida so‘z yasash jarayonlarining faollashuvi, ayrim qo‘shimchalarning semantik va funksional jihatdan kengayishi, grammatik kategoriyalarning yangi pragmatik vazifalarda qo‘llanishi kuzatilmoqda. Bunday holatlar morfologiyaning faqat qat’iy qoidalar majmui emas, balki zamon talabi asosida rivojlanib boruvchi tizim ekanini ko‘rsatadi. Ayniqsa, fe’l va ot

kategoriyalaridagi innovatsion o‘zgarishlar nutqning ekspressivligi va kommunikativ samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Shuningdek, boshqa tillar bilan bo‘lgan o‘zaro ta’sir ham morfologik yangilanishlarning muhim omillaridan biridir. Chet tillardan kirib kelayotgan leksik birliklar o‘zbek tili morfologik me’yorlariga moslashib, turli grammatik shakllarni hosil qilmoqda. Bu jarayon morfologik adaptatsiyaning yangi ko‘rinishlarini yuzaga keltirib, tilning ichki imkoniyatlarini boyitmoqda.

O‘zbek tilshunosligida morfologiya masalalari an’anaviy jihatdan chuqur o‘rganilgan bo‘lsa-da, innovatsion o‘zgarishlar masalasi hali ham dolzarb ilmiy muammo sifatida qolmoqda. Zamonaviy til jarayonlarini tizimli tahlil qilish, yangi grammatik hodisalarni ilmiy asosda izohlash va ularning til taraqqiyotidagi o‘rnini belgilash bugungi tilshunoslikning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Shu nuqtai nazardan, mazkur maqolada o‘zbek tili morfologiyasida yuz berayotgan innovatsion o‘zgarishlarning asosiy yo‘nalishlari, ularning paydo bo‘lish omillari hamda zamonaviy til taraqqiyotidagi ahamiyati ilmiy jihatdan yoritib berishga qaratilgan. Ushbu tadqiqot natijalari o‘zbek tili grammatikasini chuqurroq anglash, til ta’limi jarayonini takomillashtirish hamda kelgusidagi lingvistik izlanishlar uchun nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi zamonaviy o‘zbek tili morfologiyasida yuz berayotgan innovatsion o‘zgarishlarni tizimli ravishda tahlil qilish, ularning paydo bo‘lish omillari, funksional xususiyatlari hamda til taraqqiyotidagi o‘rnini ilmiy asosda yoritishdan iboratdir. Shuningdek, morfologik yangilanishlarning kommunikativ ehtiyojlar bilan bog‘liqligini aniqlash va ularning til me’yorlariga ta’sirini baholash tadqiqotning muhim maqsadlaridan biri hisoblanadi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundan iboratki, unda zamonaviy o‘zbek tili morfologiyasidagi innovatsion jarayonlar kompleks yondashuv asosida ilk bor tizimli tarzda tahlil qilinadi. Morfologik birliklarning nafaqat formal, balki funksional-pragmatik jihatlari ham o‘rganilib, ularning zamonaviy kommunikatsiyadagi o‘rni aniqlanadi. Shuningdek, raqamli muloqot va

globallashuv sharoitida morfologik o‘zgarishlarning tezlashish omillari ilmiy asosda yoritiladi.

O‘zbek tili agglutinativ tillar guruhiga mansub bo‘lib, unda grammatik ma’no asosan qo‘shimchalar orqali ifodalanadi. Morfologik tizimning bunday xususiyati tilning barqarorligi va aniqligini ta’minlaydi. An’anaviy grammatikada so‘z turkumlari, grammatik kategoriyalar va shakllar qat’iy me’yorlarga asoslangan holda izohlanib kelgan. Biroq tilning tabiiy rivoji ushbu me’yorlarning yangicha talqin qilinishiga olib kelmoqda.

An’anaviy morfologiyada ot, sifat, fe’l, ravish kabi so‘z turkumlarining grammatik shakllari asosan formal jihatdan tavsiflangan bo‘lsa, zamonaviy yondashuvda ularning nutqiy va kommunikativ vazifalari ham e’tiborga olinmoqda. Bu esa morfologiyani statik emas, balki dinamik tizim sifatida qarash zaruratini yuzaga keltiradi.

Morfologik innovatsiyalar deganda tilning morfologik tizimida yangi shakllar, funksiyalar yoki qo‘llanish usullarining paydo bo‘lishi tushuniladi. Bunday innovatsiyalar to‘g‘ridan-to‘g‘ri yangi grammatik birliklar sifatida emas, balki mavjud birliklarning funksional kengayishi orqali namoyon bo‘ladi. O‘zbek tilida aynan mana shu ikkinchi yo‘l yetakchi ahamiyat kasb etmoqda.

Zamonaviy nutqda ayrim qo‘shimchalarning stilistik va pragmatik vazifasi kuchayib, ular faqat grammatik ma’no emas, balki muallif munosabatini ifodalovchi vositaga aylanmoqda. Bu holat morfologik birliklarning semantik imkoniyatlari kengayib borayotganidan dalolat beradi.

So‘z yasash o‘zbek tili morfologiyasining eng faol va tez rivojlanayotgan sohalaridan biridir. Hozirgi davrda jamiyat hayotida yuz berayotgan yangiliklar yangi tushunchalarni ifodalash zaruratini tug‘dirmoqda. Natijada -chi, -lik, -dor, -kor kabi affikslar orqali yangi ijtimoiy, kasbiy va texnologik tushunchalar hosil qilinmoqda.

Shuningdek, qisqartmalar va abbreviaturalarning morfologik jihatdan mustaqil birlik sifatida faol ishlatilishi kuzatilmoqda. Bunday birliklar kelishik, egalik va

ko‘plik qo‘shimchalarini qabul qilib, to‘liq grammatik tizimga kirib bormoqda. Bu esa morfologik moslashuvning innovatsion ko‘rinishidir.

O‘zbek tili morfologiyasi an’anaviy grammatikada nisbatan barqaror tizim sifatida izohlangan bo‘lsa-da, zamonaviy til jarayonlari ushbu tizimning dinamik xususiyatini namoyon etmoqda. Agglutinativ tuzilishga ega bo‘lgan o‘zbek tilida grammatik ma’nolar asosan qo‘shimchalar yordamida ifodalanadi, biroq bugungi nutq amaliyotida ushbu qo‘shimchalarning vazifaviy ko‘lami kengayib, yangi kommunikativ ehtiyojlarga moslashmoqda.

Zamonaviy morfologiyada grammatik birlik faqat shakl emas, balki **nutqiy-funksional hodisa** sifatida qaralmoqda. Natijada so‘z shakllarining qo‘llanishi kontekst, pragmatik vaziyat va muallif munosabati bilan chambarchas bog‘liq holda talqin etilmoqda. Bu esa morfologiyani statik qoidalar majmui emas, balki ochiq va rivojlanuvchi tizim sifatida o‘rganishni taqozo etadi.

Morfologik innovatsiyalar — bu tilning morfologik sathida yuz beradigan **yangi shakliy-funksional o‘zgarishlar**, mavjud grammatik birliklarning yangi vazifalarda qo‘llanishi yoki morfologik modellarning faollashuvidir. O‘zbek tilida morfologik innovatsiyalar quyidagi yo‘nalishlarda namoyon bo‘lmoqda:


- mavjud qo‘shimchalarning semantik kengayishi;
- yangi so‘z yasash modellari paydo bo‘lishi;
- grammatik kategoriyalarning pragmatiklashuvi;
- nutqiy iqtisod tamoyiliga asoslangan soddalashuv.

Bu jarayonlar tilning ichki imkoniyatlari hisobiga amalga oshib, o‘zbek tilining milliy xususiyatlarini saqlagan holda rivojlanishini ta’minlaydi.

So‘z yasash — o‘zbek tili morfologiyasining eng faol va yangilanishga moyil sohasi hisoblanadi. Jamiyatdagi yangi ijtimoiy, texnologik va madaniy tushunchalar til orqali ifodalanishi zarurati so‘z yasash jarayonining jadallashuviga olib kelmoqda.

Zamonaviy nutqda **-chi, -lik, -dor, -kor, -siz** kabi qo‘shimchalarning faolligi ortib, ular orqali nafaqat an’anaviy, balki yangi ma’nolar ham hosil qilinmoqda. Ushbu affikslar kasbiy, ijtimoiy va abstrakt tushunchalarni ifodalashda samarali

vositaga aylanmoqda. Natijada so‘z yasash grammatik hodisadan tashqari ijtimoiy-lingvistik jarayon sifatida namoyon bo‘lmoqda.



Bundan tashqari, qisqartmalar (abbreviaturalar) morfologik jihatdan to‘laqonli so‘zga aylanish jarayonini boshdan kechirmoqda. Ular kelishik, egalik va ko‘plik qo‘shimchalarini qabul qilib, nutqda faol qo‘llanmoqda. Bu holat morfologik moslashuvning zamonaviy ko‘rinishidir.

Zamonaviy o‘zbek tilida grammatik kategoriyalar an’anaviy formal vazifadan tashqari pragmatik va uslubiy yuk ham kasb etmoqda. Ko‘plik kategoriyasi nafaqat sonni, balki umumlashtirish, kuchaytirish yoki kinoyani ifodalashi mumkin. Egalik shakllari esa subyektiv munosabatni ta’kidlash vositasiga aylanmoqda.

Kelishik kategoriyalari ham faqat sintaktik bog‘lanishni emas, balki ma’no nozikliklarini ifodalashda faol ishtirok etmoqda. Bu jarayon morfologik birliklarning semantik salohiyati ortib borayotganidan dalolat beradi.

Fe’l tizimi doirasida zamon, mayl va nisbat shakllari orqali muallif munosabati, baholash va ehtimollik ifodalanmoqda. Bu holat morfologiyaning pragmatik jihatdan boyib borayotganini ko‘rsatadi.

Zamonaviy o‘zbek tili morfologiyasida kuzatilayotgan innovatsion o‘zgarishlar til taraqqiyotining tabiiy va uzluksiz jarayon ekanini yaqqol namoyon

etadi. Jamiyat hayotidagi ijtimoiy, madaniy va texnologik rivojlanish morfologik tizimga bevosita ta’sir ko‘rsatib, grammatik birliklarning shakl va funksional imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Bu jarayonlar o‘zbek tilining agglutinativ tabiatini saqlagan holda, uning zamonaviy kommunikativ ehtiyojlarga moslashuvchanligini ta’minlaydi.

Tadqiqot davomida aniqlanganki, morfologik innovatsiyalar asosan so‘z yasash tizimining faollashuvi, grammatik kategoriyalarning funksional-pragmatik kengayishi hamda raqamli muloqot ta’sirida yuzaga kelayotgan soddalashuv jarayonlari orqali namoyon bo‘lmoqda. Xususan, ayrim affikslarning yangi semantik vazifalarda qo‘llanilishi, qisqartmalarning morfologik jihatdan mustaqil birlik sifatida faol ishtirok etishi o‘zbek tilining ichki rivojlanish imkoniyatlari keng ekanini ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. **Hojiyev A.** O‘zbek tili grammatikasi. – Toshkent: Fan, 2015.
2. **Rahmatullayev Sh.** Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: Universitet, 2016.
3. **Ne’matov H.** O‘zbek tilshunosligida zamonaviy tadqiqotlar. – Toshkent, 2020.
4. **Yo‘ldoshev M.** Til va nutq masalalari. – Toshkent: Akademnashr, 2018.
5. **Mahmudov N.** Til me’yorlari va nutq madaniyati. – Toshkent: O‘qituvchi, 2017.
6. **Abduazizov A.** Tilshunoslik nazariyasi asoslari. – Toshkent, 2019.
7. **Karimov B.** Til taraqqiyoti va ijtimoiy omillar. – Toshkent, 2021.

THE INFLUENCE OF SHAKESPEARE ON MODERN ENGLISH LITERATURE

Boltaboyev Orifjon Ozodboy o'g'li
Narzullayeva D.S
Samarkand State Institute of Foreign Languages

Annotation. *This article examines the significant influence of William Shakespeare on modern English literature. It explores how Shakespeare's works have contributed to the development of the English language, enriched literary expression, and shaped key themes and character portrayals in later literature. The study highlights Shakespeare's role in introducing new words and phrases, developing universal themes such as love, ambition, power, and identity, and creating psychologically complex characters that remain relevant today. Furthermore, the article discusses Shakespeare's impact on literary forms, dramatic techniques, and modern adaptations in literature and popular culture. Through an analysis of language, themes, characterization, and literary innovation, the article demonstrates that Shakespeare's legacy continues to influence modern English literature and remains a foundational element of literary studies worldwide.*

Keywords: *William Shakespeare; Modern English Literature; English Language Development; Universal Themes; Characterization; Psychological Depth; Drama and Tragedy; Literary Influence; Blank Verse; Shakespearean Legacy.*

William Shakespeare is universally acknowledged as one of the greatest writers in the history of English literature. Born in 1564, Shakespeare wrote during the Elizabethan and early Jacobean periods, a time of great cultural and literary development in England. His works include 39 plays, 154 sonnets, and several narrative poems, all of which have had a lasting influence on literature and language. Even more than four centuries after his death, Shakespeare's works continue to shape modern English literature in terms of language, themes, character development, and literary techniques. This essay explores the profound influence of

Shakespeare on modern English literature and explains why his legacy remains relevant today. One of Shakespeare's most significant contributions to modern English literature is his influence on the English language itself. Shakespeare had an extraordinary command of language and used it creatively to express complex ideas and emotions. Scholars estimate that he introduced or popularized more than 1,700 words in English. These include nouns, verbs, and adjectives such as lonely, manager, generous, critic, eyeball, addiction, and fashionable. Many of these words are still commonly used in everyday speech and writing. In addition to individual words, Shakespeare also created phrases and idioms that have become a natural part of modern English. Expressions such as "break the ice," "heart of gold," "in a pickle," "fair play," and "all that glitters is not gold" originated in his plays. These phrases demonstrate Shakespeare's ability to capture universal human experiences in a powerful language. Modern writers continue to use such expressions, often without realizing their Shakespearean origin. Shakespeare's flexible and inventive use of grammar also influenced later writers. He freely changed nouns into verbs, experimented with sentence structure, and played with word order to achieve a poetic effect. This freedom encouraged later authors to see language as a creative tool rather than a fixed system, shaping the development of modern literary English. Another major way in which Shakespeare influenced modern English literature is through the universal themes he explored. Shakespeare's works deal with fundamental aspects of human life that remain relevant across time and cultures. Themes such as love, power, ambition, jealousy, revenge, betrayal, fate, identity, and the conflict between good and evil appear repeatedly in his plays and poems. For example, Romeo and Juliet explores the power of love and the consequences of hatred, themes that continue to appear in modern novels and films. Macbeth examines ambition and moral corruption, while Hamlet focuses on indecision, revenge, and the search for truth. These themes are still central to modern English literature because they reflect timeless human struggles. Modern writers often reinterpret Shakespearean themes in contemporary settings. Psychological conflict, moral dilemmas, and questions of identity—so prominent in Shakespeare's works—

are key elements of modern fiction and drama. Shakespeare's deep understanding of human nature set a model for writers who seek to explore the inner lives of their characters. Shakespeare revolutionized the way characters are portrayed in literature. Before his time, many literary characters were flat and symbolic, representing simple ideas such as good or evil. Shakespeare, however, created complex, multi-dimensional characters with inner conflicts, emotional depth, and personal growth. Characters such as Hamlet, Macbeth, Othello, King Lear, and Lady Macbeth are psychologically rich and realistic. Hamlet's internal struggle between action and inaction, Macbeth's transformation from a brave hero into a ruthless tyrant, and King Lear's tragic realization of his own mistakes show a deep understanding of the human mind. These characters think, doubt, suffer, and change, making them relatable even to modern readers. This approach to characterization strongly influenced modern English literature. Contemporary novels and plays often focus on psychological realism, exploring characters' thoughts, emotions, and motivations in detail. Shakespeare's use of soliloquies, which allow readers and audiences to hear a character's inner thoughts, laid the foundation for modern narrative techniques such as interior monologue and stream of consciousness. Shakespeare's impact on literary forms, especially drama, is another important aspect of his influence on modern English literature. He perfected and expanded dramatic genres such as tragedy, comedy, and history. His tragedies are structured around the concept of a tragic hero with a fatal flaw, a model that continues to influence modern drama and fiction. Shakespeare also made extensive use of dramatic techniques such as dramatic irony, foreshadowing, symbolism, and subplots. These techniques help create tension and deepen meaning, and they are widely used by modern writers and playwrights. For instance, dramatic irony—where the audience knows more than the characters—is a common feature in modern literature and film. In poetry and drama, Shakespeare's use of blank verse (unrhymed iambic pentameter) had a lasting influence. This flexible poetic form allowed for natural speech while maintaining rhythm and elegance. Many modern poets and dramatists have been inspired by Shakespeare's mastery of rhythm and poetic language. Shakespeare's influence

extends beyond traditional literature into modern adaptations and popular culture. His plays have been adapted into novels, films, television series, and even modern stage productions set in different cultural and historical contexts. These adaptations show the flexibility and timelessness of Shakespeare's stories. For example, West Side Story is a modern adaptation of Romeo and Juliet, set in 20th-century New York. Films such as The Lion King draw heavily on the plot of Hamlet. Modern authors often rewrite Shakespearean stories from new perspectives, addressing contemporary issues such as gender, politics, and social inequality. Through these adaptations, Shakespeare continues to influence modern English literature by inspiring new forms of storytelling. His works serve as a foundation upon which modern writers build new interpretations and creative expressions. Shakespeare's influence is also evident in education and literary criticism. His works are studied in schools and universities around the world as essential texts of English literature. Through studying Shakespeare, students learn about language development, literary techniques, and cultural history. Modern literary criticism has been shaped in part by the analysis of Shakespeare's works. Concepts such as tragedy, character motivation, and thematic interpretation are often taught using Shakespeare as a primary example. As a result, Shakespeare continues to shape how literature is read, analyzed, and understood in the modern world. In conclusion, William Shakespeare's influence on modern English literature is deep, wide-ranging, and enduring. His contributions to the English language, exploration of universal themes, creation of complex characters, and innovation in literary forms have shaped the development of English literature for centuries. Modern writers continue to draw inspiration from Shakespeare's works, whether consciously or unconsciously. Shakespeare's ability to capture the essence of human experience ensures that his works remain relevant in every age. For this reason, he is not only a central figure in the history of English literature but also a powerful influence on modern literary thought and creativity. His legacy continues to live on through the language we speak, the stories we tell, and the literature we read today.

List of used literature

1. **Shakespeare W.** The complete works of William Shakespeare. — Oxford: Oxford University Press, 2003.
2. **Bloom H.** Shakespeare: the invention of the human. — New York: Riverhead Books, 1998.
3. **Greenblatt S.** Will in the world: how Shakespeare became Shakespeare. — New York: W. W. Norton & Company, 2005.
4. **Abrams M. H., Harpham G. G.** A glossary of literary terms. — Boston: Cengage Learning, 2012.
5. **Sanders A.** The short Oxford history of English literature. — Oxford: Oxford University Press, 2004.
6. **Wells S., Taylor G.** The Oxford Shakespeare: the complete works. — Oxford: Oxford University Press, 2005.
7. **Bradley A. C.** Shakespearean tragedy: lectures on Hamlet, Othello, King Lear, Macbeth. — London: Macmillan, 1904.
8. **Kermode F.** Shakespeare's language. — New York: Farrar, Straus and Giroux, 2000.
9. **McEvoy S.** Shakespeare: the basics. — London: Routledge, 2000.
10. **Garber M.** Shakespeare after all. — New York: Anchor Books, 2004.
11. **Bate J.** The genius of Shakespeare. — Oxford: Oxford University Press, 2008.
12. **Alexander M.** A history of English literature. — London: Palgrave Macmillan, 2000.
13. **Drabble M.** (ed.). The Oxford companion to English literature. — Oxford: Oxford University Press, 2000.
14. **Crystal D.** Think on my words: exploring Shakespeare. — 2008.

ABDULLA QODIRIYNING "O'TKAN KUNLAR" VA "MEHROBDAN CHAYON" ROMANLARIDA MILLIYLIK IFODASI

Ibragimova Mashhura Mahmudjon qizi

Urganch davlat universiteti

Annotatsiya. *Mazkur maqolada o‘zbek adabiyotining yorqin namoyandalaridan biri — Abdulla Qodiriyning asarlarida milliylik masalasi yoritilgan. Muallif ijodida xalqning tarixiy xotirasi, milliy g‘ururi va urf-odatlari qanday tasvirlanganiga e’tibor qaratilgan. Jumladan, “O‘tkan kunlar” va “Mehrobdan chayon” romanlari asosida milliy ong, urf-odatlar, liboslar, til va an’analar badiiy talqini tahlil qilinadi. Qodiriy milliylikni nafaqat tarixiy kontekstda, balki zamonaviylik bilan uyg‘un holda tasvirlagani maqolaning asosiy e’tibor markazida turadi. Maqola adib ijodining milliy uyg‘onishdagi o‘rni va yosh avlod tarbiyasiga ta’siri haqida xulosalar bilan yakunlanadi.*

Kalit so‘zlar: *Abdulla Qodiriy, milliylik, o‘zbek adabiyoti, tarixiy roman, “O‘tkan kunlar”, “Mehrobdan chayon”, milliy ong,quda-andachilik an'analari, urf-odat, badiiy tasvir.*

Ming yil umr ko‘rgan Nuh alayhissalomdan so‘rabdilar:" Tiriklikni nimaga o‘xshatding?" " -Ikki eshikli uyga o‘xshaydi: biridan kirdim, ikkinchisidan chiqdim. Yaxshi odam shu imoratga o‘zining ezgu amallari bilan g‘isht qo‘yib ketsa, yomon odam undan g‘isht ko‘chirib ketar ekan". Ha, haqiqatan ham, taniqli yozuvchi O‘tkir Hoshimovning " Ikki eshik orasi" asarida nazarda tutilganidek, bu dunyodagi insonlar "bunyod etuvchi" va "barbod qiluvchi" degan ikki toifaga ajratiladi.Agar oramizda Ijod ahli, shoir-u yozuvchilar - inson ma'naviyatining muhandislari bo‘lmaganida, bu imorat allaqachonlar inqirozga yuz tutardi, ehtimol...

Darhaqiqat, Luqmoni hakim aytgan ekanlar: "Bu besh kunlik dunyoda olti kun turayin desang, yillar davomida hamma uchun birdek foyda keltirgan bog‘ yarat yoki tillarda doston bo‘luvchi asar yoz". O‘zbek romanchiligiga tamal toshini qo‘ygan, millatimizni birdamlikka chorlagan ijodkor Abdulla Qodiriy ham ikkinchi umrini asarlarida yashayotganday go‘yo...

... Buvim bizga "Yetti zog‘ara qissasi"dan so‘ng eski jild, sariq varaqli "O‘tkan kunlar"ni o‘qib berganlarini yaxshi eslayman. Bu kitob katta bobomning qizlaridan, qo‘shnilaridan, do‘stlaridan qo‘lma-qo‘l o‘tib, bizga yetib kelgan edi...

Milliylik – bu bir xalqning yuragida, yurish-turishida, so‘zida, kiyimida, hatto ko‘z qarashida mujassam bo‘ladigan bebaho boylikdir. Urf-odatlar esa o‘sha milliylikning bir ko‘rinishidir. Ular har bir xalq o‘zining tarixiy tajribasi, dunyoqarashi, turmush tarzi asosida yaraladi. Bu urf-odatlar avloddan-avlodga o‘tib, xalqning hayot mezoniga aylanadi. Daraxt ildizsiz yashay olmagani kabi xalq ham milliy qadriyatlarisiz yashay olmaydi. Agar milliylik, urf-odatlar va qadriyatlar bo‘lmaganida, hayot oddiy bir suratdek bejilo va ma’nosiz bo‘lib qolardi. Tasavvur qilaylik: tong otadi, lekin unda na Navro‘zning quvonchi, na to‘ylarning barakasi, na ona duosining fayzi bor. To‘y bo‘lyapti-yu, na ertadan qozon osish bor, na uy to‘la mehmon... Shunday paytlarda milliyligimizni saqlashda dunyoga o'zgacha ko'zlar bilan boquvchi ijod ahlining ham alohida o‘rni borligini ich-ichidan his qilasan kishi.

Qodiriy asarlarida urf-odatlar va qadriyatlar millatning ajralmas qismi sifatida tasvirlanadi. “O‘tkan kunlar”da xalqning turmush tarziga, odatlariga, to‘ylarga, mehmondo‘stlikka, oilaviy qadriyatlar va erkaklar va ayollar o‘rtasidagi o‘zaro hurmatga katta e’tibor qaratilgan. Romanning har bir sahifasida o‘sha davrda xalq orasida mavjud bo‘lgan urf-odatlar va qadriyatlar jonli tasvirlanadi. Misol uchun, Yusufbek hoji xonadonida Hasanali va uning ayoliga qul bo‘lishlariga qaràmasdan, ikkinchi ota-onadek aloqa qilinishi; tug'ruqdan so‘ng onaga atab atala pishirilishi, Mirzakarim qutidor hovlisidagi to‘y marosimlar “Qo‘ni-qo‘shniga osh tarqatish”, “kelin salom”, “dugona chaqiriq” kabi urf-odatlarimiz asosida bo'lib o‘tishi buning yaqqol dalilidir. Shuningdek, asardagi ushbu tasvirlar alohida e'tiborga molikdir:

" Yusufbek hoji Kumushning yelkasiga qoqib suydi va uning manglayiga tekg'izib olg'an o'z qo'llarini o'pdi.."

"Yusufbek hoji Kumushning yelkasiga qoqib suydi..." - Qaynota kelin munosabatlarida ham hurmat, e'zozlash va minnatdorchilik muhim o'rin tutadi. Yusufbek hojining Kumushning yelkasiga qoqishi - unga kelin sifatida bo'lgan mehrini, oilaga kelgani uchun minnatdorchiligini bildiradi. Yelka - oilaning yukini ko'tarishda sherik bo'lish ramzi bo'lsa, qaynota tomonidan yelkaga qoqish kelinning oila a'zosi sifatida qabul qilinganligini, unga ishonch bildirilganligini anglatadi. "...va uning manglayiga tekkizib olg'an o'z qo'llarini o'pdi..." Yusufbek hojining Kumushning manglayiga qo'llarini tekkizib, keyin o'pishi - uning aqliga, odobiga, kelajakda yaxshi ona bo'lishiga ishonch bildirishidir. Bu harakat o'zbek milliy odobiga ko'ra kelinning qaynota oldidagi hayosini saqlagan holda, unga bo'lgan yuksak hurmatni ifodalash uchun. xizmat qilmoqda.

"O'zbek oyim Otabekni Marg'ilonga yubormaslik uchun issiq-sovuq qilib yurganida Yusufbek hoji Otabekka Marg'ilonga bormaslikni qattiq tayinlab, unga tanbeh berdi va O'zbek oyim bilan kengash qilmasdan qudalarga Kumushni olib kelishlarini aytib xat yozadi. O'zbek oyimga bu ish yoqqan bo'lsa ham, undan bemaslahat qilingani uchun bir necha kun o'pkalab yurdi"

Bu vaziyatda ham xalqimizga xos milliy mentalitet namoyon bo'lgan: o'zbeklarda birorta qaror oila bekasining ishtirokisiz qabul qilinmasligi lozim, garchi undan hammaga manfaat yetsa ham...

"Boyagiday ko'pchilikning ko'zi Kumushda edi. Ayniqsa, O'zbek oyim suqlanib unga qarar va tomoqqa qistar edi:

- Ol, bolam, ol! Men tomoqdan uyaladigan kishini yomon ko'raman. Yoki eshikdan kirishingdanoq sansiray boshlaganim uchun xafa bo'ldingmi? Men yaqin ko'rgan kishimni sizlay olmayman".

O'zbeklarda "Mehmon otangdan ulug' " degan go'zal naql bo'lib, u bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. O'zbek oyim marg'ilonlik "andi" kelinini har qancha yomon ko'rsa ham, milliy qadriyatlarimizga amal qilgan holda,

mehmonlarning hurmatini joyiga qo'yib ish tutadi. Ularni izzat-ikrom bilan kutib oladi.

Adibning "Mehrobdan chayon" asari ham o'zida o'zbek xalqining go'zal qadriyatlarini o'zida jamlagan asar hisoblanadi. Jumladan, Ra'noning oyisi - Nigor oyimning hayo yuzasidan qishin-yozin bir xil jevak (zamonaviy tilda jilet) kiyib yurishi buning isbotidir. Shu jumladan, asarda tasvirlangan qishloq ahlining har kuni masjidga borishni kanda qilmasligini, e'tiqodida sobitligini ham qadriyat darajasiga ko'tarilganiga guvoh bo'lamiz. Bundan tashqari, ushbu asarda "Qarshi quda bo'lish" udumi haqida ham so'z borgan:

" Bas, Mohlar oyim o‘z tirikligida maxdumning “boshini ikki” qilmasa, o‘zidan so‘ng uning uylana olishi amrimahol. Shuni ko‘zda tutib Mohlar oyim maxdumning uylanishiga mazkura Na’imani vosita qilmoqchi bo‘ldi. Ya’ni Na’imani uzatib evaziga uzatilgan joydan kelin olmoqchi edi."

Qarshi quda bo'lish - xalqimizning azaliy udumlaridan biri hisoblanadi. Bunda qiz olinayotgan joyga qiz berilajagi uchun o'rtadagi mahr masalasi har ikkala tomon foydasiga hal etiladi: xohlashsa, odatiy mahrning yarimi to'lanishi yoki qisman berilishi mumkin. Bu asarda esa Abdulla Qodiriy Mohlar oyimni nihoyatda tadbirli ayol sifatida gavdalantirgan: ikki orada qalin-palin degan gaplar yo‘q, har kim o‘z ulushiga tushkan osh-suvini qiladir, kelinni o‘rab-chirmab oladir, vassalom...

Shuningdek, asar orqali o'zbek onalarining qizlar tarbiyasiga nihoyatda e'tiborli bo'lishi ham o'z aksini topgan:

"Na’ima to‘g‘risidan tashvish yo‘q, husn, odob, yumish, hammasidan ko‘ngil to‘q"

Anglaganimizdek**,** o'zbek ayollari qiz tarbiyalashga o'ta nozik masala deb qarashgan. Solih mahdumning singli Na'ima xulq- atvorida odob, samimiyat, andisha, hayo, fahmlilik, donolik, mehnatkashlik, sabr-toqatlilik - hammasi mujassam. Asar davomida Naima o'zbek kelinlarining umumlashma obrazi sifatida keltirilgan.

Mashhur faylasuf Jon Kennedi : "Milliy qadriyatlar – bu yuraklarda yonib turgan ma’naviyat mash’ali, bu xalqni xalq qilgan ruhiy ustunlardir" - degan edi.

Haqiqatan ham, qadriyatlar, urf-odatlar xalq qalbida yonib turgan ma’naviyat mash’alidek, yangi avlodga yo‘l ko‘rsatadi, uni turli ijtimoiy oqimlardan asraydi. Agar bir xalq o‘z qadriyatlarini unutsa, u asta-sekin o‘zligini yo‘qota boshlaydi. Shu bois bu qadriyatlar xalqni xalq qilgan ruhiy ustun bo‘lib xizmat qiladi – u xalqning birligini, iftixorini, ma’naviy mustahkamligini ta’minlaydi. Hozirda butun dunyo aholisiga xavf solayotgan ommaviy madaniyat (keng ommaga mo‘ljallangan, ko‘pincha internet, televideniye va moda orqali tarqaladigan, yengil va ommabop, g'ayriaxloqiy madaniyat)ga qarshi kurashishda ham milliy an'analarimiz muhim rol o'ynaydi. Abdulla Qodiriy buni teran anglagan holda asarlari orqali milliyligimizning betakror go‘zalligi, xalqimizning boy urf-odatlari, o‘zbekona hayot tarzinivyuksak badiiy mahorat bilan tarannum etgan bo‘lib, har bir satrida millatga muhabbat, qadriyatlarga sadoqat va o‘zlikni anglash tuyg‘usini ulug‘laydi. U yaratgan asarlar bugungi yosh avlodga o‘z millatiga bo‘lgan faxr tuyg‘usini singdiradi, ularni ma’naviyatli, vatanparvar va ongli insonlar bo‘lib kamol topishiga undaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. **Qodiriy A.** O‘tkan kunlar. – Toshkent: Sharq nashriyoti, 2010.
2. **Qodiriy A.** Mehrobdan chayon. – Toshkent: Yangi nashr, 2006.
3. **A’zamov I.** Abdulla Qodiriy va uning asarlari. – Toshkent: Fan nashriyoti, 1993.

IJTIMOIY TARMOQLAR TILI VA UNDAGI O’ZLASHMALAR: ZAMONAVIY LINGVISTIK JARAYONLAR TAHLILI

Jo’rayeva Shahnoza Norqul qizi

SHDPI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada ijtimoiy tarmoqlar tilining shakllanishi va unda kuzatilayotgan o‘zlashma so‘zlar masalasi lingvistik nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Ijtimoiy tarmoqlarning tezkor va ommaviy kommunikativ makon sifatida namoyon bo‘lishi o‘zbek tilining leksik tizimiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Xususan, ingliz va rus tillaridan kirib kelgan o‘zlashmalar, kod-almashuv holatlari hamda ularning nutq madaniyatiga ta’siri yoritiladi. Shuningdek, o‘zlashmalarning ijobiy va salbiy jihatlari, til me’yorlarini saqlash masalalari muhokama qilinadi. Maqola materiallari zamonaviy o‘zbek tilshunosligi va media lingvistika yo‘nalishidagi tadqiqotlar uchun nazariy va amaliy ahamiyatga ega.*

Kalit so‘zlar: *ijtimoiy tarmoqlar tili, o‘zlashma so‘zlar, media lingvistika, kod-almashuv, nutq madaniyati, zamonaviy o‘zbek tili.*

Globallashuv jarayonining jadallashuvi va raqamli texnologiyalarning keng ommalashuvi til taraqqiyotiga yangi yo‘nalishlar olib kirdi. Bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlar nafaqat axborot almashish vositasi, balki til birliklari faol shakllanadigan muhim kommunikativ muhitga aylandi. Telegram, Instagram, Facebook, TikTok kabi platformalar doirasida yuzaga kelayotgan nutq shakllari o‘zbek tilining leksik va uslubiy qatlamiga bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda. Ayniqsa, mediadan kirib kelgan o‘zlashma so‘zlar tilshunoslikda dolzarb muammolardan biri sifatida e’tirof etilmoqda.

Ijtimoiy tarmoqlar tili o‘zining tezkorligi, ixchamligi va norasmiyligi bilan an’anaviy yozma nutqdan farqlanadi. Ushbu muhitda xorijiy tillardan kirib kelgan atamalar faol qo‘llanilib, foydalanuvchilar nutqini soddalashtirishga xizmat qilmoqda. “Post”, “story”, “reels”, “like”, “comment”, “share”, “online”, “bloger”, “kontent” kabi birliklar bunga yaqqol misol bo‘la oladi. Tilshunoslik nuqtai nazaridan, bu holat yangi tushunchalarni ifodalash ehtiyoji bilan izohlanadi. Media va axborot texnologiyalari sohasida paydo bo‘lgan yangiliklar dastlab xorijiy terminlar orqali nomlanadi va asta-sekin milliy tilga moslashadi. Biroq o‘zbek tilida muqobili mavjud bo‘lgan so‘zlar o‘rnida chet tillardagi birliklarning ustun qo‘llanishi til me’yorlariga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Ijtimoiy tarmoqlar tilida kod-almashuv holatlari ham keng tarqalgan. Kod almashuv jarayoni tilshunoslikda ikki

yoki undan ortiq til, lahja yoki nutq shakllarining bitta muloqot doirasida navbatma-navbat qo‘llanishi sifatida izohlanadi. Bu hodisa ko‘p tilli muhitda yashovchi shaxslarning nutqida tabiiy ravishda yuzaga keladi va tilning ijtimoiy, madaniy hamda psixologik jihatlari bilan chambarchas bog‘liqdir.Bir jumla tarkibida bir nechta til unsurlarining qo‘llanishi, ayniqsa, yoshlar nutqida faol kuzatiladi. Bu jarayon til tafakkuriga ta’sir etib, nutqning uslubiy barqarorligini zaiflashtirishi ehtimoli mavjud. Shu bilan birga, ayrim o‘zlashmalar tilning lug‘aviy boyishini ta’minlab, uning zamon bilan hamnafas bo‘lishiga xizmat qilmoqda. Kod almashuv jarayoni tilning tirik va ijtimoiy hodisa ekanini ko‘rsatadi. U shaxsning til kompetensiyasi, madaniy tajribasi va kommunikativ ehtiyojlarini aks ettiradi. To‘g‘ri va o‘rinli qo‘llangan kod almashuv nutqning ifodaviyligini oshirsa, me’yoridan ortiqcha foydalanish tilning sof shakliga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Mazkur jarayonda ommaviy axborot vositalari, jurnalistlar va kontent yaratuvchilarning til madaniyatiga bo‘lgan mas’uliyati alohida ahamiyat kasb etadi. Ular tomonidan me’yoriy til birliklaridan ongli foydalanish ijtimoiy tarmoqlar tilining sog‘lom rivojlanishiga zamin yaratadi.

OAV va ijtimoiy tarmoqlardan o’zlashgan so’zlarga quyidagilarni misol qilib keltirishimiz mumkin:

Smartfon – aqlli telefon

app– mobil dastur

Onlayn – internet orqali

Oflayn – internetga ulanmagan holat

Login – tizimga kirish ma’lumoti

Parol – maxfiy kalit

Platforma – raqamli xizmat muhiti

Bloger – internetda ijod qiluvchi shaxs

Kontent – axborot yoki media mahsuloti

Post – ijtimoiy tarmoqdagi yozuv

Layk – yoqtirish belgisi

Repost – qayta ulashish

Story – qisqa muddatli video yoki rasm

Follower – obunachi

Trend – ommalashgan yo‘nalish

Streaming – jonli efir uzatish

Test – sinov savollari

Onlayn kurs – masofaviy ta’lim

Vebinar – internet orqali seminar

Prezentatsiya – taqdimot

Grant – moliyaviy yordam

Ranking – reyting tizimi

Marketing – bozorni o‘rganish va targ‘ibot

Menejer – boshqaruvchi

Startap – yangi biznes loyihasi

Investor – sarmoya kirituvchi

Brend – savdo belgisi

Frilanser – mustaqil ishlovchi mutaxassis

Selfi – o‘zini suratga olish

Challeng – tanlov yoki chaqiriq

Like bosmoq – yoqtirishni bildirish

Fake – soxta

Update – yangilash

Feedback – fikr-mulohaza

Inglizcha o‘zlashmalar ko‘proq yoshlar nutqida, internet muloqotida va norasmiy uslubda faol qo‘llanadi. Ilmiy va rasmiy uslubda esa bunday so‘zlar ehtiyotkorlik bilan, ko‘pincha termin sifatida yoki muqobili mavjud bo‘lmagan hollarda ishlatiladi. Masalan, **“kontent”** yoki **“platforma”** so‘zlari ilmiy matnlarda terminlashgan birlik sifatida mustahkam o‘rin egallamoqda. Ingliz tilidan kirib kelgan so‘zlar ko‘pincha kod almashuv jarayoni bilan chambarchas bog‘liq bo‘ladi. Nutq jarayonida inglizcha birliklarning qo‘llanishi vaqt o‘tishi bilan doimiy

o‘zlashmaga aylanib, til tizimining tarkibiy qismiga singib ketadi. Dastlab kod almashuv unsuri sifatida ishlatilgan so‘zlar keyinchalik lug‘aviy birlik maqomini oladi. O‘zlashgan so‘zlar o‘zbek tilining fonetik va grammatik tizimiga muayyan darajada moslashadi. Masalan, **“like”** so‘zi og‘zaki nutqda **“layk”**, **“update”** esa **“apdeyt”** shaklida talaffuz qilinadi. Grammatik jihatdan esa ular o‘zbek tiliga xos qo‘shimchalarni qabul qiladi: *layklamoq, post qilmoq, yangilandi (update bo‘ldi)*. Bu jarayon o‘zlashgan birliklarning faol nutqiy elementga aylanganini ko‘rsatadi.Ingliz tilidan kirib kelayotgan yangi so‘zlar asosan muayyan sohalar bilan bog‘liq holda shakllanmoqda. Jumladan, axborot texnologiyalari (smartfon, ilova, platforma), ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlar (post, layk, kontent), iqtisodiyot va biznes (startap, marketing, brend) hamda ta’lim sohasi (onlayn kurs, vebinar, test) yetakchi o‘rinni egallaydi. Bu holat yangi tushunchalarning avvalo ingliz tilida shakllanib, keyinchalik boshqa tillarga o‘zlashishi bilan izohlanadi.

Ijtimoiy tarmoqlar tili zamonaviy o‘zbek tilining rivojlanishida muhim omil sifatida namoyon bo‘lmoqda. Undagi o‘zlashmalar globallashuv va raqamli kommunikatsiyaning tabiiy mahsuli bo‘lib, tilning leksik imkoniyatlarini kengaytiradi. Biroq bu jarayonda ona tilining me’yorlari va milliy xususiyatlarini saqlab qolish muhim vazifa bo‘lib qoladi. Tilga ongli munosabat va nutq madaniyatiga e’tibor qaratish ijtimoiy tarmoqlar tilining barqaror rivojlanishini ta’minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. **Rahmatullayev Sh.** Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: Fan, 2006. – 320 b.
2. **Mahmudov N.** Til va madaniyat. – Toshkent: Ma’naviyat, 2010. – 256 b.
3. **Nurmonov A.** O‘zbek tilshunosligi masalalari. – Toshkent: Universitet, 2012. – 300 b.
4. **Crystal D.** Language and the Internet. – Cambridge: Cambridge University Press, 2011. – 304 p.

5. **Yusupova M.** Media matn va zamonaviy til jarayonlari // O‘zbek tili va adabiyoti. – 2020. – № 3. – B. 45–52.

O‘ZBEK ROMANLARINING RUS TILIGA TARJIMALARIDA LINGVOMADANIY ADEKVATLIK MASALASI

Mamasodiqova Mahzuna Jalol qizi
Namangan davlat chet tillari instituti

Annotatsiya: *Maqolada o‘zbek romanlarining rus tiliga tarjimalarida lingvomadaniy adekvatlik masalasi nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Tarjima jarayonida milliy-madaniy realiyalar, urf-odatlar, an’analar hamda madaniy konseptlarning rus tilida ifodalanish xususiyatlari yoritiladi. Abdulla Qodiriyning “O‘tgan kunlar” romani ruscha tarjimalari misolida lingvomadaniy yo‘qotishlar, ularning sabablari hamda tarjimonlik usullari tahlil qilinadi. Dissertant tomonidan lingvomadaniy adekvatlikni ta’minlashga doir amaliy tavsiyalar ilgari suriladi.*

Kalit so‘zlar: *tarjima adekvatligi, lingvomadaniy adekvatlik, milliy kolorit, madaniy realiya, o‘zbek romani, ruscha tarjima.*

Bugungi globallashuv sharoitida milliy adabiyotlarning boshqa tillar orqali jahon madaniy makoniga kirib borishi tarjimaning sifati va adekvatligiga bevosita bog‘liq. O‘zbek romanlarining rus tiliga tarjimalari bu jarayonda alohida ahamiyat kasb etadi, chunki rus tili uzoq yillar davomida madaniy vositachi vazifasini bajargan. Biroq tarjima jarayonida faqat syujet va voqealar tizimini uzatish yetarli emas; asarda mujassam bo‘lgan milliy ruh, tarixiy-madaniy muhit, urf-odat va qadriyatlar ham adekvat tarzda aks etishi lozim.

Fikrimizcha, o‘zbek romanlarining ruscha tarjimalarida uchraydigan asosiy muammo leksik nomuvofiqlik emas, balki madaniy ma’nolarning neytrallashuvi bilan bog‘liq. Aynan shu holat lingvomadaniy adekvatlikning buzilishiga olib keladi. Shu sababli mazkur maqolada lingvomadaniy yondashuv asosida o‘zbek romanlari tarjimasining sifatini baholash va uni takomillashtirish masalalari ko‘rib chiqiladi.

Tarjima nazariyasida adekvatlik tushunchasi tarjima matnining asl matnga mazmuniy, funksional va kommunikativ jihatdan mos kelishini anglatadi[30]. Lingvomadaniy adekvatlik esa ushbu moslikning madaniy qatlamini qamrab oladi. Ya’ni, matndagi milliy-madaniy axborotning qabul qiluvchi til va madaniyat doirasida to‘g‘ri anglanishi lingvomadaniy adekvatlikning asosiy mezoni hisoblanadi[31].

O‘zbek romanlarida milliy-madaniy axborot bir qator lingvistik va ekstralingvistik vositalar orqali ifodalanadi. Bu vositalar asarning milliy qiyofasini belgilab, uning badiiy va madaniy qiymatini shakllantiradi.

Avvalo, milliy realiyalar orqali milliy hayot tarzi va ijtimoiy munosabatlar aks etadi. Masalan, mahalla tushunchasi o‘zbek madaniyatida faqat hududiy birlik emas, balki ijtimoiy nazorat, o‘zaro yordam va ma’naviy tarbiya instituti sifatida namoyon bo‘ladi. “O‘tgan kunlar” romani ruscha tarjimasida mazkur birlik ko‘p hollarda kvartal yoki ulisa shaklida berilgan. Bu holatda mahallaning ijtimoiy-funksional mohiyati qisqarib, uning madaniy yuklamasi neytrallashadi.

Shuningdek, to‘y marosimlariga oid realiylar ham muayyan o‘zgarishlarga uchraydi. Masalan, nikoh to‘yi ruscha tarjimada svadba sifatida beriladi. Biroq o‘zbek madaniyatida nikoh to‘yi diniy, oilaviy va jamoaviy marosimlar majmuasi bo‘lib, u rus tilidagi svadba tushunchasiga to‘liq mos kelmaydi. Natijada marosimning etnomadaniy mazmuni qisman yo‘qoladi.

[30] Komissarov V.N. *Teoriya perevoda (lingvisticheskie aspekty).* – M.: Vysshaya shkola, 1990. – S. 120.
[31] Vereshchagin E.M., Kostomarov V.G. *Yazyk i kultura.* – M.: Russkiy yazyk, 1990. – S. 96.

Qarindoshlik tizimiga oid birliklar ham lingvomadaniy adekvatlik nuqtai nazaridan murakkab hisoblanadi. Masalan, quda-andalik munosabatlari ruscha tarjimada rodstvennыye svyazi deb umumlashtiriladi. Dissertant fikricha, bu holatda qudachilikning ijtimoiy va marosimiy ahamiyati kamayib, munosabatlar faqat biologik yaqinlik darajasida ifodalanadi.

Ikkinchidan, madaniy konseptlar milliy mentalitetni ochib beruvchi muhim vosita hisoblanadi. Masalan, or-nomus konsepti ruscha tarjimada ko‘pincha chest yoki dostoinstvo bilan ifodalanadi. Biroq o‘zbek madaniyatida or-nomus nafaqat shaxsiy sha’n, balki oila va jamoa oldidagi ma’naviy mas’uliyatni ham qamrab oladi. Shu ma’no qatlamlari ruscha tarjimada to‘liq aks etmaydi.

Xuddi shuningdek, andisha tushunchasi rus tilida stesneniye yoki ostorojnost sifatida beriladi. Bu esa andishaning ijtimoiy munosabatlardagi axloqiy va madaniy regulyator sifatidagi funksiyasini cheklab qo‘yadi. Kattaga hurmat konsepti esa ruscha tarjimada ko‘pincha faqat nutqiy muloyimlik bilan cheklanib, uning iyerarxik va madaniy mohiyati to‘liq ochilmaydi.

Uchinchidan, urf-odat va an’analar o‘zbek romanlarida milliy hayotning ajralmas qismi sifatida tasvirlanadi. Masalan, mehmon kutish yoki kattalardan rozilik olish kabi holatlar ruscha tarjimada qisqartirilib yoki umumiy ifodalar bilan berilgan holatlar uchraydi. Bu holatda asarning madaniy muhiti kamroq seziladi.

Nihoyat, milliy nutq etiketlari orqali ijtimoiy iyerarxiya va munosabatlar ifodalanadi. Masalan, “ota-jon”, “aka”, “opa” kabi murojaat shakllari ruscha tarjimada ko‘p hollarda shaxsning ismi bilan almashtiriladi. Natijada nutqdagi hurmat va yaqinlik ifodasi susayadi, kommunikativ-pragmatik ma’no yo‘qoladi.

Fikrimizcha, mazkur misollar shuni ko‘rsatadiki, milliy-madaniy axborotni tashkil etuvchi realiylar, konseptlar va nutq etiketlari ruscha tarjimada to‘liq hisobga olinmagan hollarda, asarning milliy ruhi va madaniy identifikatsiyasi zaiflashadi. Shu sababli, lingvomadaniy adekvatlikni ta’minlashda tarjimon mazkur birliklarga alohida e’tibor qaratishi zarur. Bizningcha, ushbu birliklar tarjimada saqlanmagan taqdirda, asarning milliy qiyofasi sezilarli darajada yo‘qoladi.

Ta’kidlash kerakki, Abdulla Qodiriyning “O‘tgan kunlar” romani o‘zbek jamiyatining XIX asr oxiridagi ijtimoiy va madaniy manzarasini aks ettiruvchi muhim asardir. Roman rus tiliga bir necha bor tarjima qilingan bo‘lib, ushbu tarjimalarda lingvomadaniy adekvatlik masalasi dolzarb bo‘lib qolmoqda.

Tahlil jarayonida quyidagi muammolar aniqlanadi:

1. Milliy realiyalarning umumlashtirilishi

Masalan, *mahalla* tushunchasi ruscha tarjimada ko‘pincha *район* yoki *улица* kabi umumiy birliklar bilan beriladi. Bu esa mahallaning ijtimoiy institut sifatidagi funksiyasini to‘liq aks ettirmaydi.

2. Qarindoshlik va ijtimoiy munosabatlarning soddalashtirilishi

“O‘tgan kunlar” romanida uchraydigan *quda-andalik* munosabatlari ruscha tarjimada *родственные связи* tarzida ifodalanadi. Bizningcha, bu holda mazkur tushunchaning ijtimoiy va marosimiy mazmuni yo‘qoladi.

3. Madaniy konseptlarning neytrallashuvi

Or-nomus, andisha kabi tushunchalar rus tilida bevosita muqobilga ega emas. Ularning umumiy axloqiy birliklar bilan almashtirilishi milliy mentalitetning xiralashishiga olib keladi.

Ruscha tarjimalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, tarjimonlar lingvomadaniy adekvatlikni ta’minlashda quyidagi usullariga murojaat qiladilar:

–transliteratsiya (milliy realiyani asl shaklda qoldirish);

–izohli tarjima;

–funksional moslashtirish;

– kompensatsiya usuli[32].

Bizning fikrimizcha, transliteratsiya usuli izoh bilan birgalikda qo‘llanilgandagina samarali bo‘ladi. Aks holda, rus o‘quvchisi uchun semantik bo‘shliq yuzaga keladi. Shuningdek, haddan tashqari moslashtirish milliy koloritning yo‘qolishiga olib kelishi mumkin.

Olib borgan tahlilimiz asosida quyidagi amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi:

[32] Shveytser A.D. *Teoriya perevoda: status, problemy, aspekty.* – M.: Nauka, 1988.

1. Milliy realiyalarni imkon qadar saqlagan holda tarjima qilish.
2. Zarur hollarda qisqa izoh va sharhlardan foydalanish.
3. Tarjima jarayonida madaniy kontekstni ustuvor mezon sifatida hisobga olish.
4. Tarjimon va muharrir hamkorligini kuchaytirish.

Demak, ushbu choralar o‘zbek romanlarining ruscha tarjimalarida lingvomadaniy adekvatlikni sezilarli darajada oshirish imkonini beradi.

Xulosa qilib aytganda, o‘zbek romanlarining rus tiliga tarjimalarida lingvomadaniy adekvatlik masalasi murakkab va ko‘p qirrali jarayon hisoblanadi. “O‘tgan kunlar” romani misolida olib borilgan tahlil shuni ko‘rsatdiki, milliy-madaniy birliklarning tarjimada to‘liq aks etmasligi asarning badiiy va madaniy qiymatini pasaytiradi. Dissertant pozitsiyasiga ko‘ra, lingvomadaniy yondashuv tarjima amaliyotida ustuvor metodologik tamoyil sifatida qaralishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Komissarov V. N. Teoriya perevoda (lingvisticheskie aspekty). – Moskva: Vysshaya shkola, 1990.
2. Vereshchagin E. M., Kostomarov V. G. Yazyk i kultura. – Moskva: Russkiy yazyk, 1990.
3. Shveytser A. D. Teoriya perevoda: status, problemy, aspekty. – Moskva: Nauka, 1988.
4. Barkhudarov L. S. Yazyk i perevod. – Moskva: Mezhdunarodnye otnosheniya, 1975.
5. Nida E. Toward a Science of Translating. – Leiden: Brill, 1964.
6. Qodiriy A. O‘tgan kunlar. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 2018.

ILMIY NUTQDA EKOTIZIMGA OID ATAMALARNING PAYDO BO‘LISHI VA QO‘LLANILISHI

Mamatov Shukurllo Shermat o‘gli
Jizzax davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya. *Ushbu maqolada ekotizimlarga oid terminologiyaning paydo bo‘lishi, tarixiy rivoji va zamonaviy ilmiy sohadagi qo‘llanilishi ko‘rib chiqiladi. Asosiy ekologik tushunchalarning etimologik ildizlari, semantik evolyutsiyasi va fanlararo qo‘llanilishi tahlil qilinadi. Maxsus e’tibor ekotizim terminologiyasining o‘zbek tiliga moslashtirilishi, tarjima bilan bog‘liq muammolar va terminlarni standartlashtirish masalalariga qaratiladi. Tadqiqotga 2017-2025-yillar davrida ekotizim xizmatlari, raqamli ekotizimlar va atrof-muhit barqarorligi bo‘yicha olingan zamonaviy ma’lumotlar kiritilgan bo‘lib, bu ekotizim terminologiyasining amaliy qo‘llanilishi va dolzarb tendensiyalarini yoritishga imkon beradi.*

Kalit so‘zlar: *ekotizim, ekologik terminologiya, fanlararo integratsiya, biom, biologik xilma-xillik, trofik zanjir, raqamli ekotizim, ekotizim xizmatlari.*

Kirish. Ilmiy tafakkurning uzluksiz rivojlanishi muqarrar ravishda terminologik tizimlarning kengayishi va o‘zgarishiga olib keladi. Bu jarayon, ayniqsa, ilmiy, ijtimoiy va texnologik omillar bir-biri bilan chambarchas o‘zaro ta’sir qiladigan fanlararo sohalarda, xususan ekologiya sohasida yaqqol namoyon bo‘ladi. Atrof-muhit muammolariga nisbatan global miqyosda e’tiborning kuchayishi ekologik tadqiqotlarning dolzarbligini sezilarli darajada oshirdi va natijada ekotizimga oid terminologiyaning faol qo‘llanilishiga sabab bo‘ldi.

“Ekotizim” atamasi zamonaviy ekologiyaning markaziy tushunchalaridan biri bo‘lib, tirik organizmlar va ularni o‘rab turgan jismoniy muhit tomonidan shakllangan yaxlit tizimni ifodalaydi. Ushbu tushuncha orqali tabiatning biologik va abiotik tarkibiy qismlari yagona funksional butunlik sifatida talqin etiladi. Mazkur maqola ekotizim tushunchasining kelib chiqishi, uning tarixiy taraqqiyoti, asosiy bog‘liq atamalar hamda ularning ilmiy nutqda, jumladan so‘nggi tadqiqotlar va amaliy qo‘llanmalarda tutgan o‘rnini tahlil qilishni maqsad qiladi.

Tadqiqot natijalari. “Ekotizim” atamasi ilk bor 1935-yilda britaniyalik ekolog olim Artur G. Tansli tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan. Ushbu atama yunoncha *oikos* (uy, yashash muhiti) va *systema* (tizim) so‘zlaridan kelib chiqqan bo‘lib, tirik organizmlar va ularni o‘rab turgan muhit yagona funksional birlikni tashkil etadi, degan g‘oyani ifodalaydi.

XX asrga qadar ekologik tadqiqotlar asosan alohida organizmlar yoki ajratilgan populyatsiyalarni o‘rganishga qaratilgan edi. Tanslining ekotizim konsepsiyasi bu yondashuvni tubdan o‘zgartirib, organizmlar va ularning yashash muhiti o‘rtasidagi ajralmas bog‘liqlikni asosiy tamoyil sifatida ilgari surdi. XX asrning ikkinchi yarmida mazkur tushuncha ekologiya fanining nazariy poydevoriga aylandi hamda energiya oqimi, modda aylanishi va trofik darajalar bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar orqali yanada rivojlandi. Vaqt o‘tishi bilan ekotizim tushunchasi biologiya doirasidan chiqib, geografiya, tuproqshunoslik, iqlimshunoslik, biokimyo, iqtisodiyot va atrof-muhitni boshqarish kabi sohalarga ham keng tatbiq etildi.

Ekotizimlarni o‘rganish doirasida bir-biri bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan bir qator muhim atamalar shakllandi:

- ***biotsenoz*** – muayyan yashash muhitida o‘zaro ta’sirda bo‘lgan tirik organizmlar majmuasi;
- ***biotop*** – organizmlar yashaydigan abiotik muhit;
- ***biom*** – ma’lum iqlim sharoitlari va ustun o‘simlik qoplami bilan tavsiflanadigan yirik miqyosli ekotizim;
- ***trofik zanjir (oziqa zanjiri)*** – organizmlar o‘rtasidagi oziqlanish munosabatlari tizimi;
- ***produtsentlar*** – fotosintez orqali organik moddalarni sintez qiluvchi organizmlar;
- ***konsumentlar*** – tayyor organik moddalar bilan oziqlanuvchi organizmlar;
- ***redutsentlar (parchalovchilar)*** – organik qoldiqlarni parchalab, moddalarning qayta aylanishini ta’minlovchi mikroorganizmlar.

Ushbu atamalar ekotizimlarda modda va energiyaning uzluksiz aylanishini tushuntiradi hamda ekologik muvozanatning nazariy asosini tashkil etadi.

Bugungi kunda ekotizimga oid terminologiya nafaqat tabiiy fanlarda, balki ijtimoiy, iqtisodiy va texnologik sohalarda ham keng qo‘llanilmoqda. “Biznes ekotizimi”, “raqamli ekotizim”, “innovatsion ekotizim” kabi iboralar zamonaviy ilmiy va professional nutqda mustahkam o‘rin egallagan. Masalan, raqamli ekotizim tushunchasi platformalar, dasturiy infratuzilmalar, foydalanuvchilar va ma’lumotlar oqimi o‘rtasidagi murakkab o‘zaro aloqalar tizimini anglatadi. Bu holat tabiiy ekotizim modeli ijtimoiy-texnik tizimlarga metaforik tarzda ko‘chirilganini, ya’ni zamonaviy raqamli muhitlarning o‘zaro bog‘liqligi va dinamik xususiyatini aks ettiradi.

Ekologik atamalarning o‘zbek tiliga kirib kelishi asosan rus va ingliz tillari orqali amalga oshgan. ***Ekotizim, biom, biosfera*** kabi atamalar ko‘pincha fonetik va morfologik moslashuv yo‘li bilan qabul qilingan. Shu bilan birga, ko‘plab terminlar tarjima orqali tilga singib ketgan:

- ***food chain → oziq zanjiri***
- ***biodiversity → biologik xilma-xillik***
- ***habitat → yashash muhiti***

Ushbu jarayonda o‘zlashgan atamalarning o‘zbek tilining lingvistik me’yorlariga moslashtirilishi hamda ularning ilmiy uslubda izchil qo‘llanilishi terminologik aniqlikni ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ekologik terminlarni tarjima qilishdagi eng dolzarb muammolardan biri semantik aniqlikni saqlab qolishdir. Ayrim hollarda bitta xorijiy atama o‘zbek tilida bir nechta muqobil variantlarga ega bo‘lib, bu sinonimik chalkashliklarga olib keladi. Masalan, ***environment***, ***habitat*** *va* ***ecosystem*** atamalari ba’zan noto‘g‘ri tarzda o‘zaro almashtirib qo‘llanadi, bu esa ilmiy aniqlikning pasayishiga sabab bo‘ladi. Mazkur holat ekologik terminologiyani tizimli ravishda standartlashtirish zaruriyatini yaqqol namoyon etadi.

Metodologiya. Ushbu tadqiqotda tavsifiy, qiyosiy-tahliliy hamda etimologik tadqiqot usullaridan foydalanildi. Ekotizimga oid atamalar ingliz va o‘zbek

tillaridagi lingvistik materiallar asosida tahlil qilindi. Shuningdek, ekologiya, terminologiya va fanlararo tadqiqotlarga oid ilmiy manbalar kontent-tahlil qilinib, asosiy atamalarning semantik taraqqiyoti va funksional xususiyatlarini aniqlashga e’tibor qaratildi.

Bundan tashqari, ekotizim xizmatlari, raqamli ekotizimlar va ekologik barqarorlik masalalariga doir dolzarb ilmiy qarashlarni yoritish maqsadida 2017–2022-yillarda e’lon qilingan so‘nggi tadqiqotlar ham qamrab olindi.

Natijalar va muhokama. Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, ekotizimga oid terminologiya dastlab qat’iy biologik kontekst doirasida shakllangan. Biroq bugungi kunda uning qo‘llanish sohasi sezilarli darajada kengaydi. Xususan, raqamli texnologiyalar va iqtisodiyot sohalarida ekotizim modeli murakkab va o‘zaro ta’sirga asoslangan tizimlarni tavsiflash uchun kuchli metafora sifatida xizmat qilmoqda. O‘zbek tilida ekotizimga oid atamalarning aksariyati to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘zlashuv yo‘li bilan kirib kelgan bo‘lib, bu ayrim hollarda terminologik nomuvofiqlikka sabab bo‘lgan. Mazkur natijalar ekologik terminologiyadan foydalanish va uni tarjima qilishda yagona standartlarni ishlab chiqish muhimligini ko‘rsatadi.

Xulosa. Mazkur tadqiqot ilmiy nutqda ekotizimga oid terminologiyaning shakllanishi, tarixiy rivoji va zamonaviy qo‘llanilishini tahlil qilib, bunda fanlararo kengayish, raqamli tatbiqlar hamda ushbu terminlarning o‘zbek tiliga moslashuvi masalalariga alohida e’tibor qaratdi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, dastlab biologik xarakterga ega bo‘lgan ekotizim tushunchalari bugungi kunda iqtisodiyot, raqamli texnologiyalar va ta’lim sohalarida qo‘llaniladigan universal modellarga aylangan.

So‘nggi yillardagi tadqiqotlar tahlili ekotizim xizmatlari, barqarorlik va raqamli ekotizimlarning rivojlanishiga bo‘lgan e’tibor tobora ortib borayotganini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, o‘zbek tilidagi moslashuv jarayonida terminologik nomuvofiqliklar mavjudligi aniqlanib, bu holat standartlashtirilgan lug‘atlar yaratish va tarjima amaliyotida izchillikni ta’minlash zarurligini ta’kidlaydi.

Umuman olganda, mazkur tadqiqot tushunchalarning fanlararo migratsiyasini nazariy jihatdan anglashga, shuningdek amaliy sohalarda — xususan, terminologik lug‘atlar tuzish, oliy ta’lim dasturlarini takomillashtirish va tarjima sifatini oshirishga muhim hissa qo‘shadi. Kelgusidagi tadqiqotlarda ekotizim terminologiyasining evolyutsiyasini yanada chuqurroq o‘rganish maqsadida korpusga asoslangan tahlillar hamda tillararo qiyosiy tadqiqotlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Tansley A. G. The use and abuse of vegetational concepts and terms // Ecology. – 1935. – Vol. 16, № 3. – P. 284–307.
2. Odum E. P. Fundamentals of Ecology. – Philadelphia: W. B. Saunders, 1971. – 574 p.
3. Begon M., Townsend C. R., Harper J. L. Ecology: From Individuals to Ecosystems. – Oxford: Blackwell Publishing, 2006. – 738 p.
4. Abduazizov A. Lingvistik terminologiya masalalari. – Toshkent: Fan, 2010. – 180 b.
5. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2020. – 5 jild.
6. Costanza R. et al. Twenty years of ecosystem services: How far have we come and how far do we still need to go? // Ecosystem Services. – 2017. – Vol. 28. – P. 1–16.
7. Kareiva P., Tallis H., Ricketts T., Daily G., Polasky S. Natural Capital: Theory and Practice of Mapping Ecosystem Services. – Oxford: Oxford University Press, 2011. – 365 p.
8. Gomez-Baggethun E., Barton D. N. Classifying and valuing ecosystem services for urban planning // Ecological Economics. – 2013. – Vol. 86. – P. 235–245.
9. Moore J. F. The Death of Competition: Leadership and Strategy in the Age of Business Ecosystems. – New York: Harper Business, 2016. – 320 p.

10. Li Y., Chen Y., Zhang X. Digital ecosystem: Concept, development, and future trends // Journal of Systems Science and Systems Engineering. – 2019. – Vol. 28, № 2. – P. 195–214.
11. Scholz R. W. Environmental literacy in science and society: From knowledge to decisions. – Cambridge: Cambridge University Press, 2020. – 410 p.

RAQAMLI MUHITDA IT TERMINLARINING KOMMUNIKATIV TRANSFORMATSIYASI

Mamatova Shakhnoza Hoshim qizi
University of Pavol Jozef Safarik

Annotatsiya. *Ushbu maqolada axborot texnologiyalari terminlarining raqamli muhitdagi kommunikativ transformatsiyasi masalasi tahlil qilinadi. Raqamli kommunikatsiya sharoitida IT terminlarining tor ixtisoslashgan soha doirasidan chiqib, ommaviy muloqot jarayoniga faol kirib kelayotgani ko‘rsatib beriladi. Tadqiqotda terminlarning qisqarishi, soddalashuvi, vizual birliklar bilan uyg‘unlashuvi hamda o‘zbek tiliga moslashuvi kabi asosiy transformatsiya shakllari misollar asosida yoritiladi. Shuningdek, mazkur jarayonlarning o‘zbek tili lug‘at tarkibi va terminologik tizimiga ko‘rsatayotgan ta’siri ilmiy-nazariy nuqtai nazardan baholanadi.*

Kalit so‘zlar: *raqamli muhit, termin, IT terminlari, kommunikativ transformatsiya, multimodal kommunikatsiya, diskurs, terminologiya, o‘zlashma so‘zlar.*

Kirish. Zamonaviy texnologiyalar ta’sirida hayotimizning barcha jabhalarida bo‘lgani kabi tilshunoslik, xususan terminologiya sohasida ham yangi yondashuv va nazariy qarashlar shakllanmoqda. Hayotimizning ajralmas qismiga aylanib ulgurgan

raqamli muhit muloqot madaniyatimizni sezilarli darajada o‘zgartirdi. Natijada tilda shunday yangilanishlar yuz bermoqdaki, ba’zan bizdan avvalgi avlod vakillari muloqotimiz mazmunini to‘liq anglashda qiynaladi, ayrim hollarda esa o‘zimiz ham yoshlar qo‘llayotgan yangi birlik va ifodalarni tezda ilg‘ab olishga ulgurmay qolamiz. Avvallari asosan ilmiy-texnik doira mutaxassislarigagina xos bo‘lgan axborot texnologiyalari terminlari bugun kundalik nutqimizning faol qismiga aylanib bormoqda. Demak, IT terminlari endilikda faqat texnik soha chegarasida emas, balki ommaviy kommunikatsiya jarayonida ham keng qo‘llanmoqda. Ushbu maqolada axborot texnologiyalari terminlarining raqamli muhitdagi kommunikatsiyaga moslashuvi, ya’ni ularning qanday kommunikativ o‘zgarish va transformatsiyalardan o‘tayotgani ilmiy-nazariy tilshunoslik nuqtai nazaridan tahlil qilinadi.

Adabiyotlar tahlili. Terminologiya fanida termin tushunchasiga doir turli yondashuvlar mavjud. Xususan, terminologiya nazariyasining asoschisi E. Vüster terminni muayyan ixtisoslashgan soha tushunchasini aniq va bir ma’noli ifodalovchi nominativ birlik sifatida talqin qiladi. Rus terminologiya maktabi vakillari (D.S. Lotte, A.A. Reformatskiy, V.P. Danilenko) ham terminning asosiy xususiyatlari sifatida uning aniqligi, tizimliligi va me’yorlashganligini ta’kidlaydilar. Biroq zamonaviy tilshunoslikda terminlarga faqat statik birlik sifatida emas, balki real kommunikatsiya jarayonida faol ishtirok etuvchi dinamik birlik sifatida qarash tendensiyasi kuchayib bormoqda. Xususan, J. Sager terminlarning kommunikativ muhitda oddiy leksik birliklar bilan yaqinlashishi va ularning funksional doirasi kengayishini qayd etadi. Tilning kommunikativ tabiatiga doir M.A.K. Halliday nazariyasiga ko‘ra, til birliklarining vazifasi ularning real nutq jarayonidagi qo‘llanishi bilan belgilanadi. T. van Dijk va N. Faircloughning diskurs nazariyalarida esa til birliklarining shakli va funksiyasi ijtimoiy-madaniy muhit bilan uzviy bog‘liq holda talqin qilinadi. Bu yondashuv terminlarning ham muayyan kommunikativ muhit ta’sirida o‘z funksional maqomini o‘zgartirishi mumkinligini ko‘rsatadi. Zamonaviy raqamli kommunikatsiya sharoitida esa bu jarayon yanada murakkablashmoqda. G. Kress va T. van Leeuwen tomonidan ishlab chiqilgan

multimodal diskurs nazariyasiga ko‘ra, bugungi kunda ma’no faqat verbal matn orqali emas, balki vizual belgilar, interfeys elementlari, ikonka va boshqa semiotik resurslar orqali ham shakllanadi. D. Crystal internet lingvistikasi doirasida raqamli muhit tilning leksik, grammatik va stilistik qatlamlariga kuchli ta’sir ko‘rsatayotganini ta’kidlaydi. Demak, ushbu nazariy qarashlar asosida aytish mumkinki, axborot texnologiyalari terminlari raqamli muhit ta’sirida o‘zining an’anaviy ixtisoslashgan maqomidan chiqib, ommaviy kommunikatsiya tizimining faol birliklariga aylanmoqda.

Asosiy tahlil. Raqamli muhitdagi muloqot tezkor va ixcham bo‘lgani sababli, IT terminlari kundalik nutqqa faol kirib kelmoqda. Mazkur muhitning asosiy xususiyatlari sifatida tezkorlik, qulaylik, vizual jihatdan boylik hamda soddalashtirilgan boshqaruv mexanizmlarini ko‘rsatish mumkin. Aynan shu omillar raqamli muhitda shakllanayotgan kommunikatsiya turining tilga, xususan, leksik qatlamga faol ta’sir ko‘rsatishiga sabab bo‘lmoqda. Kundalik muloqot jarayonida aynan shu raqamli muhit bilan bog‘liq bo‘lgan login, akkaunt, fayl, ilova, skrin, link, bot, platforma, sun’iy intellekt kabi terminlarning faol qo‘llanilayotgani kuzatiladi. Bu birliklarning aksariyati chet tillaridan, asosan ingliz tilidan o‘zlashgan bo‘lib, og‘zaki va yozma muloqotda “akkauntdan chiq”, “skrin tashla”, “link yubor”, “faylni o‘chir”, “login qil”, “share qil” kabi shakllarda ishlatilmoqda. Mazkur holat ixtisoslashgan terminlarning kommunikativlashuvi, ya’ni ularning tor sohaviy qo‘llanish doirasidan chiqib, real nutq jarayonining faol birliklariga aylanishi bilan izohlanadi. Ushbu kommunikativ transformatsiya jarayonida IT terminlari bir qator strukturaviy va semantik o‘zgarishlarga uchramoqda. Birinchi navbatda, terminlarning **qisqarishi** kuzatiladi (screenshot → skrin va boshqalar). Bu holat, avvalo, raqamli kommunikatsiyaning tezkorlik va ixchamlik talabidan kelib chiqadi. Internet muloqoti sharoitida foydalanuvchi imkon qadar tez va qisqa shaklda fikr bildirishga intiladi. Natijada murakkab va uzun terminlar qisqartirilgan, qulay shakllarga ega bo‘lmoqda. Bu jarayon terminlarning fonetik va grafik jihatdan soddalashuviga olib kelib, ularning og‘zaki nutqda qo‘llanishini osonlashtirmoqda. Ikkinchi muhim holat — terminlarning **soddalashuvi** (authentication → tasdiqlash,

registration → ro‘yxatdan o‘tish). Bu jarayon terminlarning ommaviylashuvi bilan bevosita bog‘liq. Ya’ni, dastlab faqat mutaxassislar uchun mo‘ljallangan tushunchalar endilikda keng omma tomonidan ishlatilayotgani sababli, ularning mazmuni oddiy va tushunarli leksik birliklar orqali ifodalanmoqda. Bu esa terminlarning semantik jihatdan umumlashuviga va ularning maxsuslik darajasi pasayishiga olib kelmoqda. Uchinchi transformatsiya shakli — terminlarning **vizual birliklar bilan uyg‘un holda qo‘llanishi**dir. Zamonaviy raqamli muhit multimodal xususiyatga ega bo‘lib, bunda ma’no faqat so‘z orqali emas, balki ikonka, tugma, piktogramma va emoji kabi vizual belgilar orqali ham ifodalanadi. Ko‘p hollarda hatto so‘zning o‘zi ishlatilmasdan, faqat belgi orqali muayyan harakat yoki tushuncha anglashiladi. Bu holat terminlarning funksional yukini qisman vizual belgilar zimmasiga o‘tayotganini va til birliklarining kommunikativ rolida sezilarli o‘zgarish yuz berayotganini ko‘rsatadi. To‘rtinchi muhim jarayon — terminlarning **o‘zbek tiliga moslashuvi**dir (yuklab olmoq, o‘chirib tashlamoq, saqlamoq va boshqalar). Bu holat o‘zlashma birliklarning asta-sekin milliy til tizimiga singib borayotganidan dalolat beradi. Bunda terminlar nafaqat tarjima qilinmoqda, balki o‘zbek tilining grammatik va so‘z yasash imkoniyatlariga mos holda qayta shakllanmoqda. Natijada, ular umumxalq leksikasiga tobora yaqinlashib bormoqda. Demak, raqamli muhit IT terminlarining nafaqat shakliga, balki ularning funksional maqomiga ham jiddiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Bir tomondan, o‘zbek tilining lug‘at tarkibi asosan ingliz tilidan kirib kelayotgan o‘zlashmalar hisobiga boyib bormoqda. Ikkinchi tomondan esa, bu jarayon terminologik tizimda muayyan muammolarni ham yuzaga keltirmoqda. Xususan, imloda bir xillikning yo‘qligi, terminlarning me’yorlashgan shakllari bo‘yicha yagona standartning mavjud emasligi, shuningdek, aralash (“chat”) tilning ommalashuvi adabiy til me’yorlariga rioya qilinmasligiga sabab bo‘lmoqda. Shu tariqa, IT terminlari bugungi kunda endi faqat tor doiradagi texnik tushunchalar bo‘lib qolmay, balki ommaviy muloqotning faol leksik vositalariga aylanib ulgurganini ko‘rish mumkin.

Natijalar va muhokama. O‘tkazilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, axborot texnologiyalari terminlari raqamli muhit sharoitida nafaqat shaklan, balki funksional

jihatdan ham sezilarli o‘zgarishlarga uchramoqda. Xususan, ular o‘zining an’anaviy tor ixtisoslashgan soha doirasidan chiqib, ommaviy kommunikatsiya jarayonining faol leksik vositalariga aylanmoqda. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, IT terminlarida kuzatilayotgan transformatsiya jarayonini quyidagi asosiy yo‘nalishlar orqali umumlashtirish mumkin: birinchidan, terminlarning qisqarishi va soddalashuvi raqamli kommunikatsiyaning tezkorlik va ixchamlik talabidan kelib chiqmoqda; ikkinchidan, vizual birliklar bilan uyg‘un holda qo‘llanishi zamonaviy multimodal muloqotning tabiatini aks ettirmoqda; uchinchidan, terminlarning o‘zbek tiliga moslashuvi ularning asta-sekin umumxalq leksikasiga singib borayotganidan dalolat bermoqda. Mazkur holatlar terminologiya nazariyasida terminning barqaror, me’yorlashgan va qat’iy ixtisoslashgan birlik sifatidagi an’anaviy talqiniga qisman zid keladigan jarayonlar kuchayib borayotganini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, bu jarayonni faqat salbiy hodisa sifatida baholash biryoqlama yondashuv bo‘ladi, chunki u tilning tabiiy rivojlanish qonuniyatlari bilan ham bevosita bog‘liqdir. Biroq ayni paytda ushbu holat terminologik tizimni tartibga solish, me’yorlashtirish va standartlashtirish masalalarining dolzarbligini yanada oshirayotganini ham ko‘rsatadi.

Xulosa. Olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, axborot texnologiyalari terminlari zamonaviy raqamli muhit sharoitida o‘zining an’anaviy tor ixtisoslashgan soha doirasidan chiqib, ommaviy muloqotning faol leksik vositalariga aylanib bormoqda. Bu jarayon terminlarning qisqarishi, soddalashuvi, vizual belgilar bilan uyg‘unlashuvi hamda o‘zbek tiliga moslashuvi kabi transformatsiya shakllarida namoyon bo‘lmoqda. Mazkur holat bir tomondan tilning tabiiy taraqqiyot jarayoni bilan bog‘liq bo‘lsa, ikkinchi tomondan terminologik tizimni tartibga solish, me’yorlashtirish va standartlashtirish masalalarini yanada dolzarb qilib qo‘ymoqda. Shu bois, raqamli muhitda faol qo‘llanilayotgan IT terminlarini tilshunoslik nuqtai nazaridan tizimli ravishda o‘rganish, ularning me’yoriy shakllarini belgilash hamda o‘zbek tilining ichki imkoniyatlari asosida muqobil variantlarini ishlab chiqish bugungi kundagi muhim ilmiy-amaliy vazifalardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. **Wüster E.** Einführung in die allgemeine Terminologielehre und terminologische Lexikographie. — Wien: **Springer**, 1979. — 347 S.
2. **Лотте Д. С.** Основы построения научно-технической терминологии. — М.: **Изд-во АН СССР**, 1961. — 158 с.
3. **Реформатский А. А.** Введение в языковедение. — М.: **Аспект Пресс**, 1996. — 536 с.
4. **Даниленко В. П.** Русская терминология. — М.: **Наука**, 1977. — 246 с.
5. **Sager J. C.** A Practical Course in Terminology Processing. — Amsterdam: **John Benjamins**, 1990. — 254 p.
6. **Halliday M. A. K.** Language as Social Semiotic. — London: **Edward Arnold**, 1978. — 256 p.
7. **van Dijk T. A.** Discourse and Context: A Sociocognitive Approach. — Cambridge: **Cambridge University Press**, 2008. — 267 p.
8. **Fairclough N.** Discourse and Social Change. — Cambridge: **Polity Press**, 1995. — 259 p.
9. **Kress G.**, **van Leeuwen T.** Multimodal Discourse: The Modes and Media of Contemporary Communication. — London: **Arnold**, 2001. — 152 p.

INGLIZ TILIDA ARALASH METAFORANING KOGNITIV TABIATI

Murodjonova Latofat Farhodjon qizi

Farg'ona davlat universiteti

Annotatsiya. *Ushbu maqola ingliz tilidagi aralash metaforalarning ijodiy va kognitiv tabiatini o‘rganadi. Aralash metaforalar tilshunoslikda ko‘pincha xato sifatida qaraladi, ammo ular tilning ijodiy potentsialini, hazilni va ifodalilikni oshirishi mumkin. Maqola ta’riflar, misollar, kognitiv lingvistika nazariyasi (konseptual metafora nazariyasi) va aralash metaforalarning nutq va adabiyotdagi roli haqida bahs yuritadi. Tadqiqot asosida aralash metaforalar tilning tabiiy va ijodiy elementi ekanligi ta’kidlanadi, bu esa til foydalanuvchilariga yangi ma’nolar yaratish imkonini beradi.*

Kalit so‘zlar: *aralash metaforalar, kognitiv lingvistika, konseptual metafora nazariyasi, til ijodkorligi, ingliz tilshunosligi***.**

Kirish

Tilshunoslikda metafora tilning asosiy elementlaridan biri hisoblanadi, chunki u abstrakt tushunchalarni konkret tasvirlar orqali ifodalashga yordam beradi. Ingliz tilida metaforalar kundalik nutqdan tortib adabiyotgacha keng qo‘llaniladi. Biroq, aralash metaforalar (mixed metaphors) alohida e’tiborga loyiq, chunki ular ko‘pincha til xatosi sifatida baholanadi, ammo ularning ijodiy tabiati tilning dinamikligini va inson tafakkurining cheksizligini ko‘rsatadi. Ushbu maqola aralash metaforalarning ingliz tilidagi ijodiy xususiyatlarini o‘rganishga bag’ishlangan bo‘lib, ularning ta’rifini, misollarini va kognitiv lingvistikadagi o‘rnini ko‘rib chiqadi. Aralash metaforalar ikki yoki undan ortiq mos kelmaydigan metaforalarni birlashtirish natijasida paydo bo‘ladi, bu esa ba’zan kulgili yoki noaniq tasvirlarni hosil qiladi. Masalan, "step up to the plate and put all her chips on the table" iborasi beysbol va poker o‘yinlaridan olingan metaforalarni aralashtirib, nojo‘ya taqqoslash yaratadi. Biroq, bunday aralashmalar tilning ijodiy qudratini namoyon etadi, chunki ular yangi ma’nolar va assotsiatsiyalarni keltirib chiqarishi mumkin.

Asosiy qism

Maqolaning maqsadi – aralash metaforalarni nafaqat xato sifatida, balki tilning ijodiy mexanizmi sifatida ko‘rsatish. Buning uchun kognitiv lingvistika nazariyasi, xususan, Lakoff va Jonsonning konsepsual metafora nazariyasi (Conceptual Metaphor Theory – CMT) asos qilib olinadi. Maqola besh bo‘limdan iborat: ta’rif

va misollar, nazariy asoslar, ijodiy aspektlar, tilshunoslik tahlili va xulosa.Aralash metafora – bu ikki yoki undan ortiq bir-biriga mos kelmaydigan metaforalarni bir iborada yoki gapda birlashtirishdir. Bu holat ko‘pincha tasodifiy ravishda yuzaga keladi va nutqni noaniq yoki kulgili qiladi. Lingvistikada aralash metaforalar "catachresis" (yunoncha katákhresis (κατάχρησις)dan olingan bo‘lib, noto‘g‘ri ishlatish, xato ishlatish yoki so‘zni noto‘g‘ri qo‘llash ma’nolarini anglatadi . Bu so‘z yoki iboraning noto‘g‘ri yoki tarang ishlatilishini tavsiflovchi sifat, odatda noto‘g‘ri tushunish, tilni ataylab yoki qasddan noto‘g‘ri ishlatishni taklif qiladigan ritorik nutq shakli) deb ham ataladi, ammo ular faqat xato emas, balki tilning tabiiy jarayoni bo‘lishi mumkin.

Misollar:

- "We’ll burn that bridge when we come to it" – bu "burn one’s bridges" (orqaga yo‘l qoldirmaslik) va "cross that bridge when we come to it" (muammoni paydo bo‘lganda hal qilish) metaforalarining aralashmasi. Natijada kulgili tasvir hosil bo‘ladi: ko‘prikni o‘tishdan oldin yoqib yuborish.

- "He’s a loose cannon who always goes off the deep end" – bu "loose cannon" (nazarda tutilmagan xavf) va "go off the deep end" (aqldan ozish) metaforalarini birlashtiradi, ammo ularning tasvirlari mos kelmaydi.

Ingliz adabiyotida aralash metaforalar ijodiy vosita sifatida qo‘llaniladi. Masalan, Shekspir asarlarida bunday aralashmalar qahramonlarning ichki ziddiyatlarini ifodalash uchun ishlatiladi. Zamonaviy nutqda esa ular hazil yaratishda foydalaniladi, masalan, "rocket surgery" (rocket science + brain surgery) – bu murakkab ishni tasvirlashning kulgili usuli.

Tilshunoslik tadqiqotlariga ko‘ra, aralash metaforalar inson tafakkurining assotsiativ tabiatidan kelib chiqadi. Ular tilning moslashuvchanligini ko‘rsatadi, chunki nutq jarayonida odamlar bir vaqtning o‘zida bir nechta konsepsiyalarni faollashtirishi mumkin.

Nazariy asoslar: Kognitiv lingvistika va konsepsual metafora nazariyasi

Kognitiv lingvistikada metaforalar tilning sirtki elementi emas, balki tafakkur tizimining bir qismi sifatida qaraladi. Lakoff va Jonson (1980) tomonidan taklif

etilgan konsepsual metafora nazariyasi (CMT) ga ko‘ra, metaforalar abstrakt tushunchalarni konkret tajribalar orqali ifodalaydi. Masalan, "time is money" metaforasi vaqtni pul sifatida tasavvur qiladi.

Aralash metaforalar bu nazariya doirasida o‘rganilganda, ular tafakkurning murakkabligini ko‘rsatadi. Kimmel (2010) ning tadqiqotida aytilishicha, aralash metaforalar nutqning koherentligini buzmaydi, balki uni boyitadi, chunki ular bir nechta domenlarni birlashtirib, yangi ma’nolarni yaratadi. Bunday aralashmalar "blending" (aralashtirish) jarayoni orqali yuzaga keladi, bu esa Foj va Tyornerning blending nazariyasida tavsiflangan.

Kognitiv jihatdan, aralash metaforalar inson miyasining parallel ishlash qobiliyatini aks ettiradi. Ular xato emas, balki ijodiy jarayonning natijasi bo‘lishi mumkin, chunki til foydalanuvchilari yangi assotsiatsiyalarni yaratishga intiladi.

Aralash metaforalarning ijodiy aspektlari.

Aralash metaforalarning ijodiy tabiati ularning tilni boyitish qobiliyatida namoyon bo‘ladi. An’anaviy ko‘rinishda ular xato sifatida baholansa-da, zamonaviy lingvistikada ular ijodiy vosita sifatida qaraladi. Masalan, Golubkova va Taymourning tadqiqotida (BICLCE konferensiyasi) aytilishicha, aralash metaforalar kognitiv dissonans yaratib, hazil hosil qiladi, bu esa tilning o‘yinchoq elementini ta’kidlaydi.nIjodiy jihatdan, aralash metaforalar adabiyotda qo‘llanilganda, o‘quvchining tasavvurini rag’batlantiradi. Masalan, "mixed metaphor is a question of deliberateness" nomli maqolada aytilishicha, qasddan aralash metaforalar nutqni samaraliroq qiladi. Ular yangi ma’nolarni yaratishga yordam beradi, chunki ikki domenning aralashishi natijasida noyob tasvir hosil bo‘ladi.

Bundan tashqari, aralash metaforalar til o‘rganuvchilar uchun foydali, chunki ular tilning moslashuvchanligini o‘rgatadi. EFL (English as a Foreign Language) darslarida metaforalarni ijodiy ishlatish o‘quvchilarning til kompetensiyasini oshiradi, bu esa Nature jurnalidagi maqolalarda tasdiqlangan.

Tilshunoslik tahlili va qo‘llanilishi

Tilshunoslik tahlilida aralash metaforalar nutqning pragmatik jihatini o‘rganishga yordam beradi. Ular diskurs koherentligini buzishi mumkin, ammo ko‘pincha uni kuchaytiradi, chunki kontekstda yangi ma’nolar paydo bo‘ladi. Masalan, "Why we mix metaphors (and mix them well)" maqolasida aytilishicha, aralash metaforalar nutqning tabiiy jarayoni bo‘lib, ular konsepsual metafora va diskurs koherentligi orqali tushuntiriladi.

Ingliz tilida aralash metaforalar kundalik nutqda, ommaviy axborot vositalarida va adabiyotda keng tarqalgan. Ular tilning evolyutsiyasini ko‘rsatadi, chunki yangi aralashmalar tilga yangi iboralarni kiritadi. Masalan, "malaphors" (malapropism + metaphor) kabi atamalar aralash metaforalarning ijodiy shakli sifatida o‘rganiladi.

Xulosa

Aralash metaforalar ingliz tilining ijodiy tabiatini namoyon etadi. Ular xato emas, balki tilning dinamik elementi bo‘lib, ijodkorlik, hazil va yangi ma’nolarni yaratishga xizmat qiladi. Kognitiv lingvistika nazariyasi asosida, aralash metaforalar tafakkurning murakkabligini aks ettiradi va til foydalanuvchilariga cheksiz imkoniyatlar beradi. Kelgusida bu mavzuni chuqurroq o‘rganish tilshunoslikka yangi yo‘nalishlar ochadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. **Lakoff G., Johnson M.** Metaphors We Live By. — Chicago: University of Chicago Press, 1980. — 242 p.
2. **Kimmel M.** Why we mix metaphors (and mix them well): Discourse coherence, conceptual metaphor, and beyond // Journal of Pragmatics. — 2010. — Vol. 42. — No. 1. — P. 97–115.
3. **Semino E., Steen G.** Mixed metaphor is a question of deliberateness // Metaphor in Cognitive Linguistics. — Amsterdam: John Benjamins Publishing, 1999. — P. 123–145.

4. **Golubkova E., Taymour A.** Understanding English humour through cognitive dissonance in mixed metaphors and malaphors // BICLCE Abstracts. — Bamberg: University of Bamberg, 2019. — P. 1–5.

5. **Grady J.** Blending and metaphor // Cognitive Linguistics in the Redwoods. — Berlin: Mouton de Gruyter, 1997. — P. 101–124.

6. **Charteris-Black J.** Corpus Approaches to Critical Metaphor Analysis. — London: Palgrave Macmillan, 2004. — 278 p.

7. **Kövecses Z.** Metaphor: A Practical Introduction. — Oxford: Oxford University Press, 2002. — 285 p.

8. **Forceville C.** Mixing Metaphors: Their Use and Abuse. — London: Bloomsbury Academic, 2018. — 256 p.

9. **Gibbs R. W.** The Poetics of Mind: Figurative Thought, Language, and Understanding. — Cambridge: Cambridge University Press, 1994. — 527 p.

10. **Pragglejaz Group.** MIP: A method for identifying metaphorically used words in discourse // Metaphor and Symbol. — 2007. — Vol. 22. — No. 1. — P. 1–39.

LINGUISTIC AND SOCIOLINGUISTIC ANALYSIS OF “WHITE TEETH”

Norbayeva Nasiba

O`z Davlat Jahon Tillari Universiteti

Abstract. *Zadie Smith's multicultural books, albeit fictional, attract the interest of linguists due to her endeavors to attain dialectal and sociological precision. Smith’s “White Teeth” is renowned for its incorporation of American Black English Vernacular, also, esteemed for its use of Cockney. Jamaican Creole and young*

vernacular in London. This linguistic analysis of White Teeth contrasts the characters' dialects with standard English variants. The influence of various speech patterns on the overarching narrative is examined. This study specifically examines linguistic inflections in the several dialects utilized in the novel. This examines pertinent studies in linguistic inflections and partial derivations to compare and contrast their relevance. This research examines the effectiveness of current sociolinguistic methods in relation to a linguistically complex text such as White Teeth. The research seeks to enhance comprehension of the linguistic characteristics of Zadie Smith's White Teeth and their literary application.

Key words: *Dialect, speech inflections, White Teeth, Zadie Smith*

The contemporary phenomenon of mass migration features unparalleled diversity. Furthermore, technological advancements, especially in communication, impact society in manners that have just lately been scrutinized. Novelists such as Zadie Smith, sensitive to social and cultural dynamics, have produced works that investigate innovative types of realism James Wood has delineated a novel category in Zadie Smith's White Teeth: A Novel (2001) (hereafter, White Teeth), termed "hysterical realism" or "recherché postmodernism," characterized by the juxtaposition of intricately absurd prose, plots, or characters with meticulous, detailed examinations of particular, authentic social phenomena. In 1981, literary critic Meir Sternberg addressed the difficulties associated with a singular standard monolingual code, especially in relation to the socio-cultural context established by an author: "Framing and juxtaposition of differently-encoded speech are … particularly common within the fictive worlds created in literature, with their variegated referential contexts, frequent shifts from milieu to milieu, abundance of dialogue scenes, and keen interest in the language of reality and the reality of language. Literary art thus finds itself confronted by a formidable mimetic challenge: how to represent the reality of polylingual discourse through a communicative medium"[33].

[33] Sternberg M. "Polylingualism as Reality and Translation as Mimesis."– Poetics Today, 1981 – 221-239

Modern Britain exemplifies a very cosmopolitan society, with London serving as its prime illustration. Critics, reviewers, and readers concur that no contemporary work captures the authentic verisimilitude of London's multicultural community as well as White Teeth. Zadie Smith's books are appropriately regarded as a defining characteristic of diversity in British literature.

Examining Zadie Smith's personal past might provide valuable insight into her works from her perspective. She was raised in North London. Her father was English, while her mother was Jamaican. She attended local public schools and subsequently obtained a degree in English Literature from King's College, Cambridge. In 2000, Smith achieved a remarkable literary breakthrough with White Teeth. The debut work by an obscure author received a six-figure advance, propelling Smith to instant literary fame. Her initial economic triumph facilitated the advancement of Smith, who was but 21 and still a student at Cambridge. The substantial advance ensured significant public attention for the novel's release in 2001.

White Teeth had predominantly positive reviews and achieved sales of one million copies. White Teeth has received the Whitbread First Novel Award, the Guardian First Book Award, and the Commonwealth Writer's Prize, and has been translated into more than 20 languages. Regarded as exceptional in its scope and fluidity, White Teeth serves as a multifaceted depiction of the diverse, multicultural milieu of contemporary London. The narrative focuses on three groups of culturally and ethnically varied parents and their offspring, while also including numerous allusions to other periods and prior generations. It delineates the lives of the Iqbals, the Joneses, and the Chalfens. Samad and Alsana Iqbal are both Bengali Muslims. The Joneses represent a blend of races and ethnicities, with Clara being Black Jamaican and Archie being White English. The Chalfens are part of the British Jewish community. The narrative follows the lives of the children from these families (Irie Jones, Millat and Magid Iqbal, and Joshua Chalfen).

A novel is a fictional work predominantly composed in prose that adheres to conventional language and stylistic rules. All exemplary books emulate aspects of human interest, therefore fulfilling readers' expectations of authenticity. A novel that

aims, like White Teeth, to accurately represent a multicultural society can only be real if its conversational speech reflects the true nature of that heterogeneous environment. Consequently, a work of this nature must delineate and reevaluate what is commonly accepted as normal language usage. The work creatively and genuinely depicts a heterogeneous society, encompassing both the environment and the social and linguistic behaviors of its people. The incorporation of social and linguistic behaviors in fiction naturally attracts the interest of sociolinguists. White Teeth has been appropriately examined by sociolinguists for its accurate socio-cultural representation. This work analyzes morphological inflections in the book, so contributing to the discipline.

Smith has a keen ear for language inflections and their sociocultural subtleties, which enables White Teeth to employ unique verbal inflections that distinguish it from other books. In doing a sociolinguistic study of White Teeth, the primary focus is not just on the depiction of non-standard language variations, but also on

ascertain if these types are authentically depicted within the context of London's linguistic environment. Thus, colloquial speech included in any fiction may be regarded as a credible source for sociolinguistic research. An author may employ many methodologies in sociolinguistics that are crucial to the examination of non-standardized languages. This technique is more applicable in the contemporary international context characterized by regional, ethnic, age-related, and social diversity. In White Teeth, several forms of English vernacular, including youth language, Cockney, and Jamaican Creole, are examined and evaluated in the latter section of this research.

Linguistic Approaches to Zadie Smith's White Teeth

A linguistic examination of a literary work must consider the temporal context in which it is situated; the linguistic forms employed should align with this context. Additionally, there are aspects of literary linguistic analysis pertinent to structuralism

and semiotic theory[34]. Such considerations generally include the appropriateness of the speech attributed to the particular characters.

As previously said, language in fiction, as a reconstructive endeavor, does not invariably captivate a linguist's interest. Nonetheless, when a novelist attributes distinct local dialects to various characters, it is the responsibility of the linguist to discern patterns in the morphological, phonological, and syntactical expressions. Linguistic study in literature includes studies that have examined novels through the lenses of both inflection and derivation. To analyze White Teeth just for linguistic inflection, it is essential to thoroughly examine the pertinent theoretical research to connect prior studies with current one.

Zadie Smith depicts a contemporary representation of London in written form. She accomplishes this by employing the King's English and Bengali, which amalgamates Cockney and Creole. This results in a confluence of linguistic diversity. According to Squires: “Voicing of different characters and their ethnic groups is one of the most apparent features of White Teeth. From Archie’s bumbling homilies to the 159 “appalling pronunciation” of the customers Samad takes orders from in the restaurant, from Alsana’s wacky images to the hybrid street slang of the “Raggastani,” and from Irie’s rising, soap

opera-influenced Antipodean intonation to her accusation that Millat’s Caribbean-toned

speech is “not your voice” […], Smith displays a finely tuned ear for linguistic inflections and their sociocultural nuances”[35].

The varied cultural and ethnic composition of London's populace is seen in the characters' linguistic diversity in White Teeth by Zadie Smith. The vernacular has disseminated from London to the remainder of the country and vice versa. Cockney rhyming slang, exemplified by Mad Mary in White Teeth, is the most recognized kind of London slang. Jamaican Creole operates within a creole continuum, wherein

[34] Terence H. Structuralism and Semiotics, 2004 – 66 b

[35] Squires C. *Zadie Smith’s* White Teeth. – New York & London: The Continuum International Publishing. 2002. – 64-65 b

one cannot delineate the variety of language that closely resembles the lexifying language, termed the acrolect, from the intermediate varieties, referred to as the mesolect, or the most divergent rural varieties, collectively identified as the basilecs. There are fundamental differences between Jamaican Creole and English regarding their tense and aspect systems. Morphological indicators for tense distinction (e.g., -ed for past tense in English) are absent in Jamaican Creole. There exist two preverb particles: en and a. These are invariant particles that cannot exist independently. They are not verbs and do not operate like the English auxiliary verb "to be." They operate differently in comparison to English. Clara's mother, Hortense Bowden, consistently articulates in this manner: “--- it is too late for them to be gazing at Jehovah.” It requires work to cultivate a close relationship with Jehovah. It requires commitment and perseverance.” (26). Even Clara, while being a second-generation migrant, possesses a nuanced understanding of tense marks in patois- it resembles a staircase. --- I do not wish to watch you spread your legs”. Jamaican Creole predominantly draws its lexicon from English, while also including elements from languages such as Hindi, Portuguese, Arawak, other African languages, and Scottish and Irish accents. In White Teeth, the principal characters utilizing the Jamaican Creole speech are Hortense Bowdens, Clara Jones, and Ambrosia Bowdens. Their speech has rhotic /r/, the substitution of fricatives with plosives, and h-dropping.

The youth language of London constitutes a distinct linguistic system with its own vocabulary and grammatical structure. Various names such as “youth sociolect,” “youth slang,” “street language,” and “youth language” are commonly utilized to describe the linguistic patterns of young adults. It mostly comprises lexical items and phrases. The grammatical dimension of juvenile language exists, however it is far more challenging to articulate. For a writer such as Zadie Smith, precisely capturing young language poses a problem due to the rapidity with which terms are embraced and discarded. Youth language undergoes swift transformation due to its susceptibility to external

influences and its tendency to incorporate features from other languages. This rapid transformation occurs due to the observation that young individuals exhibit more receptivity and adaptability compared to older age demographics. In addition to neologisms and borrowed terminology, youth language often employs imaginative applications of existing vocabulary. These nouns may retain their original grammatical structure while acquiring new implications. Youth language exists at the transformational boundary of conventional language. Sternberg has noted the tendencies of juvenile linguistic assimilation into Standard English. The examination of juvenile language has been conducted in collaboration with the Bergen Corpus of London Teenage Language (COLT). In White Teeth, youthful characters such as Ryan Topps and the twins Millat and Magid exemplify this dialect: “Please,” stated Ryan, presenting the little scooter helmet. “Significant.” I require a conversation with you. “There is not much time remaining”.

The word Ebonics, signifying "black speech," was established in 1973 by a collective of black intellectuals opposed to the pejorative implications of phrases such as "Nonstandard Negro English," which originated in the 1960s. The word Ebonics did not gain acceptance among linguists, who choose the designations "Black English," "African American English" (AAE), or "African American Vernacular English" (AAVE). Black English pronunciation excludes the last consonant in phrases such as ‘past’ (pas') and ‘hand’ (han'), articulates the “th” in ‘bath’ as /t/ (bat) or /f/ (baf), and pronounces the vowel in words like ‘my’ and ‘ride’ as a prolonged ah (mah, rahd). Nevertheless, many traits are also present in vernacular white English, particularly in the American South. Certain Ebonics pronunciations are notably unique; for instance, the omission of b, d, or g at the commencement of auxiliary verbs such as ‘don't’ and ‘gonna’, resulting in Ah 'on know for “I don't know” and ama do it for “I'm going to do it.” The devoicing of /d/ is evident in terms such as “and,” which is transcribed as ‘an’ in the text. An instance of the devoicing of /g/ is evident in Hortense’s exchange with Ryan: “Fine mornin', Mrs. B., fine mornin'.” “Something to thank the Lord for”.

- Chingiz Aytmatov ijodi bu uyg‘unlikni eng yuqori darajada namoyish etadi.
- Mustaqillik davri yangi janrlar, mavzular va zamonaviy ifoda vositalari orqali an’anaviy qadriyatlarni yangi shaklda jonlantirdi.

Ushbu maqola qirg‘iz adabiy jarayonini tushunishda, Aytmatovshunoslikda va turkiy xalqlarning adabiyati bilan qiyosiy tahlil qilishda ilmiy ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. **Abdullayev A.** Adabiyot nazariyasi asoslari. – Toshkent: Fan, 2010.
2. **Baxtin M. M.** Epos i roman. – Moskva: Xudojestvennaya literatura, 1975.
3. **Jumabayev K.** Qirg‘iz adabiyoti tarixi. – Bishkek: Ilim, 2008.
4. **Aytmatov Ch.** Tanlangan asarlar. – Bishkek, 2009.
5. **Boronchiyev A.** Qirg‘iz adabiyotidagi xalqona an’analar. – Bishkek, 2009.
6. **Lotman Yu. M.** Badiiy matn strukturasi. – Moskva, 1998.
7. **Eliot T. S.** An’ana va individual iste’dod. – Moskva, 1994.

8. **Propp V.** Sehrli ertaklarning tarixiy ildizlari. – Moskva, 1999.
9. **Aytmatov Ch.** Jamila. – Frunze: Kyrgyzstan, 1958.
10. **Aytmatov Ch.** Cholponbop. – Moskva: Molodaya gvardiya, 1970.
11. **Aytmatov Ch.** Odam qizi. – Moskva: Molodaya gvardiya, 1986.
12. **Rakhmatullaeva N.** Chingiz Aytmatov va zamonaviylik masalalari. – Bishkek: Ilim, 2010.
13. **Sultanalieva A.** Milliy an'ana va global qadriyatlar: Aytmatov ijodida. – Osh: NUR, 2015.

LEXICAL STRUCTURE OF MODERN ENGLISH: CHALLENGES AND DEVELOPMENT

Shukurilloyev Komiljon Alisher o'g'li
Rasulov N.A.
Samarkand State Institute of Foreign Languages

Annotation. *A long and complex process of historical development, cultural interaction, and technological advancement has shaped the lexical structure of Modern English. This article examines the main features of the English lexicon, including its sources, internal organization, and mechanisms of vocabulary expansion. Particular attention is given to the challenges faced by Modern English as a global language, such as globalization, digital communication, and the influence of non-native speakers. The study shows that despite these challenges, the English lexical system remains highly flexible and adaptive, allowing it to respond effectively to new social and communicative needs.*

***Keywords**: lexical structure, Modern English, vocabulary development, borrowing, word formation, globalization*

The lexical structure of Modern English is the result of centuries of continuous change influenced by historical events, social development, and contact with other languages. Vocabulary plays a central role in any language, as it reflects the knowledge, culture, and worldview of its speakers. Modern English is especially notable for the size and diversity of its lexicon, which includes native elements, borrowed words, and newly created lexical items. This richness contributes to the expressive power of the language, but at the same time, it creates certain difficulties related to meaning, usage, and standardization. At the core of the English lexicon are native words inherited from Old English. These words usually express basic and essential concepts such as family relationships, parts of the body, natural objects, and everyday actions. Examples include words like man, woman, child, sun, water, eat, and sleep. Although native words make up a relatively small portion of the total vocabulary, they are the most frequently used and form the grammatical foundation of the language. They are stylistically neutral and widely used in both spoken and written communication. In contrast to native vocabulary, borrowed words constitute a significant and distinctive layer of Modern English. Borrowing has occurred throughout different historical periods as a result of political conquest, trade, religion, science, and cultural exchange. Latin and French have had the strongest influence, especially in the fields of law, government, education, and religion. Greek borrowings are mainly associated with science, medicine, and philosophy. In more recent times, English has adopted words from a wide range of languages such as Arabic, Hindi, Chinese, and Japanese. These borrowings enrich the language by providing terms for new concepts and objects, but they also contribute to synonymy, where words of different origins coexist with similar meanings. Another important feature of the lexical structure of Modern English is its highly productive word-formation system. New words are constantly created through affixation, compounding, conversion, shortening, and blending. Affixation allows speakers to

form new words by adding prefixes and suffixes, as seen in words like happiness, disagreement, and modernization. Compounding combines two or more words to create new meanings, such as blackboard, greenhouse, and software. Conversion, which involves changing the grammatical category of a word without changing its form, is particularly common in English, for example, to email from the noun email. These processes enable English to respond quickly to social and technological changes.

Semantic change also plays a crucial role in the development of the English lexicon. Many words acquire new meanings over time while retaining their original ones, a phenomenon known as polysemy. Context plays a key role in determining meaning, which can sometimes lead to ambiguity. In addition, metaphorical and metonymic extensions allow words to be used in creative ways, further expanding their semantic range. While semantic flexibility increases expressiveness, it may also cause difficulties for language learners and non-native speakers. Modern English faces several challenges related to its lexical development. One of the most significant challenges is globalization. As English functions as a global lingua franca, it is used by people from diverse linguistic and cultural backgrounds. This widespread use leads to the emergence of new varieties of English, each with its own lexical features. While this diversity reflects the global nature of English, it may also result in variation in meaning and usage, potentially causing misunderstanding. Another challenge is the rapid development of technology, which introduces new terms at an unprecedented speed. Digital communication, social media, and artificial intelligence contribute to the spread of informal vocabulary, abbreviations, and neologisms that may not immediately be accepted into standard language. Despite these challenges, the development of the English lexicon demonstrates the language's remarkable adaptability. The ability to borrow, create new words, and modify existing meanings ensures that English remains capable of expressing new ideas and realities. Rather than weakening the language, lexical change strengthens its communicative potential. The lexical structure of Modern English is therefore dynamic and open-ended, constantly shaped by social, cultural, and technological

forces. Studying this structure is essential for understanding how English continues to evolve and maintain its role as a global means of communication. In addition, stylistic stratification is an important aspect of the lexical structure of Modern English. Vocabulary can be classified according to its stylistic value, including neutral, formal, informal, colloquial, slang, and technical words. Neutral vocabulary is used in all types of communication, while formal vocabulary is common in academic writing, official documents, and professional discourse. Informal and colloquial words are typically used in everyday spoken language, whereas slang reflects social identity, age groups, and cultural trends. Technical and terminological vocabulary is associated with specific fields such as medicine, law, engineering, and information technology. This stylistic diversity allows speakers to choose appropriate lexical items depending on the communicative situation. Another significant factor influencing the development of the English lexicon is socio-cultural change. Social movements, changes in values, and increased awareness of inclusivity have led to the creation and adaptation of vocabulary related to gender, identity, and social justice. Words and expressions are often re-evaluated, replaced, or redefined to reflect contemporary attitudes. For example, gender-neutral terms and politically sensitive language have become more widespread in modern usage. This demonstrates how vocabulary not only reflects reality but also actively participates in shaping social norms. Lexical variation across different varieties of English also deserves attention. British English, American English, Australian English, and other regional and national varieties differ in their vocabulary due to historical development and cultural context. For instance, different words may be used for the same object or concept, such as flat and apartment, or lorry and truck. While these differences enrich the language, they may pose challenges for learners and international communication. Nevertheless, exposure to multiple varieties has become more common through media and global communication, increasing mutual understanding among speakers. Finally, the role of dictionaries and corpora in documenting lexical change is crucial. Modern lexicography relies heavily on large digital corpora that collect real examples of language use from spoken and written

sources. These tools allow linguists to track the emergence of new words, changes in meaning, and shifts in frequency of usage. As a result, dictionaries are updated more frequently than ever before, reflecting the rapid pace of lexical development in Modern English. This continuous documentation ensures that the evolving nature of the English lexicon is accurately recorded and analyzed.

List of used literature

1. **Algeo J., Pyles T.** The origins and development of the English language. 6th ed. — Boston: Cengage Learning, 2010.
2. **Bauer L.** English word-formation. — Cambridge: Cambridge University Press, 2002.
3. **Crystal D.** The Cambridge encyclopedia of the English language. — Cambridge: Cambridge University Press, 2003.
4. **Fromkin V., Rodman R., Hyams N.** An introduction to language. 11th ed. — Boston: Cengage Learning, 2018.
5. **Jackson H., Amvela E. Z.** Words, meaning and vocabulary: an introduction to modern English lexicology. — London: Continuum, 2007.
6. **Katamba F.** English words: structure, history, usage. — London: Routledge, 2005.
7. **Leech G.** Semantics: the study of meaning. — Harmondsworth: Penguin Books, 1981.
8. **Lyons J.** Linguistic semantics: an introduction. — Cambridge: Cambridge University Press, 1995.
9. **McArthur T.** The English language. — Cambridge: Cambridge University Press, 1998.
10. **McCarthy M., O'Dell F.** English vocabulary in use. — Cambridge: Cambridge University Press, 2017.
11. **Nation I. S. P.** Learning vocabulary in another language. — Cambridge: Cambridge University Press, 2001.

12. **Schmitt N.** Researching vocabulary: a vocabulary research manual. — London: Palgrave Macmillan, 2010.
13. **Stockwell R., Minkova D.** English words: history and structure. — Cambridge: Cambridge University Press, 2001.
14. **Trask R. L.** A dictionary of phonetics and phonology. — London: Routledge, 1996.
15. **Yule G.** The study of language. 7th ed. — Cambridge: Cambridge University Press, 2020.

O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARIDAGI METAFORIK MODELLARNING CHOG‘ISHTIRMA TAHLILI

Sotvoldiyeva Muattarxon Ikromjon qizi
Farg‘ona davlat universiteti

Annotatsiya. *Ushbu maqolada o‘zbek va ingliz tillaridagi metaforik modellar tizimli-dinamik yondashuv asosida chog‘ishtirma tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosi kognitiv tilshunoslikdagi metaforik ko‘chish mexanizmlari hamda “manba sohasi” (source domain) va “maqsad sohasi” (target domain) o‘rtasidagi aloqalarni o‘rganishga qaratilgan. Maqolada har ikki tilda mavjud bo‘lgan universal va milliy-madaniy xususiyatga ega metaforik modellar qiyoslanadi. Tahlillar natijasida lisoniy olam manzarasining shakllanishida metaforalarning o‘rni va ularning xalq mentaliteti bilan bog‘liqligi yoritib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *metaforik model, kognitiv tilshunoslik, chog‘ishtirma tahlil, manba sohasi, maqsad sohasi, lisoniy olam manzarasi, konseptual metafora.*

KIRISH

Zamonaviy tilshunoslikda metafora shunchaki badiiy tasvir vositasi emas, balki inson tafakkurini shakllantiruvchi va olamni anglashga xizmat qiluvchi asosiy

kognitiv mexanizm sifatida talqin etilmoqda. Xususan, turli tizimli tillarda, masalan, o‘zbek va ingliz tillarida metaforik modellarni chog‘ishtirma tadqiq etish, lisoniy olam manzarasining o‘ziga xos jihatlarini ochib berishda muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Metaforik modellashtirish masalasi zamonaviy tilshunoslikning markaziy muammolaridan biri bo‘lib qolmoqda. Ushbu sohada olib borilgan tadqiqotlarni bir necha bosqichga bo‘lish mumkin:

1. Kognitiv metafora nazariyasining asosi: Metaforani til hodisasidan tafakkur hodisasiga aylantirgan asosiy asar J. Lakoff va M. Jonsonning “Metaphors We Live By” (1980) asaridir. Mualliflar metaforani “bir tushunchani ikkinchi tushuncha orqali idrok etish” deb ta'riflab, *Konseptual Metafora Nazariyasiga (CMT)* asos soldilar. Ularning fikricha, inson ongi mavhum tushunchalarni (maqsad sohasi) aniqroq, jismoniy tajribaga asoslangan tushunchalar (manba sohasi) orqali tushunadi[50].

2. G'arbiy Yevropa va rus maktabi: J. Fauconnier va M. Turnerning “Mental Spaces” (Mental fazolar) nazariyasi metaforik ko‘chishlarning dinamik tabiatini tushunishda yangi bosqich bo‘ldi. Rus tilshunosligida esa A.N. Baranov va Yu.N. Karaulovlar siyosiy metaforalarni modellashtirish ustida ishladilar. Shuningdek, J. Stefanovich kabi olimlar metaforalarni korpus lingvistikasi asosida o‘rganishni taklif etdilar.

3. O‘zbek tilshunosligida metafora tadqiqi: O‘zbek tilshunosligida metafora dastlab stilistik vosita sifatida o‘rganilgan bo‘lsa, keyinchalik kognitiv yo‘nalishda keng tadqiq etila boshlandi[51]. Sh. Safarovning kognitiv tilshunoslikka oid qarashlari, A. Mamajonov, N. Mahmudovlarning lisoniy olam manzarasi haqidagi tadqiqotlari ushbu sohaning nazariy poydevorini tashkil etadi. Shuningdek,

[50] Lakoff, G., & Johnson, M. (1980). Metaphors We Live By. University of Chicago Press. 1-22 -b.
[51] Safarov, Sh. (2006). Kognitiv tilshunoslik. “Sangzor” nashriyoti. 42-45 b.

D. Ashurova va M. Galievalarning asarlarida ingliz va o‘zbek tillari materialida metaforaning kognitiv-stilistik xususiyatlari chog‘ishtirma tahlil qilingan[52].

Ushbu tadqiqotning metodologik asosi sifatida tizimli-dinamik yondashuv tanlangan. Bu yondashuv metaforani shunchaki statik model sifatida emas, balki nutqda va tafakkurda doimiy o‘zgarib turuvchi faol jarayon sifatida ko‘rib chiqish imkonini beradi[53].

Tadqiqotda quyidagi metodlardan foydalanildi:

- Chog‘ishtirma-qiyosiy metod: Ingliz va o‘zbek tillaridagi metaforik modellarning o‘xshash (universal) va farqli (milliy-spetsifik) jihatlarini aniqlashda asosiy vosita hisoblanadi.
- Konseptual tahlil metodi: Ushbu metod orqali "manba" (source) va "maqsad" (target) sohalari o‘rtasidagi bog‘liqlik xaritasi (mapping) ishlab chiqiladi.

Masalan: “Vaqt — bu pul” (Time is money) modelida vaqtning qadr-qimmati iqtisodiy terminlar orqali tahlil qilinadi.

- Lisoniy inventarizatsiya: Har ikki tildan metaforik birliklar (frazeologizmlar, maqollar, poetik ko‘chimlar) ajratib olinadi va ularning statistik chastotasi kuzatiladi.
- Komponent tahlil: Metaforik ko‘chishga asos bo‘lgan semantik belgilarni (semalarni) aniqlash uchun qo‘llaniladi.
- NATIJA VA MUHOKAMA

O‘zbek va ingliz tillaridagi metaforik modellarni chog‘ishtirma tahlil qilish jarayonida har ikki til uchun umumiy bo‘lgan (universal) va faqat muayyan madaniyatga xos bo‘lgan (milliy-spetsifik) jihatlar aniqlandi. Tizimli-dinamik yondashuv asosida olingan natijalar quyidagicha turkumlanadi:

1. Universal metaforik modellar

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, insonning jismoniy tajribasi va fiziologik tuzilishi bilan bog‘liq bo‘lgan metaforalar har ikki tilda deyarli bir xil strukturaga

[52] Ashurova, D. U., & Galieva, M. R. (2016). Cognitive Linguistics. Vneshinvestprom. 68-72-b.
[53] Баранов, А. Н. (2004). Когнитивная теория метафоры почти 20 лет спустя. Вступительная статья к кн.: Лакофф Дж., Джонсон М. Метафоры, которыми мы живем. 118-b.

ega. Bunga “Hayot — bu sayohat” (Life is a Journey) va “Vaqt — bu harakat” (Time is Motion) kabi modellarni misol keltirish mumkin.

- Ingliz tilida: *“He has reached a crossroads in his career.”*
- O‘zbek tilida: *“U o‘z hayot yo‘lining chorrahasida turibdi.”*

Ushbu modelda har ikki madaniyat vakillari hayotdagi qiyin tanlov holatini “yo‘l” va “chorraha” tushunchalari orqali ifodalaydilar. Bu inson ongidagi umumiy kognitiv xaritadan dalolat beradi.

2. Milliy-madaniy o‘ziga xosliklar (Specific Models)

Tahlillar natijasida aniqlandiki, metaforalarning “manba sohasi” (source domain) sifatida tanlangan obrazlar xalqning yashash tarzi va tabiiy iqlimi bilan uzviy bog‘liq.

- O‘simliklar olami (Botanik metaforalar): O‘zbek tilida metaforik modellar ko‘proq qishloq xo‘jaligi va bog‘dorchilik bilan bog‘liq. Masalan, yosh bolani yoki shogirdni **nihol**ga, tarbiyani esa **parvarish qilish**ga o‘xshatish ustuvor. Ingliz tilida esa bu model ko‘proq “budding” (g‘unchalash) yoki “flourishing” (gullab-yashnash) kabi umumiy holatlar orqali beriladi.
- Ijtimoiy ierarxiya: Ingliz tilida “Up is Good / Down is Bad” (Yuqori — yaxshi, Past — yomon) modeli ijtimoiy status bilan juda kuchli bog‘langan (*climbing the corporate ladder*). O‘zbek tilida esa “yuqori” tushunchasi ko‘proq “yosh” va “martaba”dan tashqari, “hurmat-ehtirom” (to‘rga o‘tish) kabi mental xususiyatlarni o‘z ichiga oladi[54].

3. Tizimli-dinamik tahlil natijalari

Maqolada qo‘llanilgan dinamik yondashuv shuni ko‘rsatdiki, metaforik modellar vaqt o‘tishi bilan o‘zgarib boradi. Masalan, bugungi kunda har ikki tilda “Texnologiya/Kompyuter” manba sohasi inson faoliyatining boshqa sohalarini modellashtirishda faollashgan:

- *“Mening miyam “muzlab” qoldi” (My brain froze)* — inson intellektual faoliyati kompyuter ishlash tizimi orqali idrok etilmoqda.

[54] *Mahmudov, N. (2012). Tilning mukammal tadqiqi yo‘llarini izlab... O‘zbek tili va adabiyoti jurnali, 1-son.3-16-b.*

Olingan natijalar shuni tasdiqlaydiki, ingliz va o‘zbek tillaridagi metaforik farqlar asosan **manba sohasi**ning ekzotik yoki lisoniy-madaniy xususiyatlarida namoyon bo‘ladi. Ingliz tili metaforik tizimida individualizm va iqtisodiy foyda (Time is money) ustuvorlik qilsa, o‘zbek tili metaforik tizimida kollektivizm, oilaviy qadriyatlar va tabiat bilan uyg‘unlik (Farzand — meva, Oila — qo‘rg‘on) yetakchi o‘rin egallaydi.

XULOSA

O‘zbek va ingliz tillaridagi metaforik modellarning chog‘ishtirma tahlili shuni ko‘rsatadiki, metafora nafaqat nutq bezagi, balki inson tafakkurining muhim vositasidir. Har ikki tilda “Hayot — yo‘l” va “Vaqt — harakat” kabi universal modellar mavjud bo‘lsa-da, ularning lisoniy ifodasi milliy mentalitet va yashash tarziga bog‘liq holda farqlanadi. Ingliz tilida metaforalar ko‘proq pragmatik-iqtisodiy, o‘zbek tilida esa ma’naviy-axloqiy xarakterga egaligi aniqlandi. Tizimli-dinamik yondashuv esa zamonaviy metaforalarda texnologik va global o‘zgarishlar aks etayotganini isbotlaydi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. **Ashurova D. U., Galieva M. R.** Cognitive Linguistics. — Tashkent: Vneshinvestprom, 2016. — 160 p.
2. **Lakoff G., Johnson M.** Metaphors We Live By. — Chicago: University of Chicago Press, 1980. — 276 p.
3. **Mahmudov N.** Tilning mukammal tadqiqi yo‘llarini izlab... // O‘zbek tili va adabiyoti. — 2012. — № 1. — B. 3–16.
4. **Safarov Sh.** Kognitiv tilshunoslik. — Jizzax: Sangzor nashriyoti, 2006. — 92 b.
5. **Баранов А. Н.** Когнитивная теория метафоры почти 20 лет спустя // Лакофф Дж., Джонсон М. Метафоры, которыми мы живем: вступительная статья. — Москва: Едиториал УРСС, 2004. — С. 7–21.

BADIIY MATNDA RITORIK SO‘ROQ GAPLAR

Sotvoldiyeva Nilufarxon
O’zbekiston Milliy Universiteti

Annotatsiya. *Ushbu maqolada ritorik so‘roq gaplar nutqimizdagi ahamiyati, ularning matndagi vazifalari, ma’no turlari haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, ritorik so‘roq gaplarning ifodalanishi shoir va yozuvchilarning badiiy asarlaridan olingan namunalar asosida yoritib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *ritorik so‘roq gaplar, emotsional-ekspressivlik, tasdiq, inkor, taajjub, g‘azab, hissiyot*

Bizning badiiy asarlarimizda, she‘riyatimizda ritorik so‘roq gaplarning o‘rni beqiyos. Yozuvchi, shoirlar ritorik so‘roq gaplarsiz o‘z hissiy kechinmalarini, personajlar holatini kitobxonga yetkazib berolmaydi. Ritorik so‘roq gaplar ham badiiy matnning emotsional-ekspressivligini ta’minlovchi uslubiy vositalardan hisoblanadi. Tasdiq va inkor mazmuniga ega bo‘lgan, tinglovchidan javob talab qilmaydigan gaplar ritorik so‘roq gap deyiladi. Ko‘pincha ritorik so‘roq gaplar tarkibida nahotki, axir kabi ta’kidni kuchaytiruvchi so‘zlar keladi. Ular nutqqa ko‘tarinki ruh bag‘ishlaydi va tasdiqning kuchli emotsiya bilan ta’kidlanishi uchun xizmat qiladi. Bunday gap shakllari qahramonning hayratlanishini, quvonchini, ajablanishini, shubha va gumonsirashini, g‘azab va nafratini ifodalashda juda qo‘l keladi. Ichki va tashqi nutqda, monologik va dialogik nutqlarda keng qo‘llaniladi[1:120]. Ritorik so‘roq gaplarning quyidagi muhim ma’no turlari mavjud:

1) ritorik-tasdiq;

2) ritorik-inkor;

3) ritorik-taajjub;

4) ritorik-tashvish;

5) ritorik-g‘azab;

6) ritorik-gumon;

7) ritorik-kuchli hayajon[2:17-18:]

O‘zbek adabiyotida ham bir qancha yozuvchilar so‘roq gaplardan, ayniqsa, ritorik so‘roq gaplardan mohirona foydalangan va matn mazmuniga ta’sirchanlik, ekspressivlik bag‘ishlagan. O‘tkir Hoshimovning “Dunyoning ishlari” asarida ritorik so‘roq gaplarni ko‘rishimiz mumkin: Bir hafta bo‘ldiki, do‘stlarim, tanish-notanishlar eshikdan ma’yus kirib kelishadi. Do‘stlarim jimgina o‘tirib, jimgina chiqib ketishadi. Boshqalar ohista so‘raydilar: - Necha yoshda edilar? Men aytaman... Aytaman-u o‘ylayman: onaning yosh-qarisi bo‘ladimi? Mehrning yosh-qarisi bo‘ladimi? Bu o‘rinda onaning yosh-qarisi bo‘lmaydi, mehrning yosh qarisi bo‘lmaydi degan ma’no mavjud.

O‘tkir Hoshimovning yana bir mashhur asari, ya’ni “Ikki eshik orasi” romanida qora ammaning monologida yozuvchi ritorik so‘roq gaplar orqali onaning iztirob va kechinmalarini yaqqol ochib bergan: “Voy, o‘lmasam! Yana o‘sha shum xayolga boryapmanmi? Kimsanim, jon bolam, kechir, gunohkor onangni! Bilaman, Xudo ko‘rsatmasin, shahid ketgan bo‘lsang, arvohing chirqillaydi. Tirik bo‘lsang, ertaga kelib yoqamdan olasan. “Nima qilib qo‘yding, shumkampir, senam onamisan, imonsiz”, deysan! Nima desang haqqing bor. Qaysi ona o‘z yuragini o‘zi sug‘urib tuproqqa tashlaydi? Qaysi ona o‘z bolasiga o‘zi xiyonat qiladi?” Ushbu ritorik so‘roq gapdan hech qaysi ona yuragini yulib tuproqqa otmaydi, hech qaysi ona o‘z farzandiga xiyonat qilmaydi degan ma’no anglashiladi.

Yana bir qalami o‘tkir ijodkor Said Ahmadning “Ufq” trilogiyasida Ummatalining o‘g‘liga murojaatida otaning dard-u alami ritorik so‘roq gaplar vositasida yana ham ta’sirchanlik kasb etgan: “Bolam, bolaginam, nimalar qilib qo‘yding? Yurt oldida yigit boshining egilishi nimaligini bilasanmi, axir. Bu dog‘ Akbaralining ko‘ksida umrbod qolib ketadi-ya. Seni kechirarmikin?! Ertaga tong otadi, odamlar betimga qaraydi. Shundoq o‘g‘il o‘stirgan otaga ming la’nat demaydimi? Betimga tupurmaydimi? Bolaginam, meni tiriklayin o‘ldirib qo‘yding-

ku!”. Ushbu misolda ota shunday farzand o‘stirganim uchun odamlar menga la’nat aytadi, yuzimga tupuradi demoqchiligini tushunib olishimiz mumkin.

“Ishyoqmaslik qilmay, vaqtida terib olsangiz bo‘lmaydimi? Qiz bola deganiyam shunaqa dangasa bo‘ladimi? – qizning og‘zidan gapini ilib olib hazillashdi yigit”. Ushbu misol Ulug‘bek Hamdamning “Na’matak” mini-romanidan keltirilgan.

Quyidagi namunalar esa mohir shoirimiz Muhammad Yusufning she’rlaridan olingan. Shoir “Tushlarimga kir” she’rida shunday deydi:

Kapalakday kelib,
Qoshingga qo‘nib,
Ko‘zingga termulib umrim o‘tsaydi...
Nima ham ko‘ribman men yigit bo‘lib?

Yana bir “Sevgi sadosi” she’ridagi quyidagi misralarda ritorik so‘roq gaplardan unumli foydalangan:

Devona oshiqman, men bir devona,
Ayting, sizdan bo‘lak kimim bor yana?..

Bu o‘rinda Abdulla Oripovning ushbu misralarini ham keltirib o’tish lozim:

Deydilar: dunyoni kurash aylar bir,
Inson jang-jadalda bo‘lar juftu toq.
Axir qon oqishi shartmikan, axir,
Bu kurash qaysi bir jangdan osonroq?!

Xulosa qilib aytganda, o‘zbek adabiyotida ritorik so‘roq gaplarga ko‘plab misollar keltirishimiz mumkin. Yozuvchilar asarlariga ulardan faol foydalanib, asar qahramonining ichki holatini, hissiyotlarini, tashvishlarini, taajjub va g‘azablarini kitobxon qalbiga yetib borishini ta’minlaydilar. Ritorik so‘roq gaplar badiiy matnlarning emotsional-ekspressivligini kuchaytirib, qiymatini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. **Yo‘ldoshev M., Muhamedova S., Saparniyazova M.** Matn lingvistikasi : o‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Ishonchli hamkor, 2021.
2. **Abdurahmonov G‘.** O‘zbek tili grammatikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1966.

3. **O‘tkir Hoshimov.** Dunyoning ishlari. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2019.
4. **O‘tkir Hoshimov.** Ikki eshik orasi. – Toshkent: Sharq, 2012.
5. **Said Ahmad.** Ufq. – Toshkent: G‘afur G‘ulom, 1976.
6. **Ulug‘bek Hamdam.** Na’matak. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2000.

LINGVISTIK TERMINOLOGIYADA POLISEMIYA HODISASI

Tojiboyeva Dilorom Odiljon qizi

Farg’ona Davlat Universiteti

Annotasiya: *Ushbu maqolada lingvsitik terminologiyada polisemiya hodisasi yoritilgan. Terminologiyada polisemiya bu terminning bir necha ma’noga ega bo’lib, u ixtisoslashgan kommunikatsiya va terminografik resurslarda keng uchraydi. Terminlarning kontekstga bog’liq ma’nolari va ularning variantlari konseptual munosabatlarni yuzaga keltiradi. Tadqiqotlar shuni ko’rsatadiki, polisemiya terminologik resursda tabiiy hodisa bo’lib, bilimni shakllantirish va terminlarni aniqlash jarayonida muhim o’rin tutadi. Shu sababli terminlarni boshqarish va tushuntirish terminologiyada juda muhimdir.*

Kalit so‘zlar: *variativlik , polisemiya, termin, semantika, konseptual munosabat.*

Kirish: Tilshunoslik sohasiga oid terminlar bir mikrosistema bo‘lib, o‘ziga xos semantik xususiyatlarni o‘z ichiga oladi. Buning uchun tilshunoslik terminlarining semantik tuzilishida umumiy va farqlovchi jihatlarini aniqlash, terminlarni muayyan semantik guruhlarga birlashtirish va shu asosida lisoniy

tushunchalarni nomlash, shuningdek lug'atlarda berish jarayonlarida o'ziga xos ahamiyatga egaligini ko'rstadi.

Asosiy qism: Tilshunoslikda sistematik-struktur yo'nalishi asoschisi Ferdinad de Sossyur quyidagi fikri orqali har bir butunlik-sistema bo'linuvchanlik xususiyatiga ega ekanligini ta'kidlaydi: "Til yaxlit bir butunlikni tashkil qiluvchi elementlarning tizimi bo'lib, uni tashkil qiluvchi uning tarkibidagi har bir so'zning ma'nosi bir vaqtning o'zida shu sistemani tashkil qilayotgan boshqa elementlarning borligiga asoslanadi. Har bir tizimda esa quyidagilar aks etadi:

1. Ko'plab elementlardan iborat butunlik.
2. Yaxlitlikni tashkil etuvchi elementlar.
3. Elementlar o'rtasidagi barqaror munosabatlar.

Shuni e'tirof etishimiz joizki, terminologik sistemadagi terminlarning salmoqli qismi monosemantik hisoblanadi. Terminning tabiati ham ayni shuni talab qiladi. Turli terminlogik sistemalarda qo'llanayotgan quyidagi terminlar shu jihati bilan xarakterlanadi.

Terminlarning bir ma'noli bo'lishi, ekspressivlik va emotsionallikdan holi bo'lishi bilan umumiste'moldagi so'zlardan tubdan farqlanadi. O'zbek tilining barcha leksik resurslarida bo'lgani kabi o'ziga xos boyish usullari bor. Ma'lumki, hozirgi o'zbek tilda so'z ma'nosining o'zgarishi, ko'chishi, polismentik aloqada ba'zi ma'nolarning yo'qolishi orqali so'zning hosil bo'lishi semantik yoki leksik-semantik so'z yasash usuli deyiladi. Lottening ta'kidlashicha semantik usulda so'z yasash eng dastlabki usullardan hisoblanadi. Uning fikricha mavjud so'zga qo'shimcha ma'no yoki ma'no ottenkalarini berishga asoslanadi. Shuni e'tiborga olish lozimki, terminologik tizimdagi ma'no siljish holatlariga polisemiya deb qarash noo'rindir. Jumladan fe'l so'z turkumiga morfologik lug'atlarda ish harakatni anglatuvchi so'zlar deb qaralsa, sintaksisda esa kesim sifatida talqin etiladi. Buni terminologik tizim ichidagi polisemantik holat deb qarashimiz mumkin. Terminlar bir soha tushunchalarini ham, unga yaqin bo'lgan boshqa sohalar tushunchalarini ham nomlashda ishlatilsa, u polisemiyaga ega bo'lishi mumkin.

Bunday tizimlararo aloqalar nafaqat bitta terminning noaniqligini, balki omonimiyani ham keltirib chiqaradi va ularni fanlararo kontekstda ko‘rib chiqish mumkin.

Terminologiyada polisemiya ko‘p holatlarda uchrab, *aniqlik* ya’ni *precision* mezoni buzilishiga olib keladi. Jumladan, grammatik terminlarning metalingvsitik sohalarda boshqa ma’noga ega bo‘lishi (voice va tense kabilar), yoxud lingvistik terminlarning kundalik ma’nolarga ham ega bo‘lishini misol keltirishimiz mumkin.

Tadqiqotimizda eng ko‘p chalkashlikka sabab bo‘luvchi terminlardan biri “*Complement*” terminining tahlilini ko‘rib chiqamiz. Quirk grammatikasiga ko‘ra “complement” ega va to‘ldiruvchini izohlovchi *subject complement, object complement.* shaklida talqin etilsa, boshqa manbalarda esa u predlogli birikmaning postpozitsion qismi sifatida izohlanadi. Biber esa terminning ma’nosini yanada kengaytirib, sifatlarni semantik jihatdan to‘ldiruvchi birliklar sifatida qo‘llanishini izohlab o‘tgan. Bu holat terminologik tizimning barqaror emasligi va polisemiya muammolari tizimli xaraketrga ega ekanligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Leksik birliklarning signifikativ funksiyasini o‘rganishda ularning umumiy semantik makon ichida o‘zaro birlashib, yagona paradigmatik tizim hosil qilishi muhim o‘rin tutadi. O‘zbek tili lug‘at tarkibida bunday semantik maydonlarning soni nihoyatda ko‘p bo‘lib, ular tilshunoslikning alohida yo‘nalishlari uchun mustaqil tadqiq manbasi bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Lug‘aviy ma’no orqali til (lison) va nutq o‘rtasidagi farq aniqlashadi. Bu esa har bir leksik birlikning barqaror, sistemaga xos lisoniy xususiyatlari bilan uning nutqqa oid o‘zgaruvchan tomonlarini farqlash imkonini beradi. Nutqiy realizatsiyalar cheksiz ko‘rinishlarga ega bo‘lgani uchun ular leksikografik talqin uchun asos bo‘la olmaydi va lug‘atlar faqat stabil leksik semalarni qayd etishi mumkin. Shu sababli so‘zlarning mazmuniy tahlili har qanday leksikografik faoliyatning yetakchi tamoyillaridan biri hisoblanadi.

Shuni ta’kidlash lozimki, nutqda yuzaga keladigan turfa kontekstual semalar, ma’no ottenkalari, ko‘chma qo‘llanishlar va boshqa semantik modifikatsiyalar aynan shu nutqiy realizatsiyalar asosida so‘zning doimiy (lisoniy) ma’nosini aniqroq belgilashga yordam beradi. Lug‘at tuzishda esa hosila ma’nolarni haddan tashqari ko‘paytirib, ularni asosiy ma’no qatoriga kiritib yubormaslik uchun semantik tuzilmani chuqur tahlil qilish talab etiladi.

Xulosa o’rnida shuni aytishimiz mumkinki, asosiy va hosila ma’nolarning ajratilishi, ularning o‘zaro farqlanishi, polisemantik birlikning ma’lum bir ma’nosining nutqiy kontekstda aktualizatsiya qilinishi, shu ma’noning muayyan sohada termin sifatida mustahkamlanishi sememalarning tahlili hamda ular orasidagi sema munosabatlarining tizimli ko‘rinishda ochib berilishi orqali aniqlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. **Бурсина Е. В.** Полисемия терминов в современном русском языке. — Москва: ФЛИНТА, Наука, 2014. — С. 66.
2. **Володина М. Н.** Когнитивно-определительная функция термина // Кияк. — 1989. — С. 34.
3. **Лейчик В. М.** Терминоведение: предмет, методы, структура. — Москва: ЛКИ, 2006. — С. 68.
4. **Лотте Д. С.** Как работать над терминологией. — Москва: Наука, 1968. — С. 37–38.
5. **Madvaliyev A.** Ўзбек терминологияси ва лексикографияси масалалари. — Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2017. — С. 317.
6. **Quirk R., Greenbaum S., Leech G., Svartvik J.** A comprehensive grammar of the English language. — London: Longman, 1985. — P. 657.
7. **Соссюр Ф. де.** Общая лингвистика: курс лекций / пер. с фр. — Москва: Едиториал УРСС, 2004. — С. 120.

TURIZM DISKURSINING ASOSIY JANRLARI VA KOMMUNIKATIV SHAKLLARI

To‘lanov Sobitjon Xudoberdi o‘g‘li
Farg‘ona davlat universiteti

Annotatsiya: *Mazkur maqolada turizm diskursining asosiy janrlari va kommunikativ shakllari lingvistik hamda pragmatik nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Turizm diskursi zamonaviy kommunikativ makonda ijtimoiy-madaniy hodisa sifatida talqin etilib, uning sayyohlik qo‘llanmalari, reklama va broshyura matnlari, raqamli platformalar hamda bloglar kabi asosiy janrlari yoritiladi. Tadqiqot davomida turizm diskursining axborot berish, ta’sir ko‘rsatish va baholash funksiyalari aniqlanib, adresant va adresat o‘rtasidagi kommunikativ munosabatlar tahlil qilinadi. Shuningdek, raqamli muhitda turizm diskursining interaktiv va multimodal xususiyatlari ochib beriladi. Maqola natijalari turizm diskursining lingvopragmatik tabiatini chuqurroq anglashga xizmat qiladi hamda diskurs tahlili, amaliy lingvistika va turizm kommunikatsiyasi sohalari uchun ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.*

Kalit so‘zlar: *turizm diskursi, kommunikativ shakl, diskurs janrlari, reklama matni, blog, pragmatika, lingvistik tahlil.*

Kirish. Turizm bugungi globallashuv sharoitida nafaqat iqtisodiy va madaniy hodisa, balki murakkab kommunikativ jarayon sifatida ham namoyon bo‘lmoqda. Ushbu jarayonda til muhim vosita bo‘lib, u orqali ma’lumot uzatiladi, ijtimoiy munosabatlar shakllanadi va muayyan hudud yoki madaniyatga nisbatan ijobiy tasavvur yaratiladi. Shu nuqtai nazardan, turizm diskursi alohida lingvistik hodisa sifatida o‘rganiladi. Turizm diskursi turli janr va kommunikativ shakllar orqali amalga oshib, har biri o‘ziga xos maqsad, auditoriya va lisoniy xususiyatlarga ega.

Asosiy qism. Turizm diskursining eng keng tarqalgan janrlaridan biri sayyohlik qo‘llanmalari hisoblanadi. Ushbu janr axborot berishga yo‘naltirilgan

bo‘lib, unda geografik, tarixiy, madaniy va amaliy ma’lumotlar tizimli tarzda taqdim etiladi. Qo‘llanmalarda til nisbatan neytral bo‘lsa-da, ko‘pincha baholovchi birliklar orqali manzilning jozibadorligi ta’kidlanadi. Mazkur janrda aniqlik, mantiqiylik va tushunarlilik asosiy kommunikativ talablar sanaladi. Sayyohlik qo‘llanmalari adresatning ehtiyojlarini hisobga olgan holda tuziladi va uning asosiy vazifasi turistga yo‘l-yo‘riq ko‘rsatish hamda qaror qabul qilish jarayonini yengillashtirishdan iborat.

Turizm diskursining yana bir muhim janri broshyura va reklama matnlaridir. Bu janrlar axborot berish bilan bir qatorda kuchli ta’sir ko‘rsatish funksiyasiga ega. Reklama matnlarida tilning ekspressiv imkoniyatlari faol qo‘llanilib, emotsional-ta’sirchan birliklar orqali potensial turistda qiziqish uyg‘otish maqsad qilinadi. Metafora, epitet, ijobiy baholovchi sifatlar va taqqoshlardan keng foydalanish ushbu janrning asosiy xususiyatlaridan biridir. Reklama diskursida makon ideal tarzda tasvirlanib, real muammolar ko‘pincha chetlab o‘tiladi. Natijada turistik hududning idealizatsiyalangan obrazi yaratiladi, bu esa turizm diskursining manipulyativ jihatini namoyon etadi.

Zamonaviy sharoitda turizm diskursining rivojida raqamli kommunikatsiya muhim o‘rin tutmoqda. Internet tarmoqlarida joylashtiriladigan veb-saytlar, onlayn platformalar va ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalar turizm diskursining yangi janrlarini shakllantirdi. Bu janrlarda rasmiylik va norasmiylik unsurlari uyg‘unlashgan holda namoyon bo‘ladi. Masalan, turistik kompaniyalar saytlarida rasmiy axborot bilan bir qatorda foydalanuvchilarga murojaat qiluvchi samimiy ifodalar qo‘llaniladi. Bu holat adresat bilan yaqin kommunikativ aloqa o‘rnatishga xizmat qiladi.

Turizm bloglari va sayohatchilar tomonidan yozilgan shaxsiy tajriba matnlari ham turizm diskursining muhim janrlaridan biri hisoblanadi. Ushbu janr subyektivlikka asoslangan bo‘lib, muallifning shaxsiy taassurotlari, baholari va hissiy holatlari markaziy o‘rinni egallaydi. Bloglarda og‘zaki nutqqa xos unsurlar, dialogik ifodalar va emotsional leksika keng qo‘llaniladi. Bu esa o‘quvchi bilan norasmiy va samimiy kommunikatsiyani ta’minlaydi. Natijada bloglar an’anaviy reklama matnlariga nisbatan ishonchliroq qabul qilinishi mumkin.

Turizm diskursining kommunikativ shakllari turli muloqot modellarida namoyon bo‘ladi. An’anaviy shakllarda kommunikatsiya biryo‘nalishli bo‘lib, axborot manbadan adresatga uzatiladi. Raqamli muhitda esa interaktivlik kuchayib, foydalanuvchilar fikr bildirishi, baho berishi va tajriba almashishi mumkin bo‘lgan ko‘pyo‘nalishli muloqot shakllari yuzaga keladi. Bu holat turizm diskursining pragmatik xususiyatlarini yanada boyitadi.

Shuningdek, turizm diskursida vizual va verbal komponentlarning uyg‘unligi muhim ahamiyat kasb etadi. Matn ko‘pincha suratlar, videolar va grafik elementlar bilan birgalikda taqdim etilib, bu kommunikativ ta’sirni kuchaytiradi. Verbal va noverbal vositalarning birgalikdagi qo‘llanilishi turistik hududning estetik qadrini oshirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, turizm diskursining asosiy janrlari va kommunikativ shakllari o‘ziga xos lingvistik va pragmatik xususiyatlarga ega bo‘lib, ularning barchasi turistik makonning ijobiy imidjini shakllantirishga xizmat qiladi. Qo‘llanmalar, reklama matnlari, broshyuralar, bloglar va raqamli platformalardagi matnlar turizm diskursining turli kommunikativ ehtiyojlarini qondiradi. Ushbu janrlarning har biri turizmning ijtimoiy-madaniy va iqtisodiy ahamiyatini til vositasida namoyon etib, zamonaviy diskursiv makonda muhim o‘rin egallaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. **Fairclough N.** Discourse and social change. — Cambridge: Polity Press, 1995. — 259 p.
2. **van Dijk T. A.** Discourse and context: a sociocognitive approach. — Cambridge: Cambridge University Press, 2008. — 287 p.
3. **Wodak R., Meyer M.** Methods of critical discourse analysis. — London: Sage Publications, 2009. — 200 p.
4. **Dann G. M. S.** The language of tourism: a sociolinguistic perspective. — Wallingford: CAB International, 1996. — 298 p.

5. **Jaworski A., Pritchard A.** Discourse, communication and tourism. — Clevedon: Channel View Publications, 2005. — 215 p.
6. **Urry J., Larsen J.** The tourist gaze 3.0. — London: Sage Publications, 2011. — 320 p.
7. **Charaudeau P.** Langage et discours. — Paris: Hachette, 2002. — 240 p.
8. **Maingueneau D.** L'analyse du discours. — Paris: Hachette, 1991. — 192 p.
9. **Kerbrat-Orecchioni C.** L'énonciation: de la subjectivité dans le langage. — Paris: Armand Colin, 2009. — 312 p.
10. **Amossy R.** L'argumentation dans le discours. — Paris: Armand Colin, 2010. — 256 p.
11. **Boyer M.** Marketing du tourisme. — Paris: Pearson Education France, 2012. — 288 p.
12. **Beacco J.-C.** Discours de communication sociale et pratiques langagières. — Paris: Didier, 2004. — 198 p.
13. **Kress G., van Leeuwen T.** Reading images: the grammar of visual design. — London: Routledge, 2006. — 312 p.
14. **Calvet L.-J.** La sociolinguistique. — Paris: Presses Universitaires de France, 2013. — 256 p.

TURIZM DISKURSIDA KOMMUNIKATOR VA ADRESAT MUNOSABATI

To‘lanov Sobitjon Xudoberdi o‘g‘li
Farg‘ona davlat universiteti

Annotatsiya: *Mazkur maqolada turizm diskursida kommunikator va adresat o‘rtasidagi munosabatlar lingvistik va pragmatik jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda turizm sohasidagi kommunikatsiya jarayonida ishtirok etuvchi*

subyektlarning roli, ularning ijtimoiy va madaniy xususiyatlari hamda kommunikativ strategiyalari yoritiladi. Kommunikatorning axborot berish va ta'sir ko'rsatish funksiyalari, adresatning esa faol muloqot ishtirokchisi sifatidagi o'rni ochib beriladi. Shuningdek, raqamli muhitda kommunikator va adresat rollarining o'zgaruvchanligi hamda madaniyatlararo muloqotning turizm diskursidagi ahamiyati tahlil qilinadi. Maqola natijalari turizm diskursining pragmatik tabiatini chuqurroq anglashga xizmat qiladi va amaliy lingvistika hamda diskurs tahlili sohalari uchun ilmiy ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: *turizm diskursi, kommunikator, adresat, muloqot, pragmatika, kommunikativ strategiya, madaniyatlararo kommunikatsiya, raqamli diskurs*

Kirish. Zamonaviy tilshunoslikda diskurs tushunchasi faqat matn bilan cheklanmay, balki muloqot jarayonida ishtirok etuvchi tomonlar, ularning maqsadi, ijtimoiy mavqei hamda kommunikativ vaziyat bilan chambarchas bog'liq holda talqin etiladi. Shu jihatdan, turizm diskursi ham murakkab kommunikativ hodisa sifatida kommunikator va adresat o'rtasidagi munosabatlar orqali shakllanadi. Turizm sohasida yaratiladigan har qanday matn muayyan maqsadga yo'naltirilgan bo'lib, uning samaradorligi aynan ushbu ikki subyekt o'rtasidagi muloqotning qanday tashkil etilganiga bog'liqdir.

Asosiy qism. Turizm diskursida kommunikator odatda turistik xizmat ko'rsatuvchi subyekt sifatida namoyon bo'ladi. Bunga tur-operatorlar, mehmonxonalar, reklama agentliklari, davlat turizm tashkilotlari, shuningdek, sayohatchi-bloggerlar kiradi. Kommunikatorning asosiy vazifasi turistik makon, xizmat yoki mahsulot haqida axborot berish bilan birga, adresatda ijobiy munosabat va qiziqish uyg'otishdan iborat. Shu sababli kommunikator o'z nutqini rejalashtirgan holda, adresatning ehtiyojlari, kutishlari va madaniy xususiyatlarini hisobga oladi. Bu holat turizm diskursining pragmatik tabiatini yaqqol namoyon etadi.

Adresat esa turizm diskursining markaziy figurasi bo'lib, u potensial yoki real turist sifatida namoyon bo'ladi. Adresatning yoshi, ijtimoiy mavqei, madaniy darajasi va sayohat motivlari kommunikatsiya mazmuniga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Turizm diskursida adresat passiv tinglovchi emas, balki kommunikativ jarayonning faol ishtirokchisidir. Ayniqsa, raqamli muhitda adresat fikr bildirish, baholash va tajriba almashish orqali diskursni shakllantirish jarayoniga faol ta’sir ko‘rsatadi. Bu holat an’anaviy biryo‘nalishli kommunikatsiyadan ko‘pyo‘nalishli muloqotga o‘tish jarayonini ifodalaydi.

Kommunikator va adresat o‘rtasidagi munosabat turizm diskursida ko‘pincha asimmetrik xarakterga ega. Kommunikator axborot manbai va tashabbuskor sifatida ustun mavqega ega bo‘lsa-da, adresatning tanlovi va qarori kommunikatsiyaning yakuniy natijasini belgilaydi. Shu sababli turizm diskursida adresatga yo‘naltirilganlik prinsipi muhim o‘rin tutadi. Nutq strategiyalari adresatning ehtiyojlarini qondirish, unga qulay va jozibador obraz yaratishga qaratiladi. Baholovchi leksika, ijobiy sifatlar va emotsional ifodalar aynan shu maqsadda qo‘llaniladi.

Turizm diskursida kommunikator ko‘pincha o‘zini ishonchli va professional subyekt sifatida namoyon etishga intiladi. Bu holat nutqda ob’ektivlik va subyektivlikning uyg‘unlashuvi orqali yuzaga keladi. Bir tomondan, aniq faktlar, raqamlar va tarixiy ma’lumotlar keltirilsa, ikkinchi tomondan, shaxsiy baho va hissiy ifodalar orqali adresatda ishonch uyg‘otiladi. Natijada kommunikator va adresat o‘rtasida psixologik yaqinlik shakllanadi.

Raqamli turizm diskursida kommunikator va adresat munosabati yanada murakkablashadi. Bloglar, ijtimoiy tarmoqlar va onlayn platformalarda kommunikator har doim ham professional tashkilot bo‘lmasligi mumkin. Oddiy sayohatchi tomonidan yozilgan matnlar ko‘pincha yuqori darajada subyektiv bo‘lsa-da, adresat tomonidan ishonchliroq qabul qilinadi. Bu holat kommunikativ rollarning o‘zgaruvchanligini ko‘rsatadi, ya’ni adresat ham muayyan vaziyatda kommunikatorga aylanishi mumkin.

Shuningdek, turizm diskursida kommunikator va adresat o‘rtasidagi munosabat madaniyatlararo xarakterga ega. Turistik matnlar ko‘pincha turli millat va madaniyat vakillariga yo‘naltiriladi. Shu sababli kommunikator universal va madaniy jihatdan mos til vositalarini tanlashga intiladi. Madaniy stereotiplar, milliy

ramzlar va umumiy qadriyatlar orqali adresat bilan umumiy kommunikativ makon yaratiladi. Bu jarayonda noto‘g‘ri talqin yoki madaniy ziddiyatlarning oldini olish muhim ahamiyat kasb etadi.

Turizm diskursida muloqotning muhim jihatlaridan biri adresatni harakatga undashdir. Kommunikatorning asosiy maqsadi faqat axborot berish emas, balki adresatni muayyan qarorga olib kelishdir. Bu qaror sayohatni rejalashtirish, xizmatdan foydalanish yoki hududni tanlash bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Shu sababli turizm diskursida persuasiv strategiyalar keng qo‘llaniladi. Bu strategiyalar orqali kommunikator adresatning hissiy va ratsional jihatlariga bir vaqtda ta’sir ko‘rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, turizm diskursida kommunikator va adresat munosabati dinamik va ko‘p qirrali xarakterga ega. Ushbu munosabat turizm diskursining mazmuni, shakli va funksionalligini belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Kommunikator tomonidan tanlangan nutq strategiyalari va adresatning kommunikativ faolligi turizm diskursining samaradorligini ta’minlaydi. Shu bois, turizm diskursini lingvistik va pragmatik jihatdan tahlil qilishda kommunikator va adresat o‘rtasidagi munosabatni alohida tadqiqot obyekti sifatida o‘rganish muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. **Fairclough N.** Discourse and social change. — Cambridge: Polity Press, 1995. — 259 p.
2. **van Dijk T. A.** Discourse and context: a sociocognitive approach. — Cambridge: Cambridge University Press, 2008. — 287 p.
3. **Wodak R., Meyer M.** Methods of critical discourse analysis. — London: Sage Publications, 2009. — 200 p.
4. **Dann G. M. S.** The language of tourism: a sociolinguistic perspective. — Wallingford: CAB International, 1996. — 298 p.
5. **Jaworski A., Pritchard A.** Discourse, communication and tourism. — Clevedon: Channel View Publications, 2005. — 215 p.

6. **Urry J., Larsen J.** The tourist gaze 3.0. — London: Sage Publications, 2011. — 320 p.

7. **Charaudeau P.** Langage et discours. — Paris: Hachette, 2002. — 240 p.

8. **Maingueneau D.** L’analyse du discours. — Paris: Hachette, 1991. — 192 p.

9. **Kerbrat-Orecchioni C.** L’énonciation: de la subjectivité dans le langage. — Paris: Armand Colin, 2009. — 312 p.

10. **Amossy R.** L’argumentation dans le discours. — Paris: Armand Colin, 2010. — 256 p.

11. **Beacco J.-C.** Discours de communication sociale et pratiques langagières. — Paris: Didier, 2004. — 198 p.

12. **Calvet L.-J.** La sociolinguistique. — Paris: Presses Universitaires de France, 2013. — 256 p.

TURIZM DISKURSIDA EMOTSIONAL TA’SIR VOSITALARINING PRAGMATIK FUNKSIYASI

To‘lanov Sobitjon Xudoberdi o‘g‘li

Farg‘ona davlat universiteti

Annotatsiya: *Mazkur maqolada turizm diskursida emotsional ta’sir vositalarining pragmatik funksiyasi lingvistik tahlil asosida yoritiladi. Tadqiqotda turizm matnlarida qo‘llaniladigan baholovchi leksika, obrazli ifodalar, emotsional-ekspressiv birliklar hamda shaxsiy tajribaga asoslangan nutq vositalarining adresatga ta’sir ko‘rsatish mexanizmlari o‘rganiladi. Emotsional ta’sir vositalarining kommunikatorning pragmatik niyatini amalga oshirishdagi roli*

hamda adresatni harakatga undashdagi ahamiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, raqamli muhitda turizm diskursining emotsional va persuasiv xususiyatlari ochib beriladi. Maqola natijalari turizm diskursining pragmatik tabiatini chuqurroq anglashga xizmat qiladi hamda amaliy lingvistika va diskurs tahlili sohalari uchun ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so‘zlar: *turizm diskursi, emotsional ta’sir, pragmatik funksiya, baholovchi leksika, persuasivlik, kommunikativ strategiya, reklama diskursi, raqamli kommunikatsiya*

Kirish. Zamonaviy tilshunoslikda diskurs pragmatikasi nutqning nafaqat mazmuniy, balki ta’sirchan jihatlarini ham o‘rganishga qaratilgan bo‘lib, bunda emotsional ta’sir vositalari muhim o‘rin tutadi. Turizm diskursi esa o‘z mohiyatiga ko‘ra adresatga kuchli ta’sir ko‘rsatishni maqsad qilgan kommunikativ hodisa hisoblanadi. Chunki turizm sohasida yaratiladigan matnlar faqat axborot yetkazish bilan cheklanmay, balki o‘quvchi yoki tinglovchida muayyan hissiy holatni shakllantirish orqali uni harakatga undash vazifasini ham bajaradi. Shu sababli turizm diskursida emotsional ta’sir vositalarining pragmatik funksiyasini o‘rganish muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Asosiy qism. Turizm diskursida emotsional ta’sir vositalari kommunikatorning pragmatik niyatini amalga oshirishga xizmat qiladi. Kommunikator adresatda qiziqish, hayajon, ishonch yoki orzu kabi hissiyotlarni uyg‘otish orqali turistik mahsulot yoki makonning jozibadorligini oshirishga intiladi. Bu jarayonda til vositalari ongli ravishda tanlanib, adresatning psixologik holatiga moslashtiriladi. Emotsional ta’sir ko‘rsatish turizm diskursining asosiy funksiyalaridan biri bo‘lib, u axborot berish funksiyasi bilan uzviy bog‘langan holda namoyon bo‘ladi.

Emotsional ta’sir vositalarining muhim manbalaridan biri baholovchi leksika hisoblanadi. Turizm matnlarida *“betakror”, “ajoyib”, “go‘zal”, “noyob”* kabi ijobiy baholovchi sifatlar keng qo‘llanilib, adresatda ijobiy hissiy munosabatni shakllantirishga xizmat qiladi. Ushbu leksik birliklar orqali turistik makon ideal

tarzda tasvirlanib, real hayotdagi kamchiliklar ko‘pincha fon holatiga o‘tkaziladi. Bu esa emotsional ta’sirning pragmatik maqsadga yo‘naltirilganligini ko‘rsatadi.

As the first type, a violation of the norm of procedural law can lead to the cancellation of these decisions only if it led or could lead to the adoption of an incorrect decision. This provision is provided for in part one of Article 372^4 of the Civil Procedure Code. If this norm is analyzed, it is established that it only leads to the "cancellation" of decisions. However, non-compliance with the norms of procedural law can lead not only to the cancellation of the judicial act, but also to its amendment. Because in Article 372^2 of the Civil Procedure Code, along with "cancellation" the concept of "amendment" is also provided[65]. The basis of Article 372^4 of the Civil Procedure Code is the fifth paragraph of the first part of Article 372^2. That is, the violation or incorrect application of the norms of substantive and procedural law is one of the general grounds for the cancellation or amendment of judicial acts. Also, the norms of other national procedural legislation indicate that in accordance with part three of Article 279 of the Economic Procedural Code of the Republic of Uzbekistan[66], If the violation of the norms of procedural law established by part three of Article 220 of the Code of Administrative Procedure led or could have led to the incorrect adoption of decisions, the decision of the court of first instance is subject to cancellation or amendment[67]. Consequently, based on these analyses, it is advisable to amend the first part of Article 372^4 of the Civil Procedure Code as follows:

"Violation or incorrect application of the norms of procedural law is grounds for *reversal or amendment* of a court decision, ruling, or decree only if it led or could lead to the incorrect resolution of the case."

As the second group of cases of violation of procedural law norms, grounds leading to the cancellation of the decision in any case can be taken. These grounds constitute a serious violation of the norms of procedural law, the presence of which

[65] Civil Procedural Code of the Republic of Uzbekistan https://lex.uz/docs/-3517337#-6716228
[66] Economic Procedural Code of the Republic of Uzbekistan https://lex.uz/ru/docs/-3523891#-3534013
[67] Code of Administrative Court Proceedings of the Republic of Uzbekistan https://lex.uz/docs/-3527353#-3531616

is a solid basis for the annulment of the decision. The following cases can be attributed to these grounds:

- consideration of the case by the court in an unlawful composition;

- consideration of the case in violation of the rules of jurisdiction;

- consideration of the case by the court in the absence of any of the persons entitled to participate in the trial, who were not notified of the time and place of the court session;

- violation of the rules of the language in which the proceedings are conducted during the consideration of the case;

- the court decides the issue of the rights and obligations of persons not involved in the case;

- violation of the rules of secrecy of judicial deliberation when issuing a court decision, ruling, or decree;

- the decision is signed by judge (judges) other than those who considered and resolved the case (judges);

- failure to sign the protocol of the court session.

The above-mentioned grounds are specifically specified in part two of Article 372^4 of the Civil Procedure Code[68]. This article only states that the presence of these grounds can overturn the decision. However, as we have already noted, these grounds are not listed separately without reason. Their existence is considered a serious error. A serious error, of course, leads to the annulment of the decision in any case. In this regard, it is advisable to supplement the second part of Article 372^4 of the Civil Procedure Code with the provision that the presence of grounds listed in it in any case entails the cancellation of the decision.

[68] Civil Procedural Code of the Republic of Uzbekistan https://lex.uz/docs/-3517337#-6716228

If we analyze the civil procedural legislation of the CIS (The Commonwealth of Independent States) countries, then in part four of Article 330 of the Civil Procedure Code of the Russian Federation[69] and part four of Article 424 of the Civil Procedure Code of Belarus[70], the grounds for serious violations of the above-mentioned norms of procedural law are clearly listed, and their commission in any case leads to the annulment of the decision. Similar procedural norms of this content are also provided in part two of Article 338 of the Civil Procedure Code of some other foreign countries, including Lithuania[71]

In general, the conduct of civil proceedings in the proceedings of the first instance in strict accordance with the norms of procedural law contributes to the stability of court decisions adopted by this court. Since the norms of procedural law are different, their interpretation, divided into two categories, determines the degree of legal influence of the consequences of their violation on decisions. That is, by grading violations of procedural law norms, it becomes possible to prevent the unnecessary cancellation or modification of court decisions.

List of References

1. **O‘zbekiston Respublikasi.** O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. — URL: https://lex.uz/docs/-6445145#-6446096 (murojaat sanasi: 2026.01.16).
2. **O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti.** “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi : 2023-yil 11-sentabrdagi PF–158-son Farmoni. — URL: https://lex.uz/ru/docs/-6600413 (murojaat sanasi: 2026.01.16).
3. **O‘zbekiston Respublikasi.** Fuqarolik protsessual kodeksi. — URL: https://lex.uz/docs/-3517337#-6716228 (murojaat sanasi: 2026.01.16).

[69] Civil Procedure Code of the Russian Federation https://www.consultant.ru/document/cons_doc_LAW_39570/

[70] Civil Procedure Code of Belarus https://pravo.by/document/?guid=3871&p0=hk9900238

[71] Civil Procedure Code of Lithuania https://www.wipo.int/wipolex/ru/legislation/details/8194

4. **O‘zbekiston Respublikasi.** Iqtisodiy protsessual kodeksi. — URL: https://lex.uz/ru/docs/-3523891#-3534013 (murojaat sanasi: 2026.01.16).
5. **O‘zbekiston Respublikasi.** Ma’muriy sud ish yuritish kodeksi. — URL: https://lex.uz/docs/-3527353#-3531616 (murojaat sanasi: 2026.01.16).
6. **Rossiya Federatsiyasi.** Fuqarolik protsessual kodeksi. — URL: https://www.consultant.ru/document/cons_doc_LAW_39570/ (murojaat sanasi: 2026.01.16).
7. **Litva Respublikasi.** Fuqarolik protsessual kodeksi. — URL: https://www.wipo.int/wipolex/ru/legislation/details/8194 (murojaat sanasi: 2026.01.16).
8. **Belarus Respublikasi.** Fuqarolik protsessual kodeksi. — URL: https://pravo.by/document/?guid=3871&p0=hk9900238 (murojaat sanasi: 2026.01.16).
9. **Mamasiddikov M. M., Khabibullayev D. Y.** Civil Procedural Law : textbook. — Tashkent : Lesson Press Publishing House, 2020. — 607 p.
10. **Khabibullayev D. Y.** Civil Procedural Law (Questions and Answers) : study guide. — Tashkent : TSUL Publishing House, 2023. — 336 p.

JISMONIY IMKONIYATI CHEKLANGAN TALABALAR RIVOJLANISHI UCHUN INKLYUZIV TA’LIMNING IJTIMOIY AHAMIYATI

Sh.X G‘ofurov
Abdivaliyev Azizjon Mexritdin o‘g‘li
O‘zDJTSU

Annotatsiya*.Kelajagimiz poydevori bo‘lgan yosh avlodni, barkamol ulg‘ayishi va hech kimdan kam bo‘lmasligi jahon arenalirida yurtimiz dovrug‘ini va bayrog‘imizni baralla ko‘tarishga qodir bo‘lgan farzandlarni tarbiyalashdan iborat. Ayniqsa ota-ona qarmog‘idan mahrum bo‘lgan, nogiron rivojlanishida*

nuqsoni bo‘lgan bolalarning ijtimoiy himoyasi hamisha davlat va jamiyatning ustuvor vazifasi hisoblanadi. Ushbu vazifani amalga oshirish borasida O‘zbekiston Respublikasida rivojlanishda nuqsoni bo‘lgan va rivojlanishdan ortda qolgan kishilarning qadr qimmat huquq va erkinliklarini, imkoniyatlarini ta’minlash, faoliyatidagi cheklanish va chegalarni bartaraf etish, ta’limni tashkil etish va boshqarishga zamonaviy qarashlar, uning sifati va samaradorligini oshirish, jamiyatda aholining turli qatlamlari uchun ta’limning uzviy va uzliksizligini ta’minlashborasida bir qancha ishlar amalga oshirilib borilmoqda.

Kalit so‘zlar: *Inklyuziv ta’lim, reabilitatsiya, ijtimoiy adaptatsiya, alohida talim ehtiyojlari bo’lgan o’quvchilar imkoniyari cheklangan bolalar.*

Imkoniyati cheklangan bolalarning reabilitatsiya (tiklash)va ijtimoiy moslashtirish yangi texnalogiya innovatsiyalar va metodlar orqali imkoniyati cheklangan bolalarni yo‘qolib borayotgan sog‘ligini tiklashdan iborat. Bu soha sermashaqqat va metindek iroda talab qiladigan sohalardan biri hisoblanadi. Inklyuziv ta’limni oiladan ta’lim muassasalarida, umumta’lim maktablarida, kasb-hunar kollejlari va oliy o‘quv muassasalarida joriy etish natijasida imkoniyati cheklangan insonlarga nisbatan umumiy munosabat o‘zgarayotgani ma’lum bo‘ldi. Bu esa ularning hayotda muvaffaqiyat qozonishi uchun omil bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Inklyuziv ta’lim imkoniyati cheklangan bolalarga umumta’lim jarayonidagi barcha tadbirlarda faol va muntazam ishtirok etish imkonini beradi. Buning natijasida stereotiplar shakllanishining oldi olinib, ko‘rsatiladigan individual yordam imkoniyati cheklangan bolalarni jamiyatdan ajratib qo‘ymaydi. Ular olgan ko‘nikmalarini umumlashtirish imkoniga ega bo‘lishadi. Imkoniyati cheklangan insonlar uchun ishlab chiqilgan va jamiyatga reja asosida joriy etilayotgan inklyuziv ta’lim strategiyasi o‘qishning uzluksiz va muttasilligini ta’minlaydi.

Inklyuziv ta’lim – talabalarning imkoniyatlari, individual-psixologik, jismoniy nuqson va o‘zlashtirish xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil etiladigan ta’lim jarayonidir . Shuningdek, inklyuziv ta’lim davlat siyosati bo‘lib, nogiron va sog‘lom bolalar o‘rtasidagi to‘siqlarni bartaraf etish, inklyuziv ta’limga muhtoj bolalarni rivojlanishidagi nuqsonlari yoki iqtisodiy qiyinchiliklaridan qat’i

nazar, ijtimoiy hayotga moslashtirishga yo‘naltirilgan umumta’lim jarayoniga qo‘shishni ifodalovchi ta’lim tizimidir.

Inklyuziv ta’limning maqsadi – alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan o‘quvchilar uchun maktabda maxsus vosita va metodlarni qo‘llash orqali maxsus pedagoglarni jalb etgan holda to‘siqsiz moslashtirilgan ta’lim muhitini yaratish, ularning jamiyatga samarali moslashuvi hamda to‘laqonli uyg‘unlashuviga xizmat qiladigan sifatli ta’lim berishni ta’minlashdan iborat . Inklyuziv ta’limning vazifalari quyidagilardan iborat: rivojlanishning turli imkoniyatlariga ega bo‘lgan o‘quvchilar uchun har qanday kamsitilishni istisno qiladigan, barcha bolalarga teng munosabatda bo‘lishni ta’minlaydigan yagona moslashtirilgan ijtimoiy muhitni yaratish; jamoatchilik hamda ta’lim jarayonining barcha ishtirokchilarida alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan o‘quvchilar muammolariga nisbatan bag‘rikenglik munosabatini shakllantirish; ta’lim jarayonida sog‘lom bolalar bilan bir qatorda alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarning aqliy va ijtimoiy salohiyatlarini rivojlantirish; barcha o‘quvchilar uchun davlat ta’lim standartlariga muvofiq maktabgacha, umumiy o‘rta, kasb-hunar va oliy ta’lim dasturlarini o‘zlashtirish uchun imkoniyat yaratish; o‘quvchilarning har tomonlama rivojlanishi, emotsional-irodaviy sohasi, bilish faoliyatini faollashtirish, ijtimoiy ko‘nikma va salohiyatini shakllantirish uchun shart-sharoitlar yaratish; alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarni tarbiyalayotgan oilalarga maslahat yordami berish hamda ota-onalarni farzandlariga ta’lim-tarbiya berish, pedagogik texnologiyalar, ta’lim-tarbiya metod va vositalarini qo‘llash sohasida xabardorlik darajasini oshirish, ularni psixologik-pedagogik jihatdan qo‘llab-quvvatlash.

Imkoniyati cheklangan talabalar taraqqiyotining ko‘lami shu qadar kattaki, ular uchun bir xildagi ta’lim jarayonini tashkil etish imkonsizdir. Bunday sharoitda ko‘plab o‘quvchilar ta’lim jarayoniga qamrab olinmaydi. Imkoniyati cheklangan o‘quvchilar tarkibining turli-tumanligi shuni ko‘rsatadiki, ularga ta’lim berish jarayoni bir qator holatlarni mujassamlashtirishi kerak. Imkoniyati cheklangan talabalar ta’limining keng ko‘lamliligi va serqirrasiligini hisobga olgan holda umumiy o‘rta ta’lim jarayonini tashkil etish talab qilinadi. Ularda me’yorda

rivojlanuvchi tengdoshlari bilan qiyoslagan holda umumiy o‘rta ta’lim jarayonida hayot uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma, malakalarni shakllantirish maqsadga muvofiqdir. O‘quv jarayonida imkoniyati cheklangan o‘quvchilarning pedagogik-psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda bilimlarni taqdim etish asosida o‘z tengdoshlari va yaqinlari bilan birgalikda hayotiy ko‘nikmalarni egallashlari uchun sharoit yaratiladi. Imkoniyati cheklangan o‘quvchilarga turli variantlarda ta’lim berish uchun qulay sharoit yaratish kerak. Masalan: O‘quvchining bilimlarni egallash imkoniyatini hisobga olgan holda cheklangan ta’lim beriladi. Bunday ta’limning mazmuni umumiy o‘rta ta’limning mazmuniga muvofiq kelishi kerak. Bunda tengdoshlari orasida hamda ular bilan umumiy tarzda muayyan vaqt davomida o‘qitish amalga oshiriladi. Bu jarayonda o‘quvchilarni tizimli tarzda pedagogik-psixologik qo‘llab-quvatlash talab etiladi.

Bunday sharoitda ta’lim jarayoni individuallashtirilgan, uning muddatlari esa cho‘zilgan bo‘ladi. Jumladan, ko‘zi ojiz o‘quvchilar uchun to‘qqiz yillik umumiy o‘rta ta’lim jarayoni o‘n yil davom etishi mumkin. Masalan, tayanch harakat a’zolarida nuqsoni bo‘lgan o‘quvchilar uchun boshlang‘ich ta’limning maqbul varianti sifatida umumiy o‘rta ta’lim dasturlari yoki ruhiy jihatdan cheklangan o‘quvchilar uchun tuzilgan maxsus dasturlar yordamida amalga oshiriladi. Integratsiyaning bunday shakli samarali bo‘lib, imkoniyati cheklangan bolalarga ta’lim berishda qiyoslash imkoniyati vujudga keladi. Bunda o‘quvchilarning nutqi, muloqot imkoniyatlari, xatti-harakatlaridagi muammolar tengdoshlariniki bilan solishtiriladi. Ruhiy jihatdan orqada qolayotgan imkoniyati cheklangan o‘quvchilardagi murakkab holatlar bilan oddiy holatlar orasidagi darajalanish sog‘lom sinfdoshlarinikiga ko‘ra boshqacha ko‘rinishga ega bo‘ladi. Shuning uchun ham o‘quv jarayonida bunday o‘quvchilar sinfdoshlaridan orqada qolishi yoki ulardan o‘zib ketishi mumkin. Bu o‘z navbatida o‘quv dasturlariga o‘zgarishlar kiritish, o‘quvchilarga korreksion yordam ko‘rsatish, intellektual yuklamalarni ko‘paytirish, ularning imkoniyatlarini cheklamagan holda dastur doirasidan tashqariga chiqishni taqozo qiladi.

Xulosa qilib aytganda, inklyuziv ta‘lim imkoniyati cheklangan inklyuziv ta’limning ushbu varianti individual tarzdagi yakuniy natijalarni qo‘lga kiritishni taqozo qiladi. Shuning uchun inklyuziv ta’limning sifatini aniqlash maqsadida muayyan parametrlar va ko‘rsatkichlarni (indikatorlar) belgilab olish lozim. Jahon ta’limi amaliyotida ta’lim oluvchilar ehtiyojlariga moslashuvchan o‘quv muhitini yaratish, variativ o‘quv dasturlaridan foydalanishga bo‘lgan ehtiyoj kun sayin ortmoqda. Birlashgan Millatlar Tashkilotining ta’lim sohasidagi siyosati yo‘nalishlaridan biri bolalarning alohida ta’lim ehtiyojlari xilma-xilligini hisobga olgan holda ta’lim berishni nazarda tutadigan inklyuziv ta’lim g‘oyalarini ishtirokchi davlatlar tomonidan keng amalga oshirilishini ta’minlash hisoblanadi. Shu jihatdan o‘qituvchilarni ta’limda alohida ehtiyojlari bor bolalar bilan ishlashga kasbiy tayyorlashning nazariy-pedagogik jihatlarini aniqlashtirish orqali inklyuziv ta’lim samaradorligini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. **Shomaxmudova R. Sh.** Maxsus va inklyuziv ta’lim : uslubiy qo‘llanma. – Toshkent, 2011.
2. **Inklyuziv ta’limning dolzarb masalalari: muammo va ularning yechimlari** : Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Toshkent, 2021.
3. **Muminova L. R.** Inklyuziv ta’lim. – Toshkent, 2024.

RAQAMLI TA’LIM SHAROITIDA OLIY MATEMATIKANI O‘QITISHDA INNOVATSION METODLARDAN FOYDALANISH

Abdukarimova Rayxona Akmalovna

Buxoro davlat pedagogika instituti

Annotatsiya. *Oliy matematika muhandislik, iqtisodiy hamda tabiiy fanlar yo‘nalishlari uchun fundamental fan hisoblanib, uni samarali o‘qitish talabalarning bilish faoliyatini faollashtirish, mantiqiy va tanqidiy fikrlashini rivojlantirishga yo‘naltirilgan zamonaviy pedagogik yondashuvlarni qo‘llashni taqozo etadi. Raqamli ta’lim muhiti sharoitida an’anaviy o‘qitish shakllari o‘rnini onlayn platformalar, interaktiv vizualizatsiya vositalari, moslashuvchan o‘quv tizimlari hamda sun’iy intellekt elementlariga asoslangan gibrid ta’lim modellari egallamoqda. Ushbu maqolada virtual laboratoriyalar, intellektual o‘quv tizimlari, gamifikatsiya elementlari, matematik simulyatorlar va mobil ilovalardan foydalanishga asoslangan innovatsion ta’lim texnologiyalarining imkoniyatlari va didaktik samaradorligi tahlil qilinadi. Ta’lim jarayonini raqamlashtirish oliy matematika fanining mazmuni va o‘qitish metodikasini takomillashtirish bilan birga, bo‘lajak mutaxassislarning zamonaviy fikrlash modeli va kasbiy tayyorgarligini shakllantiruvchi muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi.*

Kalit so‘zlar: *innovatsiyalar, raqamli davr, ta’limni raqamlashtirish, interaktiv texnologiyalar, gamifikatsiya, sun’iy intellekt, virtual laboratoriyalar, pedagogik kompetentlik, individuallashtirilgan ta’lim.*

Zamonaviy ta’lim tizimi raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi ta’sirida sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarilmoqda. Mazkur texnologiyalar ta’lim jarayonining mazmuni, shakli va metodikasini tubdan o‘zgartirib, o‘qitish hamda o‘rganish faoliyatining samaradorligini oshirishda hal qiluvchi omil sifatida namoyon bo‘lmoqda. Oliy matematika eng murakkab va fundamental fanlardan biri bo‘lib, pedagogik yondashuvlarni chuqur qayta ko‘rib chiqishni hamda o‘quv jarayonini yangi raqamli voqelikka moslashtira oladigan innovatsion metodlarni joriy etishni talab etadi.

Axborot jamiyati sharoitida oliy matematikani o‘qitish endilikda faqat bilimlarni berish bilangina cheklanmaydi, balki talabalarda analitik tafakkur, abstrakt fikrlash, modellashtirish ko‘nikmalari hamda intellektual mustaqillikni shakllantirish vositasiga aylanadi. An’anaviy ma’ruza va seminar shakllari interaktiv

raqamli formatlar bilan boyitilib, tushuntirish–illyustrativ modeldan talaba ta’lim jarayonining faol ishtirokchisiga aylanuvchi konstruktiv-faoliyatga yo‘naltirilgan paradigma tomon o‘tish imkonini beradi.

Innovatsion ta’limning muhim yo‘nalishlaridan biri raqamli ta’lim platformalari va moslashuvchan o‘quv tizimlaridan foydalanish hisoblanadi. Ushbu tizimlar o‘qituvchiga o‘quv materialini o‘zlashtirishning individual ta’lim trayektoriyalarini tashkil etish imkonini beradi. Bunday tizimlar talabaning tayyorgarlik darajasini tahlil qiladi, bilimlardagi bo‘shliqlarni aniqlaydi va shunga mos ravishda individuallashtirilgan topshiriqlarni taklif etadi, bu esa murakkab matematik tushunchalarning samarali o‘zlashtirilishiga xizmat qiladi.

Shuningdek, matematik modellarni vizuallashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jarayon interaktiv simulyatorlar, grafik muharrirlar va virtual laboratoriyalar yordamida amalga oshiriladi. Natijada abstrakt kategoriyalar yanada ko‘rgazmali tus oladi hamda talaba faqat formulalarni yodlab olish bilan cheklanmay, balki matematik jarayonlarning ichki mantiqiy tuzilishini chuqur anglash imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Multimedia texnologiyalaridan foydalanish matematikaning nazariy qat’iyligini amaliy faoliyat bilan uyg‘unlashtirishga imkon beradi hamda ta’lim jarayonini faol tajriba o‘tkazish va tadqiqot olib borishga asoslangan jarayonga aylantiradi.

Raqamli davr gamifikatsiya va muammoga yo‘naltirilgan ta’lim kabi metodlarning keng tarqalishiga xizmat qilmoqda. Ushbu metodlar talabalarning o‘qishga bo‘lgan motivatsiyasini va ijodiy fikrlashini rivojlantirishga yo‘naltirilgan. Raqobat elementlari hamda rag‘batlantirish tizimiga asoslangan gamifikatsiya talabalarda fanga nisbatan barqaror qiziqish uyg‘otadi va intellektual qiyinchiliklarni yengib o‘tishga bo‘lgan intilishni shakllantiradi.

Muammoga yo‘naltirilgan topshiriqlar, xususan real jarayonlarning matematik modellashtirilishini o‘z ichiga olgan vazifalar, nazariy bilimlarni amaliy vaziyatlarda qo‘llash qobiliyatini rivojlantiradi. Ushbu yondashuvlar o‘quv materialini faol o‘zlashtirish uchun sharoit yaratadi, bunda talaba axborotni

shunchaki qabul qiluvchi emas, balki mustaqil ravishda yechimlar izlovchi, gipotezalar ilgari suruvchi va ularni raqamli muhitda tekshiruvchi subyektga aylanadi.

Shu tariqa, innovatsion texnologiyalar o‘z-o‘zicha maqsad bo‘lib qolmay, balki tadqiqotchilik kompetensiyalarini va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish vositasi sifatida namoyon bo‘ladi.

Raqamli ta’limning ajralmas tarkibiy qismi o‘qituvchining raqamli pedagogik kompetentligini rivojlantirish hisoblanadi. Zamonaviy sharoitda oliy matematika o‘qituvchisi nafaqat fan mazmunini mukammal bilishi, balki raqamli vositalardan samarali foydalanishi, elektron kurslarni loyihalashi, masofaviy ta’lim jarayonida o‘zaro hamkorlikni boshqarishi hamda raqamli monitoring tizimlari orqali o‘quv natijalarini baholay olishi lozim.

Bu esa doimiy kasbiy rivojlanishni, metodik hamjamiyatlarda faol ishtirok etishni va yangi raqamli servislarni o‘zlashtirishni talab etadi. Shu bilan birga, o‘qituvchi oldida texnologik imkoniyatlar bilan ta’limning gumanitar mazmuni o‘rtasidagi muvozanatni saqlash vazifasi ham turadi, bunda raqamli innovatsiyalar jonli tafakkurni almashtirmaydi, balki uning imkoniyatlarini kengaytiradi.

Oliy matematikani o‘qitishning innovatsion metodlari o‘quv jarayonining tuzilmasiga chuqur ta’sir ko‘rsatadi. Raqamli muhitda talaba va o‘qituvchi o‘rtasida hamkorlik, interaktivlik hamda bilimlarni birgalikda izlashga asoslangan yangi o‘zaro munosabat modeli shakllanadi. Ta’lim makonlari gibrid xususiyat kasb etib, an’anaviy va masofaviy ta’lim elementlarini uyg‘unlashtiradi, bu esa ta’limning ochiqligi va uzluksizligini ta’minlaydi.

Raqamlashtirish fanlararo yondashuvlarning integratsiyasiga ham xizmat qiladi, bunda matematik metodlar ma’lumotlarni tahlil qilish, sun’iy intellekt, iqtisodiyot hamda muhandislik masalalarini yechishda qo‘llaniladi. Natijada, oliy matematika fanini o‘qitish akademik kurs doirasidan chiqib, zamonaviy dunyoning murakkab tizimlarini anglashga xizmat qiluvchi universal bilish vositasiga aylanadi.

Oliy matematikani o‘qitishda innovatsion metodlarning rolini o‘rganishni davom ettirar ekanmiz, ularning ta’lim jarayonining kognitiv tuzilmasini

o‘zgartirishdagi ta’sirini alohida ta’kidlash zarur. Raqamli transformatsiya davrida ta’lim muhiti ko‘p o‘lchamli tus kasb etib, bu talabalar oldiga nafaqat tayyor bilimlarni o‘zlashtirish, balki mazmunni mustaqil ravishda konstruksiyalash, axborotni tahlil qilish, uni tanqidiy baholash hamda turli kontekstlarda qo‘llash vazifalarini ham qo‘yadi.

Raqamli vositalardan foydalanishga asoslangan innovatsion yondashuvlar o‘quv jarayonining nochiziqli, interaktiv va tadqiqotga yo‘naltirilgan modelini barpo etish imkonini beradi. Bu modelda talaba passiv tinglovchi emas, balki o‘zining ta’limiy tajribasini faol ravishda yaratuvchi subyekt sifatida namoyon bo‘ladi.

Mazkur kontekstda muhim yo‘nalishlardan biri sun’iy intellekt va mashinaviy o‘qitishni ta’lim jarayoniga integratsiya qilish hisoblanadi. Intellektual o‘quv tizimlari ta’lim oluvchining individual xususiyatlariga moslasha oladi, real vaqt rejimida teskari aloqani ta’minlaydi, murakkab matematik vaziyatlarni modellashtiradi hamda shaxsiylashtirilgan ta’lim trayektoriyalarini shakllantiradi. Bunday tizimlar nafaqat o‘qituvchiga o‘quv materialining o‘zlashtirilishini nazorat qilishni yengillashtiradi, balki talabalarga o‘z sur’atida ishlash, oliy matematikaning ham asosiy, ham chuqurlashtirilgan tushunchalarini bosqichma-bosqich egallash imkonini beradi. Ta’lim sohasida sun’iy intellekt o‘quv natijalarini prognozlash, zaif jihatlarni aniqlash va ularni bartaraf etishning optimal yo‘llarini taklif etishga qodir bo‘lgan analitik vositachi vazifasini bajaradi. Bu esa, ayniqsa, masofaviy ta’lim sharoitida muhim ahamiyat kasb etadi, chunki unda individuallashtirish ta’lim jarayoni sifatini belgilovchi asosiy omilga aylanadi.

Oliy matematikani o‘rganishga barqaror motivatsiya shakllantirish masalasi ham katta ahamiyat kasb etadi. Raqamli davr sharoitida axborot oqimlari juda zich bo‘lgani uchun, talabalar e’tibori cheklangan resursga aylanadi va aynan innovatsion metodlar murakkab nazariy masalalarga qiziqishni saqlab qolishga yordam beradi.

Kengaytirilgan va virtual haqiqatdan foydalanish ko‘p o‘lchamli matematik obyektlar, fazoviy transformatsiyalar va dinamik tizimlarni vizuallashtirish uchun noyob imkoniyatlar yaratadi. Talabalar matematik qonuniyatlarni amalda kuzatish imkoniga ega bo‘lib, immersiv muhitlarda abstrakt g‘oyalar ko‘rinadigan va intuitiv

tushunarli tus oladi. Bu nafaqat talabalar ishtirokini oshiradi, balki matematik strukturalarni chuqur anglash uchun zarur bo‘lgan tasavvuriy tafakkur shakllanishiga ham xizmat qiladi.

Raqamli ta’lim muhiti talabalar o‘rtasida hamkorlik, masalalarni birgalikda yechish va turli mamlakatlar hamda ilmiy maktablar tajribasini almashish imkoniyatlarini ochadi. Onlayn platformalar, forumlar va virtual tadqiqot guruhlari global akademik muloqot rivojlanishi uchun sharoit yaratadi, bunda oliy matematika o‘qitilishi lokal jarayon bo‘lib qolmay, xalqaro darajaga ko‘tariladi. Bunday hamkorlik talabalarni nafaqat matematik bilimlarni egallashga, balki XXI asrning universal kompetensiyalarini — kommunikatsiya, kreativlik, tanqidiy fikrlash va ko‘p madaniyatli jamoalarda ishlash qobiliyatini rivojlantirishga ham o‘rgatadi.

Natijada, ta’limning raqamlashtirilishi nafaqat metodik innovatsiyalarga, balki ta’lim makonlarini integratsiyalashga ham xizmat qiladi, shu orqali bilim insoniyatning umumiy resursiga aylanadigan yagona intellektual ekotizim yaratiladi.

Shu bilan birga, raqamli texnologiyalarning aniq afzalliklariga qaramay, ularning pedagogik anglanishi va etik javobgarlik masalalari yuzaga keladi. Ta’lim jarayonining ortiqcha texnologizatsiyasi insoniy o‘lchamni yo‘qotish xavfini tug‘dirishi mumkin, agar innovatsiyalar insonparvarlik, hamkorlik va empatiya qadriyatlari bilan uyg‘unlashmasa. Raqamli vositalardan foydalanayotgan oliy matematika o‘qituvchisi nafaqat bilim uzatuvchi, balki talabalar tafakkurini yo‘naltiruvchi, ularning haqiqat izlashga va ijodiy salohiyatni rivojlantirishga bo‘lgan qiziqishini qo‘llab-quvvatlovchi murabbiy sifatida qolishi lozim.

Raqamli davr o‘qitishning yangi madaniyatini shakllantirishni talab qiladi, bunda texnologiyalar shaxsni rivojlantirish vazifalariga xizmat qiladi, innovatsiyalar esa pedagogik mahoratning davomiga aylanadi. Shu tariqa, oliy matematika fanini o‘qitishning innovatsion metodlari nafaqat zamonaviy vositalar majmuasi, balki yangilangan pedagogik tafakkur tizimi hisoblanadi. Unda raqamli texnologiyalar, interaktiv yondashuvlar va intellektual tizimlar birlashib, asosiy maqsad —

professional kompetent, tanqidiy fikrlovchi va ijodiy faol mutaxassisni shakllantirishga xizmat qiladi.

Kelajakda ushbu sohaning rivojlanishi pedagogika, kognitiv fanlar va axborot texnologiyalari sintezi bilan bog‘liq bo‘lib, bu ta’lim va inson tarbiyasini raqamli tafakkur davrida tushunishga yangi ufqlar ochadi.

Xulosa qilib aytganda, oliy matematika fanini raqamli davrda o‘qitishning innovatsion metodlari ta’limning umumiy transformatsiya jarayonlari bilan ajralmas bog‘liq bo‘lib, ular nafaqat bilim sifatini oshirishga, balki tez o‘zgarayotgan texnologik muhitga moslashishga qodir yangi turdagi tafakkurni shakllantirishga qaratilgan.

Raqamli texnologiyalar o‘quv jarayonini modernizatsiya qilish uchun keng imkoniyatlar yaratadi, biroq ularni samarali qo‘llash metodologik puxta o‘ylangan yondashuv, pedagogik noziklik va matematik ta’limning fundamental xarakterini saqlashni talab etadi. Natijada, oliy matematika fanini innovatsion o‘qitish fan, texnologiya va ijodkorlikning sintezi sifatida namoyon bo‘ladi. Bu jarayonda raqamli muhit intellektual rivojlanish, shaxsiy o‘sish va kelajak mutaxassisining kompetensiyasini shakllantirish uchun maydon vazifasini bajaradi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. **Bondarenko N. P.** Oliy ta’lim tizimida interaktiv o‘qitish metodlari // Fan va ta’limning zamonaviy muammolari. — 2022. — № 2. — B. 48–56.
2. **Gubanova E. I.** Oliy matematika fanini o‘qitishda axborot-ta’lim muhiti // Universitet fani. — 2022. — № 5. — B. 41–50.
3. **Safarova N. N., Abdukarimova R. A.** Matematikani o‘qitishda innovatsion texnologiyalar: o‘quv-metodik qo‘llanma. — Buxoro: Buxara Hamd Print, 2023. — 108 b.
4. **Safarova N. N.** Bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini raqamli ta’lim texnologiyalari vositasida rivojlantirish // O‘zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali. — 2023. — № 21. — B. 290–296.

5. **Safarova N. N.** Zamonaviy ta’limda raqamli texnologiyalardan foydalanish istiqbollari // Ta’lim va innovatsion tadqiqotlar. — 2023. — № 12. — B. 250–253.
6. **Safarova N. N., Abdukarimova R. A.** Matematika fanini o‘qitishning zamonaviy samarali texnologiyalari // Actual priorities of modern science, education and practice: XXI International Scientific and Practical Conference materiallari. — Paris, 2022. — B. 572–575.

QONUN USTUVORLIGINI TA’MINLASHDA KONSTITUTSIYAVIY SUDNING O‘RNI-HUQUQ NORMALARINI SHARXLASH MISOLIDA

Abduqaxxorov Elmurodjon Alijon o’g’li
Berdaq nomidagi Qoraqolpoq davlat universiteti

Annotatsiya. *Ushbu maqolada qonun ustuvorligini ta’minlashda konstitutsiyaviy sudning o‘rni, bugungi kunadagi ahamiyati va shuningdek ushbu sohasini rivojlantirishni istiqbolli yo‘llari keltirilgan.*

Kalit so‘zlar: *Qonun, huquq, konstitutsiya, sud, sharhlash.*

Dunyoning glaballashuvi natijasida insonlar o‘rtasidagi ijtimoiy munosabatlar turi yildan-yilga o‘zgarib bormoqda. Albatta bu kabi munosabatlarning huquqiy jihatdan tartibga solinishi uchun yangi qonunlar qabul qilinishi yoki mavjud qonunlarning to‘g‘ri qo‘llanilishi va tushunilishi zarur bo’lmoqda. Mavjud qonunlarni to‘g‘ri tushunilmasligi yoki tushunmasdan noto‘g‘ri qo‘llanilishi shaxslarning tuzum va tizimga nisbatan ishonchisizligini keltirib chiqarishi mumkin. Barchamizga ma’lumki ayrim hollarda qonun hujjatlarida bazi bir noaniliklar uchrab turadi. Masalan O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 166-moddasi 3-qismida “Kelishuv bitimi yoki mediativ kelishuv da’vo tartibida

yuritiladigan har qanday ish bo‘yicha tuzilishi mumkin” [1] deyilgan shuningdek ushbu kodeksning 270^9-moddasida “O‘zboshimchalik bilan egallab olingan, davlat mulkida bo‘lgan yer uchastkasini qaytarish, o‘zboshimchalik bilan qurilgan imoratni buzib tashlash to‘g‘risidagi ish bo‘yicha kelishuv bitimi yoki mediativ kelishuv tuzilishiga yo‘l qo‘yilmaydi”[2] deyilgan. Bizningcha ushbu kodeks ikki moddasida qarama-qarshilik bor. Chunki FPKning 270^6-moddasida “Prokuror, o‘zboshimchalik bilan qurilgan imoratlarni aniqlash hamda ularni bartaraf etishni (buzib tashlashni) tashkil etish sohasidagi vakolatli davlat organi o‘zboshimchalik bilan egallab olingan, davlat mulkida bo‘lgan yer uchastkasini qaytarish, o‘zboshimchalik bilan qurilgan imoratni buzib tashlash to‘g‘risidagi da’vo arizasi bilan sudga murojaat etishga haqli” shuningdek FPKning 270^7-moddasida “O‘zboshimchalik bilan egallab olingan, davlat mulkida bo‘lgan yer uchastkasini qaytarish, o‘zboshimchalik bilan qurilgan imoratni buzib tashlash to‘g‘risidagi da’vo arizasi ushbu Kodeksning 189-moddasida nazarda tutilgan talablarga muvofiq bo‘lishi kerak” deyilgan. Ya’ni ushbu moddalar o‘zboshimchalik bilan egallab olingan, davlat mulkida bo‘lgan yer uchastkasini qaytarish, o‘zboshimchalik bilan qurilgan imoratni buzib tashlash to‘g‘risidagi ishlarni da’vo tartibida yuritiladigan ishlar ekanligini bildirmoqda. Shu o‘rinda haqli savol tug‘iladi amaliyotda FPKning 166-moddasi 3-qismini qo‘llash to‘g‘rimi yoki 270^9-moddasi normalarinimi? Agar FPKning 166-moddasiga ko‘ra “Kelishuv bitimi yoki mediativ kelishuv da’vo tartibida yuritiladigan har qanday ish bo‘yicha tuzilishi mumkin” bo‘lsa nima uchun 270^9-moddasi buni rad qilyapti. Agarda 270^9-moddasida belgilangan norma to‘g‘ri bo‘lsa nima uchun FPKning 166-moddasida “Kelishuv bitimi yoki mediativ kelishuv da’vo tartibida yuritiladigan har qanday ish bo‘yicha tuzilishi mumkin” degan norma mavjud. Bizning fikrimizcha agar qonun qabul qiluvchi tomonidan 166-moddasi 3-qismida “Kelishuv bitimi yoki mediativ kelishuv da’vo tartibida yuritiladigan har qanday ish bo‘yicha tuzilishi mumkin” deb belgilab yana bir bandda “ushbu kodeksning 270^9-moddasida ko‘rsatilgan holat bundan mustasno deyilganda” noaniqlik bo‘lmagan bo‘lar edi.

Shaxs tomonidan huquq normalarining tushunishida albatda uning huquqiy ongini yuksakligi muhim ahamiyat kasb etadi. To‘g‘ri jamiyatda barcha yurist yoki yuridik ma’lumotli emas, hattoki ayrim hollarda yuristlar ichidan ham huquq normalarini tushunishda ikkilanishlar bo‘ladi. Bu kabi holatlar huquq normasini sharxlash zaruriyatini keltirib chiqaradi. Biz huquq normasini mazmun mohiyatini to‘g‘ri anglamasdan turib qonun ustuvorligini ta’minlay olmaymiz. Qonun ustuvorligi ta’minlanmagan makonda esa demokratik davlatni qurib bo‘lmaydi. Shuning uchun biz qonun hujjatlarining sharhlanish jarayoniga jiddiy e’tibor qaratishimiz lozim.

Adabiyotlardan ma’lum bo‘lmoqdaki, “sharh so‘zi arab tilidan olingan bo‘lib “tushuntirish”, “izoh” ma’nosini bildiradi. Bu tafakkur jarayoni bo‘lib, moddiy buyumlar, nomoddiy tushunchalar, voqelik va hodisalarni tushunishni anglatadi” [3:309]. Huquq normalarini sharhlash jarayoni dunyo huquqshunos olimlari N.M.Korkunov, I.A.Berezina, S.S.Alekseyev, A.S.Pigolkin va yurtimiz olimlari akademik A.X.Saidov, professorlar Z.M.Islomov Sh.Saydullayev, va boshqalar tomonidan o‘rganilgan. Rus olimi V.V.Lazerev fikricha: “Rasmiy sharhlash –bu hujjatlar qaysi davlat organi tomonidan chiqarilsa, ushbu organi sharhlanishi hisoblanib, u autentik sharhlash nomini oladi; agar normativ-huquqiy hujjatlarni tegishli organlari o`zlari chiqarmay, ularga huquqiy hujjatlarni sharhlash majburiyati yuklangan bo`lsa va yangi o`zlari chiqarmagan normativ-huquqiy hujjatlarni sharhlasalar, mazkur sharhlash legal sharhlash deyiladi”[4]. Huquqshunos olim A.Sodikovning fikricha “Huquq normalarini sharhlash-huquqni qo‘llash samaradorligini oshirish maqsadida vakolatli davlat organlarining huquq normalari mazmunini aniqlash va tushuntirish bo‘yicha faoliyati” [5]. Bizning fikrimizcha konstitutsiyaviy sharhlash — qonun hujjatlarining mazmunini, mohiyatini, qonuniy asoslarini va ularning amaliy ahamiyatini aniqlash va tushuntirishga qaratilgan huquqiy faoliyat jarayonidir. Bu jarayon orqali qonun hujjatlarining to‘g‘ri talqin qilinishi va qo‘llanilishi tushuntiriladi.

O‘zbekiston Respublikasining “Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida”gi Qonuning 55-moddasiga ko‘ra Normativ-huquqiy hujjatlarni rasmiy sharhlash

normativ-huquqiy hujjatda noaniqliklar topilgan, u amaliyotda noto‘g‘ri yoki ziddiyatli tarzda qo‘llanilgan taqdirda amalga oshiriladi. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlari normalariga rasmiy sharhni O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi beradi [6]. Konstitutsiyamizning 133-moddasida O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlari normalariga sharh berish O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi vakolati sifatida ko‘rsatilgan[7]. Biz shuni to‘g‘ri qabul qilishimz kerakki, huquqni sharxlash jarayoni huquq ijodkorligi hisoblanmaydi, sharxlash jarayonida sharxlanayotgan normaga qo‘shimcha yoki o‘zgartirish kiritilmaydi. Shuningdek yangi tahrirda qabul qilinmaydi.

Yuqoridagi huquqiy normalardan ma’lum bo‘lmoqdaki, qonun hujjatlariga sharh berish maxsus vakolatli davlat organi–Konstitusiyaviy sud tomonidan amalga oshiriladi. Shu o‘rinda bizda qachondan beri bu kabi sharhlash ushbu organ tomonidan amalga oshiriladi, bu kabi haolatlarda jahon tajribasi qanday degan bir haqli savol tug‘iladi.

Sharhlash konstitutsiyaviy sudning nazorat funksiyasi hisoblanadi. Konstitusiyaviy nazorat tushunchasi ilk bor 1803-yilda AQSHda qo’llanilgan. Konstitutsiayviy nazoratni markazlashtirlgan shakilda olib boruvchi davlatlarda maxsus vakolatlarga ega bo’lgan konstitutisyaviy sudlar faoliyat yuritadi. Tarqatilgan modelda ish yurituvchi davlatlarda bunday maxsus organlar mavjud bo’lmasada ammo ularning umumiy sudlari normativ hujjatlarning konstitutsiyaga zidligini aniqlasa ushbu normativ hujjat qo’llanilmasligi mumkin. AQSH Oliy sudi konstitutsiyaviy sharhlash vazifasini amalga oshiriladi. Germaniyaning 1949-yilgi konstitutiyasida konstitutsiyaviy sud haqida normalar kiritilgan va 1951-yildan beri konstitutsiyaviy sud faoliyat yuritib sharhlash vazifasini amalga oshiradi. Qo‘shni davlatlarimiz Qozog‘istonda va Qirg‘izistonda Konstitutsiyaviy sud konstitutsiyaviy sharhlashni amalga oshiradi.

Mamlakatimizda konstitutsiyaviy nazorat haqidagi islohatlar XX asrning 90 yillariga borib taqaladi, xususan 1990-yil 20-iyun kuni qabul qilinadi [8] va Konstitutsiyaviy nazorat komiteti tashkil etildi. Mustaqillikka erishganimzdan

so’ng, 1992-yil 8-dekabrda konstitutsiyamiz qabul qilinishi natijasida konstitutsiyaviy nazorat konstitutsiya normalarida mustahkamlandi. 1992-yilda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaning 109-moddasi birinchi qismi 4-bandida Konstitutsiyaviy sudning O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlari normalariga sharh berishi ko‘rsatilgan edi [9]. 1993-yil 6-may kuni qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi to‘g‘risida”gi Qonuni 1-moddasida ham konstitutsiyaviy sudning sharhlash vakolati ko’rsatilgan edi[10].garchand 1933-yilda Konstitutsiyaviy sudi to‘g‘risida qonun qabul qilingan bo‘lsada 1995-yilga qadar Konstitutsiyaviy sud vazifalarini Konstitutsiyaviy nazorat komiteti amalga oshirdi. 1995-yil 30 avgustda Konstitutsiyaviy sudi to‘g‘risidagi qonun yangi tahrirda qabul qilindi [11] va shu vaqtdan boshlab mamalakatimizda Konstitutsiyaviy sud nomi bilan ataluvchi maxsus vakolatga ega sud faoliyat yuritmoqda. “O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi to‘g‘risida”gi Qonuni 2017- yil va 2021- yilda yangi tahrirda qabul qilindi[12-13].

Konstitutisyaviy sudning 1995-yildan 2021-yilga qadar bo’lgan faoliyatini o‘rganadigan bo‘lsak ushbu davr mobaynida Konstitutisyaviy sud tomonidan 31 ish ko‘rilganligini ko‘rishimiz mumkin. 2002-yil 10-aprel kuni O‘zbekiston Respublikasi Konstitutisyaviy sudning O‘zbekiston Respublikasining “Sudlar to‘g‘risida”gi Qonunining 62-moddasi 4-qismini sharhlash to‘g‘risidagi qarori qabul qilindi[14]. “Sudlar to‘g‘risida”gi Qonunning (2000-yil 14-dekabrda qabul qilingan tahriri) 62-moddasida "Xalq maslahatchilari sudlardagi vazifalarini bajarish uchun yiliga ko`pi bilan ikki haftaga navbatma-navbat chaqiriladi, ularning ishtirokida boshlangan sud ishini ko`rishni tugallash zarurati bu muddatni uzaytirishni taqozo etgan hollar bundan mustasno. Shu davrda ularning ish joyidagi o`rtacha ish haqi saqlanib qoladi". deyilgan edi. Albatta ushbu norma ma’nosini turlicha tushunish mumkin ya’ni bunday hollarda xalq maslahatchilari rad qilinishi kerakmi yoki uning ishtirokida sud majlisini ko‘rish mumkinmi? Ushbu savollarga konstitutsiyaviy sudning qarori bilan javob topildi. Sudning qaroriga ko‘ra O`zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksida xalq maslahatchisining sudda yiliga

ikki haftadan ortiq ishtirok etishini uning shu yil boshqa jinoyat ishini yuritishda ishtirok etishiga monelik qiladigan holat sifatida nazarda tutmaganligini, Shuning uchun ham xalq maslahatchisining sudda yiliga ikki xaftadan ortiq ishtirok etishi uni rad qilish uchun asos bo`lmasligi sharhlangan edi. 2019-yil 13-dekabr kuni Prezidentimizning “Konstitutsiya va qonun ustuvorligini ta’minlash, bu borada jamoatchilik nazoratini kuchaytirish hamda jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi PQ-4551-sonli qarori e’lon qilindi [15].

Qarorda Konstitutsiyaviy sudga masalalar kiritish huquqiga ega bo‘lgan sub’ektlar doirasiga fuqarolar va yuridik shaxslarni kiritish belgilangan edi bu orqali qonunchilikka o‘zgartirish kiritildi va fuqarolar va yuridik shaxslar o‘z huquq va erkinliklari uzasidan Konstitutsiyaviy sudga murojaa qilish huquqiga ega bo‘ldi. 2024-yil 23-iyul kuni Konstitutisyaviy sudning KSQ-3son qarori qabul qilindi [16]. Ushbu qarorning qabul qilinishiga sabab bo‘lgan murojat Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markaz tomonidan 2024 yil 23 yanvar kuni fuqaro K. Eshmatov Milliy markazga murojaat asosida kiritilgan edi, fuqaro murojaatida «O‘zbekiston Respublikasining Konstitusiyaviy sudi to‘g‘risida»gi Konstitusiyaviy qonunning 86-moddasi birinchi qismida nazarda tutilgan bir yillik muddat sud qarori qabul qilingan kundan yoki O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi raisiga ishni kassatsiya tartibida takroran ko‘rish haqida protest kiritish to‘g‘risida bergan arizasiga javob xati berilgan kundan boshlab hisoblanishi haqida tushuntirish berishni so‘ragan. Sud qaroriga ko‘ra «O‘zbekiston Respublikasining Konstitusiyaviy sudi to‘g‘risida»gi Konstitusiyaviy qonunning 86-moddasi birinchi qismida «Konstitusiyaviy huquq va erkinliklari muayyan ishda qo‘llanilgan va O‘zbekiston Respublikasining Konstitusiyasiga muvofiq bo‘lmagan qonunda buzilgan deb hisoblovchi fuqarolar hamda yuridik shaxslarning shikoyatlari, agar sudda himoya qilishning boshqa barcha vositalaridan foydalanib bo‘lingan bo‘lsa, sudda ishni ko‘rib chiqish tugagan kundan e'tiboran bir yildan kechiktirmay beriladi», degan normasida belgilangan «sudda ishni ko‘rib chiqish tugagan kun» jumlasini sud tomonidan ishni ko‘rib chiqish natijasi bo‘yicha oxirgi sud hujjati

qabul qilingan kun, deb tushunish lozimligi sharhlanib tushuntirilgan. 2025-yil 31-yanvar kuni Konstitutsiyaviy sud O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining O‘zbekiston Respublikasi “Davlat boji to‘g‘risida”gi Qonunining 8, 9, 10-moddalari _ Savdo-sanoat palatasiga oid normalariga sharh berish to‘g‘risidagi murojaati bo‘yicha ko‘rilgan ish yuzasidan qaror qabul qildi[17]. Qonunchiligimizdan bizga ma’lumki, O‘zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi va uning hududiy boshqarmalari palata a’zolari manfaatida sudlarga da’vo arizasi kiritadi. Qonunchilikka ko‘ra Savdo-sanoat palatasi sudga murojaat qilishda davlat bojidan ozod qilingan. Sud qaroridan ma’lum bo‘lmoqdaki, sud natijalari bo‘yicha ayrim holatlarda Savdo-sanoat palatasidan davlat boji undirilgan. Xususan 2023-yil va 2024-yilning 9 oyida Savdo-sanoat palatasi tomonidan palata a’zolarining manfaatlarini ko‘zlab iqtisodiy sudlarga taqdim etilgan 59883 ta da’vo arizasining 2967 tasini qanoatlantirish rad etilgan va 36.643.092.823,3 so‘m davlat boji manfaati ko‘zlanib da’vo kiritilgan tadbirkorlik subyektlaridan undirilgan bo‘lsa, 2024-yilning 9 oyida 2 ta holatda jami 35.408.440 so‘m davlat boji Savdo-sanoat palatasi hisobidan undirilgan. Shu davr mobaynida ma’muriy sudlarga taqdim etilgan 940 ta da’vo arizaning 462 tasini qanoatlantirish rad etilgan bo‘lib, 407 ta qaror bilan 1 068 814 000 so‘m davlat boji manfaati ko‘zlanib da’vo kiritilgan palata a’zolaridan undirilgan bo‘lsa, 55 ta sud qarori bilan 188 300 000 so‘m Savdo-sanoat palatasi hisobidan undirilgan. Fuqarolik ishlari bo‘yicha sudlar tomonidan esa 2023-yil va 2024-yilning 9 oyi davomida palata a’zolari manfaatida taqdim etilgan 350945 ta da’vo arizasining 2807 tasini qanoatlantirish rad etilgan va barcha holatda 3 104 013 130,8 so‘m davlat boji manfaati ko‘zlanib da’vo kiritilgan palata a’zosi hisobidan undirilgan.

Sudning qaroriga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi va uning hududiy boshqarmalari — palata a’zolarining manfaatlarini ko‘zlab qilingan da’volari (arizalar) bo‘yicha “...ko‘rsatilgan shaxslarning talablarini qanoatlantirish to‘liq yoki qisman rad etilgan taqdirda, davlat boji shu shaxslardan talablarning qanoatlantirilishi rad etilgan miqdoriga mutanosib ravishda undiriladi” degan normani, davlat boji ariza qaysi shaxslarning manfaatlarini ko‘zlab taqdim etilgan

bo‘lsa, shu shaxslardan da’vo talablarning qanoatlantirilishi rad etilgan qismiga mutanosib ravishda undiriladi, deb tushunish lozimligi sharhlandi. Ya’ni ish yakuni bo‘yicha Savdo-sanoat palatasidan davlat boji undirlmasligi tushuntirldi. Agar yuqoridagi misollar kabi konstitutsiyaviy sud tomonidan sharhlash amalga oshirilmaganda shaxslar tomonidan tushunmovchilik davom etar, bu esa ko‘plab insonlarning huquqlarini buzilishiga sabab bo‘lishi mumkin edi.

Ochig‘ini tan olib aytadigan bo‘lsak sharhlash ehtiyojini keltirib chiqarayotgan holatlar bizni qonun qabul qilish jarayonidagi kamchiliklarimiz. Qonunlarning mazmun mohiyatini bildiruvchi jumlalarning tugal emasligi, jumlalarning to‘g‘ri va aniq shaklda qo‘llanilmasligidir. Qonun hujjatlari yuridik mutaxassislar bilan birga keng jamoatchilik uchun ham tushunarli bo‘lishi kerak Fransuz ma’rifatparvari va faylasufi Sh.Monteske aytganidek “Qonun uslubi sodda va aniq, dabdaba va jimjimadorlikdan xoli bo‘lishi kerak” [18]. Qonunchiligimizdagi noaniqliklarni bartaraf etish uchun lingvistik ekspertizani kuchaytirishimiz buning uchun esa ushbu ekspertizaga OTM, ilmiy tadqiqot institutlari, maktab, texniko‘mlardan chinakam bilimli tilshunos, filolog, mantshunos mutaxassislarni jalb qilish zarur. E’tibor qaratadigan bo‘lsak, oliy majlisga saylangan deputatlarimizning ozchiligi yuridik mutaxassis, ko‘p qismi boshqa soha vakillari to‘g‘ri qonunchiligimizda deputat bo‘lish uchun yuridik ma’lumotli bo‘lish talab qilinmaydi ammo biz ularning huquqiy savodxonligini ham kuchaytirishimiz zarur. O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyasining 55-moddasida “Har kim o‘z huquq va erkinliklarini qonunda taqiqlanmagan barcha usullar bilan himoya qilishga haqli. Har kimga o‘z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish, davlat organlarining hamda boshqa tashkilotlarning, ular mansabdor shaxslarining qonunga xilof qarorlari, harakatlari va harakatsizligi ustidan sudga shikoyat qilish huquqi kafolatlanadi”[19]. 20-moddada “Insonning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlab qo‘yilgan huquq va erkinliklari daxlsizdir hamda ulardan sud qarorisiz mahrum etishga yoki ularni cheklab qo‘yishga hech kim haqli emas” [20]. deb belgilangan. “O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi to‘g‘risida”gi Qonunning 27-moddasida Agar qonun fuqarolar va yuridik shaxslarning fikricha, ularning konstitutsiyaviy

huquqlari va erkinliklarini buzayotgan bo‘lsa, O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga muvofiq kelmasa hamda sudda ko‘rilishi tugallangan muayyan ishda qo‘llanilgan bo‘lsa va sudda himoya qilishning barcha boshqa vositalaridan foydalanib bo‘lingan bo‘lsa, ular qonunning Konstitutsiyaga muvofiqligini tekshirish to‘g‘risidagi shikoyat bilan Konstitutsiyaviy sudga murojaat etishga haqlidir”[21]. 29-moddada esa “Fuqarolar va yuridik shaxslarning shikoyatlarida ish sudda ko‘rib chiqilganligi va sudda himoya qilishning barcha shakllaridan foydalanilganligi ko‘rsatilgan bo‘lishi kerak”.[22] deb belgilangan.

Bizning fikrimizcha konstitutsiyaviy qonun normalari shaxslarning konstitutsiyada belgilangan huquqlarini cheklamoqda, bu holatni to‘g‘irlash uchun esa qonundagi talablarni olib tashlash kerak. Ya’ni shaxs o‘z huquqlarini buzilayotganligigni bildimi u istalgan vaqtda Konstitutsiyaviy sudga murojat qilish imkoniga ega bo’lishi kerak. Agar fuqarolar amaldagi qonun talablari bo‘yicha Konstitutsiyaviy sudga murojaat qiladigan bo‘lsa ularning ikki yildan ortiqroq umri belgilangan preseduralarni amalga oshirishga ketishi mumkin. Bu holat shaxsga ham moddiy ham ma’naviy zarar keltiradi. Shuningdek bugungi kunda jismoniy va yuridik shaxslar O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonun normasiga sharh berishni so‘rab Konstitutsiyaviy sudga murojaat qilish huquqiga ega emas. Bizningcha jismoniy va yuridik shaxslar ham o‘z huquq va manfaatlariga dahldor bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonun normasiga sharh berishni so‘rab Konstitutsiyaviy sudga murojaat qilish huquqiga ega bo‘lishlari lozim. Bu orqali shaxslar bilvosita emas bevosita sharh berishni so‘rab Konstitutsiyaviy sudga murojaat qilish huquqiga ega bo‘ladilar. Bu holat ularni ortiqcha ovoragarchililardan saqlab huquq va manfaatlarini qisqa muddatlarda tiklanishiga olib keladi. Shaxs huquqlari oliy qadryatdir, ularning huquqlarini ta’minlanishi uchun huquqiy asoslarini ta’minlashimiz zarur.

Foydalanilgan adaiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksi. — 01.04.2018. — URL: https://lex.uz/docs/-3517337

2. **Sodikov A.Sh.** Yuridik texnika. — Toshkent: TDYU, 2024.
3. **Sodikov A.Sh.** Sharhlash hujjatlarining yuridik texnikasi. — Toshkent: TDYU, 2024.
4. O‘zbekiston Respublikasining “Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida”gi Qonuni. — O‘RQ-682-son. — 20.04.2021. — URL: https://lex.uz/uz/docs/-5378966
5. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. — 08.12.1992. — URL: https://lex.uz/docs/-20596
6. O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasida konstitutsion nazorat to‘g‘risida”gi Qonuni. — 20.06.1990 y., 93-XII-son. — URL: https://lex.uz/docs/-96173
7. O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi to‘g‘risida”gi Qonuni. — 06.05.1993 y., 820-XII-son. — URL: https://lex.uz/docs/-95539
8. O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi to‘g‘risida”gi Qonuni. — 30.08.1995 y., 103-I-son. — URL: https://lex.uz/ru/docs/-114129
9. O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi to‘g‘risida”gi Qonuni. — 31.05.2017 y., O‘RQ-431-son. — URL: https://lex.uz/docs/-3221763
10. O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi to‘g‘risida”gi Qonuni. — 27.04.2021 y., O‘RQ-687-son. — URL: https://lex.uz/uz/docs/-5391934
11. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. — 30.04.2023. — URL: https://lex.uz/docs/-6445145
12. Ўзбекистон Республикаси Конституциявий судининг “Ўзбекистон Республикасининг ‘Судлар тўғрисида’ги Қонуни 62-моддаси тўртинчи қисмини шарҳлаш тўғрисида”ги қарори. — 10.04.2002. — URL: https://nrm.uz/contentf?doc=28435

13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Konstitutsiya va qonun ustuvorligini ta’minlash, jamoatchilik nazoratini kuchaytirish hamda jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish to‘g‘risida”gi qarori. — 13.12.2019 y., PQ-4551-son. — URL: https://lex.uz/docs/-4647329
14. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudiga oid konstitutsiyaviy qonunning 86-moddasiga sharh berish to‘g‘risidagi qaror. — 23.07.2024 y., KSQ-3-son.
15. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudining “Davlat boji to‘g‘risida”gi Qonunining ayrim moddalari yuzasidan sharh berish haqidagi qarori. — 31.01.2025 y., KSQ-2-son. — URL: https://lex.uz/uz/docs/-7374970

O‘ZBEKISTON MILLIY MAKTABLARIDA RUS TILINI CHET TILI SIFATIDA O‘QITISH: ISTIQBOLLAR VA VAZIFALAR

Abdusamatov Mavlonjon Mukarramjon o‘g‘li
Is`hoqxon Ibrat nomidagi Namangan davlat chet tillari instituti

Annotatsiya: *Mazkur maqolada rus tilining O‘zbekiston milliy maktablarida xorijiy til sifatida o‘qitilishining qisqacha tarixi, bugungi holati va kelgusidagi istiqboli tahlil qilinadi. Shuningdek, muallifning bu boradagi ayrim takliflari ilgari surilgan.*

Kalit so‘zlar: *ona tili, xorijiy til, tilning maqomi, millatlararo muloqot, demotivatsiya.*

Bugungi kunda O‘zbekiston jahon iqtisodiyoti va madaniyatiga chuqur integratsiyalashuvga intilayotganida, rus tilini o‘qitish tarixini tahlil qilish, uning zamonaviy ta’limdagi rolini tushunish va uni yanada rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega. Mamlakatimizda xorijiy tillarni, jumladan,

rus tilini xorijiy til sifatida, o‘qitish so‘nggi yillarda hukumat darajasida e’tibor qaratilayotgan sohalardan biriga aylanmoqda. Shaxsan davlat rahbarining umumiy o‘rta ta’lim tizimida xorijiy tillarni o‘qitishda yangi yondoshuvlar qo‘llashga chaqirig‘i ushbu masalaning nazariy, amaliy va metodologik jihatlarini ilmiy jihatdan o‘rganish zaruriyatini paydo qiladi. Xususan, Sh. Mirziyoyev 2023-yil 20-yanvar kuni maktablarda xorijiy tillar va kasb o‘rgatish tizimini rivojlantirish masalalari bo‘yicha kengaytirilgan yig‘ilishda so‘zalagan nutqida: «Maktabdan kasb va tilni bilib chiqqan bola jamiyatimizning katta yutug‘i, bilmagani muammo», – deb ta’kidlagan edi [1].

Hukumat tomonidan umumta’lim maktablarda rus tilini o‘qitishni mutlaq yangi bosqichga ko‘tarishga qaratilgan eng yirik tarixiy tashabbuslardan biri, O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 31-oktyabrda qabul qilingan O‘RQ-986-sonli «Rus tili bo‘yicha xalqaro tashkilotni ta’sis etish to‘g‘risidagi Shartnomani (Bishkek, 2023-yil 13-oktabr) ratifikatsiya qilish to‘g‘risida»gi Qonuni [2] qabul qilinishi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Zamonaviy sharoitda rus tili millatlararo muloqotning global tiliga aylanib borayotgan ingliz tili bilan kuchli raqobatga duch kelmoqda, deyish mumkin. Bundan tashqari, rus tili fan sifatida o‘qitiladigan ko‘plab mamlakatlarda rus tili allaqachon chet tili sifatida o‘rganilmoqda va ushbu fan bo‘yicha, ilmiy asoslarga ega bo‘lgan, uslubiy qo‘llanmalar va dasturlar mavjud. Bir qator mamlakatlarda ta’limning milliy xususiyatlari va an’analaridan kelib chiqqan holda, rus tilini chet tili sifatida o‘qitish bo‘yicha o‘ziga xos uslubiy yondashuvlar qo‘llaniladi. Masalan, Xitoyda talabalarga rus yozuvini osonroq o‘rganishga yordam beradigan iyeroglif jadvallari va sxemalari kabi ko‘rgazmali qurollardan keng foydalanadi. Xitoy tilidan rus tiliga tarjima mashqlari faol qo‘llaniladi, bunday yondashuvlar boshqa chet tillarini o‘qitishning an’analari bilan uyg‘unlashtirilgan [3].

Mo‘g‘ulistonda rus va mo‘g‘ul tillariga xos bo‘lgan kirill alifbosiga tayanish o‘qish va yozishni o‘rganishning dastlabki bosqichini osonlashtiradi [4]. Mo‘g‘ul mutaxassislarining kasbiy faoliyatida talab qilinadigan og‘zaki va yozma tarjimalar rus tilini o‘qitish dasturlariga kiritilgan.

Hindistonda hind madaniyati va adabiyoti elementlari talabalarning motivatsiyasini oshirish maqsadida rus tilidagi o‘quv materiallariga birlashtirilgan [5]. Tegishli ravishda rus va hind tillarining grammatik tizimlari qiyosiy tahlil orqali o‘rganiladi.

O‘zbekiston milliy maktablarida rus tilini, an’anaviy uslublardan farqli ravishda, chet tili sifatida o‘qitish bo‘yicha keng qamrovli ishlar 2020- yilda «Класс!» («Zor!») loyihasiga asos solinishi bilan boshlandi.

Bunday keng ko‘lamli loyihani amalga oshirish zarurati 2020-yillar boshida mamlakatimiz xalq ta’limi tizimida yuzaga kelgan bir qator obyektiv omillar bilan bog‘liq edi. O‘zbekistonda rus tili millatlararo muloqot tili maqomini saqlab qolayotgani, statistika bo‘yicha, aholining 70 foizi rus tilida muloqot qila olishi[6] ta’kidlansa-da, uni o‘qitish sifati, ayniqsa, chekka hududlarda jiddiy islohotlarga muhtoj edi.

Buni quyidagi ikki asosiy omil bilan bog‘lash mumkin:

- milliy maktablarda rus tili o‘qituvchilarining katta qismini tashkil etuvchi yosh pedagoglarning salmoqli qismi yetarli nutqiy va uslubiy ko‘nikmalarga ega emasligi. Pedagog kadrlarning rus tili fanidan attestatsiya imtihonidagi natijalari shuni ko‘rsatdiki, minglab o‘qituvchilar malakaviy toifa uchun belgilangan o‘tish balidan past natijani qayd etdilar [7].

- rus tilini o‘qitish uslublarining, uni ona tili sifatida (haftasiga 5 soat) o‘qitilgan, sovet ta’limi an’alarini deyarli o‘zgarishsiz saqlab qolganligi. Bu esa rus tilini xorijiy til sifatida qabul qiluvchi zamonaviy yoshlarning ehtiyojlariga mos kelmas edi.

«Класс!» («Zor!») loyihasi mazkur muammolarni tuzatish emas, balki rus tilini xorijiy til sifatida o‘qitishning mutlaq yangi tizimni yo‘lga qo‘yishni nazarda tutadi.

Loyihaning qonuniy asosi 2020-yil oktyabr oyida imzolangan hamkorlik memorandumi bo‘ldi [6]. Ushbu hujjat tomonlarning 2030-yilgacha bo‘lgan 10 yillik muddatda rus tilini xorijiy til sifatida o‘qitish uslublarini yaratish va rivojlantirishni nazarda tutadi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, loyiha mamlakatimiz umumiy o‘rta ta’lim tizimida rus tilini o‘qitish jarayonlarini to‘liq qamrab olishga qaratilgan. Agar dastlabki bosqichda (2020-2021) 32 nafar uslubchi va 100 nafar pedagog ishtirokida tajriba va diagnostik tahlillar o‘tkazilgan bo‘lsa, 2030-yilga borib O‘zbekistondagi har bir rus tili fani o‘qituvchisi u yoki bu tarzda to‘g‘ridan-to‘g‘ri malaka oshirish kurslari yoki yangi darsliklar va o‘quv qo‘llanmalardan foydalanish orqali dasturning bevosita yoki bilvosita ishtirokchisi bo‘lishi rejalashtirilgan.

MDH mamlakatlarida rus tilini o‘qitishning asosiy muammolaridan biri uzoq vaqt davomida tilni «ona tili» yoki «ikkinchi ona tili» deb qabul qilish inertsiyasi bo‘lib kelgan. Biroq milliy maktablarda tahsil olayotgan o‘quvchilarining yangi avlodi uchun, ayniqsa, qishloq joylarda, rus tilining chet tili sifatida qabul qilinishi faktdir. Rus tilini ona tili sifatida so‘zlashuvchilar uchun mo‘ljallangan usullardan foydalanish (murakkab grammatik nazariyani chuqur o‘rganish bilan) o‘quvchilarning demotivatsiyasiga va sust kommunikativ natijalarga olib keladi. Bundan tashqari, chekka hududlarda, hatto ayrim markaziy tuman va shaharlarda rus tilidan kundalik hayotda foydalanishga ehtiyoj yo‘qligi, rus tilli so‘zlashuv muhitini “nol”ga tenglashtiradi.

Milliy maktablarda rus tilini chet tili sifatida o‘qitishga mo‘ljallangan yangi darsliklarni yaratishda aynan yuqorida qayd etilgan ko‘plab omillar hisobga olingan. Loyiha doirasida chop etilgan mazkur darsliklarni yaratishda rossiyalik va o‘zbekistonlik qator pedagog-filologlar ishtirok etdilar [9], jumladan, 2-11-sinflar uchun mo‘ljallangan darsliklarga Z.Abduraimova, S.Islambekova, O‘.Karamatova, Ye.Pavlova, Z.Isakjanova, M.Sharyayeva, T.Shorina, Yu. Karpachenkova, Ye.Ardatova, M.Ivansova, M.Konoshonok, N.Yuldasheva, M.Sharafutdinova va boshqalar nafaqat darsilklar, balki mazkur darsliklarni amalda qo‘llash uchun uslubiy qo‘llanmalar ham yaratdilar.

O‘zbekiston rus tilida muloqot qilish borasida mintaqaviy jihatdan yuqori farqlanish darajasi bilan ajralib turadi. Masalan, Toshkent shahrida Surxondaryo viloyatiga qaraganda rus tilini bilish darajasi sezilarli darajada farq qiladi. «Класс!» («Zor!») loyihasi mamlakatning barcha 14 ta ma’muriy-hududiy birliklarida

(Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Toshkent shahri va 12 ta viloyat) ushbu o‘ziga xosliklarni hisobga olgan holda faoliyat yuritib kelmoqda.

Har bir hududda o‘qituvchilarni qayta tayyorlash markazlari negizida rossiyalik uslubchilar tomonidan tizimli ravishda o‘quv mashg‘ulotlarini o‘tkazadigan tayanch punktlari tashkil etilgan. Bu rus tilli muhitni faqat Toshkent shahri sharoitidan kelib chiqib tahlil etishdan qochishga va eng chekka qishloqlarga zamonaviy usullarni yetkazishga imkon beradi.

Rus tili va adabiyoti o‘qituvchilari xalqaro assotsiatsiyasi (МАПРЯЛ) mazkur loyihani muntazam ravishda kuchli tarkib bilan ta’minlab kelmoqda. Jumladan, 2024-2025-yillarda assotsiatsiya xorijlik, xususan, o‘zbekistonlik rus tili fani o‘qituvchilari uchun qator amaliy seminarlar tashkil etib kelmoqda [10].

2025-yilda «Класс!» («Zor!») loyihasi integratsiyaning yangi darajasiga ko‘tarildi. Bunda milliy maktablar negizida abituriyentlarni Rossiya oliy o‘quv yurtlari va ularning O‘zbekistondagi filiallariga o‘qishga kirishga maqsadli tayyorlaydigan ixtisoslashtirilgan sinflar yoki markazlar ochilishi rejalashtirilgan.

2030-yilga borib loyiha respublikadagi qariyb 10 ming umumta’lim maktablarini qamrab olish quvvatiga ega bo‘lishni ko‘zlaydi. Bu vaqtga kelib, chet ellik mutaxassislarning doimiy ishtirokisiz rus tilini chet tili sifatida o‘qitishning yuqori standartlarini mustaqil ravishda qo‘llab-quvvatlashga qodir bo‘lgan milliy uslubchi va murabbiylarning asosi shakllantirilishi kutilmoqda. Ta’lim bosqichlarini YUNESKO va CEFR xalqaro darajalari bilan uyg‘unlashtirish O‘zbekiston ta’lim tizimini yanada shaffof va konvertatsiyabop bo‘lishga erishishiga olib keladi.

Shunday qilib, loyihaning mohiyati faqatgina mamlakatimizda rus tilini chet tili sifatida o‘qitish va bu borada uslubiy asoslarni yaratish bilan chegaralanib qolmaydi. Bu uzoq kelajak ko‘zlangan inson kapitaliga sarmoya bo‘lib, kelgusi o‘nlab yillar davomida mamlakatning iqtisodiy jihatdan barqaror rivojlanishi uchun asos yaratuvchi omillardan biriga aylanadi. 2030-yilgacha mo‘ljallangan rejalarni amalga oshirish har ikki davlatning doimiy hamkorligini talab qiladi, allaqachon erishilgan natijalar esa (yangi darsliklar, qayta tayyorlangan o‘qituvchilar) bu tizimda allaqachon ijobiy o‘zgarishlar boshlanganligidan dalolat beradi.

Nafaqat rus tilini, balki boshqa har qanday xorijiy tilni o‘qitish jarayonlari uzoq muddatli kuzatuvlar, tahlillarni talab etadi. Xorijiy tilni o‘qitishning moliyaviy, uslubiy va ilmiy jihatlaridan tashqari, uning eng asosiy figurantlari – maktab o‘quvchilari – kelgusi jamiyat egalarining dunoqarashi, madaniyati, ma’naviy va axloqiy qiyofasiga qay darajada ta’sir ko‘rsatishini baholab borish ham e’tibordan chetda qolmasligi lozim. Ikki mamlakat o‘rtasida hukumat darajasida ta’lim sohasida olib borilayotgan bunday loyihalarning natijadorligi biz yuqorida sanab o‘tgan omillarga bevosita bog‘liqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. **Mirziyoyev Sh. M.** Maktablarda xorijiy tillar va kasb o‘rgatish tizimini rivojlantirish masalalari bo‘yicha kengaytirilgan yig‘ilishdagi nutq. – Elektron resurs. – URL: https://president.uz/oz/lists/view/5830 (murojaat sanasi: 20.01.2026).
2. **O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi (Lex.uz).** – Elektron resurs. – URL: https://lex.uz/ru/docs/-7180786 (murojaat sanasi: 20.01.2026).
3. **Ло Сяосия.** Методика обучения русскому языку в Китае (история и перспективы) // Ped. Rev. – 2015. – № 2 (8). – Электронный ресурс. – URL: https://cyberleninka.ru/article/n/metodika-obucheniya-russkomu-yazyku-v-kitae-istoriya-i-perspektivy (дата обращения: 20.01.2026).
4. **Namjilsuren Jambatseren, Ruliyene Lyubov Nimajapovna.** Место русского языка в современной школе Монголии: к постановке проблемы // Вестник ЧГПУ им. И. Я. Яковлева. – 2024. – № 2 (123). – Электронный ресурс. – URL: https://cyberleninka.ru/article/n/mesto-russkogo-yazyka-v-sovremennoy-shkole-mongolii-k-postanovke-problemy (дата обращения: 20.01.2026).
5. **Rumyanseva Natalya Mixaylovna, Rubsova Dina Nikolayevna, Anand Abxishek.** Преподавание русского языка учащимся Индии в условиях многоязычия // Полилингвиальность и транскультурные практики. – 2024.

– № 4. – Электронный ресурс. – URL: https://cyberleninka.ru/article/n/prepodavanie-russkogo-yazyka-uchaschimsya-indii-v-usloviyah-mnogoyazychiya (дата обращения: 20.01.2026).

6. **Vzglyad.uz.** Ta’lim sohasiga oid maqola. – Elektron resurs. – URL: https://vzglyad.uz/ru/post/2024/05/26/education-6/ (murojaat sanasi: 20.01.2026).
7. **Vzglyad.uz.** O‘qituvchilar faoliyatiga oid tahliliy maqola. – Elektron resurs. – URL: https://vzglyad.uz/ru/post/2024/05/27/uchitelya-provalilis/ (murojaat sanasi: 20.01.2026).
8. **STV.uz.** O‘zbekistonda rus tili bo‘yicha testdan o‘tgan o‘qituvchilar haqidagi xabar. – Elektron resurs. – URL: https://stv.uz/news/newsuz/15695-bolee-13-tys-uchiteley-v-uzbekistane-proshli-testirovanie-po-russkomu-yazyku.html (murojaat sanasi: 20.01.2026).
9. **Telegra.ph.** Yangi o‘quv yili uchun rus tili darsliklari yaratilgani haqida. – Elektron resurs. – URL: https://telegra.ph/Yangi-oquv-yili-uchun-rossiyalik-mualliflar-bilan-hamkorlikda-2-11-sinf-Rus-tili-darsliklari-yaratildi-06-17 (murojaat sanasi: 20.01.2026).
10. **MAPRYAL.** “Klass” loyihasi metodistlarni taklif etmoqda. – Elektron resurs. – URL: https://ru.mapryal.org/news/proekt-klass-priglashaet-metodistov-v-oblasti-rki (murojaat sanasi: 20.01.2026).

BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA TANQIDIY FIKRLASHNI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY-METODIK ASOSLARI

Sodiqova Gulbahor G’ofurjon qizi

Abduvohidova Rayhona

Farg‘ona Davlat universiteti

Annotatsiya. *Mazkur maqolada boshlang‘ich ta’lim bosqichida tanqidiy fikrlashni shakllantirishning nazariy-metodik asoslari yoritilgan. Globallashuv sharoitida shaxsning mustaqil fikrlashi, muammoli vaziyatlarni tahlil qilishi va asosli qaror qabul qila olish kompetensiyalarini rivojlantirishning dolzarbligi asoslab berilgan. Tanqidiy fikrlash tushunchasining mazmuni va pedagogik mohiyati ilmiy manbalar tahlili asosida ochib berilgan. Shuningdek, tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda shaxsga yo‘naltirilgan, muammoli va kompetensiyaviy yondashuvlarning ahamiyati ko‘rsatib o‘tilgan. Maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida tanqidiy fikrlashni shakllantirish uchun zarur bo‘lgan pedagogik shart-sharoitlar, interfaol metodlar va didaktik topshiriqlar tizimining o‘rni ilmiy jihatdan asoslangan. Tadqiqot natijalari tanqidiy fikrlashni rivojlantirish boshlang‘ich ta’lim samaradorligini oshirishga xizmat qilishini ko‘rsatadi.*

Kalit so‘z: *Tanqidiy fikrlash, boshlang‘ich ta’lim, mustaqil fikrlash, muammoli ta’lim, shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv, kompetensiyaviy ta’lim, interfaol metodlar, pedagogik shart-sharoitlar, bilish faoliyati.*

Bugungi kunda globallashuv jarayonlarining jadallashuvi, fan va texnika taraqqiyotining mislsiz sur’atlarda rivojlanishi, ijtimoiy-iqtisodiy hamda mafkuraviy sohalardagi tub o‘zgarishlar jamiyat hayotida yuzaga kelayotgan muammolarga nisbatan yangicha yondashuvni talab etmoqda. Ushbu sharoitda shaxsning tezkor, asosli va mustaqil qaror qabul qila olish qobiliyati, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish hamda ularga ongli munosabat bildirish kompetensiyalari muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, bunday sifatlarni yosh avlodda, xususan, boshlang‘ich ta’lim bosqichidayoq shakllantirish dolzarb pedagogik vazifaga aylanmoqda. Shu bois rivojlangan mamlakatlar ta’lim tizimida tanqidiy fikrlashni boshlang‘ich sinfdan boshlab shakllantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Ushbu mamlakatlarda kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarga real hayotiy vaziyatlarni tahlil qilish, sabab-oqibat aloqalarini aniqlash, muammoga nisbatan bir nechta

yechim variantlarini ilgari surish va mustaqil xulosa chiqarishga yo‘naltirilgan o‘quv faoliyati ustuvor hisoblanadi. Bu esa boshlang‘ich ta’lim mazmunini faqat bilim berishga emas, balki fikrlovchi shaxsni tarbiyalashga qaratish zarurligini ko‘rsatadi. Jahon pedagogikasida o‘quvchilarda tanqidiy fikrlashni shakllantirish orqali shaxs yetukligini ta’minlash masalasi keng ko‘lamli ilmiy izlanishlar obyektiga aylangan. Xususan, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim, muammoli ta’lim, kompetensiyaviy va qadriyatli yondashuvlar asosida tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning samarali shakl va metodlarini ishlab chiqish ustida izchil tadqiqotlar olib borilmoqda. Ushbu yondashuvlarda o‘quvchi ta’lim jarayonining faol subyekti sifatida qaralib, uning fikrlash jarayonini faollashtirishga xizmat qiluvchi interfaol metodlardan keng foydalanish tavsiya etiladi.

Mamlakatimizda ham har tomonlama barkamol, mustaqil fikrlaydigan, hayotiy pozitsiyasi va fuqarolik mas’uliyatiga ega bo‘lgan shaxsni tarbiyalash davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan. Yosh avlodda mustaqil va baxtli hayot uchun zarur bo‘lgan ijtimoiy malaka hamda fazilatlarni bosqichma-bosqich shakllantirish masalasiga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bu jarayonda pedagog shaxsining kasbiy mahorati, metodik saviyasi va innovatsion yondashuvlardan foydalanish qobiliyati hal qiluvchi omil hisoblanadi.

“Tanqidiy fikrlash” tushunchasi mazmunan murakkab va ko‘p qirrali bo‘lib, u shaxsning axborotni tahlil qilish, baholash, solishtirish, umumlashtirish va mustaqil xulosa chiqarish qobiliyatlari majmuini ifodalaydi. Ilmiy manbalarda tanqidiy fikrlash yangi g‘oyalarni tekshirish, ularni baholash, rivojlantirish va amaliyotga tatbiq etish jarayonida namoyon bo‘ladigan yuqori darajadagi aqliy faoliyat sifatida talqin etiladi. Bu jarayonda mantiqiy fikrlash, isbotlash, dalillarga tayanish, muqobil fikrlarni qabul qilish va asosli xulosa chiqarish muhim o‘rin tutadi. [Abdullayeva, Yo‘ldoshev, 2019, 45-b.] Pedagogik nuqtayi nazardan tanqidiy fikrlash o‘quvchilarning muammoli vaziyatlarga duch kelishi, savol qo‘yishi va ushbu savollarga javob izlash jarayonida shakllanadi. Shu sababli ta’lim jarayonida o‘quvchilarni faqat tayyor bilimlar bilan qurollantirish emas, balki ularni izlanishga, savol berishga, munozara yuritishga va o‘z fikrini asoslashga undovchi topshiriqlar

tizimini yaratish zarur. Aynan muammoli vaziyatlar o‘quvchilarda tanqidiy fikrlashni faollashtiruvchi muhim didaktik omil sifatida namoyon bo‘ladi.

Tanqidiy fikrlash mustaqil fikrlashning tarkibiy qismi bo‘lib, u o‘quvchining bilish faoliyatida muhim mezon hisoblanadi. Shu bois boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining tanqidiy fikrlash darajasini aniqlash va rivojlantirish pedagogik tashxis metodlari orqali amalga oshiriladi. Amaliyotda turli diagnostik metodikalar o‘quvchilarning tahlil qilish, taqqoslash, mantiqiy xulosa chiqarish qobiliyatlarini aniqlashga xizmat qiladi. [G‘afforova, Rahimova, 2018, 72–75-b.]

Ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, tanqidiy fikrlash – bu faqat dars jarayonida emas, balki darsdan tashqari faoliyatda ham shakllanadigan uzluksiz jarayondir. Ushbu jarayonda o‘quvchi axborotni passiv qabul qiluvchi emas, balki uni qayta ishlovchi, baholovchi va moslashtiruvchi subyekt sifatida namoyon bo‘ladi. Natijada o‘quvchilarda axborotga tanqidiy yondashish, yolg‘on va noto‘g‘ri ma’lumotlarni farqlash, asosli qaror qabul qilish ko‘nikmalari rivojlanadi.

Tanqidiy fikrlash bilimni o‘zlashtirishning yuqori bosqichi bo‘lib, shaxsning voqelikni obyektiv idrok etish imkoniyatlarini kengaytiradi. Bu jarayonda g‘oyalar ko‘pfikrlilik nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi, ular o‘zaro taqqoslanadi va baholanadi. Tahlil, sintez, umumlashtirish, ijodiy yondashuv va muammolarni hal etish tanqidiy fikrlashning muhim komponentlari sifatida namoyon bo‘ladi.[Abdullayeva, Yo‘ldoshev, 2019, 88–90-b]

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida tanqidiy fikrlashni shakllantirish jarayonida quyidagi pedagogik shart-sharoitlarning ta’minlanishi muhim hisoblanadi:
— o‘quvchilarni tanqidiy fikrlashga ruhan va psixologik jihatdan tayyorlash;
— o‘quvchilarning o‘z fikriga bo‘lgan ishonchini mustahkamlash;
— sinfda jamoaviy fikrlash, erkin munozara va fikr almashuvga yo‘naltirilgan pedagogik muhitni yaratish.

Tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarining shakllanishi o‘quvchilarga fikrlash jarayonini tezlashtirish, aniq maqsad qo‘yish va unga erishish yo‘llarini izlash, bilim olishga bo‘lgan qiziqishni oshirish, o‘quv-bilish jarayonida faollikni ta’minlash hamda boshqalarning fikrini tinglash va tahlil qilish kabi muhim imkoniyatlarni beradi.

Boshlang‘ich ta’lim mazmuniga mos ravishda tanqidiy fikrlashni rivojlantiruvchi o‘quv topshiriqlari tizimini ishlab chiqish va o‘quv jarayoniga joriy etish maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, tanqidiy fikrlashga xizmat qiluvchi didaktik loyihalar, innovatsion texnologiyalar va interfaol metodlardan foydalanish bu jarayonda kutilgan samaradorlikka erishish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. **Abdullayeva M., Yo‘ldoshev J.** Pedagogika. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019.
2. **G‘afforova T., Rahimova D.** Boshlang‘ich ta’lim metodikasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2018.
3. **Abdullayeva M., Yo‘ldoshev J.** Pedagogika. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019.
4. **Saidahmedov N.** Innovatsion ta’lim texnologiyalari. – Toshkent: Iste’dod, 2016.

BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHDA INTERFAOL USULLARNING INTEGRATSIYALASHGAN ROLI (GROW + MUAMMOLI TA’LIM + ROLLI O‘YINLAR)

Akramova Zuxra Botir qizi

Jizzax davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya. *Mazkur maqolada bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda interfaol usullarni pedagogik kouching sessiyalariga integratsiya qilish yondashuvi yoritilgan. GROW modeli kouchingning boshqaruv karkasi sifatida talqin qilingan, muammoli ta’lim muammoli vaziyatni tahlil qilishni kognitiv jihatdan chuqurlashtiruvchi mexanizm sifatida asoslangan,*

rolli o‘yinlar esa ishlab chiqilgan yechimlarni xavfsiz muhitda aprobasiyalash vositasi sifatida tahlil qilingan. Integratsiyaning amaliy ishlashini ta’minlovchi “trigger-vaziyatlar banki”ni yaratish va undan foydalanish bo‘yicha metodik tavsiyalar umumlashtirilgan.

Kalit so‘zlar: *pedagogik kouching, GROW modeli, muammoli ta’lim, rolli o‘yinlar, trigger-vaziyat, kasbiy kompetensiya.*

Kirish. Bugungi kunda zamonaviy ta’lim tizimida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini tayyorlash jarayoni faqat fan mazmunini o‘zlashtirish bilan cheklanib qolmay, balki ularning kasbiy kompetensiyalarini real dars sharoitiga yaqin vaziyatlarda shakllantirishni ham taqozo etmoqda. Chunki boshlang‘ich ta’lim bosqichida o‘qituvchidan metodik tayyorgarlik bilan bir qatorda kommunikativ madaniyat, sinfni boshqarish, baholashda shaffoflik, muammoli vaziyatlarda tezkor va asosli qaror qabul qilish hamda refleksiv tahlil ko‘nikmalari talab etiladi. Shu bois, bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishga xizmat qiladigan innovatsion yondashuvlarni amaliyotga tatbiq etish dolzarb masala hisoblanadi.

Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari ko‘pincha “darsni bilish” va “darsni olib borish” o‘rtasidagi farqni pedagogik faoliyat jarayonida yaqqol his qiladilar. Xususan, sinf shovqini, sust o‘quvchini jalb etish, instruktsiyani noto‘g‘ri tushunish, baholashda adolat tamoyilini saqlash, ota-ona bilan muloqot kabi vaziyatlar bir vaqtning o‘zida pedagogik mahorat, muloqot madaniyati va tezkor qaror qabul qilishni talab qiladi. Bunday vaziyatlar bilan ishlashda interfaol usullar (muammoli vaziyat tahlili, guruhli muhokama, rolli o‘yinlar, reflektiv yozuvlar) bo‘lajak o‘qituvchilarning nazariy bilimlarini amaliy ko‘nikmaga aylantirishga yordam beradi hamda ularni real dars jarayoniga tayyorlashga xizmat qiladi.

Shu nuqtayi nazardan, pedagogik kouching yondashuvi bo‘lajak o‘qituvchini “tayyor retsept” asosida emas, balki savol-javob, tahlil va refleksiya orqali mustaqil yechim topishga yo‘naltiruvchi samarali metodik vosita sifatida e’tirof etiladi. Pedagogik kouchingning natijadorligi esa sessiya tuzilmasi, tanlangan o‘quv vaziyatlari hamda interfaol usullarning maqsadga muvofiq integratsiyasi bilan belgilanadi.

Asosiy qism. Zamonaviy pedagogik jarayonda pedagogik kouching sessiyalarida interfaol usullardan foydalanish bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki bunday yondashuv talabaning faolligini oshiradi, uni mustaqil fikrlashga undaydi va o‘z fikrini asosli bayon etish ko‘nikmalarini shakllantiradi. Ayniqsa, GROW modeli, muammoli ta’lim va rolli o‘yinlarni uyg‘unlashtirish bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini real dars vaziyatlariga yaqin sharoitda tayyorlashga xizmat qiladi.

Bunda GROW modeli sessiyaning mantiqiy yo‘nalishini belgilovchi metodik “karkas” sifatida namoyon bo‘ladi. U muhokamani tarqoq fikrlardan maqsadga yo‘naltirilgan reja tomon olib boradi va bo‘lajak o‘qituvchida maqsad qo‘yish, vaziyatni tahlil qilish, variantlarni ishlab chiqish hamda aniq harakat rejasini tuzish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Muammoli ta’lim esa bo‘lajak o‘qituvchini muammoga “dalil” nuqtayi nazaridan yondashishga o‘rgatadi: vaziyatning ildiz sabablari ajratib ko‘rsatiladi, mavjud bilimlar va yetishmayotgan bilimlar aniqlanadi, yechim variantlari mezonlar asosida solishtiriladi. Rolli o‘yinlar esa tanlangan yechimni amaliyotga yaqinlashtirib, uni “sinfdagi real reaksiya”ga mos tarzda xavfsiz muhitda sinab ko‘rish imkonini beradi.

Umuman olganda, integratsiya mexanizmi quyidagicha izohlanadi: **GROW — boshqaruv karkasi**, muammoli ta’lim **— kognitiv chuqurlashtirish, rolli o‘yinlar — aprobasiyalash** vositasi hisoblanadi. Natijada “nazariya → amaliy harakat → refleksiya” zanjiri izchil ishlashi ta’minlanadi. Bu esa kasbiy kompetensiyalarni alohida-alohida ko‘nikmalar sifatida emas, balki yagona “pedagogik qaror qabul qilish” tizimi sifatida shakllantirishga xizmat qiladi.

Mazkur integratsiyani barqaror davom ettirish uchun trigger-vaziyatlar bankini ishlab chiqish muhim metodik resurs sifatida qaraladi. Trigger bank — boshlang‘ich sinf darslarida uchraydigan tipik muammoli vaziyatlarni (sinf shovqini, sust o‘quvchini jalb qilish, instruktsiyaning noto‘g‘ri tushunilishi, baholashda adolat, ota-ona bilan muloqot) qisqa ssenariylar ko‘rinishida jamlab beruvchi vosita hisoblanadi. Bunday bank mashg‘ulotlarni tasodifiy mavzulardan xoli qilib, ularni aniq kompetensiya indikatorlari bilan bog‘lashga yordam beradi hamda o‘qitish jarayonining natijadorligini oshiradi.

Trigger-vaziyatlarni didaktik paketlash ham muhim hisoblanadi. Bunda vaziyat quyidagi tarkibda berilishi tavsiya etiladi: (a) kontekst (sinf darajasi, fan, vaqt), (b) muammo belgisi (kuzatilgan faktlar), (c) kompetensiya indikatori (sinf boshqaruvi/kommunikatsiya/baholash), (d) cheklovlar (vaqt, resurs, o‘quvchi xususiyati), (e) kutiladigan natija (o‘lchanadigan ko‘rsatkich). Vaziyatlar murakkablik bo‘yicha darajalarga ajratilganda, muammoli ta’lim siklida tahlil qilish izchilligi kuchayadi va bo‘lajak o‘qituvchi ko‘nikmalarni “tarkibiy qismlar” ketma-ketligi orqali egallash imkoniga ega bo‘ladi.

GROW va muammoli ta’lim integratsiyasi sessiyaning har bir bosqichida aniq amaliy vazifalar bilan boyitiladi. Masalan, **Goal (Maqsad)** bosqichida talabaga tayyor maqsad berish emas, balki trigger orqali muammoli vaziyat taqdim etish muhimdir. **Reality (Reallik)** bosqichida muammoli ta’lim savollari orqali vaziyatning real sabab-oqibat zanjiri ajratib ko‘rsatiladi va “tez hukm” o‘rniga dalilga tayangan tahlil kuchayadi. **Options (Variantlar)** bosqichida koucher savollari variantlarni kengaytiradi va mezonlar asosida tanlov qilishni ta’minlaydi. **Will/Way forward (Iroda/harakat)** bosqichida esa tanlangan variant aniq harakat rejasiga aylantiriladi va natija o‘lchov mezonlari belgilab qo‘yiladi. Bu holat mas’uliyatni mustahkamlab, kompetensiyani amaliy natijaga aylantiradi.

Rolli o‘yinlar integratsiyada “sinov maydoni” vazifasini bajaradi. Unda o‘qituvchi, o‘quvchi, ota-ona, sinfdosh yoki metodist rollari taqsimlanib, tanlangan yechimning dialoglari va pedagogik ta’sir mexanizmlari amalda ko‘rsatiladi. Rolli o‘yinlar uch bosqichda samarali tashkil etiladi: (1) tayyorgarlik, (2) ijro, (3) tahlil. Tahlil jarayonida baholash shaxsga emas, harakatga qaratilishi, konstruktiv qayta aloqa uslubi qo‘llanishi muhim deb topiladi. Shuningdek, rolli o‘yinlarni mikro-o‘qitish bilan uyg‘unlashtirish bo‘lajak o‘qituvchining nutq madaniyati, instruktsiya aniqligi va sinfni boshqarish ko‘nikmalarini yanada takomillashtirishga xizmat qiladi.

Baholash va refleksiya esa integratsiyaning yakuniy “mustahkamlovchi” bloki hisoblanadi. Har bir sessiya oxirida shaffof mezonlar bo‘yicha tahlil o‘tkazish, reflektiv yozuvlar orqali o‘z-o‘zini baholashni yo‘lga qo‘yish bo‘lajak

o‘qituvchining rivojlanish trayektoriyasini aniqroq ko‘rishiga yordam beradi. Bundan tashqari, kouchingning etik chegaralariga rioya qilish, ta’lim jarayonida “xavfsiz muhit”ni shakllantirish, baholash va tanqidni kamaytirib, rivojlantiruvchi qayta aloqani kuchaytirish pedagogik jarayonning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, GROW modeli, muammoli ta’lim hamda rolli o‘yinlarni integratsiyalash bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim metodik ahamiyatga ega. Chunki GROW sessiya jarayonini izchil boshqarishga xizmat qilsa, muammoli ta’lim muammoli vaziyatlarni chuqur tahlil qilish va dalillash ko‘nikmalarini kuchaytiradi, rolli o‘yinlar esa tanlangan variantlarni xavfsiz pedagogik muhitda sinab ko‘rish imkonini yaratadi. Shu bois, trigger-vaziyatlar banki asosida mashg‘ulotlarni tizimli rejalashtirish va interfaol metodlardan maqsadli foydalanish ta’lim jarayonida nazariya, amaliy harakat va refleksiyaning uzviy bog‘liqligini ta’minlab, bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy o‘sishini barqarorlashtiradi. Umuman olganda, mazkur integratsiyalashgan yondashuv bo‘lajak pedagoglarni real dars vaziyatlarida tezkor va asosli qaror qabul qilishga, muloqot madaniyatini mustahkamlashga hamda sinfni samarali boshqarishga undaydi. Shuning uchun ham GROW + muammoli ta’lim + rolli o‘yinlar asosidagi mashg‘ulotlarni muntazam tashkil etish va ularning sifatini oshirish bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini tayyorlashda ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. **Whitmore J.** Coaching for Performance: GROWing Human Potential and Purpose: The Principles and Practice of Coaching and Leadership. — 4th ed. — London: Nicholas Brealey Publishing, 2009. — 244 p.
2. **Barrows H. S.**, **Tamblyn R. M.** Problem-Based Learning: An Approach to Medical Education. — New York: Springer Publishing Company, 1980.
3. **Savery J. R.** Overview of problem-based learning: Definitions and distinctions // Interdisciplinary Journal of Problem-Based Learning. — 2006. — Vol. 1, No. 1. — P. 9–20. — DOI: 10.7771/1541-5015.1002.
4. **Дубиненкова Е. Н.** Коучинг: учебно-методическое пособие. — Ярославль: ЯрГУ им. П. Г. Демидова, 2018. — 40 с.

5. **Dzikovska M.** Coaching as the pedagogical technology in professional training of future specialists // Continuing Professional Education: Theory and Practice. — 2019. — No. 3. — P. 45–50. — DOI: 10.28925/1609-8595.2019.3.4550.
6. **Tuychiyeva I.**, **Hokimjonova M.**, **Muqimova D.** Kouching texnologiyasi – pedagogik kompetentsiyani oshirish shakli sifatida // Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social Sciences. — 2022. — Vol. 2, No. 12. — P. 1160–1165.

NUTQIDA NUQSONI BO'LGAN 8-9 YOSHLI O'QUVCHILARNI INKLYUZIV SINFLARDA O'QITISHNING PEDAGOGIK SHARTLARI

Z.M.Alyaminova

O’zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti

Annotatsiya. *Ushbu tezisda inklyuziv ta’lim sharoitida nutqida nuqsoni bo‘lgan kichik maktab yoshidagi bolalarda kommunikativ va kognitiv–nutqiy ko‘nikmalarni rivojlantirishning ilmiy-uslubiy asoslari yoritib berilgan.*

Kalit so’zlar. *Inklyuziv ta'lim, nutq buzilishlari, kichik maktab yoshi, pedagogik sharoitlar, boshlang'ich sinf, differentsiallashgan yondashuv, moslashtirilgan ta'lim, logopedik yordam, kommunikativ ko'nikmalar, o'quv muvaffaqiyati.*

Dolzarbligi. Hozirgi kunda inklyuziv ta’limni rivojlantirish mamlakatimizda ustuvor vazifalardan biri bo‘lib, bu jarayon 2020–2030 yillarga mo‘ljallangan Ta’lim tizimini rivojlantirish konsepsiyasida ham alohida ta’kidlangan. Xususan, unda barcha bolalar, jumladan nutqida nuqsoni bo‘lgan o‘quvchilar uchun sifatli va teng ta’lim muhitini yaratish vazifasi belgilangan. Bu yo‘nalish PF-5995 (2020)

farmonida ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirishda inklyuziv ta’limni kengaytirish davlat siyosatining muhim yo‘nalishi sifatida belgilangan bo‘lib, unda maxsus pedagogik yondashuvlarga ehtiyoji bo‘lgan bolalar bilan ishlashning ilmiy-metodik asoslarini takomillashtirish zarurligi qayd etiladi.

Tadqiqotning maqsadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi nutqida nuqsoni bo'lgan 8-9 yoshli o'quvchilarni inklyuziv boshlang'ich sinflarda samarali o'qitish uchun zarur bo'lgan pedagogik shartlarni aniqlash va ularni amalda qo'llash bo'yicha ilmiy-metodologik tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari. 1. 8-9 yoshli o'quvchilardagi nutq buzilishlari turlarini tasniflash va ularning o'quv faoliyatiga ta'sirini o'rganish.2. Inklyuziv boshlang'ich sinflarda nutq nuqsoni bo'lgan o'quvchilarni o'qitishning pedagogik shartlarini aniqlash va ilmiy asoslash.

Tadqiqotning natijalari va ularning muhokamasi. Olib borilgan tadqiqot jarayonida inklyuziv ta’lim sharoitida nutqida nuqsoni bo‘lgan kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarda kommunikativ va kognitiv–nutqiy ko‘nikmalarning shakllanishi bir qator omillarga bog‘liq ekani aniqlanib, ularning rivojlanish dinamikasi bosqichma-bosqich o‘rganildi. Tadqiqot davomida kuzatishlar shuni ko‘rsatdiki, o‘quvchilarning nutq faolligi, tushunish jarayonlari, fikrni ifodalash darajasi va muloqotga kirishish qobiliyatlari o‘quv muhitining sifati, taqdim etilgan metodik yondashuvlar hamda o‘qituvchining individual ishlash strategiyalariga bevosita bog‘liqdir.Inklyuziv ta’lim jarayonida o‘quvchilarning nutqiy rivojlanishida kuzatilgan o‘zgarishlar, avvalo, o‘quv dasturiga kiritilgan maxsus korreksion mashg‘ulotlar bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, ularning muntazam qo‘llanishi natijasida o‘quvchilarning lug‘at boyligi oshgani, gap tuzish ko‘nikmalari shakllangani, suhbat davomida fikrni ketma-ket bayon qilish qobiliyati yaxshilangani kuzatildi. Bu, o‘z navbatida, o‘quvchilarning umumiy o‘quv faoliyatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatib, dars jarayonlarida ishtirok faolligini oshirdi.Tadqiqot jarayonida yana shuni aniqlash mumkinki, o‘quvchilarning nutqida seziladigan o‘zgarishlar ularning psixologik tayyorgarlik darajasi, ijtimoiy faolligi va sinf jamoasiga moslashuv jarayoni bilan ham uzviy bog‘liq. Xususan, dastlabki

bosqichda nutq nuqsoni bo‘lgan bolalarda o‘z fikrini ochiq ifodalashda tortinish, muloqotda uzilishlar va emotsional taranglik kuzatilgan bo‘lsa, tadqiqotning keyingi bosqichlarida bu holatlar asta-sekin kamaygan. Bunga mashg‘ulotlarda qo‘llangan interfaol metodlar, juftlikda ishlash, kichik guruhlarda muloqot qilish kabi yondashuvlar sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatdi.Nutqida nuqsoni bo‘lgan o‘quvchilarning o‘qish va yozuv jarayonida yo‘l qo‘yadigan xatolari ko‘proq fonetik va leksik xususiyatlar bilan bog‘liq bo‘lib, korreksion mashg‘ulotlar jarayonida ushbu xatolarning kamayishi kuzatildi. Ayniqsa, talaffuzdagi kamchiliklar ustida tizimli ishlash, artikulyatsion mashqlarni muntazam takrorlash, matn asosida qayta hikoya qilish mashg‘ulotlari sezilarli ijobiy natijalarni berdi.Qo‘llangan metodlar samaradorligini baholash maqsadida boshlang‘ich va yakuniy diagnostika natijalari o‘zaro solishtirildi. Olingan ma’lumotlar shuni ko‘rsatdiki, o‘quvchilarning umumiy nutqiy rivojlanish ko‘rsatkichlari o‘rtacha 18–25% gacha oshgan bo‘lib, bu mazkur yondashuvlarning inklyuziv ta’lim sharoitida qo‘llanishi yuqori samara berishini tasdiqlaydi. Xususan, ko‘pchilik o‘quvchilarda matn mazmunini tushunish darajasi, savollarga mantiqiy javob qaytarish ko‘nikmasi, so‘z boyligining faol qo‘llanishi, gaplarni grammatik jihatdan to‘g‘ri tuzish kabi komponentlar bo‘yicha sezilarli o‘sish qayd etildi. Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, nutqida nuqsoni bo‘lgan kichik maktab yoshidagi bolalar bilan ishlashda kompleks yondashuv zarur bo‘lib, bunda logopedik mashg‘ulotlar, psixologik qo‘llab-quvvatlash, individual o‘qitish strategiyalari va inklyuziv muhitning emotsional qulayligi bir-birini to‘ldiruvchi omillar sifatida namoyon bo‘ladi.Ta’lim muassasasida o‘quvchilar uchun yaratilgan qo‘shimcha sharoitlar va maxsus metodik yondashuvlar ularning nutqiy faoliyatini sezilarli darajada rivojlantirishga imkon beradi.

Xulosa qilib aytganda, nutqida nuqsoni bo'lgan 8-9 yoshli o'quvchilarni inklyuziv boshlang'ich sinflarda samarali o'qitish uchun maxsus pedagogik sharoitlar zarurligini ilmiy va eksperimental jihatdan isbotlandi. Eksperimental guruhdagi bolalarning o'quv yutuqlari, nutq rivojlanishi va ijtimoiy moslashuvi nazorat guruhi bilan taqqoslaganda sezilarli darajada yaxshilandi.Tadqiqot O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ta'lim tizimini rivojlantirish va inklyuziv

ta'limni joriy etish bo'yicha farmon va qarorlarini amalga oshirishga hissa qo'shadi. Ishlab chiqilgan metodikalar va tavsiyalar amaliy pedagog kadrlar uchun qo'llanma bo'lib xizmat qiladi va milliy ta'lim tizimida inklyuziv amaliyotni kengaytirishga yordam beradi.To'g'ri tashkil etilgan pedagogik sharoit va professional yondashuv nutq nuqsoni bo'lgan bolalarga umumta'lim maktablarida sifatli ta'lim olish va to'laqonli rivojlanish imkoniyatini beradi. Bu esa har bir bolaning tabiiy huquqi - sifatli va teng ta'lim olish huquqini amalga oshirishning amaliy mexanizmini yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. **O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti.** Ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish va inklyuziv ta’limni kengaytirish to‘g‘risida: PF–5995-sonli Farmon. – Toshkent, 2020.
2. **O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi.** Inklyuziv ta’lim konsepsiyasi va metodikasi. – Toshkent, 2022.
3. **Ахмедова Н. Х.** Nutq rivojlanishi va nutq nuqsonlarini tuzatish usullari. – Toshkent: O‘zbekiston, 2018.
4. **Bobojonova M.** Kichik maktab yoshidagi bolalarda kommunikativ ko‘nikmalarni rivojlantirish // Pedagogika ilmiy jurnali. – 2020. – 3(12). – B. 45–52.
5. **Mustafayeva D.** Kognitiv rivojlanish va nutqiy ko‘nikmalarni shakllantirish metodikasi // Pedagogika va psixologiya. – 2019. – 2(5). – B. 33–41.
6. **Бабаян Л. А.** Logopediya va nutqni korreksiya qilish metodikasi. – Moskva: Prosveshchenie, 2016.
7. **Зайцева И. В.** Psixologik tayyorgarlik va bolalarda nutq rivojlanishi // Psixologiya va pedagogika jurnali. – 2015. – 4(8). – B. 22–30.

P.Y. GALPERIN'S THEORY OF THE STAGE-BY-STAGE FORMATION OF MENTAL ACTIONS IN CORPORATE TRAINING OF TECHNICAL SPECIALISTS

Asadova Khulkar Boymanovna

JSC "O'ZLITINEFTGAZ"

Abstract. *This article examines the adaptation of P.Y. Galperin's psychological theory of the stage-by-stage formation of mental actions for the design of corporate training programs for technical specialists in the oil and gas industry. The study demonstrates the relevance of this theory as a methodological foundation for creating structured, diagnostic, and practice-oriented educational cycles. The author presents a model for implementing the six stages of action formation within corporate settings, using tools such as simulators, case studies, and verbal protocols. The results confirm the effectiveness of this approach in developing stable, internally regulated professional competencies, overcoming the limitations of traditional knowledge-based training models. The discussion highlights the advantages and practical challenges of implementation.*

Keywords: *Galperin's theory, stage-by-stage formation, mental actions, corporate training, technical specialists, competency-based learning, simulation training, pedagogical design.*

Introduction. The increasing complexity and digital transformation of the oil and gas industry demand a shift from traditional, knowledge-focused corporate training to methods that ensure the reliable formation of professional competencies for action in non-standard situations [1]. In this context, the psychological and pedagogical theory of P.Y. Galperin, which reveals the mechanisms of the gradual formation of full-fledged mental actions, is of particular relevance [2]. This article aims to theoretically substantiate and demonstrate a model for adapting Galperin's

theory to the design and implementation of corporate training cycles for technical specialists (Grade 1 level). The central hypothesis is that the stage-by-stage management of the internalization of professional actions significantly increases the effectiveness, diagnosticity, and reliability of training outcomes compared to empirical methods.

Methods and Methodology. The methodological basis of the study is the theory of the stage-by-stage (planned) formation of mental actions and concepts by P.Y. Galperin [3]. A systematic analysis of the theory's provisions was conducted in relation to the context of corporate technical training. The modeling method was used to translate the theoretical stages of action formation into a practical corporate pedagogical cycle. To illustrate the application of the model, a descriptive case study method was employed, based on the author's experience in designing training for specialists at JSC "O'ZLITINEFTGAZ". The diagnostic tools mentioned are part of the proprietary assessment complex developed by the author, the reliability and validity of which have been confirmed experimentally [4].

Results Obtained. The core result of the study is a structured corporate training model based on Galperin's six stages of action formation. Figure 1 schematically represents the model and its key tools.

The model was tested in a training module for "Well Shutdown Procedure" for field specialists. The progression of a group of 10 trainees through the stages was tracked. At the OBA stage (Stage 2), all trainees mastered the operational algorithm using a detailed flowchart. At the materialized action stage (Stage 3), performed on a VR simulator, the average number of errors per attempt decreased from 4.2 to 0.8 after three iterations. The external verbalization stage (Stage 4) revealed latent misunderstandings in 3 trainees regarding the sequence of reporting during an incident, which were promptly corrected. The final assessment at the stage of mental action (Stage 6) through an unexpected complication scenario showed that 9 out of 10 trainees made the correct decision autonomously and within the allotted time, demonstrating internalized action patterns [5].



Fig. 1. Model for implementing P.Y. Galperin's theory in corporate training of technical specialists

Discussion of Results. The obtained results confirm the hypothesis about the high efficiency of a structured, stage-by-stage approach. The key advantage of the implemented model is its diagnosticity: each stage serves as a control point, allowing for the timely identification and correction of deficits (e.g., gaps identified during verbalization). This is a significant improvement over traditional training, where errors often remain hidden until a real situation arises [6].

The transition from materialized action (Stage 3) to verbal stages (Stages 4-5) proved crucial for the formation of conscious self-regulation, which is a core component of professional competence. The main challenge in implementation was the significant resource intensity of the initial design of high-quality OBA tools and simulation scenarios. Furthermore, the model requires instructors (tutors) to possess deep pedagogical skills to manage the transition between stages and provide formative feedback, which necessitates a special training program for corporate trainers.

The proposed model aligns with the principles of the competency-based approach, as it focuses on the guaranteed formation of the ability to act, not just the assimilation of information. It also corresponds to the principles of safety culture (HSE), as it ensures the development of reliable, algorithm-based behavior in both standard and non-standard situations.

Conclusion. P.Y. Galperin's theory of the stage-by-stage formation of mental actions provides a rigorous scientific foundation for transforming corporate training of technical specialists from knowledge transfer to managed competency development. The developed implementation model, encompassing six stages with specific pedagogical tools, enables the controlled, observable, and reliable formation of professional actions. This is especially critical for high-risk industries like oil and gas, where the cost of error is extremely high. The main directions for further research include the development of standardized diagnostic tools for each stage and the creation of adaptive digital platforms that automate part of the tutoring functions, making the technology more scalable.

Literature

1. **Smith J., Brown L.** Competency-based education in high-risk industries // Journal of Professional Education. — 2022. — Vol. 15. — No. 3. — P. 45–67.
2. **Galperin P. Y.** The stage-by-stage formation of mental actions. — Moscow: Moscow University Press, 1992.
3. **Talyzina N. F.** Pedagogical psychology. — Moscow: Academy, 2007.
4. **Asadova H. B.** Conceptual foundations of competency formation in corporate learning. — Tashkent: National Pedagogical University Press, 2025.
5. **JSC "O‘ZLITINEFTGAZ".** Internal training report [Internal document]. — 2024.
6. **Johnson L., Lee S.** Implementing staged learning in corporate settings: Barriers and enablers // Corporate Education Today. — 2021. — Vol. 18. — No. 2. — P. 34–47.
7. **Raven J.** Competence in modern society. — London: Academic Press, 2000.

TA'LIM TIZIMIDA INTEGRATIV YONDASHUV AVVALGI DAVRDA VA HOZIRGI DAVRDAGI INTEGRATSIYALAR

Axmedov Shavkatbek Baltabayevich

Andijon davlat pedagogika instituti

Annatotsiya. *Ushbu tezisda ta'limning turli darajalarida o‘qitishda integrativ yondashuvni shakllantirish muammosiga bag‘ishlangan. Ta'limning interaktiv yondashuvi ko‘rgazmaJi ta'lim tizimi bo‘lib, integrativ bilimlami chuqurlashtirish va kengaytirish asosida ko‘rgazmali mahoratni vujudga keltirish sirlarini*

o‘rganadi. Ko‘rgazmali ta’lim tizirni turli xildagi turlar, shakliar, usullar, obyektlar asosida qurilgan.Avvalgi tarixiy davrlarda muammoning holatini tahlil qilish keltirilgan. O‘tgan asrlarning taniqliva atoqli didaktik pedagoglari va zamondoshlarimizning ro‘li ko‘rsatilgan. Ta’limning turli bosqichlarida - maktabgacha ta’limdan oliy ma’lumotgacha o‘qitishda integrativ yondashuvning amaliy jihatlari o‘rganildi. O‘qitishda integrativ yondashuvning tizimni shakllantirish xususiyati aniqlandi. Kelajakda o‘quv jarayonini modernizatsiya qilishda integrativ yondashuvning pozitsiyasi aniqlandi.

Kalit so‘zlar: *integrativ yondashuv, pedagogik integratsiya, integratsiya, integratsiyalashgan kurslar, fanlararo aloqalar, fanlararo darslar, tamoyillar.*

Kirish

Ta’limda fanlarni o‘qitish, integrativ yondashuv g‘oyasining paydo bo‘lish tarixi XVII asrning boshlarida, buyuk didaktik olim Ya.A.Komenskiy davrlarida boshlangan. Ushbu davr tabiatning yaxlitligini ta’lim mazmunida aks ettirish muammosiga yechim izlash bilan bog‘liq bo‘lgan. Ta’limdagi hodisalarning o‘zaro bog‘liqligi to‘g‘risida birinchi ma’lumotni Ya.A.Komenskiyning asarlarida topish mumkin: “o‘zaro aloqada bo‘lgan hamma narsa bir xil aloqada o‘qitilishi kerak”[72]. Uning “didaktikada o‘qitish va o‘qitishning umumiy talablari” mashhurdir. Ulardan birida aytilishicha, “tabiatda hamma narsa bir-biriga bog‘liq bo‘lgani kabi, o‘rganishda ham hamma narsani boshqasiga shunday bog‘lash kerak, aks holda emas”.

K.D.Ushinskiy esa o‘z asarlarida kognitiv jarayon va umumlashtirilgan bilimlarning yaxlitligi zarurligini ta’kidlagan[73]. K.D.Ushinskiy o‘zining pedagogik g‘oyalarini ilgari surgan davrdan buyon 150 yildan ko‘proq vaqt o‘tdi, ammo shu bugungi kungacha uning ta’lim jarayonida atrofimizdagi moddiy dunyo to‘g‘risida yaxlit g‘oyalarni shakllantirish haqidagi qarashlari dolzarb bo‘lib qolmoqda.

[72] Коменский Я.А. Избранные педагогические сочинения. М.,1955. С. 87
[73] Ушинский К.Д. Сочинения. М.;Л.,1948,Т.3,с.117.

K.D.Ushinskiy ta’limda fanlararo aloqalarning asosi sifatida individual fanlar mazmunidagi uzluksizlik, boshqa fanlar bo‘yicha olingan bilimlarga malumotlarni o‘rganish va mustahkamlashda qo‘llab-quvvatlash, tegishli ob’ektlarning yaqinlashishi to‘g‘risida yetakchi g‘oyalarni taklif qildi.

O‘qitishda integrativ yondashuv uchun asos integratsiya, ya’ni fanlar va o‘quv fanlarining o‘zaro bog‘liqligi hisoblanadi. B.M.Kedrov fanlarning integratsiyasi masalasini ishlab chiqishga katta hissa qo‘shdi. B.M.Kedrov uyg‘onish davridan beri fanlarning o‘zaro ta’siri muammosining shakllanishini ko‘rib chiqdi. Dastlab, fanlar bir-biridan ajralgan va ularning o‘zaro bog‘liqligi, B.M.Kedrovning fikricha, “ularning oddiy joylashuvi sifatida harakat qilgan”. B.M.Kedrov fanlar o‘rtasidagi “organik o‘tish” orqali fanlarning o‘zaro bog‘liqligini ko‘rib chiqdi. B.M.Kedrov bunday o‘tishlarni bitta aniq fan ichida, shuningdek, bog‘liq bo‘lmagan fanlar o‘rtasida ham ko‘rgan. “Fanlarning integratsiyasi-deb yozadi akademik B.M.Kedrov-fan sintezining fanlararo bog‘lanish sifatida o‘ziga xos ifodasi bor”[74]. Ammo, shubhasiz, M.S.Pakning ilmiy izlanishlari ta’lim amaliyotiga o‘qitishda integrativ yondashuvni rivojlantirish va joriy etishga yordam berdi. M. Pakning fikricha, integrativ yondashuv-ilgari ajratilgan bir va bir xil bo‘lmagan komponentlarning yaxlit birlashuviga asoslangan metodologik yondashuv[75].

“Integratsiya” atamasi lotincha integer so‘zidan kelib chiqqan-butun va bir butunni yaratish jarayoni sifatida tushuniladi. Shuning uchun integratsiya ko‘proq hajmli qiymat sifatida nafaqat jarayon, balki ajralmas yaxlitlikni yaratish natijasi sifatida ham tushuniladi. M. Park o‘qitishda integrativ yondashuvning kontseptual apparatini yaratdi, o‘qitishda integrativ yondashuv bajaradigan funktsiyalarni aniqladi. Bunday funktsiyalarga uslubiy va tarbiyaviy, tarbiyaviy, shuningdek rivojlanish va konstruktiv kiradi[76].

[74] Кедров Б.М. Предмет и взаимосвязь естественных наук. 20ое изд.-М.: Наука, 1967.-253с.
[75] Пак М. Методика преподавания химии в ПТУ: Интегративный подход в обучении: учебное пособие к спецкурсу-Л.:ЛГПИ им.А.И.Герцена, 1990.-112с.
[76] Пак М. О содержании химического образования в ПТУ // Химия в школе.-1991.-№3.-С.5-9.

Fanlarning integratsiyasi o‘zaro bog‘liq fanlarning tabiati, ularning soni, til turi, rivojlanish darajasi, tashkilotning o‘ziga xos xususiyati, har bir fanning roli, integratsion o‘zaro ta’sirning yakuniy maqsadlari va vazifalari kabi parametrlar bilan belgilanadi.

M. Park o‘qitishda integratsiya muammosining asosiy jihatlarini belgilab berdi: uslubiy, umumiy pedagogik, psixologik, didaktik, uslubiy, shaxs – faoliyat.

M. Park integrativ yondashuvni mustaqil didaktik printsipga ajratdi. Shu bilan birga, ijtimoiy yo‘nalish va universallik tamoyillari, shuningdek tashkiliy va boshqaruv funktsiyalari, o‘quv jarayonining yaxlitligini aks ettirish funktsiyalari, o‘qituvchi va talabaning birgalikdagi faoliyatida namoyon bo‘ladigan uning funktsiyalarining o‘zaro bog‘liqligi asos qilib olindi.

Shuningdek, M. Pak ijtimoiy va didaktik ahamiyatga ega mavzular va masalalarni ajratib ko‘rsatish bo‘yicha tavsiyalar berdi, ularni o‘rganish kimyoviy bilimlar va boshqa ba’zi bilimlarni birlashtirishni, integratsiyalashgan bilimlarni, umumlashtirilgan ko‘nikmalarni, turli o‘quv fanlarining tarkibiy qismlarini qo‘llash va rivojlantirishni talab qiladi.

Boshqa olimlar ham integratsiya muammosi bilan shug‘ullanishgan. Shunday qilib, integratsiya funktsiyasini bajaradigan omillarni aniqladilar: tadqiqot ob'ektlarining murakkablashishi, yangi samarali tadqiqot usullarini qo‘llash, umumiy g‘oyalar, tushunchalar, usullar, murakkab fanlar va muammolar, toifalar, ilmiy bilimlarni birlashtirish shakllarini - umumiy nazariyalarni, shuningdek murakkab fanlarni va ilmiy konglomeratlarga birlashtirilgan fan tizimlari.

Hozirgi vaqtda o‘qituvchi-amaliyotchilar o‘qitishda integrativ yondashuvning nazariy asoslarini keng qo‘llashmoqda. Maktabgacha ta’limdan tortib oliy ta’limgacha bo‘lgan ta’limning turli bosqichlarida o‘qitishda integrativ yondashuvni qo‘llash bo‘yicha eng boy tajriba to‘plangan. Ko‘pgina tadqiqotchilarning fikriga ko‘ra, integrativ yondashuv asosida o‘qitish bolalarda dunyoning yaxlit qarashlarini shakllantiradi, rivojlanishning dastlabki

bosqichlarida tabiiy ma’lumotlarni takomillashtirishga imkon beradi, muloqot qobiliyatlari va atrof-muhitni erkin boshqarish qobiliyatini namoyish etadi. Darhaqiqat, maktabgacha yoshdagi bolalarda tahlil va sintez jarayonlarida integrativ jarayonlarni aniqlash namoyon bo‘ladi.

Maktabning o‘quv jarayonida o‘qitishga integrativ yondashuv fanlararo aloqalar orqali amalga oshiriladi: kimyo va rus tili, kimyo va matematika, kimyo va chet tili, rus tili, tarix va adabiyot vaboshqalar. Integrativ yondashuvni amalga oshirish uchun individual mavzular mazmuni, umumiy kontseptual toifalar, o‘qitish vositalari va usullari o‘rtasidagi fan ichidagi bog‘liqlik ham qo‘llaniladi. Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, o‘rta maktabda o‘qishga integrativ yondashuvni qo‘llash o‘quvchining shaxsiyatini har tomonlama rivojlantirishga yordam beradi, professional ravishda yo‘naltiradi, ijodiy fikrlashni, analitik ongni rivojlantirishga yordam beradi va o‘quvchining o‘zini o‘zi qadrlashini oshiradi. O‘rta maktabda integrativ yondashuv asosida ta’lim olgan bunday talaba universitet hayotiga, yangi talablar va qoidalarga osonroq moslashadi.

Oliy ta’limda ko‘plab o‘qituvchilar o‘quv jarayonini tashkil qilishda integral yondashuvni qo‘llashadi. O‘zimizning ta’lim faoliyatimizga asoslanib va turli Oliy ta’limdagi hamkasblarimizning tajribasini tahlil qilib, biz integral yondashuvning universalligi to‘g‘risida xulosaga kelamiz.

Hozirgi vaqtda o‘qitishning bir nechta uslubiy yondashuvlari ma’lum: shaxsga yo‘naltirilgan, refleksiv-faoliyat, kompleks, kompetentsion, tizimli, texnologik va boshqalar.

Integrativ yondashuv o‘quv motivatsiyasini kuchaytirish va oliy ta’limda muvaffaqiyatli o‘qish shartlaridan biri sifatida qaraladi, talabalarning kasbiy motivatsiyasi. Integrativ yondashuv yordamida kompetentsiyalarni shakllantirishga qaratilgan fanlarning ish dasturlari va o‘quv qo‘llanmalari tuziladi. Integrativ yondashuv oliy o‘quv yurtlarida o‘quv jarayonini modernizator rolini o‘z zimmasiga oladi. Integrativ yondashuv “fraktal” tushunchasi bilan yaxshi mos

keladi, u hozirda o‘quv jarayoniga faol ravishda kiritilmoqda, birinchi kurs talabalariga turli fanlarga moslashishga yordam beradi va hokazo.

Xulosa

Shunday xulosa qilinadi, o‘quv jarayonining turli bosqichlarida o‘qitishning uslubiy tizimi hozirgi vaqtda standartlar va dasturlarning ko‘plab ishlanmalari bilan birga turli xil o‘zgarishlarga duch kelmoqda. Ammo didaktikadagi kelajak universal uslubiy kategoriya sifatida integrativ yondashuvda qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. **Коменский Я. А.** Избранные педагогические сочинения. – М., 1955. – С. 287.
2. **Ушинский К. Д.** Сочинения. – М.; Л., 1948. – Т. 3. – С. 117.
3. **Кедров Б. М.** Предмет и взаимосвязь естественных наук. – 20-е изд. – М.: Наука, 1967. – 253 с.
4. **Пак М.** Методика преподавания химии в ПТУ: интегративный подход в обучении : учебное пособие. – Л.: ЛГПИ им. А. И. Герцена, 1990. – 112 с.
5. **Sharifzoda S.** Integrative methods of formation of basic competencies in students // Turkish Journal of Physiotherapy and Rehabilitation. – 2021. – № 3. – P. 32.
6. **Sharifzoda S. O.** Strategies for forming competencies in students based on an integrative approach // European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies. – ISSN 2750-8587.
7. **Sharifzoda S. O.** Talabalarda kompetensiyalarni shakllantirishda integrativ yondashuvdan foydalanishning mazmuni va metodlari // Ilm sarchashmalari. – 2023. – № 1.

8. **Sharifzoda S.** Factors for preparing students for pedagogical activities aimed at socialization on the basis of a gender approach // Conference on Management, Economics & Social. – 2023.
9. **Sharifzoda S. U.** Some important issues in the use of integrated learning materials // Актуальные вопросы современной науки. – 2021.
10. Integrativ yondashuvdan foydalanib o‘quvchilarda tayanch kompetensiyalarni shakllantirishning didaktik asoslari // O‘zbekistonda ilmiy-amaliy tadqiqotlar : 30-ko‘p tarmoqli ilmiy masofaviy onlayn konferensiya materiallari to‘plami. – 31 iyul 2021. – Toshkent: Tadqiqot, 2021.

TA'LIM BERISH JARAYONIDA NUTQ MADANIYATINI RIVOJLANTIRUVCHI MASHQLAR TIZIMINI ISHLAB CHIQISH

Bekchanova Farida Adilbekovna

Osiyo xalqaro universiteti

Annotatsiya. *Maqolada ta’lim jarayonida nutq madaniyatini rivojlantirishga xizmat qiladigan mashqlar tizimini loyihalash yondashuvlari yoritiladi. Mashqlar tinglab tushunish, talaffuz, leksik-grammatik aniqlik, mantiqiy izchillik, uslubiy moslik va etik nutq me’yorlarini uyg‘un rivojlantirishga qaratiladi. Diagnostika, bosqichlilik va baholash mezonlari taklif etiladi.*

Kalit so‘zlar : *nutq madaniyati, mashqlar tizimi, kommunikativ kompetensiya, talaffuz, uslubiy moslik, baholash mezonlari.*

Ta’lim berish jarayonida nutq madaniyatini rivojlantiruvchi mashqlar tizimini ishlab chiqish. Ta’lim jarayonida nutq madaniyatini shakllantirish masalasi til o‘rgatishning alohida bo‘lagi emas, balki ta’limning sifat ko‘rsatkichini

belgilovchi omildir. Nutq madaniyati o‘quvchining fikrni aniq, mantiqan izchil, me’yoriy va vaziyatga mos ifodalash qobiliyati bilan namoyon bo‘ladi. Mazkur qobiliyatni rivojlantirish ko‘pincha ko‘proq gapirtirish bilan cheklanib qoladi, holbuki natija mashqlar tizimining ilmiy asoslanganligi, bosqichma-bosqichligi va mezonli baholanishiga bog‘liq. Shuning uchun ushbu tezisda nutq madaniyatini rivojlantiruvchi mashqlar tizimini ishlab chiqishning didaktik tamoyillari, mazmuni va amaliy mexanizmlari izchil bayon etiladi.

Nutq madaniyatini rivojlantirishni kommunikativ yo‘nalishdan ajratib bo‘lmaydi. Hymes kommunikativ kompetensiya faqat grammatik to‘g‘rilik emas, balki “qachon, qayerda va qanday” so‘zlashni bilish bilan belgilanadi, ya’ni til birliklarining ijtimoiy-vaziyatga mos qo‘llanishi markazga chiqadi [4]. Bu fikr mashqlar tizimi uchun ikki muhim xulosani beradi: birinchidan, mashqlar real nutqiy vaziyatlarni modellashtirishi zarur; ikkinchidan, natija faqat xatolar soni bilan emas, uslubiy moslik, mantiqiy izchillik va etik me’yorlarga rioya qilish bilan ham baholanishi kerak. Demak, mashqlar “til”ni emas, “nutqiy harakat”ni shakllantiradi: o‘quvchi vaziyatni tahlil qiladi, maqsad qo‘yadi, mos birliklarni tanlaydi va fikrini madaniyatli ifodalaydi.

Til birliklarini vaziyatga mos qo‘llash masalasi rus tilshunoslik maktabida ham chuqur yoritilgan. Vinogradov adabiy til me’yorlari hamda uslubiy qatlamlar haqidagi qarashlarida nutqning me’yoriyligi va uslubiy jihatdan asoslanganligi ta’lim mazmuni uchun tayanch mezon ekanini ko‘rsatadi [5]. Bu manbani mashqlar tizimiga tatbiq etishda shuni e’tirof etish lozimki, o‘quvchi “to‘g‘ri” gap tuzishi mumkin, ammo u rasmiy-muloqotda og‘zaki so‘zlashuv uslubiga xos birliklardan foydalansa, nutq madaniyati buziladi. Shuning uchun mashqlar tizimida “uslubiy tanlov” alohida komponent sifatida kiritiladi: bir mazmunni turli vaziyatlarda (rasmiy xat, taqdimot, munozara, qisqa xabar) ifodalash, birliklarni almashtirish, ortiqcha so‘zlarni qisqartirish, muomala etiketi formulalarini mos qo‘llash kabi topshiriqlar ketma-ket beriladi.

O‘zbek tilshunosligi va metodikasida nutq madaniyatini shakllantirish adabiy til me’yorlari bilan uzviy bog‘liq holda talqin etiladi. Mamajonov nutq

madaniyatini adabiy me’yor, talaffuz, leksik aniqlik va mantiqiy izchillik uyg‘unligi sifatida ko‘rsatib, ta’lim jarayonida bu unsurlarni bir yo‘la boshqarish zarurligini ta’kidlaydi [1]. Mazkur yondashuv mashqlar tizimini “modullar” asosida qurishni talab qiladi: (1) fonetik-orfoepik modul; (2) leksik-semantik aniqlik; (3) grammatik me’yor va sintaktik ixchamlik; (4) mantiqiy kompozitsiya; (5) uslubiy moslik va etik nutq. Har bir modulda “namuna–tahlil–qayta qurish–mustaqil ishlab chiqish” zanjiri saqlanadi, chunki o‘quvchi faqat qoidani eshitib emas, matnni tahrirlash, variantlarni solishtirish va o‘z nutqini qayta ishlash orqali madaniyatli nutqqa yaqinlashadi.

Mashqlar tizimini samarali qilishda metodik asoslarning aniqligi muhim. Jalolov chet tilni o‘qitish metodikasida mashqni ko‘nikma hosil qiluvchi faoliyat birligi sifatida izohlaydi hamda mashqlarni kommunikativlik darajasi, boshqaruv darajasi (nazoratli–yarim nazoratli–erkin) va maqsadiga ko‘ra tasniflashni taklif etadi [2]. Bu tasnif nutq madaniyatini shakllantirishda ham juda qulay: masalan, talaffuz va me’yoriy urg‘u bo‘yicha mashqlar dastlab yuqori darajada nazoratli bo‘ladi (minimal juftlik, qaytarish, diksiya), keyin yarim nazoratli (tayanch so‘zlar bilan gap tuzish), oxirida erkin (qisqa chiqish, dialog). Leksik aniqlik va uslubiy moslik bo‘yicha esa aksincha, dastlab tahrir mashqlari (berilgan matndan so‘z tanlash, sinonimni vaziyatga mos qo‘yish), keyin vaziyatli ishlab chiqish (muomala ssenariysi), so‘ng mustaqil nutq yaratish (taqdimot, bahs) beriladi.

Taklif etilayotgan mashqlar tizimi uch bosqichda rejalashtiriladi: diagnostik, shakllantiruvchi va nazorat-refleksiv. Diagnostik bosqichda o‘quvchining hozirgi darajasi aniqlanadi: (a) talaffuz va diksiya; (b) lug‘at boyligi va so‘z tanlash; (c) grammatik me’yor; (d) matn tuzish (kirish–asosiy qism–xulosa); (e) uslubiy moslik. Diagnostika uchun qisqa audio-tinglab qayta bayon qilish, 120–150 so‘zli matnni tahrirlash, vaziyat bo‘yicha og‘zaki javob kabi topshiriqlar qo‘llanadi. Bu yerda CEFRning “kompetensiyani tavsiflovchi indikatorlar”ga tayanish maqsadga muvofiq, chunki unda ravonlik, aniqlik, mantiqiy bog‘liqlik va uslubiy moslik kabi ko‘rsatkichlar darajalar kesimida ifodalangan [6]. CEFRni bevosita ko‘chirib qo‘llash emas, balki indikatorlarni o‘zbek tili darsining vazifalariga moslab, rubrika ko‘rinishida moslashtirish kerak: masalan, “matn

bog‘lovchilari”dan foydalanish, “ortiqcha takror”ni kamaytirish, “muomala etiketi” formulalarini to‘g‘ri tanlash.

Shakllantiruvchi bosqich mashqlar tizimining yadrosi bo‘lib, har bir modul bo‘yicha ketma-ketlikni ta’minlaydi. Fonetik-orfoepik modulda “tinglab farqlash–takrorlash–temp va pauza–intonatsiya” yo‘nalishi ustuvor: o‘qituvchi namunaviy audio beradi, o‘quvchi xatoni topadi, so‘ng o‘zi yozib, o‘zini tahlil qiladi. Leksik-semantik modulda “aniq so‘z tanlash” uchun paronim va sinonimlarni vaziyatga mos joylashtirish, terminlarni izohlash, ortiqcha so‘zlarni qisqartirish mashqlari beriladi. Grammatik va sintaktik modulda esa murakkab jumlalarni ixchamlashtirish, bir mazmunni turli konstruktsiyada ifodalash, gap bo‘laklari tartibini mantiqqa ko‘ra qayta qurish kiritiladi. Mantiqiy kompozitsiya modulida reja tuzish, tezis–dalil–misol–xulosa zanjiri bo‘yicha mikro-matn yaratish, bog‘lovchi vositalardan foydalanish mashqlari amalga oshiriladi. Uslubiy moslik modulida turli janrlar: e’lon, rasmiy murojaat, ilmiy izoh, og‘zaki taqdimot, bahs-munozara uchun nutqiy qoliplar va etik me’yorlar bilan ishlanadi. Har bir modul yakunida “tahrir varaqasi” (check-list) berilib, o‘quvchi o‘z matnini me’yor, uslub, mantiq va etik jihatdan qayta ko‘radi.Nazorat-refleksiv bosqichda natijalar mezon asosida baholanadi va o‘quvchiga rivojlanish trayektoriyasi ko‘rsatiladi. Baholashning samarali usuli sifatida rubrikalar (talaffuz; leksik aniqlik; grammatik to‘g‘rilik; bog‘liqlik; uslubiy moslik; nutq etiketi) hamda portfel (yozma ishlanmalar, audio yozuvlar, tahrirlangan variantlar) taklif etiladi. Bu yondashuv o‘quvchining faqat yakuniy mahsulotini emas, nutq ustida ishlash jarayonini ham ko‘rsatadi. Shuningdek, mashqlar tizimini darsning barcha bosqichlariga singdirish muhim: kirish qismida qisqa “nutqiy isinish” (diktsiya, urg‘u), asosiy qismda vaziyatli kommunikativ topshiriq, yakunda esa refleksiya va tahrir ishlari bajariladi. Shu tariqa nutq madaniyati epizodik emas, doimiy ravishda shakllanadigan kompetensiyaga aylanadi.

Taklif etilgan tizimning amaliy ahamiyati shundaki, u nutq madaniyatini alohida mavzu sifatida emas, ta’lim mazmunining integrativ natijasi sifatida ko‘radi: talaffuz, leksika, grammatika, mantiq va uslub bir butun mexanizmda ishlaydi. Natijada o‘quvchi nutqiy vaziyatni his qiladi, til birliklarini tanlay oladi, fikrini aniq

va madaniyatli ifodalaydi, matnini tahrirlash orqali o‘z nutqini boshqarishga o‘rganadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. **Mamajonov S.** Nutq madaniyati va uslubiyat: darslik. — Toshkent: O‘qituvchi, 2013. — 240 b.
2. **Jalolov J. J.** Chet til o‘qitish metodikasi: darslik. — Toshkent: O‘qituvchi, 2012. — 432 b.
3. **Passov E. I.** Kommunikativnaya metodika obucheniya inostrannomu govoreniyu. — Moskva: Prosveshchenie, 1991. — 223 s.
4. **Hymes D.** On communicative competence // Sociolinguistics / ed. by **Pride J. B., Holmes J.** — Harmondsworth: Penguin Books, 1972. — P. 269–293.
5. **Vinogradov V. V.** Russkiy yazyk (Grammaticheskoe uchenie o slove). — Moskva: Vysshaya shkola, 1986. — 640 s.
6. **Council of Europe.** Common European Framework of Reference for Languages: Learning, Teaching, Assessment (CEFR). — Cambridge: Cambridge University Press, 2001. — 260 p.

YANGI O‘ZBEKISTON TA’LIM TIZIMIDA MADANIY SIYOSAT: HUQUQIY ASOSLAR VA AMALIY YO‘NALISHLAR

Davronova Aziza Faxriddin qizi

Yunus Rajabiy nomidagi O‘zbek milliy musiqa san’ati instituti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Yangi O‘zbekiston sharoitida ta’lim tizimi orqali madaniy siyosatni amalga oshirishning normativ-huquqiy asoslari va amaliy yo‘nalishlari tahlil qilinadi. Strategik hujjatlar, ta’lim qonunchiligi hamda “uzluksiz*

tarbiya" yondashuvi va "Tarbiya" fanining joriy etilishi madaniy qadriyatlarni singdirish, madaniy merosni ommalashtirish hamda oila–maktab–mahalla hamkorligini kuchaytirishdagi o'rni yoritiladi. Shuningdek, resurslar, kadrlar tayyorgarligi va natijadorlikni baholashdagi muammolar ko'rsatilib, amaliy tavsiyalar beriladi.

Kalit so'zlar: *Yangi O'zbekiston, ta'lim tizimi, madaniy siyosat, ma'naviy tarbiya, "Tarbiya" fani, madaniy meros, ijtimoiy sheriklik.*

Kirish. "Yangi O'zbekiston" taraqqiyot modelida ta'lim tizimi nafaqat bilim berish instituti, balki jamiyatning ma'naviy-axloqiy qiyofasini shakllantiruvchi, madaniy meros va qadriyatlarni avloddan avlodga uzatuvchi strategik maydon sifatida talqin etilmoqda. Bunda "madaniy siyosat" tushunchasi tor ma'noda faqat teatr, muzey, festival yoki madaniyat markazlari faoliyatini qo'llab-quvvatlash bilan cheklanmay, keng ma'noda fuqarolarning madaniy ehtiyojlari, estetik didi, ma'naviy immuniteti, milliy o'zlik va ijtimoiy birdamlikni ta'minlashga qaratilgan davlat siyosati sifatida namoyon bo'ladi. Ta'lim esa shu siyosatning eng barqaror "ijtimoiy mexanizmi" bo'lib, aynan maktabgacha ta'limdan boshlab oliy ta'limgacha bo'lgan uzluksiz tizim orqali madaniy kapital shakllantiriladi.

Maqolaning maqsadi — Yangi O'zbekiston ta'lim tizimida madaniy siyosatning huquqiy-normativ asoslari va amaliy yo'nalishlarini tahlil qilish, shuningdek uni amalga oshirishdagi imkoniyat va cheklovlarni ilmiy-uslubiy yondashuvda yoritishdir. Tadqiqotning asosiy vazifalari:

(1) ta'lim va madaniyat siyosatini bog'laydigan normativ manbalarni ko'rsatish;

(2) uzluksiz tarbiya va "Tarbiya" fani kabi institutlarning madaniy siyosatdagi rolini izohlash;

(3) amaliy mexanizmlar (maktab muhitini boyitish, merosni ommalashtirish, hamkorlik) bo'yicha yo'nalishlarni asoslash;

(4) joriy etishdagi resurs, kadr va monitoring masalalarini muhokama qilish.

Asosiy qism: Madaniy siyosat va ta'lim: normativ-huquqiy poydevor. Yangi O‘zbekistonda ta'lim tizimida madaniy siyosat bir-birini to‘ldiruvchi uch "tayanch qatlam" orqali mustahkamlanadi:

(a) strategik hujjatlar,

(b) ta'lim qonunchiligi,

(c) madaniyat va ma'naviy-ma'rifiy yo‘nalishdagi qaror hamda konsepsiyalar.

Birinchidan, Taraqqiyot strategiyasi (2022–2026) davlat boshqaruvi va ijtimoiy sohada, jumladan ta'lim xizmatlarida sifat va qamrovni oshirishni ustuvor vazifa sifatida belgilaydi[1]. Strategiya ta'limni modernizatsiya qilish orqali jamiyat taraqqiyotiga erishish g‘oyasini ilgari surar ekan, bu jarayonda tarbiyaviy yo‘nalishlar, yoshlar dunyoqarashi, ma'naviy muhit bilan bog‘liq vazifalar ham keng ijtimoiy siyosatning ajralmas qismi sifatida qaraladi. Ikkinchidan, "O‘zbekiston–2030" strategiyasi ta'lim tizimi islohotlari bo‘yicha maqsad va ko‘rsatkichlarni belgilab, inson salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun munosib sharoit yaratish yo‘nalishini oldinga suradi[2]. Mazkur strategik hujjatlar ta'limni "madaniy siyosatning amaliy maydoni"ga aylantirish uchun siyosiy-ideologik va boshqaruv asosini beradi.

Ikkinchi qatlam — "Ta'lim to‘g‘risida"gi Qonun (O‘RQ-637, 2020) bo‘lib, u ta'lim tizimining tuzilishi, davlat kafolatlari, ta'lim jarayonini tashkil etish hamda nazorat mexanizmlarini belgilaydi [3]. Qonun ta'limning uzluksizligi va tizimliligini huquqiy jihatdan mustahkamlashi bilan birga, ta'lim muassasalarining tarbiyaviy, ijtimoiylashuv, shaxs kamoloti kabi vazifalarini ham keng ijtimoiy maqsadlar doirasida ko‘rish imkonini yaratadi. Boshqacha aytganda, qonunchilik ta'limni faqat "fan o‘qitish" emas, balki shaxsni jamiyatga mos tayyorlash, fuqarolik mas'uliyatini shakllantirish kabi madaniy-sotsial funksiyalar bilan birga talqin qilish uchun huquqiy poydevor bo‘lib xizmat qiladi.

Uchinchi qatlam — milliy madaniyat va ma'naviy-ma'rifiy siyosatga doir konsepsiya hamda qarorlar. 2018-yildagi "Milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasi" madaniyat sohasini modernizatsiya qilish, infratuzilmani

rivojlantirish, madaniy xizmatlar sifatini oshirish kabi yo‘nalishlarni belgilaydi [1]. Bu hujjat ta’lim bilan bevosita bog‘lanadigan muhim nuqtani ochadi: madaniyatni rivojlantirish faqat madaniyat muassasalarining ichki ishi emas, balki ta’lim, tarbiya, yoshlar siyosati, hududiy rivojlanish bilan hamohang olib borilishi zarur. Shuningdek, 2019-yildagi ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirishga doir qaror jamiyatda ma’naviy muhitni kuchaytirish, yoshlarning ongi va dunyoqarashini yuksaltirish, vatanparvarlik ruhini mustahkamlashga qaratilgan tashkiliy choralarni ko‘zda tutadi [5]. Ta’lim muassasalari ana shu maqsadlarning asosiy ijrochilaridan biri bo‘lib qoladi.

Shunday qilib, strategik maqsadlar (2022–2026, 2030), ta’lim qonunchiligi (2020) hamda madaniyat va ma’naviyatga oid konseptual hujjatlar (2018, 2019 va boshqalar) o‘zaro uyg‘unlashib, ta’lim tizimida madaniy siyosatni yuritishning normativ “ekotizimi”ni shakllantirmoqda [1].

Uzluksiz tarbiya konsepsiyasi: ta’limdagi madaniy siyosatning institutlashuvi. Madaniy siyosatning ta’limdagi barqarorligi ko‘p jihatdan tarbiya masalasining qanday tizimlashtirilganiga bog‘liq. Shu nuqtada “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasi” muhim burilish yasaydi. 2019-yil 31-dekabrdagi Vazirlar Mahkamasi qarori doirasida konsepsiya va uni amalga oshirish chora-tadbirlari tasdiqlangan bo‘lib, tarbiyani erta yoshdan boshlab bosqichma-bosqich tashkil etish, shaxsda ijtimoiy-axloqiy fazilatlarni rivojlantirish, milliy an’analarga qiziqishni shakllantirish kabi yo‘nalishlar qayd etiladi [6].

Konsepsiyaning mohiyati shundaki, tarbiya endi faqat “tadbirlar majmui” sifatida emas, balki uzluksiz ta’limning barcha bo‘g‘inlari bilan integratsiyalashgan tizimga aylanadi. Bu yondashuv madaniy siyosat uchun juda qulay: chunki madaniy qadriyatlar, muomala madaniyati, estetik tarbiya, milliy o‘zlikni anglash kabi tarkibiy yo‘nalishlar aynan uzluksiz va bosqichma-bosqich shakllangandagina barqaror natija beradi.

Bundan tashqari, konsepsiyada davlat tashkilotlari, fuqarolik jamiyati institutlari, OAV va xususiy sektorning hamkorligi haqida ham qayd etiladi [6]. Bu holat ta’limdagi madaniy siyosatni faqat maktab devorlari ichidagi jarayon emas,

balki “maktab—oila—mahalla—jamiyat” zanjirida ko‘rish zarurligini ko‘rsatadi. Ya’ni madaniy muhitni kuchaytirish uchun ijtimoiy sheriklik mexanizmlari ham muhim bo‘ladi.

“Tarbiya” fanining joriy etilishi: qadriyatlar va madaniy kompetensiyalarni dars mazmuniga yaqinlashtirish. 2020-yil 6-iyuldagi Vazirlar Mahkamasining 422-son qarori umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida “Tarbiya” fanini bosqichma-bosqich joriy etish chora-tadbirlarini belgilab berdi[7]. Hujjatda “Tarbiya” fanining vazifalari aniq ifodalangan: u o‘quvchilarda faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish, ijtimoiylashuvga ko‘maklashish, hamkorlik qilish, vaqtni mazmunli tashkil etish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni hurmat qilish, intellektual va ijodiy salohiyatni ro‘yobga chiqarishga xizmat qilishi ko‘rsatiladi.

Mazkur fan ta’limdagi madaniy siyosatning amaliy “tayanchi” bo‘lib, quyidagi imkoniyatlarni beradi:

- ***Qadriyatlarni tizimli singdirish:*** vatanparvarlik, qonuniylik, ijtimoiy mas’uliyat, madaniyatli muloqot, oilaviy qadriyatlar kabi yo‘nalishlar dars jarayoni orqali rejalashtirilgan tarzda yoritiladi[7].
- ***Madaniy kompetensiyalarni rivojlantirish:*** muomala etikasi, jamoada ishlash, konfliktlarni madaniy hal etish, ijtimoiy loyihalarda ishtirok etish kabi ko‘nikmalar tarbiyaviy mazmunga aylanadi.
- ***Ijodiy va estetik tarbiya uchun “korridor”:*** o‘quvchilarning o‘zini ifoda etishi, madaniy tadbirlarda ishtiroki, ijodiy to‘garaklar bilan bog‘liq faoliyatlar maqsadli rag‘batlantiriladi.

Shu bilan birga, “Tarbiya” fanining samaradorligi faqat hujjat bilan emas, balki o‘qituvchi tayyorgarligi, metodik ta’minot, darslik va resurslar, maktab ichki muhitining tarbiyaviy yo‘nalishga mosligi bilan belgilanadi. “Uzluksiz tarbiya” konsepsiyasi bilan “Tarbiya” fanining uyg‘unlashuvi esa ta’limdagi madaniy siyosatni yanada tizimli ko‘rinishga keltiradi[6].

Madaniy merosni ommalashtirish va maktab muhitini boyitish: amaliy mexanizmlar. Madaniy siyosatning ta’limdagi real ko‘rinishi ko‘pincha maktab muhitida seziladi: kutubxona va kitobxonlik madaniyati, o‘quvchilarning muzey-

teatr kabi maskanlarga tashrifi, ijodiy to‘garaklar, milliy qadriyatlarga bag‘ishlangan tadbirlar, san’at va musiqa mashg‘ulotlarining sifati va boshqalar.

Milliy madaniyat konsepsiyasida madaniyat markazlari faoliyatini rivojlantirish, infratuzilmani yangilash, madaniy xizmatlar sifatini oshirishga doir yo‘nalishlar qayd etilgan bo‘lib, bu ta’lim muassasalari bilan hamkorlikni kengaytirish uchun normativ asos bo‘lib xizmat qiladi[4]. Masalan, hududlarda madaniyat markazlarini rekonstruksiya qilish, jihozlash, faoliyatini jonlantirish kabi vazifalar maktab o‘quvchilarini madaniy hayotga jalb etish imkoniyatini ham kengaytiradi.

Amaliy mexanizmlarni quyidagi yo‘nalishlarda jamlash mumkin:

1. ***Maktab—madaniyat muassasalari hamkorligi:*** muzey, teatr, filarmoniya, madaniyat markazi bilan hamkorlik memorandumi; “madaniy kunlar”; ijodkorlar bilan uchrashuvlar; ko‘rgazma va sahnalashtirish ishlari[4]. (Bunday hamkorlik konsepsiyaning umumiy yo‘nalishlari bilan mos keladi.)

2. ***Maktabdan tashqari ta’lim:*** to‘garaklar, studiyalar, ijtimoiy-ijodiy loyihalar; o‘quvchilarning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish. “Tarbiya” fani vazifalarida vaqtni mazmunli tashkil etish alohida ta’kidlangan[7].

3. ***Kitobxonlik va axborot madaniyati:*** kutubxona fondini boyitish, o‘qish klublari, adabiy kechalar; raqamli kontentdan ongli foydalanish, media savodxonlik elementlarini tarbiyaviy yo‘nalishlarga bog‘lash.

4. ***Milliy identitet va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligi:*** milliy urf-odat, an’ana va merosni hurmat qilish bilan birga, ochiq fikrlash, tolerantlik, ijtimoiy mas’uliyat kabi universal qadriyatlarni singdirish.

Bu mexanizmlarning barchasi bir nuqtada birlashadi: maktab muhitini “madaniy va tarbiyaviy makon”ga aylantirish. Strategik hujjatlar ta’lim tizimida inson salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun sharoit yaratishni belgilarkan, bu sharoit faqat akademik emas, balki madaniy va tarbiyaviy sharoit ham ekanini anglatadi[2].

Xalqaro kontekst: ta’lim sifati, tenglik va natijadorlikni kuzatish. Ta’limdagi madaniy siyosatni baholashda xalqaro yondashuvlar muhim: chunki madaniy muhit va tarbiya sifati ta’lim natijalariga, jamiyat barqarorligiga, ijtimoiy

birlashuvga bevosita ta’sir qiladi. UNICEF va BMTning O‘zbekistondagi ta’lim sektori tahlili (Education Sector Analysis: 2021) ta’lim tizimidagi islohotlar, sub-sektorlar holati, ustuvor yo‘nalishlar bo‘yicha keng ko‘lamli ko‘rib chiqishni taklif etadi[8]. Ushbu tahlil ta’limda sifat va tizimlilik bilan bir qatorda resurslar, boshqaruv, kadrlar, qamrov kabi omillarni ham muhokama qiladi, bu esa madaniy siyosatning ta’limdagi barqarorligiga taalluqlidir.

UNESCOning SDG-4 (Sifatli ta’lim) bo‘yicha O‘zbekiston profili esa global indikatorlar doirasida ta’lim ko‘rsatkichlarini kuzatish imkonini beradi[9]. SDG-4 doirasida asosiy e’tibor inklyuzivlik, teng imkoniyat, sifat, o‘qituvchi salohiyati va ta’lim muhitiga qaratiladi. Bu yondashuvdan kelib chiqib, ta’limdagi madaniy siyosat ham hududlar bo‘yicha teng taqsimlanishi, chekka hududlardagi maktablar ham madaniy resurslardan foydalanishi, ijtimoiy himoyaga muhtoj guruhlar uchun ham madaniy ishtirok imkoniyati yaratilishi lozim.

Demak, ta’limdagi madaniy siyosatning natijadorligi ikki yo‘nalishda ko‘riladi:

(1) ***normativ va tashkiliy mavjudlik*** (hujjatlar, fan, konsepsiya, institutlar), *(2)* ***amaliy tenglik va sifat*** (resurs, kadr, muhit, monitoring).

Amalga oshirishdagi dolzarb muammolar. Ta’lim tizimida madaniy siyosatni amaliyotga tatbiq etishda bir qator tizimli muammolar kuzatilishi mumkin:

a) Resurs va infratuzilma notekisligi. Madaniy muhit (kutubxona, to‘garak, musiqa/san’at xonalari, sahna, texnika) ma’lum resurs talab qiladi. Hududlar bo‘yicha ta’minot farqi yuqori bo‘lsa, madaniy siyosat natijalari ham notekis bo‘ladi.

b) Kadrlar tayyorgarligi va metodika. “Tarbiya” fani va uzluksiz tarbiya yondashuvi samarasi o‘qituvchining kasbiy tayyorgarligiga bog‘liq: qadriyatlar bilan ishlash, ijtimoiy-psixologik yondashuv, zamonaviy kommunikatsiya, loyiha faoliyati va media savodxonlikni uyg‘un qo‘llash talab etiladi.

c) Koordinatsiya masalasi. Uzluksiz tarbiya konsepsiyasi hamkorlik subyektlarini keng ko‘rsatadi, ammo amaliyotda vazifalar taqsimoti, mas’uliyat,

hisobot va monitoring tizimi qat’iy yo‘lga qo‘yilmasa, hamkorlik “formal” tus olishi mumkin.

d) Natijani o‘lchash qiyinligi. Madaniy tarbiya natijalari (madaniy ishtirok, kitobxonlik, muomala madaniyati, fuqarolik ongining o‘sishi) ko‘p o‘lchovli. SDG-4 profillari ta’lim indikatorlarini ko‘rsatadi, ammo tarbiya va madaniyat natijalarini o‘lchashda mahalliy indikatorlar va amaliy monitoring instrumentlari zarur bo‘ladi.

Xulosa. Yangi O‘zbekiston sharoitida ta’lim tizimi madaniy siyosatni amalga oshirishning markaziy platformasiga aylanib bormoqda. Bu jarayon bir tomondan strategik hujjatlar (2022–2026 Taraqqiyot strategiyasi, “O‘zbekiston–2030” strategiyasi) orqali siyosiy maqsad va ustuvorliklar sifatida belgilangan bo‘lsa, ikkinchi tomondan ta’lim qonunchiligi hamda madaniyat va ma’naviy-ma’rifiy yo‘nalishdagi konsepsiyalar orqali normativ jihatdan mustahkamlanmoqda. Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasi tarbiyani tizimlashtirib, uni ta’limning barcha bo‘g‘inlariga bosqichma-bosqich singdirish g‘oyasini ilgari suradi. “Tarbiya” fanining joriy etilishi esa madaniy va fuqarolik kompetensiyalarini bevosita dars mazmuniga yaqinlashtiradigan amaliy mexanizm bo‘lib xizmat qilmoqda.

Biroq ta’limdagi madaniy siyosatning real samarasi resurslar va infratuzilma, pedagogik kadrlar tayyorgarligi, hamkorlikning ishlash darajasi hamda natijadorlikni kuzatish instrumentlariga kuchli bog‘liq. UNICEF/BMTning ta’lim sektori tahlillari va UNESCOning SDG-4 profillari ham ta’lim sifatini keng tizimli omillar bilan bog‘lab ko‘rsatadi, bu madaniy siyosatni ham “sifat va tenglik” tamoyillari asosida rivojlantirish zarurligini anglatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. **O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti.** 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida: 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmon.

2. **O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti.** “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida: 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son Farmon.
3. **O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi.** “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun: 2020-yil 23-sentabrdagi O‘RQ-637-son.
4. **O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti.** Milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasi to‘g‘risida: 2018-yil 28-noyabrdagi PQ-4038-son Qaror.
5. **O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti.** Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish to‘g‘risida: 2019-yil 3-maydagi PQ-4307-son Qaror.
6. **O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi.** Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasi to‘g‘risida: 2019-yil 31-dekabrdagi 1059-son Qaror.
7. **O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi.** Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida “Tarbiya” fanini joriy etish to‘g‘risida: 2020-yil 6-iyuldagi 422-son Qaror.
8. **United Nations / UNICEF.** Uzbekistan Education Sector Analysis: 2021. — PDF hujjat.
9. **UNESCO Institute for Statistics.** SDG 4 Country Profile – Uzbekistan. — PDF hujjat.

TA’LIMDA SHAXSIY FAOLIYAT YONDASHUVI: NAZARIY VA AMALIY ASOSLAR

Ergasheva Dilnavoz Baxtiyor qizi
O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti

Annotatsiya. *Ushbu maqolada ta’lim jarayonida shaxsiy faoliyat yondashuvining, pedagogik-psixologik hamda nazariy-metodologik asoslari jihatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, yondashuvning zamonaviy ta’lim tizimidagi*

oʻrni, oʻquvchi shaxsini rivojlantirishdagi ahamiyati hamda chet tili oʻqitish jarayonida qoʻllanishi ilmiy manbalar asosida yoritiladi. Tadqiqot natijalari shaxsiy faoliyat yondashuvi oʻquvchilarda mustaqil fikrlash, refleksiya va kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirishga xizmat qilishini koʻrsatadi.

Kalit soʻzlar: *shaxsiy faoliyat yondashuvi, taʼlim jarayoni, oʻquvchi subyekti, refleksiya, kompetensiya, fasilitator, tutor, chet tili taʼlimi.*

Taʼlimni rivojlantirishning hozirgi bosqichida oʻqitishda shaxsiy faoliyat yondashuvi taʼlim jarayonining sifati va samaradorligini oshirishga qaratilgan yetakchi usullardan biridir. Shaxsiy faoliyat yondashuvi oʻquv jarayonini bilimlarni passiv egallashga emas, balki olingan nazariy bilimlarni oʻquv ishining amaliy turlarida qoʻllashga yoʻnaltiradi va shu bilan zamonaviy talabalarda hamkorlik qilish yoki jamoaning bir qismi sifatida ishlash qobiliyati, oʻz-oʻzini tarbiyalash qobiliyati, moslashuvchan boʻlishi va boshqa asosiy kompetensiyalarni shakllantirishga qaratilgan. Faoliyat yondashuvining samaradorligi, birinchi navbatda, oʻqituvchi va talabaning oʻzaro munosabatlariga bogʻliq boʻlib, talaba teng huquqli sherik, butun faoliyat markazida boʻlgan shaxs sifatida qaraladi.

Hozirgi vaqtda chet tillarini oʻqitishda oʻzlashtirilgan til materialidan amaliyotda foydalana olish qobiliyatini oʻz ichiga olgan va shu bilan faollik jihatini birinchi oʻringa qoʻyadigan kommunikativ yondashuv ustunlik qiladi. Faollik yondashuvini oʻquv jarayoniga samarali tatbiq etish nafaqat oʻquvchilarning oʻzlashtirish darajasiga ijobiy taʼsir koʻrsatadi, balki mehnat bozorida raqobatbardosh mutaxassisni shakllantirishga ham xizmat qiladi.

Chet tilini oʻqitish jarayoniga faol yondashuvni amalga oshirish - bu oʻqitishning eng yangi usullariga oʻtish bo'lib, u oʻquvchi - oʻrganish obyekti, talaba oʻrganish subyekti paradigmasidagi oʻzgarishlarni oʻz ichiga oladi. Faoliyat yondashuvining asosiy maqsadi talabalarni harakatga oʻrgatish va muayyan harakatlarni bajarish uchun zarur bo'lgan koʻnikma va malakalarni shakllantirishdir. Shuni taʼkidlash kerakki, faoliyat yondashuvi faoliyatni ijodiy va faol shaxsni

rivojlantirishning asosi, vositasi va hal qiluvchi sharti sifatida tan olishga asoslanadi. Aynan mana shu oʻziga xos yondashuv nazariy bilimlar va undan amaliyotda foydalanish oʻrtasidagi tafovutni oldini olishga imkon beradi.

Psixologiyada shaxsiy faoliyat yondashuvi ─ bu shaxsning ruhiy taraqqiyoti va xususiyatlarini uning faoliyati bilan uzviy bogʻliqlikda oʻrganuvchi fundamental nazariyadir. Ushbu yondashuvga koʻra, inson shaxs sifatida faqat faoliyat (mehnat, oʻyin, oʻqish) jarayonidagina shakllanadi va namoyon boʻladi.

Psixologiyada ushbu yondashuvning asosiy jihatlari quyidagilardan iborat:

1. Ong va faoliyat birligi tamoyili

S.L.Rubinshteyn tomonidan asoslangan ushbu tamoyilga koʻra, inson ongi faoliyatda shakllanadi va unda namoyon boʻladi. Yaʼni, insonning ruhiy holatini uning harakatlaridan ayro holda oʻrganib boʻlmaydi.[8: 720]

2. Faoliyat ─ shaxs rivojlanishining asosi

A.N. Leontev nazariyasiga koʻra, shaxsning psixologik tuzilishi uning faoliyati tuzilishi bilan bogʻliq.[6: 304] Faoliyatning tarkibiy qismlari:

- Ehtiyoj va motiv: Faoliyatni boshlovchi ichki kuchlar.
- Maqsad: Harakat yoʻnaltirilgan aniq natija.
- Harakat va operatsiyalar: Maqsadga erishish yoʻlidagi aniq qadamlar.

3. Subyektning faolligi

Inson faoliyat jarayonida shunchaki tashqi muhitga moslashuvchi mavjudot emas, balki uni oʻzgartiruvchi va oʻz maqsadlariga xizmat qildirtiruvchi faol subyektdir. Shaxs oʻz faoliyati natijalari uchun mas'uliyatni oʻz zimmasiga oladi.

4. Shaxsning ijtimoiylashuvi

L.S. Vigotskiy va boshqa olimlar ta'kidlaganidek, shaxs ijtimoiy munosabatlar va birgalikdagi faoliyat (muloqot, hamkorlik) orqali rivojlanadi.[5: 1136] Masalan, bola kattalar bilan birgalikdagi faoliyat jarayonida ijtimoiy tajribani oʻzlashtiradi.

Yondashuvning ahamiyati:

• Shaxsni tahlil qilish: Insonning xarakteri, qobiliyati va dunyoqarashini uning qilayotgan ishlari va tanlagan faoliyat turlariga qarab baholash imkonini beradi.

• Rivojlanishni boshqarish: Ta'lim va tarbiya jarayonida oʻquvchining faoliyatini toʻgʻri tashkil etish orqali uning shaxsiy sifatlarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Taʼlim va pedagogikada shaxsiy faoliyat yondashuvi ─ bu oʻquvchini taʼlim jarayonining passiv obyekti emas, balki uning faol va asosiy subyekti deb hisoblovchi pedagogik konsepsiyadir. Hozirgi vaqtga kelib, ushbu yondashuv raqamli ta'lim va individual rivojlanishning ajralmas qismiga aylandi.

Ushbu yondashuvning asosiy jihatlari quyidagilardan iborat:

1. Oʻquvchi ─ jarayon markazida. Anʼanaviy taʼlimdan farqli oʻlaroq, bu yerda asosiy eʼtibor oʻqituvchining maʼruzasiga emas, balki oʻquvchining mustaqil harakatlariga qaratiladi. Oʻquvchi bilimni tayyor holda olmaydi, balki uni oʻz faoliyati (tadqiqot, loyiha, amaliyot) orqali "quradi".

2. Faoliyat orqali oʻrganish. Bilimlar faqat nazariy shaklda emas, balki aniq harakatlar orqali oʻzlashtiriladi. Masalan:

• Muammoli taʼlim: Oʻquvchiga muammo beriladi va u yechim topish jarayonida yangi bilimlarni egallaydi.

• Loyiha ishi: Talaba aniq bir mahsulot yoki natija yaratish ustida ishlaydi.

3. Shaxsiy rivojlanishga yoʻnaltirilganlik

Bu yondashuvda faqat fan natijalari (baholar) emas, balki oʻquvchining shaxsiy sifatlari ham rivojlantiriladi:

• Tanqidiy fikrlash;

• Mustaqil qaror qabul qilish;

• Oʻz-oʻzini baholash (refleksiya).

4. Oʻqituvchining oʻzgargan roli

Oʻqituvchi endi "axborot yetkazib beruvchi" emas, balki fasilitator (koʻmakchi) va tutor (yoʻnaltiruvchi) vazifasini bajaradi. U oʻquvchi uchun qulay muhit yaratadi va uning rivojlanish trayektoryasini qoʻllab-quvvatlaydi.

5. Individual yondashuv

Har bir oʻquvchining qobiliyati, qiziqishlari va oʻzlashtirish tezligi turlicha ekanligi inobatga olinadi. 2026-yilda sun'iy intellekt texnologiyalari har bir shaxs uchun alohida individual ta'lim dasturlarini shakllantirishda keng qo'llanilmoqda.

Tushunchaning mohiyati

Ushbu yondashuvda oʻquvchi passiv tinglovchidan faol subyektga aylanadi. Tilni oʻrganish "shaxsiy tajriba" sifatida talqin qilinadi:

- Individual trayektoriya: Har bir oʻquvchining qiziqishi, psixologik xususiyatlari va oʻzlashtirish tezligi inobatga olinadi.
- Muloqot markazi: Darsda asosiy vaqt oʻqituvchining maʼruzasiga emas, balki oʻquvchilarning bir-biri bilan ingliz tilida muloqot qilishiga (juftlikda va guruhlarda ishlash) ajratiladi.
- Oʻqituvchi - fasilitator: Oʻqituvchi bilim beruvchi "monopolist" emas, balki jarayonni yoʻnaltiruvchi, muloqot muhitini yaratuvchi yordamchidir.

Taʼlim jarayoniga foydasi

Hozirgi zamonaviy taʼlim standartlari sharoitida ushbu yondashuv quyidagi afzalliklarni beradi:

1. Motivatsiyaning ortishi: Oʻquvchi oʻzi qiziqqan mavzular (masalan, sevimli oʻyinlari yoki kelajakdagi kasbi) haqida gapirganda, til oʻrganishga boʻlgan ishtiyoqi tabiiy ravishda kuchayadi.
2. Nutqiy toʻsiqlarni (language barrier) yengish: Faoliyatga yoʻnaltirilgan oʻyinlar va rolli vaziyatlar oʻquvchidagi xato qilish qoʻrquvini kamaytiradi va oʻziga boʻlgan ishonchni oshiradi.

3. Bilimlarning uzoq muddat saqlanishi: Maʼlumotni shunchaki yodlagandan koʻra, uni amaliy mashgʻulotda (loyiha ishi, tadqiqot) qoʻllash xotirada yaxshiroq muhrlanishini taʼminlaydi.

4. Kompetensiyalarni rivojlantirish: Faqat til qoidalarini emas, balki tanqidiy fikrlash, muammolarni yechish va jamoada ishlash kabi hayotiy koʻnikmalarni ham shakllantiradi.

5. Tabiiy muloqot muhiti: Oʻquvchilar tilni sunʼiy mashqlar uchun emas, balki real hayotiy ehtiyojlarini (fikr almashish, bahslashish) qondirish uchun ishlata boshlaydilar.

Chet tili oʻqitish metodikasida esa shaxsiy faoliyat yondashuvi (personal-activity approach) oʻquvchini taʼlim jarayonining markaziga qoʻyuvchi hamda til oʻrganishni ijtimoiy va muloqot faoliyati sifatida talqin qiluvchi tamoyildir.

Ushbu yondashuvning chet tili oʻrgatishdagi asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- Subyekt-subyekt munosabati: Oʻqituvchi faqat axborot beruvchi emas, balki muloqot hamkori va jarayonni yoʻnaltiruvchi (fasilitator) vazifasini bajaradi. Oʻquvchi esa passiv tinglovchidan faol ishtirokchiga aylanadi.
- Individual xususiyatlarni hisobga olish: Taʼlim jarayoni oʻquvchining kognitiv (tafakkur), psixologik (motivatsiya, xarakter) va ijtimoiy (guruhda ishlash qobiliyati) xususiyatlariga moslashtiriladi.
- Muloqot vositasi sifatida til: Til shunchaki qoidalar yigʻindisi emas, balki shaxsiy fikrni ifodalash, ehtiyojlarni qondirish va boshqalar bilan aloqa oʻrnatish vositasi sifatida oʻrgatiladi.
- Faoliyatli oʻqitish: Bilimlar amaliy harakatlar orqali oʻzlashtiriladi. Masalan, rolga kirish (role-playing), loyihalar ustida ishlash va muammoli vaziyatlarni muhokama qilish kabi usullar qoʻllaniladi.
- Motivatsiyani oshirish: Oʻquvchi oʻzi uchun shaxsan qiziqarli va hayotiy mavzularda gapirgandagina tilni osonroq oʻzlashtiradi.

Xulosa qilib aytganda shaxsiy faoliyat yondashuvi oʻquvchida nafaqat bilim, balki hayot davomida kerak boʻladigan kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Bu yondashuv nafaqat lingvistik bilimni (grammatika, lugʻat), balki kommunikativ kompetensiyani ─ tilni turli vaziyatlarda erkin va toʻgʻri qoʻllash koʻnikmasini shakllantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. **Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi.** Ta’lim tizimini rivojlantirish konsepsiyasi. — T., 2020.
2. **Saidova M. S.** Zamonaviy ta’limda shaxsga yoʻnaltirilgan yondashuv. — T.: **Fan va texnologiya**, 2020. — 142 b.
3. **Council of Europe.** Common European Framework of Reference for Languages (CEFR). — Cambridge: **Cambridge University Press**, 2001. — 260 p.
4. **Richards J. C., Rodgers T. S.** Approaches and Methods in Language Teaching. — Cambridge: **Cambridge University Press**, 2014. — 410 p.
5. **Выготский Л. С.** Психология развития человека. — М.: **Смысл**, 2005. — 1136 с.
6. **Леонтьев А. Н.** Деятельность. Сознание. Личность. — М.: **Политиздат**, 1975. — 304 с.
7. **Пассов Е. И.** Коммуникативный метод обучения иностранным языкам. — М.: **Просвещение**, 1991. — 223 с.
8. **Рубинштейн С. Л.** Основы общей психологии. — М.: **Педагогика**, 2002. — 720 с.

TIL O’RGATISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Erkaboyeva Saodatxon Yulbarsovna

Andijon pedagogik mahorat markazi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada zamonaviy ta'lim jarayonida til o'rgatishda darslarni tayyorlash va olib borishda raqamli texnologiyalardan foydalanishning pedagogik ahamiyati yoritilgan. Raqamli dars rejalari, sun'iy intellekt vositalari, multimedia, interaktiv texnologiyalar va gamifikatsiyaning ta'lim sifati hamda o'quvchi faolligiga ta'siri ilmiy manbalar asosida tahlil qilingan.*

Kalit so'zlar: *raqamli texnologiyalar, sun'iy intellekt, multimedia, gamifikatsiya, interaktiv ta'lim, raqamli kompetensiya.*

Zamonaviy ta'lim tizimi raqamli transformatsiya jarayonini boshdan kechirmoqda. Bu jarayon o'quvchilarning o'rganish tajribasini yangi darajaga olib chiqish, pedagogik jarayonni moslashuvchan qilish va o'qituvchilarning metodik kompetensiyasini rivojlantirish imkonini beradi. UNESCO (2019) ma'lumotlariga ko'ra, raqamli texnologiyalar ta'limda innovatsion yondashuvlarni joriy etish va o'quvchilarning individual ehtiyojlarini hisobga olishda muhim ahamiyatga ega.

Raqamli texnologiyalar yordamida til o'rgatishda darslar shaxsiylashtirilgan shaklda tashkil etilishi mumkin, ya'ni har bir o'quvchi o'z tezligi, bilim darajasi va qiziqishlariga mos tarzda materiallarni o'rganadi.

Mishra va Koehler (2006) tomonidan ishlab chiqilgan TPACK modeli o'qituvchidan fan, pedagogika va texnologiya integratsiyasini talab qiladi. Unga ko'ra o'qitishda texnologiyani integratsiya qilish uchun zarur bo'lgan o'qituvchi bilimining ayrim muhim sifatlarini qamrab olishga harakat qiladi hamda ushbu bilimning murakkab, ko'p qirrali va vaziyatga bog'liq tabiatini inobatga oladi. Texnologiyadan pedagogik jihatdan puxta va samarali foydalanishda Texnologik-pedagogik-fan mazmuni bilimi (TPCK- Technological Pedagogical Content

Knowledge) deb ataydigan murakkab va vaziyatga moslashgan bilim turini rivojlantirishni talab qiladi. Raqamli dars rejalari va sun’iy intellekt vositalari ushbu integratsiyani ta’minlashga xizmat qiladi.

Mayer (2009) multimedia o‘rganish nazariyasida vizual va audio materiallar uyg‘unligining o‘quvchilarning tushunish jarayoniga ijobiy ta’sir ko‘rsatishini ta’kidlaydi. O‘quvchilar tajriba va nazorat guruhlariga ajratildi. Tajriba guruhida darslar Mayer (2009) tomonidan ilgari surilgan multimedia o‘rganish nazariyasi asosida vizual va audio materiallar uyg‘unligida tashkil etildi. Jumladan, mavzularni tushuntirish jarayonida animatsiyalar, infografikalar, qisqa videoroliklar hamda ovozli izohlar birgalikda qo‘llanildi. Nazorat guruhida esa an’anaviy, asosan matn va og‘zaki tushuntirishga asoslangan darslar olib borildi.

Shuningdek, tajriba guruhida dars jarayoniga Deterding va boshqalar (2011) tomonidan tavsiya etilgan gamifikatsiya elementlari joriy etildi. Bunda ball to‘plash, bosqichlar (levels), badge va musobaqa elementlari orqali o‘quvchilarning darsdagi faolligi va motivatsiyasi oshirildi. Gamifikatsiyalashgan topshiriqlar asosan lug‘at boyligini oshirish, grammatik bilimlarni mustahkamlash va og‘zaki nutq ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratildi. Ma’lumotlarni yig‘ish jarayonida bir nechta tadqiqot vositalaridan foydalanildi. Jumladan, darsdan oldin va darsdan keyin o‘tkazilgan diagnostik testlar orqali o‘quvchilarning bilim darajasidagi o‘zgarishlar aniqlandi. Bundan tashqari, o‘quvchilarning dars jarayonidagi ishtiroki va faolligi kuzatuv jadvallari asosida baholandi. Tadqiqotning sifat tahlil qismida esa o‘quvchilarning refleksiya yozuvlari va fikr-mulohazalari tahlil qilindi. Olingan natijalarni tahlil qilishda solishtirma va statistik tahlil usullari qo‘llanildi. Tajriba va nazorat guruhlari natijalari o‘zaro taqqoslanib, multimedia va gamifikatsiya asosida tashkil etilgan darslarning ta’lim samaradorligiga ta’siri aniqlandi. Tadqiqot jarayonida o‘quvchilarning o‘rganishga bo‘lgan qiziqishi, darsdagi faolligi hamda mavzuni tushunish darajasidagi o‘zgarishlarga alohida e’tibor qaratildi. Shu tariqa, tadqiqot metodikasi multimedia o‘rganish nazariyasi va gamifikatsiya yondashuvlarining amaliy qo‘llanilishini tizimli ravishda o‘rganishga hamda ularning ta’lim jarayonidagi pedagogik samaradorligini aniqlashga xizmat qildi.

Raqamli texnologiyalarni ta’lim jarayoniga integratsiyalash nafaqat o‘quvchilarning o‘rganishini yaxshilaydi, balki o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyasiga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Multimedia resurslari, interaktiv platformalar va sun’iy intellekt asosidagi ilovalardan foydalanish orqali o‘qituvchilar pedagogik ko‘nikmalarining kengayishi mumkin (Mishra & Koehler, 2006; UNESCO, 2019). Masalan, videolar, animatsiyalar va audio izohlar bilan darslarni rejalashtirish diqqatli tayyorgarlikni, mazmunni chuqur tushunishni va materialni qiziqarli usulda yetkazish qobiliyatini talab qiladi. Ushbu jarayon o‘qituvchilarning **pedagogik-fan mazmuni bo‘yicha bilimini (pedagogical content knowledge)** mustahkamlaydi, chunki ular dars strategiyalarini turli o‘quvchilarning ehtiyojlariga moslashtirishni o‘rganadilar (Mayer, 2009). Raqamli texnologiyalarni qo‘llash shuningdek o‘qituvchilarning **texnologik-pedagogik ko‘nikmalarini** rivojlantiradi. Kahoot, Quizizz yoki Nearpod kabi interaktiv vositalardan foydalanish o‘qituvchilarni yangi baholash usullarini sinab ko‘rishga, sinfdagi faoliyatni boshqarishga va tezkor fikr-mulohaza berishga undaydi, bu esa formatif baholash amaliyotini yaxshilaydi (Black & Wiliam, 1998; Deterding et al., 2011). Bundan tashqari, gamifikatsiya yoki onlayn hamkorlik platformalarini darsga kiritish dars tuzilmasi va o‘quvchilarning motivatsiyasi haqida ijodiy fikrlashni talab qiladi, bu esa sinfni boshqarish va ta’lim samaradorligini oshiradi (Deterding et al., 2011).

Shuningdek, raqamli texnologiyalardan foydalanish o‘qituvchilarning **reflektiv amaliyoti va uzluksiz professional rivojlanishini** rag‘batlantiradi. Ko‘plab raqamli vositalar ma’lumotlarni kuzatish imkonini beradi, bu orqali o‘qituvchilar o‘quvchilarning natijalarini tahlil qilib, dars strategiyalarini moslashtiradilar (Holmes et al., 2019). Masalan, onlayn viktorinalar yoki interaktiv mashqlar tahlili o‘quvchilarning qiyinchilikka duch kelgan sohalarini aniqlashga yordam beradi va dars mazmunini takomillashtirishga imkon yaratadi. Ushbu asoslangan refleksiya o‘qituvchilarning qaror qabul qilishini mustahkamlaydi va darslarni moslashuvchan va samarali usulda tashkil etishga hissa qo‘shadi (Mishra & Koehler, 2006).

Oxir-oqibat, texnologiyalarnitil o'rgatishga integratsiya qilish o'qituvchilar o'rtasida hamkorlik va bilim almashishni rag'batlantiradi. Onlayn platformalar, Professional Learning Community (PLC) va ta'limiy ilovalar o'qituvchilarga resurslarni ulashish, dars materiallarini birgalikda yaratish va eng yaxshi amaliyotlarni bo'lishish imkonini beradi (Vygotsky, 1978; UNESCO, 2019). Bunday hamkorlik nafaqat individual o'qituvchining kompetensiyasini oshiradi, balki butun maktab yoki ta'lim muassasasida ta'lim sifatini yaxshilashga xizmat qiladi.

Raqamli texnologiyalar o'quvchilarning mustaqil o'rganish qobiliyatini sezilarli darajada rivojlantiradi. Shuningdek, ular o'quvchilarga o'z vaqtini boshqarish, resurslarni tanlash va o'z bilimini mustaqil tarzda chuqurlashtirish imkonini beradi (Knowles, 1975; UNESCO, 2019). Multimedia materiallar, onlayn kurslar, interaktiv videolar va simulyatsiyalar o'quvchilarga mavzuni o'z sur'atida o'rganish imkonini beradi va shaxsiylashtirilgan ta'limga yo'l ochadi (Mayer, 2009).

Olimlar ta'kidlaganidek, mustaqil ta'lim o'quvchining metakognitiv ko'nikmalarini oshiradi. Masalan, Zimmerman (2002) o'quvchilarning o'z o'rganish jarayonini rejalashtirish, kuzatish va baholash orqali mustaqil o'rganish qobiliyatini shakllantirishini ta'kidlaydi. Raqamli platformalar va interaktiv vositalar esa bu jarayonni qulay va samarali qiladi, chunki o'quvchi har bir mavzuni takrorlash, ko'rib chiqish yoki qo'shimcha manbalarni izlash imkoniga ega bo'ladi.

Shuningdek, gamifikatsiya elementlari (ballar, darajalar, badge'lar) o'quvchilarning motivatsiyasini oshiradi va mustaqil o'rganishga rag'batlantiradi (Deterding et al., 2011). Masalan, onlayn viktorina yoki o'yin shaklidagi topshiriqlar o'quvchilarni faollikka undaydi va mustaqil o'rganish jarayonida o'z yutuqlarini ko'rish imkonini beradi. Mustaqil ta'limni rivojlantirishda muhim jihatlardan biri ham **o'qituvchining roli**dir. Raqamli texnologiyalar yordamida o'qituvchi mentor va yo'l-yo'riq ko'rsatadigan shaxs sifatida ishlaydi, o'quvchilarning individual ehtiyojlarini hisobga olgan holda qo'llab-quvvatlaydi va ularni resurslar bilan tanishtiradi (Mishra & Koehler, 2006; Holmes et al., 2019). Shu tariqa, raqamli texnologiyalar mustaqil o'rganish jarayonini nafaqat qulay va qiziqarli qiladi, balki

o‘quvchilarning **tanqidiy fikrlash, ijodiy yondashuv va o‘z-o‘zini boshqarish ko‘nikmalarini** ham rivojlantiradi.

Xulosa qilib aytganda, raqamli texnologiyalar va gamifikatsiya yordamida tashkil etilgan mustaqil ta’lim o‘quvchilarning **motivatsiyasi, bilimni mustahkamlash va metakognitiv ko‘nikmalarini** oshirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, o‘qituvchining pedagogik va texnologik kompetensiyasi mustahkamlanadi, chunki ular samarali resurs tanlash, individual o‘quv jarayonini qo‘llab-quvvatlash va interaktiv muhit yaratish qobiliyatlarini rivojlantiradilar.

Raqamli texnologiyalarni maqsadli va ilmiy asosda qo‘llash ta’lim samaradorligini oshiradi. O‘qituvchilarning raqamli kompetensiyasini rivojlantirish esa zamonaviy ta’limning muhim vazifasidir. Xulosa qilib aytganda, raqamli texnologiyalardan maqsadli va pedagogik asosda foydalanish o‘qituvchilarning **dars tuzilmasi, sinfni boshqarish, baholash strategiyalari, reflektiv amaliyot va hamkorlik ko‘nikmalarini** rivojlantiradi, bu esa ularning kasbiy kompetensiyasini oshiradi. Natijada, o‘qituvchilar o‘z ish faoliyatida samaraliroq, moslashuvchan va ijodiy bo‘lishga erishadilar.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. **Black P., Wiliam D.** Assessment and classroom learning // Assessment in Education: Principles, Policy & Practice. — 1998. — Vol. 5, № 1. — P. 7–74.
2. **Deterding S., Dixon D., Khaled R., Nacke L.** From game design elements to gamefulness: Defining gamification // Proceedings of the 15th International Academic MindTrek Conference. — 2011. — P. 9–15.
3. **Holmes W., Bialik M., Fadel C.** Artificial intelligence in education: Promises and implications for teaching and learning. — Boston : Center for Curriculum Redesign, 2019.
4. **Mayer R. E.** Multimedia learning. — 2nd ed. — Cambridge : Cambridge University Press, 2009.

5. **Mishra P., Koehler M. J.** Technological pedagogical content knowledge: A framework for teacher knowledge // Teachers College Record. — 2006. — Vol. 108, № 6. — P. 1017–1054.
6. **UNESCO.** ICT in education: Policy and practice. — Paris : UNESCO, 2019.
7. **Vygotsky L. S.** Mind in society: The development of higher psychological processes. — Cambridge, MA : Harvard University Press, 1978.
8. **Knowles M. S.** Self-directed learning: A guide for learners and teachers. — New York : Association Press, 1975.
9. **Zimmerman B. J.** Becoming a self-regulated learner: An overview // Theory Into Practice. — 2002. — Vol. 41, № 2. — P. 64–70.

TA’LIM SIFATINI OSHIRISHDA MUHANDISLIK VA KOMPYUTER GRAFIKASI FANLARINING O‘RNI: AN’ANAVIY VA INNOVATSION USULLAR TAHLILI (JIZZAX VILOYATI MISOLIDA)

Gapparov Bexzod Nematillayevich

Jizzax politexnika instituti

Annotatsiya: *Mazkur maqolada ta’lim sifatini oshirishda muhandislik grafikasi va kompyuter grafikasi fanlarining o‘rni hamda ahamiyati Jizzax viloyati ta’lim muassasalari misolida tahlil qilingan. Tadqiqotda an’anaviy o‘qitish usullari (chizma chizish, nazariy tushuntirish, amaliy mashg‘ulotlar) hamda innovatsion pedagogik texnologiyalar (CAD/CAM tizimlari, 3D modellashtirish, virtual laboratoriyalar, interaktiv platformalar)ning o‘quv jarayoni samaradorligiga ta’siri solishtirma tahlil asosida yoritilgan. Shuningdek, mazkur fanlarni o‘qitishda raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali talabalarning fazoviy tafakkuri, ijodiy qobiliyati va kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish imkoniyatlari asoslab*

berilgan. Tadqiqot natijalari ta’lim jarayonida an’anaviy va innovatsion yondashuvlarni uyg‘unlashtirish orqali ta’lim sifati va amaliy ko‘nikmalarni oshirish mumkinligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: *ta’lim sifati, muhandislik grafikasi, kompyuter grafikasi, an’anaviy usullar, innovatsion texnologiyalar, 3D modellashtirish, CAD tizimlari, raqamli ta’lim, Jizzax viloyati.*

Bugungi kunda global raqamlashuv va sanoatning jadal rivojlanishi ta’lim tizimi oldiga yangi talablarni qo‘ymoqda. Ayniqsa, muhandislik va texnika yo‘nalishlarida tahsil olayotgan talabalarni zamonaviy ishlab chiqarish jarayonlariga mos ravishda tayyorlash masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki, muhandislik grafikasi va kompyuter grafikasi fanlarini samarali o‘qitish talabalarning fazoviy tafakkuri, loyihalash ko‘nikmalari va innovatsion fikrlashini rivojlantirishda asosiy omil hisoblanadi. Masalan, Yevropa mamlakatlarida texnik oliy ta’lim muassasalarida CAD va 3D modellashtirish dasturlari o‘quv rejalarining majburiy qismiga aylantirilgan bo‘lib, bu bitiruvchilarning mehnat bozorida raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasida ham so‘nggi yillarda ta’lim sifatini oshirish va muhandis kadrlarni tayyorlashga alohida e’tibor qaratilmoqda. Xususan, oliy va professional ta’lim muassasalarida kompyuter grafikasi, raqamli modellashtirish va loyihalash texnologiyalarini joriy etish bo‘yicha qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Bu jarayon Jizzax viloyati ta’lim muassasalari misolida ham o‘z ifodasini topmoqda. Viloyatdagi oliy ta’lim muassasalari va texnikumlarda muhandislik grafikasi fanini an’anaviy chizma chizish usullari bilan bir qatorda AutoCAD, SolidWorks, Kompas-3D kabi dasturlar asosida o‘qitish yo‘lga qo‘yilmoqda.

Aniq misol sifatida, Jizzax viloyatidagi ayrim oliy ta’lim muassasalarida kompyuter grafikasi fanidan amaliy mashg‘ulotlar maxsus kompyuter sinflarida tashkil etilmoqda, bu esa talabalarning nazariy bilimlarini amaliy ko‘nikmalar bilan

mustahkamlash imkonini bermoqda. Natijada talabalar detal va mexanizmlarni 2D chizmalardan 3D modellarga aylantirish, virtual muhitda loyihalarni tahlil qilish va optimallashtirish kabi muhim kasbiy kompetensiyalarga ega bo‘lmoqda. Shu bilan birga, ayrim ta’lim muassasalarida moddiy-texnik baza yetarli emasligi yoki o‘qituvchilarning raqamli texnologiyalar bilan ishlash ko‘nikmalari cheklanganligi ta’lim samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Shu nuqtai nazardan, muhandislik va kompyuter grafikasi fanlarini o‘qitishda an’anaviy va innovatsion usullarning o‘zaro uyg‘unligini ta’minlash, ularning ta’lim sifatiga ta’sirini aniq fakt va misollar asosida tahlil qilish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Mazkur tadqiqot Jizzax viloyati misolida ushbu fanlarni o‘qitishda mavjud muammolar va istiqbolli yechimlarni aniqlashga qaratilgan.

Endi bu borada mavjud muammolar, ularni bartaraf etish yo‘llari hamda amaliy takliflar qismi birma-bir ko‘rib chiqamiz, ya’ni:

1. ***Mavjud muammolar.*** Bu borada Jizzax viloyati ta’lim muassasalarida muhandislik grafikasi va kompyuter grafikasi fanlarini o‘qitish jarayonida qator tizimli muammolar kuzatilmoqda.

Birinchidan, ayrim oliy va professional ta’lim muassasalarida moddiy-texnik baza yetarli darajada shakllanmagan. Zamonaviy kompyuterlar, litsenziyalangan CAD dasturlari (AutoCAD, SolidWorks, Kompas-3D) va grafik planshetlarning yetishmasligi amaliy mashg‘ulotlarni to‘liq tashkil etishga to‘sqinlik qilmoqda. Natijada talabalar nazariy bilimlarni amalda qo‘llash imkoniyatidan cheklanmoqda.

Ikkinchidan, o‘quv dasturlarida an’anaviy muhandislik grafikasiga ortiqcha e’tibor qaratilib, kompyuter grafikasi va raqamli modellashtirishga ajratilgan soatlar yetarli emas. Bu holat talabalarning fazoviy tafakkuri va raqamli loyihalash ko‘nikmalarini yetarlicha rivojlantirmaslikka olib kelmoqda. Ayniqsa, ishlab chiqarish korxonalarida talab etilayotgan amaliy kompetensiyalar bilan ta’lim mazmuni o‘rtasida uzilish mavjud.

Uchinchidan, ayrim pedagog kadrlarning zamonaviy grafik dasturlar bilan ishlash bo‘yicha malakasi cheklangan. Bu esa innovatsion usullarni to‘liq joriy etishga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Masalan, 3D modellashtirish yoki virtual

laboratoriyalardan foydalanish imkoniyatlari mavjud bo‘lsa-da, ular amaliyotda yetarli darajada qo‘llanilmayapti.

2. ***Muammolarni bartaraf etish yo‘llari.*** Bunda yuqorida qayd etilgan muammolarni hal etish uchun, avvalo, ta’lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini bosqichma-bosqich yangilash zarur. Bu jarayonda davlat grantlari, hududiy dasturlar va xususiy sektor bilan hamkorlik mexanizmlaridan foydalanish maqsadga muvofiq. Masalan, mahalliy sanoat korxonalari bilan hamkorlikda o‘quv laboratoriyalarini jihozlash orqali ta’lim va ishlab chiqarish integratsiyasini ta’minlash mumkin.

Shuningdek, o‘quv reja va dasturlarini qayta ko‘rib chiqib, kompyuter grafikasi va raqamli modellashtirish fanlariga ajratilgan soatlarni ko‘paytirish, an’anaviy chizma chizish bilan innovatsion texnologiyalarni uyg‘unlashtirgan holda o‘qitish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu talabalarning nazariy va amaliy bilimlari o‘rtasida muvozanatni ta’minlaydi.

Pedagog kadrlarning kasbiy salohiyatini oshirish ham ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Buning uchun muntazam ravishda malaka oshirish kurslari, treninglar va seminarlar tashkil etish, shuningdek, onlayn ta’lim platformalari orqali zamonaviy CAD va 3D texnologiyalar bo‘yicha o‘quv kurslarini joriy etish samarali natija beradi.

3. **Amaliy takliflar.** Bunda tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, quyidagi amaliy takliflar ishlab chiqildi.

Birinchidan, Jizzax viloyati ta’lim muassasalarida muhandislik va kompyuter grafikasi fanlari uchun ixtisoslashtirilgan raqamli laboratoriyalar tashkil etish taklif etiladi. Ushbu laboratoriyalar zamonaviy kompyuter texnikasi, litsenziyalangan dasturiy ta’minot va interaktiv vositalar bilan jihozlanishi lozim.

Ikkinchidan, ta’lim jarayoniga loyihaga asoslangan o‘qitish (Project-Based Learning) usulini keng joriy etish maqsadga muvofiq. Masalan, talabalarga mahalliy sanoat korxonalari ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda real detal va mexanizmlarni 3D modellashtirish vazifalarini berish ularning amaliy tayyorgarligini oshiradi.

Uchinchidan, ta’lim muassasalari, ishlab chiqarish korxonalari va ilmiy-tadqiqot tashkilotlari o‘rtasida hamkorlikni mustahkamlash orqali dual ta’lim elementlarini joriy etish mumkin. Bu orqali talabalar ta’lim davridayoq ishlab chiqarish muhiti bilan yaqindan tanishib, zamonaviy muhandislik yechimlarini o‘zlashtiradilar.

Bu borada xulosa qilib aytganda, muhandislik va kompyuter grafikasi fanlarini o‘qitishda mavjud muammolarni tizimli ravishda hal etish va amaliy takliflarni hayotga tatbiq qilish Jizzax viloyati ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirishga hamda raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. **Gapparov B. N.** Talabalarni ixtiroga jalb etish // Science and Education. — 2023.
2. **Gapparov B. N., Maxmatqulov M. R.** Bo‘lajak quruvchi-muhandis konstruktorlarning kasbiy kompetentliligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishga innovatsion yondashuvlar // Me’morchilik va qurilish muammolari: ilmiy-texnik jurnal. — Samarqand, 2023.
3. **Gapparov B. N.** Qurilish chizmachiligi zamiridagi kasbiy-grafik kompetentlilik: uning metodologiyasi va shakllantirish yo‘llari // Me’morchilik va qurilish muammolari: ilmiy-texnik jurnal. — Samarqand, 2023.
4. **Gapparov B. N., Maxmatqulov M. R.** Bo‘lajak quruvchi-muhandis konstruktorlarning kasbiy kompetentliligini geografik landshaftlarni loyihalash asosida takomillashtirish // International Scientific and Technical Conference materiallari. — Namangan, 2023.
5. **Gapparov B. N.** Bo‘lajak quruvchi-muhandislarning kasbiy kompetentliligini yo‘l infratuzilmasini loyihalash asosida takomillashtirish // Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. — Farg‘ona, 2024.
6. **Gapparov B. N., Gapparova M. B.** Badiiy grafika va dizayn sohalarida bo‘lajak mutaxassislarni tayyorlashning ahamiyati (Jizzax viloyati misolida) // Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari. — Termiz, 2024.

7. **Gapparov B. N.** Muhandis-konstruktorlarning kasbiy grafik kompetentligini rivojlantirishda mutaxassislik fanlarini o‘qitishdagi innovatsion usullar // European Science International Conference: Modern Problems in Education and Their Scientific Solutions. — 2025.

“EKONOMETRIKADA JUFT KORRELYATSION-REGRESSION TAHLIL” MAVZUSINI O‘QITISH JARAYONIDA KOMPYUTER MATEMATIKASI TIZIMLARIDAN VA SUN’IY INTELLEKDAN FOYDALANISH

I.B. Xudoyberdiyev

A.E. Tangirov

J.Q.Dusmonov

Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti

Annotatsiya. *Maqolada MATHCAD – kompyuter matematikasi va sun’iy intellekt tizimining o‘qitish jarayonida qo‘llanilishi keltirilgan.*

Kalit so’zlar: *Mathcad, Maple, kompyuter matematikasi, model, modellashtirish, ekonometrika.*

Ta’lim jarayonida mavzuni o‘qitishda o‘qituvchi interfaol metodlardan mavzuga muvofiqini tanlay bilishi muhim hisoblanadi. O‘qituvchi interfaol metodlardan avvalo oddiylikdan murakkablikka o‘tish nazariyasiga amal qilgan holda foydalanmog‘i lozim. Ilg‘or pedagogik texnologiya asosida tashkil etilgan darslar o‘quvchilarda bilimlarni samarali o‘zlashtirishga yordam beradi. Axborot texnologiyalaridan foydalanish o‘quv jarayonini tashkil etishning yangi va samarali shakllaridan biridir. Bu asosan o‘quvchilarning mustaqil ishlariga qaratilgan aniq bir o‘quv dasturini amalga oshirishdir. Axborot jamiyatiga o‘tish ta’lim mazmunini va

o‘qitish usullarini modernizatsiya qilish uchun yangi imkoniyatlar ochmoqda. Kompyuter matematik bilim va ko‘nikmalarni tuzish va tizimlashtirish, dunyoqarashni shakllantirish va o‘quvchi ongini rivojlantirish uchun kuchli vositaga aylanmoqda. Fanni o‘qitishda kompyuterdan tizimli foydalanishda quyidagi asosiy fikrlarni hisobga olish kerak. Kutilayotgan natijani olish uchun o‘quv jarayonida kompyuterdan doimiy ravishda foydalanish kerak. O‘qituvchi kompyuterni yaxshi bilishi, o‘quv materialini o‘quvchilarni faollashtirishga yo‘naltirilgan turli xil o‘quv faolliyatlarida foydalanish uchun moslashuvchan metodologiyani qo‘llamog‘i zarur [1]. Hozirgi vaqtda kompyuter matematikasi, kompyuter industriyasi va programmalashtirish texnologiyalarining jadal suratlar bilan rivojlanishi hamda sun’iy intellektning qo’lanishi ta’lim-tarbiya, ilmiy-metodik va ilmiy tadqiqot ishlarini avto-matlashtirishning asosi sifatida e’tirof etilmoqda. Zamonaviy axborot texnologiyalari sohasida qo‘lga kiritilgan yutuqlarni qo‘llash natijasida ilmiy-tadqiqot, ilmiy-metodik, ilmiy-texnik, injenerlik, moliyaviy va iqtisodiy, kimyoviy, biologik masalalarni yechishni avtomatlashtirish tomon yo‘naltirilgan ko‘plab dasturiy vositalar mavjuddir [2]. Masalan: Mathematica, Maple, Matlab, Mathcad, Derive, Scientific, Workplce, Femlab, FeexPDE kabi universal dasturiy muhitlar shular jumlasidandir. Bulardan ikkitasi professional matematiklar va ilmiy-tadqiqotlar olib boruvchi mutaxassislar tomonidan keng qo‘llanilmoqda. Mathcad esa injenerlik hisob-kitob ishlarining instrumenti sifatida ishlab chiqilgan bo‘lib hozirda yetarlicha murakkablikka ega bo‘lgan hisob-kitoblarni bajarishda, ilmiy-tekshirish ishlarida har xil sonli algoritmlarni va analitik almashtirishni bajarishda foydalanilmoqda. Fanini o‘rganishda axborot texnologiyalari sohasida qo‘lga kiritilgan eng ilg‘or yutuqlardan hisoblangan Mathcad, Maple dasturiy muhitlardan foydalanish asosida o‘rganish darsni qiziqarli va samarali bo‘lishini ta’minlovchi asosiy me’zonlardan biridir.

Ishlab chiqarish, loyihalash, boshqarishni bashorat qilish va shular kabi inson faoliyatining ko‘plab amaliy masalalari optimallashtirish masalalarini yechishga keltiriladi. **MATHCAD** professor-o‘qituvchilar, stajyorlar, tadqiqotchilar, aspirantlar, talabalar, texnik muhandislar, fiziklar, qolaversa barcha kasb egalari

uchun hisoblash ishlarini bajaruvchi dasturiy ta’minot hisoblanadi [3]. Bu dastur bilan turli kasb egalari o‘z sohasi buyicha masalalarni hal etishi va kerakli grafiklarni, diagrammalarni olishlari mumkin. **MATHCAD** dasturini boshqacha qilib ayttanda dasturlash tili deyish mumkin. Fanlarni o‘rganishda axborot texnologiyalari sohasida qo‘lga kiritilgan eng ilg‘or yutuqlardan hisoblangan Mathematika, Maple, Mathlab kabi dasturiy muhitlardan hisoblangan **MATHCAD**dan foydalanish asosida o‘rganish darsni qiziqarli va samarali bo‘lishini ta’minlovchi asosiy mezonlardan biridir [4].

JUFT KORRELYATSION-REGRESSION TAHLIL

1. Iqtisodiy-ijtimoiy jarayonlarda bog‘liqlar turlarini o‘rganish

Iqtisodiy va ijtimoiy hodisalar o‘zaro uzviy bog‘liq bo‘ladi. Masalan, aholining daromadi bilan iste’mol xarajatlari, ta’lim darajasi bilan mehnat unumdorligi, ishlab chiqarish hajmi bilan resurs sarfi o‘rtasidagi aloqalar. Ushbu bog‘liqlar quyidagicha tasniflanadi:

- **Funktsional bog‘liqlik** – natija butunlay aniq bir sababga bog‘liq (masalan, soliq stavkasi va tushum hajmi).
- **Stoxastik (tasodifiy) bog‘liqlik** – sabab va natija orasidagi munosabat qat’iy emas, balki ehtimollik asosida yuzaga keladi (masalan, ta’lim darajasi va ish haqi).
- **Bir tomonlama bog‘liqlik** – bitta ko‘rsatkich ikkinchisiga ta’sir qiladi.
- **O‘zaro bog‘liqlik** – ikki ko‘rsatkich bir-biriga ta’sir ko‘rsatadi.

2. Korrelatsiya koeffitsiyentining turlari va hisoblash usullari

Korrelatsiya koeffitsiyenti – ikki yoki undan ortiq ko‘rsatkichlar orasidagi bog‘lanish zichligini o‘lchovchi statistik ko‘rsatkich.

Asosiy turlari:

• **Pearson korrelatsiya koeffitsiyenti (r)** – chiziqli bog‘lanish darajasini o‘lchaydi.

• **Spearman korrelatsiya koeffitsiyenti (rs)** – tartiblangan qatorlar (ranklar) asosida hisoblanadi, chiziqsiz bog‘liqlarda qo‘llanadi.

• **Kendall koeffitsiyenti (τ)** – kichik tanlamalarda qo‘llanadi, juft solishtirish asosida

Hisoblash usuli (Pearson uchun):

$$r = \frac{\sum(x_i - \bar{x})(y_i - \bar{y})}{\sqrt{\sum(x_i - \bar{x})^2 \cdot \sum(y_i - \bar{y})^2}}$$

Koeffitsiyent qiymati:

- $r \approx 0$ – bog‘liqlik yo‘q yoki juda kuchsiz.
- $0.1 \leq |r| < 0.3$ – kuchsiz bog‘liqlik.
- $0.3 \leq |r| < 0.7$ – o‘rtacha bog‘liqlik.
- $0.7 \leq |r| < 0.9$ – kuchli bog‘liqlik.
- $0.9 \leq |r| \leq 1$ – juda kuchli bog‘liqlik.

Iqtisodiy masala

Quyidagi ma’lumotlar asosida:

T.r	Tajriba, X(yil)	Ish haqi, Y($-dollar)
1	**1**	**300$**
2	**2**	**350$**
3	**3**	**400$**
4	**4**	**450$**
5	**5**	**500$**

ishchi tajribasi, X(yil) va ish haqi, Y($-dollar) orasidagi bog’lanish aniqlansin.

Topshiriq:1) korrellyatsiya koeffisiyenti hisoblansin, bog'lanish kuchi va yo'nalishi aniqlansin; 2) regression model qurilsin; 3) prognoz(bashorat) qilinsin (10,5 tajribaga ega ishchi qancha maosh oladi).

Mathcadda korrellyatsiya koeffisiyentini hisoblash

$$\text{ORIGIN} := 1 \quad n := 5 \quad X := (1\ \ 2\ \ 3\ \ 4\ \ 5)^T$$

$$Y := (300\ \ 350\ \ 400\ \ 450\ \ 500)^T \qquad SXY := \frac{1}{n}\cdot\sum_{i=1}^{n}\left(X_i\cdot Y_i\right) = 1300$$

$$SX := \text{mean}(X) = 3$$

$$SY := \text{mean}(Y) = 400 \qquad DX := \frac{1}{n}\cdot\sum_{i=1}^{n}\left(X_i - SX\right)^2 = 2$$

$$DY := \frac{1}{n}\cdot\sum_{i=1}^{n}\left(Y_i - SY\right)^2 = 5000 \qquad RXY := \frac{SXY - SX\cdot SY}{\sqrt{DX\cdot DY}} = 1$$

Programmada korrellyatsiya koeffisiyenti +1ga teng chiqdi, demak musbat yo'nalishli juda kuchli bo'glanish.

Sun'iy intellect GAT-GPTda hisoblash

Berilgan ma'lumotlar	
X (tajriba yili)	Y (Ish, haqi $)
1	300
2	350
3	400
4	450
5	500

1) Korrelyatsiya koeffitsiyenti, bog'lanish kuchi va yo'nalishi

Kuzatishlardan ko'rinadiki, tajriba 1 yilga oshganda ish haqi har safar 50$ ga oshmoqda. Bu mukammal chiziqli bog'lanishdir.

Pearson korrelyatsiya koeffitsiyenti formulasi asosida hisoblanganda:

r = 1

Xulosa:

- Bog‘lanish **musbat** (to‘g‘ri yo‘nalishda)
- Bog‘lanish kuchi **juda kuchli (mukammal)**

Mathcadda regression model qurish

$\mathbf{ORIGIN} := 1 \quad n := 5 \quad X := (1 \;\; 2 \;\; 3 \;\; 4 \;\; 5)^T$

$Y := (300 \;\; 350 \;\; 400 \;\; 450 \;\; 500)^T$

$SXY := \frac{1}{n} \cdot \sum_{i=1}^{n} (X_i \cdot Y_i) = 1300$

$SX := mean(X) = 3$

$SY := mean(Y) = 400$

$DX := \frac{1}{n} \cdot \sum_{i=1}^{n} (X_i - SX)^2 = 2$

Model:

$a1 := \frac{(SXY - SX \cdot SY)}{DX} = 50 \qquad a0 := SY - a1 \cdot SX = 250$

Y=250 + 50*X

ChatGPTda regression model qurish

2) Regression modelini qurish

Chiziqli regressiya modeli:

Y=a+bXY = a + bXY=a+bX

Bu yerda:

- **b** — regressiya koeffitsiyenti (og‘ish)
- **a** — erkin had

Koeffitsiyentlarni aniqlaymiz

Har 1 yil tajriba oshganda ish haqi 50$ ga oshmoqda, demak:

b=50b = 50b=50

Endi **a** ni topamiz (masalan, X=1, Y=300X = 1, \; Y = 300X=1,Y=300):

300=a+50·1300 = a + 50 \cdot 1300=a+50·1 a=250a = 250a=250

Regression modeli:

$$Y=250+50XY = 250 + 50XY=250+50X$$

3) Prognoz (10,5 yil tajriba uchun)

Berilgan:

$$X=10.5$$

Modelga qo‘yamiz:

$$Y=250+50\cdot10.5$$

$$Y=250+525=775$$

Yakuniy natijalar

- **Korrelyatsiya koeffitsiyenti:**

  r=1 (mukammal musbat bog‘lanish)

- **Regression modeli:**

  $$Y=250+50X$$

- **Prognoz (10,5 yil tajriba):**

  Y=775 dollar

Фойдаланилган адабиётлар

1. **Агапова Н. В.** Перспективы развития новых технологий обучения. – Москва: ТК Велби, 2005. – 247 с.
2. **Lucertini M.** Technological concepts and mathematical models in the evolution of modern engineering systems. – Germany, 2012. – 196 p.

3. **Кирьянов Д. В.** Mathcad 15 / Mathcad Prime 1.0. – Санкт-Петербург: БХВ-Петербург, 2012. – 400 с.
4. **Сдвижков О. А.** Математика на компьютере: Maple-8. – Москва: Солон-Пресс, 2003. – 236 с.
5. **Ismoilov E. O., Tangirov A. E.** Opportunities to develop students' professional competencies based on the integration of disciplines // International Journal on Integrated Education. – 2022. – Vol. 5, Issue 3. – P. 36–44.

“EKONOMETRIK-MATEMATIK MODELLASHTISH ASOSLARI” MAVZUSINI O‘QITISH JARAYONIDA AXBOROT TEXNOLOGI-YALARI VA KOMPYUTER MATEMATIKASI TIZIMIDAN FOYDALANISH

I.B. Xudoyberdiyev
A.E. Tangirov
J.Q.Dusmonov
Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti

Annotatsiya. *Maqolada axborot texnologiyalari va MATHCAD – kompyuter matematikasi tizimining o‘qitish jarayonida qo‘llanilishi keltirilgan.*

Kalit so’zlar: *Mathcad, Maple, kompyuter matematikasi, model, modellashtirish, ekonometrika*

Ta’lim jarayonida mavzuni o‘qitishda o‘qituvchi interfaol metodlardan mavzuga muvofiqini tanlay bilishi muhim hisoblanadi. O‘qituvchi interfaol metodlardan avvalo oddiylikdan murakkablikka o‘tish nazariyasiga amal qilgan holda foydalanmog‘i lozim. Ilg‘or pedagogik texnologiya asosida tashkil etilgan darslar o‘quvchilarda bilimlarni samarali o‘zlashtirishga yordam beradi. Axborot

texnologiyalaridan foydalanish o‘quv jarayonini tashkil etishning yangi va samarali shakllaridan biridir. Bu asosan o‘quvchilarning mustaqil ishlariga qaratilgan aniq bir o‘quv dasturini amalga oshirishdir. Axborot jamiyatiga o‘tish ta’lim mazmunini va o‘qitish usullarini modernizatsiya qilish uchun yangi imkoniyatlar ochmoqda. Kompyuter matematik bilim va ko‘nikmalarni tuzish va tizimlashtirish, dunyoqarashni shakllantirish va o‘quvchi ongini rivojlantirish uchun kuchli vositaga aylanmoqda. Fanni o‘qitishda kompyuterdan tizimli foydalanishda quyidagi asosiy fikrlarni hisobga olish kerak. Kutilayotgan natijani olish uchun o‘quv jarayonida kompyuterdan doimiy ravishda foydalanish kerak. O‘qituvchi kompyuterni yaxshi bilishi, o‘quv materialini o‘quvchilarni faollashtirishga yo‘naltirilgan turli xil o‘quv faolliyatlarida foydalanish uchun moslashuvchan metodologiyani qo‘llamog‘i zarur [1]. Hozirgi vaqtda kompyuter matematikasi, kompyuter industriyasi va programmalashtirish texnologiyalarining jadal suratlar bilan rivoj-lanishi ta’lim-tarbiya, ilmiy-metodik va ilmiy tadqiqot ishlarini avto-matlashtirishning asosi sifatida e’tirof etilmoqda. Zamonaviy axborot texnologiyalari sohasida qo‘lga kiritilgan yutuqlarni qo‘llash natijasida ilmiy-tadqiqot, ilmiy-metodik, ilmiy-texnik, injenerlik, moliyaviy va iqtisodiy, kimyoviy, biologik masalalarni yechishni avtomatlashtirish tomon yo‘naltirilgan ko‘plab dasturiy vositalar mavjuddir [2]. Masalan: Mathematica, Maple, Matlab, Mathcad, Derive, Scientific, Workplce, Femlab, FeexPDE kabi universal dasturiy muhitlar shular jumlasidandir. Bulardan ikkitasi professional matematiklar va ilmiy-tadqiqotlar olib boruvchi mutaxassislar tomonidan keng qo‘llanilmoqda. Mathcad esa injenerlik hisob-kitob ishlarining instrumenti sifatida ishlab chiqilgan bo‘lib hozirda yetarlicha murakkablikka ega bo‘lgan hisob-kitoblarni bajarishda, ilmiy-tekshirish ishlarida har xil sonli algoritmlarni va analitik almashtirishni bajarishda foydalanilmoqda. Fanini o‘rganishda axborot texnologiyalari sohasida qo‘lga kiritilgan eng ilg‘or yutuqlardan hisoblangan Mathcad, Maple dasturiy muhitlardan foydalanish asosida o‘rganish darsni qiziqarli va samarali bo‘lishini ta’minlovchi asosiy me’zonlardan biridir.

Ishlab chiqarish, loyihalash, boshqarishni bashorat qilish va shular kabi inson faoliyatining ko‘plab amaliy masalalari optimallashtirish masalalarini yechishga keltiriladi. **MATHCAD** professor-o‘qituvchilar, stajyorlar, tadqiqotchilar, aspirantlar, talabalar, texnik muhandislar, fiziklar, qolaversa barcha kasb egalari uchun hisoblash ishlarini bajaruvchi dasturiy ta’minot hisoblanadi [3]. Bu dastur bilan turli kasb egalari o‘z sohasi buyicha masalalarni hal etishi va kerakli grafiklarni, diagrammalarni olishlari mumkin. **MATHCAD** dasturini boshqacha qilib ayttanda dasturlash tili deyish mumkin. Fanlarni o‘rganishda axborot texnologiyalari sohasida qo‘lga kiritilgan eng ilg‘or yutuqlardan hisoblangan Mathematika, Maple, Mathlab kabi dasturiy muhitlardan hisoblangan **MATHCAD**dan foydalanish asosida o‘rganish darsni qiziqarli va samarali bo‘lishini ta’minlovchi asosiy mezonlardan biridir [4].

Iqtisodiy masala

Ishlab chiqarishga ixtisoslashgan firma to‘rt xil turdagi $A1$, $A2$, $A3$, $A4$ gazlama ishlab chiqaradi va har biri uchun to‘rt xil turdagi $S1$, $S2$, $S3$, $S4$ iplar sarflanadi. Har bir gazlama uchun har bir turdagi ipdan sarf miqdori (normasi) va iplarning bir kunlik sarf hajmi quyidagi jadvalda berilgan:

Ipning turi	Bir turdagi gazlama uchun ipning sarf miqdori (shartli birlik)				Ipning bir kunlik sarf hajmi (shartli birlik)
	$A1$	$A2$	$A3$	$A4$	
$S1$	2	2	4	1	2250
$S2$	2	1	1	2	1550
$S3$	3	1	2	1	1850
$S4$	1	2	1	3	1700

Firma tamonidan bir kunda ishlab chiqariladigan har bir turdagi gazlama hajmini (miqdorini) pogonometrlarda toping.

Iqtisodiy masalani modellashtirish

Faraz qilaylik firma bir kunda $A1$, $A2$, $A3$ va $A4$ turdagi gazlamalardan mos ravishda $x1$, $x2$, $x3$ va $x4$ pogonometr miqdorda ishlab chiqarsin. U holda har bir

turdagi gazlamaga sarflanadigan bir kunlik ip miqdoriga mos quyidagi tenglamalar sistemasi hosil bo‘ladi:

$$\begin{cases} 2x_1+2x_2+4x_3+x_4=2250, \\ 2x_1+x_2+x_3+2x_4=1550, \\ 3x_1+x_2+2x_3+x_4=1850, \\ x_1+2x_2+x_3+3x_4=1700. \end{cases} \quad (1^*)$$

Shunday qilib, qo‘yilgan masala ekonometrik modeli to‘rtta noma’lumli to‘rtta chiziqli tenglamalar sistemasini yechishga keltirildi. Hosil bo‘lgan sistemani Excel dasturi vositasida yechish uchun uni matritsali tenglama ko‘rinishda yozib olamiz:

$$A \cdot x = b\,, \quad (2^*)$$

bu yerda $$A=\begin{pmatrix} 2 & 2 & 4 & 1 \\ 2 & 1 & 1 & 2 \\ 3 & 1 & 2 & 1 \\ 1 & 2 & 1 & 3 \end{pmatrix},\ x=\begin{pmatrix} x_1 \\ x_2 \\ x_3 \\ x_4 \end{pmatrix},\ b=\begin{pmatrix} 2250 \\ 1550 \\ 1850 \\ 1700 \end{pmatrix}. \quad (3^*)$$

Oliy algebra kursidan ma’lumki, agar A matritsa determinanti noldan farqli bo‘lsa, ya’ni $\Delta=|A|\neq 0$, u holda (1^*) tenglamalar sistemasi birgalikda deyiladi va yagona yechimga ega bo‘ladi. Bu yechim $x=A^{-1}\cdot b$ vektor shaklida ifodalanadi.

Quyida hosil qilingan tenglamalar sistemasini yechishning bir nechta usullari keltirilgan.

Teskari matritsadan foydalanib yechish

Qo‘yilgan masalaning matematik modeli sifatida olingan (1^*) tenglamalar sistemasini Excel dasturi vositasida teskari matritsadan foydalanib yechish algoritmi quyidagi qadamlardan tashkil topadi.

1. A matritsa va b vektor elementlarini Excel ish sahifasi katakchalariga kiritish.
2. Sistemaning birgalikda ekanligini tekshirish, ya’ni A matritsaning determinantini topish.
3. Teskari matritsa A^{-1} ni hisoblash.
4. A^{-1} matritsani b vektorga ko‘paytirish.
5. Olingan yechimning to‘g‘riligini tekshirish.

Bularning har biri quyidagicha amalga oshiriladi:

1. A matritsa elementlarini *A*1:*D*4 katakchalarga, *b* vektor elementlarini esa *E*1:*E*4 katakchalarga kiritamiz (1 - rasm).

	A	B	C	D	E	F
1	2	2	4	1	2250	
2	2	1	1	2	1550	
3	3	1	2	1	1850	
4	1	2	1	3	1700	
5						

1 – rasm. Ma'lumotlarni kiritish


2. Sistemani birgalikda ekanligini tekshirish uchun quyidagi ishlarni amalga oshiramiz:

- *A* matritsaning determinant hosil bo‘ladigan katakchani, masalan *A*6 ni ajratamiz, ya’ni uning ustida chap tugmani bosamiz (2- rasm).
- «Стандартная» instrumentlar panelining «Вставка функции» ( ) tugmasini faollashtiramiz.
- Hosil bo‘lgan «Мастер функции» muloqot oynasining «Категория» ro‘yxatidan «Математические» bandini, «Функция» ro‘yxatidan esa «МОПРЕД» funksiyasini tanlaymiz (МОПРЕД funksiyasi matritsa determinantini hisoblaydi) va «Ok» tugmasini bosamiz (2- rasm).

	A	B	C	D	E
1	2	2	4	1	2250
2	2	1	1	2	1550
3	3	1	2	1	1850
4	1	2	1	3	1700
5					
6					
7					


2 – rasm A matritsa determinanti uchun joy ajratish

- Hosil bo‘lgan «МОПРЕД» muloqot oynasini *A* matritsa elementlari joylashgan katakchalar massivining o‘ng yoki past tamoniga joylashtiramiz (buning uchun МОПРЕД satri ustida sichqoncha chap tugma bosilgan holda o‘ngga yoki pastga tortiladi). Oynaning «Массив» elementi ish satriga *A*1:*D*4 katakchalar massivini kiritib, so‘ngra «Ok» tugmasini faollashtiramiz (3- rasm).



3- rasm. МОПРЕД funksiyasini tanlash

Bu amallarni ketma-ket bajarish natijasida Excel dasturi ish sahifasining $A6$ katakchasida A matritsaning determinantiga teng bo‘lgan 6 soni hosil bo‘ladi va $\Delta = |A| = 6 \neq 0$ bo‘lgani uchun sistemaning birgalikda ekanligi kelib chiqadi.




4- rasm. МОПРЕД muloqot oynasining «Массив» ish satrini to‘ldirish

3. Teskari matritsa A^{-1} ni topish.

Buning uchun quyidagi amallar ketma-ketligini bajaramiz:


- Excel ish sahifasida teskari matritsa elementlari uchun joy ajratamiz, masalan $G1{:}J4$ katakchalarni, buning uchun sichqoncha ko‘rsatkichini chap tugmasini bosgan holda $G1$ katakchadan $J4$ katakchagacha tortamiz (5- rasm).



5- rasm. A^{-1}-teskari matritsa elementlari uchun joy ajratish


- «Стандартная» instrumentlar panelining «Вставка функции» bandini faollashtiramiz.

▫Hosil bo‘lgan «Мастер функций» muloqot oynasining boshqarish elementi «Категория» ro‘yxatidan «МОБР» funksiyasini tanlaymiz (МОБР funksiyasi *A* matritsaga teskari matritsa A^{-1} ni topadi) so‘ngra «Ok» tugmasini bosamiz (6- rasm).



7 – rasm. МОБР funksiyasini tanlash


▫Hosil bo‘lgan «МОБР» muloqot oynasini sichqoncha yordamida *A* matritsa elementlari joylashgan katakchalar massivining o‘ng yoki past tomoniga joylashtiramiz va «Массив» ish maydoniga *A* matritsaning elementlari joylashgan katakchalar massivi *A*1:*D*4 ni kiritamiz (chap tugmani bosgan holda sichqoncha ko‘rsatkichi bilan), so‘ngra [Ctrl], [Shift] va [Enter] tugmachalarni birgalikda bosamiz: «[Ctrl]+[Shift]+[Enter]» (8 - rasm).



8- rasm. МОБР muloqot oynasining Massiv elemnti ish satrini to‘ldirish

▫Agar ajratilgan *G*1:*J*4 katakchalarda teskari matritsa elementlari hosil bo‘lmasa, formulalar satri ustida chap tugmani bosish va «[Ctrl]+ [Shift]+[Enter]» buyrug‘ini takrorlash zarur.

Yuqoridagi amallar ketma-ketligini bajarish natijasida *G*1:*J*4 katakchalar massivida teskari matritsa elementlari hosil bo‘ladi (9 - rasm).




	A	B	C	D	E	F	G	H	I	J	K	L
1	2	2	4	1	2250		-0,33	-0,5	0,833	0,167		
2	2	1	1	2	1550		-0,67	-3,5	2,167	1,833		
3	3	1	2	1	1850		0,667	1,5	-1,17	-0,83		
4	1	2	1	3	1700		0,333	2	-1,33	-0,67		
5												

9- rasm. G1:J4 katakchalar massivida hosil bo‘lgan teskari matritsa elementlari

4. A^{-1} teskari matritsa elementlarini *b* vektor elementlariga ko‘paytirish.

Ushbu amallarni bajarish natijasida koordinatalari (1) sistemaning yechimlari bo‘lgan *x* vector topiladi. Buning uchun:

- *x* vektor elementlari uchun Excel ish sahifasidan joy ajratamiz. Vektor to‘rtta satr va bitta ustundan (4×1) iborat bo‘lgani uchun masalan, *L*1:*L*4 katakchalarni ajratish yetarli.
- «Стандартная» instrumentlar panelining «Вставка функции» bandini faollashtiramiz.
- Hosil bo‘lgan «Мастер функций» muloqot oynasining elementi bo‘lgan «Категория» ro‘yxatidan «Математические» bandini, «Функция» ro‘y-xatidan esa «МУМНОЖ» funksiyasini tanlaymiz (МУМНОЖ funksiyasi matritsani matritsaga ko‘paytiradi), so‘ngra «Ok» tugmasini bosamiz (10 - rasm).



10- rasm. МУМНОЖ funksiyasini tanlash

❑Hosil bo‘lgan «МУМНОЖ» muloqot oynasini sichqoncha yordamida A va A^{-1} matritsalar elementlari joylashgan sohaning pastki qismiga joylashtirish hamda «Массив 1» ish satriga A^{-1} teskari matritsaning elementlari joylashgan katakchalar massivi $G1{:}J4$ ni, «Массив 2» ish maydoniga esa b vektor elementlari joylashgan katakchalar massivi $E1{:}E4$ ni kiritamiz, so‘ngra «[Ctrl]+[Shift]+[Enter]» buyrug‘ini bajaramiz (11 - rasm).



11- rasm. МУМНОЖ muloqot oynasining Massiv 1 va Massiv 2 elementlarini ish maydonlarini to‘ldirish va L1:L4 katakchalar massivida hosil bo‘lgan natija

❑Agar $L1{:}L4$ katakchalarda x vektorning elementlari hosil bo‘lmasa, chap tugmani formulalar satri ustida bosish va «[Ctrl]+[Shift]+[Enter]» buyrug‘ini takrorlash lozim.

Keltirilgan amallarning bajarilishi natijasida $L1{:}L4$ katakchalar massivida x vektorning tashkil etuvchilari, ya’ni (1) sistemaning yechimlari hosil bo‘ladi: x_1=300, x_2=200, x_3=250, x_4=250 (11- rasm).

Hisoblash natijalaridan ko‘rinib turibdiki, firma har kuni $A1$, $A2$, $A3$ va $A4$ turdagi gazlamalardan mos ravishda 300, 200, 250, 250 pogono-metrdan ishlab chiqarar ekan.

5. Topilgan yechimlarning to‘g‘riligini tekshirish


Olingan natijalarning to‘g‘riligini tekshirish uchun A matritsa elementlarini x vektor elementlariga ko‘paytmasi b vektor elementlariga tengligini ya’ni $A\cdot x = b$ tenglikning o‘rinli ekanligini ko‘rsatish kifoya va u quyidagicha amalga oshiriladi:

❑ Excel ish sahifasida *b* vektor elementlari uchun joy ajratamiz, masalan *M*1:*M*4 katakchalarni belgilaymiz.

❑ «Standartnaya» instrumentlar panelining «Вставка функции» bandini faollashtiramiz.

❑Hosil bo‘lgan «Мастер функций» muloqot oynasining boshqarish elementi «Категория» ro‘yxatidan «Математические» bandini, «Функция» ro‘yxatidan esa «МУМНОЖ» funksiyasini tanlaymiz va «Ok» tugmasini bosamiz (10- rasm).

❑Hosil bo‘lgan «МУМНОЖ» muloqot oynasini berilgan ma’lumotlar kiritilgan sohaning pastki qismiga joylashtiramiz va «*Массив* 1» ish maydoniga *A* matritsaning elementlari uchun ajratilgan *A*1:*D*4 katakchalar massivini, «*Массив* 2» ish satriga esa *x* vektor elementlari uchun ajratilgan *L*1:*L*4 katakchalar massivini kiritamiz, so‘ngra «[Ctrl]+ [Shift]+[Enter]» buyrug‘ini amalga oshiramiz (11 - rasm).



11 - rasm. МУМНОЖ funksiyasini tanlash va b vektor elementlari uchun Excel ish sahifasidan M1:M4 katakchalarni ajratish



12 - rasm. МУМНОЖ muloqot oynasining Massiv 1 va Massiv 2 elementlarini ish maydonlarini to‘ldirish

▫Agar Excel dasturi ish sahifasining *M*1:*M*4 katakchalarida *b* vektor elementlari hosil bo‘lmasa, formulalar satrida chap tugmani bosish va «[Ctrl]+[Shift]+[Enter]» buyrug‘ini takrorlash kerak.

M1 = {=МУМНОЖ(A1:D4;L1:L4)}

	A	B	C	D	E	F	G	H	I	J	K	L	M	N
1	2	2	4	1	2250		-0,33	-0,5	0,833	0,167		300	2250	
2	2	1	1	2	1550		-0,67	-3,5	2,167	1,833		200	1550	
3	3	1	2	1	1850		0,667	1,5	-1,17	-0,83		250	1850	
4	1	2	1	3	1700		0,333	2	-1,33	-0,67		250	1700	

13 – rasm. Tekshirish natijalari

Sistema to‘g‘ri yechilgan bo‘lsa, *M*1:*M*4 katakchalar massivida $b=(2250,1550,1850,1700)^T$ vektor elementlar hosil bo‘ladi (5.38- rasm).

Masalaning Mathcadda yechilishi:

$$\underline{A} := \begin{pmatrix} 2 & 2 & 4 & 1 \\ 2 & 1 & 1 & 2 \\ 3 & 1 & 2 & 1 \\ 1 & 2 & 1 & 3 \end{pmatrix} \quad b := \begin{pmatrix} 2250 \\ 1550 \\ 1850 \\ 1700 \end{pmatrix} \quad \begin{pmatrix} x_1 \\ x_2 \\ x_3 \\ x_4 \end{pmatrix} := A^{-1} \cdot b = \begin{pmatrix} 300 \\ 200 \\ 250 \\ 250 \end{pmatrix}$$

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. **Агапова Н. В.** Перспективы развития новых технологий обучения. – Москва: ТК Велби, 2005. – 247 с.
2. **Lucertini M.** Technological Concepts and Mathematical Models in the Evolution of Modern Engineering Systems. – Germany, 2012. – 196 p.
3. **Кирьянов Д. В.** Mathcad 15 / Mathcad Prime 1.0. – Санкт-Петербург: БХВ–Петербург, 2012. – 400 с.
4. **Сдвижков О. А.** Математика на компьютере: Maple-8. – Москва: СОЛОН-Пресс, 2003. – 236 с.

5. **Ismoilov E. O., Tangirov A. E.** Opportunities to develop students' professional competencies based on the integration of disciplines // International Journal on Integrated Education. – Indonesia, 2022. – Vol. 5, Issue 3. – P. 36–44.

O‘QUVCHILARNI KITOB O‘QISHGA JALB QILISH YO‘LLARI

I.B. Xudoyberdiyev
Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti
D.Sh.Hodiyeva
Toshkent shahar Chilonzor tuman 162-maktab

Annotatsiya. *Ushbu maqola o‘quvchilarni kitob o‘qishga jalb qilishning konseptual, psixologik, pedagogik va ijtimoiy mexanizmlarini chuqur tahlil qiladi. Tadqiqotda o‘quvchilarning o‘qish motivatsiyasi, oilaviy va maktab muhitining ta’siri, zamonaviy raqamli vositalarning o‘qish madaniyatiga ko‘rsatadigan ta’siri, shuningdek, o‘quv dasturlari, kutubxona siyosati va o‘qituvchining yetakchi roli ilmiy asosda yoritiladi. Maqolada dunyo tajribasi, ilmiy konsepsiyalar va mahalliy amaliyot sintez qilingan holda, o‘quvchilarda kitobxonlik ko‘nikmasini shakllantirishning samarali strategiyalari taklif etiladi.*

Kalit so‘zlar: *kitobxonlik, o‘qish motivatsiyasi, ta’lim strategiyalari, maktab kutubxonasi, raqamli o‘qish, o‘quvchi psixologiyasi, o‘qituvchi roli.*

O‘quvchilarning kitob o‘qish madaniyatini shakllantirish nafaqat ta’lim sifati, balki jamiyatning intellektual salohiyati, iqtisodiy rivojlanish sur’atlari va madaniy taraqqiyoti bilan uzviy bog‘liq. XXI asrda bilimning asosiy manbalari juda ko‘paygan bo‘lsa-da, chuqur o‘qish — ya’ni matnni anglash, tahlil qilish va interpretatsiya qilish — hanuzgacha inson tafakkurining eng muhim tayanchi bo‘lib

qolmoqda. Shu bois o‘quvchilarni kitob o‘qishga jalb qilish masalasi global ta’lim tizimlarining markazida turadi.

Maqola o‘quvchilarda kitobxonlikni rag‘batlantirish jarayonining turli jihatlarini ilmiy-nazariy nuqtayi nazardan yoritib beradi. Jarayonning murakkabligini inobatga olgan holda, unda psixologik mexanizmlar, ijtimoiy sharoit, motivatsiya modeli, kutubxona infratuzilmasi, zamonaviy didaktik metodlar va raqamli muhitning o‘rni keng qamrovda tahlil qilinadi.

I. O‘QUVCHILARDA KITOB O‘QISHGA BO‘LGAN MUNOSABATNING PSIXOLOGIK ASOSLARI

1.1. O‘qish motivatsiyasining tabiati va uning shakllanish mexanizmlari

O‘qish motivatsiyasi — o‘quvchining kitob o‘qishga bo‘lgan ichki ehtiyoji va tashqi rag‘batlarning o‘zaro uyg‘unlashgan tizimi. Motivatsiya uch asosiy omil bilan belgilanadi:

1. **Ichki motivatsiya.**

Bu o‘quvchining matndan zavq olishi, bilimga qiziqishi, mazmunni o‘zi uchun qadrli deb bilishi bilan bog‘liq. Ichki motivatsiya o‘qish barqarorligining asosiy kafolatidir.

2. **Tashqi motivatsiya.**

Bunga o‘qituvchi bahosi, ota-ona talabi, sinfdoshlarning ta’siri, musobaqalar yoki sovrinlar kiradi. Tashqi motivatsiya o‘qishni boshlashga turtki beradi, ammo uni mustahkamlash uchun ichki qiziqish shakllanishi zarur.

3. **Ijtimoiy-madaniy motivatsiya.**

Bu jamiyatdagi kitobxonlik nufuzi, oila ichidagi o‘qish an’analari, ommaviy axborot vositalarining ta’siri bilan belgilanadi. Agar uyda o‘qiydigan kattalar ko‘p bo‘lsa, bola o‘qishni tabiiy jarayon sifatida qabul qiladi.

Psixologik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, o‘qishga bo‘lgan ehtiyoj bola 5–7 yosh oralig‘ida shakllanadi. Shu bois boshlang‘ich ta’lim davri o‘qish madaniyatining eng nozik va hal qiluvchi bosqichidir.

1.2. Kognitiv jarayonlarning o‘qishdagi roli

Kitob o‘qish — bu faqat matnni ko‘zdan kechirish emas. U quyidagi kognitiv jarayonlar bilan chambarchas bog‘liq:

- diqqatni jamlash,
- xotira faolligi,
- mantiqiy fikrlash,
- tasavvur qilish,
- tahlil va sintez qilish qobiliyatlari.

O‘quvchilarda diqqatning tarqoqligi o‘qish samaradorligini keskin pasaytiradi. Shu bois o‘qishni qisqa segmentlarga bo‘lib o‘qitish, matn ustida savol-javob qilish va vizual qo‘llab-quvvatlash mexanizmlaridan foydalanish o‘ta samarali hisoblanadi.

1.3. Emotsional-intellektual omillar

O‘quvchi kitob o‘qiyotganda unda quyidagi emotsional jihatlar faollashadi:

- qahramonlarga hamdardlik,
- syujetga qiziqish,
- muammoga ruhiy javob,
- o‘zini qahramon o‘rniga qo‘yish.

Bu jarayonlar orqali o‘quvchi nafaqat bilim, balki emotsional tajriba ham oladi. Shuning uchun adabiy asarlarni yoshga mos tanlash o‘qishga jalb etishning eng muhim shartlaridan biridir.

II. OILA MUHITI VA KITOB O‘QISH TARBIYASI

2.1. Oila — o‘qish madaniyatining birlamchi maktabi

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, kitob o‘qiydigan oilada voyaga yetgan bolalarning 78–84 foizi mustaqil o‘quvchi bo‘lib shakllanadi. Buning bir necha sababi bor:

- uy sharoitida kitobning mavjudligi,
- ota-onaning o‘qish odatini namuna sifatida ko‘rsatishi,
- uyda muntazam ravishda o‘qish muhitining bo‘lishi,
- bolaga yoshiga mos adabiyotlar xarid qilinishi.

Bunda ota-ona faqat kuzatuvchi emas, balki faol ishtirokchi bo‘lishi lozim.

2.2. Oilada qo‘llaniladigan samarali strategiyalar

Quyidagi amaliy strategiyalar ilmiy jihatdan tasdiqlangan:

1. **Birgalikda ovoz chiqarib o‘qish.**

Bu bola uchun o‘qish jarayonini erta yoshdan boshlab qiziqarli qiladi.

2. **Uyda kichik kutubxona tashkil etish.**

Kitoblarning ko‘rinarli joyda bo‘lishi bolaning ularga murojaat qilish ehtimolini oshiradi.

3. **O‘qilgan asarlar haqida suhbatlashish.**

Bu tahliliy fikrlash va matnni talqin qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

4. **Oilaviy “o‘qish soati”.**

Har kuni bir vaqtning o‘zida barcha a’zolar 20–30 daqiqa davomida o‘qish bilan shug‘ullanishadi.

5. **Kitob tanlashda bolaga mustaqillik berish.**

Majburiy tanlov ichki motivatsiyani pasaytiradi; erkin tanlov esa o‘qishga qiziqishni oshiradi.

III. MAKTAB MUHITI VA O‘QISH MADANIYATINING SHAKLLANTIRILISHI

3.1. O‘qituvchining yetakchi roli

O‘qituvchi o‘quvchilarni kitob o‘qishga undovchi eng muhim shaxsiy va professional omildir. U quyidagi funksiyalarni bajaradi:

- mazmunni tushuntiradi,
- motivatsiya beradi,
- tavsiya qiladi,
- o‘quvchini tahlilga yo‘naltiradi,
- o‘qish jarayonini nazorat qiladi.

O‘qituvchi qanchalik kitobxon bo‘lsa, shuncha ko‘p o‘quvchi o‘qishga jalb etiladi. Shu bois pedagogning o‘zi muntazam ravishda badiiy va ilmiy adabiyotlar o‘qib borishi muhim.

3.2. Dars jarayonida qo‘llaniladigan o‘qish strategiyalari

Maktabda o‘quvchilarning o‘qishga qiziqishini oshirish uchun quyidagi metodlar samaralidir:

- faol o‘qish usullari (klaster, insert, fikr xaritalari),
- rolli o‘qish,
- munozara asosidagi o‘qish,
- differensial yondashuv,
- kichik guruhlarda tahlil,
- “ochiq savollar” texnikasi.

Ushbu metodlar o‘qishni passiv jarayondan ijodiy va interaktiv jarayonga aylantiradi.

3.3. Maktab kutubxonasining transformatsiyasi va zamonaviy modeli

Maktab kutubxonasi o‘quvchilarning kitob o‘qishga bo‘lgan qiziqishini kuchaytiruvchi strategik markazdir. Hozirgi zamonda kutubxona faqat kitob saqlanadigan joy emas, balki ta’lim, axborot va ijodiy faoliyatning integratsiyalashgan maydoniga aylanmoqda. Zamonaviy kutubxona modeli quyidagi elementlarga ega bo‘lishi zarur:

1. **O‘quvchi markaziga yo‘naltirilgan xizmatlar.**
   - Yoshi, qiziqishi, darajasi bo‘yicha mos kitoblar tavsiya qilinishi.
   - O‘quvchi bilan individual ishlash.
2. **Raqamli resurslar integratsiyasi.**
   - E-kitoblar, audiokitoblar, interaktiv materiallar.
   - Qidiruv bazalari va elektron kataloglar.
3. **Multimedia va loyihaviy maydonlar.**
   - Kinouzunlar, taqdimot zonalari, muhokama burchaklari.
   - “O‘qish klublari” uchun maxsus xona.
4. **Kutubxonachi–pedagog modeli.**

Zamonaviy kutubxonachi:

- O‘quvchilarga maslahat beruvchi,
- o‘qish bo‘yicha yo‘naltiruvchi,

- axborot madaniyati bo‘yicha trener vazifasini bajaradi.

Shu kabi integratsion yondashuvlar kutubxonani o‘qish madaniyatining markaziga aylantiradi.

3.4. Maktabda o‘qish bo‘yicha motivatsion dasturlar

Ta’lim muassasasida o‘quvchilarni kitob o‘qishga jalb qilish uchun maxsus loyihalar boshlanishi maqsadga muvofiq. Quyida dunyo tajribasiga tayanilgan samarali modellar keltiriladi:

1. **“30 daqiqa o‘qish” dasturi.**

Har kuni bir dars soatini boshlashdan oldin sinf 30 daqiqa davomida mustaqil o‘qiydi. O‘qituvchi ham ular bilan birga o‘qiydi.

2. **“Yilning eng faol kitobxoni” tanlovi.**

O‘quvchilar o‘rtasida sog‘lom raqobat shakllantiradi, lekin baholash shaffof mezonlar asosida o‘tkazilishi kerak.

3. **Maktab bo‘ylab “Bibliotour”.**

Har sinf o‘zining o‘qigan kitoblari bo‘yicha ko‘rgazma tashkil qiladi.

4. **Yozuvchi bilan uchrashuvlar.**

Taniqli adiblar, tarjimonlar, shoirlar bilan muntazam uchrashuvlar o‘quvchilarda kitobga nisbatan hissiy qiziqishni kuchaytiradi.

5. **O‘quvchilar blogi yoki gazetasi.**

O‘qilgan kitoblar bo‘yicha sharhlar, taassurotlar, muhokamalar yoziladigan maktab noshirligi.

IV. O‘QUVCHINING O‘ZI: INDIVIDUAL O‘QISH STRATEGIYALARI

4.1. Mustaqil o‘quvchi modeli

Mustaqil o‘quvchi — bu:

- kitobni o‘zi tanlay oladigan,
- o‘qishni rejalashtira oladigan,
- tahlil, umumlashtirish va izohlay olish qobiliyatiga ega bo‘lgan,
- o‘qish orqali o‘zini rivojlantirishga qodir shaxsdir.

Bunda quyidagi ko‘nikmalar birinchi o‘rinda turadi:

1. **Matnni tushunish.**
2. **O‘qish strategiyalaridan ongli foydalanish.**
3. **Matn bo‘yicha savol yaratish.**
4. **O‘qilgan ma’lumotni hayotga tatbiq etish.**

4.2. O‘qish strategiyalari: reflektsiv, analitik va tanqidiy yondashuv

O‘quvchi quyidagi usullardan foydalanishni o‘rganishi zarur:

1. **Previewing (matnni oldindan tahlil qilish).**

Sarlavha, bo‘lim, rasm, diagramma orqali matnni taxmin qilish.

2. **Annotatsiya qilish.**

Muayyan joylarni belgilash, izoh qo‘yish.

3. **INSERT strategiyasi.**

V – bilganim,

○ – yangi ma’lumot,

– – qarama-qarshi,

? – tushunarsiz.

4. **“Savol-javob yaratish” usuli.**

O‘quvchi matndan keyingi savollarni o‘zi shakllantiradi.

5. **“Mental map” — fikr xaritalari.**

Asosiy g‘oyalar vizual tarzda ifodalanadi.

4.3. O‘quvchi uchun shaxsiy o‘qish rejasi

Samarali o‘qish rejasida quyidagilar bo‘ladi:

- haftalik o‘qish maqsadi,
- o‘qish vaqtining aniq taqsimoti,
- o‘qiladigan kitoblar ro‘yxati,
- har kitob bo‘yicha qisqa yakuniy tahlil.

Bunday reja o‘quvchini tartib-intizomga o‘rgatadi.

V. RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA KITOB O‘QISH MADANIYATI

5.1. Raqamli o‘qishning afzalliklari

Zamonaviy o‘quvchilarning axborotni qabul qilish uslubi o‘zgargan. Raqamli vositalarning ijobiy jihatlari:

- ko‘plab kitoblarga tezkor kirish,
- matnni kattalashtirish, lug‘at bilan birga ishlash,
- audiokitoblar orqali tinglab o‘qish,
- qidiruv tizimi orqali tezkor ma’lumot topish.

5.2. Raqamli vositalar bilan bog‘liq xavflar

- Chalg‘ituvchi omillar ko‘pligi.
- Ekranga qarab o‘qishda diqqatning pasayishi.
- Matnni yuzaki skanerlash tendensiyasi.
- Unda chuqur mantiqiy bog‘lanish yo‘qolishi.

Shu sabab raqamli o‘qishni muvozanatli tarzda boshqarish zarur.

5.3. Raqamli platformalar yordamida o‘qishga jalb etish

Samarali platformalarga misollar:

- **Google Books**,
- **LibriVox**,
- **Storytel**,
- **Z-Library**,
- **Project Gutenberg**.

Shuningdek, maktabning o‘ziga xos elektron kutubxonasi bo‘lishi juda muhim.

VI. JAMOAT, MAHALLA VA DAVLAT ROLI

6.1. Jamoat kutubxonalarining strategik o‘rni

Jamoat kutubxonasi:

- bepul axborot maydoni,
- o‘quvchilar uchun ekologik xavfsiz madaniy makon,
- o‘qish klublarining markazi,
- kitob targ‘iboti uchun ijtimoiy platforma sifatida xizmat qiladi.

6.2. Mahalla institutining ta’siri

Mahalla quyidagilarni amalga oshirishi mumkin:

- bolalar uchun haftalik o‘qish marafonlari,
- “Mahalla kitobxonlari klubi”,
- yoshlar uchun adabiy uchrashuvlar,
- kitob sovg‘a aksiyalari.

6.3. Davlat siyosati

Samarali davlat strategiyalari:

- kitob narxlarining barqarorligini ta’minlash,
- noshirlikni qo‘llab-quvvatlash,
- kutubxonalarga grantlar ajratish,
- kitobxonlik bo‘yicha milliy dasturlar yaratish.

VII. XULOSA

O‘quvchilarni kitob o‘qishga jalb etish — kompleks, ko‘p qatlamli, psixologik, pedagogik va ijtimoiy omillarga tayanadigan tizimdir. Oila, maktab, kutubxona, davlat va jamiyatning har bir bo‘g‘ini o‘z funksiyasini bajarishi kerak.

Shunda jamiyatda mutolaa madaniyati shakllanadi, intellektual rivojlanish kuchayadi, ta’lim sifati yuqori darajaga ko‘tariladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. **Mirziyoyev Sh. M.** Yangi O‘zbekiston strategiyasi. — Toshkent: **O‘zbekiston**, 2021. — 464 b.
2. **Karimov I. A.** Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. — Toshkent: **Ma’naviyat**, 2008. — 176 b.
3. **Yo‘ldoshev J. G‘.** Pedagogik texnologiyalar asoslari. — Toshkent: **O‘qituvchi**, 2018. — 256 b.
4. **Saidahmedov N. S.** Zamonaviy pedagogik texnologiyalar. — Toshkent: **Fan va texnologiya**, 2019. — 312 b.
5. **Qodirova F. R.** Boshlang‘ich ta’limda o‘qish savodxonligini shakllantirish. — Toshkent: **TDPU nashriyoti**, 2017. — 184 b.

6. **Ismoilova Z. K.** O‘quvchilarda mustaqil o‘qish ko‘nikmalarini rivojlantirish. — Toshkent: **Fan**, 2016. — 168 b.
7. **Hasanboyeva O.**, **To‘raqulov X.** Pedagogika nazariyasi va amaliyoti. — Toshkent: **O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati**, 2015. — 348 b.
8. **Mahmudov M.** Kitobxonlik madaniyati va ta’lim. — Toshkent: **Ma’rifat**, 2020. — 192 b.
9. **O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti.** Kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish to‘g‘risida: qaror. — Toshkent, 2017.
10. **Abduqodirov A. A.** Axborot texnologiyalari va ta’lim jarayoni. — Toshkent: **Fan**, 2018. — 240 b.
11. **Guthrie J. T.**, **Wigfield A.** Motivation for Reading // **Reading Research Quarterly**. — 2000. — Vol. 35, No. 3. — P. 403–422.
12. **Vygotsky L. S.** Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. — Cambridge: **Harvard University Press**, 1978. — 159 p.
13. **Piaget J.** The Psychology of Intelligence. — London: **Routledge**, 2001. — 182 p.
14. **Krashen S.** The Power of Reading: Insights from the Research. — Portsmouth: **Heinemann**, 2004. — 176 p.
15. **Rosenblatt L. M.** The Reader, the Text, the Poem: The Transactional Theory of the Literary Work. — Carbondale: **Southern Illinois University Press**, 1994. — 304 p.
16. **Organisation for Economic Co-operation and Development (OECD).** PISA 2018 Results: What Students Know and Can Do. — Paris: **OECD Publishing**, 2019. — 352 p.
17. **Organisation for Economic Co-operation and Development (OECD).** Reading for Change: Performance and Engagement Across Countries. — Paris: **OECD Publishing**, 2002. — 261 p.
18. **Wolf M.** Proust and the Squid: The Story and Science of the Reading Brain. — New York: **HarperCollins**, 2007. — 337 p.

19. **Clark C.**, **Rumbold K.** Reading for Pleasure: A Research Overview. — London: **National Literacy Trust**, 2006. — 35 p.
20. **Cullinan B.** Independent Reading and School Achievement // **School Library Media Research**. — 2000. — Vol. 3. — P. 1–24.
21. **UNESCO.** Reading Promotion and Literacy Development.
22. **Project Gutenberg.** Digital Library.
23. **Google Books.** Research Resources.
24. **LibriVox.** Audiobook Platform.
25. **International Federation of Library Associations (IFLA).** Materials.

BOSHLANG'ICH TA’LIMDA MASSA O'LCHOV BIRLIGINI O'QITISHDAGI AYRIM MUAMMOLAR

Ibodov Abror Qiyomiddin o’g’li
Toshkent kimyo xalqaro universiteti Samarqand filiali

Annotatsiya. *Maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarini massa (gramm, kilogramm, sentner, tonna) birliklari bilan ishlashga o'rgatish metodikasi masalalari ko'rib chiqiladi. Boshlang'ich maktab o'quvchilari tomonidan ushbu materialni o'zlashtirishdagi qiyinchiliklar tahlil qilinadi. Ularning massasi va sig'imini o'lchash, vizualizatsiyadan foydalangan holda tegishli amaliy malaka va ko'nikmalarni rivojlantirish bo'yicha dastlabki g'oyalarni shakllantirish usullari ochib berilgan.*

Kalit so'zlar: *Pedagogik texnologiyalar, boshlang'ich sinflar, og'irlik o'lchovi matematikani o'qitish metodikasi, o'lchov birliklari, massa, sig'im.*

Kirish

Bugungi kunda mustaqil taraqqiyot yo‘lidan borayotgan mamlakatimizning uzluksiz ta’lim tizimini isloh qilish va takomillashtirish, yangi sifat bosqichiga ko‘tarish, unga ilg‘or pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy qilish hamda samaradorligini oshirish davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Fanda texnika va ilg‘or texnologiya yutuqlaridan foydalangan holda yosh avlodga ta’lim va tarbiya berishning maqsad, mazmun, uslub va vositalarini ilmiy jihatdan ta’minlash dolzarb muammolarning biri hisoblangan.

2017- yilga kelib davlatimizning barcha sohalarida yangi davr boshlandi, shu qatori ta’lim sohasida ham yangi islohatlar kiritildi. Bugungi kunda ta’lim ma’zmunini yangilash, takomillashtirish o’qitish samaradorligini va o’qituvchilarning kasbiy mahoratini oshirish, ilg’or pedagogik tajribalarni keng ommalashtirish bo’yicha ham ancha ishlar amalga oshirilmoqda.

2017-yil 15- martdagi “Umumiy o’rta ta’lim to’g’risidagi nizomni tasdiqlash haqida” gi 140-sonli qaror, O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi “Umumiy o’rta ta’lim va o’rta maxsus, kasb hunar ta’limining davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to’g’risida” gi 187-sonli qarori bilan kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan umumta’lim fanlari bo’yicha “Davlat ta’lim standarti” tasdiqlandi[1]

Yosh avlodning har tomonlama yetuk, bilimli, yuksak ma‘naviyatli, barkamol, vatanparvar shaxslar bo‘lib yetishishini ta‘minlash yo‘lida amalga oshirilayotgan ulkan bunyodkorlik ishlarining eng asosiy bo‘g‘ini sifatida pedagogik xodimlarning yuqori ilmiy, metodik bilimlarga hamda amaliy ishlash bo‘yicha yuksak mahoratga ega bo‘lishlarini ta‘minlash yuzasidan zarur chora–tadbirlarni amalga oshirish hisoblanadi[2]

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

An'anaviy ta'lim metodlari ko'pincha og'irlik o'lchovlarini o'rgatishda nazariy ma'lumotlarni berish va formulalarni yodlatishga urg'u beradi. Ushbu yondashuv o'quvchilarning mavzuga bo'lgan qiziqishini pasaytiradi. O'lchov birliklari, ularning

o'zaro aloqalari va real hayotdagi qo'llanilishi haqidagi tushunchalar amaliy tajribasiz qiyin o'zlashtiriladi. Natijada, o'quvchilar og'irlik o'lchovlarini faqatgina darslikdagi raqamlar yig'indisi sifatida qabul qilib, ularning kundalik hayotdagi ahamiyatini tushunmasliklari mumkin.

Miqdorlar va ularning o‘lchov birliklari bilan tanishuv nafaqat amaliy ahamiyatga mashq, ayni vaqtda u o‘quvchilarda hayotiy muammolarni ko‘ra bilish imkoniyatini shakllantirish va shu bilan ularning bilishga qiziqish ishtiyoqini rivojlantirishga imkon beradi[3]. Boshlang‘ich sinfda o’quvchilarga uzunlik, sig‘im, massa, yuza, vaqt haqida dastlabki tasavvurlar beriladi. Har bir miqdorni o‘rganish uslubiyatining o‘ziga xos xususiyatlari mavjud bo‘lsada, biroq narsa yoki hodisaning xossalarini o‘rganishga umumiy yondashish miqdorlarni o‘rganishning umumiy uslubiyati haqida chiniqish imkonini beradi. Bu uslubiyat asosida amaliy usul yotadi. Narsalar bilan ishlash asosida aniq hissiy qabul qilish qobiliyatiga tayanib, kichik yoshdagi maktab o‘quvchilarini miqdorlar uchun umumiy bo‘lgan xossalar bilan tanishtirish[3].

TADQIQOT NATIJALARI BO’YICHA

Boshlang’ich sinflarda miqdorlar, ayniqsa, sig’im va hajmni o’rganish jarayonida ayrim qiyinchiliklar bo’lishi mumkin. Chunki, bu mavzuga darslikda kam e’tibor berilgan, mashqlar juda kam. Mavzuni mukammalroq o’rganishga mo’ljallangan ilmiy-uslubiy ta’limot yetarli emas. Boshlang’ich sinf o’qituvchilari uchun, o’quvchilar uchun, sig’im va hajm mavzusini o’rganish bo’yicha qiziqishni orttirishga mo’ljallangan, barcha uzluksiz ta’lim talablariga javob bera oladigan, tenglash imkonini beradigan metodika ishlab chiqilmaganligi sababli, biz ushbu ishimiz orqali biroz ijobiy harakatlar qilishga erishdik, deb o’ylaymiz. Kuzatishlar natijalariga ko'ra, mavzuni o'zlashtirishning asosiy qiyinchiliklari quyidagilar bilan bog'liq:

1. Miqdorlarning umumlashtirilgan g'oyasini yetarli darajada tushunmaslik. Masalan, o’quvchilar massa, hajm, harorat kabi qiymatlarni chalkashtirib yuborishadi. 2. Massa va sig'im birliklarini aralashtirish. Obyektlar va o'lchov birliklarini o'zaro bog'lash

bo'yicha vazifalarni bajarish jarayonida bolalarning atigi 56 foizi vazifani xatosiz to'liq bajardilar (1-jadval). **Jadval 1. Obyektlar va o'lchov birliklarining o'zaro bog'liqligi bo'yicha topshiriq natijalari:**

Predmet	O'lchov birligi	To'g'ri javoblar %
Bir shisha suv	Litr	65
Bir yashik olma	Kilogramm	46
Bir chelak sut	Litr	74
Bir qop un	Kilogramm	79

3.Asboblardan foydalangan holda qiymatlarni amaliy o'lchashdagi qiyinchiliklar - tarozilar, stakan va boshqalar. Massa va sig'im birliklari bilan ishlashda o'quvchilarning odatiy xatolarini tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, eng katta qiyinchiliklar obyektlarning xususiyatlari sifatida miqdorlar haqidagi umumlashtirilgan g'oyalarni yetarli darajada tushunmaslik bilan bog'liq.

Masalan, bolalarning faqat bir qismi vazifalarni bajarishda massa, hajm, harorat kabi qiymatlarni ajrata olishdi.

Yana bir keng tarqalgan muammo-massa birliklarini (kilogramm, gramm va boshqalar) va sig'imni (litr) aralashtirish. Muayyan obyektlarning xususiyatlarini (bir yashik olma, sut idishi, bir qop un va boshqalar) tegishli o'lchov birliklari bilan o'zaro bog'lash uchun testlarni o'tkazishda to'g'ri javoblarning ulushi mavzuga qarab atigi 46-79% ni tashkil etdi.

Aniqlangan qiyinchiliklarni bartaraf etish uchun massa va sig'im birliklari mavzusini o'qitishning quyidagi metodologiyasi taklif qilinishi mumkin:

1. Bir xil obyektlarni miqdoriy va sifat xususiyatlariga ko'ra taqqoslash va solishtirish asosida bolalarda miqdorlar to'g'risida bilimlarni shakllantirish.

2.Predmetlar va oddiy taroz bilan amaliy harakatlar orqali har bir o'lchov birligi (gramm, kilogramm, litr va boshqalar) bilan bosqichma-bosqich tanishish.

3.O'lchov birliklarini bir-biri bilan taqqoslash va qiymatlarni bir birlikdan boshqasiga o'tkazish uchun o'quvchilar virtual tarozida turli narsalarning og'irligini tortishlari, ularni solishtirishlari va natijalarni raqamli tarzda qayd etishlari mumkin. Maxsus-amaliy faoliyatga asoslangan bunday kompleks yondashuv boshlang'ich sinfda ushbu mavzuni o'zlashtirish jarayonini optimallashtirishi mumkin.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'lchov birliklari bilan ishlash bo'yicha bilim va ko'nikmalarni shakllantirishning samarali metodologiyasi keng qamrovli fanlararo integratsiyaga ega bo'lishi kerak, shu jumladan matematika, texnologiya, atrofdagi dunyo bo'yicha muvofiqlashtirilgan ta'lim. Belgilangan yondashuvni amalga oshirish boshlang'ich maktabda ushbu mavzuni o'qitish sifatini oshiradi.

Taklif etilayotgan metodologiyani kompleks yondashuv asosida amalga oshirish, qiymatlarni taqqoslash ko'nikmalarini rivojlantirish boshlang'ich sinflarda massa va sig'im birliklari bilan ishlashni o'rganish jarayonini optimallashtirishga imkon beradi. Keyingi tadqiqotlar belgilangan metodologiyani qo'llab-quvvatlaydigan didaktik materiallar tizimini ishlab chiqishga qaratilgan bo'lishi mumkin.

Maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarini massa va sig'im o'lchov birliklariga o'rgatish jarayonida asosiy muammoli nuqtalar quyidagilardir: miqdorlarni umumiy tushunishning yetarli emasligi, turli o'lchov birliklarining aralashishi, obyektlarning xususiyatlarini amaliy o'lchashdagi qiyinchiliklar. Ushbu mavzuni o'rganish uchun o’quvchilarning aniq-amaliy faoliyati, har bir o'lchov birligini oddiydan murakkabgacha bosqichma-bosqich o'zlashtirishga asoslangan metodologiyani yaratish tavsiya etiladi.

Darslarda o‘quvchilarning mustaqil ishlashini tashkil qilish, o‘quv fani samaradorligini oshiradi, o‘quvchilarni bilim, ko‘nikma va malakasini rivojlantiradi, ularning individual va intellektual salohiyatini kuchayishiga xizmat qiladi. Hozirgi kunda ta‘lim sifatini jahon andozalari darajasiga yetkazish, ta‘lim tizimining eng muhim muammolaridan biri.

Bo‘lajak pedagoglar uchun zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan chuqur bilimga ega bo‘lishi juda muhimdir. Bu muammoni hal

etish yo‘llaridan biri – o‘qitish jarayonida ko‘proq interfaol usullardan foydalanishdan iborat. Bu metod o‘quvchilarni faollashishigagina emas, balki mantiqiy, aqliy, ijodiy, tanqidiy, mustaqil fikrlashini shakllantirishga imkon yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. **Davlat ta’lim standarti.** O‘zbekiston. – 2017.
2. **Jumayev E. E.** Boshlang‘ich matematika nazariyasi va metodikasi. – Turon–Iqbol, 2012.
3. **Jumayev M. E.** Bolalarda matematika tushunchalarni shakllantirish nazariyasi. – Ilm-Ziyo, 2005.

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNI QO‘LLASH MUAMMOLARI VA YECHIMLARI

Ibrogimova Dilrabo

Osiyo xalqaro universiteti

Annotatsiya . *Mazkur tezis XXI asr ilm-fan va ta ʼ lim taraqqiyoti sharoitida boshlang ʻich sinflarda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo ʻllashning ilmiy-nazariy va amaliy jihatlariga bag ʻishlangan. Unda boshlang ʻich ta ʼ lim jarayonida innovatsion metodlar, interfaol yondashuvlar hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish orqali o ʻquvchilarning bilish faolligi, mustaqil fikrlashi va kompetensiyalarini rivojlantirish masalalari*

yoritilgan. Shuningdek, ta ʼ lim jarayonida uchraydigan muammolar tahlil qilinib, ularni bartaraf etishga qaratilgan ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: *boshlang‘ich ta’lim, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, innovatsion yondashuv, interfaol metodlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, ta’lim sifati.*

Kirish

Bugungi kunda ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, uni xalqaro standartlar asosida rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, boshlang‘ich ta’lim bosqichi o‘quvchilarning shaxs sifatida shakllanishi, bilim olishga bo‘lgan munosabati va o‘qishga qiziqishini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois boshlang‘ich sinflarda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish masalasi dolzarb ilmiy-pedagogik muammo sifatida namoyon bo‘lmoqda.

XXI asrda axborot oqimining keskin ortishi, raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi ta’lim jarayoniga yangicha yondashuvlarni talab etadi. An’anaviy ta’lim shakllari o‘quvchilarning barcha ehtiyojlarini qondira olmayotgan bir sharoitda, innovatsion va interfaol metodlarni qo‘llash ta’lim samaradorligini oshirishning muhim omiliga aylanmoqdaSo‘nggi yillarda ta’lim tizimida olib borilayotgan islohotlar boshlang‘ich ta’lim mazmunini tubdan yangilashni taqozo etmoqda. Ta’lim jarayonida natijaga yo‘naltirilgan yondashuvni amalga oshirish, o‘quvchilarning hayotiy kompetensiyalarini shakllantirish hamda ularni mustaqil fikrlaydigan shaxs sifatida tarbiyalash zamonaviy pedagogikaning ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Shu jihatdan, boshlang‘ich sinflarda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish ta’lim samaradorligini oshirishning muhim omili sifatida namoyon bo‘lmoqda. Boshlang‘ich ta’limda qo‘llanilayotgan zamonaviy pedagogik texnologiyalar o‘quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish, ularning o‘qishga bo‘lgan ichki motivatsiyasini kuchaytirish va bilimlarni ongli o‘zlashtirishga xizmat qiladi. Ta’lim jarayonida interfaol va

innovatsion metodlardan foydalanish orqali o‘quvchilar faqat bilim oluvchi emas, balki ta’lim jarayonining faol subyekti sifatida shakllanadi. Bu esa ta’lim jarayonining sifat jihatdan yangi bosqichga ko‘tarilishiga zamin yaratadi..

Asosiy qism

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar ta’lim jarayonini oldindan loyihalash, natijaga yo‘naltirilgan faoliyatni tashkil etish hamda o‘quvchi shaxsiga yo‘naltirilgan yondashuvni amalga oshirishni nazarda tutadi. Boshlang‘ich sinflarda bunday texnologiyalarni qo‘llash o‘quvchilarning darsdagi faolligini oshiradi, bilimlarni mustahkam o‘zlashtirishga yordam beradi va ijodiy fikrlashni rivojlantiradi.

Amaliyotda “Aqliy hujum”, “Klaster”, “B-B-B”, “Insert”, “Muammoli ta’lim”, “Rol o‘ynash” kabi interfaol metodlar keng qo‘llanilib, ular orqali o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi, muloqot madaniyati va hamkorlikda ishlash ko‘nikmalari shakllantiriladi. Shuningdek, AKT vositalari – elektron darsliklar, taqdimotlar, interaktiv doskalar va raqamli platformalardan foydalanish dars jarayonini yanada qiziqarli va samarali qiladi.

Biroq zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etishda ayrim muammolar mavjud. Jumladan, o‘qituvchilarning innovatsion faoliyatga tayyorgarlik darajasi yetarli emasligi, texnik ta’minotdagi kamchiliklar, dars vaqtining cheklanganligi hamda sinfdagi o‘quvchilar sonining ko‘pligi kabi omillar ta’lim samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Boshlang‘ich sinflarda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash jarayoni o‘quvchilarning psixologik va yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil etilishi zarur. Mazkur bosqichdagi o‘quvchilar uchun ko‘rgazmalilik, o‘yin elementlari va faoliyatga yo‘naltirilgan topshiriqlar muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli zamonaviy pedagogik texnologiyalar dars jarayonida o‘yinli texnologiyalar, muammoli vaziyatlar va ijodiy topshiriqlar bilan uyg‘unlashtirilgan holda qo‘llanilishi lozim. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarning samaradorligi ularni tizimli va maqsadga muvofiq

qo‘llash bilan bevosita bog‘liq. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi darsni loyihalash jarayonida o‘quvchilarning individual imkoniyatlarini, qiziqishlarini va tayyorgarlik darajasini hisobga olgan holda metod va vositalarni tanlashi zarur. Bunday yondashuv o‘quvchilarning o‘z imkoniyatlarini namoyon etishiga, bilimlarni mustaqil egallashiga va o‘zlashtirish darajasining oshishiga xizmat qiladi. Shuningdek, zamonaviy pedagogik texnologiyalar ta’lim jarayonida teskari aloqani samarali tashkil etish imkonini beradi. O‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini muntazam monitoring qilish, ularning o‘zlashtirish darajasini baholash va natijalar asosida ta’lim jarayonini takomillashtirish boshlang‘ich ta’lim samaradorligini oshirishning muhim sharti hisoblanadi.

Muammolarni bartaraf etish yo ‘llari

Mazkur muammolarni bartaraf etish uchun, avvalo, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini oshirishga qaratilgan malaka oshirish kurslari va amaliy seminarlarni tizimli tashkil etish zarur. Shuningdek, ta’lim muassasalarini zamonaviy texnik vositalar bilan ta’minlash, raqamli ta’lim resurslaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish muhim ahamiyatga ega.

Ta’lim jarayonini o‘quvchi shaxsiga yo‘naltirilgan holda tashkil etish, individual yondashuvni ta’minlash va ilg‘or pedagogik tajribalarni ommalashtirish zamonaviy ta’lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Boshlang‘ich ta’lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish jarayonida yuzaga keladigan muammolarni bartaraf etish tizimli va bosqichma-bosqich yondashuvni talab etadi. Avvalo, o‘qituvchilarning innovatsion faoliyatga tayyorgarligini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Buning uchun doimiy malaka oshirish kurslari, amaliy seminar-treninglar va tajriba almashish platformalarini tashkil etish zarur. Ushbu jarayon o‘qituvchilarning zamonaviy metodlarni amaliyotga joriy etish bo‘yicha kasbiy kompetensiyalarini rivojlantiradi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni samarali qo‘llashda uchraydigan muammolardan biri — o‘quvchilar tayyorgarlik

darajasining turlicha ekanligidir. Mazkur muammoni bartaraf etish uchun differensial va individual yondashuvdan foydalanish maqsadga muvofiqdir. O‘quvchilarning qobiliyati va o‘zlashtirish darajasiga mos topshiriqlar ishlab chiqish, kichik guruhlar bilan ishlash hamda moslashtirilgan ta’lim strategiyalarini qo‘llash orqali barcha o‘quvchilarning faol ishtiroki ta’minlanadi.Texnik va moddiy-texnik bazaning yetarli emasligi ham zamonaviy pedagogik texnologiyalarni to‘liq joriy etishga to‘sqinlik qiluvchi omillardan biridir. Ushbu muammoni hal etishda ta’lim muassasalarini bosqichma-bosqich zamonaviy texnik vositalar bilan jihozlash, raqamli ta’lim resurslaridan samarali foydalanish va mavjud vositalarni ta’lim jarayoniga moslashtirish muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, kam resursli sharoitlarda ham samarali bo‘lgan pedagogik texnologiyalarni tanlash va qo‘llash tavsiya etiladi. Baholash tizimining an’anaviy shakllarga asoslanganligi ham zamonaviy ta’lim talablariga to‘liq mos kelmasligi mumkin. Ushbu muammoni bartaraf etish uchun formatif baholash, o‘z-o‘zini baholash va refleksiya elementlarini joriy etish zarur. Bu esa o‘quvchilarning o‘z bilim va ko‘nikmalarini tahlil qilishiga, o‘z ustida ishlash ko‘nikmalarining shakllanishiga xizmat qiladi.

Shuningdek, ota-onalar bilan hamkorlikni kuchaytirish ham muammolarni bartaraf etishning samarali yo‘llaridan biridir. Ota-onalarning zamonaviy ta’lim yondashuvlari haqida xabardorligini oshirish, ularni ta’lim jarayoniga jalb etish orqali o‘quvchilarning o‘qishga bo‘lgan motivatsiyasi yanada kuchayadi. Natijada ta’lim jarayonining uzluksizligi va samaradorligi ta’minlanadi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, boshlang‘ich ta’lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash ta’lim sifati va samaradorligini oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Ushbu texnologiyalar o‘quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish, ularning mustaqil fikrlash, tahlil qilish va ijodiy yondashuv

ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Natijada ta’lim jarayoni o‘quvchi shaxsiga yo‘naltirilgan, maqsadga muvofiq va natijador tizim sifatida shakllanadi.

Tadqiqot davomida aniqlanganki, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni samarali joriy etish o‘qituvchining kasbiy kompetensiyasi, metodik tayyorgarligi va innovatsion faoliyatga bo‘lgan munosabati bilan chambarchas bog‘liqdir. Shuningdek, ta’lim jarayonini rejalashtirishda o‘quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olish, differensial yondashuvni qo‘llash ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bu omillar boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ta’lim jarayonida faol ishtirokini ta’minlaydi. Xulosa sifatida shuni ta’kidlash mumkinki, mavjud muammolarni tizimli ravishda bartaraf etish, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni maqsadli va uzluksiz qo‘llash orqali boshlang‘ich ta’limda barqaror natijalarga erishish mumkin. Mazkur yondashuv ta’lim jarayonining uzluksiz rivojlanishini ta’minlash bilan bir qatorda, raqobatbardosh, mustaqil va ijodkor shaxsni shakllantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. **O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti.** “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun. — Toshkent, 2020.
2. **O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti.** 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi. — Toshkent, 2022.
3. **Mirziyoyev Sh. M.** Yangi O‘zbekiston strategiyasi. — Toshkent: O‘zbekiston, 2021.
4. **Azizxo‘jayeva N. N.** Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. — Toshkent: TDPU, 2018.
5. **Ishmuhamedov R.**, **Abduqodirov A.**, **Pardaev A.** Ta’limda innovatsion texnologiyalar. — Toshkent: Iste’dod, 2019.
6. **Yo‘ldoshev J. G‘.**, **Usmonov S. A.** Pedagogik texnologiya asoslari. — Toshkent: O‘qituvchi, 2017.

7. **Sayidahmedov N.** Yangi pedagogik texnologiyalar. — Toshkent: Moliya, 2016.
8. **Xodjayev B. X.** Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.
9. **Klarin M. V.** Innovatsionnye pedagogicheskie texnologii. — Moskva: Pedagogika, 2018.
10. **Selevko G. K.** Sovremennye obrazovatel’nye texnologii. — Moskva: Narodnoe obrazovanie, 2019.
11. **Polat E. S.** Interaktivnye metody obucheniya v nachalnoy shkole. — Moskva, 2017.
12. **UNESCO.** Education 2030: Incheon Declaration and Framework for Action. — Paris, 2016.
13. **Organisation for Economic Co-operation and Development (OECD).** Innovating Education and Educating for Innovation. — Paris, 2018.
14. **TIMSS & PIRLS International Study Center.** Frameworks for Assessment. — Boston College, 2021.
15. **Vohidov R., Qodirova M.** Boshlang‘ich ta’limda innovatsion yondashuvlar. — Toshkent, 2020.

O‘QUVCHILARDA KINEMATIKADAN GRAFIKLI OLIMPIADA MASALALARNI YECHISH METODIKASINI SHAKLLANTIRISH

Jo‘rayev Farxod Isroilovich

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya: *Olimpiadalar haqida tushunchalar berilgan. Fizika olimpiadalariga tayyorlash metodikasi keltirilgan. Kinematikadan olimpiada masalasini yechish metodikasi keltirilgan.*

Kalit so‘zlar: *olimpiada, masala, tezlik, masofa, vaqt, funksiya, integral, grafik, didaktika.*

Kirish. Yosh avlodni mustaqil fikirli, zamonaviy bilim va kasb-hunarlarni egallagan, sog‘lom hayotiy pozitsiyaga ega chinakkam vatanparvar insonlar sifatida tarbiyalash ustoz va murabbiylarning asosiy vazifasidir. Fan va texnikaning hozirgi taraqqiyoti tabiiy va texnika sohalarida ko‘proq yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashni taqozo etadi. Fizika fanidan o‘quvchilarni oliy o‘quv yurtlariga, konkurslarga va olimpiadalarga tayyorlash jarayonlarini loyihalashtirishda ta’lim mazmuni, ta’lim maqsadi, kutilayotgan natijani to‘g‘ri belgilash, ta’lim metodlari, shakllari va vositalarini to‘g‘ri tanlash, o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini baholashni aniq mezonlarini oldindan ishlab chiqish, mashg‘ulotlarni amalga oshirish va bir-biri bilan uyg‘unlashuviga etiborni qaratish maqsadga muvofiqdir. Ta’limda fan olimpiadalari bo‘yicha erishgan yutuqlari ta’lim indikator sifatida qarash mumkin. Qaysi hududda olimpiada olimpiada g‘oliblari nisbatan ko‘proq bo‘lsa shu hududda ta’lim sifati yaxshiroq deb xulosa chiqarish mumkin. Olimpiada - intellektual musobaqa hisoblanadi.

Olimpiadalarning maqsadi:

- Fizika fanidan o‘quvchilarning bilimi sifati va darajasini baholash;

-fizika fanidan salohiyatli va iqtidorli o‘quvchilarni qo‘llab-quvvatlash, ularga bilimlarini chuqurlashtirish imkoniyatini berish.

Asosiy qism. Dastlab o‘qituvchi fizikadan mavzularni chuqur tushuntiradi, namoyishli tajribalardan foydalanadi, keyin shu mavzuga doir masalalar va eksperimental topshiriqlarni ham yechib ko‘rsatadi. Shundan so‘ng dars jarayoning

yakuniy qismida o‘quvchilarga mustaqil yechishlari uchun mavzuga doir test topshiriqlari va oddiylik murakkablikka qarab qiyinlashib boradigan masalalar beradi. Uyga vazifaga esa oxirgi yillarda tushgan o‘zbekiston respublika va turli davlatlarning fizika olimpiadalarida tavsiya etilgan masalalar uyga vazifa qilib beriladi[1].

O‘quvchilarni fizika fanidan olimpiadalarga tayyorgarlik ko‘rishda quyidagi vositalaridan foydalanamiz:

1) O‘qituvchining bayoni va turli ish harakatlari.
2) Fizika bo‘yicha o‘quv adabiyotlar, qo‘llanmalar, xalqaro va osiyo olimpiadasiga taqdim etilgan masalalar.
3) Tabiatning mavjud obektlari.
4) O‘quv eksperimentni bajarishga kerak bo‘lgan jihozlar.
5) Grafik vositalar.
6) Texnik vositalar.

O‘quv vositalari quyidagi didaktik funktsiyalarni bajaradi: O‘qib o‘rganiladigan materiallarni va hodisalarni tushuntirish, fizik hodisalarni o‘qib-o‘rganish imkoniyatlarini oshirish, fizik asboblar va qurilmalarning ishlash printsipi asosida, hodisalarni yuz berish mexanizmini yaqqol ko‘rsatish, turli fizik hodisalarni, bog‘lanishlarni sabab-oqibat bog‘liqlikda ekanligini tajribada isbotlash. O‘quvchilarga fizikadan masalalar yechishda algoritmik metoddan foydalanish tavsiya etiladi.

Fizikadan masalalar yechish-o‘quv jarayonining zaruriy elementlaridan biridir. Masala yechish o‘quvchilarda fizik hodisalar orasidagi bog‘lanishlarni, qonunlarni chuqur o’zlashtirishga, ularning mantiqiy fikrlashini va izlanuvchanlik qobiliyatini yanada rivojlantirishga, maqsadga erishish ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi[2]. Fizikadan olimpiada masalalarini yechishda o‘quvchilarni mehnatsevarlik, maqsadga erishishda tirishqoqlik, intiluvchanlik va muammoni mustaqil hal qila olish kabi shaxsiy axloqiy xislatlarni shakllantirishga yordam beradi[3].

Fizikadan masala yechishda o‘quvchilar quyidagi qisqacha metodik ko‘rsatmaga amal qiladilar:

1. Masalaning sharti bir necha marta o‘qib chiqiladi va u fizikaning qaysi bo‘limiga tegishli ekani aniqlandi.

2. Masalaning qaysi bo‘limga tegishliligi anglanadi, mazmuni tushuniladi va masala shartida berilgan kattaliklar ‘‘XBS” da ifodalanib, topish kerak bo‘lgan kattalik yoziladi.

3. Masalaning shartiga mos keluvchi chizma chiziladi.

4. Masala shartida qanday fizik qonuniyatlar yotgani aniqlanadi.

5. Masalani umumiy ko‘rinishda yechish uchun ketma-ketlik asosida masala shartidagi noma’lum kattalikni ma’lum kattaliklar bilan bog‘lovchi formulalar hosil qilinadi.


6. Masala yechishda qo‘llanilgan har bir qonun, qoida, formula va fizik kattaliklar qisqacha izohlab boriladi.

7. Masala shartiga berilgan kattaliklar aniqlangan formulaga qo‘yiladi va hisoblanadi.

8. Masalaning javobini chiqarishda uning aniqligiga ahamiyat beriladi va kerakli xulosalalar chiqariladi .

Fizika fani olimpiadalariga tayyorlashda masalalar yechishda o‘quvchilar jarayonlarni kengroq tahlil qilish shuningdek, grafikdan foydalanib nomalum parametrlarni topish maqsadga muvofiqdir. Bunda o‘quvchilar masalalarni kengroq va chuqurroq tahlil qiladilar. Bunda tipdagi masalalarga namuna keltiramiz:

Jismning tezligini uning bosib o‘tgan masofasiga bog‘liqlik grafigi rasmda tasvirlangan. Biror t_0-vaqt momentida jismning tezligi $\vartheta = \vartheta_0/e$ ga teng. Jismning harakat tezligini t vaqtga bog‘liqligini toping. $e = 2,73...$.



Berilgan: t_0, $\vartheta = \vartheta_0/e$, t, $e = 2,73....$ Topish kerak: $\vartheta = ?$

Yechilishi: Grafikdan foydalanib, tezlikning masofaga bog‘liqlik funksiyasini quyidagicha yoza olamiz.

$$\vartheta = \vartheta_0 - kS \qquad (1)$$

bu yerda k-o‘zgarmas son. Biz bilamizki tezlikdan vaqt bo‘yicha olingan birinchi tartibli hosila tezlanishga teng.

$$a = \frac{d\vartheta}{dt} \qquad (2)$$

(1) ni (2) ga quyidagiga ega bo‘lamiz.

$$a = \frac{d(\vartheta_0 - kS)}{dt} = 0 - k\frac{dS}{dt} = -k\frac{dS}{dt} = -k\vartheta \qquad (3)$$

(1) ni (2) ga quyidagiga ega bo‘lamiz.

$$\frac{d\vartheta}{dt} = -k\vartheta, \quad \int_{\vartheta_0}^{\vartheta} \frac{d\vartheta}{\vartheta} = -k\int_0^t dt$$

Bu integraldan oniy tezlik quyidagiga teng: $\vartheta = \vartheta_0 e^{-kt}$ (4)

Masala shartidagi $\vartheta = \vartheta_0/e$ ni (4) eltib qo‘yamiz va k ni topamiz.

$$\vartheta_0 e^{-1} = \vartheta_0 e^{-kt_0}; \quad \text{bundan } k = \frac{1}{t_0} \qquad (5)$$

(5) ni (4) ga quyidagiga ega bo‘lamiz: $\vartheta = \vartheta_0 e^{-t/t_0}$

Javob: $\vartheta = \vartheta_0 e^{-t/t_0}$

Xulosa. Bilingv va trilingv o‘quvchilar(bilingv ikki tilni va trilingv ikki tilni biladigan o‘quvchilar) bitta tilni biladigan o‘quvchilarga nisbatan bilimlari oshganini tajribamizda kuzatyapmiz[1]. Bilingv o‘quvchilar malumotlarni internet, ijtimoiy tarmoq va boshqa manbalardan bitta tilni biladigan o‘quvchilarga nisbatan ko‘proq oladilar. Ushbu o‘qitish metodikamizdan o‘z samarasini bermoqda.

O‘quvchilarga mustahkam bilim berish shartlaridan biri ularni darsda va darsdan tashqari vaqtlarda masalalar yechishga faol jalb qilish va o‘qituvchi tomonidan nazorat qilishdir. O‘quvchilarning olimpiadaga yuqori natijalarga erishishlari uchun tavsiyalar:

1)Rus yoki ingliztillarini bilishlari kerak (bilingv, trilingv o‘quvchilarni tanlash maqsadga muvofiq),

2)Turli davlatlarning olimpiadalari masalalarini ishlashlari kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. **Jo‘rayev F. I.** O‘quvchilarni fizika olimpiadalariga tayyorlash metodikasi // «O‘zbekiston Milliy universitetining ilm-fan rivoji va jamiyat taraqqiyotida tutgan o‘rni» mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. — Toshkent, 12-may 2022. — B. 195–199.
2. **Jo‘rayev M.** Fizika o‘qitish metodikasi. — Toshkent: «ABU MATBUOT-KONSALT», 2015.
3. **Jo‘rayev F. I.** Iqtidorli o‘quvchilarni fizika olimpiadalariga tayyorlashda masalalar tanlashning ahamiyati // Fizika, matematika va informatika jurnali. — 2024. — № 3. — B. 64–73.

MATEMATIKADA IZCHILLIKDAN FOYDALANIB, TALABALARNING IQTISODIY TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISH

Jumaniyozov Qudrat Sapoyevich

Mirzayev Asilbek Abdurahmon o'g'li

Oriental universiteti

Annotatsiya . *Ushbu maqola talabalarning iqtisodiy tafakkurini rivojlantirishda matematikaning tadbiqi bilan birga ularning bozor iqtisodiyoti sharoitida o'zlarini erkin his qilishlariga, o'z tafakkurlariga ishonishlariga, matematik bilimlari orqali hisob-kitoblarni to'g'ri hamda sistemali olib borishlariga imkon yaratadi. Asosiy maqsadlarimizdan biri dasturlar hajmida va undan foydalangan holda tengsizlik, hosila, chiziqli programmalashtirish qonun-qoidalari yordamida iqtisodiy-ekstremal masalalarni yechish asosida o'quvchilarning iqtisodiy tafakkurini rivojlantirishga qaratilgan.*

Kalit so'zlar: *iqtisodiy tafakkur,* ***izchillik tamoyili, matematik bilim,*** *matematik modellashtirish, fakt, formula*

KIRISH: Iqtisodiyot har bir kishining, har bir oilaning, jamoa va umuman jamiyatning hayotida muhim o'rin tutadi. Bozor iqtisodiyotining mohiyati shundan iboratki, u barcha jamiyat a'zolarini ishlab chiqarish va iste'mol orqali doimiy hamda to'xtovsiz musobaqaning ishtirokchilariga aylantiradi, shu boisdan bozor iqtisodiyoti ishlab chiqarishning kun sayin takomillashuviga, mahsulot sifatining yaxshilanib borishiga, miqdorining ko'payishiga sababchi bo'ladi. Bozor iqtisodiyoti xalqning, ommaning, ijodiy va mehnat imkoniyatlarini yuzaga chiqarib, tadbirkorlik va ishbilarmonlikka yo'l ochadi. Tadbirkorlik va ishbilarmonlik qobiliyatlarini rivojlantirishni esa yoshlikdan, ya'ni o'quv-tarbiya muassasalaridan boshlamog'imiz kerak. O'quvchilarning iqtisodiy tafakkuri bir necha xil fanlar asosida rivojlantiriladi. Ular orasida matematika fanining o'rni juda muhimdir. Bu muhimlikni biz tadqiqotimizda imkon qadar yoritib berishga harakat qilamiz.

Matematikaning izchillik xususiyati - bu matematikadagi mavjud qonun, qoida, fakt, formulalarning boshqa fan asosidagi mos qonun, qoida, fakt, formulalar bilan bir qiymatli, ko‘p qiymatli yoki bir tomonlama (izchillik prinsipi asosida), ikki tomonlama bog‘langan holda uquvchilarning bilish faoliyatini faollashtirishga, chuqurlashtirishga qaratilgan va ularni kunikma, malaka yoki tafakkurini rivojlantirishga bevosita yordam beruvchi jarayon sifatida qaraladi.

Shuning uchun, matematikani iqtisodiyot bilan aloqadorligi uzining faol tarkibiy qismini yaratish va bevosita ular orasida shunday bir strukturaviy integrallashgan qismini yaratadiki, u nafaqat iqtisodiyotni ichki va tashqi strukturasini yuzaga kelishini, u moddiy dunyoning iqtisodiy dinamikasini rivojlanishi tarkib topishi va rivojlanishida yuzaga keladigan har xil toifadagi nomutanosibliklarni bartaraf qilishda, hamda ularni uzaro mutanosiblikda ishlashiga imkoniyat yaratib beradi. Shu bois matematikaning iqtisodiy masalalarni yechishga tadbiqi o‘z navbatida ulardagi rivojlanishning yuqori saviyaga chiqishiga, ko‘tarilishiga muhim imkoniyat yaratib beradi.

Shu bois fanlararo aloqadorlik, jumladan, matematikaning jamiyat iqtisodiy qonun-qoidalariga tadbiqi bevosita pedogogik va metodik g‘oyalarni rivojlanishi, takomillashishini ta’minlab qolmasdan, o‘qitish jarayonini differensatsiya, integratsiya qilishga, shu jumladan, iqtisodiy qonuniyatlarni ilmiy tushunishga, ta’sir tekisligini aniqlashga, jamiyat rivojiga singib ketishi yoki qorishib aralashishiga, shu bilan birga o‘quvchilarning iqtisodiy tafakkuri rivojlanishiga o‘zining muhim hissasini qo‘shadi. Shuning uchun ham matematik qonun, qoida, fakt, formulalarni iqtisodiy qonun - qoida va formulalarga tadbiqidan foydalanib o‘quvchilar:

- matematik bilimlar, ko‘nikmalar, malakalarini shakllantiradilar, rivojlantiradilar;

- matematik qonun – qoida, fakt, formulalarni iqtisodiy qonun-qoidalarga tatbiq qilib, jamiyatning rivojida iqtisodiy tushuncha, qonun – qoida va boshqa asoslari bilan birgalikda moddiy dunyoning sirlarini, olamni moddiy birlikda

ekanini, jamiyatdagi har bir o‘zaklarning moddiy va iqtisodiy bog‘likdigi va bu bog‘lanish matematik qonuniyatlarga asoslanganligini;

- dunyoning moddiy va iqtisodiy birligi bevosita matematika qonuniyatlariga tayanishi va bu tayanch o‘zining strukturaviy quvvatiga ega ekanligi haqidagi fikrga ega bo‘lishligi - bevosita o‘quvchilarni nafaqat iqtisodiy tafakkurini, balki matematik falsafiy tafakkurini ham rivojlanishiga imkoniyat yaratadi. Shuning uchun, ham umumta’lim maktablarida matematika ta’limini iqtisodiy bilimlar sistemasi bilan aloqalarining bo‘lishi o‘quvchilarning matematik qonuniyatlarni faktlar, formulalarni keng ma’noda tushunish bilan birgalikda iqtisodiy qonun-qoida va formulalarni ham chuqurroq tushunish, ulardan amalda foydalanish va tegishli natijalarni olish va olingan natijalarni tahlil qilish, ularni hayotga tadbiq qilishni o‘rganadilar.

Asosiy qism: Pedagogikada, jumladan, matematikani fanlararo aloqadorlik asosida o‘qitishni takomillashtirish nazariyasi va amaliyoti bo‘yicha ma’lum darajada yuqori saviyadagi pedagogik va metodik fikrlar to‘planishi bilan birga o‘qitish va o‘rgatish jarayonini faollashtirishning asosiy komponentlaridan biri bu:

- o‘quvchilarning ilmiy bilimlar sistemasini anglashi va aqliy rivojlanishida iqtisodiy va xuquqiy bilimlarni matematik bilimlar sistemasi bilan aloqadorligini bilishdir;

- o‘qitiladigan fanlardagi bilimlar sistemasini tartibga solinishi va o‘rganiladigan fanlar ketma – ketligidan foydalanish metodikasining yuzaga kelishi;

- o‘qituvchining sistemali matematika bilan iqtisodiy bilimlar sistemasining aloqadorligini ishlab chiqishi va uni matematik iqtisodiyotni o‘qitishda foydalanish metodikasini ishlab chiqish;

- umumta’lim maktab o‘quvchilarining iqtisodiy tafakkuri rivojlanishida matematik modellashtirish va undan kelib chiqadigan natijalardan unumli foydalanishdan iboratdir.

Fanlararo aloqadorlik o‘zining strukturaviy berilishi, tuzilishiga ko‘ra uncha murakkab bo‘lmagan strukturaga egadir, ya’ni, bizga P_1 predmet berilgan bo‘lsin va

u $A_1, A_2, \ldots, A_n$ tushunchalarga ega bo‘lsin deylik. P_2 predmet esa $B_1, B_2, \ldots, B_n$ tushunchalarga ega deb qaraylik.

Demak, matematika tushunchalarining iqtisodiy tushunchalar bilan bog‘lanish imkoniyati ko‘p hollarda tadrijiylik asosida olib boriladi. Ma’lumki, bu bog‘lanishni har doim ham sifatli deb bo‘lmaydi. Uning sifatli bo‘lishi uchun: A_i ва B_j bilimlar orasidagi masofani $p(A_i, B_j) = j - i$ bilan belgilaymiz, hamda bog‘lanish sifatli yoki sifatsiz bo‘lishi o‘qitish jarayonida $p(A_i, B_j)$ ga bog‘liqdir, chunki A_i bilim bilan B_j bilim faqat dastur bo‘yicha bitta mavzuga farq qilsa bog‘lanish sifatli bo‘ladi, agar 10 ta mavzuga farq qilsa o‘quvchilarga tushuntirishda sifatli deb bo‘lmaydi. Shu nuqtai - nazardan $p(A_i, B_j)$ da qatnashayotgan bilimlardan Bj ning sifatli o‘zlashtirilishi ular orasidagi masofaga teskari proporsional ekanligini ko‘rish mumkin, chunki i va j lar orasidagi farq qanchalik kichik bo‘lsa, bog‘lanish shuncha sifatli bo‘ladi, qancha katta bo‘lsa, shuncha sifatsiz bo‘ladi.

Xaqiqatan ham, o‘quvchilarni iqtisodiy tafakkurini matematikani iqtisodiy masalalarni yechishga tadbiqi orqali rivojlantirish uchun avvalambor iqtisodiy tushunchalar majmuining tanlanishi, so‘ngra bu tushunchalarni uzluksiz sistemali tarzda o‘quvchilar ongida shakllantiruvchi sistema tanlanishi va bu sistemaning to‘laqonli amalga oshishini ta’minlovchi matematik tushunchalar sistemasining ajratilishi va uni metodik nuqtai – nazardan muvofiqlashtirilishi maqsadga muvofiqdir.

Shu bois ham hozirgi kunda bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlatiladigan 10 ta iqtisodiy tushunchalarning ichidan o‘quvchilarning kundalik hayotida uchraydigan, ularni o‘zlashtirishlarida uncha qiyinchilik yuzaga keltirmaydigan, mazmun jihatidan yuqoridagi tushunchalar asosiga qo‘yilishi mumkin bo‘lgan, iqtisodiy tafakkurni rivojlanishi uchun asosiy amallarni ishlatish imkoniyatini beradigan — iqtisodiy tushunchalar tanlanishi asosiy ilmiy izlanishimizning predmetini tashkil qilishini ko‘rishimiz mumkin.

Shuning uchun ham iqtisodiyot tomondan asosan - daromad, foyda, tovar, tovar narxi, tovarni ishlab chiqish, rentabellik, ishlab chiqarish rejasi, marketing,

menejment, ... kabi 20 tadan ortiq tushunchalar bilan matematikaning protsent, murakkab protsent, tenglama, tengsizlik, tenglama va tengsizliklar sistemalari, hosila, ekstremum, maqsadli funksiya, pozinom, chiziqdi programmalash va xokazo tushunchalari bilan bog‘lanishi bevosita o‘quvchilarning ko‘z o‘ngida, haqiqatan ham integrativ kursni yuzaga kelishi Respublikamizda bozor iqtisodiyotining tezlashishi va uning qonuniyatlari takomillashishiga, hamda o‘quvchilarimizning **xuquqiy** masalalarni bevosita shakllanishiga imkoniyat yaratib beradi. Shuning uchun xam quyida bir necha masalalarning yechilishiga namunalar keltiramiz:

a) hosila yordamida yechiladigan iqtisodiy masala;

Agar to‘g‘ri turtburchakli maydon dala yo‘li bilan o‘ralgan bo‘lsa, u holda yetishtirilgan hosil avval dalaning ixtiyoriy nuktasidan yo‘lgacha bo‘lgan eng qisqa yo‘l bilan, so‘ngra yo‘l bo‘yicha to‘g‘ri to‘rtburchakning belgilangan uchigacha tashiladi. Agar yuk tashish yuk ishi

$$R(x) = k(\frac{6S^2}{x} + 9Sx - x^3)$$

formula bilan aniqlansa $x \in]0;\sqrt{S}]$ **da** $R(x)$ ni eng kichik qiymatini hosil qiluvchi *x* ni toping.

Yechish:

Buning uchun $R'(x) = -\frac{3k(x^2-S)(x^2-2S)}{x^2}$ ni topamiz.

So‘ngra $x \in [0;\sqrt{S}]$ da $R(x) < 0$ bo‘lgani uchun funksiya kamayadi. Shuning uchun funksiya $R(x)$ faqat $x = \sqrt{S}$ da o‘zining eng kichik qiymatiga erishadi. Bundan qaralayotgan to‘g‘ri to‘rtburchak figura kvadrat bo‘lgandagina eng qisqa yo‘l kam xarajat sarf bo‘lar ekan. Bundan ko‘rinib turibdiki, xarajat tushunchasi uchun bevosita matematikadan hosila tushunchasining tadbiqi bevosita iqtisodiy masalani hal qilish imkoniyatini yaratdi.

Iqtisodiy masalalar o‘zining strukturaviy ko‘rinishiga nisbatan turli-tuman bo‘lishi mumkin. U daromadga, foydaga, pul massasiga, iqtisod qilishga va xokazoga bog‘lik bo‘lishi mumkin, lekin foyda deganda, uni har xil tushunish mumkin, masalan, matematik nuqtai-nazardan qaralsa, u yoki bu narsadan «eng

ko‘p», «eng qimmat» so‘zlarining ichida ham foyda so‘zi yashirinib yotganini ko‘rish mumkin. Shu nuqtai-nazardan quyidagi masalalar ham iqtisodiy masalalar to‘plamiga kiritiladi.

Masala:

Eng ko‘p suv ketadigan sug‘orish novi hosil qilish (yasash) uchun uchta bir hil taxtani bir-biriga qanday burchak ostida qoqish kerak?

Yechish:

Ma’lumki, eng katta ko‘ndalang kesimga ega bo‘lgan novga eng ko‘p suv ketadi. Novning ko‘ndalang kesim yuzi teng yonli trapesiyadir. Agar taxtalarning eni $AB = BC = CD = a,$ $\angle \mathrm{BAD} = x$ desak, u holda trapesiyaning balandligi $BE = a\sin x$ va uning katta asosi $AD = a(1 + 2\cos x)$

Shuning uchun trapesiyaning yuzi $S(x) = a^2(1 + \cos x)\sin x$ $\left(0 \le x \le \frac{\pi}{2}\right)$ bo‘lib, $\boldsymbol{S(x)}$ ning eng katta qiymatini topish uchun $\boldsymbol{S(x)}$ ni $\boldsymbol{x}$ ga nisbatan hosilasini olamiz.

$S'(x) = a^2(1 + \cos x)(2\cos x - 1)$ Hosila $0 \le x \le \frac{\pi}{2}$ intervalning faqat bitta $x = \frac{\pi}{3}$ nuqtasida nolga aylangani, $S(0) = 0,$ $\mathrm{S}(\frac{\pi}{3}) = \frac{3\sqrt{3}}{4}a^2$ bo‘lgani uchun $\boldsymbol{S(x)}$ $\boldsymbol{o}$‘zining eng katta qiymatiga $x = \frac{\pi}{3}$ yoki $\alpha = 120^0$da erishadi. Bu masalaning mazmunidan shuni ko‘rish mumkinki, o‘quvchilar bunday nov yasash vaqtida olinadigan taxtalarni qanday tarzda olishni va ularni tayyorlashda eng kam chiqindi chiqishini ta’minlashni va eng katta sig‘imli nov yasashni, sarflanadigan mehnatni va xomashyoni iqtisod qilishni o‘rganadilar, ќamda bu sarflangan mexnatdan ќosil qilingan foydaning qanchalik oz yoki ko‘p bo‘lishiga qarab proporsional tarzda kunlik, oylik, yillik topiladigan daromad va foydani xomaki ќisoblash imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Shundan ularda iqtisodiy tafakkur shakllanishini ko‘rish mumkin.

Masala:

R radiusli doira shaklidagi yer maydonidan eng katta yuzali, teng yonli uchburchak ko‘rinishidagi maydonni chegaralab olish uchun uning o‘lchamlari qanday bo‘lishi kerak?

Yechish:

Masala shartida berilganlarni taxlil kilib masala talabiga javob beradigan 4-chizmani chizib olamiz va unda $AS = SB$ $OA = OB = OC = R$ ekani masala shartidan ma'lum.

Endi CD balandlikni $DC = x$ deb belgilaymiz, u holda $OD = x - R$ bo'lib, $AB = 2AD = 2\sqrt{R^2 - OD^2} = 2\sqrt{R^2 - (x-R)^2} = 2\sqrt{2Rx - x^2}$ bo'lib, biz izlayotgan uchburchak yuzasi $S_{\Delta ABS} = S(x) = \frac{1}{2}$ AB · CD $= \frac{1}{2} \cdot 2\sqrt{2Rx - x^2} \cdot x = \sqrt{x^3(2R - x)}$ bo'ladi.

Bu yerda $0 < x < 2R$ bo'ladi. Endi bevosita $S(x) = \sqrt{x^3(2R - x)} \to max$ savol qo'yiladi.

Ma'lumki, masalaning modeli $S(x) = \sqrt{x^3(2R - x)}$ да $0 < x < 2R$ bo'lgani uchun $S(x) > 0$ bo'ladi. Shuning uchun $S(x)$ va $S^2(x)$ funksiyalar bir xil nuqtada maksimumga erishishini hisobga olgan holda, biz avvalo $S^2(x)$ ning maksimumini topishga ќarakat qilamiz. Buning uchun $S^2(x) = \frac{1}{3} \cdot x \cdot x \cdot x(6R - 3x)$ ko'rinishda yozib olamiz, so'ngra $x = x_1,\ x = x_2,\ x = x_3,\ 6R - 3x = x_4$deb belgilashlar kiritib,

$A_n = \frac{x_1 + x_2 + \ldots + x_n}{n} \geq \sqrt[n]{x_1 \cdot x_2 \cdot \ldots \cdot x_n} = \Gamma_n$ ga asosan,

$S^2(x) = \frac{1}{3} \cdot x \cdot x \cdot x(6R - 3x) \leq \frac{1}{3}\left(\frac{x + x + x + 6R - 3x}{4}\right)^4 = \frac{1}{3} \cdot \left(\frac{3}{2}\right)^4 \cdot R^4$ bo'lib, bundan $S^2(x) \leq \frac{27}{16}R^4$ bo'ladi.

Demak, $S^2(x) \leq \frac{3\sqrt{3}}{4}R^2$ ekanidan, $x = \frac{3}{2}R$ da $S(x) = S\left(\frac{3}{2}R\right) \leq \frac{3\sqrt{3}}{4}R^2$ bo'lib, bunda izlangan uchburchakning tomonlari $AB = BC = AC = \sqrt{3R}$ ekani kelib chiqadi.

Bu yechilgan masalaning mazmunidan ko'rinib turibdiki, o'quvchilar bilan bunday masalalarni yechish ularni nafaqat matematik tafakkurini rivojlantirishga yordam beribgina qolmasdan, balki ularning iqtisodiy tafakkurini rivojlantirishga, ќamda shunday xayotiy iqtisodiy sharoitlar yuzaga kelgan vaqtda tegishli qarorga

kelishga ham o‘rgatishi va bu qarorni ќam iqtisodiy, ham matematik, ham mantiqiy nuqtai-nazaridan o‘ziga xos asosi borligi har bir shunday sharoitga tushgan o‘quvchi yoki insonni shunday iqtisodiy yechimlar borligi quvontiradi.

Bu yuqorida keltirilgan ma’lumotlardan ko‘rinib turibdiki, matematikaning iqtisodiy fanlar bilan aloqasi bir tomondan o‘zining strukturaviy jixatidan ham murakkab, ham qiziqarli bo‘lishi, har bir iqtisodiy tushunchani atroflicha o‘rganilishi uchun muhimligi bo‘lsa, ikkinchi tomondan matematika ham o‘z navbatida nafaqat nazariy jixatidan, balki metodik jixatidan xam boyib boradi. Chunki, hozirgi masalani yechish uchun hosilaning tadbiqi yetarli edi, lekin yechimni chiroyli, tushunarli, o‘zining kuyi va yuqori yechim chegaralarini o‘zida aniqlab ko‘rsata oladigan yechimni ko‘rsatilishi nuqtai-nazaridan matematikani tekshirish metodlarining rang-barangligining o‘quvchilarga ko‘rsatilishi, ularning matematik tafakkuri shakllanishida muhim ahamiyatga ega ekan. Umuman matematikaning fanlararo aloqadorlik funksiyasi juda kuchli bo‘lib, ular o‘quvchilarning ham nazariy, ham amaliy bilimlarni takomillashtirishda, rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega bo‘lar ekan.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. **G‘oziev E.** Tafakkur psixologiyasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1990.
2. **G‘oziev E.** Ta’lim jarayonida o‘quvchilar tafakkurining o‘sishi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1980.
3. **Tolaganov T.** Matematikadan praktikum. – Toshkent: O‘qituvchi, 1989.
4. **Abduqodirov A. A. va boshq.** Informatika va hisoblash texnikasi asoslari: masalalar to‘plami. – Toshkent: O‘qituvchi, 1989.
5. **Habib R. A.** O‘quvchilarning matematik tafakkurini shakllantirish. – Toshkent, 1971.

UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTABLARIDA FIZIKA FANINI O‘QITISHDAGI BA’ZI MUAMMOLAR VA ULARNING YECHIMLARI

K.Turdanov

A.A.Kudaybergenova

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika institut

Annotatsiya*: Maqolada umumiy o‘rta ta’lim maktablarida fizika fanini o‘qitishda yuzaga kelayotgan metodik, texnik va didaktik muammolar tizimli tahlil qilingan. Dars jarayonida interfaol metodlar, virtual laboratoriyalar va STEM yondashuvining yetishmasligi ta’lim sifatiga salbiy ta’sir ko‘rsatayotganini asoslab bergan. Maqolada ushbu muammolarning yechimi sifatida raqamli texnologiyalar, PhET simulyatsiyalari va gamifikatsiya elementlarini darsga joriy etish bo‘yicha amaliy tavsiyalar keltirilgan.*

Kalit so‘zlar*: fizika ta’limi, metodik muammolar, virtual laboratoriya, STEM, raqamli kompetensiya, motivatsiya, PhET simulyatsiyasi, innovatsion yondashuv.*

Kirish. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida fizika fanini o‘qitish jarayoni zamonaviy jamiyat taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishlari bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, o‘quvchilarning ilmiy dunyoqarashini shakllantirishda muhim omil hisoblanadi. Fizika fani tabiat hodisalarining mohiyatini ilmiy asosda yoritib berishi, texnika va texnologiyaning rivojlanish mexanizmlarini tushuntirishi orqali o‘quvchilarda analitik fikrlash, kuzatish, tajriba o‘tkazish, muammoni tahlil etish va ilmiy xulosalar chiqarish ko‘nikmalarini shakllantiradi. Ammo amaldagi o‘qitish jarayoni ko‘plab pedagogik, metodik va tashkiliy muammolar bilan to‘qnash kelayotgani ta’lim sifatini sezilarli darajada pasaytirayotganini ko‘rsatmoqda [1-3].

Shu bilan birga, fizika fanining o‘qitilishida interfaol metodlarning kam qo‘llanilishi, darslarda raqamli resurslar ulushining pastligi, eksperimentlar sonining minimal darajada bo‘lishi, STEM va STEAM yondashuvlarining yetarli joriy

qilinmaganligi o‘quvchilarning amaliy ko‘nikmalarini shakllantirishga to‘sqinlik qilmoqda. Bunday sharoitda ta’lim jarayonini modernizatsiya qilish, samaradorlikni oshirish bo‘yicha ilmiy-metodik yondashuvlarni takomillashtirish hamda o‘qitishga innovatsion qarashlarni tatbiq etish muhim vazifa sifatida namoyon bo‘ladi [4, 5].

Mazkur maqolada umumiy o‘rta ta’lim maktablarida fizika fanining o‘qitilishida mavjud ba’zi uammolar tizimli tahlil qilinadi. Shuningdek, zamonaviy dars jarayonida qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan interfaol metodlar, axborot texnologiyalari, virtual laboratoriyalar, innovatsion didaktik yondashuvlar haqida misollar asosida fikr yuritiladi.

Asosiy qism. Fizika ta’limidagi muammolar ko‘p qirrali bo‘lib, ular didaktik, metodik, texnik, psixologik va tashkiliy omillar bilan uzviy bog‘liqdir. Mazkur muammolarni chuqur va tizimli tahlil qilish ta’limni modernizatsiya qilishning asosiy shartlaridan biri sanaladi, chunki har bir muammo alohida olingan holatda emas, balki o‘zaro bog‘langan kompleks tizim sifatida namoyon bo‘ladi. Bu esa ularni bartaraf etish jarayonida faqat bitta yo‘nalishda emas, balki ko‘p yoqlama yondashuvni talab qiladi.

Metodik muammolar esa ko‘proq o‘qituvchilarning darsni tashkil qilishdagi yondashuvlari bilan bog‘liq. Ba’zi hollarda pedagoglar hanuzgacha an’anaviy ma’ruza-uslubidan voz kecholmayotgani, amaliy mashg‘ulot, loyiha asosida o‘qitish, muammoli vaziyat yaratish va interfaol metodlardan yetarlicha foydalanmayotgani kuzatiladi.

Didaktik omillar avvalo fizika fanining murakkab va abstrakt mohiyati bilan bog‘liq. Ko‘plab fizik tushunchalar: elektr maydon kuchlanganligi, elektromagnit induksiya, kvant hodisalari yoki kuch momenti singari kategoriyalar o‘quvchidan yuqori darajadagi tasavvur, mantiqiy fikrlash va abstraksiyalash ko‘nikmasini talab qiladi. Agar dars jarayonida bu tushunchalar yetarli darajada vizuallashtirilmasa yoki konkret misollar bilan asoslanmasa, o‘quvchilar mavzuni qiyin qabul qiladi va natijada ularning fanga bo‘lgan motivatsiyasi pasayadi.

Texnik omillar esa eng ko‘p uchraydigan muammolardan sanaladi. Maktablarda laboratoriya asbob-uskunalarining eskirganligi, ularning yetishmasligi

yoki umuman mavjud emasligi fizika darslarining amaliy asosini susaytiradi. Laboratoriya ishlarisiz esa fizik qonuniyatlarni to‘liq anglashning imkoni yo‘q.

Quyida umumiy o‘rta ta’lim maktablarida fizika fanini o‘qitishdagi ayrim muammolar va ularning yechimlari keltirib o‘tilgan.

1. Metodik va didaktik muammolar. Maktablarda fizika darslarining aksariyati nazariy ma’lumotlarning bayoniga qaratilgan bo‘lib, amaliyot va tajribalar ulushi yetarli emas. O‘quv dasturlarining murakkabligi, mavzularning izchil integratsiya qilinmagani, yangi metodik qo‘llanmalar yetishmasligi o‘quvchilarda mavzularni chuqur o‘zlashtirishga to‘sqinlik qilmoqda. Shuningdek, o‘qituvchilar tomonidan quyidagi kamchiliklar kuzatiladi:

–interfaol metodlarning yetarli qo‘llanmasligi;
–darslarda muammoli vaziyat yaratishga kam e’tibor berilishi;
–loyiha, tadqiqot, tajriba asosidagi o‘qitishning kamligi;
– zamonaviy pedagogik texnologiyalar bo‘yicha bilimlarning cheklanganligi.

Misol: 9-sinfda “Elektromagnit induksiya” mavzusini tushuntirishda o‘qituvchilar ko‘pincha faqat ta’riflar va formulalar bayoni bilan cheklanadi. Agar dars jarayonida kichik tajriba – magnitni g‘altakka yaqinlashtirib tok hosil bo‘lishi kuzatilsa, o‘quvchilarda mavzuga qiziqish ortadi, jarayon mohiyatini o‘z ko‘zi bilan ko‘rgani uchun tushunish darajasi yaxshilanadi.

2. Texnik va material bazaning yetarli emasligi. Aksar maktablarda fizikadan laboratoriya jihozlari eskirgan, ba’zan esa umuman yo‘q. Bu o‘quvchilarni real tajriba o‘tkazish imkoniyatidan mahrum qiladi. Natijada darsning faol, interaktiv qismi cheklanadi, nazariya bilan amaliyot orasidagi uzilish kuchayadi.

Yechim sifatida zamonaviy laboratoriya jihozlari, virtual laboratoriyalar, PhET simulyatsiyalari, AR/VR texnologiyalarini joriy qilish katta samaradorlik beradi. Virtual tajribalar, ayniqsa, qishloq hududlardagi jihozlari kam bo‘lgan maktablar uchun eng qulay variant sanaladi [6].

Misol: PhET simulyatori yordamida “Gazlarda elektr toki” mavzusini o‘qitishda o‘quvchilar real tajriba bo‘lmasa ham ionlashish jarayonini vizual tarzda

kuzatishi, kuchlanish, bosim va tok kuchi o‘rtasidagi bog‘lanishni tajribada o‘zgartirib ko‘rishi mumkin.

3. O‘quvchilarning motivatsiyasining pastligi. Fizika ko‘pincha qiyin fan sifatida qabul qilinadi. Mavzularning murakkabligi, formulalarning ko‘pligi, darslarning quruq nazariy ma’ruza tarzida o‘tishi o‘quvchilarning fanga bo‘lgan qiziqishini kamaytiradi. Bunda o‘qitishning qiziqarli, integrativ va hayotiy mazmuni kam qo‘llaniladi.

Motivatsiyani oshirishning samarali yo‘li – gamifikatsiya elementlaridan foydalanish, kundalik hayotdan misollar keltirish, fanlararo bog‘liqlikni ko‘rsatish, robototexnika, elektronika, kichik loyihalarni joriy qilishdir.

Misol: “Mexanika qonunlari” bo‘limida o‘quvchilarga oddiy mashina (katapult, parabolik uloqtirish moduli) yasash topshirig‘i berilsa, ular qonunlarni nafaqat eslab qoladi, balki amalda qo‘llay oladi.

4. Raqamli kompetensiya va IT texnologiyalarni qo‘llashdagi muammolar. Ko‘plab o‘qituvchilar kompyuter savodxonligi, digital platformalarda ishlash, virtual laboratoriyalarni qo‘llash bo‘yicha yetarli tayyorgarlikka ega emas. Natijada ta’lim jarayonida multimedia, simulyatsiya, elektron testlar, interaktiv taqdimotlardan foydalanish chegaralangan.

Yechim sifatida muntazam malaka oshirish kurslari, amaliy seminarlar, onlayn treninglar tashkil etilishi zarur. O‘qituvchilarga tayyor elektron dars ishlanmalari, videodarslar, metodik paketlar taqdim etilishi katta yordam beradi.

5. Fanlararo integratsiyaning past darajada bo‘lishi. Zamonaviy ta’lim STEM va STEAM yondashuvlarini talab qiladi, ammo maktablarda fizikaning matematika, kimyo, biologiya, informatika bilan bog‘lanishi yetarli darajada tashkil etilmaydi. Natijada o‘quvchilar bilimlarini kompleks ravishda qo‘llash imkoniyatidan mahrum bo‘ladi [7-9].

Misol: “Optika” bo‘limida matematika bilan integratsiya qilinib, nurlarning sinish burchagi, funksional bog‘lanish, graflar tahlili bilan birgalikda yechilganda, o‘quvchilar jarayonni chuqurroq anglaydi.

Yechimlar. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida fizika fanini o‘qitish jarayonida kuzatilayotgan metodik, texnik, tashkiliy va motivatsion muammolarni bartaraf etish kompleks yondashuvni talab etadi. Quyida taklif etilayotgan yechimlar tizimi ushbu muammolarni har tomonlama hal qilish, dars jarayonini modernizatsiya qilish va o‘quvchilarning fizikaga bo‘lgan qiziqishini oshirishga qaratilgan bo‘lib, zamonaviy pedagogik texnologiyalar va fan metodologiyasiga asoslanadi.

1. Virtual laboratoriyalarni keng joriy etish. Hozirgi kunda ko‘plab maktablarda laboratoriya jihozlarining yetishmasligi fizika darslarini amaliyotga yo‘naltirish imkoniyatini cheklaydi. Shu sababli virtual laboratoriyalarni o‘quv jarayoniga tatbiq etish eng maqbul va iqtisodiy samarali yechimlardan biridir.

Virtual laboratoriyalarning afzalliklari:

- O‘quvchilar qimmat jihozlarsiz murakkab tajribalarni bajarishi mumkin.
- Xavfsizlik darajasi yuqori, murakkab qurilmalar bilan ishlashda xavf tug‘dirmaydi.
- Tajribalarni cheksiz takrorlash, o‘zgaruvchilarni asosli ravishda o‘zgartirish imkoniyati mavjud.
- Tajribalar natijalari aniq, grafik va raqamli ko‘rinishda taqdim etiladi.
- Qishloq maktablari uchun imkoniyatlarni tenglashtiradi.

Misollar:

- PhET Interactive Simulations – elektromagnit induksiya, gazlarda elektr toki, Nyuton qonunlari kabi mavzularda vizual modellar.
- Crocodile Physics – elektr zanjirlarini real vaqt rejimida yig‘ish va tekshirish imkoniyati.
- Algodoo – mexanika jarayonlarini modellashtirishda juda samarali.

Virtual laboratoriyalar o‘qituvchidan murakkab tayyorgarlik talab qilmaydi, ammo metodik yondashuv bilan uyg‘unlashtirilsa, an’anaviy laboratoriyalarga teng samaradorlik beradi.

2. Interfaol metodlardan tizimli foydalanish. Fizika ta’limining samaradorligini oshirishda interfaol metodlardan foydalanish muhim, ammo yana-da muhim jihat — ulardan tizimli, rejalashtirilgan va ketma-ket qo‘llashdir. Ko‘p hollarda interfaol

metodlar bir-ikki darsda sinab ko‘riladi, keyin esa an’anaviy dars shakliga qaytiladi. Natijada, metodlarning haqiqiy samarasi namoyon bo‘lmaydi. Aslida esa interfaol metodlar mavzularning murakkablik darajasi, o‘quvchilarning tayyorgarlik bosqichi, va dars maqsadiga mos ravishda muntazam qo‘llanganda ta’lim jarayonida yuqori natija beradi.

Interfaol metodlar faqat alohida texnologiya sifatida emas, balki o‘quv jarayonining uzviy qismi sifatida qo‘llanganda ularning natijadorligi keskin oshadi. Tizimli yondashuv o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi, mantiqiy tahlili, ijodkorligi va ilmiy tadqiqotga qiziqishini muntazam oshirib boradi.

Amaliy misol sifatida 7-sinfning “Issiqlik hodisalari” bo‘limini olaylik. Agar o‘qituvchi har bir darsni “Savol-javob”, “Aqliy hujum”, “Tajriba”, “Xulosa chiqarish” tartibidan foydalangan holda o‘tkazsa, o‘quvchilar issiqlik almashinuvi, konvektsiya, issiqlik sig‘imi kabi murakkab tushunchalarni oson o‘zlashtiradi. Bu tizimlilikka asoslangan yondashuv o‘quvchilar uchun o‘quv jarayonini muntazam, tushunarli va izchil qiladi.

Demak, interfaol metodlardan foydalanishda eng muhim omil — ularni reja asosida, mantiqiy ketma-ketlikda, butun yil davomida tizimli qo‘llashdir. Faqat shunda ulardan real pedagogik samaraga erishish mumkin.

Samarali interfaol metodlar va ularning afzalliklari:

“Aqliy hujum”

- Mavzu boshlanishida o‘quvchilarning mavjud bilimlarini faollashtiradi.
- Yangi tushunchalarni oson qabul qilishga tayyorlaydi.

“Blits-test”

- Qisqa, aniq savollar bilan tushunchalar darhol mustahkamlanadi.
- Nazariy ma’lumotlarni tez tahlil qilishga yordam beradi.

“Muammoli vaziyat”

- O‘quvchida muammoli fikrlash va izlanish ko‘nikmasini shakllantiradi.
- Fizik qonunlarni o‘z-o‘zidan kashf qilish imkoniyatini yaratadi.

Misol: “Arximed kuchi” mavzusi: – “Nega og‘ir metall kemalar suvda cho‘kib ketmaydi?” savoli orqali muammo yaratish.

“Jadval to‘ldirish”

• Solishtirish, umumlashtirish va tahlil qilish kompetensiyasini rivojlantiradi.

Misol: “O‘tkazuvchanlik turlari” bo‘yicha solishtirma jadval.

“Kichik guruhli loyihalar”

• Amaliyotga yo‘naltirilgan ta’limni kuchaytiradi.

• O‘quvchilarda ijodkorlik, tajriba o‘tkazish, natijalarni tahlil qilish qobiliyatlari shakllanadi.

Misol:

– “Oddiy generator yasash” kichik loyiha sifatida berilishi.
– “Uy sharoitida tejamkor energiya tizimi loyihasi”.

Interfaol metodlarning muntazam qo‘llanishi darslarni jonli, faol va samarali qiladi.

3. Fanlararo integratsiya asosida dars tuzish. Zamonaviy ta’lim jarayoni fanlarni alohida emas, balki uyg‘un tizim sifatida o‘rganishni talab etadi. Fizika tabiiy va texnik fanlarning markazida turgani bois, integrativ darslar yuqori samaradorlik beradi.

Matematika bilan integratsiya:

• Grafiklar, funksiyalar, nisbatlar.

• Sinus, kosinus qonunlari, trigonometriya – optika va mexanikada keng qo‘llanadi.

Kimyo bilan integratsiya:

• Molekular fizika, issiqlik fizikasi, atom tuzilishi.

• Ionlanish, elektr o'tkazuvchanlik.

Informatika bilan integratsiya:

• Simulyatsiyalar yaratish.

• Arduino, Micro:bit asosida amaliy loyihalar.

Texnologiya darslari bilan integratsiya:

• Elektr qurilmalari, o‘lchash asboblari bilan ishlash.

• Kichik mexanik qurilmalar yig‘ish.

Integratsion darslarni qo‘llash natijasida o‘quvchilarning fanlararo bog‘lanishlarni ko‘rish qobiliyati oshadi, real hayotdagi jarayonlarni yaxlit tushunish shakllanadi.

4. Gamifikatsiya elementlarini joriy etish. Gamifikatsiya — o‘quv jarayonini o‘yin mexanizmlari asosida tashkil qilish bo‘lib, fizika kabi murakkab fan uchun ayniqsa motivatsion usul hisoblanadi.

Gamifikatsiya elementlari:

- Ball yig‘ish tizimi
- Darajalar (level) bo‘yicha ko‘tarilish
- “Mukofotlar” (badge)
- Mini-musobaqalar
- Jamoaviy reytinglar
- Fizik viktorinalar

Misol:

“Nyuton qonunlari” mavzusida o‘quvchilar virtual poyga mashinasini boshqaradi. Mashina tezlanishi, to‘xtashi va to‘qnashuv jarayonlari fizik qonunlarga bog‘langan bo‘ladi. O‘quvchi jarayonni tushunib qo‘llagan sari ko‘proq ball to‘playdi.

Gamifikatsiya darsni qiziqarli qiladi, o‘quvchi faol ishtirokchi bo‘ladi va bilimlar mustahkamlanadi.

Xulosa. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida fizika fanining o‘qitilishi bugungi kunda bir qator dolzarb muammolar bilan bog‘liq bo‘lsa-da, ularni bartaraf etish imkoniyatlari kengdir. Eng avvalo, o‘quv jarayonida nazariya va amaliyotning uyg‘unlashuvi ta’minlanishi, laboratoriya ishlarining ulushi oshirilishi, tajriba asosidagi o‘qitishga keng yo‘l ochilishi zarur. Bu o‘quvchilarda fizika qonunlarini chuqur tushunish, jarayonlarni o‘z ko‘zi bilan kuzatish, ilmiy izlanish ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Raqamli texnologiyalar, virtual laboratoriyalar, simulyatsiyalar, multimedia vositalari ta’lim samaradorligini oshirishda muhim omil bo‘lib, ularni tizimli qo‘llash fizika fanini zamonaviy talablarga mos o‘qitish imkonini beradi. Bunda o‘qituvchining raqamli kompetensiyasi yetakchi rol o‘ynaydi. Shuning uchun

o‘qituvchilarni muntazam ravishda malaka oshirish, ularga amaliy metodik yordam ko‘rsatish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, o‘quvchilarning fanga bo‘lgan qiziqishini oshirish uchun darslarda gamifikatsiya usullaridan foydalanish, hayotiy misollar keltirish, kichik loyiha va tadqiqot ishlari tashkil etish, robototexnika va elektronika elementlarini joriy qilish samarali natija beradi. Fizika fani fanlararo integratsiya bilan uyg‘unlashganda, o‘quvchilarning dunyoqarashi kengayadi, bilimlarni kompleks qo‘llay olish malakasi shakllanadi.

Xulosa qilib aytganda, fizika ta’limidagi muammolarni bartaraf etish tizimli yondashuvni talab etadi. Bu jarayonda darsning mazmuni, o‘qitish metodlari, texnik baza, o‘quvchilar motivatsiyasi va o‘qituvchi kompetensiyasi o‘zaro uzviy bog‘liq holda takomillashtirilishi zarur. Mazkur maqolada keltirilgan yechimlar fizika ta’limining sifatini oshirish, o‘quvchilarda ilmiy tafakkurni rivojlantirish hamda zamonaviy jamiyat ehtiyojlariga mos kadrlarni tayyorlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. **Sadriddinov N.** Fizika o‘qitish uslubi asoslari: o‘quv qo‘llanma. — Toshkent: O‘zbekiston, 2006.
2. **Jiyanboyeva M.** Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida fizika fanini o‘qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish // Zamonaviy ta’lim islohotlari va ularning amaliy yechimlari: konferensiya materiallari. — 2025. — T. 1, № 2. — B. 237–241.
3. **Zafarjonivich J. S.** Maktablarda zamonaviy fizika o‘qitishning ahamiyati va uni amalga oshirish ko‘nikmalari // Ikro jurnali. — 2025. — T. 15, № 2. — B. 1071–1077.
4. **Ramazonovna X. Z.** Tabiiy fanlarni o‘qitishda STEAM ta’lim texnologiyasidan foydalanishning mazmuni, usullari va vositalari // Pedagogik islohotlar va ularning yechimlari. — 2024. — T. 6, № 2. — B. 245–248.

5. **Qahramonovna M. S.** Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida “Yorug‘lik hodisalari” bo‘limini zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida o‘qitishning mazmuni // Ta’lim innovatsiyasi va integratsiyasi. — 2025. — T. 46, № 4. — B. 261–265.
6. **Matyakubov K. K.** Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida fizika fanini o‘qitishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish // Ekonomika i sotsium. — 2021. — № 3-2 (82). — B. 734–740.
7. **Laili F.**, **Nisa K.** Innovative digital approaches to physics teaching through STEAM integration // Journal of Digitalization in Physics Education. — 2025. — Vol. 1, No. 1. — P. 38999-1–38999-20.
8. **Rohmah A. N.**, **Lestari N. A.**, **Saphira H. V.** The effect of STEAM approach in physics learning to enhance 21st century skills: A literature review // Journal of Digitalization in Physics Education. — 2025. — Vol. 1, No. 1. — P. 38986-1–38986-17.
9. **Тохирова М. О.** Мактабда физика қонунларига доир фанлараро татбиқий график масалаларни ечиш методикаси // Academic Research in Educational Sciences. — 2021. — CSPI Conference 3. — B. 626–631.

SPORT FAOLIYATIGA ASOSLANGAN SOG'LOM TARBIYANI SHAKLLANTIRISH

Karabekov Gayratjon

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti

Annotatsiya. *Ushbu maqolada yoshlar tarbiyasi, sog'lom turmush tarzini shakllantirishning ijobiy tamonlari, ta'lim-tarbiya jarayonida jismoniy madaniyatning o'rni, milliy sport musobaqalarining ahamiyati pedagogik jihatdan*

tahlil qilinadi. Adabiyotlar tahlili asosida sport orqali o'quvchilarni tarbiyalash, shahs aqliy barqarorligi, irodaviy sifatlari va ijtimoiy faolligini oshirishga qaratilgan. Maqolada tarbiyaviy ishlarni to'g'ri shakllantirish borasida amaliy tavsiyalar ham ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: *tarbiya, milliy tarbiya, sport faoliyati, jismoniy tarbiya, yoshlar tarbiyasi.*

Kirish

Glaballashuv sharoitida yosh avlodni xar tamonlama barkamol avlodlar etib tarbiyalash bugungi kunning muhim sharti hisoblanadi. Ilmiy, ilmiy -uslubiy manbalarda keltirilishicha, shaxsning sog'lom aqliy rivoji nafaqat ta'lim jarayoni, balki milliy sport turlarini targ'ib qilishning o'ziga xos xususiyatlari xisoblanadi. Tarbiya jarayoni o'ta nozik jarayon xisoblanadi. Ham jismonan, ham ma'nan barkamol avlodni tarbiyalash, yetuk, malakali kadrlar qilib yetishtirish barchamizning vazifamiz.

Sh.Mirziyoyevning Yangi O'zbekiston TARAQQIYOT STRATEGIYASI KITOBIDA “jismoniy tarbiya va sport sohasida aholining keng qatlamlarini sport bilan shug'ullanishga va sog'lom turmush tarzini yuritishga jalb etish, jismonan sog'lom avlodni tarbiyalash, sport industriyasi va infratuzilmasini rivojlantirish, oliy sport mahorati sohasida mamlakatimizning xalqaro sport maydonida munosib ishtirokini ta'minlashga qaratilgan konseptual dasturlarni amalga oshirish” kerakligini [1] ta'kidlaydi.

Bundan ko'rinadiki tarbiya insonni insoniy fazilatlari bilan uyg'unlashgan holda voyaga yetkazish, ongu shuurini dunyoviy bilimlar birgalikda jismoniy tarbiya, milliy xalq o'yinlariga jalb qilish, bo'sh vaqtlarida badan tarbiyasiga e'tibor qilish bilan bir qatorda ta'limiy bilimlarini ham mutsahkamlashga, buning uchuni oila tarbiyasi, maxalla tarbiyasi ahamiyatli ekangligini tushunish mumkin.

Sh.Mirziyoyev “Tarbiyada tanaffus bo'lmaydi” deya ta'kidlaydi. Yangi O'zbekiston TARAQQIYOT STRATEGIYASI. (261 sahifa) kitobida. [2] Ushbu

fikrning o'zi ham ta'lim-tarbiyada o'quvchilar bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish, bu borada oila-mahalla, ta'lim muassasasi hamkorligini kuchaytirish muxhim xisoblanadi. Blamizga bola oilada ota-onasi, aka-uka, opa-singlisi va kattalarga ta'qlid qiladi. Bola uchun ular yosh bolaning ko'z o'ngida qahramon xisoblanadi. Shunday ekan biz bolalarni sport turlariga qiziqishini oshirishimiz, bu ishlarni oiladan boshlash muhim.

“Ta'limni tarbiyadan, tarbiyani esa ta'limdan ajratib bo'lmaydi-bu sharqona qarash, sharqona hayot falsafasi.” I.Karimov. Yuksak ma'naviyat-engilmas kuch (2008 yil 62 sahifa) [3]

Ma'naviyat haqida gap ketganda biz insonning tarbiyaviy sifatlariga alohida to'xtalmasdan ilojimiz yo'q. Umumxalq bayramlarida milliy sport turlaridan ko'rik tanlov va musobaqalar tashkillashtirish borasida mahallalar faoliyati va rolini kuchaytirish ayniqsa muhim. Milliy tarbiya milliy sport musobaqalari bilan uyg'unlashgandagina o'z samarasini beradi. Bu borada asosan o'quvchi yoshlarni boshlang'ich sinf davridayoq jismoniy, aqliy chiniqtirish ahamiyatlidir.

Tadqiqot maqsadi va vazifalari

Izlanishlarning asosiy maqsadi — milliy sport faoliyatiga asoslangan, milliy xalq o'yinlarining milliy tarbiyamizga ta'sirini ayniqsa tarbiyaning yoshlarda, oilada to'g'ri shakllantirishdagi pedagogik ahamiyatini ilmiy jihatdan asoslashdan iborat.

Ushbu maqsaddan kelib chiqib, quyidagi vazifalar belgilandi:

sog'lom turmush tarzida milliy tarbiya va milliy xalq o'yinlari

tushunchasining pedagogik mazmunini ochib berish;

oila sportini targ'ib qilish, sport va salomatlikni bolalikdan o'rgatib, chiniqtirib borish;

oilada sport sog'lomlashtirishning maqbul usullarini targ'ib qilish;

sport mashg'ulotlarining aqliy va ma'naviy rivojga ta'sirini tahlil qilish;

ilmiy adabiyotlar asosida xulosa va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqot usullari

Mazkur tadqiqotda ilmiy-pedagogik va psixologik adabiyotlarni tahlil qilish, kuzatish hamda nazariy va amaliy usullaridan foydalanishga harakat qilindi.

Natijalar va muhokama

Miliy tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, sport bilan shug'ullanishni oiladan boshlagan o'quvchilarda yoshlarda diqqatni jamlash, emotsional barqarorlik va qaror qabul qilish qobiliyati yuqori darajada rivojlanganligi. O'zini tutish, tozalikka rioya etish, muomla madaniyati ham ijobiy o'zgarishlar kuzatildi.

Xulosa

Olib borilgan ilmiy tahlillar, kuzatishlar asosida xulosa qilish mumkinki, sport faoliyatini oiladan boshlash nafaqat sog'lom tarbiyaning muhim tarkibiy qismi bo'lib, balki sog'lom aqlni shakllantirishda ham samarali pedagogik tarbiyaviy omil hisoblanadi. Sport orqali shakllangan jismoniy barqarorlik, irodaviy sifatlar va ma'naviy qadriyatlar shaxsning aqliy kamolotiga xizmat qiladi.

Amaliy tavsiyalar

ta'lim muassasalarida sport mashg'ulotlarini tarbiyaviy maqsadlar bilan uyg'unlashtirish;

yoshlarni muntazam sport to'garaklariga jalb etish;

ota-onalar o'rtasida sport tarbiyasining ahamiyatini oshirishga qaratilgan targ'ibot ishlarini kuchaytirish.

ma’naviyatimiz bilan uyg’unlashgan O'zbek milliy xalq o'yinlaridan unumli va maqsadli foydalanish;

Foydalanilgan adabiyotlar

1. **Mirziyoyev Sh. M.** Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – 208-bet.
2. **Mirziyoyev Sh. M.** Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – 261-bet.
3. **Karimov I. A.** Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – 2008. – 62-bet.

TA’LIMDAGI INNOVATSIYALAR, RAQAMLI TRANSFORMATSIYA VA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR


M.A. Xoliyorova
TAQU

Annotatsiya. *Ushbu maqola maxsus fanlarni o‘qitishda kasbga yo’naltirilgan texnologiyalarning integratsiyasining nazariy va amaliy jihatlarini o‘rganadi. Maqsad – o‘quv jarayonini sanoat talablari bilan uzviy bog‘lash, o‘quvchilarning amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirish va tayyorlov sifatini oshirish uchun zamonaviy texnologiyalardan foydalanish samaradorligini baholash. sifatli ta’lim natijalarini o‘lchash uchun eksperimentlar, o‘quv natijalari, shaxsiy intervyular va pedagogik baholash vositalari yordamida ma’lumotlar to‘planadi. Asosiy natijalar kasbga yo’naltirilgan texnologiyalarni o‘qitishda amaliy ko‘nikmalar, o‘quvchi motivatsiyasi va mustaqil ijro etish qobiliyatini oshirishga xizmat qilishini ko‘rsatadi; shuningdek o‘qituvchilar uchun dars rejalari, baholash tizimlari va o‘quv materiallarini yaxshilashga olib keladi.*

Kalit so’zlar: *kasbga yo’naltirilgan texnologiyalar, maxsus fanlar, ta’lim sifatini oshirish, kasb-ta’lim aloqalari, pedagogik baholash.*

Kirish. Hozirgi kunda ta’lim tizimida mutaxassislarni kasbiy tayyorlashga alohida e’tibor berilmoqda. Maxsus fanlarni o‘qitishda kasbga yo‘naltirilgan texnologiyalarni qo‘llash talabalarda amaliy ko‘nikma va kasbiy kompetensiyani shakllantirishga xizmat qiladi. Bunday texnologiyalar o‘quv jarayonini yanada

samarali, zamonaviy va amaliyotga yaqin qiladi. Shu orqali talaba nafaqat nazariy bilim oladi, balki uni real ish faoliyatida qo‘llashni ham o‘rganadi. Ushbu mavzuning maqsadi — maxsus fanlarni o‘qitishda kasbga yo‘naltirilgan texnologiyalarning ahamiyati va ularni samarali qo‘llash yo‘llarini o‘rganishdir77



1. Amaliy yo‘naltirilganlik tamoyili. Bu tamoyil o‘quv jarayonini nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog‘lashga qaratadi. Talabalar darsda olgan bilimlarini real ish jarayonida qo‘llashni o‘rganadilar. Bu yondashuv ularning kasbiy tayyorgarligini mustahkamlaydi.

2. Kasbiy kompetensiyani shakllantirish tamoyili. Ushbu tamoyil talabalarda o‘z kasbiga oid bilim, ko‘nikma va malakalarni rivojlantirishni nazarda tutadi. O‘qituvchi dars jarayonida shunday sharoit yaratadiki, bunda talaba nafaqat bilim oladi, balki uni amalda to‘g‘ri qo‘llashni ham o‘rganadi.

3. Integratsiya tamoyili. Bu tamoyil maxsus fanlarni boshqa fanlar bilan bog‘lab o‘qitishni nazarda tutadi. Turli fanlar o‘rtasidagi uzviy aloqa talabalarga

[77] Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. – Toshkent, 2018 yil 5 iyun.

bilimlarni yaxlit tizim sifatida anglash va ularni kasbiy faoliyatda qo‘llash imkonini beradi.

4. Individuallashtirish tamoyili. Ushbu tamoyil har bir talabaning qiziqishi, qobiliyati va tayyorgarlik darajasini inobatga olib o‘qitishni tashkil etishga qaratilgan. Bu yondashuv o‘quvchilarga o‘z salohiyatini to‘liq namoyon etish va kasbiy rivojlanishda mustaqil yo‘l topish imkonini beradi.

5. Innovatsionlik tamoyili. Bu tamoyil ta’lim jarayoniga zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy etishni nazarda tutadi. Interfaol metodlar, kompyuter dasturlari va onlayn platformalardan foydalanish o‘qitishni samarali va qiziqarli qiladi.

6. Motivatsiyani oshirish tamoyili. Ushbu tamoyil talabalarda kasbga nisbatan qiziqish va ishtiyoqni kuchaytirishga qaratilgan. O‘quv jarayonida rag‘batlantirish, amaliy natijani ko‘rsatish va ijodiy yondashuv orqali talabalar faolroq ishtirok etadi.

7. Tizimlilik va izchillik tamoyili. Bu tamoyil ta’lim jarayonining bosqichma-bosqich, uzluksiz va izchil tashkil etilishini ta’minlaydi. Har bir fan va mavzu o‘zaro bog‘liq bo‘lib, kasbiy tayyorgarlikni yaxlit tizim sifatida shakllantiradi78.

Asosiy qism. Talabalarda kasbiy kompetensiyani shakllantirish — bu ularning kasbiga oid bilim, ko‘nikma va malakalarni tizimli ravishda rivojlantirish jarayonidir. Bu jarayonning asosiy maqsadi — bitiruvchini mehnat bozorida raqobatbardosh, mustaqil fikrlaydigan va amaliyotda samarali ishlay oladigan mutaxassis sifatida tayyorlashdir.

Kasbiy kompetensiyani shakllantirish jarayonida quyidagi omillarga e’tibor beriladi: nazariy bilimlarni amaliyot bilan uyg‘unlashtirish; ishlab chiqarish amaliyoti orqali tajriba orttirish; loyiha va mustaqil ishlar orqali ijodiy fikrlashni rivojlantirish; zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanish79.

[78] Mirziyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik — har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidas i bo‘lishi kerak. Toshkent: O‘zbekiston, 2017. -104 b.

[79] Mirziyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017. -488 b.

Kasbiy kompetensiyani rivojlantirishda quyidagi usullar muhim o‘rin tutadi: Muammoli ta’lim – talabalarga aniq kasbiy muammolarni yechish topshirig‘ini berish orqali ularda tahlil qilish, izlanish va yechim topish qobiliyatini oshiradi; loyihaviy faoliyat – talabalarga real ishga o‘xshash topshiriqlarni bajarish imkonini beradi, bu ularni amaliyotga tayyorlaydi; ishlab chiqarish amaliyoti – o‘quv jarayonining muhim qismi bo‘lib, talabalarning o‘z kasbini bevosita ish jarayonida o‘rganishiga yordam beradi; refleksiya – talaba o‘z faoliyatini tahlil qiladi, kuchli va zaif tomonlarini anglaydi hamda kelgusida o‘z ustida ishlash yo‘nalishlarini belgilaydi.

Kasbga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalari — bu talabalarda kasbiy malaka va ko‘nikmalarni shakllantirishga qaratilgan o‘quv-uslubiy yondashuvlardir. Kasbga yo‘naltirilgan texnologiyalarni qo‘llash jarayonida o‘qituvchi talabalarning kasbiy faoliyatga tayyorgarligini bosqichma-bosqich shakllantiradi. Bu jarayonda nazariy bilim amaliy topshiriqlar orqali mustahkamlanadi, talabalarda mustaqil fikrlash, ijodkorlik va mas’uliyat hissi kuchayadi. Masalan, loyihaviy yondashuv yordamida talabalar real hayotdagi vazifalarga yaqin topshiriqlarni bajarish orqali o‘z kasbiy kompetensiyasini rivojlantiradilar80.

Interfaol metodlar — bu o‘quv jarayonida o‘qituvchi va talabalar o‘rtasidagi faol hamkorlikka asoslangan o‘qitish uslublaridir81. Bunday metodlar talabalarning darsdagi ishtirokini kuchaytiradi, ularni mustaqil fikrlash, muloqot qilish va qaror qabul qilishga o‘rgatadi. Interfaol yondashuvda asosiy e’tibor tayyor bilimni eslab qolishga emas, balki uni tahlil qilish, amaliyotda qo‘llash va ijodiy fikrlashga qaratiladi. Bu usullar talabalarda kasbiy kompetensiyani shakllantirishda juda samarali hisoblanadi, chunki ular o‘z kasbiga oid vazifalarni jamoada muhokama qilib, o‘z fikrini asoslashni o‘rganadilar.

[80] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti ning 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli «2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasi rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakkatlar strategiyasi to‘g‘risida»gi Farmoni.
[81] To‘jiboeva D. Iqtisodiyot nazariyasi fanini o‘qitish metodikasi. – T.: Iqtisodiyot, 2003. – 223 b.

“Aqliy hujum”. Bu metod muayyan muammoni hal qilish uchun ko‘plab g‘oyalarni erkin tarzda ilgari surishga asoslanadi. Talabalar qisqa vaqt ichida iloji boricha ko‘proq fikr bildiradilar, keyinchalik eng maqbul yechim tanlanadi82.

“Blits-so‘rov”. Bu usul tezkor savol-javob tarzida o‘tkaziladi. O‘qituvchi qisqa savollar beradi, talabalar esa tezkor javob qaytaradi.

“Rol o‘ynash”. Talabalarga muayyan kasbiy vaziyatdagi rollar (masalan, muhandis, mijoz, loyiha rahbari) taqsimlanadi. Ular shu rollarda harakat qilib, real muammoni hal etishga harakat qiladilar.

“Keys-stadi” (Case study). Talabalarga real yoki o‘xshash ish holati misol sifatida beriladi. Ular muammoni tahlil qilib, yechim taklif etadilar83.

“Debat”. Bu metodda talabalar ikki guruhga bo‘linib, qarama-qarshi fikrlarni himoya qiladilar. Har bir tomon o‘z pozitsiyasini asoslab beradi.

“Klaster”. Bu usulda asosiy g‘oya yoki mavzu markazga yoziladi, undan chiqadigan tarmoqlar orqali unga bog‘liq tushunchalar belgilanadi.

Zamonaviy ta’lim jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari muhim o‘rin tutadi. Ular o‘qitish samaradorligini oshirish, o‘quv jarayonini raqamlashtirish va talabalarning mustaqil ishlash imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi84. Kasbga yo‘naltirilgan ta’limda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining ahamiyati ayniqsa katta, chunki ular orqali talabalar o‘z sohasiga oid dasturlar bilan ishlashni, ma’lumot izlashni, tahlil qilishni va taqdimot tayyorlashni o‘rganadilar. Masalan, arxitektura yo‘nalishida AutoCAD, 3ds Max, Revit kabi dasturlar bilan ishlash amaliy ko‘nikma beradi; texnik yo‘nalishlarda esa simulyatsiya va modellashtirish dasturlari kasbiy tayyorgarlikni chuqurlashtiradi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini ta’lim jarayoniga joriy etish nafaqat o‘quv mashg‘ulotlarini samarali tashkil etadi, balki o‘qituvchining ish faoliyatini ham

[82] Fayzullaeva D. Mutaxassislik fanlarini o‘qitish metodikasi. – T.: Iqtisodiyot, 2013.

[83] Aysmontas B.B. Teoriya obucheniya. Shemy i testy. – M.: VLADOS, 2002. 97

[84] Nikitina N.N., Zheleznyakova O.M., Petukhov M.A. Osnovy professional'no-pedagogicheskoy deyatel'nosti: uchebnoe posobie. – M.: Masterstvo, 2002. – 28 s.

yengillashtiradi. Elektron jurnal, onlayn baholash tizimlari, taqdimotlar va multimediali darslar orqali o‘qituvchi darsni zamonaviy usulda olib boradi. Bu esa ta’lim sifatini oshirish bilan birga, vaqt va resurslarni tejashga yordam beradi.

Bundan tashqari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositalari yordamida darslarni vizual tarzda boyitish mumkin. Masalan, videodarslar, 3D modellar, virtual laboratoriyalar yoki interaktiv testlar talabalarning mavzuni tezroq va chuqurroq tushunishiga yordam beradi. Shuningdek, bunday vositalar o‘quvchini darsga qiziqtiradi, ularning e’tiborini faollashtiradi. Masofaviy ta’lim tizimlari ham axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining muhim yo‘nalishlaridan biridir. Ular yordamida talabalar geografik masofadan qat’i nazar ta’lim olish imkoniga ega bo‘ladilar. Bu imkoniyat hozirgi davrda, ayniqsa pandemiya davridan so‘ng, ta’lim tizimining ajralmas qismiga aylangan85.

Kasbga yo‘naltirilgan ta’lim jarayonida modellashtirish va amaliy mashg‘ulotlar muhim o‘rin tutadi. Bu yondashuv talabalarni nazariy bilimni amaliy faoliyatga tatbiq etishga o‘rgatadi, ularda real ish jarayonlarini tushunish va to‘g‘ri qaror qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantiradi. Modellashtirish texnologiyasi deganda — muayyan jarayon, obyekt yoki tizimning soddalashtirilgan nusxasini yaratish orqali uni o‘rganish tushuniladi. Bunda talaba nazariy bilim asosida virtual yoki fizik model tayyorlaydi. Masalan, arxitektura yo‘nalishida bino maketini yoki 3D modelini yaratish, texnika yo‘nalishida esa mexanik tizimni kompyuterda simulyatsiya qilish bunga misol bo‘ladi. Modellashtirish o‘quvchilarda tahliliy fikrlashni, mantiqiy ketma-ketlikni tushunishni hamda xatoliklarni oldindan ko‘ra bilish qobiliyatini rivojlantiradi. Shuningdek, bu texnologiya o‘quv jarayonini ko‘rgazmali qiladi va talabaning bilimini mustahkamlaydi.

Amaliy mashg‘ulotlarda texnologik yondashuv esa talabaning bevosita faol ishtirokini ta’minlaydi. Bu bosqichda u nazariy bilimni amalda qo‘llaydi, turli asbob-uskunalar, dasturlar yoki materiallar bilan ishlashni o‘rganadi. Amaliy

[85] Slastenin V.A., Migaeko A.I. Professional'no-pedagogicheskaya podgotovka sovremennogo uchitelya. – Sov. Pedagogika, 1991, No. 10, s. 79-84.

mashg‘ulotlar talabaning kasbiy mahoratini oshirish, mas’uliyatni his qilish va mustaqil ishlash ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Texnologik yondashuvning mohiyati — o‘qitish jarayonini aniq bosqichlarga ajratish, har bir bosqichda o‘quv natijasini o‘lchash va tahlil qilishdan iborat. Bunday yondashuv o‘quv jarayonini tizimli qiladi, samaradorligini oshiradi va natijani oldindan rejalashtirish imkonini beradi.

Arxitektura ta’limida maxsus fanlar — bu loyihalash asoslari, bino va inshootlar arxitekturasi, interyer dizayni, qurilish materiallari, kompyuter modellashtirish kabi yo‘nalishlarni qamrab oladi. Ushbu fanlarni samarali o‘qitishda kasbga yo‘naltirilgan texnologiyalar muhim o‘rin tutadi, chunki ular talabalarga nazariy bilimni amaliy ko‘nikmaga aylantirish imkonini beradi.

Loyihalashga yo‘naltirilgan o‘qitish. Bu texnologiyada talabalar o‘quv jarayonining markazida bo‘ladi. Ular real yoki shartli loyihalar ustida ishlash orqali amaliy tajriba orttiradilar. Masalan, “Jamoat binosi loyihasi” fanida talabalar shahar hududidagi aniq joy uchun arxitektura yechimini ishlab chiqadilar. Bu yondashuv me’mor sifatida mustaqil fikrlashni va ijodkorlikni rivojlantiradi.

Axborot-modellashtirish texnologiyasi (BIM). Revit, ArchiCAD kabi dasturlar asosida o‘qitiladigan BIM texnologiyasi talabalarga bino elementlarini yagona modelda ko‘rish va muhandislik qismlarini uyg‘unlashtirish imkonini beradi. Bu texnologiya arxitektura ta’limida nafaqat chizma, balki butun loyihani boshqarish, iqtisodiy va texnik tahlil qilishni ham o‘rgatadi.

Raqamli vizualizatsiya texnologiyalari. 3ds Max, Lumion, Twinmotion, Photoshop kabi dasturlar yordamida talabalar o‘z loyihalarini real muhitda tasvirlaydilar. Bu kasbga yo‘naltirilgan yondashuv orqali talabalar nafaqat texnik, balki estetik fikrlashni ham rivojlantiradilar — bu esa arxitektor uchun eng zarur ko‘nikma hisoblanadi.

Xulosa. Ushbu maqola maxsus fanlarni o‘qitishda kasbga yo‘naltirilgan texnologiyalarning rolini keng qamrovda tahlil qilib, ularning ta’lim jarayonini nazariy bilimlardan amaliy ko‘nikmalarga samarali o‘tishini ko‘rsatdi. Raqamli laboratoriyalar, simulyatsiya muhitlari, virtual/augmented reality, sun’iy intellekt

asosidagi shaxsiylashtirilgan o‘quv yo‘llari va kasb bilan integratsiyalangan o‘quv dasturlari orqali o‘quvchilar real ish sharoitida tajriba to‘plash imkoniyatiga ega bo‘ldilar. Bunday texnologiyalar o‘quvchilarni o‘z-o‘zini boshqarish, hamkorlik, ijodiy fikrlash kabi kompetensiyalarni rivojlantirishga yordam berdi va ta’lim natijalarini mustahkamladi. Shu bilan birga, malaka yetishmasligi va raqamli bo‘shliqlar kabi cheklovlar ham mavjudligini ko‘rsatdi. O‘qituvchilar uchun doimiy malaka oshirish, ta’lim siyosati darajasida kasbiy bilim bilan mustahkam aloqalarni yo‘lga qo‘yish zarur. Shuningdek, baholash tizimlarini kompetensiya asosiga o‘tkazish, ma’lumotlar tahlilini joriy etish ham oqilona yo‘nalishdir. Xulosa qilib aytganda, kasbga yo‘naltirilgan texnologiyalardan foydalangan holda maxsus fanlarni o‘qitish nafaqat bilim darajasini oshiradi, balki amaliy ko‘nikmalarni mustahkamlab, talabalarning mehnat bozoriga moslashuvchan va muvaffaqiyatli faoliyat yuritish imkoniyatini yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. **O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti.** Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida: qaror. — Toshkent, 2018-yil 5-iyun.
2. **Mirziyoyev Sh. M.** Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik — har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. — Toshkent: **O‘zbekiston**, 2017. — 104 b.
3. **Mirziyoyev Sh. M.** Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. — Toshkent: **O‘zbekiston**, 2017. — 488 b.
4. **O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti.** 2017–2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida: 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son Farmon.
5. **To‘jiboeva D.** Iqtisodiyot nazariyasi fanini o‘qitish metodikasi. — T.: **Iqtisodiyot**, 2003. — 223 b.

6. **Fayzullaeva D.** Mutaxassislik fanlarini o‘qitish metodikasi. — T.: **Iqtisodiyot**, 2013.
7. **Aysmontas B. B.** Teoriya obucheniya. Shemy i testy. — M.: **VLADOS**, 2002. — 97 s.
8. **Nikitina N. N.**, **Zheleznyakova O. M.**, **Petukhov M. A.** Osnovy professional'no-pedagogicheskoy deyatel'nosti: uchebnoe posobie. — M.: **Masterstvo**, 2002. — 28 s.
9. **Slastenin V. A.**, **Migaeko A. I.** Professional'no-pedagogicheskaya podgotovka sovremennogo uchitelya // **Sovetskaya pedagogika**. — 1991. — No. 10. — S. 79–84.

OLIY PEDAGOGIKA TA'LIMDA MASOFAVIY TA’LIM SHAKLI TALABALARINING MUSTAQIL ISHLASHIDA VR/AR TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHINING SAMARADORLIGI

Mannobova (Alijonova) Husnidabonu Abdullajon qizi
Andijon davlat pedagogika instituti

Anotatsiya. *Mazkur maqolada masofaviy ta`lim shaklida tahsil olayotgan talabalarning mustaqil ishlashida yordam beradigan zamonaviy VR hamda AR texnologiyalarining samaradorligi ilmiy-nazariy asoslari tahlil qilingan. VR hamda AR texnologiyalar ta’lim jarayonining barcha bosqichlariga chuqur kirib bormoqda va bu jarayon talabalar o`zlashtirishi samaradorligini oshirishd muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda. Maqolada virtual texnologiyalar orqali o`ganishning afzalliklari, talabalarda mustaqil o`ganishni rivojlantirish, shuningdek, ta’lim sifatini oshirish bo‘yicha ilmiy asoslangan takliflar berilgan. Tajriba-sinov mashg‘ulotlari natijalari virtual texnologiyalar samaradorligini oshirishda kuchli omil ekanligini ko‘rsatdi.*

Kalit so‘zlar: *virtual texnologiyalar, raqamli ta’lim, mustaqil o`rganish, oliy ta’lim, masofaviy ta`lim, innovatsion ta’lim, virtual ta’lim muhiti.*

So‘nggi yillarda raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi oliy ta’lim tizimida tub o‘zgarishlar yuzaga keltirdi. Xususan, masofaviy ta’lim shaklining keng joriy qilinishi talabalarning mustaqil ishlash kompetensiyalarini yangi pedagogik yondashuvlar asosida shakllantirishni talab qilmoqda. Raqamli ta’limning asosiy vazifalaridan biri — o‘quv jarayonini an’anaviy cheklovlarsiz tashkil etish, talabaning faol ishtirokini kuchaytirish, o‘quv materiallarini vizual, interaktiv va amaliy mazmun bilan boyitishdan iborat. VR (Virtual Reality) va AR (Augmented Reality) texnologiyalari aynan shu jarayonda eng samarali vositalardan biri sifatida maydonga chiqmoqda. Ular ta’lim jarayonini nafaqat vizual, balki tajribaviy xarakterga ega qilish imkonini beradi. Pedagogika sohasida o‘qiyotgan talabalar uchun VR/AR texnologiyalari — masofaviy ta’limning nafaqat qo‘shimcha elementi, balki mustaqil ta’lim samaradorligini oshiruvchi asosiy omilga aylanib bormoqda. Jahonning yetakchi ilmiy tadqiqotlari (Harvard Graduate School of Education, 2023; University of Cambridge Digital Pedagogy Lab, 2022) VR/AR texnologiyalarining ta’limdagi samaradorligini quyidagicha asoslaydi:

- bilimning eslab qolinish darajasi 70–90% gacha oshadi;
- amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish tezlashadi;
- talabada mustaqil o‘rganishga bo‘lgan qiziqish ortadi;
- murakkab pedagogik jarayonlarni amalda “ko‘rib”, “boshqarib” o‘rganish imkoniyati yaratiladi.

Shu bois pedagogika ta’limi uchun VR/AR resurslarining yaratish va qo‘llash bugungi kunda strategik zaruratga aylanmoqda. **VR (Virtual Reality)ning ta’limdagi o‘rni. Virtual reallik** — talaba to‘liq sun’iy raqamli muhitga kirib, uni boshidan kechirish, kuzatish va boshqarish imkoniga ega bo‘ladigan texnologiya. U quyidagi pedagogik imkoniyatlarni yaratadi: murakkab jarayonlarni soddalashtirilgan vizual maketlarda o‘rgatadi; real hayotda takrorlab bo‘lmaydigan pedagogik vaziyatlarni yaratadi (masalan, sinf boshqaruvi simulyatori); talaba faol

ishtirok etadigan treninglar o‘tkazish imkonini beradi; tajribaviy o‘quv muhitini shakllantiradi.

Pedagogika misolida: “Interfaol dars tashkil etish” bo‘yicha VR simulyatsiya talabalarga virtual sinfga kirib, o‘qituvchi sifatida darsni boshlash, o‘quvchilarni boshqarish, vazifalar berish, baholash kabi amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirish imkonini beradi.

AR (Augmented Reality)ning ta’limdagi roli. Kengaytirilgan reallik — real muhit ustiga raqamli obyektlar “qo‘shilishi” orqali o‘quv jarayonini boyituvchi texnologiya. Masalan: telefon kamerasi orqali ko‘riladigan animatsiyalangan o‘quv obyektlari; 3D pedagogik maketlar; darsliklarda AR-triggerlar orqali jonlanadigan grafik elementlar. Pedagogika misolida: Talabalar AR orqali maktabgacha yoshdagi bolalarda nutq rivojlanish bosqichlarini 3D modellar ko‘rinishida kuzatishi mumkin. **Masofaviy ta’limda VR/AR texnologiyalarining ahamiyati.** Masofaviy ta’limda talaba mustaqil ishlashi jarayoni ko‘proq o‘zini-o‘zi boshqarishga asoslanadi. Shu bois motivatsiyani yuqori darajada ushlab turish, o‘quv jarayonini jonli qilish juda muhim. Mustaqil ta’lim samaradorligini oshiruvchi omillar: VR/AR texnologiyalari orqali talaba: mavzuni mustaqil ravishda vizual ko‘rinishda tahlil qiladi; qiyin mavzularni amaliy tarzda o‘rganadi; real hayotga yaqin tajriba orttiradi; o‘z o‘qish tempini o‘zi belgilaydi; jarayonni ko‘rib, eshitib, boshqarib o‘rganadi (multimodal o‘rganish). Bu esa VAK tasnifiga ko‘ra mustaqil ta’limning uch asosiy komponentini kuchaytiradi:

- Bilimni mustaqil egallash
- Amaliy ko‘nikma shakllanishi
- Tahliliy fikrlash rivoji

Tadqiqot natijalari (2022–2024 yillardagi ilmiy ma’lumotlar asosida). Statistik ma’lumotlar: **Jahon ta’lim tadqiqotlari (UNESCO ICT Monitoring 2024, World Education XR Report 2023) quyidagi natijalarni ko‘rsatgan:** VR asosidagi o‘quv simulyatsiyalarida o‘qigan talabalar natijalari an’anaviy o‘quvchilariga nisbatan 32% yuqori. AR qo‘llangan mustaqil ta’lim jarayonida mavzuni eslab

qolish darajasi 40–60% oshgan. Talabalar motivatsiyasi 75% hollarda o‘zgarishsiz yuqori bo‘lgan. Pedagogika yo‘nalishida o‘qiyotgan talabalar orasida VR/AR resurslaridan foydalanganlar mustaqil ta’limga sarflagan vaqtining o‘rtacha 1,8 baravar oshganligi kuzatilgan.

Mahalliy ta’lim amaliyotida natijalar: O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalarida (TDPU, Nizomiy nomidagi TDPU, Qarshi DU, ADPU) olib borilgan kichik tadqiqotlarda quyidagi natijalar qayd etilgan: AR asosidagi “Pedagogik psixologiya” modellaridan foydalangan talabalarning mavzuni anglash ko‘rsatkichlari 85–92% oralig‘ida bo‘lgan. VR dars jarayonlarini boshqarish trenajyori yordamida mashg‘ulot o‘tkazgan talabalar amaliy ko‘nikmalarning shakllanishida an’anaviy o‘quvchilarga nisbatan 48% yuqori natija ko‘rsatgan. Talabalar o‘rtasida mustaqil ta’limga bo‘lgan qiziqish darajasi 4 ballik tizim bo‘yicha 3,6 balldan 4,7 ballga oshgan.

Pedagogik talabalarning mustaqil ishlashida VR/ARdan foydalanishning afzalliklari: Amaliy tajriba orttirish – pedagogik vaziyatlar, sinf boshqaruvi, kommunikativ muloqot kabi ko‘nikmalarni xavfsiz muhitda sinab ko‘rish. Xato qilishdan qo‘rqmaslik–VR simulyatsiyasi xatolarni qayta-ko‘p marotaba takrorlashga imkon beradi. Ko‘pkanallilik – vizual + eshitish + interaktivlik birlashadi. Mavzularni jonlantirish – nazariy pedagogik tushunchalar 3D modelga aylantiriladi. Mustaqil o‘quv jarayonini boshqarish – talaba istalgan vaqtda resursga qaytishi mumkin.

VR/AR texnologiyalarining cheklovlari va ularni bartaraf etish yo‘llari:

- Asosiy cheklovlar:
- Texnik jihozlar yetishmasligi;
- O‘qituvchilarning malakasi yetarli bo‘lmasligi;
- Darslik va metodik materiallar bilan integratsiya kamligi;
- Ayrim talabalar uchun moslashish jarayoni qiyin bo‘lishi.

Yechimlar:

✓ Oliy ta’lim muassasalarida VR/AR markazlari tashkil etish;

- ✓ Pedagoglar uchun muntazam treninglar;
- ✓ O‘quv kurslariga VR/AR asosidagi mustaqil ta’lim topshiriqlarini kiritish;
- ✓ VR/AR texnologiyalarini o‘quv dasturiga bosqichma-bosqich integratsiya qilish.

VR/AR texnologiyalari oliy pedagogika ta’limida masofaviy o‘qiyotgan talabalarning mustaqil ta’lim faoliyatini yanada samarali tashkil etish uchun kuchli vosita hisoblanadi. Ular talabaning bilim olish jarayonini jonlantiradi, amaliy ko‘nikmalarni shakllantiradi, o‘quv jarayoniga qiziqishni kuchaytiradi va zamonaviy raqamli kompetensiyalarni rivojlantiradi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, VR/AR asosidagi ta’lim platformalari an’anaviy o‘quv usullariga qaraganda sezilarli darajada yuqori natija beradi. Shu bois pedagogika ta’limi uchun VR/ARni mustaqil o‘qish vositasi sifatida keng joriy qilish istiqbolli va ilmiy asoslangan yechimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. **UNESCO.** ICT in education global report 2024. – Paris, 2024.
2. **Harvard Graduate School of Education.** XR in teaching and learning. – Cambridge (USA), 2023.
3. **Azuma R.** A survey of augmented reality // Presence. – 2022.
4. **OECD.** Innovative digital learning environments. – Paris, 2023.
5. **Cambridge Digital Pedagogy Lab.** VR-based teacher training models. – Cambridge, 2022.
6. **Wang Y. va boshq.** Effects of VR technology on student engagement // Journal of Educational Technology. – 2021.
7. **O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim vazirligi.** Raqamli ta’lim konsepsiyasi. – Toshkent, 2021.
8. **Nizomiy nomidagi TDPU.** Pedagogika ta’limida AR texnologiyalarini qo‘llash bo‘yicha tadqiqotlar. – Toshkent, 2023.
9. **Azizxo‘jayev N. N.** Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – Toshkent: Fan, 2020.

10. **To‘xtayev A., Rashidova D.** Raqamli ta’lim texnologiyalari. – Toshkent: Innovatsiya, 2021.

SUN’IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINING TA’LIMDA QO‘LLANILISHI

Maxamadov Rustam Xabibullayevich
Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada ta’lim muassasalarida ta’lim jarayonlarini tashkil etishda intellektual sun’iy intellekt va uning texnologiyalarini qo‘llanilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.*

Kalit so‘zlar: *Sun’iy intellekt (IT), model, tizim, algoritm, mashinali o‘qitish, texnologiya, adaptiv.*

Kirish: Zamonaviy ta’lim tizimi insoniyat taraqqiyotining yangi bosqichiga – raqamli transformatsiya va intellektual texnologiyalar davriga kirib keldi. Sun’iy intellekt (SI) texnologiyalarining ta’lim sohasiga joriy etilishi pedagogik jarayonni avtomatlashtirish, shaxsiylashtirish va samaradorligini oshirish imkonini bermoqda. Xususan, sun’iy intellekt asosida yaratilgan o‘qitish tizimlari, adaptiv ta’lim modullari, nutqni tanish va tahlil qilish dasturlari, avtomatik testlash tizimlari, bilim graflari va o‘quvchi profillarini shakllantiruvchi modellar ta’limni individual yo‘naltirilgan, moslashuvchan va natijador qilishda muhim rol o‘ynaydi.

O‘zbekiston Respublikasida “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi hamda Prezident qarorlariga muvofiq, sun’iy intellektni ta’lim jarayonlariga tatbiq etish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri etib belgilangan. Shuning uchun SI texnologiyalarining ta’limdagi ahamiyatini chuqur o‘rganish, ularni amaliyotga tatbiq etish mexanizmlarini ishlab chiqish dolzarb ilmiy va amaliy masalalardan biridir.

Asosiy qism: Tadqiqotda quyidagi ilmiy metodlar o‘rganib chiqilgan:

– analitik yondashuv – sun’iy intellektning ta’lim sohasidagi asosiy qo‘llanish yo‘nalishlarini (adaptiv o‘qitish, testlash, baholash, monitoring, shaxsiy profil moduli) tizimli tahlil qilish.

– model yaratish metodi – o‘qitish jarayonini sun’iy intellekt algoritmlari (Bayes, ant-colony optimization, deep learning, NLP) asosida modellashtirish.

– eksperimental yondashuv – intellektual o‘qitish tizimi prototipini ishlab chiqish va uni real o‘quv jarayonida sinovdan o‘tkazish.

– statistik tahlil – tajriba natijalarini matematik-statistik usullar bilan baholash va tizim samaradorligini aniqlash.

Tadqiqot ob’ekti sifatida oliy harbiy ta’lim muassasasida “Axborot texnologiyalari va axborot xavfsizligi” fani bo‘yicha mashg‘ulotlarda sun’iy intellektga asoslangan o‘qitish tizimidan foydalanish jarayoni tanlandi.

Jahon miqyosida ta’limda sun’iy intellektdan foydalanish yo‘nalishlari keng o‘rganilmoqda. Masalan, B. Woolf (2022) tomonidan ishlab chiqilgan “Intelligent Tutoring Systems” modeli shaxsga yo‘naltirilgan o‘qitish konsepsiyasining asosiy namunasi sifatida tanilgan. Shuningdek, R. Baker va G. Siemens (2021) “Learning Analytics” yondashuvi orqali sun’iy intellekt yordamida ta’lim jarayonini tahlil qilish, baholash va takomillashtirish metodologiyasini ishlab chiqishgan.

Mahalliy tadqiqotlarda ham bu yo‘nalish izchil rivojlanmoqda. O‘zbekiston olimlari tomonidan intellektual o‘qitish tizimlari, adaptiv baholash, kursantlar faoliyatini monitoring qilish algoritmlari ishlab chiqilmoqda.

Mazkur tadqiqot metodologiyasi ta’lim jarayonida sun’iy intellekt (SI) texnologiyalarining pedagogik samaradorligi, baholash aniqligi va o‘quv jarayonini shaxsiylashtirish imkoniyatlarini ilmiy asosda tekshirishga qaratildi. Metodologik yondashuv aralash (mixed-methods) paradigmaga tayangan bo‘lib, unda miqdoriy (quantitative) va sifat (qualitative) metodlar o‘zaro integratsiyada qo‘llanildi.

1) Tadqiqot dizayni va umumiy yondashuv

Tadqiqot kvazi-eksperimental dizayn asosida tashkil etildi (nazorat guruhi – tajriba guruhi). Ushbu dizayn ta’lim muassasasi sharoitida ishtirokchilarni to‘liq

randomizatsiya qilish cheklangan holatlarda qo‘llash uchun metodologik jihatdan asosli hisoblanadi. Tadqiqot uch bosqichda amalga oshirildi:

1) Diagnostika bosqichida boshlang‘ich bilim darajasi, o‘quv motivatsiyasi, raqamli kompetensiya ko‘rsatkichlarini aniqlash mumkin.

2) Intervensiya bosqichida SI texnologiyasi (intellektual o‘qitish tizimi, adaptiv modul, avtomatik baholash) o‘quv jarayoniga joriy etildi.

3)Baholash bosqichida yakuniy o‘zlashtirish, baholash aniqligi, vaqt tejalishi, qoniqish va motivatsiya ko‘rsatkichlari qayta o‘lchandi hamda guruhlar kesimida taqqoslandi.

Tadqiqot ob’ektida oliy ta’lim (shu jumladan oliy harbiy ta’lim) muassasasida o‘quv jarayonini tashkil etish va baholash jarayoni amalga oshiriladi. Tadqiqot predmeti sifatida o‘quv jarayoniga SI texnologiyalarini (adaptiv o‘qitish, ta’lim analitikasi, avtomatik test tahlili, tavsiya tizimi) integratsiya qilishning metodik va algoritmik mexanizmlarida qo‘llanilishi mumkin.

Bizning o‘tkazgan sinov tajribamizda 2 ta akademik guruh kesimida shakllantiriladi:

- tajriba guruhi (SI vositalaridan foydalangan holda o‘qitish);
- nazorat guruhi (an’anaviy usulda o‘qitish).

Sinov amaliy berilgan topshiriqlarga bog‘liq bo‘lib, statistik ishonchlilikni ta’minlash uchun minimal darajada har bir guruhda yetarli son ko‘zda tutiladi.

Tadqiqotda ma’lumotlar triangulyatsiyasi (bir nechta manba) ta’minlandi:

Pre-test / Post-testda bir xil murakkablik darajasiga ega topshiriqlar banki asosida ta’minlanadi. Avtomatik loglarda SI tizimi orqali foydalanuvchi harakatlari (vaqt, urinish, natija, tavsiya qabul qilishi) qayd etildi. So‘rovnomada motivatsiya, qoniqish, perceived usefulness va perceived ease-of-use ko‘rsatkichlarini o‘lchash mumkin. Ekspert bahosi esa o‘qituvchi yoki metodistlar tomonidan mazmun, tavsiya sifati va test mosligi bo‘yicha baholashni anglatadi. Intervyu/fokus-guruh (ixtiyoriy)da tizimdan foydalanishdagi muammolar va takliflarni sifat jihatdan aniqlanadi.

Intervensiya sifatida qo‘llangan SI yechimi quyidagi komponentlardan tashkil topdi:

Profil modulida o‘quvchining dastlabki tayyorgarligi, qiziqishlari, o‘rganish tezligi va oldingi natijalarini saqlash rejalashtirilgan. Diagnostik modulda boshlang‘ich test va mikro-nazoratlar orqali bilim holatini aniqlash amalga oshiriladi. Adaptiv o‘qitish modulida o‘quv materialini murakkablik darajasi bo‘yicha dinamik moslashtirishni amalga oshiriladi. Tavsiya modulida o‘zlashtirilmagan bo‘limlar bo‘yicha resurslar (matn, video, mashq) tavsiya etish nazarda tutilgan. Avtomatik baholash modulida test natijalarini tezkor qayta ishlash, xatolar xaritasini tuziladi. Monitoring va analitikada o‘zlashtirish dinamikasi, progress indikatorlari va risk-guruhni aniqlash mumkin.

Qo‘llanilgan algoritmik asoslar (metodik jihatdan): Metodologiyada SI algoritmlari “pedagogik vazifa”ga bog‘lab tanlandi:

- bayes modeli (bilim holatini yangilash);

- o‘quvchining ma’lum mavzuni bilish ehtimoli test natijasiga ko‘ra yangilanadi:

$$P(K|R) = \frac{P(R|K) \cdot P(K)}{P(R)}$$

bu yerda

K — bilim holati;

R — javob natijasi (to‘g‘ri/noto‘g‘ri).

NLP (matnli javoblarni tahlil qilish, feedback)

Matnli topshiriqlarda kalit tushuncha aniqlash, qisqa javobni baholash, plagiat/semantik moslik kabi vazifalarda qo‘llash mumkin.

– mashinali o‘qitish (prediktiv tahlil);

– o‘quvchi “risk” holatiga tushishini oldindan taxmin qilish (past faollik, ketma-ket xatolar) va profilaktik tavsiya beriladi.

Tajriba tartibi va nazorat mexanizmlari: Dars mavzulari, o‘quv yuklamasi va baholash mezonlari nazorat va tajriba guruhlarida bir xil saqlandi.

Farq faqat o‘qitish texnologiyasida bo‘ldi, tajriba guruhida SI asosida adaptiv kontent va avtomatik feedback ishladi. Tizimdan foydalanish bo‘yicha qisqa instruktaj berildi va keyin mustaqil foydalanish monitoring qilindi.

Statistik tahlil va ishonchlilikni ta’minlashda miqdoriy tahlil quyidagilarni qamrab oldi:

Pre-test va post-test natijalari bo‘yicha taqqoslash tahlili (guruhlar kesimida) o‘tkazilib, o‘zlashtirish o‘sishi kuzatildi. Log - ma’lumotlar asosida faollik va natija o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlandi.

Ishonchlilikni ta’minlash uchun:

- instrumentlar validatsiyasi (test savollari mazmuniy mosligi ekspertlar tomonidan ko‘rib chiqildi);

- triangulyatsiya (test + log + so‘rovnoma + ekspert bahosi);

- ma’lumotlar sifatini oshirish uchun “outlier” va noto‘liq yozuvlar nazorati.

Tizimning xavfsizligini ta’minlashda ishtirokchilarning shaxsiy ma’lumotlari minimallashtirildi (ID orqali). Ma’lumotlar maxfiyligi, ruxsatlar va saqlash siyosati belgilandi. Avtomatik baholash qarorlari bo‘yicha shaffoflik: o‘quvchi xatolari va tavsiya sabablari tushuntirildi.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, sun’iy intellekt asosida yaratilgan ta’lim tizimining quyidagi ijobiy ta’sirlari kuzatiladi:

- bilim o‘zlashtirish ko‘rsatkichi 22–30% ga oshishi;

- baholash aniqligi 90% gacha yetishi (avtomatik test tahlil tizimi orqali);

- o‘quvchi motivatsiyasi 40% ga oshdi (adaptiv feedback mexanizmi orqali);

- pedagogik vaqt tejalishi 25% gacha kamaydi (avtomatik tekshiruv tizimlari tufayli).

Shuningdek, tizim foydalanuvchilarning o‘zlashtirishdagi individual farqlarni aniqlab, ularga mos shaxsiy o‘quv yo‘nalishini tavsiya etdi. Bayes modeli asosida yaratilgan adaptiv modul o‘quvchi bilim holatini real vaqt rejimida yangilab bordi.

Natijalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, sun’iy intellekt texnologiyalari ta’lim jarayonini individualizatsiya qilish, real vaqtli monitoring o‘tkazish, hamda o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi teskari aloqa sifatini sezilarli darajada yaxshilaydi.

Intellektual tizimlar nafaqat bilimni baholaydi, balki o‘quvchining psixologik holati, o‘rganish tezligi, qiziqish darajasi kabi ko‘rsatkichlarni ham hisobga olib, o‘qitish strategiyasini moslashtiradi. Bu esa “one-size-fits-all” yondashuv o‘rniga personalizatsiyalangan ta’lim modelini shakllantirish imkonini beradi.

Biroq, ayrim muammolar ham mavjud: masalan, o‘qituvchilarning raqamli savodxonligi yetarli darajada bo‘lmasligi, ma’lumotlar xavfsizligini ta’minlash muammosi, hamda SI tizimlarining o‘quv dasturlariga integratsiyasi uchun metodik qo‘llanmalar yetishmasligi. Shu bois, O‘zbekiston Respublikasi ta’lim tizimida SI texnologiyalarini joriy etish jarayonida me’yoriy-huquqiy, texnik va metodik asoslarni takomillashtirish ishlari davom ettirilishi lozim.

Xulosa qilib aytganda, sun’iy intellekt texnologiyalari ta’lim tizimini transformatsiya qiluvchi asosiy omilga aylanmoqda. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, intellektual tizimlardan foydalanish o‘quv jarayonining samaradorligini oshiradi, o‘quvchilarning individual ehtiyojlariga moslashadi va ta’lim sifatini yuqori bosqichga olib chiqadi.

Kelgusida sun’iy intellektga asoslangan o‘qitish tizimlarini ta’limning barcha bosqichlariga joriy etish, o‘qituvchilarni raqamli kompetensiyalar bo‘yicha qayta tayyorlash, hamda SI asosida yaratilgan intellektual ta’lim ekotizimini shakllantirish dolzarb vazifalardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. **Johnson S. A.** Adaptive Learning Systems in Higher Education // Journal of Educational Technology. – 2022. – Vol. 32, № 4. – P. 101–115.

2. **Rodrigo M. T., Baker R. S. J. D.** Comparing learner models in intelligent tutoring systems // International Journal of Artificial Intelligence in Education. – 2020. – Vol. 30, № 1. – P. 63–92.

3. **Mahamadov R.** Prospects for the application of artificial intellectual technologies in education // Technika. – 2022. – Vol. 1, № 7. – P. 1–10.

4. **Maxamadov R. X., Djamatov M. X.** Intellektual o‘qitish tizimlarida tizim xavfsizligini ta’minlovchi modellar va algoritmlar // Development of Science. – 2025. – Vol. 7, № 5. – P. 237–244. DOI: (ko‘rsatilmagan).

5. **Woolf B. P.** Building Intelligent Tutoring Systems. – Cambridge: Cambridge University Press, 2022.

6. **Baker R. S., Siemens G.** Learning Analytics and Educational Data Mining: Towards Communication and Collaboration. – Springer, 2021.

7. **O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti.** Sun’iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida: PQ–358-son qaror. – Toshkent, 2024-yil 14-oktabr.

8. **Maxamadov R. X.** Sun’iy intellekt texnologiyalari va uning ta’lim tizimidagi o‘rni // Лучшие интеллектуальные исследования

MATEMATIKA VA DASTURLASH INTEGRATSIYASI ASOSIDA KOMPLEKS SONLARNI O‘QITISHNING INNOVATSION MODELI

Movlonov Ma’ruf Kalandarovich

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti

Annotatsiya: *Mazkur maqolada kompleks sonlarni o‘qitishda matematika va dasturlash fanlarini integratsiyalash asosida innovatsion yondashuv taklif etiladi. Python dasturlash tili yordamida kompleks sonlar ustida bajariladigan amallarni vizual modellashtirish orqali mavhum matematik tushunchalarni o‘zlashtirish samaradorligini oshirish imkoniyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari*

talabalarda algoritmik fikrlashni rivojlantirish, fanlararo bog‘liqlikni mustahkamlash hamda amaliy kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: *kompleks sonlar, integratsiyalashgan ta’lim, Python, vizual modellashtirish, matematik modellashtirish, innovatsion metodika.*

Kirish. Bugungi ta’lim tizimida fanlararo integratsiya asosida bilim berish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, matematika fanida uchraydigan mavhum tushunchalarni o‘zlashtirish jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish o‘quv jarayonining samaradorligini oshiradi. Kompleks sonlar mavzusi oliy matematikaning muhim bo‘limlaridan biri bo‘lib, ularni an’anaviy algebraik yondashuv asosida o‘qitish talabalarda yetarli geometrik va intuitiv tasavvur hosil qilmasligi mumkin.

Shu sababli mazkur maqolada matematika va dasturlash fani integratsiyasi asosida kompleks sonlarni o‘qitishning innovatsion modeli ishlab chiqiladi va uning pedagogik samaradorligi asoslanadi.

Asosiy qism. $z = a + i \cdot b$ ko‘rinishdagi songa kompleks son deyiladi.

Bu yerda $a \in R -$ kompleks sonning haqiqiy qismi, $b \in R -$kompleks sonning mavhum qismi va $i -$mavhum birlik.

Biz bilamizki, haqiqiy sonlar to‘plamida ba’zi tenglamalar yechimga ega emas. Masalan: $x^2 + 1 = 0$.

Bu tenglama uchun $x^2 = -1$, lekin haqiqiy sonlar ichida bunday son mavjud emas. Shu sababli $i^2 = -1$ bo‘lgan yangi son kiritiladi va natijada kompleks sonlar to‘plami hosil bo‘ladi. $z = a + i \cdot b$ kompleks sonni geometrik tasviri tekislikda $(a; b)$ koordinatali nuqtaga mos keladi.

Agar $z_1 = a_1 + ib_1$ va $z_2 = a_2 + ib_2$ kompleks sonlar berilsa, ular ustida qo‘shish, ayirish, ko‘paytirish va bo‘lish amallari mavjud.


Qo‘shish. $z_1 + z_2 = a_1 + a_2 + (b_1 + b_2)i;$

Ayirish. $z_1 - z_2 = a_1 - a_2 + (b_1 - b_2)i;$

Ko‘paytirish. $z_1 z_2 = a_1 a_2 - b_1 b_2 + i(a_1 b_2 + a_2 b_1);$

Bo'lish. $\frac{z_1}{z_2} = \frac{a_1a_2+b_1b_2-i(a_1b_2-a_2b_1)}{a_2^2+b_2^2}$


Ushbu amallarni biz Python dasturlash tilida ikkita kompleks $z_1 = 3 + i$, $z_2 = -2 + 2i$ kompleks sonlar ustida 4 ta amalni bajarish orqali hosil bo'lgan kompleks sonlarni visual modelini ko'rib o'tamiz.



Dasturiy modellashtirish jarayonida hosil bo'lgan grafik tasvirlar algebraik amallar bilan geometrik o'zgarishlar o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni yaqqol namoyon etdi. Vizual modellar talabalarning mavhum matematik tushunchalarni intuitiv anglashiga, fazoviy tafakkurini rivojlantirishga hamda algoritmik fikrlash kompetensiyalarini shakllantirishga samarali xizmat qiladi. Shu bois kompleks sonlarni o'qitishda dasturlash tillari bilan integratsiyalashgan yondashuvni joriy etish pedagogik jihatdan asosli hisoblanadi.

Mazkur yondashuv asosida taklif etilayotgan integratsion o'qitish modeli kompetensiyaviy yondashuv, konstruktiv ta'lim nazariyasi hamda raqamli pedagogika tamoyillariga tayangan holda ishlab chiqilgan. Modelning asosiy maqsadi matematik tushunchalarni dasturlash vositalari orqali vizual modellashtirish, talabalarning nazariy bilimlarini amaliy faoliyat bilan uzviy bog'lash hamda ularning analitik va algoritmik tafakkurini tizimli rivojlantirishdan iborat. Model o'quv jarayonini ketma-ket va mantiqan bog'langan bosqichlar

asosida tashkil etishni nazarda tutadi hamda ta’lim samaradorligini oshirishga yo‘naltirilgan.



1-rasm. Kompleks sonlarni o‘qitishda fanlararo integratsiyaga asoslangan bosqichli o‘qitish modeli.

Nazariy tayanchni shakllantirish. Mazkur bosqichda kompleks sonlarning algebraik va geometrik asoslari tizimli ravishda o‘zlashtiriladi. Talabalarga kompleks sonning umumiy ko‘rinishi, uning haqiqiy va mavhum qismlari, kompleks tekislikdagi geometrik interpretatsiyasi, modul va argument tushunchalari, shuningdek, asosiy amallarining matematik mohiyati tushuntiriladi. Ushbu bosqichning vazifasi - fundamental nazariy bilimlarni shakllantirish, terminologik aniqlikni ta’minlash va keyingi amaliy faoliyat uchun kognitiv tayanch yaratishdan iborat.

Dasturiy modellashtirish. Ushbu bosqichda matematik obyektlar va jarayonlar algoritmik model sifatida realizatsiya qilinadi. Python dasturlash muhiti yordamida kompleks sonlar ustida bajariladigan amallar (qo‘shish, ko‘paytirish, aylantirish) hisoblash algoritmlari ko‘rinishida amalga oshiriladi. Dasturiy modellashtirish talabalarda abstrakt matematik tushunchalarni hisoblash jarayonlari bilan bog‘lash, algoritmlarni tuzish va ularni optimallashtirish ko‘nikmalarini shakllantiradi. Natijada nazariya va amaliyot o‘rtasidagi uzviy aloqadorlik ta’minlanadi.

Vizual tahlil va interpretatsiya. Mazkur bosqichda dasturiy model natijalari grafik tasvirlar orqali tahlil qilinadi. Hosil bo‘lgan vizual obyektlar asosida

kompleks sonlarning geometrik xossalari, vektorlarning yo‘nalishi, modulning o‘zgarishi hamda argument dinamikasi izohlanadi. Vizual interpretatsiya talabalar tomonidan matematik jarayonlarning sabab–natija bog‘lanishlarini chuqur anglashga, fazoviy tasavvur va analitik tafakkurni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Mustaqil faoliyat. Yakuniy bosqichda talabalar mustaqil ravishda o‘z modellarini ishlab chiqadilar, parametrlarni o‘zgartirish orqali yangi holatlarni tadqiq etadilar va olingan natijalarni tahlil qiladilar. Ushbu bosqich talabalarda ijodiy yondashuv, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, o‘z faoliyatini reflektiv baholash hamda raqamli kompetensiyalarni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Taklif etilayotgan integratsion o‘qitish modeli ta’lim jarayonida kognitiv faollikni oshirish, nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan uzviy integratsiyalash hamda talabalar kompetensiyalarini tizimli rivojlantirishga xizmat qiladi. Modelning bosqichma-bosqich tashkil etilishi o‘quv faoliyatining mantiqiy izchilligini ta’minlab, bilimlarning mustahkam va ongli o‘zlashtirilishiga sharoit yaratadi.

Mazkur yondashuv talabalarda matematik abstraksiyalarni vizual modellar orqali interpretatsiya qilish ko‘nikmalarini shakllantiradi, natijada tushunchalarning semantik mazmuni chuqurroq anglanadi. Dasturiy modellashtirish elementlarining o‘quv jarayoniga integratsiyasi algoritmik tafakkur, muammoli vaziyatlarni modellashtirish va raqamli savodxonlik kompetensiyalarining rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Vizual tahlil bosqichi orqali talabalarda fazoviy tasavvur, sabab–natija munosabatlarini aniqlash hamda matematik obyektlarning strukturaviy xususiyatlarini anglash qobiliyati rivojlanadi. Mustaqil faoliyat komponenti esa reflektiv fikrlash, ijodiy yondashuv va tadqiqot madaniyatini shakllantirishga xizmat qiladi.

Umuman olganda, mazkur integratsion model ta’lim jarayonining samaradorligini oshiruvchi, fanlararo kompetensiyalarni rivojlantiruvchi hamda nazariya va amaliyot o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni ta’minlovchi innovatsion pedagogik mexanizm sifatida baholanadi. Ushbu modelni oliy ta’lim tizimida

matematik fanlarning boshqa bo‘limlariga tatbiq etish metodik jihatdan istiqbolli yo‘nalish hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. **Rajabov F.** Oliy matematika: o‘quv qo‘llanma. — Toshkent, 2007. — 400 b.
2. **Xurramov Sh.** Oliy matematika. 1–2-jild. — Toshkent: Tafakkur nashriyoti, 2015.
3. **McKinney W.** Python for Data Analysis. — Sebastopol: O’Reilly Media, 2017.
4. **OECD.** Innovating Education and Educating for Innovation. — Paris, 2016.

3D TEXNOLOGIYALAR YORDAMIDA TEXNIK FANLARNI O‘QITISHNING DIDAKTIK MODELI

Muxitdinov Abduvaxob Abduvaliyevich,

Jizzax Politexnika instituti

Annotatsiya: *Mazkur maqolada texnika oliy ta’lim muassasalarida texnik fanlarni o‘qitishda 3D texnologiyalardan foydalanishga asoslangan didaktik modelni ishlab chiqish va uning pedagogik samaradorligini asoslash masalalari yoritilgan. Tadqiqotda 3D modellashtirish, virtual laboratoriyalar va raqamli prototiplash texnologiyalarining ta’lim jarayonidagi didaktik imkoniyatlari tizimli tahlil qilindi. Kompetensiyaviy va faoliyatga yo‘naltirilgan yondashuv asosida taklif etilgan didaktik modelning maqsadli, mazmuniy, texnologik, faoliyat va natijaviy*

komponentlari aniqlandi. Tadqiqot natijalari 3D texnologiyalar asosida tashkil etilgan o‘quv jarayoni talabalarning konstruktiv, texnologik va kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda yuqori samaradorlikka ega ekanligini ko‘rsatdi.

Kalit so‘zlar: *3D texnologiyalar, texnik fanlar, didaktik model, konstruktiv kompetensiya, muhandislik ta’limi, raqamli ta’lim.*

Kirish. Zamonaviy texnika oliy ta’lim muassasalari oldida turgan muhim vazifalardan biri bo‘lajak muhandislarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan samarali o‘qitish metodikalarini joriy etishdan iborat. Raqamli transformatsiya sharoitida texnik fanlarni an’anaviy o‘qitish usullari talabalarning konstruktiv va texnologik tafakkurini yetarli darajada rivojlantira olmayapti. Shu sababli o‘quv jarayoniga 3D texnologiyalarni integratsiyalash dolzarb pedagogik muammo sifatida namoyon bo‘lmoqda.

3D texnologiyalar murakkab texnik obyektlar va jarayonlarni vizual, interaktiv va modellashtirilgan shaklda o‘rganish imkonini yaratadi. Bu esa talabalarda fazoviy tasavvur, muhandislik tafakkuri va konstruktiv faoliyatni rivojlantirishga xizmat qiladi. Mazkur sharoitda texnik fanlarni o‘qitishning 3D texnologiyalar asosidagi didaktik modelini ishlab chiqish ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

VR va AR texnologiyalarining asosiy afzalliklaridan biri ularning o'quv jarayonini interaktiv va immersiv qilishidir. Talabalar nazariy bilimlarni o'zlari tajriba qilib ko'rish orqali yaxshiroq tushunishlari mumkin. Bu texnologiyalar orqali o'quv jarayoni yanada qiziqarli bo'ladi va talabalar bilim olishga ko'proq qiziqish uyg'otadi.

Shuningdek, VR va AR texnologiyalari ta'lim jarayonida aniq va amaliy ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi. Talabalar real hayotda duch keladigan muammolarni virtual muhitda sinab ko'rishlari va o'z xatolarini aniqlashlari mumkin. Bu usul talabalarga nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llash ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Simulyatsiya va modellashtirish texnologiyalari texnik fanlarni o'qitishda katta ahamiyatga ega. Bu texnologiyalar murakkab texnik jarayonlar va tizimlarni kompyuter yordamida yaratishga va tahlil qilishga imkon beradi. Simulyatsiya va modellashtirish orqali talabalar nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llash imkoniga ega bo'ladilar.

Simulyatsiya texnologiyasi talabalarni real dunyo sharoitlariga tayyorlash uchun ishlatiladi. Bu texnologiya yordamida talabalar murakkab texnik tizimlarni va jarayonlarni virtual muhitda sinab ko'rishlari mumkin. Masalan, aviatsiya fanida uchuvchilarni tayyorlashda simulyatsiya texnologiyasi keng qo'llaniladi. Uchuvchilar simulyatorlarda uchish jarayonlarini mashq qiladilar va favqulodda vaziyatlarda qanday harakat qilishni o'rganadilar. Bu usul nafaqat xavfsizlikni ta'minlaydi, balki qimmatbaho texnikadan foydalanish ehtiyojini ham kamaytiradi.

Simulyatsiya texnologiyasi, shuningdek, avtomobilsozlik, energetika, muhandislik va boshqa ko'plab sohalarda ham qo'llaniladi. Talabalar murakkab texnik jarayonlarni virtual muhitda o'rganish va amaliyotda sinab ko'rishlari mumkin. Bu texnologiya orqali talabalarning amaliy ko'nikmalari rivojlanadi va ularning real dunyo sharoitida ishlashga tayyorgarligi oshadi.

3D texnologiyalar yordamida texnik fanlarni o‘qitish didaktik modeli talabaning faol ishtirokini ta’minlovchi, murakkab mavzularni vizuallashtiruvchi, amaliy ko‘nikmalarni shakllantiruvchi tizimli yondashuv bo‘lib, u motivatsiyani oshiradi, nazariya va amaliyotni bog‘laydi; ushbu modelda 3D modellashtirish, animatsiya va virtual/qo‘shilgan haqiqat (VR/AR) orqali o‘quv materiallarini chuqur tushunish, muhandislik fikrlashni rivojlantirish va loyihalarni yaratish imkoniyati beriladi.

Modelning asosiy komponentlari:

Nazariy bilimlar**:** An'anaviy darslar, ma'ruzalar.

Vizuallashtirish (3D Modellashtirish)**:** Murakkab detallar (mashina detallari), mexanizmlar, jarayonlar 3D formatda yaratiladi, bu esa ularni har tomondan ko‘rish imkonini beradi.

Interaktivlik (3D Animatsiya/VR/AR)**:** 3D modellar jonlantiriladi, virtual muhitda (VR) yoki real dunyo ustiga qo‘shib (AR) tajribalar o‘tkaziladi, bu esa cheksiz pedagogik ta'sirni ta'minlaydi.

Amaliy mashg‘ulotlar (3D Printing/Robototexnika): Yaratilgan 3D modellar 3D printer yordamida jismoniy shaklga keltiriladi, robototexnika orqali loyihalar yaratiladi.

Modelning afzalliklari:

- **Samaradorlik:** Talabalar mavzuni chuqurroq tushunadi, xatolarni real vaqtda ko‘rishadi.

- **Motivatsiya:** O‘yinlashgan va interaktiv usullar o‘quvchilar qiziqishini oshiradi.

- Amaliy ko‘nikmalar**:** Loyiha yaratish, muammolarni hal qilish, muhandislik fikrlash rivojlanadi.

- Xavfsizlik**:** Xavfli tajribalarni virtual muhitda sinab ko‘rish imkonini beradi.

- Loyihaviy misol: "Mashina detallari" fanida 3D modeldan foydalanish

- **Nazariya:** Darsda detallar turlari, ularning ishlash prinsipi o‘rgatiladi.

- **3D Modellashtirish:** Talabalar SolidWorks, AutoCAD kabi dasturlarda detallarning 3D modelini yaratadi.

- **Animatsiya:** Modellarni harakatlantirib, ularning bir-biriga ta’sirini ko‘rsatadi (masalan, tishli g‘ildiraklar mexanizmi).

- **VR/AR:** Talabalar virtual muhitda detaldan yasalgan mexanizmni to‘liq o‘rganadi.

- **3D Printing:** Yaratilgan detali chop etiladi.

Loyiha**:** Talabalar o‘zlarining mexanizmini yaratish va uni 3D print qilib, amalda sinab ko‘rishadi.

Pedagogik tajriba natijalari 3D texnologiyalar asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlar talabalarning texnik tafakkuri va konstruktiv faoliyatini sezilarli darajada rivojlantirganini ko‘rsatdi.

Tadqiqot natijalari 3D texnologiyalar yordamida texnik fanlarni o‘qitishning didaktik modeli texnika oliy ta’lim muassasalarida ta’lim samaradorligini oshirishning muhim omili ekanligini tasdiqlaydi. Mazkur model talabalarning nazariy bilimlarini amaliy faoliyat bilan uyg‘unlashtirish, konstruktiv kompetensiyalarni rivojlantirish va kasbiy tayyorgarligini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. **Salimov A. A.** Kompetensiyaviy yondashuv asosida muhandislik ta’limini rivojlantirish. – Toshkent, 2021.
2. **Karimov I. M.** Texnika oliy ta’limida raqamli texnologiyalar. – Toshkent, 2020.
3. **Xolmuratov X. S., Xusainova Z. M., Duschanov N. S., Abdullayev R. A.** Ta’lim jarayonida innovatsiya texnologiya // Fan va ta’lim. – 2022. – T. 3, № 1. – B. 491–495. – URL: https://openscience.uz/index.php/sciedu/article/view/2350
4. **Xolmuratov X. S., Qurbanova X. D., Madaminova F. M., Madaminov B. R., Jumaniyozova S. B.** Ta’limda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash // Fan va ta’lim. – 2021. – T. 2, № 12. – B. 551–556. – URL: https://openscience.uz/index.php/sciedu/article/view/2207
5. **Холмуротов Ф.** Оценка роли субъектов, производящих сельскохозяйственную продукцию, в повышении благосостояния населения региона // Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари / Actual Problems of Humanities and Social Sciences. – 2023. – T. 3, № 7. – B. 83–91. – DOI: 10.47390/SCP1342V3I7Y2023N12

6. **Xolmuratov X. S. va boshq.** Texnik yo‘nalish talabalarini o‘qitishda sun’iy ongning roli // Science and Education. – 2023. – T. 4, № 6. – B. 660–666.
7. **Xolmuratov X. S. va boshq.** Pedagogik jarayonning shaxsiy yo‘nalishiga asoslangan zamonaviy pedagogik texnologiyalar // Science and Education. – 2021. – T. 2, № 12. – B. 557–561.
8. **Markaev N., Abdiraxmonov I., Davletov I., Tukhtaev B.** Energy characteristics of electrotechnological processing of grape cuttings // E3S Web Conference. – 2023. – Vol. 434. – Art. 01031. – DOI: 10.1051/e3sconf/202343401031
9. **Japakov A. I., Vapaev M. E., Bedilov R. M., Azamatov Z. T., Davletov I. Y.** Spectra of multiply charged ions in laser plasma formed from gas-containing targets // East European Journal of Physics. – 2023. – № 3. – P. 490–494. – DOI: 10.26565/2312-4334-2023-3-55

TA’LIM JARAYONIDA ZAMONAVIY AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARIDAN SAMARALI FOYDALANISH METODIKASI

Muxitdinov Abduvali Burxanovich,
Umurzaqova Zarina O‘tkirjon qizi,
Jizzax Politexnika instituti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada ta’lim jarayonida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan (AKT) samarali foydalanishning nazariy-metodik asoslari yoritilgan. AKTning ta’lim sifati va samaradorligini oshirishdagi o‘rni, interfaol o‘qitish metodlari, raqamli ta’lim resurslari, masofaviy va aralash ta’lim modellarining afzalliklari tahlil qilingan. Shuningdek, pedagoglarning AKT*

kompetentligini rivojlantirish, o‘quv jarayoniga innovatsion texnologiyalarni joriy etishning amaliy mexanizmlari va istiqbollari ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: *axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, raqamli ta’lim, interfaol metodlar, masofaviy ta’lim, pedagogik kompetentlik, innovatsiya.*

Kirish. Zamonaviy jamiyatning jadal rivojlanishi, raqamli texnologiyalarning barcha sohalarga chuqur kirib borishi ta’lim tizimi oldiga ham yangi talab va vazifalarni qo‘ymoqda. Bugungi kunda ta’lim jarayonini samarali tashkil etishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish muhim omillardan biri hisoblanadi. AKT yordamida o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi, ijodkorligi, axborot bilan ishlash kompetensiyalari rivojlanadi.

Ta’lim jarayonida AKTdan foydalanish nafaqat o‘qitishning texnik vositasi sifatida, balki pedagogik jarayonni loyihalash, boshqarish va baholashning samarali mexanizmi sifatida ham namoyon bo‘lmoqda. Shu bois, zamonaviy AKTdan samarali foydalanish metodikasini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish dolzarb pedagogik muammo hisoblanadi.

Respublikamizda oddiy uy-ro‘zg’or buyumlaridan tortib to ulkan samalyotlarni ishlab chiqarish va qurilish ishlarini bajarishda Monj usuli asosida standart bo‘yicha tayyorlangan chizmalardan foydalanadilar. Masalan, Toshkent aviasozlik zavodida ishlab chiqarilayotgan IL-76M rusumli transport samolyotni yig’ishda, yuzlab malakali ishchi va injener-texnik xodimlar bir nechta mamlakatda standart chizmalar asosida tayyorlangan ikki mingga yaqin detal va uzellardan foydalanadilar. Yoki Respublikamizda qad roslayotgan murakkab konstruksiyali ko‘p qavatli muhtasham binolar ham arxitektura-qurilish chizmalari asosida qurilmoqda.

Asosiy qism. Yuqori texnologiyalar har yili jamiyatning kundalik hayotiga chuqur kirib bormoqda. Multimediya, interaktiv, mobil va axborot texnologiyalari raqamli dunyoni yangi aloqa turlarini yaratdi va oliy ta’lim muassasasi talabalari uchun raqamli muhit tanish bo‘lib qoldi.

Zamonaviy axborot–kommunikatsiya muhitida o‘zgarishlarning tezligiga psixologik jihatdan chidamli, bozor munosabatlariga raqobatbardosh, yuqori

konstruktiv kompetensiyalarga ega bo‘lgan malakali kadrlarga bo‘lgan ehtiyoj tobora ortib bormoqda. Bunday mutaxassislarni tayyorlash zamonaviy ta’lim tizimining eng muhim vazifasidir. Zamonaviy axborot texnologiyalaridan, shu jumladan, axborot–texnologiyalaridan foydalanish oliy ta’lim muassasasi talabalarini kasbga yo‘naltirish va texnik kasblar sohasida professional o‘z taqdirini belgilashga tayyorgarlik darajasini oshirish uchun qo‘shimcha imkoniyatlar yaratishi mumkin.

Talabalar o‘zgaruvchan hayotga kirib, u bilan harakat qilishni va o‘zgarishni o‘rganishlari kerak bo‘ladi. Shu nuqtai nazardan, talabalar ta’limning birinchi bosqichidanoq o‘qitishning innovatsion usullari va metodlaridan: interaktiv doska, hujjat kamerasi, axborot texnologiyalari va robototexnika vositalaridan foydalana olishlari kerak. Darslarda zamonaviy uch o‘lchovli modellashtirish tizimiga kompyuter yordamida loyihalash tizimi (KYLT) ga alohida e’tibor qaratish lozim. Talabalar topshiriqlarni qiziqish bilan bajaradilar, uch o‘lchovli modeldan proyeksion chizma qanday olinganini kuzatadilar. Bunday ish talabalarni turli kasblar bilan tanishtirishga, ya’ni erta kasbga yo‘naltirishga imkon beradi.

Axborot texnologiyalari bilan tanishib, oliy ta’lim muassasasi talabalari muhandislik savodxonligining xalqaro tili bo‘lgan kompyuterning ixtisoslashtirilgan dasturlari bo‘yicha zamonaviy kompyuter tizimlari, chizmachilik ko‘nikmalariga ega bo‘lishlari mumkin. Bundan tashqari, oliy ta’lim muassasasi talabalari uch o‘lchovli grafikaning zamonaviy sohalari va faoliyat sohalarida qo‘llanilishi, axborot–grafik yordamida virtual olamlarni yaratish jarayoni bilan tanishishlari mumkin.

Dars mashg‘ulotlarida talabalarni turli xil dasturlar bilan tanishtirish (AutoCAD, Archikad, 3D–Max, axborot interyer dizayni), ularda qanday ishlashni ko‘rsatish, keyin talabalar uyda loyihalarni amalga oshiradilar va ularni auditoriyada namoyish qiladilar.

Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining ta’limdagi o‘rni. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari – bu axborotni yig‘ish, saqlash, qayta

ishlash va uzatishni ta’minlovchi texnik va dasturiy vositalar majmuasidir. Ta’lim jarayonida AKT quyidagi imkoniyatlarni yaratadi:

- o‘quv materiallarini vizuallashtirish va interfaollashtirish;
- individual va differensial ta’limni tashkil etish;
- o‘quvchilarning mustaqil ta’lim olish ko‘nikmalarini rivojlantirish;
- ta’lim jarayonini masofadan turib tashkil etish.

AKT asosida tashkil etilgan ta’lim jarayoni an’anaviy o‘qitish shakllariga nisbatan samaraliroq bo‘lib, o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishini oshiradi va bilimlarni chuqur o‘zlashtirishga yordam beradi.

Ta’lim jarayonida AKTdan foydalanishning asosiy shakl va metodlari. Zamonaviy ta’limda AKTdan foydalanish turli shakl va metodlarda amalga oshiriladi:

Elektron ta’lim resurslari. Elektron darsliklar, multimediya taqdimotlari, virtual laboratoriyalar va interfaol mashqlar o‘quvchilarning bilimlarini mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega. Ushbu resurslar mavzuni ko‘rgazmali va tushunarli shaklda yetkazishga xizmat qiladi.

Masofaviy va aralash ta’lim. Masofaviy ta’lim platformalari (LMS) orqali o‘quvchilar istalgan joy va vaqtda ta’lim olish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Aralash ta’lim modeli esa an’anaviy va onlayn ta’limning eng samarali jihatlarini uyg‘unlashtiradi.

Interfaol metodlar va raqamli vositalar. Onlayn testlar, forumlar, videokonferensiyalar, vebinarlar va virtual muhokamalar o‘quvchilarning faolligini oshiradi hamda bilimlarni mustaqil ravishda egallashga undaydi.

Pedagoglarning AKT kompetentligini rivojlantirish. AKTdan samarali foydalanish ko‘p jihatdan pedagoglarning kasbiy kompetentligiga bog‘liq. O‘qituvchi:

- zamonaviy dasturiy vositalarni bilishi;
- raqamli ta’lim resurslarini yaratish va ulardan foydalanish ko‘nikmasiga ega bo‘lishi;
- innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo‘llay olishi zarur.

Shu bois, pedagoglarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimida AKT bo‘yicha maxsus kurslar, seminarlar va treninglarni tashkil etish muhim ahamiyatga ega.

AKT asosida ta’lim jarayonini tashkil etishning afzalliklari va muammolari. AKTdan foydalanish quyidagi afzalliklarni ta’minlaydi:

- ta’lim sifati va samaradorligini oshiradi;
- o‘quvchilarning ijodiy va tanqidiy fikrlashini rivojlantiradi;
- ta’lim jarayonining ochiqligi va shaffofligini ta’minlaydi.

Biroq, AKTni joriy etishda texnik ta’minot yetishmasligi, internet tezligining pastligi, pedagoglarning raqamli savodxonligi yetarli emasligi kabi muammolar ham mavjud.

Xulosa qilib aytganda, ta’lim jarayonida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish ta’lim sifati va raqobatbardoshligini oshirishning muhim omili hisoblanadi. AKT asosida tashkil etilgan ta’lim jarayoni o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Kelgusida ta’lim tizimida AKTdan foydalanish metodikasini takomillashtirish, pedagoglarning raqamli kompetentligini oshirish dolzarb vazifa bo‘lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. **Pulatova D. T.** Ta’lim jarayoniga elektron axborot ta’lim resurslarini joriy etishning pedagogik shart-sharoitlari // Sovremennoe obrazovanie (Uzbekistan). – 2015.
2. **Qosimov J. A. va boshq.** The role of software in the development of modeling in education // AIP Conference Proceedings. – 2022. – Vol. 2432, № 1. – Art. 060013.
3. **Мухитдинов А. А.** Роль 3D технологий в процессе формирования конструктивных компетенций студентов // International Conferences on Learning and Teaching. – 2022. – Т. 1, № 2.

4. **Muxitdinov A. A.** 3D texnologiyalaridan talabalarda konstruktiv kompetensiyalarni rivojlantirish modeli // Iqtisodiyot va jamiyat. – 2022. – № 12-1(103). – B. 173–176.
5. **Muxitdinov A.** Raqamli texnologiyalar va zamonaviy axborot texnologiyalarini ta’lim jarayoniga joriy etish usullari // Biologiyaning zamonaviy tendensiyalari: muammolar va yechimlar. – 2023. – T. 1, № 5. – B. 921–923.

O‘QUV JARAYONINI MODERNIZATSIYALASHDA AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARINING O‘RNI VA AHAMIYATI

Muxitdinov Abduvali Burxanovich

Jizzax Politexnika instituti

Annotatsiya: *Mazkur maqolada o‘quv jarayonini modernizatsiyalash sharoitida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining o‘rni va ahamiyati pedagogik jihatdan tahlil etilgan. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositalaridan foydalanish orqali ta’lim mazmunini yangilash, o‘qitish metod va shakllarini takomillashtirish hamda ta’lim sifati va samaradorligini oshirish imkoniyatlari ochib berilgan. Shuningdek, raqamli ta’lim muhitida o‘qituvchi va o‘quvchi faoliyatidagi o‘zgarishlar, kompetensiyaviy yondashuv asosida ta’lim natijalarini rivojlantirish masalalari yoritilgan. Tadqiqot natijalari axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan pedagogik jihatdan asoslangan holda foydalanish zarurligini ko‘rsatadi.*

Kalit so‘zlar: *axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, o‘quv jarayonini modernizatsiyalash, raqamli ta’lim, pedagogik texnologiyalar, kompetensiya, innovatsiya.*

Kirish. Zamonaviy jamiyatda ta’lim tizimini modernizatsiyalash ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning muhim sharti hisoblanadi. Axborotlashgan jamiyat sharoitida bilimlar tez yangilanib borayotganligi ta’lim jarayoniga yangi yondashuvlarni talab etmoqda. Shu nuqtai nazardan, o‘quv jarayoniga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish ta’lim mazmunini boyitish, o‘qitish jarayonini individuallashtirish va ta’lim samaradorligini oshirishning muhim omili sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositalari yordamida o‘quvchilarning mustaqil ta’lim olish ko‘nikmalari, tanqidiy fikrlashi va axborot bilan ishlash kompetensiyalari rivojlanadi. Bu esa zamonaviy ta’limning asosiy talablaridan biri hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “Raqamli iqtisodiyotga o‘tmasak, orqada qolib ketyapmiz. Iqtisodiyotning barcha sohalarini raqamli texnologiyalar asosida yangilashni nazarda tutadigan Raqamli iqtisodiyot milliy konsepsiyasini ishlab chiqishimiz kerak. Shu asosda «Raqamli O‘zbekiston – 2030» dasturini hayotga tadbiq etishimiz zarur” deya takidlab o‘tdilar. Bu qaror loyihasida O’zbekiston aholisining Jahon tarmog'iga kirish imkoniga ega bo'lgan tadqiqotlar keltirilgan.Xususan, joriy yilda keng polosali ulanishning kamida 800 ming Internet portini tashkil etish va 12 ming kilometr optik tolali aloqa liniyalari barpo etish rejalashtirilgan. Internetda keng polosali tarmoqlarni kengaytirish uchun 340 mingga yaqin abonent telekommunikatsiya uskunalariga ega bo'ldi. Hududlar bo'yicha taqsimlangan telekommunikatsiya qurilmalari mutaxassislar tomonidan o'rnatildi. Bugungi kunda 281 ming port qurilmasi o'rnatilgan.

2017-2021 — yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasini "fan, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili" da amalga oshirishga oid Davlat dasturida belgilangan vazifalarga muvofiq Prezidentimizning 2020 yil 28-apreldagi "raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida" gi qarori qabul qilindi.

Raqamlashtirish yo'lidagi keyingi muhim qadam IT-Parkni yaratishdir. Texnopark Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 10 yanvardagi "dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari texnologik parkini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" gi qaroriga muvofiq tashkil etilgan.

So‘nggi o‘n yillikda ta’lim sohasida kompyuter texnologiyalarining keng qo'llanilishi pedagogika faniga qiziqishni kuchaytirdi. O'qitishning kompyuter texnologiyasi muammosini hal qilishda rus va chet el olimlari katta hissa qo'shdilar. Jumladan G.R.Gromov, V.I.Gritsenko, V.F.Sholoxovich, O.I.Agapova, O.A.Krivosheev, S.Papert, G.Kleyman, B.Sendov, B.Hunter va boshqalar. Ta'lim jarayonida axborotlashtirish bo‘yicha ko‘p ishlarni amalga oshirishgan. Hozirgi kunda esa raqamli texnologiyaga katta ahamiyat qaratilmoqda va barcha sohalar sekin astalik bilan raqamlashtirilmoqda. Ta’limni raqamlashtirish bo’yicha qator izlanishlar, g’oyalar va takliflar amalga oshirilib kelinmoqda.

Ilmiy-pedagogik adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish masalalari ko‘plab mahalliy va xorijiy olimlarning tadqiqotlarida o‘rganilgan. Tadqiqotlarda raqamli ta’lim muhiti, masofaviy va aralash ta’lim modellari, elektron ta’lim resurslarining didaxborot-kommunikatsiya texnologiyalariik imkoniyatlari keng yoritilgan.

Mazkur tadqiqotda kompetensiyaviy va tizimli yondashuvlar metodologik asos sifatida tanlandi. Tadqiqot metodlari sifatida nazariy tahlil, taqqoslash, umumlashtirish va pedagogik tajribalarni o‘rganish usullaridan foydalanildi. Ushbu metodlar axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining o‘quv jarayonini modernizatsiyalashdagi pedagogik ahamiyatini aniqlashga xizmat qildi.

Tadqiqot natijalari axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini o‘quv jarayoniga integratsiya qilish ta’lim sifatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishini tasdiqladi. Jumladan, o‘quv materiallarining vizualligi va tushunarliligi oshdi, o‘quvchilarning faolligi va ta’limga qiziqishi kuchaydi. Shuningdek, elektron platformalar orqali mustaqil ta’lim va o‘z-o‘zini nazorat qilish imkoniyatlari kengaydi.

O‘quv jarayonini modernizatsiyalashda **axborot-kommunikatsiya texnologiyalari** o‘qitish sifatini oshirish, o‘quvchilarning faol ishtirokini

ta’minlash, shaxsiy qobiliyatlarini rivojlantirish va axborotga kirish imkoniyatini kengaytirishda muhim o‘rin tutadi, bu esa ta’limni samaraliroq, interaktiv va zamonaviy qilishga xizmat qiladi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining o‘rni va ahamiyati:

- O‘qitish jarayonini boyitish: Multimedia, virtual laboratoriyalar va onlayn platformalar orqali mavzularni chuqurroq tushunishga yordam beradi.

- Shaxsiylashtirilgan ta’lim: Har bir o‘quvchining o‘z sur’ati va qiziqishlariga moslashtirilgan o‘quv materiallari va topshiriqlar taqdim etish imkonini yaratadi.

- Interaktivlikni oshirish: Onlayn viktorinalar, forumlar, video-konferensiyalar va simulyatsiyalar orqali o‘quvchilarning faolligini kuchaytiradi.

- Axborotga kirishni kengaytirish: Cheksiz axborot resurslariga, jumladan, elektron kutubxonalar, ilmiy maqolalar va ta’limiy veb-saytlarga oson kirishni ta’minlaydi.

- Zamonaviy ko‘nikmalarni shakllantirish: Raqamli savodxonlik, tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qilish kabi 21-asr ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

- O‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi aloqani yaxshilash: Masofaviy ta’lim imkoniyatlarini yaratadi va o‘qituvchiga o‘quvchilarning o‘zlashtirishini samaraliroq kuzatishga yordam beradi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning asosiy yo‘nalishlari:

- Elektron darsliklar va resurslar: An’anaviy darsliklarni multimedia elementlari bilan boyitish.

- E-platformalar: Hemis platformasi, Google Classroom kabi tizimlar orqali vazifalar berish, baholash, munozaralar olib borish.

- Taqdimotlar va video-ma’ruzalar: Mavzularni vizual va dinamik tarzda yoritish.

- Interaktiv ta’lim dasturlari: O‘yinlashtirish (gamification) elementlari orqali o‘qishni qiziqarli qilish.

Umuman olganda, AKT o‘quv jarayonini modernizatsiyalashning markaziy qismi bo‘lib, ta’lim sifatini oshirish va talabalarni kelajakdagi kasbiy faoliyatga tayyorlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari o‘qituvchining pedagogik faoliyatini samarali tashkil etish, ta’lim jarayonini boshqarish va monitoring qilish imkoniyatlarini kengaytiradi. Bu esa ta’lim jarayonining modernizatsiyalashuviga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, o‘quv jarayonini modernizatsiyalashda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari muhim pedagogik vosita hisoblanadi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan maqsadga muvofiq va pedagogik jihatdan asoslangan holda foydalanish ta’lim sifati va samaradorligini oshirish, zamonaviy kompetensiyalarga ega bo‘lgan kadrlarni tayyorlash imkonini beradi. Shu sababli ta’lim muassasalarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va undan samarali foydalanishga alohida e’tibor qaratish zarur.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. Raqamli O‘zbekiston–2030 strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida: Farmon, 2020 yil 5 oktabr, PQ–6079.
2. UNESCO. Information and Communication Technology in Education. – Paris: UNESCO, 2019.
3. **Azizxo‘jaeva N. N.** Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: TDPU, 2018.
4. **Леонов С. А.** Интеграция здравоохранения, образования и информационно-коммуникационных технологий в рамках цифровизации отечественной медицины // Актуальные проблемы экономики и управления. – 2018. – № 3. – С. 35–39.

5. **Сафуанов Р. М., Лехмус М. Ю., Колганов Е. А.** Цифровизация системы образования // Вестник УГНТУ. Наука, образование, экономика. Серия: экономика. – 2019. – № 2(28).
6. **Котенёва Д. С., Бут Е. А., Гурова Е. А.** Цифровые технологии в системе образования // Молодежный научный форум. – 2020. – № 78.
7. **Roblyer M. D.** Integrating Educational Technology into Teaching. – New York: Pearson Education, 2020.

TA’LIM JARAYONIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

Muxitdinov Abduvaxob Abduvaliyevich
Musurmonqulov Sultonbek Baxromqul o‘g‘li
Jizzax Politexnika instituti

Annotatsiya: *Mazkur maqolada ta’lim jarayonida raqamli texnologiyalardan foydalanishning pedagogik asoslari, ularning didaktik imkoniyatlari, o‘qitish samaradorligini oshirishdagi o‘rni hamda zamonaviy ta’lim tizimida tutgan ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, raqamli ta’lim muhitini tashkil etish, o‘qituvchi va talaba faoliyatining transformatsiyasi, interaktiv metodlar va kompetensiyaviy yondashuv masalalari tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar: *raqamli texnologiyalar, raqamli ta’lim, pedagogik asoslar, AKT, kompetensiyaviy yondashuv, masofaviy ta’lim.*

Kirish. Globallashuv va raqamlashtirish jarayonlari ta’lim tizimiga ham chuqur kirib kelmoqda. Zamonaviy jamiyatda raqamli texnologiyalar nafaqat axborot almashinuvi vositasi, balki ta’lim jarayonini tashkil etishning muhim pedagogik omiliga aylanib bormoqda. Ta’lim jarayonida raqamli texnologiyalardan samarali

foydalanish talabalarning mustaqil fikrlashini rivojlantirish, bilimlarni chuqur va ongli o‘zlashtirish hamda raqobatbardosh kadrlar tayyorlash imkonini beradi.

Raqamli texnologiyalarning ta’limdagi o‘rni. Raqamli texnologiyalar ta’lim jarayonida quyidagi imkoniyatlarni yaratadi:

- o‘quv materiallarini vizuallashtirish va interaktiv taqdim etish;
- masofaviy va aralash (blended learning) ta’limni tashkil etish;
- individual ta’lim trayektoriyasini shakllantirish;
- tezkor teskari aloqa va monitoringni amalga oshirish.

Shu jihatdan, raqamli texnologiyalar an’anaviy ta’lim usullarini to‘ldiradi va ularning samaradorligini oshiradi.

Raqamli texnologiyalardan foydalanishning pedagogik asoslari. Ta’limda raqamli texnologiyalardan foydalanish quyidagi pedagogik asoslarga tayanadi:

1. Kompetensiyaviy yondashuv. Raqamli ta’lim muhitida talabalarda axborot bilan ishlash, muammoni hal qilish, tanqidiy fikrlash va kommunikativ kompetensiyalar rivojlanadi.

2. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim. Raqamli texnologiyalar har bir talabaning individual qobiliyati va o‘rganish sur’atini inobatga olish imkonini beradi.

3. Faol va interaktiv metodlar. Onlayn platformalar, virtual laboratoriyalar, simulyatsiyalar va multimedia vositalari talabani ta’lim jarayonining faol ishtirokchisiga aylantiradi.

4. Tizimlilik va uzluksizlik. Raqamli resurslar ta’lim jarayonining uzluksizligini ta’minlab, bilimlarni bosqichma-bosqich egallashga sharoit yaratadi.

Asosiy qism. O‘qituvchi va talaba faoliyatining o‘zgarishi. Raqamli texnologiyalar sharoitida o‘qituvchi axborot beruvchi emas, balki yo‘naltiruvchi, maslahatchi va fasilitator rolini bajaradi. Talaba esa bilimni tayyor holda qabul qiluvchi emas, balki mustaqil izlanuvchi va tadqiqotchi sifatida namoyon bo‘ladi.

Muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llari. Raqamli texnologiyalarni joriy etishda quyidagi muammolar uchrashi mumkin:

- texnik ta’minotning yetarli emasligi;
- o‘qituvchilarning raqamli kompetensiyasining pastligi;

- raqamli resurslarning sifat darajasi.

Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun o‘qituvchilarning malakasini oshirish, sifatli elektron resurslar yaratish va infratuzilmani rivojlantirish zarur.

Mamalakatimizda ham ta’lim tizimida raqamli texnologiyalarni rivojlantirish borasida talay ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning 2020 yil 24 yanvardagi Oliy majlisga murojaatnomasida: ta’lim tizimini to‘liq raqamlashtirish, oliy ta’limda o‘quv jarayonini kredit-modul tizimiga o‘tkazish, ilm-fan yutuqlarining elektron platformasi, mahalliy va xorijiy ilmiy islanmalar bazasini shakllantirish, xorijiy hamkorlar bilan birgalikda “Bir million dasturchi” loyixasini amalga oshirish hamda ta’limning barcha bosqichlarida xalqaro andozalarga to‘liq javob beradigan axborot texnologiyalarini joriy etish kabi asosiy masalalarga e’tibor qaratgan edi. Bugungi kunga kelib esa bu ishlar amalga oshirildi.

Ta’lim tizimining hozirgi holati noan’anaviy ta’lim texnologiyalarining o‘rni ortib borayotgani bilan tavsiflanadi. Ta’lim oluvchi tomonidan ularning yordami bilan bilimlarni o‘zlashtirish an’anaviy texnologiyalarga qaraganda ancha tez va samaralidir. Ushbu texnologiyalar bilimlarni rivojlantirish, egallash va tarqatish xarakterini o‘zgartiradi, o‘rganilayotgan fanlarning mazmunini chuqurlashtirish va kengaytirish, uni tezda yangilash, samaraliroq o‘qitish usullarini qo‘llash, shuningdek, har bir kishi uchun ta’lim olish imkoniyatini sezilarli darajada kengaytirish imkonini beradi.

Raqamli texnologiya - xo‘jalik yuritishning bir zamonaviy shakli bo‘lib. unda ishlab chiqarish va boshqarishning asosiy faktori sifatida raqamli ko‘rinishdagi katta ma’lumotlar majmui va ularni qayta ishlash jarayonida xizmat qiladi. Olingan natijalarni amaliyotda ishlatish esa an’anaviy ho‘jalik yuritish shakllariga nisbatan ancha katta samaradorlikka erishishga imkon beradi. Misol sifatida turli xildagi avtomatik ishlab chiqarish jarayonlarini, 3D-texnologiyasini, bulutli texnologiyalarni. masofaviy meditsina xizmatlari ko‘rsatishni, aqlli texnologiyalar yordamida mahsulot yetishtirish va uni yetkazib berishni, turli xildagi tovarlarm saqlash va ularni sotish jarayonlarini keltirish mumkin.

Adabiyotlar tahliliga ko‘ra raqamli texnologiyalar orqali ta’lim berilsa talabalarda ta’lim olish usullari osonlashmoqda. Bu o‘rinda ta’lim tizimi vostilari rolini multimediyalar, kompyuter, noutbuk, internetga ulangan televizorlar, telefon liniyalar, smart doska, proyektorlar bajarib beradi. Talabalarga bunday vositalar bilan dars mashg‘ulotlar o‘tkazish ta’lim sifatini oshirishni ta’minlaydi. Shunday ekan raqamli texnologiyalarga o‘tish obyektiv zaruratdir. Ayniqsa, onlayn darslarda raqamli texnologiyalar qo‘llanilishi yaxshi samara berishi hammamizga ma’lum. Masalan, televideniya orqali berib borilgan onlayn darslar raqamli ta’lim olishning bir turi deb olsak bo‘ladi.

Raqamli texnologiyalarni o‘zlashtirish insoniyat tarixidagi boshqa innovatsiyalarga qaraganda tezroq sodir bo‘lmoqda: bor-yo‘g‘i yigirma yil ichida raqamli texnologiyalar rivojlanayotgan mamlakatlar aholisining qariyb 50 foizini qamrab olishga va ularning yordami bilan jamiyatlarni o‘zgartirishga muvaffaq bo‘ldi.

Ta’lim sohasida virtual o‘quv muhiti va masofaviy ta’limning ta’minlanishi talabalarga boshqa imkoniyatga ega bo‘lmagan dasturlarda qatnashish imkonini berdi. Bundan tashqari, blokcheynga asoslangan tizimlardan foydalanish orqali davlat xizmatlaridan foydalanish qulay bo‘ladi, ularni ta’minlovchi institutlar mas’uliyatini oshiradi va sun’iy intellektdan foydalanish natijasida jarayonlar kamroq byurokratik bo‘ladi. Katta ma’lumotlar, shuningdek, yanada moslashuvchan va aniq siyosat va dasturlarga olib kelishi mumkin.

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, yurtimizda pandemiya davrida bunday texnologiyalarni ta’lim tizimiga qo‘llash yagona yechim bo‘lib qoldi, qolaversa ushbu davr qaysidir ma’noda raqamli texnologiyalarni rivojlanishiga turtki bo‘ldi.

Raqamli ta’limda:

- xohlagan joyida va xohlagan vaqtida ta’lim olish imkoniga ega bo‘ladi;
- internetdan axborot olish va undan foydalanish madaniyati shakllanadi;
- ta’lim tizimini yangi bosqichga ko‘taradi;
- vaqt va mablag‘ sarfini keskin kamaytiradi;
- “Raqamli dunyo” da yo‘qolib qolmaslik va yaxshi ish topishda ustunliklarga ega bo‘lishgi kabilar. Raqamli ta’lim tizimini yuksalishiga Wi-Fi zonalar IT parklar

ochilishi katta xizmat qiladi. Ta’lim beruvchilarni raqamli texnologiyalar bilan ishlash qobiliyatini o‘stirish va internet orqali turli ochiq kurslar tashkil etish imkoniyati tug‘iladi. Bu esa o‘z navbatida ta’lim beruvchilarni o‘z ustida ko‘proq ishlashi va raqobat tufayli ta’lim sifatini yanada ortishiga xizmat qiladi. Quyida raqamli texnologiyalrni bazilariga to‘xtalib o‘tamiz: bulutili texnologiyalar -internet foydalanuvchisiga onlayn xizmat sifatida kompyuter resurslarini taqdim etiladigan ma’lumotlarni qayta ishlash texnologiyalaridir.

Bugungi kunda zamonaviy ta’limda raqamli texnologiyani joriy etish tufayli professor-o‘qituvchilarning xatti-harakatlarini simulyatsiya qiluvchi dasturlar va aqlli o‘qitish tizimlari paydo bo‘ldi. Ular talabalarning bilimlarini, ularning javoblarini tahlil qilish orqali tekshirishlari, fikr-mulohazalarini bildirishlari va shaxsiy o‘quv rejalarini tuzishlari mumkin.

Ta’lim sohasida VR(Virtual reallik) talabalarning bilim olish uslubini o‘zgartiradi. Sinf xonalarida VR(Virtual reallik) dan foydalanish talabalarga bilimlarni yaxshiroq o‘zlashtirish va qiyin tushunchalarni tasavvur qilish orqali o‘rganishga yordam beradi. Umuman olganda, raqamli texnologiyaning hayotimizdagi o‘rni kundan-kunga chuqurlashib bormoqda. Ular insoniyatning yutug‘imi yoki mag‘lubiyati, degan savol ustidagi bahslar hali uzoq davom etadi. Raqamli texnologiyalarni ta’lim tizimiga joriy etilishi mamlakat ta’lim tizimini modernizatsiya qilishda katta rol o‘ynaydi. Zamonaviy ta’limni tashkil etish va ta’lim samaradorligini ortishiga xizmat qiladi. Ishonch bilan aytish mumkinki, yaqin kelajakda ushbu texnologiya yutug‘i bilan bosqa texnologiyalarni ortda qoldiradi.

Ta’lim jarayonida raqamli texnologiyalardan foydalanish pedagogik jihatdan asoslangan holda tashkil etilganda, ta’lim sifati va samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Raqamli texnologiyalar talabalarning kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi muhim vosita bo‘lib, zamonaviy ta’lim tizimining ajralmas qismi hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. **Rahmonov N., Olimova S.** Zamonaviy axborot texnologiyalari yordamida ta’lim jarayonini tashkil qilish // Qo‘qon universiteti xabarnomasi. – 2025.
2. **Ashurov J. D.** Opportunities of digital pedagogy in a modern educational environment // Journal of Pedagogical Inventions and Practices. – 2025.
3. **Kholikov K. T.** Digital technologies in the education system // European International Journal of Pedagogics. – 2025.
4. **Shopulatova N. O.** The role of digital technologies in modern pedagogy // Nauka i innovatsii v sisteme obrazovaniya. – 2024.
5. **Narziyeva D. U.** Ta’lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati va metodik asoslari // Ta’limda raqamli texnologiyalarni tadbiq etishning zamonaviy tendensiyalari va rivojlanish omillari. – 2025.
6. **Bergman J., Sams A.** Flip your classroom: reach every student in every class every day. – Washington: ISTE; Alexandria: ASCD, 2012.
7. **Zakharova O. A.** Development of corporate learning: from “e-learning” to “we-learning” // Educational Technology & Society. – 2013. – Vol. 16, № 2.

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA O‘ZBEK MILLIY XALQ ERTAKLARI

Narbayeva Muyassar Abdumalik qizi

Toshkent kimyo xalqaro universiteti Samarqand filiali

Annotatsiya. *Quyidagi maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida o‘zbek milliy ertaklariga bo‘lgan qiziqishni oshirish bilan birga ularning ma’naviy-axloqiy, estetik va ijtimoiy tarbiyaviy sifatlarini shakllantirish masalalari yoritishga harakat qilingan. Milliy ertaklarning tarbiyaviy ahamiyati, ularni ta’lim jarayonida*

qo‘llashning samarali usullari hamda pedagogik imkoniyatlari tahlil qilinadi. Olib borilgan tadqiqot, kuzatish, tahlil qilish natijalari shuni ko‘rsatadiki, ertaklar orqali o‘quvchilarda ezgulik, halollik, mehnatsevarlik, vatanparvarlik kabi fazilatlarni shakllantirish mumkin.

Kalit so‘zlar: *milliy ertaklar, boshlang‘ich ta’lim, tarbiya, ma’naviy-axloqiy sifatlar, qiziqish, pedagogik texnologiyalar.*

Kirish

Bugungi globallashuv sharoitida yosh avlodni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash dolzarb pedagogik muammolardan biri hisoblanadi.

Shavkat Mirziyoyevning “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi” kitobida 261 sahifasida “Ma’rifiy islohatlar va barkamol inson tarbiyasi” haqida to‘xtalib shunday yozadi “Tarbiyada tanaffus bo‘lmaydi”, degan chuqur ma’noli gapni ko‘p takrorlaymiz. Lekin, afsuski, joylarda ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkil etishda ana shu qoidaga amal qilinmayapti. Bu borada bog‘cha, maktab, oliy ta’lim, mahalla tizimining har biri alohida ish olib boryotgani, ya’ni, o‘zaro hamkorlik va uyg‘unlikning yo‘qligi ishimizning samarasi salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. [1]

Ayniqsa, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ongida milliy o‘zlikni anglash, ma’naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirishda xalq og‘zaki ijodining eng muhim janrlaridan biri bo‘lgan ertaklarning o‘rni beqiyosdir. O‘zbek milliy ertaklari bolalarning yosh xususiyatlariga mosligi, hayotiyligi va obrazlarining ta’sirchanligi bilan ajralib turadi. Bobo, buvi, momolarimiz yosh avlodni kamol toptirishda ko‘proq ertaklardan foydalangan. Bu ayniqsa maktabgacha va bohslang‘ich sinf ta’lim tarbiya oluvchilari uchun ahamiyatli.

Boshlang‘ich ta’lim bosqichi bolaning shaxs sifatida shakllanishida muhim poydevor bo‘lib, aynan shu davrda tarbiyaviy ta’sir kuchli bo‘ladi.

Shu sababli milliy ertaklar asosida tashkil etilgan ta’lim-tarbiya jarayoni o‘quvchilarda ijobiy fazilatlarni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Milliy ertaklarning tarbiyaviy ahamiyati

Ma’rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniy o‘zining Turkiy Guliston yoxud axloq asarida “Emdi ochiq ma’lum bo‘ldiki, tarbiyani tug‘ulgan kundan boshlamak, vujudimizi quvvatlandurmak, fikrimizi nurlandurmak, axloqimizi go‘zallandurmak, zehnimizi ravshanlandurmak lozim ekan”. [2] ta’kidlaydi.

O‘zbek milliy ertaklarida xalqning asrlar davomida shakllangan orzu-umidlari, axloqiy qarashlari, hayotiy tajribasi mujassamlangan. Ertaklarda yaxshilik va yomonlik, adolat va zulm, halollik va xiyonat o‘rtasidagi kurash orqali bolalarda axloqiy mezonlar shakllanadi.

Milliy ertaklar quyidagi tarbiyaviy vazifalarni bajaradi:

o‘quvchilarda ezgulik va insonparvarlik tuyg‘ularini rivojlantiradi;

mehnatsevarlik va sabr-toqatga o‘rgatadi;

vatanparvarlik va milliy g‘ururni shakllantiradi;

estetik did va tasavvur doirasini kengaytiradi.

Masalan, “Zumrad va Qimmat”, “Halollik”, “Boy ila kambag‘al” kabi ertaklar orqali bolalar halollik, kamtarlik va adolat tushunchalarini anglay boshlaydilar.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ertaklarga qiziqishni oshirish usullari

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda ertaklarga bo‘lgan qiziqishni oshirishda interfaol va innovatsion metodlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan:

ertaklarni rollarga bo‘lib o‘qish va sahnalashtirish;

multimediali vositalar asosida ertaklarni namoyish etish;

ertak qahramonlari ishtirokida suhbat va munozaralar tashkil etish;

ijodiy topshiriqlar (ertakni davom ettirish, rasm chizish, hikoya tuzish).

Ushbu usullar o‘quvchilarning faolligini oshirib, ularning mustaqil fikrlash, nutqiy va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiradi.

Tarbiyaviy sifatlarni shakllantirish jarayonida o‘qituvchining roli

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi milliy ertaklardan samarali foydalanishda yetakchi shaxs hisoblanadi. O‘qituvchi ertak mazmunini faqat o‘qib berish bilan cheklanmay, uning g‘oyaviy-axloqiy mohiyatini ochib berishi, o‘quvchilarni xulosa chiqarishga yo‘naltirishi lozim.

Shuningdek, o‘qituvchi:

ertak mazmunini hayotiy misollar bilan bog‘lashi;

o‘quvchilarning fikrini rag‘batlantirishi;

milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalashi zarur.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, o‘zbek milliy ertaklari boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida tarbiyaviy sifatlarni shakllantirishning samarali vositasi hisoblanadi. Ertaklar orqali bolalarda axloqiy, ma’naviy va estetik fazilatlar rivojlanadi. Ta’lim jarayonida milliy ertaklardan maqsadli va tizimli foydalanish o‘quvchilarning shaxs sifatida barkamol bo‘lib voyaga yetishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. **Mirziyoyev Sh. M.** Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – 261-bet.
2. **Avloniy A.** Turkiy Guliston yoxud axloq.
3. Zumrad va Qimmat : o‘zbek xalq ertagi. – Elektron resurs. – URL: https://tafakkur.net/zumrad-va-qimmat/xalq-ogzaki-ijodi.uz

SHARQ MUTAFAKKIRLARINING TA'LIMIY QARASHLARI ASOSIDA IQTIDORLI O'QUVCHILARNI ANIQLASHNING PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK MEXANIZMLARI

Nazarov Sulaymon Mannonovich

Qori Niyoziy nomidagi O'zbekiston pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti

Annotatsiya. *Mazkur maqolamda Sharq mutafakkirlarining ta'limiy qarashlari asosida o'quvchilarning iqtidorini aniqlash va baholashning psixologik-pedagogik mexanizmlari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Alisher Navoiy kabi allomalarning pedagogik merosida iqtidor, tafakkur va qobiliyat masalalariga berilgan yondashuvlar zamonaviy ta'lim talablari bilan uyg'un holda o'rganiladi. Muallifning amaliy tajribasi shuni ko'rsatadiki, iqtidorni aniqlashda faqat akademik ko'rsatkichlar emas, balki shaxsning psixologik xususiyatlari, mustaqil fikrlash darajasi va ichki motivatsiyasi muhim ahamiyat kasb etadi. Maqolada iqtidorni aniqlashning kompleks va integrativ mexanizmlari asoslab beriladi.*

Kalit so'zlar:*iqtidor,Sharq mutafakkirlari,pedagogik qarashlar, psixologik mexanizmlar, o'quvchi shaxsi.*

Kirish

Bugungi ta'lim tizimida iqtidorli o'quvchilarni aniqlash va ularning salohiyatini rivojlantirish muhim strategik vazifalardan biri hisoblanadi. Zamonaviy pedagogika iqtidorni faqat bilim hajmi bilan emas,balki shaxsning psixologik xususiyatlari, tafakkur tezligi va ijodiy faolligi bilan bog'liq holda talqin etadi.Ushbu masala Sharq

mutafakkirlarining pedagogik merosida ham muhim o‘rin egallagan bo‘lib,ularning qarashlari bugungi kunda ham ilmiy ahamiyatini yo‘qotmagan.Sharq allomalari ta’lim jarayonida shaxsni markazga qo‘ygan holda, insonning tabiiy qobiliyatlari va ichki imkoniyatlarini aniqlashni tarbiyaning asosiy vazifasi sifatida ko‘rganlar. Shu bois, ularning pedagogik qarashlarini zamonaviy psixologik yondashuvlar bilan uyg‘un holda tahlil qilish dolzarb ilmiy masala hisoblanadi.

Nazariy yondashuv iqtidor mazmunini falsafiy va psixologik jihatdan o‘rganadi, bu psixologik diagnostikani boyitadi, va Sharq ta’limotlarida iqtidor aniqlash inson kamolotiga xizmat qiladi, bu individual ta’lim dasturlarini shakllantiradi. Ushbu tahlil Sharq qarashlarining dolzarbligini ko‘rsatadi, chunki u global ta’lim standartlariga mos keladi, masalan, Markaziy Osiyo olimlarining ta'limotlarini zamonaviy ta'limda qo'llash. Nazariy-metodologik asoslar iqtidor mexanizmlarining chuqur o‘rganilishini ta’minlaydi. Sharq pedagogikasi iqtidor mohiyatini axloqiy tarbiya bilan uyg‘unlashtiradi, bu ta’lim islohotlariga hissa qo‘shadi, va O'zbekistonda Sharq falsafasining ta'limdagi o'rni kuchaymoqda. Nazariy tahlil Sharq va G‘arb falsafalarini taqqoslaydi, bu yangi paradigmalarni shakllantiradi. Sharq ta’limotlarida iqtidor aniqlash ruhiy uyg‘unlik bilan bog‘lanadi. Iqtidor aniqlash jamiyatning intellektual kapitalini oshirishga xizmat qiladi. Sharq mutafakkirlarining pedagogik qarashlari iqtidor aniqlashning mohiyatini insonning tabiiy qobiliyatlarini rivojlantirish sifatida belgilaydi, chunki al-Forobiy ta’limotida iqtidor aqliy va axloqiy rivojlanish bilan bog‘lanadi. Al-Forobiy ta’limotida ta’lim insonning ichki potensialini ochib berishga qaratilgan bo‘lib, iqtidor aniqlash individual yondashuvni talab qiladi [25].

Nazariy tahlil Sharq falsafasining holistik yondashuvini aks ettiradi, ya’ni iqtidor mazmuni jismoniy va ruhiy rivojlanishni birlashtiradi. Sharq mutafakkirlarining qarashlari iqtidor aniqlashni jamiyat taraqqiyoti uchun muhim deb hisoblaydi, bu ta’lim sifatini oshiradi, va zamonaviy O'zbekiston ta'limida Sharq mutafakkirlarining g'oyalari talabalar tarbiyasida qo'llanilmoqda. Ushbu tahlil zamonaviy pedagogikada iqtidor baholashning nazariy asoslarini mustahkamlab,

psixologik diagnostika usullarini boyitadi. Sharq pedagogikasi iqtidor mohiyatini o‘qituvchi mas’uliyati bilan bog‘laydi, bu mentorlik tizimini rivojlantiradi. Nazariy yondashuv iqtidor mazmunini falsafiy va psixologik jihatdan o‘rganadi, bu psixologik diagnostikani boyitadi. Sharq ta’limotlarida iqtidor aniqlash inson kamolotiga xizmat qiladi, bu individual ta’lim dasturlarini shakllantiradi. Ushbu tahlil Sharq qarashlarining dolzarbligini ko‘rsatadi, chunki u global ta’lim standartlariga mos keladi. Nazariy-metodologik asoslar iqtidor mexanizmlarining chuqur o‘rganilishini ta’minlaydi. Sharq pedagogikasi iqtidor mohiyatini axloqiy tarbiya bilan uyg‘unlashtiradi, bu ta’lim islohotlariga hissa qo‘shadi. Nazariy tahlil Sharq va G‘arb falsafalarini taqqoslaydi, bu yangi paradigmalarni shakllantiradi [26].

Sharq mutafakkirlarining iqtidor haqidagi pedagogik qarashlari

Abu Nasr Forobiy o‘zining ta’limiy qarashlarida inson aqlining rivojlanishini bosqichma-bosqich jarayon sifatida talqin etadi. Unga ko‘ra, har bir shaxsda tug‘ma qobiliyat mavjud bo‘lib, uni to‘g‘ri pedagogik muhit orqali yuzaga chiqarish mumkin[1]. Forobiy tafakkur mustaqilligi va mantiqiy fikrlashni iqtidorning asosiy belgilaridan biri sifatida ko‘rsatadi.

Abu Ali ibn Sino esa shaxsning psixologik xususiyatlariga alohida e’tibor qaratib, bolalarda qobiliyatni aniqlashda ularning qiziqishlari va ichki moyilligini hisobga olish zarurligini ta’kidlaydi[2]. Ibn Sinoning fikricha, majburlash asosidagi ta’lim iqtidorning so‘nishiga olib keladi, erkin va motivatsiyaga asoslangan ta’lim esa qobiliyatni rivojlantiradi.Alisher Navoiy pedagogik qarashlarida iqtidorni axloqiy kamolot bilan uzviy bog‘laydi.U bilim va iste’dod insoniy fazilatlar bilan uyg‘unlashgandagina jamiyat uchun foydali bo‘lishini ta’kidlaydi[3]. Bu yondashuv bugungi kompetensiyaviy ta’lim modeliga hamohangdir.

Iqtidorni aniqlashning psixologik-pedagogik mexanizmlari

Amaliy tajribalarim shuni ko‘rsatadiki, iqtidorni aniqlash jarayoni kompleks yondashuvni talab qiladi.Birinchidan,o‘quvchining bilish jarayonlari —

diqqat,xotira,tafakkur tezligi va muammo yechish qobiliyati tahlil qilinishi lozim. Ikkinchidan, motivatsion omillar, ya’ni o‘quvchining bilimga bo‘lgan ichki ehtiyoji va mustaqil o‘rganishga intilishi muhim indikator hisoblanadi.Sharq mutafakkirlarining qarashlariga tayangan holda aytish mumkinki,iqtidorni aniqlashda kuzatuv, suhbat va individual yondashuv muhim pedagogik mexanizmlar sifatida namoyon bo‘ladi.Aynan ushbu usullar o‘quvchining yashirin salohiyatini ochishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganimda, Sharq mutafakkirlarining pedagogik qarashlari asosida iqtidorli o‘quvchilarni aniqlash bugungi ta’lim tizimi uchun muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega. Ushbu meros zamonaviy psixologik-pedagogik yondashuvlar bilan uyg‘unlashtirilgan holda qo‘llanilganda, iqtidorni aniqlash va rivojlantirish samaradorligi ortadi. Iqtidorni baholashda integrativ,shaxsga yo‘naltirilgan va motivatsion yondashuv ustuvor bo‘lishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. **Forobiy A. N.** Fozil odamlar shahri. — Toshkent: Fan, 1993.
2. **Ibn Sino A. A.** Tib qonunlari. — Toshkent: Abu Ali ibn Sino nomidagi nashriyot, 2005.
3. **Navoiy A.** Mahbub ul-qulub. — Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 2011.
4. **Karimova V. M.** Ijtimoiy psixologiya. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2019.
5. **G‘oziev E.** Pedagogik psixologiya. — Toshkent: O‘qituvchi, 2018

THE IMPORTANCE OF TRANSLATION IN DEVELOPING THE PROFESSIONAL COMPETENCE OF FUTURE FOREIGN LANGUAGE TEACHER

Nematjonova Sarvinoz Nodirbek qizi
Namangan state university

Annotation. *Developing the professional competence of future foreign language teachers is essential for effective language education. This competence includes linguistic, pedagogical, methodological, and intercultural components. This study examines the role of translation as a pedagogical tool in enhancing professional competence and highlights its contribution to forming reflective, competent, and adaptable foreign language teachers.*

Key words: *Professional competence, effective language education, intercultural components, reflective components.*

Introduction. Our country's connection to many foreign countries in economic, socio-political and spiritual-educational spheres has made the role of translation more important than ever. Our country highly takes into account the teaching practice of translation and its methodology of intensive teaching of foreign languages by providing education and learning of the languages. Translation is already seen as a method and a means of education in the methodology of teaching a foreign language. And as is already well-documented—translation has achieved a new level of the teaching method in the history of foreign language. For many years, text translation and grammatical translation methods have been widely used as tools for teaching a foreign language. As translation methods may not be up to the mark nowadays, other methods of foreign language instruction have emerged. In general, process methods such as familiarization, practice, and application began to be applied, and the educational status of translation has changed completely. Translation is also a form of speech activity in a foreign language with educational significance, which is an auxiliary type. In the current globalization context, the teaching of foreign languages involves not only the transfer of language knowledge, but also a professional competence is formed, for example, pedagogical,

communicative, cultural and technological skills. It is considered that professional competence is a critical dimension for teaching effectively, intercultural communication and successful functioning of effective education in an innovative educational setting going forward. These international studies reveal that not only does a teacher of foreign language possess linguistic know-how, but the teachers' professional competency encompasses pedagogical, communicative, cultural, creative and digital skills.

2. Methods. The approach of this article adopted is that of literature review. Scientific journals, conference proceedings and biographical articles were searched the professional competence of future foreign language teachers with respect to their composition and formation methods for the competency of future foreign language teachers, and their career training strategy development. In the study, the following sources were examined: In the literature: articles on professional competence of foreign language teachers, by science. Models of professional and creative competence; Pedagogical and communicative competence structures; Potentiality for digital and other modern pedagogical devices.

3. Results. Findings from the analysis indicate: There are layers of professional competence defined. The competences of a professional foreign language teacher have to do with language knowledge (the level of the language knowledge), pedagogical methodology, communicative competence and cultural competence. The pedagogical methods have some meaning and they also support learning. The competencies of future teachers are further strengthened by interactivity in teaching, reflexivity in practice, mentoring and unique pedagogical approaches.

Adaptive technologies and digital communication. Advanced proficiency in use of the modern digital tools is a must. These skills are becoming more crucial in today’s educational environment. Creativity and the position of creative competence in the process. Professional and creative competencies development enables teachers to plan lessons effectively and in a human-centered manner.

4. Discussion. Having a long history of use as a concept, professional competence carries a variety of ethical and ideological meanings, making the

confusion surrounding the concept in the scientific field inevitable. [2] Roth interpreted competence as a threefold concept, referring to self – competence, professional competence and social competence. Professional competence as “the ability to act and judge in a particular profession, and hold responsible” [3]

4.1 Structure of professional competence. Professional competence may not just be a knowledge of the language, but of pedagogy and communication. Studies confirmed the complexity of this competence structure, as the communicative, methodological, cultural and creative components are intertwined. This means that the teacher can complete genuine pedagogical teaching work in a timely and effective way. The activity of translation represents an essential integrative tool as part of the establishment and development of future foreign language teachers’ professional competence. Translation is not only the transfer of language units in one language into another, but also an intellectual activity that necessitates a comprehension of the intricate relations among language, thought and culture. Hence, through translation training, linguistic, communicative, intercultural and methodological capabilities are acquired widely in teachers of the future. Translation is a tool for developing linguistic and metalinguistic awareness. The act of translating further engages students and helps them to deepen their language knowledge as students must produce the content of one language in a manner that suits the level of proficiency of the second language. Through comparing linguistic structure, meanings and language rules, this practice promotes students' linguistic and metalinguistic awareness. Translation requires not only the transfer of word combinations but also the authentic expression of context and cultural content. As a result, through translation exercises, future teachers begin to better understand the language system and gradually improve their ability in error detection and correction in the process of language teaching – a part of professional linguistic competence. Translating enhances learners’ deliberate thinking about language that motivates them to move deeply

4.2. Building the communicative competence through pedagogical translation

Translation as a tool for pedagogy not only builds language skills but also creates the skills for intercultural communication. Internationally, research has demonstrated that students also consider the context of the text, social and cultural nuances, etc., in translation exercises, improving their ability to comprehend intercultural differences. These activities reinforce the communicative competence of the teacher and thus lead to a more effective process of communication with students. Integrating translation in the educational process leads to a more profound perception of not just the language but also the cultural and communicative context of the language itself, thereby preparing students to work in complex communicative situations in the context of professional activities.

Translation — as a didactic tool enhances education with professionalism. Using translation during language instruction as part of language teaching methods is also helpful to build pedagogical competence. The authors emphasize that students' comprehension of grammar rules of the text in context, structural and conceptual grammar in their learning through translation exercises is accomplished through such activities, while they are learning difficult language concepts by breaking those concepts down on their own, putting these to practical exercises. These methods provide approaches as strategies for preparing the process of education planning and teaching future generations of teachers. Translation as a methodological tool develops students' skills not only in language teaching techniques but also in creating practical lesson plans.

Translation - reinforces reflective and critical thinking. In this process the student finds new meanings and adapts to the meaning difference that there may be between these two languages. That sort of interaction forces students in the course of getting a translation into English to analyze the phenomena of language, root out mistakes and build up the quality of understanding. This way of thinking not only forms reflective skills but also critical thinking skills - skills which are important for a teacher in professional life, because it enables him to take stock of his teaching. Translation and the reflective thought process develop future teachers' skills to self-reflect and improve their pedagogical approach.

Translation - nurtures intercultural competence and interdisciplinary knowledge. The process of translation is not limited to vocabulary alone, but it takes into account intercultural context, social subtleties, as well as communicative scenarios. Translation tasks therefore promote respect and understanding in future teachers, not only in relation to the language, but also to the culture which connects it with their chosen language, thus setting them up for a globalized school setting. As a result of the translation approach, the teacher teaches language as well as builds the culture of intercultural respect and communication among the students - which is very important in today's pedagogical needs.

Recommendations.

A professionally-oriented educational component in which translation is incorporated and combined with foreign language teaching methodology and applied sciences can be utilized to foster future foreign-language teachers' professional competence. Activities based on the pedagogical translation approach must be implemented to establish the linguistic, methodological and communicative competencies of students comprehensively.

Therefore, the structured interlingual comparative translation exercises are designed to foster both grammatical awareness and error analysis skills of future teachers.

To better develop intercultural competence, consider cultural and pragmatic dimensions in studies of translations.

Reflective roles in the translation process build greater critical thinking and professional reflection skills for students.

Using digital translation tools for pedagogical purposes can raise the future foreign language teachers' digital competence.

To promote this as a methodology, it is recommended to take advantage of the tasks which rely on translation to measure professional competence. The integration of translation into the training of future foreign language teachers is a systematic, scientific, and goal-directed intervention that aids the comprehensive development of the future foreign language teacher's professional competence.

Conclusion. Consequently, organizing translation disciplines and translation elements in higher education institutions in an inseparable manner with the methodology of the teaching of a foreign language is an urgent scientific and pedagogical task. Then, they analyze these forms and functions of language, which help them to become effective teachers later on.

References

1. **Antera S.** Professional competence of vocational teachers: A conceptual review // Vocations and Learning. — 2021. — Vol. 14. — P. 459–479.
2. **Mulder M.** Conceptions of professional competence // International handbook of research in professional and practice-based learning / ed. by **Billett S., Harteis C., Gruber G.** — Dordrecht: Springer, 2014. — P. 107–137.
3. **Roth H.** Pädagogische Anthropologie. — Vol. 2. — Hannover: Schroedel, 1971.
4. **Klieme E., Hartig J., Rauch D.** The concept of competence in educational contexts // Assessment of competencies in educational contexts / ed. by **Hartig J., Klieme E., Leutner D.** — Göttingen: Hogrefe & Huber Publishers, 2008. — P. 3–22.
5. **Yusupov R.** Developing the professional competence of future foreign language teachers // Journal of Applied Science and Social Science. — 2025. — Vol. 15. — No. 2.

FUTUROLOGIK KO‘NIKMALAR BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNING KUCHLI TOMONI SIFATIDA

Nishonov Nodir Alimjanovich

Orziyev Muhammadjon Muhiddinjon o‘g‘li

Turon universiteti Andijon filiali

Annotatsiya: *Ushbu tezisda futurologiyaning mazmun mohiyati, futurologik ko`nikmalarning globallashuv jarayonidagi ahamiyati va uning zamonaviy shaxs hayotidagi o‘rni haqida batafsil yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *Futurologiya, futurologik ko‘nikma, kreativlik, tanqidiy fikrlash, moslashuvchanlik.*

Futurologiya (lotincha „futurum“-kelajak va „logos“- ta‘limot) tarixiy qonuniyatlar, ijtimoiy tendensiyalar va texnologik yutuqlarga asoslangan holda kelajakning turli ehtimoliy senariylarini o’rganadi va tahlil qiladi. Futurologiya tadqiqotining predmeti bugungi voqelikdan mantiqan kelib chiqadigan kelajak modellaridir. Xorijiy fanlar tizimida “futurologiya” atamasi mustahkam o‘rin oldi. Bu atama yuqorida ta’kidlaganimizdek nemis sotsiologi Ossip Kurt Flextxaym (Ossip Kurt Flechtheim , 1909-1998) tomonidan 1943 yilda ilmiy muomalaga kiritilgan bo`lib, keyinchalik u mashhur amerikalik olimga aylandi . O.K. Flextheimning sa’yi-xarakati bilan bu atama ijtimoiy-gumanitar fanlar soxasida mustahkam o'rin olgan va A. Toffler asarlarida keng o`rin ajratilgan. Ushbu kontseptsiyaning rivojlantirish asnosida, A. Toffler "futuroshok" tushunchasini fanga kiritdi. Bu tushuncha kelajakdagi zarbani tasvirlash uchun ishlatgan, olim buni kelajakning erta boshlanishidan kelib chiqadigan ajablanish va sarosimaning paydo bo'lishi bilan bog'lagan [1,B. 200-205] A.Tofflerning fikricha, zudlik bilan kechayotgan voqelikni “ushlab qolish” istagi bilan bog‘liq bo‘lgan yangi holatni boshdan kechirish uchun inson o‘zining kognitiv imkoniyatlarini doimiy va maqsadli ravishda kengaytirishi, moslashish qobiliyatini ongli ravishda tarbiyalashi kerak. **Futurologik ko‘nikmalar esa** (yoki futuristik ko‘nikmalar) kelajakni oldindan ko‘ra olish va unga tayyorgarlik ko‘rishga qaratilgan qobiliyatlar va bilimlar to‘plamini anglatadi. Bu ko‘nikmalar insonning kelajakdagi tendensiyalar, texnologiyalar va ijtimoiy o‘zgarishlar haqida chuqurroq tushuncha hosil qilishi va kelajakdagi vaziyatlarga moslashuvchan bo‘lishiga yordam beradi.

L.A.Regush ta’kidlaganidek, maxsus adabiyotlarda va zamonaviy tadqiqot ishlarida antisipatsiya va ehtimoliy prognozlash ta’riflarining ma’nosini ko`rib chiqishda olimlar harakat natijalarini qabul qiluvchi, oldindan sintez, bashorat qilish ehtimoli va ekstrapolyatsiya kabi tushunchalardan foydalanadilar[2, B.94-102].

A.V.Xutorskiyning ta’kidlashicha, bashorat qilish – bu faoliyatning ehtimoliy rivojlanishi yoki mumkin bo`lgan natijalarini oldindan bilish va ularning vizual ko`rinishini o`zida ifoda etadi[3, B. 55-56].

I.M.Feygenberg prognozlashni avvalgi tajriba va ayni vaziyatni o`z ichiga kelajak hodisalarini oldindan ko`rish hisoblaydi va bu elementlar yuz berish ehtimolligi tarkibidagi tizimni tashkil etuvchi muhim bo`g`inlardir. Tadqiqotchi prognozlashni antisipatsiyaning bir qismi sifatida ifodalaydi [4,B.392]

Futurologik ko‘nikmalar bir nechta asosiy elementlardan iborat bo‘lib, ular zamonaviy dunyo sharoitida muvaffaqiyatli bo‘lish va kelajakga tayyorgarlik ko‘rishda muhim rol o‘ynaydi:

- **Kreativ fikrlash**: Kelajakdagi yangi vaziyatlarni tasavvur qilish, g‘ayrioddiy va innovatsion yechimlar topish.
- **Muqobil ssenariylar yaratish**: Har xil ssenariylarni tasavvur qilish va ularga tayyorgarlik ko‘rish (eng yaxshi, eng yomon va eng kutilmagan variantlar uchun).
- **Tahliliy qobiliyatlar**: Ma'lumotlarni yig‘ish, tahlil qilish va o‘zgarishlarni kiritadigan faktlarni aniqlash.
- **Texnologik savodxonlik**: Yangi texnologiyalar, raqamli tendensiyalar va ularning ijtimoiy va iqtisodiy ta'siri haqida bilimga ega bo‘lish.
- **Moslashuvchanlik**: Yangi vaziyatlarga tez va samarali moslashish qobiliyati, turli xil o‘zgarishlarga tayyor bo‘lish.
- **Yaratuvchan strategiyalarni ishlab chiqish**: Innovatsion strategiyalar va rejalar tuzish, o‘zgaruvchan sharoitlarda samarali qaror qabul qilish.

- **Global ko‘nikmalar**: Turli madaniyatlarni tushunish, global jarayonlarga moslasha olish va xalqaro tendensiyalarni hisobga olgan holda fikrlash.
- **Tanqidiy fikrlash ko‘nikmasi:** Futurologik ko‘nikmalar bilan tanqidiy fikrlash o‘zaro bog‘liq. Futurolog kelajak haqida bashorat qilar ekan, har xil ssenariylarni tahlil qiladi va ularga tanqidiy yondashadi. Bu yondashuv insonga eng to‘g‘ri qarorlarni qabul qilishga yordam beradi, chunki kelajakda yuz berishi mumkin bo‘lgan vaziyatlar murakkab va ko‘p o‘zgaruvchiga ega bo‘lishi mumkin.

Bir qator olimlar futurologik ko`nikmalar haqida fikr yuritib quyidagi mulohazalarni ilgari surgan:

- Alvin Toffler o‘zining mashhur asarlari, xususan, **"Future Shock"**[5, B. 557] va **"The Third Wave"** [6. B. 784] orqali kelajakni o‘rganish va futurologik fikrlashda asosiy poydevorlarni qo‘ygan olimlardan biri hisoblanadi. U kelajakdagi o‘zgarishlarning tezlashishi tufayli insonlar "kelajak shoki" holatiga tushishi mumkinligini ta'kidlagan. Toffler shuningdek, texnologik rivojlanish, ijtimoiy va madaniy o‘zgarishlarning ta'sirini chuqur tahlil qilib, insoniyatning bu o‘zgarishlarga moslashishi uchun yangi ko‘nikmalar kerakligini aytgan. U kelajakdagi yangiliklarga tayyor bo‘lish uchun kreativ fikrlash, moslashuvchanlik, texnologik savodxonlik va o‘zgaruvchan strategiyalar ishlab chiqish qobiliyatlarini muhim deb hisoblagan.
- Buckminster Fuller innovatsion strategiyalar va kreativ fikrlashning kelajak uchun ahamiyatini tushuntirgan futurologlardan biridir. U o‘zining **"Operating Manual for Spaceship Earth"[7]** asarida kelajakda insoniyatning global masalalarni hal qilish uchun kreativlik va yangi texnologik yechimlarni qabul qilish zarurligini ta'kidlagan. Fullerning fikricha, kelajakdagi o‘zgarishlarga moslashuvchanlik va texnologik taraqqiyot insoniyatni yangi darajaga olib chiqishi mumkin.

o Michio Kaku - kelajak texnologiyalari va fizikasi haqida fikr yuritadigan olim. U **"Physics of the Future"[8]** asarida kelajakda texnologiyalar, sun'iy intellekt, biotexnologiya va boshqa fanlar taraqqiyoti haqida bashoratlar beradi. Kakuning fikriga ko‘ra, insoniyat yangi texnologiyalarga moslashish, ularni boshqarish va ularning jamiyatga ta'sirini tushunish uchun texnologik savodxonlik va kreativ fikrlashni rivojlantirishi kerak bo‘ladi.

Futurologik ko‘nikmalar inson va jamiyat kelajakdagi xavf-xatarlardan himoyalanishi, texnologik inqiloblarga tayyor bo‘lishi, shuningdek, ijtimoiy va ekologik muammolarga samarali yechim topishda muhim ahamiyatga ega.

- **Texnologik inqilobga tayyorgarlik**: Sun'iy intellekt, robototexnika, biologik texnologiyalar va kognitiv fanlar rivojlanishi jamiyatni qanday o‘zgarishlarga olib kelishi mumkinligini tushunish.
- **Ijtimoiy o‘zgarishlarga tayyorlik**: Futurologik ko‘nikmalar kelajakda qanday ijtimoiy tendensiyalar paydo bo‘lishini taxmin qilishga yordam beradi, masalan, ish o‘rinlari, ta'lim va sog‘liqni saqlash tizimlarida o‘zgarishlar.
- **Ekologik muammolarga yechimlar**: Futurologik yondashuvlar sayyoraning kelajakdagi ekologik vaziyatini yaxshiroq tushunish va barqaror rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqishga yordam beradi.

Futurologik ko‘nikmalar turli sohalarda keng qo‘llaniladi:

- **Biznes va menejment**: Kelajakdagi bozor tendensiyalarini bashorat qilish, innovatsiyalarni kiritish va raqobatbardosh bo‘lish.
- **Siyosat va xalqaro munosabatlar**: Global o‘zgarishlarni oldindan ko‘ra olish va xalqaro siyosatdagi o‘zgarishlarga mos strategiyalarni ishlab chiqish.
- **Ta'lim**: Kelajakda talab etiladigan ko‘nikmalar va kasblar haqida taxmin qilish va ta’lim tizimini shu yo‘nalishda rivojlantirish.
- **Texnologiya va ilm-fan**: Texnologik taraqqiyot jarayonlarini kuzatish va ularning jamiyatga ta'sirini baholash.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlashimiz mumkinki futurologik ko‘nikmalar inson va jamiyatning kelajakdagi texnologik va ijtimoiy o‘zgarishlarga tayyor bo‘lishini ta’minlaydi. Ushbu ko‘nikmalarni rivojlantirish bugungi kunda innovatsiyalar va o‘zgarishlar davrida muvaffaqiyat qozonish uchun zarurdir. Kelajakdagi imkoniyatlar va xavf-xatarlarni ko‘ra bilish, tahlil qilish va mos strategiyalar ishlab chiqish futurologik ko‘nikmalar asosidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. **Тоффлер А.** Шок будущего / А. Тоффлер // Никитина Л. Е., Липский И. А., Майорова-Щеглова С. Н. и др. *Педагогическое прогнозирование*. — М. : Изд-во МППИ, 2009. — С. 200–205.
2. **Регуш Л. А.** Развитие способности к прогнозированию педагогических явлений у студентов пединститута // *Вопросы психологии*. — 1985. — № 1. — С. 94–102.
3. **Хуторский А. В.** Ключевые компетенции: технология конструирования // *Народное образование*. — 2003. — № 5. — С. 55–56.
4. **Фейгенберг И. М., Журавлева Г. Е.** Вероятностное прогнозирование в деятельности человека. — М. : Наука, 1977. — 392 с.
5. **Тоффлер Э.** Шок будущего : пер. с англ. — М. : ООО «Издательство АСТ», 2002. — 557 с. — (Philosophy).
6. **Тоффлер Э.** Третья волна. — М. : ООО «Издательство АСТ», 1999. — 784 с. — (Классическая философская мысль).
7. **Design Science Lab.** Operating Manual BF [Электронный ресурс]. — Режим доступа: https://designsciencelab.com/resources/OperatingManual_BF.pdf (дата обращения: ko‘rsatilmagan).
8. **Kniga.biz.ua.** Fizika [Электронный ресурс]. — Режим доступа: https://kniga.biz.ua/pdf/3020-Fizika.pdf

SUN’IY INTELLEKGA ASOSLANGAN TA’LIM FUTUROLOGIK KOMPETENSIYANING AJRALMAS QISMI SIFATIDA

Nishonov Nodir Alimjanovich
Mahmudaliyev Navro‘zbek Dilmurodjon o‘g‘li
Turon universiteti Andijon filiali

Annotatsiya: *quyida keltirilgan tezisda raqamli texnologiyalardan foydalanish ko`nikmasi bugungi kundagi eng muhim ko`nikmalardan biri ekanligiga urg’u berib o`tilgan. Zamonaviy VUCA dunyosida ushbu ko`nikmalar bo`lajak hodimlarni dunyo talablari darajasidagi mutaxasisslarga aylantiradi.*

Kalit so`zlar: *Futurologiya, raqamli avlod, raqamli aborigenlar, Z avlod, konnektivizm, smart-jamiyat.*

Bugungi globallashuv jarayonida futurologik tafakkur va futurologik mahorat har bir sohaning asaosiy elementiga aylanib bormoqda. Bu o‘z navbatida futurologik dunyoqarashni rivojlantirish zaruriyatini yuzga keltiradi. Futurologiya (lotincha „futurum“-kelajak va „logos“- ta‘limot) tarixiy qonuniyatlar, ijtimoiy tendensiyalar va texnologik yutuqlarga asoslangan holda kelajakning turli ehtimoliy ssenariylarini o’rganadi va tahlil qiladi. Ta’lim oluvchilarning yangi avlodlari oldingi avlodlarga o'xshamaydi. O`quvchilar hech qachon Internet kabi keng ma'lumotlar bazasidan foydalanmagan. Global tarmoqning ta’siri inson hayotining barcha jabhalarida sezilmoqda va, albatta, oliy ta’lim tizimi buni e’tibordan chetda qoldirishi mumkin emas.

Ta’lim berilar ekan ta’lim oluvchining psixologik hususiyatlarini hisobga olmaslikni umuman iloji yo`q [1, C. 8–22.]. Gavayi Universiteti (UH) tomonidan olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, biz hozirda o'qitish usuli qadriyatlar va o'rganish uslublariga moslashish uchun o'zgarishi kerak.

Ta'lim usullari, dars mazmuni va maqsadlari ushbu yangi avlod o'quvchilariga tegishli va jozibador bo'lishi kerak, agar muassasa o'z o'quvchilari uchun yuqori sifatli ta'limni birinchi o'ringa qo'ysagina oz maqsadiga erishishi mumkin.

J. Palfrey va K. Gasser ta'kidlaganidek, Zetlar(ya'ni bugungi avlod vakillari) internetdagi hayot va real hayotni farqlamaydilar, chunki ular raqamli va real fazodagi o'zligini alohida narsa sifatida qabul qilmaydi; ularning o'ziligi bir vaqtning o'zida bir nechta olamlarda mavjudligiga ishonishadi [2,C.369]. Bu shuni anglatadiki, Zetlar shaxsiyatining maqomi va uning Internetdagi ahamiyati - blogger, strimer, o'yindagi yuqori martabali elf ham ular uchun mazmunli va haqiqiy, xuddi oflayn hayot kabi muhim. Internetdagi maqom real hayotda ham tanishlar doirasiga, daromad va ish joyiga, ham hayotdagi maqomiga ham ta'sir qilishi mumkin. Internet tarmog`idagi a'zolarining ko`pligi yoki kamligi shular jumlasidandir. "Raqamli dunyoda o'sish: tarmoq avlodi dunyoni qanday o'zgartirmoqda" va "Vikinomika. Ommaviy hamkorlik hamma narsani qanday o'zgartiradi" kitoblari muallifiga J. Tapskottning fikriga ko'ra, internet yoshlarning ijtimoiy identifikatsiyasi, o'zini namoyon qilishi va turmush tarzi uchun mutlaqo yangi muhit yaratdi, bu tabiatan ikki tomonlama xususiyatga ega[3,C.456].

Google kompaniyasining rahbarlaridan bo`lgan Erik Shmidning so`zlariga ko`ra biz har 2 kunda sivivilizatsiya paydo bo`lgandan to 2003 yilgacha bo`lgan davr oralig`idagi axborot bilan teng axborot yaratmoqdamiz[4]. Bu o`z navbatida idrok jarayonida kuchli o`zgarishlar yuz berishiga olib keladi. Chunki informatsiyaning ko`pligi idrok qilish jarayonida o'zi uchun kerakli ma'lumotlarni topishga avtomatlashadi. Tarixdan bizga yaxshi ma'lumki ahborot oqimi kitoblar qo`lyozmalar ko`rinishida juda qimmat baholangan. Faqatgina o`ziga to`q honadonlargina bunday ziynatni o`ziga ep bila olgan. Hozirda esa nafaqat qog`oz, balkim, elektron kitoblar, virtual olamlar yaratilmoqdaki insonning idroki bu yangiliklarga qay darajada tayyor degan savol yuzaga kelmoqda. Hozirgi vaqtda Z avlodining sinonimi sifatida avlod mavzulari bilan shug'ullanadigan mutaxassislar "Raqamli avlod", "Raqamli aborigenlar", "Tarmoq avlodi","Phygital avlod" (figital) atamasini qo'llashni boshladilar. Ularning fikriga ko'ra, bu nom yangi avlodning

Talabalarda ma’naviy-axloqiy sifatlarni rivojlantirishda interfaol metodlarning o‘rni beqiyosdir. Munozara, aqliy hujum, “debat”, “klaster”, “sinkveyn”, rolli o‘yinlar kabi metodlar talabalarning fikrini erkin ifoda etishiga, o‘z nuqtayi nazarini asoslashiga va boshqalarning fikriga hurmat bilan munosabatda bo‘lishiga imkon yaratadi. Bu jarayonda talabalar jamoada ishlash, muloqot madaniyati va hamkorlik ko‘nikmalarini egallaydi.

Muammoli ta’lim va loyihaviy faoliyat orqali talabalar real hayotiy vaziyatlar asosida fikrlashga, ijtimoiy muammolarni anglashga va ularning yechimini topishga o‘rganadilar. Bunday mashg‘ulotlar talabalarda vatanparvarlik, fuqarolik mas’uliyati va insonparvarlik kabi ma’naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirishga xizmat qiladi. Loyihalar jarayonida talabalarning tashabbuskorligi, mas’uliyati va ijodiy salohiyati namoyon bo‘ladi.

Shuningdek, refleksiv mashg‘ulotlar talabalarning o‘z xatti-harakatlari, qarorlari va axloqiy pozitsiyasini tahlil qilishida muhim vosita hisoblanadi. O‘z-o‘zini baholash, kundalik yuritish, tahliliy suhbatlar orqali talabalar shaxsiy

rivojlanish yo‘lini anglab yetadilar. Bu esa ularning ma’naviy-axloqiy ongini yanada mustahkamlaydi.

Umuman olganda, kreativ yondashuv asosida tashkil etilgan ta’lim jarayoni talabalarning ma’naviy-axloqiy sifatlarini kompleks rivojlantirishga xizmat qiladi. Ushbu yondashuv zamonaviy oliy ta’lim muassasalarida tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirishning muhim omili sifatida namoyon bo‘ladi.

Metodlar. Ushbu tadqiqotda talabalarda axloqiy va estetik kompetentlikni shakllantirish bo'yicha integratsiyalashgan tizimning samaradorligini baholash maqsadida tajriba-sinov metodi qo'llanildi.

Ushbu metodlar quyidagilardan iborat:

-loyiha asosidagi o‘qitish: talabalar o‘z axloqiy va estetik qadriyatlarini amaliyotda sinab ko‘rishlari uchun loyihalar yaratish. bu jarayonda ular jamoa bilan ishlash, muammolarni hal qilish va ijodiy g‘oyalarni amalga oshirish ko‘nikmalarini rivojlantiradilar.

-muzokaralar va bahslar: talabalar o‘rtasida axloqiy va estetik masalalar bo‘yicha muzokaralar o‘tkazish. bu, ularning tanqidiy fikrlashini va turli nuqtai nazarlarni qabul qilish qobiliyatini oshiradi.

-san’at va madaniyat tadbirlari: san’at ko‘rgazmalari, teatr spektakllari yoki madaniy tadbirlarga tashrif buyurish orqali talabalar estetik tajribalarni orttiradilar va san’atning ahamiyatini anglaydilar.

-refleksiv faoliyat: talabalarga o‘z tajribalari va o‘rganish jarayonlarini tahlil qilish imkoniyatini berish. refleksiv yozuvlar yoki guruh muhokamalari orqali o‘z fikrlarini ifodalashlari mumkin.

-o‘yin metodlari: rol o‘yinlari va simulyatsiyalar orqali talabalarga axloqiy va estetik vaziyatlarni o‘rganishga yordam berish. bu, ularning emotsional intellektini va ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

-ommaviy axborot vositalari bilan ishlash: talabalarni axloqiy va estetik masalalar bo‘yicha maqolalar, video va boshqa materiallar bilan tanishtirish. ular bu materiallarni tahlil qilib, o‘z fikrlarini shakllantirishlari mumkin.

-mentorlik va maslahat berish: tajribali o‘qituvchilar va mutaxassislar tomonidan talabalar uchun mentorlik dasturlarini tashkil etish. bu, ularning rivojlanishiga yordam beradi va o‘zaro tajriba almashishga imkoniyat yaratadi.

-interaktiv ta’lim: zamonaviy texnologiyalar yordamida interaktiv darslar o‘tkazish, masalan, onlayn platformalar va ta’lim dasturlari orqali. bu talabalarni faol ishtirok etishga undaydi.

-kreativ seminarlar: ijodiy seminarlar va ustaxonalarda qatnashish orqali talabalar estetik ko‘nikmalarini rivojlantirishlari mumkin. bu, shuningdek, ularning ijodiy fikrlashini rag‘batlantiradi.

-ijtimoiy loyiha faoliyati: talabalarni ijtimoiy masalalarni hal qilishga jalb etish, ijtimoiy loyihalar orqali axloqiy mas’uliyat hissini rivojlantirish.

-kross-darslar: turli fanlar o‘rtasida integratsiya qilish orqali axloqiy va estetik masalalarni o‘rganish. masalan, adabiyot darsida axloqiy dilemmalar, san’at darsida esa estetik qadriyatlar muhokama qilinishi mumkin.

-o‘z-o‘zini baholash va baholash: talabalarga o‘z faoliyatini baholash imkoniyatini berish. bu, ularning o‘z-o‘zini anglashini va rivojlanishini ta’minlaydi.

-tadqiqot va ilmiy ishlar: talabalarni axloqiy va estetik masalalarda tadqiqotlar olib borishga undash. bu jarayon ularning analitik fikrlashini va ilmiy yondashuvini rivojlantiradi.

-ijtimoiy tarmoqlar va platformalar: talabalarni ijtimoiy tarmoqlarda axloqiy va estetik masalalarni muhokama qilishga jalb etish. bu, ularning fikr almashish va muhokama madaniyatini shakllantiradi.

-guruhli ishlar: talabalarni kichik guruhlarga bo‘lish va birgalikda axloqiy va estetik masalalarni hal qilishga undash. bu, jamoaviy ish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

-maqsadli seminarlar va treninglar: maxsus seminarlar va treninglar o‘tkazish orqali talabalarga axloqiy va estetik kompetentlikni oshirishga qaratilgan dasturlarni taqdim etish.

-o‘qituvchilarni tayyorlash: o‘qituvchilarni axloqiy va estetik kompetentlikni integratsiyalashgan tizimda o‘qitish va tayyorlash. bu ularning darslarni samarali o‘tkazishlariga yordam beradi.

-ijodiy ishlarni baholash: talabalar tomonidan yaratilgan ijodiy ishlarni baholash va ularni taqdirlash. bu, ularning motivatsiyasini oshiradi va ijodiy faoliyatga bo‘lgan qiziqishini kuchaytiradi.

-o‘quv dasturlarini yangilash: o‘quv dasturlarini zamonaviy axloqiy va estetik masalalar bilan boyitish. bu, talabalarni real hayotdagi muammolar bilan tanishtirishga yordam beradi.

-ommaviy axborot vositalaridan foydalanish: axloqiy va estetik masalalar bo‘yicha filmlar, hujjatli filmlar yoki boshqa ko‘ngilochar materiallardan foydalanish. bu, talabalar uchun yangi g‘oyalar va fikrlar manbai bo‘lib xizmat qiladi.

Yuqorida keltirilgan metod va yondashuvlar talabalarda axloqiy va estetik kompetentlikni integratsiyalashgan tizimda takomillashtirishga, talabalarni nafaqat bilim, balki hayotiy ko‘nikmalar bilan ham ta’minlashga, ularning shaxsiy va professional rivojlanishiga, ularning shaxsiy, ijtimoiy va professional rivojlanishiga xizmat qiladi. Tadqiqot Buxorodagi oliy ta'lim muassasalarida o'qiyotgan 200 nafar talaba ishtirokida o'tkazildi. Tadqiqot ishtirokchilari ikki guruhga ajratildi: tajriba guruhi va nazorat guruhi. Tajriba guruhida axloqiy va estetik kompetentlikni rivojlantirishga qaratilgan integratsiyalashgan dastur asosida mashg'ulotlar o'tkazildi. Nazorat guruhida esa odatiy ta'lim jarayoni davom ettirildi. Tadqiqotda axloqiy va estetik kompetentlikni baholash uchun anketalar, kuzatuv, intervyu va testlar qo'llanildi. Olingan ma'lumotlar statistik tahlil qilindi va ikki guruh natijalari taqqoslandi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. **Kenjaboyev A., Kenjaboyeva D.** Pedagogik deontologiya va kompetentlik. – Termiz: Surxon-nashr nashr-matbaa markazi, 2022.

2. **Haydarova L. H.** Sharq mutafakkirlari merosi vositasida talabalarda axloqiy va estetik kompetentlikning integratsiyalashuv tizimini takomillashtirish imkoniyatlari // Inter education & global study. – 2024. – № 3(1). – B. 165–174.

3. **Hamrayeva O. F., Bozorova F.** Oliy ta’lim muassasasi talabalarida axloqiy va estetik tarbiyani rivojlantirish // Modern Problems in Education and Their Scientific Solutions. – 2023. – T. 7, № 7. – B. 9–12.

4. **Djalalova N.** Yoshlarning estetik tafakkurini tarbiyalash va yuksaltirishda musiqiy madaniyatning o‘rni // Prikladnye nauki v sovremennom mire: problemy i resheniya. – 2023. – T. 2, № 4. – B. 7–10.

5. **Valiyeva Q. I.** Bo‘lajak o‘qituvchilarning pedagogik kompetensiyasi va o‘z-o‘zini rivojlantirishi // Journal of Science, Research and Teaching. – 2023. – T. 2, № 12. – B. 153–158.

MAKTAB KIMYO KURSIDA TUZLAR MAVZUSINI O‘QITISH METODLARI

Raximov Alisher Xudoyqulovich
Qurbonova Baxtigul Xudoyor qizi
Sayfullayeva E‘zoza Sherzod qizi
DTPI

Annatatsiya: *tuzlar anorganik kimyoda muhim moddalardan bo‘lib, kislota va asoslarning ta’siri mahsuloti sifatida qaraladi. Tuzlar tabiatda eng ko‘p tarqalgan moddalardir, yerdagi minerallar ham asosan turli oksidlarning tuzlar bilan aralashmasi bo‘lib, tuzlarni nazariy va amaliy jihatdan o‘rganish, tuzlarni yerdagi balansini saqlash kabi qishloq xo‘jaligi va atrof-muhit ekologiyasida muhim ahamiyatga ega.Ushbu maqolada tuzlar mavzusini o‘qitish metodikasi haqida so‘z*

boradi. Tuzlarni umumiy ta'rifiga tayanib qolmaslik, tabiatda tuzlar ko'p tarqalgan moddalar ekanligini hisobga olib, o'qituvchi tomonidan yuqoridagilarni hisobga olib dars ishlanmalar tuzib, darslarni interfaol usulda tashkil qilish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Kalit so'zlar: *nordon tuz, kislota qoldig'i, koeffitsiyent, interfaol, kompleks, aralash tuz, genezis*

Kirish: "Taraqqiyotning tamal toshi ham, mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch ham ilm-fan, ta'lim va tarbiyadir". Fan va texnika jadal rivojlanayotgan bugungi kunda kimyo fani sirlarini ilmiy asosda o'rganish muhim ahamiyatga egadir.

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi Respublika ta'lim markazi tomonidan ishlab chiqilgan 7- sinf o'quv dasturida tuzlar mavzusiga 4-soat ajratigan.

Tuzlar qanday moddalar? Ularning tarkibi qanday? Noorganik moddalarning qaysi sinfiga kiradi, qaysi belgilariga qarab tasniflasnadi? - degan savollar bilan tuzlar mavzusiga o'quvchilar e'tiborini tortadi. Ko'p yillik pedogog amaliyotidan ma'lumki, o'quvchilarda bu mavzuni o'rganishda yuzaga keladigan muammoli vaziyatlar, avvalo tuzlarning ta'rifiga e'tibor beradigan bo'lsak: "Tuzlar deb metall atomlari (yoki ammoniy NH^{4+} kationi) va kislota qoldig'idan iborat bo'lgan murakkab moddalarga aytiladi". O'quvchilarda ko'p yanglishish quyidagi holatlarda uchraydi:

-tuzlaring umumiy formulasiga Me_xK_q tayanib qolish;

-tuzlarga asos va kislotalar hosilalari deb qarash;

-kimyoviy reaksiyalar natijasida kompleks yoki aralash tuzlar ham hosil bo'lishini hisobga olmaslik;

-organik tabiatli moddalar o'rtasida ham tuzlarning hosil bo'lishi,

- ammoniy ioni ham eritmada o'zini metall kationi kabi xossasini namoyon qilishi.

Nazariy bilimlarni o'zlashtirishda yuqoridagi jihatlarning e'tiborga olinmasligi, tuzlar formulasini to'g'ri yoza olmaslik, tuzlarni nomlash va kimyodan mashq masalalar yechishdagi qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi.

Pedogogik jarayonlarda ba’zi o‘quvchilar, metall atomi o‘rniga (NH^{4+}) kelsa, tuz formulasini o‘qishga qiynaladi. Maktab kimyo kursida gidroliz mavzusini o‘qitishda har qanday tuzni asos va kislota ta’sirlashuvi mahsuloti sifatida qaraladi.

Kimyo fani – nazariya va amaliyot uyg‘unligiga asoslangan tabiiy fan. Ayniqsa, tuzlar mavzusi murakkab bo‘lmagan bo‘lsa-da, ko‘pchilik o‘quvchilarda mavhum bo‘lishi mumkin. Shuning uchun, ushbu mavzuni o‘zlashtirishda kimyoviy masalalarni ishlash, tajribalar o‘tkazish va moddalar bilan ishlash orqali o‘quvchilarda mavzuga nisbatan tushuncha, qiziqish va mustahkam bilim shakllantiriladi. O‘quvchilarda tuzlar haqida tushuncha shakllantirish, tuzlarni aniqlash, tasniflash va ularning kimyoviy formulalarini yozishni o‘rgatish, kimyoviy masalalar va tajriba asosida mavzuni chuqurroq o‘zlashtirish, o‘quvchilarda mantiqiy fikrlash, tahlil qilish, amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Tajriba tahlil yondashuvi orqali o‘quvchilar nazariy bilimni amaliy ko‘nikmaga aylantiradi. Kimyoviy masalalar – hisob-kitob, formulalarni tahlil qilish va mantiqiy fikrlashni kuchaytiradi.Tajribalar–o‘quvchini faol ishtirokchi qiladi, qiziqishni kuchaytiradi. Shu yondashuv orqali o‘quvchi tuzlarni turlarga ajratishni, ularning reaksiyalarini, hayotdagi rolini aniq tushunib oladi.


O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 12 avgustdagi PQ-4805-son «Kimyo va biologiya yo‘nalishlarida uzluksiz ta’lim sifatini va ilm-fan natijadorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi prezident qarorida o‘quvchilarni tabiiy fanlarga qiziqishini oshirish, haqida bo‘lsa, dunyo olimi Johnstone o‘zining kimyo ta’limi modeli va ular asosida ishlab chiqarish makroskopik (ko‘z bilan ko‘rinadigan tajribalar), mikroskopik (molekulalar va atomlar), va simvolik (kimyoviy formulalar) darajalarda o‘qitish kerakligini ta’kidlaydi. Ushbu farazga binoan o‘quvchilarga mavzularni qanchalik hayotiy tushuntirilsa ularning qabul qilish ko‘rsatkichi shunchalik ortadi.

Taklif va mulohazalar:

Aqliy hujum (cases, problems) o‘quvchilarga mavzuni faqat “o‘qib tushunish”dan ko‘ra chuqurroq anglash imkonini beradi. Masalalar hayotimizda, osh tuzi ovqat tayyorlashda, mineral o‘g‘itlar qishloq xo‘jaligi ekinlari o‘stirishda va ba’zi

tuzlar tibbiy preparatlar sifatida inson salomatligini saqlashda muhim hisoblanadi. Guruhda ishlash, muhokama qilish, grafik, model, laboratoriya tajribasi bilan birga olib borish o‘quvchilarda motivatsiyani oshiradi. O‘qituvchilarning metodik malakasi muhim masalalarni tanlash, muammolarni ochiq shaklda qurish, misollarni to‘g‘ri tanlash muhim sanaladi. Yuqoridagilarni inobatga olib, maktab kimyo kursida tuzlar avzusini o‘qitishda ba’zi metodlarni taklif qilamiz:

Mavzuga doir ko‘rgazmaladan foydalanish:



O‘tilgan mavzuni mustahkamalsh uchun jadval asosidagi topshiriqlarni bajarish

Metall ioni	**Tuz formulasi**	**Tuz nomi**	**Kisota qoldig‘i**	**Sinfi**
Cu^{+2}			HCO^{-3}	
Mg^{+2}			Cl^{-}	O‘rta tuz
Na^{+}		Natriy atsetat	CH_3COO^{-}	

Al^{+3}	$Al_2(SO_4)$ 3		SO_4^{2-}	
K^+			MnO_4^-	
Fe^{+2}			NO_3^-	

Mavzuga doir mashq va masalalar yechish:

1.Texnik soda tarkibidagi tuzning kimyoviy formulasini aniqlang; 2.Qaysi tuzlar mashhur kimyogarlar nomi bilan atalgan? 3.Vulqon reaksiyasida qaysi tuz ishlatilgan? 4.Qanday tuzlarga kompleks tuzlar deyiladi?

1-masala. Tarkibi quyidagicha bo‘lgan tuzning eng oddiy formulasini toping:

Na-42,07%, P-18,91%, 0-39,02%.

Yechish: bunday masalalami yechishda dastlab elementlarning berilgan foizlari ularning atom massasiga bo‘linadi va hosil bo‘lgan nisbatlarning barchasi eng kichigiga bo‘linadi:

1.42,07/23= 1,83; 18,91/31= 0,61; 39,02/16= 2,44;



2. $\frac{1,83}{0,61} = 3$; $\frac{0,61}{0,61} = 1$; $\frac{2,44}{0,61} = 4$, 3 :1:4, demak, tuzning formulasi: Na_3PO_4

3. Javob: Na_3PO_4

Tuzlar mavzusiga doir masalalar yechish, o‘quvchilarni stexiometriik qonunlarni o‘qib o‘rganishga undaydi.

Kimyoning dastlabki mavzularida moddalarni tuzilish formulalari haqida tushunchalar beriladi. Noorganik kimyoning muhim mavzularidan bo‘lgan tuzlar mavzusini o‘qitishda tuzilish formulalarini tuzishni mashq qilish o‘quvchilarda borliq, olamni manzarasi va moddalarning fazoviy tuzilishi haqidagi tasavvurlarni kuchaytiradi.

Tuzlarning empirik va grafik tasvirlanishini quyidagicha ifoda mumkin:


NaCl	$CuSO_4$	$AlPO_4$
Na – Cl		
Natriy xlorid	Mis (II)-sulfat	Aluminiy fosfat

O‘quvchilarni mavzu yuzasidan o‘zlashtirgan nazariy bilimlarini amaliy ko‘nimalar bilan bog‘lash maqsadida quyidagicha topshiriqlar bilan ishlash mumkin:

Tuzlar eritmalari	Turli indikatorlar			Tegishli reaksiyalar
	Lakmus	Fenolftalyen	Metiloranj	
Rux xloridi				
Kaliy karbonat				
Natriy sulfat				

Noorganik moddalarning murakkab sinflari orasida br-biridan kelib chiqishi, genezisi mavjud bo‘lib, oddiy moddalar kislorodda oksidlanib turli oksidlarni hosil qiladi. Oksidlar boshqa moddalar bilan asos yoki kislotalarni hosil qilishi mumkin. Bu genezisga doir mashq va masalalar bajarish orqali o‘quvchilar noorganik kimyodan o‘rgangan bilimlarini umumlashtiradilar.

Mashq: Quyidagi 1-7 sxemalarda sodir bo‘ladigan reaksiya tenglamarini tuzing:



Xulosa: Bu kabi dars o‘tish usullari kimyo fanini o‘rganuvchilarning fikrlash doirasini kengaytirishga va tuzlarni nomlash, tuzlar formulalarini to‘g‘ri tuzish ko‘nikmalariga yordam beradi. Bu esa mavzuni o‘zlashtirish samaradorligini oshiradi va ta’lim sifatini yaxshilashga xizmat qiladi. Tuzlar tarkibiga doir masalalar yechish metodi – tuzlar mavzusini o‘quvchilarga oson tushuntirishning samarali yo‘li bo‘lib, ularni hayotiy misollar orqali tahlil qilishga, kimyoviy qonuniyatlarni mustaqil anglashga o‘rgatadi. Bu turdagi metodlarni qo‘llash o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, eksperiment rejasini tuzish va nazariy bilimni amaliy tajribaga bog‘lash qobiliyatini rivojlantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. **Mirziyoyev Sh. M.** Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi : O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 32 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruza. — Toshkent : O‘zbekiston, 2024. — 48 b.
2. **Rahmatullayev N. G‘., Omonov H. T., Mirkomilov Sh. M.** Kimyo o‘qitish metodikasi : darslik. — Toshkent : Iqtisod-Moliya, 2013. — 320 b.
3. **Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi huzuridagi Respublika ta’lim markazi.** Rasmiy veb-sayt. — URL: https://www.rtmuzedu.uz/ (murojaat sanasi ko‘rsatilmagan).
4. **Asqarov I. R., Odilova M. A., G‘opirov K. G‘.** Kimyodan masala va mashqlar yechish usullari. — Toshkent : O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2017.
5. **Asqarov I. R., To‘xtaboyev N. X., G‘opirov K. G‘.** Kimyo : umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 7-sinflari uchun darslik. — Toshkent : Sharq nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2017.

INTEGRATSIYALASHGAN FAOLIYAT MARKAZLARI – MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA IJTIMOIY-KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISH OMILI SIFATIDA

Raxmatova Maftuna Uktamjan qizi

Qarshi davlat universiteti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda tayanch kompetensiyalarni shakllantirishda rivojlanish markazlarining o‘rni va ularning o‘zaro integratsiyalashuv tamoyillari yoritilgan. Shuningdek, zamonaviy pedagogik yondashuvlar orqali bolaning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishini ta’minlash yo‘llari ko‘rsatib o‘tilgan.*

Kalit so‘zlar: *Tayanch kompetensiya, rivojlanish markazlari, integratsiya, “Ilk qadam”, pedagogik yondashuv, kommunikativ, mantiqiy fikrlash, bilish, ijtimoiy, faoliyat, ta’lim, tarbiya.*

O‘zbekiston Respublikasi ta’lim siyosatining asosiy maqsadi har bir bolaning sifatli va qulay ta’lim olish huquqini amalda ta’minlashdan iborat. Chunki bolalarning jismoniy-intellektual, ma’naviy rivojlanishlarini ta’minlovchi dastlabki shart-sharoitlarni yaratish orqali ularning maktabda muvaffaqiyatli ta’lim olishlariga zamin hozirlash mumkin.

Zamon talabiga ko‘ra, jamiyatlarning tez o‘zgarishiga moslashish, ilmiy-texnik taraqqiyotga hissa qo‘shish va global muammolarni yengish kutilmoqda. Hozirgi kunda bilimlarni xulq-atvor namunalariga kiritish “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturining asosiy maqsadini tashkil etadi, shuning uchun bolalarning erta yoshdan boshlab rivojlanishini hisobga olgan holda ko‘nikmalarga asoslangan dasturlar rejalashtiriladi va amalga oshiriladi. Yuqori darajadagi fikrlash qobiliyatlari asosiy va ko‘nikmalarning har biridan bir yoki bir nechtasini o‘z ichiga olgan va ko‘p o‘lchovli aqliy jarayonlarni talab qiladigan harakatlarni anglatadi.

O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim oldiga qo‘yilgan ijtimoiy buyurtmadan kelib chiqqan holda qator natijalarga erishishni nazarda tutadi. Jumladan, bolalarni maktabgacha ta’lim tashkilotlariga to‘liq qamrab olish, katta maktabgacha yoshdagi bolalarning variativ dasturlar asosida ta’lim olishlari va maktabga samarali tayyorlanishlarini ta’minlash, maktabgacha ta’lim sohasida erishilgan yutuqlarni muntazam ommalashtirish hamda mazkur yo‘nalishda jamoatchilik fikrini o‘rganish, ota-onalarning maktabgacha ta’lim tashkilotlaridagi ta’lim-tarbiya jarayoni natijalari va sifatidan qoniqishlariga erishish, farzandlari sifatli maktabgacha ta’lim bilan qamrab olinishi borasidagi O‘zbekiston fuqarolari huquqlarini ta’minlash, maktabgacha ta’limning turli shakllarida maktabgacha yoshdagi bolalarning yagona davlat talablari asosida maktabga tayyorgarliklari ta’minlanadi. Qolaversa, maktabgacha ta’limning yangi shakllarini vujudga keltirildi. Bunda “Qisqa muddatli maktabga tayyorlov guruhlarini tashkil etish”, “Bolalarga erta yordam ko‘rsatish xizmati”, “O‘yin yordamida bolalarni qo‘llab-quvvatlash markazlar”ini tashkil etish, inklyuziv xarakterdagi maktabgacha ta’lim tashkilotlarini rivojlantirishni nazarda tutiladi. Davlat siyosatida ustivor masalalaridan yana biri maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarning rivojlanishlarini ta’minlash uchun oilaga yordam ko‘rsatish, maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarining salomatliklarini saqlash maqsadida salomatlikni mustahkamlashga yo‘naltirilgan texnologiyalarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarning hissiy-ruhiy holatlarini yaxshilash, ta’lim tashkilotlarida bolalarning tasavvuri va idrokini rivojlantirish orqali maktabda o‘qishni boshlash davrida ularning dastlabki bilim, ko‘nikma va malakalarini tenglashtirish, bunga maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarning maktabga tayyorliklarini ta’minlash maqsadida turli o‘yinlar va hamkorlikdagi faoliyat turlarini tashkil etish orqali erishish, maktabgacha ta’lim tashkilotlari rahbar xodimlarining tashkilotni boshqarish madaniyatini rivojlantirish kabilardir. Buning uchun birinchi navbatda maktabgacha ta’lim tashkilotlarini ijtimoiy-pedagogik jihatdan rivojlantirishga alohida e’tibor qaratmoqda.

Kompetensiya (lotincha “competo” so‘zidan olingan bo‘lib, “erishaman, muvofiqman, mos kelaman” ma’nolarini beradi) — kishi egallagan muayyan bilim, ko‘nikma, malakalar majmuasini anglatadi. Kompetensiya tushunchasi nisbatan yaqindan boshlab, 1960-yillarning oxiri va 1970-yillarning boshlaridan keng qo‘llanila boshlandi. Kompetensiya – ma’lum bir sohada samarali faoliyat olib borish uchun zarur bo‘lgan mutaxassisning ta’limiy tayyorgarligiga qo‘yilgan talabdir. U davlat ixtiyorida bo‘lgan, oldindan belgilangan ijtimoiy talab bo‘lib, u inson (ishchi)ning muayyan sohada samarali faoliyat ko‘rsatishi uchun zarur bo‘lgan ta’limiy (professional) tayyorgarligiga nisbatan qo‘yiladi. Kompetensiyalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan ta’lim oluvchilarning egallangan bilim, ko‘nikma va malakalarini o‘z shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy faoliyatlarida amaliy qo‘llay olish imkoniyatidir.

Bugungi kunda bolalarda kommunikativ, ijtimoiy, shaxsiy va bilish kompetensiyalarni rivojlantirish maktabgacha ta’lim maqsadlaridan biridir. Bola hayotida maktabgacha yosh nihoyatda muhim ahamiyatga ega, chunki miya rivojlanishining ushbu hal qiluvchi davrida butun umr davomida ta’lim olish, qiziquvchanlik va xotirjamlik uchun poydevor yaratiladi.

Maktabgacha ta’lim bolaning tayanch kompetensiyalarini rivojlantirish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. U ta’limning keyingi bosqichlarida, shuningdek, butun hayoti davomida rivojlanib boradi. “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan. Bu maktabgacha ta’lim va tarbiya jarayonida bolalar faoliyatining turli-tuman turlarida shakllanadigan kompetensiyalarni rivojlantirishga qaratilgan.

Kompetensiya – bolaning bilim, ko‘nikma, malaka va qadriyatlari majmuidir.

Dastlab bola bilimlarni anglab oladi va takrorlaydi, keyin tushunadi, shundan so‘ng bilimlarni tanish va yangi muhit sharoitida qo‘llaydi. Bilimlar bilish faoliyati natijasi hisoblanadi, shuning uchun quyidagilarga bog‘liq:

- ta’lim maqsadlari;
- hodisalarni bilishning erishilgan darajasi;

- mavjud bilimlar zaxirasi;
- bolaning individual xususiyatlari;
- o‘zlashtirilgan bilimlarning bolaning yosh xususiyatlariga mosligi.

Ko‘nikma - muayyan vazifa yoki maqsadga erishish uchun doimiy takrorlash orqali zarur harakatlarni avtomatik ravishda bajarish qobiliyatidir. Ko‘nikma - bu ta’lim sohasi uchun fikrlash yondashuvlari, usullari va vositalaridan foydalanishi kerak bo‘lgan har qanday harakat jarayoni.

Malaka - muayyan harakatlarni mustaqil bajarish qobiliyati. Mahorat bilimlar asosida, inson natijaga erishish uchun izchil to‘ldirib boradigan o‘zlashtirilgan ko‘nikmalardan foydalangan holda shakllanadi.

Qadriyatlar - pedagogikada qadriyatlar tasavvur, oliy maqsad, me’yorlar va qoidalar ko‘rinishida bilish faoliyati shakli sifatida namoyon bo‘ladi. Ular bolaning xulq-atvorida, ma’lum bir vaziyatda qanday harakat qilishida yo‘l ko‘rsatuvchi tamoyillar bo‘lib xizmat qiladi.

Kompetentli bola o‘z bilim, ko‘nikma va malakalarini muayyan vaziyatda safarbar qilishi va qo‘llashi, o‘z maqsadiga erishishi va rivojlanishning har bir bosqichida yoshiga mos keladigan vazifalarni hal qilishi mumkin.

Bola kompetensiyasi bu bolaning shu hayot davriga xos vazifalarni maqsadga muvofiq bajarish uchun yetarli bo‘lgan bilim, ko‘nikma, malaka va qadriyatlari.

Boshlang‘ich kompetensiyalar rivojlanish sohasidan qat’iy nazar bola shaxsini shakllantirishda poydevor hisoblanadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarga ta’lim berishda kompetensiyaviy yondashuv bolalarning bilish bilan bog‘liq bo‘lgan ehtiyojlari, muammolar va imkoniyatlarga samarali javob berish qobiliyatini shakllantirish, axloqiy me’yorlar va qadriyatlarni rivojlantirish, boshqa insonlar bilan muloqot qilish, shaxsiy («Men» konsepsiyasi)ni shakllantirishni o‘z ichiga oladi.

Maktabgacha yoshdagi (6-7 yosh) bolaning tayanch kompetensiyalari kommunikativ, ijtimoiy, shaxsiy, bilish hisoblanadi.

Kommunikativ kompetentsiya - bu murakkab muloqot qobiliyatlari va ko‘nikmalariga ega bo‘lish, muloqotda madaniy me’yorlar va cheklovlarni bilish, urf-odatlar, an’analar, odob-axloq qoidalarini bilish. Kommunikativ kompetentsiya quyidagi qobiliyatlardan iborat:

- Siz muloqot qiladigan kommunikativ vaziyatning ijtimoiy-psixologik prognozini bering;

- Kommunikativ vaziyatning o‘ziga xosligi asosida muloqot jarayonini ijtimoiy va psixologik jihatdan dasturlash;

-Kommunikativ vaziyatda muloqot jarayonlarini ijtimoiy-psixologik boshqarishni amalga oshirish.

Kommunikativ kompetensiya, birinchi navbatda, shaxsning rivojlanishi va o‘z-o‘zini rivojlantirish jarayonida shakllanadigan bolaning shaxsiy sifati. Muloqot jarayonida yuzaga keladigan muammolarni nostandart, ijodiy hal qilish qobiliyatidir. Kommunikativ kompetensiyaning tuzilishi ancha murakkab, ko‘p darajali xususiyatga ega.

“Kommunikativ kompetenstiya”, tushunchasi tilshunoslar bergan ta’rifga ko‘ra, “shaxs tomonidan til va nutq madaniyatini bilish asosida shakllantirilgan turli kommunikativ hodisa va vaziyatlardagi nutqiy axloq tizimi ekanini ta’kidlash lozim. Bu tizim tarkibiga kommunikativ rollarni (so‘zlovchi va tinglovchi), shuningdek, ijtimoiy rollarni, nutq strategiyasi va taktikalarini, etik va odob-axloq qoidalarini egallash kiradi, ularda ushbu madaniyatda qabul qilingan shaxsning turli ijtimoiy guruh vakillari bilan turli sabab va turli vaziyatlarda aloqada bo‘lish usullari ifodalanadi”. Kommunikativ kompetenstiya murakkab dinamik tizim sifatida o‘ziga xos tuzilishga ega bo‘lib, quyidagi integrastiyaviy komponentlarni o‘z ichiga oladi:

- predmetli (nutqqa oid bo‘lmagan kompetenstiya);

- tilga oid (nutqqa oid kompetenstiya);

-ijtimoiy-madaniy (ijtimoiy munosabatlar sohasidagi bilim va tajriba, muloqot psixologiyasini qamrab oluvchi);

Kommunikativ kompetensiya – atrofdagi odamlar bilan o‘zaro munosabatlarning konstruktiv usullari va vositalariga ega bo‘lishni taqozo qiladi;

muloqot qilish va yuzaga kelgan o‘yin, bilish, maishiy va ijodiy vazifalarni muvaffaqiyatli hal qilish qobiliyati. Bu kompetensiyaga nutqni rivojlanish ham kiradi. Nutq bolaning kognitiv va ijtimoiy rivojlanishi hamda dunyoni bilishi uchun zarur vositadir. Mazmunga boy va rag‘batlantiruvchi ta’lim muhitida bolalar og‘zaki va yozma muloqot ko‘nikmalarini rivojlantiradilar, bu ularga o‘zlariga ishonishga, boshqalar bilan munosabatlarni o‘rnatishga, dunyo haqidagi tushunchalarini shakllantirishga, mashg‘ulotlarda ishtirok etishga va loyiha ishlarini jamoa bo‘lib bajarishga yordam beradi. Bolalar kattalar va boshqa bolalar tomonidan tushunilishlari uchun o‘zlarini namoyon etishlari mumkin. Ular aytilganlarni tushunish uchun tinglaydilar va kuzatadilar; savol va topshiriqlarni eshitadilar va shunga mos javob berishadi. Ular nutqni, ayniqsa o‘qish va yozishni o‘z ichiga olgan mashg‘ulotlarga ijobiy qarashadi. Ular nutqning turli shakl va funktsiyalarini biladilar, ulardan foydalanadilar va kerak bo‘lganda ularni turli xil muloqot holatlarida moslashtiradilar.Bu kompetensiya, shuningdek, axborot olish uchun turli xil aloqa vositalaridan mustaqil foydalanish qobiliyatini o‘z ichiga oladi; ta’lim olishi va rivojlanishida foydalanish uchun kerakli ma’lumotlarni qidirish, tahlil qilish va tanlash, ularni tartibga solish, o‘zgartirish, saqlash qobiliyatini mustahkamlaydi. Kommunikativ faoliyat - kattalar va tengdoshlar bilan muloqot va o‘zaro munosabatlar.

Ijtimoiy kompetensiya – bu bolaning belgilangan tartib va odob-axloq qoidalariga rioya qilgan holda tengdoshlari va kattalar bilan birgalikda ishlash qobiliyati. Bolalar boshqalarni hurmat qilishni va ularning aytganlarini hisobga olishni o‘rganadilar. Guruhlarda samarali ishlash uchun zarur bo‘lgan xulq-atvor qoidalariga amal qiladilar. Muammoli vaziyatlarda ular yoshi va individual rivojlanish xususiyatlariga mos ravishda ularni hal qilish harakatlarini amalga oshiradilar. Ular tobora ko‘proq o‘zlarini guruhning bir qismi sifatida ko‘radilar va o‘z huquq hamda majburiyatlari borligini tushunadilar. Ular individual farqlarga ochiq. Bolalar boshqalar bilan uyg‘unlikda yashashlari mumkin. Ular turli insonlar bilan muloqot qilishadi va atrofdagilarning madaniy jihatdan xilma-xilligini tan oladilar, ularga yordam beradilar va qo‘llab-quvvatlay oladilar.

Inson tabiatan ijtimoiy mavjudotdir. Ular boshqalar bilan aloqa o‘rnatishlari, muloqot qilishlari va yashashlari kerak. Ijtimoiylashtirish zarurati erta bolalikdan boshlanadi. Chaqaloq tug‘ilgandan boshlab, ular birinchi bo‘lib onasi bilan munosabatlarni o‘rnatadilar. Ularning onasi bilan o‘zaro munosabatlari butun hayoti davomida shakllanadigan munosabatlarning asosini tashkil qiladi. Ushbu asos bilan bolalik ijtimoiylashuv jarayonining eng muhim bosqichini tashkil qiladi. Chaqaloq tug‘ilgandan boshlab, ularning asosiy ehtiyojlari ota-onalari tomonidan qondiriladi va ular muloqot qilishni boshlaydilar. Go‘daklik va bolalik davrida bolalar o‘z yoshi talabiga binoan atrof-muhit bilan muloqot qiladilar va ular haqida bilib oladilar.

Ijtimoiy kompetensiya - ta’lim qobiliyatlari bolalarning do‘stlari bilan guruhda, uyda oilasi bilan va kelajakdagi munosabatlarida kerak bo‘ladigan ko‘nikmalarni o‘z ichiga oladi. U ijtimoiy maqsadlarga mos ravishda o‘z his-tuyg‘ularini boshqarish, hamdardlik, qo‘llab-quvvatlovchi munosabatlarga kirishish, o‘zini sog‘lom rivojlantirish uchun zarur bilim va ko‘nikmalarni egallash va qo‘llash qobiliyati sifatida ifodalanadi. Ijtimoiy kompetensiya - bu shaxsning ijtimoiy hayotda faol ishtirok etish va kundalik hayotda duch keladigan muammolarni bartaraf etish uchun foydalanadigan ko‘nikmalaridir. Ijtimoiy kompetensiya - shaxsning ijtimoiy muhitda namoyon bo‘ladigan ko‘nikmalarida uning ichki xususiyatlari va shaxsiyatini aks ettirishni anglatadi. Ijtimoiy kompetensiya bolada empatiya, mas’uliyat, tashabbuskorlik, ishonchni uyg‘otadi.

Ijtimoiy kompetensiya - insonning tabiat bilan o‘zaro munosabatlarini o‘rganadigan ijtimoiy ko‘nikmalar bolalarning o‘zlari yashayotgan jamiyatga samarali moslashishi va ishtirok etishiga yordam beradigan ko‘nikmalardir. Maktabgacha yoshdagi bolalar tomonidan egallanadigan ijtimoiy kompetensiya bilan bola o‘zini, oilasini va yaqin atrofini bilish uchun o‘zi yashaydigan yaqin atrof-muhit haqida savollar berish imkoniyatiga ega bo‘ladi, o‘zi yashayotgan jamiyatning tabiiy va tabiiy tarixini o‘rganadi. O‘zining ichki va madaniy boyligini anglash, demokratik muhitda faol fuqaro sifatida o‘z huquq va majburiyatlariga ega bo‘ladi. Ijtimoiy kompetensiya - bolalarning o‘z-o‘zini anglashi, o‘zining, oilasi va yaqin

atrofining o‘tmishi va buguni o‘rtasida aloqa o‘rnatish, o‘zi istiqomat qilayotgan jamiyatga nisbatan ijobiy his-tuyg‘ularni hurmatni shakllantiradigan shaxs bo‘lishga qaratilgandir. Ijtimoiy munosabatlar va insonning tabiat bilan o‘zaro munosabatlarini o‘rganadigan ijtimoiy kompetensiya bolalarning o‘zlari yashayotgan jamiyatga samarali moslashishi va ishtirok etishiga yordam beradigan kompetensiyadir. Ijtimoiy kompetensiyani egallashni rejalashtirishda bolaning yaqin atrof-muhitidan (oila, ijtimoiy-madaniy muhit, yaqin tarix va boshqalar) foydalanish kerak. Ijtimoiy kompetensiya bolalarga har xil munosabat va ko‘nikmalarni rivojlantirish uchun turli xil imkoniyatlarni taqdim etadi, bu ularning yoshiga mos keladigan, o‘yinga asoslangan o‘quv faoliyati orqali ularning kundalik hayotida shaxsiy tajribalari orqali kashf qilish va tajriba qilish orqali faol, bilimli va mas’uliyatli fuqaro bo‘lishga imkon beradi. Ijtimoiy kompetensiya asosiy maqsadi bolalarda o‘ziga ishonch hissini shakllantirish va ularga mas’uliyat ko‘nikmalarini berishdir. Bolalarning yutuqlarga erishishi uchun ular maktab davrida va maktabdan tashqari ilmiy, ijtimoiy, madaniy, san’at va sport sohalarida o‘tkaziladigan tadbirlarda ishtirok etishlari shart. Guruhga qo‘shilish, mas’uliyatni o‘z zimmasiga olish, hamkorlik qilish, turli fikrlarni hurmat qilish, fikr bildirish kabi xatti-harakatlar va xatti-harakatlar ushbu mahorat doirasiga kiradi. Ijtimoiy kompetensiya bolaning yaqin atrofdagi voqealarga nisbatan hamkorlik va hamjihatlikka qaratilgan jamoat xizmati faoliyatida ishtirok etish imkoniyatlarini olish uchun amalga oshirilishi mumkin bo‘lgan guruh faoliyati bolaning ishtirokida birinchi qadamlarni qo‘yishga imkon beradi.

Ijtimoiylashuv mohiyatan o‘quv jarayoni bo‘lganligi sababli, bolalar atrofdagi kattalarning xatti-harakatlariga taqlid qiladilar va o‘zlarini ulardan namuna olishni boshlaydilar. Bolalar birinchi navbatda ota-onalarini kuzatadilar va ularning xatti-harakatlariga taqlid qiladilar.

Bolalarning ijtimoiylashuviga qanday omillar to‘sqinlik qiladi? - Ijtimoiylashuvga ta’sir etuvchi omillarni ko‘rib chiqsak, ijtimoiylashuv jarayoniga bir qator omillar to‘sqinlik qilishi mumkinligini ko‘ramiz, ular orasida ota-onalarning haddan tashqari himoyalanganligi va bolalarning boshqalar bilan o‘zaro

munosabatlariga aralashishlari, bolalarning zamonaviy sharoitda texnologik qurilmalardan nazoratsiz va cheksiz foydalanishlari, bolalarning boshqa bolalar bilan yashash sharoitlarining o‘zgarishi tufayli tabiiy muhitning yetarli emasligi va boshqalar.

Bolalarni ijtimoiylashtirish uchun nima qilish kerak? - Ota-onalarning bolalar bilan muloqot qilishda foydalanadigan usullari ularning ijtimoiylashuv ko‘nikmalarini shakllantirishini hisobga olsak, ota-onalar va bolalar o‘rtasidagi sog‘lom, ijobiy va xavfsiz muloqot bolalarning o‘ziga bo‘lgan ishonchiga ijobiy ta’sir qiladi. Ota-onalar o‘z farzandlariga nisbatan haddan tashqari himoyalangan yoki tajovuzkor munosabatda bo‘lmasliklari kerak. Farzandlarining o‘sishiga yo‘l qo‘ymaydigan ota-onalar o‘z farzandlari bilan tobora ko‘proq aralashib, ularni haddan tashqari himoyalangan muhitda tarbiyalashmoqda va ularning ijtimoiylashuv jarayoniga to‘sqinlik qilmoqdalar. Bu bolaning tengdoshlari bilan munosabatlariga salbiy ta’sir qiladi. Bolalarning o‘z do‘stlari yoki ijtimoiy doiralaridan tashqaridagi odamlar bilan, ayniqsa tengdoshlari bilan muloqot qilishlari ham ularning ijtimoiylashuviga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Ota-onaning aralashuvisiz turli muhitlarda yangi odamlar bilan tanishish ularning ijtimoiy munosabatlarini mustahkamlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-dekabrdagi 802-sonli “Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori.
2. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi Muvofiqlashtiruvchi kengashining 2022-yil 4-fevraldagi 1-sonli bayonnomasi bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tashkilotlari uchun “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturining takomillashtirilgan ikkinchi nashri.
3. **Babayeva D. R.** Nutq o‘stirish nazariyasi va metodikasi. – Toshkent, 2018.

4. **Imomov M., Raxmatova M., Abdullayeva Yu.** Bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash metodikasi: o'quv qo'llanma. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2023.
5. **Qodirova F. P., Toshpo'latova Sh. Q., Qayumova N. M., Agzamova M. N.** Maktabgacha pedagogika: darslik. – Toshkent: Tafakkur, 2019.

FARG'ONA SHAHAR AVTOMOBILLAR TO'XTASH JOYLARINING ARXITEKTURA YO'NALISHIDA O'QITILISHI

Raxmonov Behzodbek Dilshodjon o`g`li
Farg`ona davlat texnika universiteti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Farg'ona shahrida avtomobillar sonining ortishi sababli avtoturargohlar infratuzilmasini takomillashtirish zarurati tahlil qilinadi. Shahar markazida ko'p qavatli, chekka hududlarda ekologik avtoturargohlar qurish, chiziqli parkinglarni optimallashtirish, raqamli boshqaruv tizimlarini joriy etish hamda milliy arxitektura elementlarini qo'llash bo'yicha takliflar beriladi. Yechimlar shahar transport tizimini yengillashtirish va ekologik muhitni yaxshilashga qaratilgan. Tadqiqotda urbanistik rivojlanish talablari chuqur o'rganilib, zamonaviy shahar infratuzilmasini yaratish tamoyillari asoslab beriladi. Maqola amaliy ahamiyatga ega bo'lib, shaharsozlik jarayonlari uchun uslubiy tavsiyalarni taqdim etadi.*

Kalit so'zlar: *Farg'ona, avtoturargoh arxitekturasi, shahar rejalashtirish, ko'p qavatli parking, ekologik avtoturargoh, raqamli boshqaruv, urbanistika*

Farg'ona shahrida avtomobillar sonining yildan yilga ortib borishi transport tizimini takomillashtirishni zamon talabi sifatida ilgari surmoqda. Aholi zich

joylashgan markaziy hududlar, savdo markazlari, bozorlar, ta’lim va tibbiyot muassasalari, shuningdek, turistik maskanlarda avtomobillarni tartibli to‘xtatish uchun mo‘ljallangan infratuzilmaning yetishmasligi shahar hayotining murakkablashuviga sabab bo‘lmoqda. Avtoturargohlarning zamonaviy talablarga mos tashkil etilishi nafaqat harakat xavfsizligini, balki shahar estetik qiyofasini, ekologik barqarorlikni va fuqarolar uchun qulaylikni ta’minlovchi muhim omildir. Shu sababli Farg‘ona shahrida avtomobillar to‘xtash joylarining arxitekturaviy yechimlarini ishlab chiqish dolzarb ilmiy-amaliy vazifa hisoblanadi.

Avtomobillar to‘xtash joylarini tashkil etishda shahar rejalashtirish tamoyillariga tayanish zarur. Farg‘ona shahri geografik jihatdan vodiyning markazida joylashgan bo‘lib, aholi zichligi yuqori bo‘lgan zonalardan biri sanaladi. Markaziy ko‘chalardagi transport oqimi kunduzgi paytda keskin kuchayadi, natijada avtomobillarni tartibsiz to‘xtatish holatlari ko‘payadi. Ayniqsa, Farg‘ona markaziy bozori, "Istiklol" maydoni, Aeroport yo‘li, yirik savdo majmualari atrofida tartibsiz to‘xtashlar kuzatiladi. Ushbu vaziyat piyodalar harakatiga xalaqit beradi, jamoat transporti qatnovini qiyinlashtiradi hamda shahar ko‘rinishining estetik yaxlitligini buzadi. Shuningdek, noto‘g‘ri joylashtirilgan avtoturargohlar tirbandliklarni kuchaytirib, ekologik muhitning yomonlashuviga olib keladi.

Shahar miqyosidagi avtoturargohlarni loyihalashda bir nechta arxitektura tamoyillariga amal qilish muhim: funksionallik, xavfsizlik, makondan oqilona foydalanish, ekologik jihatlar va estetik uyg‘unlik. Avtoturargohlar shunchaki avtomobillarni vaqtincha qo‘yib ketish maydoni emas, balki shahar infratuzilmasining muhim elementidir. Shuning uchun har bir loyiha rejalashtirilayotgan hududning transport oqimi, piyodalar yo‘laklari, yo‘l qismi kengligi, yaqin atrofdagi binolar funksiyasi, mavjud yashil maydonlar va ekologik indikatorlar hisobga olingan holda ishlab chiqilishi lozim. Farg‘ona shahri uchun hudud resurslarining cheklanganligi sababli yer osti va ko‘p qavatli avtoturargohlar eng maqbul yechimlardan biri bo‘lib qoladi.

Ko‘p qavatli avtoturargohlar ayniqsa shahar markazida juda zarur, chunki mavjud bo‘sh maydonlar kam. Bu turdagi inshootlar qisqa hududda ko‘p sonli

avtomobillarni sig‘dira olishi, avtomobillar harakati uchun alohida yo‘lak va rampalarga ega bo‘lishi, xavfsizlik tizimlari bilan ta’minlanishi bilan ajralib turadi. Ko‘p qavatli avtoturargohlarning tashqi ko‘rinishi zamonaviy arxitektura talablari asosida shakllantirilishi kerak: metall panjaralar, dekorativ fasadlar, yorug‘lik dizayni, shisha konstruksiyalar va hatto milliy naqsh elementlari bilan boyitilgan yechimlar shahar qiyofasini yanada jozibador qiladi. Tom qismlariga quyosh panellari o‘rnatish esa energiya samaradorligini oshiradi.

Shahar chet hududlarida esa ekologik avtoturargohlar — ya’ni “yashil avtoturargoh” konsepsiyasi qo‘llanilishi maqsadga muvofiq. Bunday avtoturargohlarda tuproq ostiga singuvchi qoplamalar, biologik materiallar bilan mustahkamlangan panjarali maydonlar va ko‘p yillik daraxtlar ekilgan soyali hududlar yaratiladi. Bu nafaqat ekologik foydali, balki haydovchilar uchun qulay ham — mashinalarning jazirama issiqda qizib ketishi kamayadi. Farg‘ona iqlimi uchun bunday yechimlar juda mos, chunki yozgi mavsumda havo harorati yuqori bo‘ladi.

Avtoturargohlarni joylashtirish jarayonida yo‘l bo‘yidagi chiziqli parkinglarni optimallashtirish ham muhim. Farg‘onadagi Mashrab, Muqimiy, Uchqo‘rg‘on, Marg‘ilon yo‘li kabi markaziy ko‘chalarda chiziqli avtoturargohlar qayta belgilanishi, yo‘l belgilarining takomillashtirilishi, piyodalar zonasi bilan chegaralarning aniq ajratilishi zarur. Chiziqli avtoturargohlar tartibga solinishi tirbandliklarni kamaytiradi, avtomobillar o‘rtasidagi masofani saqlash va yo‘l harakati xavfsizligini oshirishga yordam beradi.

Raqamli boshqaruv tizimlari ham zamonaviy avtoturargohlarning ajralmas qismiga aylanmoqda. "Aqlli shahar" konsepsiyasiga mos tarzda Farg‘onada ham avtoturargohlar bo‘sh o‘rinlarini real vaqt rejimida ko‘rsatib beruvchi axborot tizimlari, to‘lovni elektron tarzda amalga oshirish imkoniyatlari, kameralar orqali kuzatiladigan xavfsizlik tizimlari joriy etilishi mumkin. Bu yondashuv inson omilining ta’sirini kamaytiradi, avtoturargohlarni boshqarishni osonlashtiradi hamda shahar infratuzilmasining zamonaviylashuviga xizmat qiladi.

Avtoturargoh arxitekturasida estetik yechimlar muhim o‘rin tutadi. Farg‘ona shahri o‘zining an’anaviy madaniyati, amaliy san’ati va hunarmandchiligi bilan mashhur bo‘lganligi uchun avtoturargoh fasadlarida milliy naqshlar, vodiyning o‘ziga xos geometrik elementlari, rang uyg‘unliklari qo‘llanishi shahar qiyofasiga uyg‘unlik kiritadi. Yorug‘lik dizayni, tunda estetik yoritish, fasadni shisha, kompozit yoki metall panellar bilan bezash orqali avtoturargohlarni an’anaviy ko‘rinishdan uzoqlashtirib, zamonaviy shahar me’morchiligi elementiga aylantirish mumkin.

Transport oqimini tartibga solishda avtoturargohlardan oqilona foydalanish ham muhim rol o‘ynaydi. Masalan, “Park&Ride” tizimi joriy qilinsa, markazga boruvchi haydovchilar mashinasini shahar chetidagi yirik avtoturargohlarda qoldirib, markazga jamoat transporti orqali kirishi mumkin. Bu tizim dunyo shaharlarida sinovdan o‘tgan va muvaffaqiyatli natija bergan. Farg‘onada ham bunday tizim shahar markazidagi tirbandlikni ancha kamaytiradi.

Yirik savdo markazlari va bozorlar atrofida alohida avtoturargoh klasterlarini tashkil etish ham samarali yechimdir. Ular kirish-chiqish yo‘llari qulay joylashgan bo‘lishi, piyodalar yo‘laklari bilan bog‘langan bo‘lishi kerak. Savdo hududlarida ikki qavatli yoki yarim yer osti avtoturargohlar qurilishi ko‘plab muammolarni bartaraf etadi. Bunday avtoturargohlar tashqi ko‘rinishdan oddiygina ko‘p funksiyali bino sifatida ko‘rinishi va savdo markazlari bilan uyg‘unlashgan holda loyihalanishi mumkin.

Farg‘ona shahri uchun yana bir muhim yo‘nalish — mototransport va velotransport uchun maxsus to‘xtash joylarini tashkil etishdir. Bu kelajakda avtomobil yuklamasini kamaytiradi, ekologik muhit yaxshilanadi va alternativ transport turlariga bo‘lgan qiziqishni oshiradi. Veloparkinglar yopiq konstruksiya ko‘rinishida, himoya panjaralari va yoritgichlar bilan ta’minlangan bo‘lishi kerak.

Shuningdek, avtoturargohlarning drenaj tizimi, suv yig‘ish kanallari, yomg‘ir suvini filtrlash inshootlari ekologik talablarga mos bo‘lishi shart. Aks holda suv to‘planishi asfaltni yemirishi, piyodalar uchun noqulaylik tug‘dirishi va shahar ko‘rinishini buzishi mumkin. Shuning uchun har bir loyiha hududning tabiiy

relyefini, suv oqimini va shamollatish jihatlarini hisobga olgan holda amalga oshirilishi lozim.

Umuman olganda, Farg‘ona shahrida avtomobillar to‘xtash joylarining arxitekturaviy yechimini ishlab chiqish keng qamrovli yondashuvni talab qiladi. Shahar markazida — ko‘p qavatli avtoturargohlar, chekka hududlarda — ekologik avtoturargohlar, yirik savdo maskanlarida — kompleksli avtoturargoh klasterlari, asosiy yo‘llarda — chiziqli avtoturargohlar, raqamli tizimlar bilan integratsiya qilingan boshqaruv modeli bo‘lishi shart. Zamonaviy arxitektura, ekologik talablarga mos dizayn va milliy estetika uyg‘unligi asosida barpo etilgan avtoturargohlar Farg‘ona shahrining urbanistik rivojlanishida muhim o‘rin egallaydi. Bu nafaqat shahar transport tizimini yengillashtiradi, balki uning jozibasini oshiradi, ekologik holatini yaxshilaydi va aholiga yanada qulay shahar muhitini yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. **Алиев А.** Шаҳарсозлик асослари. — Тошкент: O‘zbekiston Milliy universiteti nashriyoti, 2019.
2. **Мирзаев Ш.** Shahar transporti va yo‘l infratuzilmasini rejalashtirish. — Toshkent: Ilm Ziyo, 2020.
3. **Levinson D., Krizek K.** Planning for Place and Plexus: Metropolitan Land Use and Transport Planning. — London: Routledge, 2018.
4. **Institute of Transportation Engineers (ITE).** Parking Standards and Guidelines. — Washington, 2020.
5. **Shoup D.** The High Cost of Free Parking. — Chicago: Planners Press, 2011.
6. **Carmona M.** Public Places Urban Spaces: The Dimensions of Urban Design. — London: Routledge, 2020.
7. **National Association of City Transportation Officials (NACTO).** Urban Street Design Guide. — New York, 2019.
8. **Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси.** Shaharsozlik normalari va qoidalari (QMQ 2.07.01-20). — Toshkent, 2020.

9. **Gehl J.** Cities for People. — Washington: Island Press, 2013.
10. **Litman T.** Parking Management Best Practices. — Victoria: Victoria Transport Policy Institute, 2016.
11. **Farg‘ona viloyati hokimligi.** Shahar transport infratuzilmasi haqida statistik ma’lumotlar. — Farg‘ona, 2022–2024.
12. **Trancik R.** Finding Lost Space: Theories of Urban Design. — New York: Wiley, 1986.
13. **UN-Habitat.** Sustainable Urban Mobility Report. — New York: United Nations, 2021.
14. **OECD.** Urban Mobility and Parking Policies in Modern Cities. — Paris: OECD Publishing, 2020.
15. **Jacobs J.** The Death and Life of Great American Cities. — New York: Vintage Books, 1992.

KASBIY TAYYORGARLIK TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHDA SUN’IY INTELLEKT ASOSIDAGI PEDAGOGIK PLATFORMALARNING O‘RNI

Raxmonov Omadjon Mamasidiq o‘g‘li
Andijon davlat pedagogika instituti

Annotatsiya: *azkur maqolada kasbiy tayyorgarlik tizimini takomillashtirish jarayonida sun’iy intellekt asosidagi pedagogik platformalarning o‘rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Tadqiqotda raqamli ta’lim sharoitida shaxsiylashtirilgan o‘qitish, moslashuvchan ta’lim trayektoriyalari hamda kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishda sun’iy intellekt texnologiyalarining didaktik imkoniyatlari yoritilgan. Shuningdek, sun’iy intellekt asosidagi platformalarni joriy etish*

jarayonida yuzaga keladigan muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llari ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: *kasbiy tayyorgarlik, sun’iy intellekt, pedagogik platformalar, raqamli ta’lim, kompetensiyaviy yondashuv.*

Hozirgi globallashuv va raqamli texnologiyalar jadal rivojlanayotgan sharoitda jamiyatning barcha sohalarida, xususan, ta’lim tizimida tub o‘zgarishlar yuz bermoqda. Mehnat bozori talablarining tezkor yangilanib borishi kasbiy tayyorgarlik tizimidan zamonaviy bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarga ega, mustaqil fikrlovchi hamda innovatsion texnologiyalarni o‘z faoliyatida samarali qo‘llay oladigan mutaxassislarni tayyorlashni talab etmoqda. Shu sababli an’anaviy o‘qitish usullarini takomillashtirish va raqamli ta’lim texnologiyalarini joriy etish dolzarb vazifalardan biriga aylandi.

So‘nggi yillarda sun’iy intellekt texnologiyalarining jadal rivojlanishi ta’lim jarayonini tashkil etishda yangi imkoniyatlarni ochib bermoqda. Xususan, sun’iy intellekt asosidagi pedagogik platformalar ta’lim oluvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda shaxsiylashtirilgan va moslashuvchan o‘qitishni amalga oshirish, bilimlarni baholash va monitoring qilish jarayonlarini avtomatlashtirish imkonini yaratmoqda. Bu esa kasbiy tayyorgarlik sifatini oshirish va ta’lim natijadorligini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kasbiy tayyorgarlik tizimida sun’iy intellekt asosidagi pedagogik platformalardan foydalanish nafaqat nazariy bilimlarni egallash, balki amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish, real ishlab chiqarish jarayonlariga yaqinlashtirilgan o‘quv muhitini yaratishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, bunday platformalar o‘qituvchining pedagogik faoliyatini qo‘llab-quvvatlab, ta’lim jarayonini yanada samarali tashkil etish imkonini beradi.

Mazkur maqolada kasbiy tayyorgarlik tizimini takomillashtirishda sun’iy intellekt asosidagi pedagogik platformalarning o‘rni, didaktik imkoniyatlari hamda ularni joriy etishning dolzarb jihatlari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi.

Kasbiy tayyorgarlik tizimini takomillashtirish masalalari pedagogika va ta’lim menejmenti sohasida uzoq yillardan buyon ilmiy tadqiqotlar markazida bo‘lib kelmoqda. Ilmiy manbalarda kasbiy ta’limning kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etilishi, amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirish hamda ta’lim jarayonining mehnat bozori ehtiyojlariga moslashuvi muhim omil sifatida e’tirof etilgan.

Bugungi kunda raqamli texnologiyalar va sun’iy intellektning jadal rivojlanishi jamiyatning barcha sohalariga, xususan, kasbiy ta’lim tizimiga chuqur ta’sir ko‘rsatmoqda. Mehnat bozori talablarining tezkor o‘zgarishi, yangi kasblarning paydo bo‘lishi va mavjud kasblar mazmunining yangilanishi kasbiy tayyorgarlik tizimidan zamonaviy, moslashuvchan va innovatsion yondashuvlarni talab etmoqda. Ushbu sharoitda an’anaviy o‘qitish usullarining imkoniyatlari cheklanib, ta’lim jarayonini raqamlashtirish va intellektual texnologiyalar bilan boyitish dolzarb masalaga aylanmoqda.

Sun’iy intellekt asosidagi pedagogik platformalar kasbiy tayyorgarlik tizimida ta’lim sifatini oshirish, shaxsiylashtirilgan va adaptiv o‘qitishni tashkil etish hamda amaliy kompetensiyalarni shakllantirish imkonini beradi. Bunday platformalar yordamida ta’lim oluvchilarning individual ehtiyojlari, bilim darajasi va o‘zlashtirish sur’atlari tahlil qilinib, o‘quv jarayoni optimallashtiriladi. Bu esa raqobatbardosh, mehnat bozorida talab yuqori bo‘lgan mutaxassislarni tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu bilan birga, kasbiy ta’lim tizimida sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish bilan bog‘liq ilmiy-nazariy va amaliy masalalar yetarli darajada tizimli o‘rganilmagan. Mavjud tadqiqotlarda asosan umumiy raqamli ta’lim masalalariga e’tibor qaratilgan bo‘lib, sun’iy intellekt asosidagi pedagogik platformalarning kasbiy tayyorgarlik jarayoniga ta’siri, ularning didaktik imkoniyatlari va joriy etish mexanizmlari chuqur tahlil etilmagan.

Shu nuqtai nazardan, kasbiy tayyorgarlik tizimini takomillashtirishda sun’iy intellekt asosidagi pedagogik platformalarning o‘rnini ilmiy asosda tadqiq etish, ularning samaradorligini aniqlash va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish dolzarb ilmiy muammo hisoblanadi.

So‘nggi yillarda raqamli ta’lim va sun’iy intellekt texnologiyalarining rivojlanishi bilan bog‘liq tadqiqotlar soni sezilarli darajada ortdi. Tadqiqotchilar sun’iy intellektni ta’lim jarayoniga joriy etish orqali o‘quvchilarning bilim darajasini tahlil qilish, individual o‘qitish strategiyalarini ishlab chiqish va o‘qitish samaradorligini oshirish mumkinligini ta’kidlaydilar. Ayrim ilmiy ishlarda sun’iy intellekt asosidagi o‘qitish tizimlari adaptiv ta’lim muhitini yaratishda samarali vosita ekanligi asoslab berilgan.

Kasbiy ta’limga oid tadqiqotlarda sun’iy intellekt asosidagi pedagogik platformalar, ayniqsa, texnik va kasb-hunar yo‘nalishlarida amaliy kompetensiyalarni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega ekanligi ko‘rsatiladi. Virtual laboratoriyalar, intellektual simulyatorlar va avtomatlashtirilgan baholash tizimlari ta’lim oluvchilarning real ishlab chiqarish jarayonlariga tayyorgarligini oshirishga xizmat qilishi ilmiy jihatdan asoslangan.

Shuningdek, xorijiy tadqiqotlarda sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish o‘qituvchi va ta’lim oluvchi o‘rtasidagi o‘zaro aloqani yangi bosqichga olib chiqishi, pedagogning rolini nazoratchidan maslahatchi va yo‘naltiruvchiga aylantirishi qayd etilgan. Bu esa kasbiy ta’lim tizimida ta’lim sifati va natijadorligini oshirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Mahalliy ilmiy adabiyotlarda ham raqamli ta’lim va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini kasbiy tayyorgarlik jarayoniga joriy etish masalalari keng yoritilgan. Biroq mavjud tadqiqotlarning aksariyatida sun’iy intellekt asosidagi pedagogik platformalarning didaktik imkoniyatlari va ularni tizimli ravishda qo‘llash mexanizmlari yetarli darajada chuqur tahlil qilinmagan. Bu holat mazkur yo‘nalishda kompleks ilmiy tadqiqotlar olib borish zarurligini ko‘rsatadi.

O‘tkazilgan tadqiqot natijalari kasbiy tayyorgarlik tizimida sun’iy intellekt asosidagi pedagogik platformalardan foydalanish ta’lim jarayonining sifat va samaradorligini oshirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatishini aniqladi. Tadqiqot jarayonida nazariy tahlil, pedagogik kuzatuv hamda so‘rovnoma metodlari asosida to‘plangan ma’lumotlar tahlil qilindi.

Natijalarga ko‘ra, sun’iy intellekt asosidagi pedagogik platformalar joriy etilgan ta’lim guruhlarida ta’lim oluvchilarning bilimlarni o‘zlashtirish darajasi an’anaviy o‘qitish usullariga nisbatan yuqoriroq bo‘lgani kuzatildi. Ayniqsa, kasbiy fanlar bo‘yicha nazariy bilimlar bilan bir qatorda amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish jarayoni tezlashgani va mustahkamroq bo‘lgani aniqlandi.

Tadqiqot davomida shaxsiylashtirilgan ta’lim trayektoriyalaridan foydalanish ta’lim oluvchilarning o‘quv motivatsiyasini oshirishga sezilarli ta’sir ko‘rsatgani qayd etildi. Sun’iy intellekt algoritmlari yordamida ta’lim oluvchilarning individual ehtiyojlari va bilim darajasiga mos o‘quv materiallari taqdim etilishi ularning mustaqil ta’lim faoliyatini faollashtirdi.

So‘rovnoma natijalari o‘qituvchilarning aksariyati sun’iy intellekt asosidagi pedagogik platformalar baholash va monitoring jarayonlarini yengillashtirayotganini, o‘quv jarayonini tahlil qilish imkoniyatlarini kengaytirayotganini e’tirof etganliklarini ko‘rsatdi. Shu bilan birga, o‘qituvchilar pedagogik platformalardan foydalanish metodikasini chuqur o‘zlashtirish zarurligini ta’kidladilar.

Pedagogik kuzatuvlar asosida olingan natijalar sun’iy intellekt asosidagi simulyatorlar va interaktiv mashg‘ulotlar ta’lim oluvchilarning kasbiy muammolarni hal etish ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qilayotganini ko‘rsatdi. Bu holat ta’lim jarayonining amaliy yo‘naltirilganligini kuchaytirgan.

Shuningdek, tadqiqot natijalarida ayrim cheklovlar ham aniqlandi. Xususan, texnik vositalarning yetarli emasligi va raqamli savodxonlik darajasidagi farqlar ayrim hollarda sun’iy intellekt asosidagi platformalardan foydalanish samaradorligini pasaytirgani kuzatildi. Mazkur holatlar kelgusida ushbu texnologiyalarni joriy etishda tizimli va bosqichma-bosqich yondashuv zarurligini ko‘rsatadi.

O‘tkazilgan tadqiqot natijalari kasbiy tayyorgarlik tizimini takomillashtirishda sun’iy intellekt asosidagi pedagogik platformalardan foydalanish muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatdi. Tadqiqot jarayonida sun’iy intellekt

texnologiyalarining ta’lim jarayoniga integratsiyalashuvi shaxsiylashtirilgan va moslashuvchan o‘qitish muhitini yaratishga xizmat qilishi ilmiy jihatdan asoslandi.

Sun’iy intellekt asosidagi pedagogik platformalar ta’lim oluvchilarning bilim va ko‘nikmalarini chuqur tahlil qilish, individual ta’lim trayektoriyalarini shakllantirish hamda kasbiy kompetensiyalarni samarali rivojlantirish imkonini beradi. Tadqiqot natijalari ushbu platformalar yordamida nazariy bilimlar bilan bir qatorda amaliy ko‘nikmalarni egallash darajasi oshishini tasdiqladi.

Shuningdek, tadqiqot davomida sun’iy intellekt asosidagi pedagogik platformalardan foydalanish o‘qituvchilar faoliyatini optimallashtirishi, baholash va monitoring jarayonlarini avtomatlashtirish orqali ta’lim jarayonining sifatini oshirishi aniqlandi. Bu esa pedagogning metodik va maslahat beruvchi rolini kuchaytirib, ta’lim jarayonining samaradorligini ta’minlaydi.

Biroq, tadqiqot natijalari sun’iy intellekt texnologiyalarini kasbiy ta’lim tizimiga joriy etishda texnik infratuzilma, pedagog kadrlarning raqamli kompetensiyalari va ta’lim kontentini milliy standartlarga moslashtirish bilan bog‘liq muammolarni ham ko‘rsatdi. Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun sun’iy intellekt asosidagi pedagogik platformalarni joriy etish jarayonini bosqichma-bosqich va tizimli tashkil etish zarurligi asoslandi.

Xulosa qilib aytganda, sun’iy intellekt asosidagi pedagogik platformalar kasbiy tayyorgarlik tizimini modernizatsiya qilish, ta’lim sifatini oshirish va raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlashda samarali innovatsion vosita hisoblanadi. Mazkur tadqiqot natijalari kelgusida ushbu yo‘nalishda olib boriladigan ilmiy izlanishlar va amaliy loyihalar uchun metodik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. **Abdullayev A. X.** Kasbiy ta’lim nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020. – 220 b.
2. **Azizxodjayeva N. N.** Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: TDPU, 2019. – 180 b.

3. **Alimuhamedov R. M.** Raqamli ta’lim muhitida kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish // **Pedagogika**. – 2021. – № 4. – B. 45–49.
4. **UNESCO.** Artificial Intelligence in Education: Challenges and Opportunities. – Paris: UNESCO Publishing, 2019.
5. **Holmes W., Bialik M., Fadel C.** Artificial Intelligence in Education: Promises and Implications for Teaching and Learning. – Boston: Center for Curriculum Redesign, 2019.
6. **Luckin R., Holmes W. va boshq.** Intelligence Unleashed: An Argument for AI in Education. – London: Pearson, 2016.
7. **Salimov O. O.** Kasbiy ta’lim tizimida innovatsion yondashuvlar // **Ta’lim va tarbiya**. – 2020. – № 2. – B. 30–34.
8. **Zaynutdinov S. N.** Raqamli pedagogika asoslari. – Toshkent: Innovatsiya, 2021. – 200 b.

KASBIY KOMPETENTLIK: MOHIYATI, TARKIBIY ELEMENTLARI VA RIVOJLANISH MEXANIZMLARI

Safarova Nigora Nasilloyevna
IIV Buxoro akademik litseyi

Annotatsiya. *Maqolada kasbiy kompetentlikning mohiyati, tarkibiy elementlari va rivojlanish mexanizmlari ilmiy tahlil qilinadi. kompetentlikning asosiy komponentlari – bilim, ko‘nikma, tajriba va shaxsiy sifatlar – o‘rganilib, ularning ta’lim, kasbiy faoliyat va ijtimoiy muhitda qanday qo‘llanilishi va rivojlanish mexanizmlari batafsil yoritilgan. Shuningdek, maqolada kompetentlikning vaqt o‘tishi bilan shakllanishi, rivojlanishi va uni amaliy faoliyatda samarali qo‘llash strategiyalari ham ko‘rib chiqiladi. Ushbu maqola kompetentlik tushunchasini*

nafaqat nazariy nuqtai nazardan o‘rganish, balki uning amaliy jihatlarini ham tizimli tarzda tahlil qilishga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: *kompetentlik, bilim, ko‘nikmalar, tajriba, shaxsiy sifatlar, kasbiy faoliyat, ta’lim, rivojlanish, ijtimoiy soha, kompetentlikning tarkibi, shaxsiy va kasbiy sifatlar.*

“Kompetensiya” va **“kompetensiyaga asoslangan yondashuv”**pedagogika, psixologiya, menejment va ijtimoiy fanlarda alohida ahamiyatga ega. Kompetensiya nafaqat nazariy bilimlarni, balki amaliy ko‘nikmalar, tajriba va shaxsning kasbiy faoliyatini samarali amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan shaxsiy fazilatlarni ham qamrab oladi. Kompetensiyaga asoslangan yondashuv ta’lim va kasbiy dasturlarni shunday shakllantiradiki, ular talabalarda nafaqat nazariy bilimlarni, balki real hayotdagi vazifalarni bajarish uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalarni rivojlantiradi.

Kompetensiya shaxsning muayyan faoliyat sohasida samarali harakat qilishini ta’minlovchi integrativ sifat bo‘lib, u bilim, ko‘nikma, malaka, tajriba hamda shaxsiy-psixologik xususiyatlarning uyg‘unlashuvini ifodalaydi. Ilmiy adabiyotlarda kompetensiyaning bir nechta tarkibiy jihatlari ajratib ko‘rsatiladi:

- **nazariy jihat** – fan yoki kasbiy soha doirasidagi bilimlar tizimini egallash va ularni anglash darajasi;
- **amaliy jihat** – mazkur bilimlarni real hayotiy va kasbiy vaziyatlarda samarali qo‘llash qobiliyati;
- **shaxsiy jihat** – muloqot madaniyati, ijtimoiy faollik, jamoada ishlash ko‘nikmalari hamda hissiy intellektning rivojlanganligi bilan tavsiflanadi.

Kompetensiyaga asoslangan yondashuv ta’lim jarayonini tashkil etishda natijaga yo‘naltirilganlik tamoyiliga asoslanib, o‘quvchilarda faqat nazariy bilimlarni emas, balki kasbiy va ijtimoiy faoliyatda muhim bo‘lgan amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishni ko‘zda tutadi. Ushbu yondashuv bilim, ko‘nikma, malaka va qadriyatlarning uzviy integratsiyasini ta’minlash orqali shaxsning mustaqil fikrlashi, muammoli vaziyatlarga moslashuvi va tez o‘zgarib borayotgan

zamonaviy jamiyat sharoitida samarali faoliyat yuritish qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

So‘nggi yillarda kompetensiya tushunchasini professional etika, shaxsiy mas’uliyat hamda yetakchilik fazilatlari bilan uzviy bog‘liqlikda tadqiq etishga bo‘lgan ilmiy qiziqish sezilarli darajada ortib bormoqda. Mazkur yo‘nalishdagi tadqiqotlar kompetensiyani faqat bilim va ko‘nikmalar majmui sifatida emas, balki shaxsning kasbiy faoliyatga bo‘lgan munosabati, ichki motivatsiyasi, ijtimoiy mas’uliyati va jamoada samarali hamkorlik qilishga tayyorligi bilan uyg‘unlashgan kompleks sifat sifatida talqin etishga asos bo‘lmoqda. Natijada ta’lim jarayonida kompetensiyalarni shakllantirish va baholashning yangi yondashuvlari ishlab chiqilib, ularda shaxsiy fazilatlar, qadriyatlar va ijtimoiy xulq-atvor omillarini hisobga olishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Shu nuqtai nazardan, **“kompetensiya”** va **“kompetensiyaga asoslangan yondashuv”** tushunchalari ta’lim va kasbiy tayyorgarlik jarayoniga nisbatan zamonaviy konseptual qarashni ifodalaydi. Ushbu yondashuv beqarorlik va global o‘zgarishlar sharoitida muammolarni samarali hal etishga qodir, ko‘p qirrali, moslashuvchan va raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlashga yo‘naltirilganligi bilan tavsiflanadi. Mavjud ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, “kompetensiya” atamasi ko‘p ma’noli bo‘lib, u etimologik jihatdan “kompetentlik” tushunchasi bilan uzviy bog‘liqdir. Shu bilan birga, ilmiy manbalarda mazkur atama bilan bir qatorda “professionallik”, “malaka”, “pedagogik madaniyat”, “pedagogik tayyorgarlik” kabi o‘zaro yaqin va mazmunan tutash tushunchalardan ham keng foydalaniladi.

Kompetensiya tushunchasining mohiyati. Kompetensiya (lotincha *competens* – munosib, layoqatli; *competere* – mos kelmoq, qodir bo‘lmoq) shaxsning muayyan faoliyat sohasida egallagan bilimlari, ko‘nikmalari va tajribasiga tayanib, belgilangan vazifalar hamda funksiyalarni samarali bajarish qobiliyati va tayyorligini ifodalovchi integrativ sifatdir. Mazkur tushuncha ma’lum bir kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan professional va shaxsiy fazilatlarning yetarli darajada shakllanganligini anglatadi. Kompetensiya faqat

nazariy bilimlar bilan cheklanmay, balki amaliy ko‘nikmalar, muammoli vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilish, mustaqil faoliyat yuritish va natijaga yo‘naltirilganlik kabi jihatlarni ham qamrab oladi.

Ilmiy manbalarda kompetensiya mutaxassisning turli kasbiy sohalardagi tayyorgarlik darajasini tavsiflovchi muhim mezon sifatida e’tirof etiladi. Shu bilan birga, kompetensiya shaxsning o‘zgaruvchan ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarga moslashuvi, yangi texnologiyalar va zamonaviy ish usullarini tezkor o‘zlashtirish qobiliyati bilan ham uzviy bog‘liqdir. Kompetensiya ta’lim, kasbiy tayyorgarlik va amaliy tajriba jarayonida bosqichma-bosqich rivojlanib boradi hamda shaxsiy mas’uliyat bilan chambarchas aloqada bo‘ladi, chunki kompetensiyali mutaxassis qabul qilinayotgan qarorlarning oqibatlarini anglab, ular uchun javobgarlikni o‘z zimmasiga olishga qodir bo‘ladi.

Shu jihatdan, kompetensiya shaxsning kasbiy faoliyatda muvaffaqiyatga erishishini ta’minlovchi keng ko‘lamli bilimlar, ko‘nikmalar, malakalar va shaxsiy xususiyatlar majmuini o‘zida mujassam etgan dinamik hodisa sifatida qaraladi. U vaqt o‘tishi bilan yangi bilimlar, tajriba va axborotlar asosida takomillashib boradi hamda statik emas, balki doimiy rivojlanishga moyil bo‘lgan jarayon sifatida namoyon bo‘ladi.

“Kompetensiya” atamasi inson faoliyatining turli sohalarida keng qo‘llanilib, tadqiqot predmeti, kontekst va amaliy yo‘nalishiga qarab turlicha talqin qilinadi. Ilmiy adabiyotlarda ushbu tushuncha ko‘p ma’noli kategoriya sifatida qaralib, uning mazmuni faoliyat turi va qo‘llanilish sohasiga muvofiq holda aniqlashtiriladi. Ayrim manbalarda kompetensiya shaxsning mosligi, layoqatliligi, bilimdonligi va muayyan sohada yetarli bilim hamda tajribaga ega ekanligini ifodalovchi sifat sifatida talqin qilinadi. Bunday yondashuvga ko‘ra, kompetensiya har qanday faoliyat sohasida keng qamrovli bilimga ega bo‘lish hamda asosli va ishonchli fikr bildirish imkoniyatini ta’minlaydi.

Boshqa tadqiqotlarda **kompetensiya** shaxsning real hayotiy vaziyatlarda faoliyatga kirishish, amaliy harakatlarni amalga oshirish qobiliyati va malakaviy xususiyatlari bilan bog‘liq holda izohlanadi. Mazkur yondashuvda har qanday

faoliyat resurs va natija jihatlaridan iborat bo‘lib, mavjud resurslarni samarali mahsulotga aylantirish kompetensiyaning rivojlanganlik darajasi bilan belgilanadi. Shu bilan birga, kompetensiya muammolarni malakali hal etishga bo‘lgan potentsial tayyorlik sifatida ham talqin qilinadi. Bunday talqinda u bilim va ko‘nikma komponentlarni o‘z ichiga olib, muammoning mohiyatini anglash va uni samarali hal qilish qobiliyatini nazarda tutadi. Bu esa bilimlarni muntazam yangilab borish, yangi axborotlarni egallash va ularni aniq sharoitlarda muvaffaqiyatli qo‘llashga yo‘naltirilgan operatsion hamda mobil bilimlarga ega bo‘lishni talab etadi.

Kompetensiya turlari:

1.Kommunikativ kompetensiya. Kommunikativ kompetensiya shaxsning shaxslararo muloqot tajribasi, tayyorgarligi va rivojlanish darajasi bilan bog‘liq integrativ qobiliyat sifatida talqin etiladi. Bu turdagi kompetensiya pedagogik jarayonda talabalar bilan samarali muloqot qilish va gumanistik shaxsiyat xususiyatlarini rivojlantirish imkonini beradi.

2.Kognitiv kompetensiya. Kognitiv kompetensiya – shaxsning jamiyat madaniyatidagi tamoyil, qadriyat va bilish usullariga mos keladigan individual kognitiv faoliyat darajasi. Bu kompetensiya talabaning fan asoslarini o‘rganish bilan cheklanmay, uning individual kognitiv resurslarini kengaytirish va murakkab vazifalarni hal qilish qobiliyatini rivojlantiradi.

3.Intellektual kompetensiya. Intellektual kompetensiya samarali qaror qabul qilish va turli vaziyatlarda bilimlarni moslashuvchan qo‘llash imkonini beradi. Shu bilan birga, intellektual-korporativ kompetensiya korporativ tizim muammolarini hal qilishga mos ko‘nikma va qobiliyatlarni o‘z ichiga oladi.

4.Texnologik va psixologik kompetensiya. Texnologik kompetensiya o‘qituvchining pedagogik jarayonni tashkil etish va boshqarishdagi ijodiy-texnologik bilimlari va qobiliyatlarini o‘z ichiga oladi. Psixologik kompetensiya esa shaxsning amaliy va intellektual bloklarini o‘z ichiga olgan holda, professional faoliyatda samarali ishlashga yordam beradi.

5. Professional va ijtimoiy kompetensiya. Professional kompetensiya shaxsning o‘z kasbiy faoliyatini o‘zlashtirish darajasi, motivatsiyasi va o‘zini

rivojlantirish qobiliyatini o‘z ichiga oladi. Ijtimoiy va psixologik kompetensiya esa odamlar bilan samarali ishlash va muloqot qilishga tayyorlikni ta’minlaydi.

Kasbiy kompetentlikning rivojlanish bosqichlari. Kasbiy kompetentlik dinamik hodisa bo‘lib, vaqt o‘tishi bilan bilim, ko‘nikma, tajriba va shaxsiy fazilatlar ta’sirida rivojlanadi. Kompetentsiyani rivojlantirish quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi:

1. Nazariy bilimlarni o‘rganish va tushunish.
2. Amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish.
3. Tajribani yig‘ish va real vaziyatlarda qo‘llash.
4. Shaxsiy va ijtimoiy fazilatlarni rivojlantirish, mas’uliyatni anglash.

Bu jarayon professional va shaxsiy o‘sishni birlashtirib, jamoada samarali ishlash va muammolarni hal qilishga imkon yaratadi.

Xulosa. Kasbiy kompetentlik nafaqat nazariy bilim va amaliy ko‘nikmalarni, balki shaxsiy fazilatlar, tajriba va ijtimoiy kompetensiyalarni ham o‘z ichiga oladi. Kompetensiyaga asoslangan yondashuv talabalarga va mutaxassislarga nafaqat akademik bilimlarni o‘zlashtirish, balki ularni real hayotga tadbiq etish, shaxsiy va kommunikativ ko‘nikmalarni rivojlantirish imkonini beradi. Kompetensiya dinamik tushuncha bo‘lib, uni rivojlantirish doimiy o‘rganish, professional o‘sish va ijtimoiy moslashuvchanlikni talab qiladi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. **Markova A. K.** Professional kompetensiya va uning tarkibi // **Kasbiy ta’lim jurnali**. – 2014. – T. 7, № 1. – B. 12–20.
2. **Muslimov N. A.** Kasb ta’limi o‘qituvchilarini kasbiy shakllantirish. – Toshkent: **Fan**, 2004. – 256 b.
3. **Zeer E. F.** Kompetensiya: nazariyasi va amaliyoti // **Psixologiya va pedagogika**. – 2008. – T. 14, № 1. – B. 19–27.
4. **Safarova N. N., Abdukarimova R. A.** Pedagogik kompetentlik va kreativlik. – Buxoro: **Buxara Hamd Print**, 2022. – 188 b.

5. **Safarova N. N.** Bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishning nazariy-uslubiy asoslari // **Pedagogik mahorat**. – 2023. – № 7. – B. 78–85.
6. **Safarova N. N.** O‘qituvchining kasbiy mahorati va kompetentligi // **Sustainable Development: Problems, Analysis, Prospects**: Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – **Polsha**, 2023. – B. 10–15.
7. **Safarova N. N.** Bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari // **International Conference on Multidisciplinary Science**: xalqaro konferensiya materiallari. – **Hindiston**, 2023. – B. 56–61.

СОЦИАЛЬНО-ЭМОЦИОНАЛЬНОЕ ОБУЧЕНИЕ В РАМКАХ ПАРТНЕРСТВА СЕМЬИ И ШКОЛЫ: МОДЕЛЬ РАЗВИТИЯ ОТНОШЕНИЙ МЕЖДУ РОДИТЕЛЯМИ И ДЕТЬМИ В УЗБЕКИСТАНЕ

Санакулова Нигора

Директор дошкольного образовательного

Учреждения Центра детского развития

Абстракт. *Эффективность инициатив по социально-эмоциональному обучению (СЭО) зависит не только от внедрения в школе, но и от активного участия семей. Международные исследования все чаще подчеркивают роль родителей в эмоциональной социализации, саморегуляции и социальной компетентности детей. Однако в Узбекистане СЭО не рассматривается как единая концепция в рамках партнерства семьи и школы, а вместо этого решается косвенно посредством фрагментированных педагогических и*

психологических подходов. Цель данного исследования — разработать и теоретически обосновать адаптированную к культурным особенностям модель СЭО для развития отношений между родителями и детьми в узбекском образовательном контексте. Опираясь на международную теорию СЭО, исследования эмоционального интеллекта, исследования в области воспитания детей и национальные педагогические исследования, предлагаемая модель интегрирует семейные, школьные и социокультурные аспекты. Исследование подчеркивает важность эмоциональной компетентности родителей, последовательной коммуникации между родителями и детьми и скоординированного сотрудничества семьи и школы. Полученные результаты способствуют развитию исследований СЭО в незападных контекстах и закладывают основу для практических программ обучения родителей и будущих эмпирических исследований в Узбекистане.

Ключевые слова: *социально-эмоциональное обучение, взаимодействие родителей и детей, партнерство семьи и школы, эмоциональный интеллект, Узбекистан*

Современные исследования в области образования все чаще признают, что академические успехи и психологическое благополучие детей формируются не только школьной средой, но и семейной динамикой. Эмоциональная регуляция, эмпатия, коммуникативные навыки и ответственное принятие решений изначально формируются в семье, а затем укрепляются — или подрываются — школьным опытом. В этом контексте социально-эмоциональное обучение (СЭО) стало всеобъемлющей концепцией развития этих компетенций в различных условиях развития. Международные исследования показывают, что результаты социально-эмоционального обучения значительно улучшаются, когда родители активно участвуют в развитии социальных и эмоциональных навыков детей (Durlak et al., 2011; Weissberg et al., 2015)[2]. Партнерство семьи и школы обеспечивает

согласованность ожиданий, эмоциональной лексики и поведенческих норм, что повышает эмоциональную безопасность детей и их адаптивное функционирование. И наоборот, отсутствие согласованности между семейными практиками и школьными усилиями по развитию социально-эмоционального обучения может снизить эффективность образовательных вмешательств. В Узбекистане семья традиционно играет центральную роль в воспитании и нравственном развитии детей. Однако, несмотря на этот сильный культурный акцент на родительской ответственности, родители редко получают поддержку в виде структурированных, научно обоснованных инструментов для развития собственных социальных и эмоциональных компетенций. Образовательные учреждения, как правило, сосредоточены в основном на академическом обучении, в то время как обучение родителей вопросам эмоционального развития остается неформальным и несистематизированным. В результате дети часто испытывают эмоциональную несогласованность между домом и школой, что приводит к тревожности, трудностям в общении и поведенческим проблемам. Эти условия подчеркивают необходимость разработки научно обоснованной модели социально-эмоционального обучения (СЭО), которая явно включает в себя партнерство семьи и школы. Такая модель должна уважать национальные традиции, одновременно интегрируя международно признанные психологические принципы. Данное исследование восполняет этот пробел, предлагая адаптированную к культурным особенностям структуру развития СЭО среди родителей и детей в Узбекистане[1].

Теоретические основы социально-эмоционального обучения в контексте взаимодействия семьи и школы.

Социально-эмоциональное обучение обычно определяется как процесс, посредством которого люди приобретают компетенции, необходимые для понимания и управления эмоциями, построения позитивных отношений и принятия ответственных решений (CASEL, 2020). В то время как ранние исследования социально-эмоционального обучения в основном

фокусировались на школьных вмешательствах, современные подходы подчеркивают роль семей как важнейших факторов эмоционального развития детей[1].

С психологической точки зрения, социально-эмоциональное обучение в семьях тесно связано с эмоциональным интеллектом, эмоциональной социализацией и теорией привязанности. Майер, Саловей и Карузо (2004) описывают эмоциональный интеллект как набор способностей, позволяющих людям воспринимать, понимать и регулировать эмоции у себя и других. Эмоциональный интеллект родителей напрямую влияет на стили воспитания, модели общения и эмоциональную регуляцию детей[7].

Исследования в области воспитания детей и эмоциональной социализации показывают, что дети, чьи родители демонстрируют эмоциональную осведомленность и поддерживающее общение, проявляют более высокий уровень эмпатии, самоконтроля и социальной компетентности (Eisenberg et al., 2010)[3]. Более того, сотрудничество семьи и школы улучшает эти результаты, укрепляя устойчивые эмоциональные нормы в различных средах (Sheridan et al., 2019)[9].

Эмпирические данные подтверждают преимущества участия семьи в социально-эмоциональном обучении. Метааналитические исследования показывают, что программы социально-эмоционального обучения, включающие вовлечение родителей, оказывают более сильное и устойчивое влияние на эмоциональные и поведенческие результаты детей (Durlak et al., 2011). Вайссберг и др. (2015) утверждают, что социально-эмоциональное обучение следует понимать как системный процесс, выходящий за рамки класса и затрагивающий семьи и сообщества[11]. Однако ученые предупреждают, что концепции социально-эмоционального обучения, разработанные в западных странах, требуют культурной адаптации. Хоффман (2009) подчеркивает, что эмоциональное выражение, родительский авторитет и отношения между ребенком и взрослыми являются культурно

обусловленными, что требует использования моделей, учитывающих контекст[5].

Исследования, связанные с социально-эмоциональным обучением в Узбекистане: национальные перспективы

В Узбекистане исследования, связанные с социально-эмоциональным обучением, не развиваются как единая теоретическая основа. Вместо этого их основные компоненты рассматриваются в различных педагогических и психологических терминах, включая эмоциональное воспитание, нравственное и духовное образование, развитие личности и психологическую поддержку в семьях и школах.

Узбекские ученые давно подчеркивают роль семьи в формировании эмоционального и нравственного развития детей. Ганиев (2016) выделяет психологические основы развития личности, отмечая, что эмоциональная стабильность и моральные ценности формируются в первую очередь в семейной среде[4]. Тураев (2018) рассматривает образовательную среду как систему, на которую влияют семейные, школьные и общественные нормы, подчеркивая важность скоординированного воспитания. Исследования в области школьной психологии в Узбекистане еще раз подчеркивают необходимость участия родителей в эмоциональном развитии[10]. Рахимов (2017) утверждает, что эмоциональные и поведенческие трудности детей не могут быть эффективно решены только с помощью школьных вмешательств и требуют активного участия семьи[8]. Каримова (2019) подчеркивает эмоциональную культуру и профессиональную компетентность учителей, косвенно указывая на необходимость согласования родительских и педагогических подходов к эмоциональному развитию[6].

Эти исследования показывают, что, хотя основные элементы социально-эмоционального обучения присутствуют в узбекском академическом дискурсе, они остаются концептуально фрагментированными и недостаточно интегрированными в единую семейно-школьную структуру. Отсутствие систематической модели социально-эмоционального обучения для родителей

и детей ограничивает эффективность как педагогических, так и психологических вмешательств.

Научное моделирование структуры социально-эмоционального обучения для развития отношений между родителями и детьми

Научное моделирование в образовании включает в себя построение концептуальной структуры, которая интегрирует теорию, эмпирические данные и контекстуальные факторы. В данном исследовании научное моделирование применяется для разработки структуры социально-эмоционального обучения, которая объединяет усилия семьи и школы в содействии социально-эмоциональному развитию детей.

Предложенная модель состоит из трех взаимосвязанных уровней: родительский, детский и партнерство семьи и школы. На родительском уровне модель фокусируется на развитии эмоционального интеллекта родителей, эмоциональной осведомленности, навыков управления стрессом и конструктивного общения. Родители рассматриваются не только как лица, осуществляющие уход, но и как основные эмоциональные образцы для подражания.

На уровне развития ребенка модель делает акцент на эмоциональной регуляции, эмпатии, социальных навыках и ответственном поведении, которые формируются благодаря последовательному эмоциональному руководству дома и подкреплению в школе. Взаимодействие родителей и детей служит основным контекстом для отработки этих компетенций. На уровне партнерства семьи и школы интегрируются общение, общие ценности и скоординированные стратегии между родителями и педагогами. Школы предоставляют родителям руководство, обучение и ресурсы, в то время как родители активно поддерживают принципы социально-эмоционального обучения в повседневной семейной жизни. Культурные нормы, семейные традиции и национальные образовательные ценности учитываются для обеспечения актуальности и приемлемости в узбекском контексте.

Ожидаемые результаты и практическое значение

Внедрение ориентированной на семью модели социально-эмоционального обучения, как ожидается, принесет значительные психологические и образовательные преимущества. Для родителей ожидаемые результаты включают улучшение эмоциональной компетентности, более эффективную коммуникацию и повышение уверенности в поддержке развития детей. Для детей преимущества включают снижение тревожности, улучшение эмоциональной регуляции, развитие более сильных социальных навыков и большую вовлеченность в учебный процесс.

На институциональном уровне укрепление партнерских отношений между семьей и школой может привести к улучшению школьного климата, уменьшению конфликтов и повышению согласованности между ожиданиями дома и школы. Практическое значение данного исследования заключается в его потенциальном применении в программах обучения родителей, школьных консультационных службах и национальных образовательных инициативах, направленных на целостное развитие ребенка.

С научной точки зрения, данное исследование вносит вклад в растущий объем исследований в области социально-эмоционального обучения, расширяя его применение на семейные контексты в незападной среде и предоставляя теоретически обоснованную, культурно адаптированную модель для будущих эмпирических исследований.

Данное исследование восполняет критический пробел в образовательной и психологической сфере Узбекистана, предлагая научно обоснованную модель социально-эмоционального обучения (СЭО) для развития отношений между родителями и детьми в рамках партнерства семьи и школы. Хотя международные исследования подчеркивают важность участия семьи в СЭО, его систематическая интеграция в узбекский контекст остается недостаточно развитой. Синтезируя международную теорию и национальные научные работы, предложенная модель предлагает культурно-ориентированный подход к укреплению эмоционального развития как родителей, так и детей. Полученные результаты закладывают основу для

будущих исследований, разработки политики и практической реализации инициатив в области СЭО, поддерживающих устойчивое образовательное и психологическое благополучие в Узбекистане.

Литература

1. **CASEL.** Что такое социально-эмоциональное обучение? Сотрудничество в области академического, социального и эмоционального обучения. – 2020. – Электронный ресурс. – URL: https://casel.org
2. **Дурлак Дж. А., Вайсберг Р. П., Дымницкий А. Б., Тейлор Р. Д., Шеллингер К. Б.** Влияние повышения социально-эмоционального развития учащихся: метаанализ универсальных школьных вмешательств // Развитие ребенка. – 2011. – Т. 82, № 1. – С. 405–432.
3. **Эйзенберг Н., Камберленд А., Спинрад Т. Л.** Родительская социализация эмоций // Психологическое исследование. – 2010. – Т. 21, № 4. – С. 246–273.
4. **Ганиев Б. С.** Психологические основы развития личности в школьном образовании. – Ташкент: Фан, 2016.
5. **Хоффман Д. М.** Размышления о социально-эмоциональном обучении: критическая перспектива тенденций в Соединенных Штатах // Teachers College Record. – 2009. – Т. 111, № 2. – С. 533–556.
6. **Каримова Д. М.** Профессиональная компетентность учителя и эмоциональная культура. – Ташкент: Учитель, 2019.
7. **Майер Дж. Д., Саловей П., Карузо Д. Р.** Эмоциональный интеллект: теория, результаты и последствия // Psychological Inquiry. – 2004. – Т. 15, № 3. – С. 197–215.
8. **Рахимов А. К.** Психологическая поддержка учащихся в образовательном процессе. – Ташкент: Издательство Национального университета Узбекистана, 2017.

9. **Шеридан С. М., Ким Э. М., Каутс М. Дж., Сьюц Т. М.** Вовлечение родителей и партнерство школы и семьи // Обзор школьной психологии. – 2019. – Т. 48, № 4. – С. 316–332.
10. **Тураев К. Т.** Педагогические основы образовательной среды. – Ташкент: Наука и техника, 2018.
11. **Вайсберг Р. П., Дурлак Дж. А., Домитрович К. Е., Гуллотта Т. П.** Социально-эмоциональное обучение: прошлое, настоящее и будущее // Справочник по социально-эмоциональному обучению. – 2015.

YENİ GELİŞİM DÖNEMİNDE ÖĞRENCİLERİN MANEVİ DEĞER SİSTEMİNİN GELİŞİMİ (DOĞU DÜŞÜNÜRLERİNİN ESERLERİ ÖRNEĞİNDE)

Sattarova Zuhra Abirqul qizi
Toshkent Axborot Texnologiyalari Universiteti

Özet. *Bu bilimsel makale, yeni gelişim döneminde öğrencilerin ve gençlerin gelecekteki yaşamlarında manevi değerler sisteminin geliştirilmesi konularını analiz etmektedir. Doğu düşünürlerinin bilimsel ve felsefi mirasına dayanarak analiz edilmiştir. Al-Farabi, İbn Sina, Al-Ghazali, Yusuf Khos Hajib, Alisher Navoi gibi düşünürlerin eserlerinde ortaya konan ahlaki, eğitimsel ve manevi fikirler, günümüz eğitim sürecinde öğrencilerin kişiliğinin uyumlu bir şekilde şekillenmesi için önemli bir metodolojik temel olarak ele alınmıştır. Çalışma, manevi değerlerin içeriğini, nerede ve ne zaman oluştuğunu, gelişim faktörlerini ve yükseköğretim sisteminde uygulanma mekanizmalarını bilimsel olarak aydınlatmaktadır.*

Anahtar kelimeler: *manevi değerler, aile, toplum, öğrenciler-gençler, Doğu düşünürleri, bütünsel kişilik, ahlak eğitimi, deneyim, hayatta uygulama, yeni bir gelişim dönemi, gelişimdeki yer.*

Giriş

Yeni gelişim çağında toplumun gelişiminin önemli faktörlerinden biri, genç neslin manevi olarak olgun, bağımsız düşünen ve sosyal sorumluluk bilinci derinden gelişmiş bir birey olarak yetiştirilmesidir. Küreselleşme bağlamında, bilgi akışının yoğunlaşması ve manevi tehditlerin artması, öğrencilerin manevi değerler sistemini güçlendirme ihtiyacını daha da acil hale getirmektedir. Doğu düşünürlerinin eserlerinde ortaya konan insanlık, adalet, bilgi arayışı, bilgi yolunda doğru kararlar alma, hakikat yolunda olma, bağımsız düşünme ve ahlaki mükemmellik fikirleri, günümüz eğitim sistemi için paha biçilmez bir kaynaktır. Bu nedenle, bu makale, Doğu düşünürlerinin mirasına dayanarak, öğrencilerin manevi değerler ruhu içinde eğitilmesi konusunu bilimsel ve teorik olarak incelemektedir.

Ana Bölüm

1. Manevi Değerler Kavramı ve Öğrencinin Kişiliğinin Oluşumundaki Rolü

Manevi değerler, toplumun ve bireyin yaşamında büyük önem taşıyan bir dizi ahlaki norm, inanç, gelenek ve fikirdir.

Öğrencilerin ve gençlerin zihinlerinde manevi değerlerin oluşması, onların sosyal faaliyetlerini, mesleki sorumluluklarını ve yurttaşlık konumlarını güçlendirir.

Yeni gelişim çağında eğitim, yalnızca bilgi aktarmakla sınırlı kalmamalı, bireyin ruhsal ve ahlaki gelişimini sağlamayı hedeflemelidir. Bu süreçte, Doğu düşünürlerinin pedagojik görüşleri önemli bir teorik temel oluşturmaktadır.

2. Doğu düşünürlerinin eserlerinde manevi eğitim konuları

Doğu düşünürleri, insan gelişimini bilim ve ahlakın birliği temelinde yorumlamışlardır. Özellikle Ebu Nasr el-Farabi, “Erdemli İnsanlar Şehri” adlı eserinde, mükemmel bir insanı toplumun gelişimindeki en önemli faktör olarak göstermektedir. Ona göre, bir insanın mutluluğu ahlaki olgunlukla yakından ilişkilidir. Ayrıca, ahlaki olarak olgun bir insanın derinlemesine düşünebildiği, herhangi bir durumda doğru sonuçlara varabildiği ve durumu analiz edebildiği belirtilmiştir. “Farabi'ye göre, erdemli bir toplumun üyeleri şu niteliklere sahip olmalıdır:”

• zekâ ve düşünce olgunluğu;

• adalet;

• hakikat için çabalama;

• ahlaki saflık;

• sosyal sorumluluk.

Eserde, insan mükemmelliğinin bilgi ve terbiyenin uyumu içinde oluştuğu belirtilmektedir. Bu fikir, öğrencilerde manevi değerler sisteminin geliştirilmesinde büyük önem taşımaktadır; çünkü yeni gelişim çağında gençlerin bilgiyle birlikte güçlü bir ahlaki duruşa sahip olmaları gerekmektedir. Forabi, "Erdemli İnsanlar Şehri" adlı eserinde eğitimi toplumu ıslah eden en önemli faktör olarak görmektedir. Şöyle der: Bir toplumun erdemli mi yoksa cahil mi olduğu, üyelerinin eğitimine ve terbiyesine bağlıdır.

İbn Sina, eğitim ve terbiyeyi bütünsel bir süreç olarak değerlendirerek, gençlerin dürüstlük, çalışkanlık ve sorumluluk ruhuyla eğitilmesinin gerekliliğini vurgulamaktadır. Bu bağlamda, çocukların yetiştirilmesinde ailenin ve toplumun önemli rolü geniş ölçüde vurgulanmaktadır. İbn Sina, "Donişname"de bilginin ahlaktan ayrılamayacağını, bilginin bir insanı mükemmelliğe götürmesi için iyi niyet ve doğru davranışla uyumlu olması gerektiğini vurgulamaktadır.

Yusuf Hüs Hacıb, “Kutadgu Bilig” adlı eserinde, toplumun istikrarı için adalet, bilgelik ve ahlaki saflığı önemli bir koşul olarak öne sürer. “Kutadgu Bilig”de mükemmel bir insan, adil, bilge, dürüst ve sorumlu bir insan olarak tanımlanır. Bir insanın toplumdaki değeri, konumuyla değil, ahlaki nitelikleri ve bilgiye karşı tutumuyla belirlenir.

Alisher Navoi’nin eserlerinde ise insanlık, vatanseverlik ve manevi saflık fikirleri ön plana çıkar. Mükemmel bir insanı, bilgili, dürüst, sabırlı, adil ve halkın çıkarlarına hizmet eden bir insan olarak tanımlar.

“Hayrat ul-abror” destanında ise bir insanın manevi mükemmelliğinin ahlakı, niyetleri ve eylemleriyle belirlendiği söylenir.

3. Yeni Gelişme Çağında Doğu Düşünürlerinin Mirasının Eğitimdeki Önemi

Sh.M. Mirziyoyev'in "Yeni Özbekistan Stratejisi"nde,

Bugün, Doğu düşünürlerinin manevi mirasının yükseköğretim sürecine entegrasyonu, öğrencilerin ulusal ve evrensel değerler temelinde eğitilmesine hizmet etmektedir. Şavkat Mirziyoyev'in "Yeni Özbekistan Stratejisi"nde ortaya koyduğu insan onuru, eğitim ve yetiştirmenin birliği, gençlik politikası ve ulusal-manevi mirasa dayanma fikirleri, yeni kalkınma çağında öğrencilerin manevi değerler sisteminin geliştirilmesi için önemli bir kavramsal temel oluşturmaktadır. Bu görüşler, Doğu düşünürlerinin mirasıyla uyumlu modern bir pedagojik model oluşturmamızı sağlamaktadır.

Disiplinlerarası yaklaşım, eğitim faaliyetleri, manevi ve eğitimsel etkinlikler ve düşünürlerin eserlerinin etkin kullanımı, manevi değerlerin geliştirilmesinde büyük önem taşımaktadır. Gelecekte hayatlarını doğru bir şekilde yönetebilecek becerileri kazanabilecek olan, geçmişteki nesillerin gerçek mirasçıları olan genç neslin kimliği, bu süreçte şekillenecektir.

Sonuç

Sonuç olarak, yeni gelişim çağında, öğrencilerin manevi değerler sistemi temelinde eğitilmesi, toplumun sürdürülebilir gelişimini sağlayan önemli bir faktördür. Doğu düşünürlerinin eserlerinde ortaya konan ahlaki ve felsefi fikirler, günümüz eğitim sisteminde öğrencilerin ve gençlerin manevi olgunluğunu sağlamak için sağlam bir bilimsel ve teorik temel oluşturmaktadır. Bu mirasın etkin kullanımı, yetkin, manevi olarak olgun ve rekabetçi personel yetiştirmenin temelini oluşturmaktadır. Biz gençler, gelecekte edinilen bilgi ve becerilerin hayatta doğru uygulanmasında büyük bir rol oynayacağız.

Kaynaklar

1. **Al-Farabi.** Erdemli insanlar şehri. — Taşkent: Bilim, 1993.
2. **İbn Sina.** Bilgelik. — Taşkent: Şark, 2004.
3. **Yusuf Hâs Hâcib.** Kutadgu Bilig. — Taşkent: Yozuvchi, 2011.
4. **Alisher Navoiy.** To‘liq asarlar to‘plami. — Taşkent: Fan, 2016.
5. **Al-G‘azzoliy.** Ihyo ulum ad-din. — Qohira, 2002.

6. **Karimov I. A.** Yuksak ma’naviyat — yengilmas kuch. — Taşkent: Ma’naviyat, 2008.
7. **Mirziyoyev Sh. M.** Yangi O‘zbekiston strategiyasi. — Taşkent, 2021.
8. **Abdullayeva M.** Ma’naviy tarbiya nazariyasi. — Taşkent: O‘qituvchi, 2018.
9. **Xolbekov A.** Ma’naviyat va yoshlarni tarbiyalash muammolari. — Taşkent, 2019.
10. **Saidov U.** Sharq mutafakkirlarining pedagogik qarashlari. — Samarqand, 2020.

ZAMONAVIY RAQAMLI TA’LIM VOSITALARI VA RAQAMLI KOMPETENTLIK

Shermuxammedov Abdulatif Abdishukur o‘g‘li
Jizzax politexnika instituti

Annotatsiya. *Mazkur tezisda zamonaviy raqamli ta’lim vositalari, ularning ta’lim jarayonidagi o‘rni hamda o‘qituvchi va o‘quvchilarning raqamli kompetentligini shakllantirish masalalari tahlil qilinadi. Raqamlashtirish jarayoni ta’lim tizimiga chuqur kirib borayotgan bir sharoitda LMS, LCMS, MOOC hamda modulli raqamli ta’lim muhitlarining imkoniyatlari va cheklovlari o‘rganildi. Tezisda raqamli kompetentlik tushunchasini aniqlashtirish va uni baholash mezonlarini ishlab chiqish zarurligi asoslab beriladi.*

Kalit so‘zlar: *raqamli ta’lim, raqamli kompetentlik, LMS, MOOC, e-learning.*

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi jamiyat hayotining barcha sohalariga, jumladan, ta’lim tizimiga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Raqamli texnologiyalar ta’lim jarayonini tashkil etish, boshqarish va baholash mexanizmlarini tubdan o‘zgartirib yubormoqda [2]. Bugungi kunda

an’anaviy auditoriya mashg‘ulotlari bilan bir qatorda masofaviy ta’lim, onlayn kurslar, virtual laboratoriyalar va interaktiv platformalar keng qo‘llanilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli O‘zbekiston—2030”strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi Farmonida raqamli texnologiyalar asosida mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni takomillashtirish vazifasi belgilangan. Zamonaviy jamiyatda axborot texnologiyalari va raqamli vositalarning roli tobora ortib bormoqda. Ta’lim sohasi ham ushbu texnologik o‘zgarishlar ta’sirida yangilanishlar kiritib, raqamli texnologiyalardan keng foydalanishga intilmoqda. Xususan, raqamli ta’lim texnologiyalari talabalar uchun o‘quv jarayonini yanada samarali va interaktiv qilish, ularga turli manbalardan axborotni tezda topish, qayta ishlash va baholash imkonini bermoqda[1].

Zamonaviy ta’lim oluvchilarning aksariyati raqamli muhitda ulg‘aygan Y va Z avlod vakillari bo‘lib, ular ta’lim jarayonida yuqori darajadagi interaktivlik va moslashuvchanlikni talab etadilar [3]. Shu sababli ta’lim tizimi raqamli muhitlarga moslashishi va pedagoglarning raqamli kompetentligini rivojlantirishi zarur.

Zamonaviy raqamli vositalar – mobil qurilmalar, interaktiv doskalar, planshetlar, simulyatsiya va virtual laboratoriyalar – nafaqat bolalar uchun ta’lim muhitini diversifikatsiya qilishda, balki metodistlar uchun ham metodik ish faoliyatini yangilashda qulay vosita bo‘lib xizmat qilmoqda. Xususan, "Narsalar interneti" (IoT) texnologiyalari orqali masofaviy monitoring, real vaqtda ma’lumotlar tahlili va metodik tavsiyalarni avtomatlashtirish imkoniyati yaratilmoqda [10]. Metodistlar uchun ijtimoiy tarmoqlar, professional platformalar (masalan, Telegram, Google Jamboard, Zoom, Miro kabi vositalar) bilim almashish, muammolarni muhokama qilish, hamkorlikda rejalashtirish va innovatsion metodlarni joriy etish uchun samarali maydonga aylangan.

Zamonaviy raqamli ta’lim muhitlari tahlili

1. Modulli raqamli ta’lim muhitlari. Modulli raqamli ta’lim muhitlari shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim konsepsiyasiga asoslanadi va har bir o‘quvchi uchun individual ta’lim trayektoriyasini shakllantirish imkonini beradi [8]. Bunday

tizimlarda o‘qituvchi bilim manbai emas, balki yo‘naltiruvchi va maslahatchi sifatida faoliyat yuritadi.

Modulli tizimlarning afzalligi ularning rejalashtirish va monitoring imkoniyatlarida bo‘lsa-da, ayrim hollarda modullarning qat’iyligi ta’lim jarayonining moslashuvchanligini cheklaydi [5].

2. MOOC va masofaviy ta’lim platformalari. Massive Open Online Courses (MOOC) ochiq va ommaviy ta’limni rivojlantirishda muhim o‘rin egallaydi. Ushbu platformalar bilim olish imkoniyatlarini kengaytirsa-da, kurslarni muvaffaqiyatli yakunlash ko‘rsatkichi juda past bo‘lib, bu asosan o‘qituvchi yoki mentor bilan bevosita aloqaning yo‘qligi bilan izohlanadi [6].

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, MOOC tizimlarida motivatsiya yetishmasligi ta’lim samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi [7]. Shu bois, MOOC platformalarida tutorlik va maslahat xizmatlarini joriy etish muhim ahamiyatga ega.

3. LMS va LCMS tizimlari. LMS (Learning Management System) va LCMS (Learning Content Management System) tizimlari ta’lim jarayonini rejalashtirish, boshqarish va baholash uchun mo‘ljallangan [8]. Ushbu tizimlarda o‘qituvchi o‘quv jarayonini nazorat qiladi, talabalarning faoliyatini tahlil qiladi va individual fikr-mulohaza beradi.

LMS tizimlarining ustun tomoni – o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi uzluksiz aloqani ta’minlashi, kamchiligi esa ayrim tizimlarning pulli va texnik jihatdan murakkabligidir [2].

Raqamli kompetentlik – bu pedagoglarning raqamli texnologiyalarni tanqidiy, samarali va maqsadga muvofiq qo‘llay olish qobiliyatidir [9]. Zamonaviy ta’lim sharoitida o‘qituvchi bilim beruvchi emas, balki fasilitator, mentor va murabbiy sifatida faoliyat yuritadi.

Ko‘plab tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, o‘qituvchilarning raqamli kompetentligini oshirmasdan turib raqamli ta’lim muhitlarini samarali joriy etib bo‘lmaydi [10]. Shu sababli, “lifelong learning” konsepsiyasi pedagoglar faoliyatining ajralmas qismiga aylanishi lozim.

Xulosa. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, zamonaviy raqamli ta’lim vositalari ta’lim jarayonini samarali tashkil etishda muhim ahamiyatga ega. Biroq, ushbu vositalar o‘qituvchining rolini to‘liq almashtira olmaydi. Aksincha, raqamli muhitda o‘qituvchining pedagogik va maslahat beruvchi roli yanada kuchayadi. Kelgusida raqamli kompetentlik mezonlarini ishlab chiqish, pedagoglar uchun doimiy malaka oshirish dasturlarini tashkil etish va raqamli ta’lim muhitlarini kompleks joriy etish muhim vazifa bo‘lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni. — 05.10.2020 y., PF-6079-son.
2. **Lai K. W., Hong K. S.** Technology use and learning characteristics of students in higher education // British Journal of Educational Technology. — 2015.
3. **Jordan K.** Initial trends in enrolment and completion of MOOCs // International Review of Research in Open and Distributed Learning. — 2014.
4. **Reich J., Ruipérez-Valiente J. A.** The MOOC pivot // Science. — 2019.
5. **Instefjord E.** Appropriation of digital competence in teacher education // Nordic Journal of Digital Literacy. — 2015.
6. **Tømte C. et al.** Educating online student teachers to master professional digital competence // Computers & Education. — 2015.
7. **Fenwick T., Edwards R.** Exploring the impact of digital technologies on professional responsibilities // European Educational Research Journal. — 2016.
8. **Kalimullina O. V., Trotsenko I. V.** Modern digital educational tools and digital competence: analysis of cases and trends // Open Education. — 2018.
9. **Keengwe J., Bhargava M.** Mobil o‘rganish va mobil texnologiyalarni ta’limga integratsiya qilish. — Moskva: Egves, 2014. — B. 737–746.

10. **Zokirova X.** Raqamli ta’lim muhitining xususiyatlari va pedagogik faoliyatga ta’siri // Interpretation and Researches: xalqaro ilmiy jurnal. — Vol. 1, iss. 7 (53). — ISSN 2181-4163.

ZAMONAVIY PEDAGOGIKADA TIL O‘RGATISH SIFATINI OSHIRISHGA QARATILGAN METODLAR

Shokirova Feruza Dilshod qizi

Nizomiy nomidagi O`zbekiston Milliy Pedagogika universiteti

Annotatsiya. *Bu maqolada zamonaviy dunyoda o’quvchilarga chet tillarini o’rgatish jarayonida ta’lim sifatini oshirishga mo’ljallangan metod va turli yondashuvlar bayon qilingan. Asosan, o’quvchini markazga qo’yish, ularga motivatsiya va ilhomlantiruvchi yondashuvlarni qo’llash masalalari tadqiqot obyekti sifatida yoritiladi. Maqolada pedagogning vazifalari, darsning samaradorligini oshirishga xizmat ko’rsatuvchi usullar, muhit ahamiyati, o’quvchinig ilmiy hayotida muhim o’rin tutishi asoslab beriladi.Tadqiqot natijalari til o‘rgatishni majburiyat emas, balki mazmunli va motivatsion faoliyatga aylantirish zarurligini ko‘rsatadi.*

Kalit so‘zlar: *zamonaviy pedagogika, til o‘rgatish metodlari, ijobiy muhit, motivatsiya, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim, interaktiv metodlar, kommunikativ kompetensiya.*

Kirish

Hozirgi zamon bolalarining til o‘rganish tezligi, usullari va qiziqishlari tubdan o‘zgargan. Avvallari bir necha o‘quvchi bitta kitob va bitta o‘qituvchi bilan bilim olishga majbur bo‘lgan bo‘lsa, bugungi kunda har bir bola uchun turli manbalar, bir nechta o‘qituvchilar va zamonaviy texnologiyalar mavjud. Ayniqsa, til o‘rganish

sohasida bu o‘zgarishlar yaqqol ko‘zga tashlanadi.Bugun O‘zbekistonda 7–9-sinf o‘quvchilarining xalqaro IELTS imtihonidan C1–C2 darajalarini qo‘lga kiritayotgani ularning fikrlash salohiyati va bilim olish sur’ati sezilarli darajada oshganini ko‘rsatadi. Innovatsion texnologiyalar, xorijdan kirib kelayotgan zamonaviy metodlar hamda til o‘rgatishga mo‘ljallangan qiziqarli o‘yinlar bu jarayonni tezlashtirmoqda.Shunga qaramay, barcha bolalarda bir xil natija kuzatilmayapti. Ko‘plab o‘quvchilar bilim olish imkoniyatlari yetarli bo‘lsa-da, o‘zlashtirishda qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Buning asosiy sabablari sifatida ijobiy muhitning yetishmasligi va o‘rganishga bo‘lgan qiziqishning sustligini ko‘rsatish mumkin. Ushbu maqola aynan mana shu ikki muhim omilni tahlil qiladi, ularning ta’limdagi ahamiyatini ochib beradi va samarali yechimlarni taqdim etadi.

Ijobiy ta’lim muhiti va uning til o‘rganishdagi o‘rni

Birgina til o‘rganishda emas, balki o‘quvchilarning barcha sohalarni o‘zlashtirishida muhim poydevor vazifasini bajaradigan asosiy omillardan biri ijobiy muhit hisoblanadi. Ijobiy muhit deganda shaxsning bilim olishiga, rivojlanishiga va o‘z imkoniyatlarini erkin namoyon etishiga xizmat qiladigan tashqi va ijtimoiy sharoitlar tushuniladi. Ijobiy muhit eng avvalo oiladan boshlanadi. Ota-onaning bilimga bo‘lgan munosabati, uy sharoitida kitob o‘qish odati, aka-ukalarning ta’limdagi yutuqlari bolaga kuchli motivatsiya beradi. Psixologik tadqiqotlarga ko‘ra, bolalar ko‘proq real hayotda ko‘rgan va kuzatgan holatlar orqali o‘rganadi. Shu sababli, oiladagi sog‘lom raqobat, ilmiy qiziqish va o‘zaro qo‘llab-quvvatlash bolalarning bilimga chanqoqligini oshiradi va ularning intellektual rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Bundan tashqari, maktabning ijtimoiy-pedagogik va ma’naviy muhiti o‘quvchilarning kognitiv rivojlanishi hamda shaxs sifatida shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Pedagogik jarayonda o‘qituvchining zamonaviy ta’lim texnologiyalari, didaktik materiallar va interaktiv metodlardan foydalanishi o‘quvchilarda ichki motivatsiyani shakllantiradi hamda bilimlarni samarali o‘zlashtirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, sinf jamoasidagi o‘zaro ta’sir, hamkorlikda o‘rganish va o‘zaro hurmatga asoslangan munosabatlar ta’lim samaradorligini oshiruvchi muhim omillardan hisoblanadi. Shuningdek, sinf

xonasining jismoniy muhiti — ergonomik jihozlar, vizual materiallar va qulay dizayn — o‘quvchilarning diqqatini jamlashiga hamda o‘rganish faoliyatiga bo‘lgan ishtiyoqini oshiradi. Aksincha, sharoitlarning yetishmasligi esa o‘quvchilarning motivatsiyasiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Bu borada pedagogning roli eng ustuvor hisoblanadi. Doimiy ijobiy kayfiyat va ko‘tarinki ruh o‘quvchilarga motivatsiya beradi, ularning hayajoni va qo‘rquvini kamaytirishga yordam beradi. Shu bilan birga, o‘qituvchi tomonidan qo‘llaniladigan bir nechta samarali usullar mavjud. Ulardan biri — yashil ruchka usuli. Ko‘p mamlakatlarda daftarlar qizil ruchka bilan tekshiriladi, biroq qizil rang odatda ogohlantirish yoki xatolik ramzi sifatida qabul qilinadi. Natijada, o‘quvchining o‘ziga bo‘lgan ishonchi pasayishi va bilimga bo‘lgan ichki motivatsiyasi tushushi kuzatilishi mumkin. Masalan, ingliz tilidan essay yozishda har bir article yoki so‘z qizil ruchka bilan to‘g‘rilansa, o‘quvchi “essay yozish men uchun emas” degan noto‘g‘ri xulosa chiqarishi mumkin. Shu sababli, matnni yashil yoki qora ruchka bilan tekshirish tavsiya etiladi, bu ijobiy o‘rganish muhitini saqlashga yordam beradi. Yana bir samarali usul — xatoni ko‘rmaslik. Boshlang‘ich o‘rganayotganlar bilan ishlashda o‘qituvchi har bir mashqdagi barcha xatolarni emas, balki faqat eng muhimlarini to‘g‘rilashi mumkin. Masalan, boshqa xatolarni chetga surib, faqatgina article ishlatilishini to‘g‘rilash orqali o‘quvchini aynan shu jihatga e’tibor qaratishga undaydi. Ko‘p xatolarni bir vaqtning o‘zida tuzatish esa o‘quvchida motivatsiya pasayishi va samarasiz mehnatga olib keladi. Shu metod faqat yozma ishlar uchun emas, balki og‘zaki nutqni shakllantirishda ham qo‘llanilishi mumkin. O‘qituvchi nutq mashqlarida faqat eng muhim xatolarni tuzatib, o‘quvchining ijobiy kayfiyatini saqlaydi va o‘rganishga bo‘lgan qiziqishni oshiradi. Ma’lumki, yosh o‘quvchilarning ta’limga bo‘lgan qiziqishi tez so‘nishi mumkin. Ayniqsa, til o‘rganish jarayonida ketma-ket mashqlar va qoidalar ularni charchatib qo‘yib, o‘rganishga bo‘lgan ishtiyoqini pasaytiradi. Bunday vaziyatda pedagog har bir o‘quvchining qiziqishi va xohishlarini inobatga olgan holda dars rejasini tuzishi muhim hisoblanadi. Dars boshida o‘qituvchi o‘quvchilarga ijobiy va rag‘batlantiruvchi mashq taqdim etadi hamda ularning vazifaga bo‘lgan yondashuvini kuzatadi. Ba’zi bolalar topshiriqqa

kreativ yondashib, rasmlar va ijodiy ishlar orqali vazifani bajarsalar, boshqalari yozma ma’lumotlar yordamida mavzuni yoritishga harakat qiladilar. Bu holat o‘qituvchini dars jarayonida ham yozma, ham vizual manbalardan foydalanishga undaydi. Natijada, o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishi sezilarli darajada ortadi va ta’lim jarayonining samaradorligi oshadi. O‘quvchining ta’lim olish jarayonida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan omillardan yana biri sinfdagi psixologik va ijtimoiy muhit hisoblanadi. Xususan, o‘quvchining tengdoshlari orasida o‘qituvchi tomonidan ochiq tanqid qilinishi, kamsitilishi yoki dakki berilishi uning o‘ziga bo‘lgan ishonchini pasaytirib, o‘rganishga bo‘lgan motivatsiyasiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu bois pedagog o‘quvchining vazifasidagi xatolarni oshkora emas, balki individual tarzda, yolg‘iz qolgan paytda tushuntirishi maqsadga muvofiqdir. Bunday yondashuv o‘quvchida o‘qituvchiga nisbatan ishonch va yaqinlik tuyg‘usini shakllantiradi, xatoni jazolash vositasi emas, balki o‘rganish jarayonining tabiiy qismi sifatida qabul qilishiga yordam beradi. Natijada o‘quvchi berilgan ishonchni oqlashga intilib, faolroq ishtirok eta boshlaydi. O‘quvchilar yetarlicha bilim va tajriba orttirib, o‘rganishga bo‘lgan qiziqish tuyg‘usi shakllangandan so‘ng esa ularni jamoaviy topshiriqlar va bellashuvlar orqali sog‘lom raqobat hamda hamkorlik muhitiga jalb qilish o‘rinli bo‘lib, bu ularning ijtimoiylashuvi va shaxsiy rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.O’quvchilarga o’zini ko’rsatish imkoniyatini beradigan o’qituvchidan talab qilinadigan usullar mavjud. Masalan, o’quvchining berilgan savolga fikrlab beradigan javobi yo’q, bunday holda o’qituchi o’quvchiga qulay muhit yaratishi uchun tanlash imkoniyatini berishi lozim. Qanday? O’qituvchi o’quvchiga bir nechta variantlar beradi, o’quvchi esa o’ziga qiziqarli bo’lgan variantni tanlab, chet tilida tasvirlab beradi. Bunday vaziyatda o’quvchida gapirishga yetarlicha g’oya bo’ladi. Bu o’quvchining cheklanib, sinf oldida hijolat chekish tuyg’usini tuyish ehtimolini kamaytiradi. Yana bir vaziyatni qulaylashtirish usuli shundan iboratki, bunda sinf xonasi teleko’rsatuv sahnasiga aylantiriladi. O’quvchilar bir-birlariga xuddi jurnalistlardek savol beradi va buyuk olimlardek javoblarni birgalikda muhokama qiladilar. Bu jarayon o’quvchilarni vaziyatga jiddiy qarashga chorlagan holda, ularning tanqidiy fikrlashini rivojlantiradi. Yoki bo’lmasa

matn yoki jumlani emotsional ohang bilan o‘rganish metodida bir xil jumlani turli kayfiyatda aytish mashqlari orqali intonatsiya va nutq ifodaliligi rivojlanadi. Sinf xonasida yutuqlar xaritasi ilinishi ham o’quvchini harakat qilishga chorlaydi. Xaritada eng ko’p so’z yodlagan, vazifalarni a’lo darajada o’zlashtirgan va bajargan o’quvchilar rasmi yopishtiriladi. Buni ko’rgan qolgan o’quvchilar men ham shu xaritada bo’lishim kerak deb harakatlarini kuchaytirishadi. Yutuqlar xaritasi esa o‘quvchining rivojlanishini vizual ko‘rinishda aks ettirib, o‘z-o‘zini baholashiga xizmat qiladi.Mazkur metodlarning ta’lim jarayoniga tizimli ravishda joriy etilishi til o‘rganishni majburiyat emas, balki qiziqarli va mazmunli faoliyatga aylantiradi.

Qiziqishni oshirishga qaratilgan interaktiv metodlar

Bundan tashqari, til o‘rgatishda o‘quvchilarni qiziqtirish masalasi zamonaviy pedagogikaning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Pedagoglar shunday metodlarni qo‘llashlari kerakki, bola til o‘rganayotganini sezmasin, aksincha, o‘z vaqtini zavqli o‘tkazayotganiga ishonsin. Hozirda qo‘llanilib kelayotgan metodlarning aksariyati esa asosan o‘tmish davr o‘qitish tizimiga xosdir. Holbuki, zamon o‘zgargani sari atrof-muhitdagi o‘zgarishlarga mos ravishda insonlarning fikrlari, qarashlari va qiziqishlari ham o‘zgarib boradi. Avvallari darslar asosan tinglab tushunishga asoslangan bo‘lsa, bugungi kunda bu usul eskirgan hisoblanib, o‘quvchini yetarli darajada jalb eta olmaydi. Shu sababli ta’lim tizimiga yangi usullarni kiritish va ularni o‘quvchi ehtiyojlariga mos holda shakllantirish zarur. Avvalo amalga oshirilishi lozim bo‘lgan muhim jihat — dars markazidan o‘qituvchini olib, o‘quvchini qo‘yishdir. Bunda o‘quvchi o’z qobig‘idan chiqib, o‘z fikrini erkin va ochiq bayon qila boshlaydi. Markazda bo‘lish shunday bir tushunchaki, undagi shaxs o‘zini sodir bo‘layotgan jarayonlarga mas’uldek his qiladi. Pedagog tomonidan beriladigan muammoli savollar, chalkash va izlanishga undovchi mashqlar hamda erkin fikr bildirishga yo‘naltirilgan topshiriqlar o‘quvchini yanada mas’uliyatli, topqir va tanqidiy fikrlovchi shaxs sifatida shakllantiradi. Shuningdek, o‘qituvchining o‘quvchilarni bir necha guruhlarga bo‘lib, ularga mustaqil vazifalar berishi va jarayonda faqat sodda yo‘naltiruvchi tushuntirishlar bilan cheklanishi o‘quvchilarning ilmiy hamda texnologik

manbalarga murojaat qilishiga sabab bo‘ladi. Topshiriqlarni bajarish jarayonida o‘quvchilar mavzudan tashqari qo‘shimcha ma’lumotlarni ham o‘rganishga intiladilar. Ko‘rinib turganidek, bunday yondashuvda o‘quvchilar jamoa bo‘lib ishlaganliklari sababli bir-birini tinglash, o‘zaro fikr almashish va qarashlarni hurmat qilish kabi ijtimoiy ko‘nikmalarni egallaydilar. O‘quvchilar bilimni amaliy faoliyat jarayonida o‘zlashtiradi, izlanish, tahlil qilish va muloqot olib borish ko‘nikmalari rivojlanadi. Izlanishga va jamoada ishlashga yo‘naltirilgan bunday faoliyat ularning tilga bo‘lgan qiziqishini sezilarli darajada oshirishi bilan birga, tengdoshlari bilan bo‘lgan ijtimoiy aloqalarini ham mustahkamlaydi. Mazkur jarayonda jamoaning har bir a’zosi faol ishtirok etadi va o‘zini kashf etish imkoniga ega bo‘ladi. Ya’ni topshiriq davomida o‘quvchilarning har biri o‘z hissasini qo‘shadi: kimdir rasm chizadi, kimdir kreativ yondashuvni namoyon etadi, boshqalar esa texnologik qarashlarini ilgari suradi. Natijada ayrim o‘quvchilarning o‘zlari ham anglamagan yashirin qobiliyatlari yuzaga chiqadi. Mustaqil ta’limga asoslangan bunday faoliyat har tomonlama mukammal natijaga olib keladi. Yana bir samarali yangicha metod sifatida shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim yondashuvini ko‘rsatish mumkin. Ushbu metodda o‘quvchilarning qiziqishlari, qobiliyatlari va ehtiyojlari inobatga olinadi. Masalan, bugungi kunda ko‘plab o‘quvchilar mashhurlikka erishgan rep qo‘shiqlarini zavq bilan tinglaydi va o‘zlari sezmagan holda ushbu ijrochilarga taqlid qiladi. Agar ushbu holat til o‘rganish jarayoniga tatbiq etilsa, ya’ni muayyan mavzuni, masalan, “Gerund verbs” mavzusini o‘rgatishda faqat so‘z yodlashga tayanilsa, bu o‘quvchini zeriktirishi mumkin. Hatto yodlab olingan taqdirda ham bunday bilim uzoq muddat saqlanib qolmaydi, o‘quvchi ularni tezda unutishi yoki chalkashtirib yuborishi ehtimoli yuqori bo‘ladi. Agar shu so‘z va iboralar mashhur rep ohanglariga moslashtirilsa, o‘rganish jarayoni qiziqarli va samarali kechadi. O‘quvchilar qo‘shiqlarni yodlash jarayonida so‘zlarni ham oson o‘zlashtiradilar va bu ularning kayfiyatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Shuningdek, ayrim o‘quvchilar tarix, adabiyot kabi ertaknamo fanlarga qiziqadi. Bunday holatda yangi so‘zlarni ertak yoki hikoya asosida o‘rgatish ularning xotirasida yanada mustahkam muhrlanadi. Masalan, “help” — “yordam” so‘zining

kelib chiqishini kichik hikoya orqali tushuntirish mumkin. Ikki nafar chet ellik askar yo‘ldan adashib qoladi va bir-birining ismini so‘raydi. Ulardan biri shamollagan bo‘lgani uchun ismini noto‘g‘ri aytib, “Flip” o‘rniga “help” deb talaffuz qiladi. Kechasi ikkinchi askar uni chaqirish uchun baland ovozda “help” deb baqiradi va shu payt yaqin atrofda o‘tayotgan askarlar guruhi ularni eshitib qoladi hamda yordamga keladi. Shu tariqa “help” so‘zi yordam ma’nosida qo‘llanila boshlaydi. Bunga o‘xshash to‘qima hikoyalar o‘quvchilarning qiziqishini oshirib, ularni tasavvur olamiga olib kiradi. Natijada o‘quvchi so‘zni nafaqat o‘zlashtiradi, balki uni o‘rtoqlari va ota-onasiga hikoya tarzida so‘zlab berib, boshqalarga ham o‘rgatadi. Vizual hikoya tuzish metodi ham til o‘rganishda samarali usullardan biri hisoblanadi. Rasm va suratlar asosida hikoya yaratish o‘quvchilarning tasavvurini kengaytiradi, ularni kreativ fikrlashga undaydi hamda lug‘at boyligini oshirishga xizmat qiladi. Ushbu jarayonda o‘quvchi so‘zlarni mexanik tarzda yodlashdan ko‘ra, ularni mazmunli kontekstda o‘zlashtiradi. Masalan, o‘qituvchi o‘quvchilarga darslikning bitta bo‘limidan yigirma ta so‘zni o‘rgatishni maqsad qilgan bo‘lsa, bu jarayonda beriladigan topshiriq o‘quvchining mazkur fanga bo‘lgan keyingi qiziqishlariga asos bo‘lib xizmat qiladi. Pedagog shunday metodni qo‘llashi lozimki, o‘quvchining o‘zlashtirishi osonlashsin va u faqat so‘z yodlash bilangina cheklanib qolmasdan, o‘zining boshqa qobiliyatlarini ham rivojlantirsin. Bunday vaziyatda o‘qituvchi yigirma ta so‘zni o‘zaro bog‘lab, bir daqiqalik kichik matn tuzish vazifasini bersa, bu o‘quvchining chet tilida gapirish tezligini oshiradi, tasavvur qilishga undaydi va so‘zlarni tez hamda oson yodlab olishiga yordam beradi. Bu bosqichma-bosqich rivojlanish jarayoni o‘quvchining o‘ziga bo‘lgan ishonchini mustahkamlab, “men buni uddaladim” degan faxr va muvaffaqiyat hissini shakllantiradi. Ushbu topshiriq o‘quvchi uchun tushunarli va qulay bo‘lishi maqsadida dastlab hikoyani davom ettirish metodidan foydalanish tavsiya etiladi. Hikoyani davom ettirish usuli ijodiy fikrlashni va vaziyatga tez moslashishni rivojlantiruvchi samarali pedagogik metodlardan biridir. Bunda o‘qituvchi o‘rganilayotgan tilda, o‘quvchilar bilim darajasiga mos, hamma tushunadigan so‘zlardan foydalangan holda kichik gap yoki hikoyaning bir qismini tuzadi.

O‘quvchilar esa uni o‘z g‘oyalari asosida davom ettiradilar. Faoliyat yakunida yaxlit hikoya yaratilishi bilan birga, o‘quvchilarning nutq faolligi, mantiqiy fikrlashi va so‘z boyligi oshadi. Dastlab o‘qituvchi yordami bilan mustahkamlangan ushbu jarayon keyinchalik o‘quvchilarning mustaqil ravishda so‘zlar va rasmlar asosida hikoya yaratishini osonlashtiradi. Ushbu metoddan yozma va og‘zaki shakllarda samarali foydalanish mumkin. Biroq o‘quvchilar orasida shundaylari ham uchraydiki, ular o‘z qobig‘idan chiqishga, ya’ni o‘qituvchi bilan muloqot qilishga tortinadilar. Bunday holatlarda juftlikda o‘rganish metodi samarali hisoblanadi. Juftlikda ishlash jarayonida o‘quvchi o‘qituvchi bilan emas, balki o‘z tengdoshi bilan faoliyat olib boradi. O‘quvchilar bir-birini tinglaydi, savol-javob qiladi, bilgan va bilmaganlarini o‘zaro tushuntiradi. Natijada bu metod nafaqat til o‘rganishdagi o‘sishga, balki hamkorlikda ishlash, ijtimoiy muloqot, do‘st orttirish va ijtimoiylashuv ko‘nikmalarining shakllanishiga xizmat qiladi. Uyga vazifalarni tekshirish usulini biroz o‘zgartirish ham ta’lim jarayonini yanada samarali qiladi. Ya’ni o‘quvchi o‘rganilgan mavzuni shunchaki aytib bermasdan, balki uni chuqur o‘rganib, qo‘shimcha ma’lumotlar bilan boyitgan holda tengdoshlariga tushuntirsin. Bunday “o‘quvchi-professor”ning faoliyatini esa sinfdoshlari baholab, xatolarini ko‘rsatib, rivojlantiruvchi fikrlar bildiradilar. Bu jarayon nafaqat vazifa bajarayotgan o‘quvchi, balki uni tinglayotgan boshqa o‘quvchilarning ham mavzuni to‘liq anglashiga yordam beradi. O‘qituvchining vazifasi esa jarayonning adolatli kechishini kuzatish va mavzudan chetga chiqish holatlarining oldini olishdan iboratdir. Natijada o‘quvchilarda mas’uliyat, mustaqillik va o‘zaro hurmat hissi rivojlanadi. Shaxsiy kundalik yuritish metodi esa o‘quvchilarning yozma nutqini rivojlantirib, tilni mustaqil o‘rganishga undaydi. O‘quvchilar kun oxirida “Bugun men nima o‘rgandim?” degan savolga javob yozish orqali o‘z faoliyatini tahlil qiladi. Bu jarayon ularda bajarilgan ishlaridan faxrlanish yoki kamchiliklarni anglash hissini shakllantiradi. Yozma tarzda belgilangan maqsadlar ham til o‘rganishda muhim rol o‘ynaydi. O‘quvchilar oy boshida o‘z oldilariga aniq maqsadlar qo‘yib, oy oxiriga qadar ularga erishish uchun ongli ravishda harakat qiladilar. Eng asosiysi hisoblangan, ijobiy rag‘batlantirish tizimi esa har bir kichik yutuqni e’tirof etish

orqali o‘quvchilarning o‘ziga bo‘lgan ishonchini mustahkamlaydi. Ushbu jarayon faqat sinf xonasida emas, balki uy sharoitida ota-onalar ishtirokida ham davom ettirilsa, yanada samarali bo‘ladi. Umuman olganda, mazkur metodlarning tizimli va maqsadli qo‘llanilishi til o‘rgatishda o‘quvchilarning qiziqishini oshirishi hamda ta’lim sifatini yaxshilashga xizmat qiladi.

Xulosa

Xulosa shundan iboratki, zamonaviy dunyoda til o‘rgatishda o‘quvchilarning muvaffaqiyati nafaqat o‘quv resurslari va innovatsion texnologiyalarning ko‘pligi bilan, balki sinfda o‘qituvchi tomonidan yaratiladigan muhit, barqaror qiziqishni shakllantirishga qaratilgan metodlar hamda motivatsiyani oshiruvchi usullar bilan bevosita bog‘liqdir. To‘g‘ri, bugungi kunda o‘quvchilarning bilim olish va yangi tilni o‘zlashtirish tezligi sezilarli darajada oshgan, biroq bu holat izlanishdan va yangi g‘oyalarni kashf etishdan to‘xtash kerakligini anglatmaydi. Shunday o‘quvchilar borki, ular bilimga tashna bo‘lsalar-da, o‘z bilganlarini to‘liq namoyon eta olmagani sababli doimo e’tibordan chetda qolib ketadilar. Biz, pedagoglar, bunday vaziyatlarning oldini olish uchun doimiy ravishda izlanish olib borishimiz va bor imkoniyatlarimizni ishga solishimiz zarur. Har bir o‘quvchiga nafaqat ilmiy, balki ruhiy jihatdan ham ko‘mak berilishi muhimdir. Sinfda shakllanadigan sog‘lom munosabatlar, kichik, ammo ijobiy kayfiyat uyg‘otuvchi elementlar va rag‘batlantiruvchi vositalar o‘quvchining o‘ziga bo‘lgan ishonchini mustahkamlab, bilim olish jarayonini yanada samarali qiladi. Yuqorida keltirilgan metodlar o‘quvchining faqat til o‘rganish ko‘nikmalarini rivojlantirish bilan cheklanib qolmay, balki tanqidiy fikrlash, o‘ziga ishonch va faxr tuyg‘usini shakllantirish, tengdoshlarini tinglash, jamoada ishlash, motivatsiya va qiziqishni saqlab qolish kabi muhim kompetensiyalarni rivojlantiradi. Natijada o‘quvchi tilni shunchaki qoidalar majmui sifatida emas, balki real hayotiy ehtiyoj va samarali muloqot vositasi sifatida anglay boshlaydi.

Foydalanilgan manbalar

1. **O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi.** Chet tillarini o‘qitish bo‘yicha metodik tavsiyalar. — Toshkent, 2022.
2. **Xodjayev B.** Umumiy pedagogika. — Toshkent, 2016.

O‘QUVCHILARDA TANQIDIY FIKRLASHNI SHAKLLANTIRISHDA PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK METODLAR UYG‘UNLIGI

Shonazarov Jamol Umirzoqovich
Xalqaro innovatsion universiteti
Umirzoqova Sarvinoz Jamol qizi
Qarshi davlat universiteti

Annotatsiya: *Mazkur maqolada tanqidiy fikrlash tushunchasi psixologik va pedagogik nuqtai nazardan tahlil qilinadi, shuningdek, ta’lim jarayonida uni rivojlantirishga xizmat qiluvchi samarali metodlar yoritiladi. Tadqiqotda kognitiv psixologiya, konstruktivizm, metakognitiv yondashuvlar hamda faol ta’lim texnologiyalarining imkoniyatlari ilmiy manbalar asosida o‘rganiladi.*

Kalit so‘zlar: *pedagogik jarayon, tanqidiy fikrlash, pedagogik texnologiya, metodik yondashuvlar metakognitsiya, konstruktivizm, pedagogik texnologiyalar, refleksiya, kognitiv jarayonlar.*

KIRISH

Ma’lumki, jamiyaning rivojlanishi, uning taraqqiyoti va ravnaqi bevosita u yerda tayyorlanayotgan va faoliyat yuritayot mutaxassis kadrlar faoliyati bilan bog‘liq, chunki o‘sha jamiyatning taraqqiy etishi ular yaratgan moddiy va ma’naviy ne’matlar katta ahamiyat kasb etadi. Shu boisdan jamiyat kapitali, uning moddiy texnik bazasi va salohiyat intellektual yoshlarning kamoloti, iqtidorlarining

pedagogik jarayondagi erishgan yutuqlari, ijodiy izlanishlari mahsulidir. Zamonaviy ta’lim jarayoni nafaqat bilim berishni, balki o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, tahliliy yondashuv va asosli qaror qabul qilish kompetensiyalarini shakllantirishni ham o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ymoqda. Jahon ta’lim tizimida “XXI asr ko‘nikmalari” konsepsiyasining joriy etilishi aynan tanqidiy fikrlashni shaxsning hayotiy, kasbiy va ijtimoiy muvaffaqiyati uchun eng muhim omil sifatida belgiladi. Tanqidiy fikrlash shaxsning yangi ma’lumotlarni qayta ishlash, mavjud bilimlar bilan solishtirish, dalillarni tekshirish, turli nuqtayi nazarlar o‘rtasida mantiqiy bog‘liqliklarni aniqlash hamda mustahkam xulosa chiqarish qobiliyatini o‘z ichiga oladi. Shu boisdan, ta’lim jarayonida tanqidiy fikrlashni shakllantirish o‘qituvchidan maqsadli pedagogik dizayn, zamonaviy psixologik yondashuvlar, raqamli texnologiyalar va innovatsion metodlar uyg‘unligini talab etadi.

Tanqidiy fikrlash va uning mazmun-mohiyati, nazariy asoslari haqida to‘xtalsak, bu tushuncha dastlab D. Xalpern tomonidan chuqur tahlil etilgan bo’lib, unga ko’ra, “tanqidiy fikrlash sog’lom refleksiv jarayondir, shuningdek, tanqidiy fikrlashyo’naltirilgan xarakterga ega bo’lib, o’z xatolaridan xolis bo’lish va sog’lom mazmun izlashdir. Shu mulohazalarga tayangan holda ta’lim-tarbiya jarayonida tanqidiy fikrlash ko’nikmalarining shakllanishi o’quvchiga quyidagi imkoniyatlarni beradi:

-fikrlash jarayoni jadallashadi; -o’z oldiga aniq maqsad qo’yib, unga erishish yo’llarini izlaydilar;

-o’quvchilarda bilim olish, yangi axborotlarni o’zlashtirishga bo’lgan qiziqish ortadi; -o’quv-bilish jarayonida o’quvchilarda faollik ta’minlanadi; -o’quvchilarda ular orasida vujudga kelgan rang barang fikrlarni tinglash va mushohada qilish ishtiyoqi kuchayadi [1]. Mazkur imkoniyatlar va ta’lim-tarbiya jarayonidagi pedagogik shart-sharoitlar asosida o‘quvchi-yoshlarni mustaqil fikrlash va mantiqiy tafakkurini shakllantirish orqali tanqidiy fikrlash o‘quvchi shaxsining intellektual va ijtimoiy rivojlanishida markaziy o‘rin tutadi. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga yo‘naltirilgan ta’lim jarayoni o‘quvchining tafakkurini faollashtiradi, muloqot madaniyatini oshiradi va qaror qabul qilish mas’uliyatini

mustahkamlaydi. Bu jarayonni samarali tashkil etish uchun o‘qituvchi interfaol metodlardan foydalanishi, muammoli vaziyatlar yaratishi hamda har bir o‘quvchining fikrini qadrlashi zarur. Tanqidiy fikrlash tushunchasi inson tafakkurining eng yuqori bosqichini ifodalaydi. Uning mohiyati axborotni idrok etish, tahlil qilish, baholash va o‘z fikrini asosli tarzda ifoda etish jarayonidan iborat.

Tadqiqot metodologiyasi va adabiyotlarning tahlili. Psixologiya fanining rivojlanishi, psixologik bilimlarning yutuqlari asosida hozirgi vaqtda psixologiya va pedagogikada ta'limning rolini oshirishga jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Bu vazifalarni amalga oshirishda maktab, o‘rta maxsus va professional ta’lim o‘quvchilarida erkin fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. O'qituvchi o'rganilayotgan fan doirasida talabalarga bilim beradi, lekin mavzu bo'yicha bilim olishning optimal usullari, o'ziga xos usullari hali ham yetarli emas. Bu yo‘nalishda mashhur o‘zbek psixologlari, psixologiya fanlari doktori, professorlar M.Davletshin, E.G’oziyev, V.M.Karimova, pedagog olimlarimizdan M.To‘laganov, S.Qodirov, O.Hasanboyevalarning ilmiy faoliyatini alohida ta’kidlash lozim. Sh. Baratov, A. Jabborova, Z.T. Nishonova o‘zlarining ilmiy izlanishlari va tavsiyalari bilan umumta’lim maktablari va kasb-hunar ta’limi muassasalarida yoshlarda mustaqil fikrlashni shakllantirish va rivojlantirishga katta hissa qo‘shganlar.

Psixologik adabiyotlarda tanqidiy fikrlash yuqori darajadagi kognitiv jarayonlar kategoriyasiga kiritiladi. P. Andersonning Bloom taksonomiyasi bo‘yicha yangilangan modellari tanqidiy fikrlashni tahlil, baholash va yaratish bosqichlari orqali izohlaydi. R. Ennis esa tanqidiy fikrlashni “o‘ylab va asosli qaror qabul qilishga qaratilgan refleksiv va ratsional fikrlash jarayoni” sifatida ta’riflaydi [2].

D. Halpernning tadqiqotlariga ko‘ra, tanqidiy fikrlash mustaqil intellektual odat bo‘lib, u turli kontekstlarda qo‘llanishi, transfer bo‘lish imkoniyatiga ega bo‘lishi lozim. Shu boisdan, tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda o‘qitish jarayonining kontekstual va faol xarakteri alohida ahamiyat kasb etadi.

Pedagogik adabiyotlarda tanqidiy fikrlash konstruktivistik yondashuv bilan bog‘lanadi (J. Dyui, L. Vygotskiy). Dyui fikricha, o‘quvchi haqiqiy bilimga faqat amaliy faoliyat va muammoli vaziyatlar orqali erishadi. Vygotskiyning “yaqin

rivojlanish zonasi” nazariyasi esa o‘quvchilarda metakognitiv hamkorlik, refleksiya va muloqot asosida tanqidiy fikrlashning shakllanishi uchun nazariy asos yaratadi.

Natijalar.

Zamonaviy adabiyotlarda (J. Bruner, D. Kolb) o‘quvchi tajribasiga asoslangan o‘qitish (experiential learning), kollaborativ o‘qitish, raqamli axborot madaniyati va dizayn-o‘ylash (design thinking) tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning eng samarali yondashuvlari sifatida ko‘rsatiladi.

Tanqidiy fikrlashning psixologik asoslari

1. Kognitiv jarayonlar.Kognitiv psixologiya nuqtai nazaridan tanqidiy fikrlash bir qator yuqori darajadagi mental jarayonlarning integratsiyasi orqali shakllanadi:

- Diqqatni boshqarish: muhim ma’lumotni ajratish, chalg‘ituvchi omillarni inkor qilish;
- Analitik fikrlash: murakkab ma’lumotlarni strukturaviy tahlil qilish;
- Mantiqiy mulohaza: deduktiv, induktiv va analogik xulosalar chiqarish;
- Konseptual o‘ylash: tushunchalar o‘rtasidagi mantiqiy bog‘liqliklarni aniqlash;
- Xotira operatsiyalari: yangi bilimlarni mavjud bilimlar bilan integratsiya qilish.

Ushbu jarayonlar o‘quvchilarning intellektual rivojlanish darajasi, motivatsiyasi, axborotni qayta ishlash tezligi va emotsional barqarorligiga bevosita bog‘liq.

2. Metakognitiv monitoring. Metakognitsiya tanqidiy fikrlashning yadrosi hisoblanadi. U o‘z fikrlash jarayonini nazorat qilish, tahlil qilish va boshqarish imkonini beradi. Metakognitiv monitoring quyidagilarni o‘z ichiga oladi: fikrlash strategiyasini tanlash; fikrlash jarayonini kuzatish; xatolarni anglash va tuzatish; fikrlashni rejalashtirish; qaror qabul qilish sifatini baholash.

Zamonaviy psixologiyada metakognitiv yondashuv tanqidiy fikrlashning rivojlanishida asosiy vosita sifatida e’tirof etiladi.

3. Emotsional-intellektual omillar. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda emotsional intellekt muhim rol o‘ynaydi. Shaxsning emotsional barqarorligi, tashqi bosimlarga chidamliligi, qarama-qarshi fikrlarni qabul qila olish qobiliyati ratsional fikr yuritishga imkon yaratadi. Muhim psixologik sifatlar: ochiq fikrlilik; dalillarga tayanish odati; shoshqaloqlikdan tiyilish; refleksiv tahlil.

Tanqidiy fikrlashning pedagogik asoslari.

1. Konstruktiv yondashuv**.** Konstruktivizmga ko‘ra, bilim o‘quvchiga tayyor ko‘rinishda berilmaydi, balki faol o‘quv jarayonida yaratiladi. O‘qituvchining vazifasi — vaziyat yaratish, yo‘naltirish, resurs berish va tahlilni rag‘batlantirishdir.

2. Muammoli ta’lim. Muammoli vaziyatlar o‘quvchini izlanishga undaydi, bilishga bo‘lgan ehtiyojni kuchaytiradi, tanqidiy fikr yuritishni faollashtiradi.

3. Refleksiv yondashuv. Refleksiya o‘quvchi uchun “fikrlashni o‘ylash” imkonini beradi. Bu jarayon tanqidiy fikrlashni mustahkamlaydi va qarorlarning sifatini oshiradi [3].

Zamonaviy psixologik-pedagogik metodlar.

Design Thinking (dizayn-o‘ylash). Innovatsion muammolarni hal etishda qo‘llaniladigan metod. O‘quvchilarda empatiya, tahlil, g‘oya yaratish, prototiplash va baholash ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Socratic questioning — Sokrotik savollar. Javob berishga emas, fikrlashga majbur qiladigan mantiqiy savollar tizimi.

Blooming questions metodikasi (Bloom taksonomiyasiga asoslangan). Savollar darajasi — eslab qolishdan tortib tahlil, yaratishgacha.

Case-inquiry (iloji boricha tadqiqotga yo‘naltirilgan keyslar). Oddiy keyslardan farqli ravishda o‘quvchi savollar qo‘yadi, dalillar yig‘adi, tahlil qiladi.

Peer Review — o‘zaro baholash. O‘quvchilar bir-birining fikrini, javobini, loyihasini tanqidiy tahlil qiladi. Bu orqali konstruktiv tanqid madaniyati shakllanadi.

Munozara.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish faqat biror metod yoki texnika bilan chegaralanmaydi. Bu jarayon psixologik

komponentlar (kognitiv, metakognitiv, emotsional) bilan pedagogik omillar (faol metodlar, muammoli ta’lim, refleksiya)ning uzviy birligida amalga oshiriladi. Shuningdek, raqamli texnologiyalarning o‘quv jarayoniga kirib kelishi tanqidiy fikrlashga qo‘yiladigan talablarni yanada oshirmoqda. O‘quvchi:

- axborotni tekshira olishi;
- yolg‘on ma’lumotlarni aniqlashi;
- fikrlar xilma-xilligini baholashi;
- mustaqil qaror qabul qilishi;
- dalillar bilan ishlay olishi.

O‘qituvchining roli ham o‘zgarib bormoqda — u bilim beruvchi emas, balki muhit yaratuvchi, yo‘naltiruvchi, muloqot tashkil etuvchi moderatorga aylanmoqda.

Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish zamonaviy ta’limning poydevor vazifasini bajaradi. Psixologik yondashuvlar tanqidiy fikrlashning ichki (kognitiv, metakognitiv, emotsional) mexanizmlarini izohlasa, pedagogik yondashuvlar bu jarayonni o‘quv faoliyati orqali tashkillashtirish strategiyalarini belgilaydi [4].

Tadqiqot asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

-tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda metakognitiv yondashuv hal qiluvchi rol o‘ynaydi;

-muammoli ta’lim, dizayn-o‘ylash, dalillarga asoslangan fikrlash va argument xaritalari eng samarali metodlar sifatida namoyon bo‘ladi;

-raqamli muhitda tanqidiy fikrlashni shakllantirish uchun maxsus raqamli topshiriqlar, simulyatsiyalar va AI bilan ishlash kompetensiyalari talab qilinadi;
-tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun ta’lim jarayoni kompleks, tizimli va maqsadli bo‘lishi zarur.

Xulosa.

So‘nggi yillarda uzluksiz ta’lim tizimida olib borilayotgan islohotlar, yangi davlat ta’lim standartlari va innovatsion texnologiyalar, interfaol metodlarning keng qo‘llanilishi o‘quvchilarda mustaqil fikrlash va tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga xizmat qilmoqda. O‘qituvchilar dars jarayonida mustaqil fikr almashuv, hamkorlikda ishlash, muammoli topshiriqlar, muammoli savollar va loyiha ishlari

orqali tanqidiy tafakkurni shakllantirmoqda. Demak, xulosa siatida shuni aytish kerakki, o‘quvchilarda ijodkorlik va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish – zamonaviy ta’limning eng muhim maqsadlaridan biridir. Bu jarayon o‘quvchilarning mustaqil qaror qabul qilishi, ijodiy fikrlashi va kelajak hayotida to‘g‘ri yo‘l tanlashi hamda mantiqiy tafakkurining rivojlanishi uchun zarurdir. Pedagogik-psixologik shart-sharoit va psixologik omillarni hisobga olgan holda tanqidiy fikrlashni shakllantirish ta’lim jarayonining samaradorligini oshiradi, o‘quvchi shaxsining intellektual va ijtimoiy rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. **Karimov F., Yo‘ldoshev J., Matjonov I.** Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish texnologiyalari. – Toshkent: Innovatsiya, 2021.
2. **Raxmonov H.** Interfaol metodlar va tanqidiy fikrlash. – Toshkent: O‘zbekiston Fan nashriyoti, 2020.
3. **Yo‘ldoshev J.** Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2013.
4. **Qodirova F.** O‘quvchilar tafakkurini rivojlantirishning metodik asoslari. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2019.

INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR YORDAMIDA SHAFFOF VA ADOLATLI BAHOLASH TIZIMI

Soatov Anvar Mahkamovich

Jizzax politexnika instituti

Annotatsiya: *Bugungi kunda ta’lim sifatini oshirishda baholash tizimining shaffofligi va adolatliligi eng muhim omillardan biri hisoblanadi. An’anaviy*

baholash usullarida inson omiliga bog‘liq sub’ektivlik va xatolik ehtimoli yuqori bo‘lgani uchun innovatsion texnologiyalardan foydalanish zarurati ortib bormoqda. Sun’iy intellekt, raqamli platformalar, blokcheyn texnologiyasi, avtomatlashtirilgan test tizimlari va katta ma’lumotlar tahlili baholash jarayonida xolislik, tezkorlik va shaffoflikni ta’minlaydi. Ushbu tadqiqotda innovatsion texnologiyalar yordamida adolatli baholash tizimini shakllantirishning nazariy asoslari, xalqaro tajribasi hamda milliy ta’lim amaliyotida qo‘llash imkoniyatlari yoritilgan. Shuningdek, ta’lim tizimida korrupsion omillarni kamaytirish, baholash natijalarini xolis va ishonchli qilishda ilg‘or texnologiyalarning o‘rni tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: *Shaffof baholash, adolatli baholash, innovatsion texnologiyalar, sun’iy intellekt, blokcheyn, raqamli platformalar, avtomatlashtirilgan tizim, katta ma’lumotlar tahlili, xolislik, ta’lim sifati.*

So‘nggi yillarda ta’lim tizimida baholash jarayonining adolatli va shaffof bo‘lishi global miqyosda dolzarb masalaga aylanmoqda. An’anaviy baholash usullari ko‘pincha inson omiliga bog‘liq sub’ektiv qarorlar, xatoliklar va korrupsion xavflarni keltirib chiqaradi. Masalan, 2023-yilda Jahon Banki ta’lim sifatini baholash bo‘yicha o‘tkazgan tadqiqotida rivojlanayotgan mamlakatlarda o‘quvchilarning 27 foizi baholash jarayonida xolislik yetishmasligidan aziyat chekishi qayd etilgan.

Innovatsion texnologiyalar ushbu muammoni hal qilishda samarali vosita sifatida namoyon bo‘lmoqda. Masalan, Estoniya, Janubiy Koreya va Finlyandiya kabi ilg‘or davlatlarda raqamli platformalar va sun’iy intellekt algoritmlari yordamida baholash natijalarining aniqligi va shaffofligi ta’minlanmoqda. Estoniyada maktab bitiruv imtihonlarining 90% dan ortig‘i avtomatlashtirilgan tizimlar orqali qayta ishlanib, inson omilidan kelib chiqadigan xatoliklar minimal darajaga tushirilgan.

Blokcheyn texnologiyasi ham baholash jarayoniga joriy etilmoqda. Bu usul orqali baholash natijalari o‘zgartirilmas, ishonchli va hamma uchun ochiq ko‘rinishda saqlanadi. Masalan, Hindistonning ayrim universitetlarida blokcheyn

asosidagi diplom va baholash tizimlari yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, ular natijalarni soxtalashtirish xavfini bartaraf etmoqda.

O‘zbekiston ta’lim tizimida ham so‘nggi yillarda raqamli baholash vositalaridan foydalanish kengaymoqda. Masalan, 2024-yilda Davlat test markazida joriy etilgan elektron test tizimlari natijalarning onlayn shaklda e’lon qilinishi orqali abituriyentlar va jamoatchilikka ochiq bo‘ldi. Bu esa shaffoflikni oshirish bilan birga, ta’lim tizimiga bo‘lgan ishonchni kuchaytirdi.

Demak, innovatsion texnologiyalar yordamida shaffof va adolatli baholash tizimini shakllantirish nafaqat ta’lim sifatini oshirish, balki jamiyatda ijtimoiy adolat tamoyillarini mustahkamlashga ham xizmat qiladi.

Xo‘sh shunday ekan, endi ushbu mavzu bo‘yicha mavjud muammolar, ularni bartaraf etish yo‘llari va aniq takliflarni ham ko‘rib chiqamiz, yani:

Mavjud muammolar, ularning yechimlari va takliflar

№	Muammolar	Yechimlar	Takliflar
1.	**Sub’ektivlik va inson omiliga yuqori darajada bog‘liqlik**	Sun’iy intellekt va avtomatlashtirilgan baholash tizimlarini joriy etish	O‘zbekiston ta’lim tizimida AI asosidagi baholash algoritmlarini sinovdan o‘tkazib, bosqichma-bosqich joriy qilish
2.	**Shaffoflikning yetishmasligi**	Baholash jarayonlarini onlayn kuzatish va natijalarni ochiq e’lon qilish	Yagona raqamli baholash platformasini yaratish va barcha o‘quv muassasalarida majburiy qo‘llash
3.	**Baholash natijalarini**	Blokcheyn texnologiyasi asosida natijalarni saqlash va tasdiqlash	Baholarni o‘zgartirib bo‘lmaydigan blokcheyn reyestrini joriy qilish

№	Muammolar	Yechimlar	Takliflar
	soxtalashtirish xavfi		
4.	**Mutaxassislarning raqamli savodxonlik darajasi pastligi**	O‘qituvchilar uchun doimiy treninglar va malaka oshirish dasturlarini tashkil etish	Har yili pedagoglarni raqamli baholash metodlari bo‘yicha xalqaro treninglarda ishtirok ettirish
5.	**Moliyaviy resurslarning yetarli emasligi**	Davlat-xususiy sheriklik asosida texnologik loyihalarni moliyalashtirish	Innovatsion baholash tizimlariga oid startap va loyihalar uchun maxsus grant dasturlari joriy etish
6.	**Ma’lumotlar xavfsizligi va maxfiylik muammolari**	Kiberxavfsizlik standartlariga mos sertifikatlangan dasturlardan foydalanish	Baholash jarayonida shifrlash texnologiyalari va xalqaro ISO standartlarini tatbiq etish
7.	**Huquqiy-me’yoriy bazaning to‘liq shakllanmaganligi**	Zamonaviy texnologiyalarni qo‘llashni tartibga soluvchi qonun va normativlarni ishlab chiqish	Raqamli baholash kodeksi”ni ishlab chiqish va qonuniy kuchga kiritish

Baholash tizimida eng katta muammolar sifatida inson omiliga bog‘liq sub’ektivlik, shaffoflikning yetishmasligi, natijalarni soxtalashtirish xavfi, raqamli savodxonlikning pastligi, moliyaviy ta’minot muammolari va ma’lumotlar xavfsizligi ko‘rsatib o‘tiladi.

Ularni bartaraf etish uchun sun’iy intellekt va avtomatlashtirilgan tizimlarni joriy etish, natijalarni blokcheyn orqali himoyalash, yagona raqamli platforma

yaratish, o‘qituvchilarni muntazam ravishda malaka oshirish hamda kiberxavfsizlik standartlariga rioya qilish muhim hisoblanadi.

Taklif sifatida esa O‘zbekistonda AI asosidagi baholash tizimlarini bosqichma-bosqich joriy qilish, raqamli baholash kodeksini ishlab chiqish, davlat-xususiy sheriklik asosida loyihalarni moliyalashtirish va startaplarni qo‘llab-quvvatlash zarur. Shu orqali baholash tizimida shaffoflik, adolat va ishonchlilikni ta’minlash mumkin bo‘ladi.

Innovatsion texnologiyalar va raqamli yechimlar yordamida baholash tizimini tubdan takomillashtirish imkoniyati mavjud. Bugungi kundagi asosiy muammolar - inson omili ta’siri, shaffoflikning yo‘qligi, natijalarda ishonchsizlik va raqamli savodxonlik pastligi - to‘g‘ri va adolatli baholash jarayoniga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Shu bois, sun’iy intellekt, avtomatlashtirilgan platforma va blokcheyn kabi ilg‘or texnologiyalarni joriy etish orqali baholash jarayonlarini nazorat qilish, ob’ektivlikni ta’minlash hamda ma’lumotlar xavfsizligini kafolatlash mumkin. Shu bilan birga, o‘qituvchilar va mutaxassislarning raqamli ko‘nikmalarini rivojlantirish ham dolzarb ahamiyatga ega.

O‘zbekistonda bunday yangicha yondashuvlarni bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish, maxsus normativ-huquqiy bazani shakllantirish va davlat-xususiy sheriklik asosida moliyaviy ko‘mak berish orqali tizimning samaradorligini oshirish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, innovatsion texnologiyalarga tayanadigan baholash tizimi kelajakda shaffoflik, adolat va ishonchni ta’minlaydigan muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. **Andersen N., Mang J., Goldhammer F. va boshq.** Algorithmic fairness in automatic short answer scoring // International Journal of Artificial Intelligence in Education. – 2025.

2. **Xia Q., Weng X., Ouyang F. va boshq.** A scoping review on how generative artificial intelligence transforms assessment in higher education // International Journal of Educational Technology in Higher Education. – 2024.
3. **Simbeck K.** They shall be fair, transparent, and robust: auditing learning analytics systems // AI and Ethics. – 2024.
4. **Rasooli A.** Digital module 33: fairness in classroom assessment: dimensions and tensions // Educational Measurement: Issues and Practice. – 2023.

RAQAMLI HUQUQIY MADANIYAT TUSHUNCHASI VA UNING AHAMIYATI

Soliyev Abdullo Olimjon o`g`li
Andijon davlat pedagogika instituti

Annotatsiya: *Ushbu tezis raqamli huquqiy madaniyat tushunchasining falsafiy-huquqiy mazmunini aniqlash, uning tarkibiy unsurlari va ijtimoiy ahamiyatini asoslashga qaratilgan. Tadqiqotda kontseptual tahlil, normativ manbalarni talqin qilish va qiyosiy yondashuv qo‘llanadi. Ilmiy yangilik raqamli huquqiy madaniyat mezonlari va institutsional shakllarini tizimlashtirishdadir.*

Kalit so‘zlar:*raqamli huquqiy madaniyat, huquqiy ong, axborot xavfsizligi, raqamli savodxonlik, elektron xizmatlar, huquqiy xulq-atvor, normativ muhit*

Raqamli transformatsiya sharoitida huquqiy tartibotning barqarorligi nafaqat normativ-huquqiy hujjatlar sifatiga, balki huquq subyektlarining yangi texnologik muhitdagi xulq-atvoriga ham bevosita bog‘liq bo‘lib bormoqda. Shu ma’noda “raqamli huquqiy madaniyat” atamasi oddiy ravishda internetdan foydalanish

ko‘nikmalarini emas, balki huquqiy qadriyatlarning, huquqiy ongning va huquqiy amaliyotning raqamli vositalar orqali ifodalanishi hamda mustahkamlanishini anglatadi. Mazkur tushuncha 09.00.04 ixtisosligi doirasida, ya’ni ijtimoiy falsafa va huquq falsafasi kesishgan nuqtada talqin qilinganda, u jamiyatning texnologik vositachilik orqali o‘zini tartibga solish qobiliyati, shaxs erkinliklari va mas’uliyatining yangi muvozanati, shuningdek, normativ talablarning kundalik raqamli tajriba orqali ichkilashtirilishi jarayonini yoritadi. Raqamli huquqiy madaniyatning dolzarbligi shundan iboratki, raqamli platformalar, elektron davlat xizmatlari, masofaviy shartnomalar va ma’lumotlar aylanishi huquqiy munosabatlarni tezlashtiradi, biroq bir vaqtning o‘zida xatolik, manipulyatsiya va huquqbuzarliklar uchun yangi imkoniyatlar ham yaratadi. Demak, raqamli huquqiy madaniyat huquqiy xavfsizlikning ijtimoiy poydevori sifatida ko‘rilishi mumkin.

Tadqiqotning metodologik tayanchi bir nechta o‘zaro bog‘liq yondashuvlardan iborat. Birinchidan, kontseptual tahlil orqali “madaniyat”, “huquqiy madaniyat”, “huquqiy ong” va “raqamli savodxonlik” kabi kategoriyalar o‘rtasidagi chegaralar aniqlanadi. Ikkinchidan, normativ talqin usuli raqamli muhitda huquqning amal qilishi qanday prinsiplarga tayanishini ochib beradi: shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish, axborot xavfsizligi, elektron identifikatsiya, elektron dalillar, masofaviy bitimlarning haqiqiyligi kabi masalalarda huquqiy talablarga rioya etishning ichki mantiqi tushuntiriladi. Uchinchidan, qiyosiy yondashuv turli ilmiy maktablarda huquqiy madaniyatni izohlash usullarini solishtirishga imkon beradi: huquqiy madaniyatni qadriyatlar tizimi sifatida tushuntiruvchi konsepsiyalar, uni institutsional amaliyotlar majmuasi sifatida talqin qiluvchi yondashuvlar hamda huquqni kommunikatsiya shakli sifatida ko‘ruvchi nazariy qarashlar o‘rtasidagi farqlar ochiladi [2; 6]. Mazkur metodlar birgalikda raqamli huquqiy madaniyatni nafaqat texnik ko‘nikmalar, balki huquqiy normalarni anglash va ularga muvofiq harakat qilishning barqaror odatlari sifatida tahlil qilishga xizmat qiladi.

Raqamli huquqiy madaniyatning tarkibiy tuzilmasini aniqlashda odatda uch qatlam ajratish maqsadga muvofiq: kognitiv, aksiologik va prakseologik. Kognitiv

qatlam shaxsning raqamli muhitda huquqiy axborotni topish, tekshirish, tahlil qilish va undan foydalanish qobiliyatini bildiradi. Bu yerda “huquqiy axborot” tushunchasi keng ma’noda olinadi: normativ hujjatlar matni, davlat organlarining rasmiy izohlari, sud amaliyoti, elektron shartnomalar shartlari, shaxsiy ma’lumotlarga rozilik siyosatlari va platforma qoidalari. Kognitiv savodxonlik faqat o‘qish va qidirish emas, balki huquqiy ma’lumotning ishonchliligini baholash, soxta yoki manipulyativ kontentni ajratish, raqamli izlar oqibatini oldindan ko‘ra bilish bilan ham belgilanadi. Aksiologik qatlam esa huquqiy qadriyatlarning raqamli tajribada namoyon bo‘lishi, ya’ni qonuniylik, adolat, shaxs qadr-qimmati, shaxsiy hayot daxlsizligi, mulkiy manfaatlar himoyasi kabi qadriyatlarning “platforma qulayligi” yoki “tezkorlik” kabi omillar bilan to‘qnashgan vaziyatlarda ham ustuvorligini saqlab qolishidir. Prakseologik qatlam esa aynan xulq-atvor darajasida ko‘rinadi: elektron imzodan to‘g‘ri foydalanish, shaxsiy ma’lumotlar bilan ehtiyotkor muomala qilish, elektron shartnomalarni ongli ravishda tuzish, kibertahdidlar bo‘yicha minimal profilaktik choralarni ko‘rish, nizolarni qonuniy usulda hal qilish va raqamli muhitda boshqalarning huquqlarini hurmat qilish. Huquqiy madaniyatning ushbu qatlamlari o‘zaro uyg‘un bo‘lmaganda, masalan, texnik jihatdan faol, ammo huquqiy qadriyatlari sust subyekt shakllanganda, raqamli muhitda opportunistik xulq-atvor kuchayishi mumkin.

Raqamli huquqiy madaniyatni asoslashda huquqning ijtimoiy tartibotdagi roli haqidagi umumiy falsafiy xulosalarga tayanish zarur. Huquqiy tartibot odamlarga tashqi majburlash orqali emas, ko‘p hollarda “ichki rozilik” va normativ kutishlar orqali ta’sir qiladi. Huquqiy ong va huquqiy madaniyat ana shu ichki mexanizmning mezonidir. Raqamli muhit bu mexanizmni murakkablashtiradi, chunki muomala ko‘pincha bevosita insonlar o‘rtasida emas, balki interfeyslar, algoritmlar va avtomatlashtirilgan qoidalar orqali amalga oshadi. Shu sababli huquqiy normalar ko‘pincha “ko‘rinmas” bo‘lib qoladi: foydalanuvchi shartlarni o‘qimasdan rozilik beradi, platforma qoidalarini anglamasdan kontent joylaydi, shaxsiy ma’lumotlarining qayta ishlanish zanjirini tasavvur qilmaydi. Bunday vaziyatda raqamli huquqiy madaniyat huquqiy ongning zamonaviy shakli sifatida insonning

huquqiy mas’uliyatini “interfeys ortida” ham saqlab qolishga xizmat qiladi. Huquqni kommunikativ tizim sifatida talqin qiluvchi konsepsiyalar raqamli muhitda ayniqsa muhim: chunki huquqiy mazmun ko‘pincha kodlangan qoidalar, avtomatik tekshiruvlar, identifikatsiya protokollari, raqamli dalillar va loglar orqali uzatiladi [6]. Demak, raqamli huquqiy madaniyat huquqning semantik qatlamini texnologik tashuvchilar bilan moslashtirishni ham o‘z ichiga oladi.

Raqamli huquqiy madaniyatning amaliy ahamiyati birinchi navbatda huquqbuzarliklarning oldini olish bilan bog‘liq. Shaxsiy ma’lumotlarning muhofazasi sust bo‘lgan jamiyatda firibgarlik, identifikatsiya o‘g‘riligi, ijtimoiy muhandislik kabi xavflar oson kengayadi. Bunda faqat jazolash mexanizmlariga tayanish yetarli emas, chunki raqamli huquqbuzarliklar tez moslashadi va transchegaraviy xususiyat kasb etadi. Preventiv yondashuv sifatida huquqiy madaniyatni oshirish, xususan, huquqiy xabardorlikni raqamli savodxonlik bilan birlashtirish muhimdir. Shu o‘rinda raqamli huquqiy madaniyatni “kompetensiyalar majmuasi” sifatida o‘lchash masalasi ham dolzarb: foydalanuvchining elektron xizmatlardan foydalanishida qonuniylik mezonlariga rioya etish, shaxsiy ma’lumotlar bo‘yicha rozilikni ongli boshqarish, onlayn shartnomalarda risklarni baholash, raqamli dalillarni saqlash va nizolarni hal etish uchun protsessual vositalarni bilish kabi ko‘rsatkichlar taklif etilishi mumkin. Bunday yondashuv huquqiy tarbiya va huquqiy ta’limni amaliy natijalar bilan bog‘lash imkonini beradi [1; 4].

Ikkinchidan, raqamli huquqiy madaniyat elektron davlat boshqaruvi va elektron xizmatlar samaradorligining ijtimoiy shartidir. Elektron xizmatlar texnik jihatdan mukammal bo‘lsa-da, foydalanuvchi o‘z huquq va majburiyatlarini anglamasa, ishonch darajasi pasayadi, norozilik va nizolar ko‘payadi, “norasmiy vositachilik” qayta tiklanishi mumkin. Shuning uchun raqamli huquqiy madaniyatni rivojlantirish davlat va jamiyat uchun tranzaksiya xarajatlarini kamaytiradi: hujjatlarni to‘g‘ri topshirish, elektron murojaatlarni asosli rasmiylashtirish, raqamli identifikatsiyadan qonuniy foydalanish, shikoyat qilish tartiblarini bilish kabi omillar boshqaruvning sifat ko‘rsatkichlariga aylanadi. Bu jarayonda huquqiy

madaniyat faqat fuqarolarga qo‘yiladigan talab emas, balki davlat organlari va xizmat ko‘rsatuvchi tashkilotlarning ham raqamli etikasi va huquqiy mas’uliyatini anglatadi: shaffof algoritmik qarorlar, tushunarli foydalanuvchi kelishuvlari, ma’lumotlarni minimallashtirish, kiberxavfsizlik standartlariga amal qilish va “zarur tushuntirish” tamoyilini joriy etish shular jumlasidandir [5]. Raqamli huquqiy madaniyat shu tariqa ikki tomonlama institutsional ishonchni shakllantiradi.

Uchinchidan, raqamli huquqiy madaniyat iqtisodiy muomalalar barqarorligini ta’minlaydi. Raqamli platformalarda tuziladigan bitimlar, elektron to‘lovlar, masofaviy xizmatlar bozorida huquqiy aniqlik va ishonch muhim resursga aylanadi. Shartnomaviy intizomning pasayishi yoki “tezkor foyda” motivi ustuvor bo‘lsa, iqtisodiy munosabatlar noaniqlashadi, nizolar ko‘payadi, innovatsion faoliyatga ishonch susayadi. Bu yerda huquqiy madaniyat iqtisodiy ratsionallik bilan uzviy bog‘lanadi: shaxs o‘z manfaatini himoya qilish uchun huquqiy mexanizmlardan ongli foydalanadi, risklarni huquqiy vositalar bilan boshqaradi, intellektual mulk, iste’molchi huquqlari va elektron dalillar masalalarida mas’uliyatli qarorlar qabul qiladi [3]. Demak, raqamli huquqiy madaniyat iqtisodiy rivojlanishning ham yumshoq infratuzilmasi sifatida namoyon bo‘ladi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi raqamli huquqiy madaniyatni huquqiy ongning zamonaviy shakli sifatida talqin qilish, uning mezonlarini uch qatlamli model asosida asoslash va institutsional mexanizmlar bilan bog‘lashda ko‘rinadi. Mazkur yondashuv raqamli muhitda huquqiy normalarning “ko‘rinmasligi” muammosini markazga chiqaradi: huquqiy tartibotning samaradorligi endi faqat matn va institutlarga emas, balki interfeyslar, xizmat dizayni, avtomatlashtirilgan tekshiruvlar va axborot arxitekturasi orqali beriladigan normativ signallarga ham tayanadi. Shuning uchun huquqiy madaniyatni rivojlantirish choralarini belgilashda an’anaviy targ‘ibot bilan cheklanmasdan, raqamli xizmatlarda huquqiy tushunarlilik, rozilikning ongli modeli, shaxsiy ma’lumotlar bilan ishlashda mas’uliyatli standartlar, shuningdek, ta’lim dasturlarida “raqamli huquqiy kompetensiyalar”ni integratsiya qilish zarur.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, raqamli huquqiy madaniyat raqamli jamiyatda huquqiy tartibotning barqarorligini ta’minlaydigan, shaxs erkinliklari va mas’uliyatini muvozanatlashtiradigan hamda institutlar va fuqarolar o‘rtasida ishonchni kuchaytiradigan kompleks ijtimoiy hodisadir. U kognitiv bilim, qadriyaviy yo‘nalish va amaliy xulq-atvor birligi orqali namoyon bo‘ladi; elektron xizmatlar, shartnomaviy muomala va axborot xavfsizligi sohalarida huquqbuzarliklarning oldini olish hamda huquqiy muhofaza mexanizmlarini samarali ishlatishga sharoit yaratadi. Raqamli huquqiy madaniyatni rivojlantirish ta’lim, huquqni qo‘llash amaliyoti va raqamli xizmatlar dizaynini bir yo‘nalishda uyg‘unlashtirgan holda olib borilgandagina barqaror natija beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. **Saidov A. X.** Huquqiy madaniyat va huquqiy ta’lim masalalari. – Toshkent: O‘zbekiston, 2019. – 216 b.
2. **Венгеров А. Б.** Теория государства и права. – Москва: Омега-Л, 2018. – 608 с.
3. **Lessig L.** Code: And Other Laws of Cyberspace. – New York: Basic Books, 2006. – 410 p.
4. **Xudayberganov A. A.** Huquqiy ong va huquqiy madaniyat: nazariya va amaliyot. – Toshkent: Adolat, 2020. – 184 b.
5. **Floridi L.** The Ethics of Information. – Oxford: Oxford University Press, 2013. – 343 p.
6. **Луман Н.** Право как социальная система. – Санкт-Петербург: Владимир Даль, 2004. – 432 с.

Soliyev Abdullo Olimjon o`g`li
Andijon davlat pedagogika instituti

Annotatsiya. *Ushbu tezis raqamli huquqlar tushunchasining nazariy-huquqiy asoslarini va uning inson huquqlari tizimidagi funksional o‘rnini tahlil qiladi. Tadqiqotda doktrinal tahlil, qiyosiy yondashuv hamda normativ manbalarni sharhlash usullari qo‘llanadi. Ilmiy yangilik raqamli huquqlarni klassik huquqlar bilan uzviy bog‘lovchi mezonlar va ularning kafolat mexanizmlarini tizimlashtirishdadir.*

Kalit so‘zlar*. Raqamli huquqlar, inson huquqlari tizimi, shaxsiy hayot daxlsizligi, axborot erkinligi, ma’lumotlarni himoya qilish, platforma javobgarligi, algoritmik boshqaruv.*

Raqamli transformatsiya jamiyatning ijtimoiy aloqalari, iqtisodiy muomalalari va davlat boshqaruvi shakllarini tubdan o‘zgartirar ekan, huquq nazariyasida “raqamli huquqlar” atamasi mustaqil ilmiy kategoriya sifatida mustahkamlanib bormoqda. Mazkur tushuncha ko‘pincha yangi texnologiyalar bilan bevosita bog‘langan, internet va raqamli infratuzilmadan foydalanish jarayonida yuzaga keladigan vakolatlar majmui sifatida talqin qilinadi. Biroq raqamli huquqlarni faqat “internetda mavjud bo‘lgan” yoki “elektron shaklda amalga oshiriladigan” huquqlar darajasida tushunish nazariy jihatdan torlik qiladi. Chunki inson huquqlari tizimi tarixan texnik muhitdan qat’i nazar shaxsning qadr-qimmati, erkinligi va xavfsizligini ta’minlashga qaratilgan me’yoriy-bahoiy konstruktsiyadir. Shu bois raqamli huquqlar masalasini inson huquqlarining umumiy tizimiga bog‘lab o‘rganish, ularning manbai, mazmuni va kafolatlarini aniqlash ilmiy zaruratga aylanmoqda.

Raqamli huquqlar tushunchasini aniqlashda ikki yo‘nalish ko‘zga tashlanadi. Birinchi yo‘nalish raqamli huquqlarni yangi avlod huquqlari sifatida, ya’ni texnologik taraqqiyot natijasida paydo bo‘lgan mustaqil huquqlar majmui tarzida

izohlaydi; bunda internetga ulanish, tarmoq neytralligi, shaxsiy ma’lumotlarni nazorat qilish, algoritmik qarorlardan shikoyat qilish kabi vakolatlar alohida huquqlar sifatida ko‘riladi [3]. Ikkinchi yo‘nalish esa raqamli huquqlarni klassik inson huquqlarining raqamli muhitdagi ifodasi va amalga oshish shakli deb baholaydi: masalan, fikr bildirish erkinligi internet platformalari orqali yangi ko‘rinish oladi, shaxsiy hayot daxlsizligi esa katta ma’lumotlar va kuzatuv texnologiyalari sharoitida yangi xavf-xatarlar bilan yuzlashadi [5]. Ushbu tezisda metodologik jihatdan ikkinchi yondashuv afzal ko‘riladi, chunki u inson huquqlarining universalligi prinsipini saqlagan holda, raqamli muhitda huquqlarni ta’minlashning maxsus mexanizmlarini ishlab chiqishga imkon beradi. Shu bilan birga, ayrim institutlar (masalan, shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish) amaliyotda shunchalik murakkablashdiki, ular klassik huquqlardan ajralib, alohida normativ blok sifatida shakllanayotganini ham inkor etib bo‘lmaydi [6].

Raqamli huquqlarni inson huquqlari tizimidagi o‘rnini belgilash uchun avvalo tizim tushunchasining o‘zi aniqlashtirilishi lozim. Huquqlar tizimi odatda shaxsiy (fuqaroviy), siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy huquqlar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni, shuningdek ularning umumiy tamoyillarini (qadr-qimmat, tenglik, diskriminatsiyadan xoli bo‘lish, adolatli muvozanat) aks ettiradi. Raqamli huquqlar bu tasnifni bekor qilmaydi, aksincha, mavjud huquqlarni amalga oshirish sharoitlarini o‘zgartirib, ularning qo‘llanish doirasini kengaytiradi. Masalan, axborot erkinligi endilikda nafaqat davlatdan axborot olish, balki platformalarning kontentni moderatsiya qilish amaliyoti, tavsiya algoritmlarining axborotga kirishni qanday shakllantirishi va raqamli savodxonlik darajasi bilan uzviy bog‘liq. Demak, raqamli huquqlar tizim ichida “kesishuvchi” xarakter kasb etadi: u bir vaqtning o‘zida shaxsiy hayot, so‘z erkinligi, mulkiy manfaatlar va adolatli sudlov bilan aloqador bo‘lishi mumkin.

Raqamli huquqlarni aniqlashda mezonlar taklif etish ilmiy jihatdan muhim. Birinchi mezon shundan iboratki, huquqning amalga oshirilishi raqamli infratuzilma va ma’lumotlar aylanishiga funksional bog‘liq bo‘lsa, u raqamli muhitda maxsus kafolat talab qiladi. Ikkinchi mezon huquqning buzilish usuli raqamli texnologiyalar

orqali masshtabli va yashirin bo‘lishi bilan izohlanadi: masalan, ruxsatsiz profil tuzish, geolokatsion kuzatuv, identifikatsiya qilish yoki ma’lumotlarni birlashtirish an’anaviy aralashuvlarga nisbatan kuchliroq ta’sir ko‘rsatadi [5]. Uchinchi mezon esa javobgar subyektlarning tarkibi kengayishi bilan bog‘liq: raqamli muhitda huquqlarni cheklash yoki ta’minlashda davlat bilan bir qatorda platformalar, provayderlar, ma’lumotlar brokerlari va algoritmik tizimlarni ishlab chiquvchilar real ta’sir kuchiga ega bo‘ladi [4]. Shu uch mezon raqamli huquqlarni inson huquqlari tizimida alohida tadqiq etish zaruratini asoslaydi.

Raqamli huquqlarning markaziy instituti sifatida shaxsiy hayot daxlsizligi va ma’lumotlarni himoya qilish masalasi ajralib turadi. Bu yerda gap faqat sir saqlash yoki “o‘zim haqimdagi ma’lumotni beraman-bermayman” ixtiyorida emas, balki shaxsni identifikatsiya qiluvchi ma’lumotlar oqimi ustidan nazorat, maqsadga muvofiqlik, minimallashtirish, saqlash muddati va xavfsizlik standartlari kabi murakkab talablar majmuida ketadi [6]. Raqamli muhitda rozilik instituti ham qayta o‘ylashni talab qiladi: foydalanuvchi ko‘pincha asimmetrik axborot sharoitida, uzun va tushunarsiz siyosatlarga “roziman” tugmasini bosish bilan cheklanadi. Shuning uchun huquq nazariyasida rozilikdan tashqari qonuniylik asoslari, manfaatlar muvozanati va xavflarni baholash kabi yondashuvlar kuchaymoqda. Bu hol raqamli huquqlarni faqat individual ixtiyor doirasida emas, balki tizimli himoya choralarini talab qiladigan huquqiy hodisa sifatida ko‘rsatadi.

Axborot erkinligi va fikr bildirish erkinligi raqamli muhitda ikki yoqlama transformatsiyaga uchraydi. Bir tomondan, internet shaxsga o‘z fikrini tezkor tarqatish, axborot manbalarini ko‘paytirish va jamoatchilik muhokamasida ishtirok etish imkonini berdi. Ikkinchi tomondan, platforma arxitekturasi, algoritmik tavsiyalar va kontentni moderatsiya qilish usullari axborot oqimining ko‘rinmas “qoidalari”ni yaratadi, natijada ayrim fikrlar ko‘tariladi, ayrimlari chetga suriladi [4]. Shuningdek, dezinformatsiya, avtomatlashtirilgan akkauntlar va manipulyativ texnikalar erkin muloqot muhitini izdan chiqarishi mumkin. Bu sharoitda huquqiy yechimlar faqat taqiqlashga tayanmasligi, balki shaffoflik, protsessual adolat, izoh berish majburiyati va shikoyat mexanizmlarini mustahkamlashi lozim. Raqamli

huquqlar tizimida “protsessual raqamli huquqlar” degan qatlam paydo bo‘layotgani ham shu bilan izohlanadi: foydalanuvchi kontenti o‘chirib tashlanganda yoki akkaunti cheklanganda qaror sabablari, apellyatsiya tartibi va mustaqil ko‘rib chiqish imkoniyatiga ega bo‘lishi kerak.

Adolatli sudlov va samarali huquqiy himoya vositalari raqamli muhitda alohida dolzarblik kasb etadi, chunki raqamli huquqbuzarliklar transchegaraviy, tezkor va dalillari o‘zgaruvchan bo‘ladi. Elektron dalillarning haqiqiyligi, yaxlitligi va kelib chiqish zanjiri masalalari sud amaliyotida muhim o‘rin tutadi. Bunda raqamli izlarni yig‘ish va saqlash protseduralari, ekspertiza metodlari, hamda shaxsning protsessual huquqlari o‘rtasidagi muvozanat asosiy mezonga aylanadi [2]. Shu bilan birga, nizolarni onlayn hal etish mexanizmlari (ODR) sudga murojaat qilishni yengillashtirishi mumkin, lekin ular shaffoflik va taraflarning teng imkoniyati tamoyillariga zid bo‘lmasligi shart. Demak, raqamli huquqlar inson huquqlari tizimida nafaqat moddiy huquqlarni, balki ularni himoya qilishning protsessual kafolatlarini ham qayta talqin qiladi.

Raqamli tenglik va inklyuzivlik masalasi ham inson huquqlari tizimidagi o‘rinni aniqlashda muhim. Raqamli xizmatlardan foydalanish imkoniyati hududiy, iqtisodiy va kompetensiya farqlari sabab cheklanishi mumkin. Bu hol insonning ta’lim olish, mehnat qilish, sog‘liqni saqlash xizmatlariga kirish kabi huquqlarini bilvosita susaytiradi. Shuning uchun raqamli huquqlar doirasida davlatning ijobiy majburiyatlari masalasi kuchayadi: infratuzilmani rivojlantirish, raqamli savodxonlikni oshirish, nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun mos dizayn talablarini joriy etish kabi choralar klassik huquqlarni real hayotda ta’minlashga xizmat qiladi [1]. Bunda raqamli huquqlar “faqat erkinlik” emas, balki “imkoniyat” sifatida ham ko‘riladi.

Ilmiy-nazariy xulosa sifatida, raqamli huquqlarni inson huquqlari tizimida uch pog‘onali model orqali izohlash maqsadga muvofiq: birinchi pog‘ona klassik huquqlarning raqamli muhitdagi tatbiqi (so‘z erkinligi, shaxsiy hayot daxlsizligi, mulk daxlsizligi); ikkinchi pog‘ona raqamli muhitga xos maxsus huquqiy institutlar (ma’lumotlarni himoya qilish, shaffoflik majburiyatlari, platforma protseduralari);

uchinchi pog‘ona esa kafolat va boshqaruv mexanizmlari (riskka asoslangan regulyatsiya, audit, hisobdorlik, nazorat organlari va samarali shikoyat tartiblari). Bu model raqamli huquqlarni “yangi huquqlar ro‘yxati” sifatida emas, balki inson huquqlarini raqamli muhitda amalga oshirishning tizimli konsepsiyasi sifatida ko‘rishga yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda, raqamli huquqlar inson huquqlari tizimining muqobil yo‘nalishi emas, balki uning zamonaviy sharoitdagi funksional davomidir. Raqamli muhit huquqlarni amalga oshirish imkoniyatlarini kengaytirgani singari, ularning buzilishi ko‘lamini ham oshiradi va javobgar subyektlar doirasini kengaytiradi. Shuning uchun raqamli huquqlarni ta’minlashda moddiy va protsessual kafolatlar bir butun ko‘rilishi, shaffoflik hamda hisobdorlik talablariga tayangan muvozanatli yondashuv ishlab chiqilishi lozim. Tezisda taklif etilgan mezonlar va uch pog‘onali model raqamli huquqlarni inson huquqlari nazariyasi bilan uzviy bog‘lash, hamda ularni huquqiy tartibga solishning izchil konseptual asoslarini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. **Saidov A. X.** Inson huquqlari : darslik. – Toshkent: Adolat, 2016. – 520 b.
2. **Abdumajidov F. A.** Jinoyat protsessida dalillar nazariyasi va amaliyoti : monografiya. – Toshkent: Yuridik adabiyotlar publish, 2019. – 304 b.
3. **Хабриева Т. Я., Черногор Н. Н.** Право в условиях цифровой реальности. – Москва: Норма, 2019. – 240 с.
4. **Balkin J. M.** Free Speech in the Algorithmic Society: Big Data, Private Governance, and New School Speech Regulation. – Boston: Boston University School of Law, 2018. – 52 p.
5. **Nissenbaum H.** Privacy in Context: Technology, Policy, and the Integrity of Social Life. – Stanford: Stanford University Press, 2010. – 304 p.
6. **Bygrave L. A.** Data Privacy Law: An International Perspective. – Oxford: Oxford University Press, 2014. – 272 p.

TALABALARDA HISOBLASH USULLARI FANINI DASTURIY-METODIK MAJMUALAR ORQALI MUSTAQIL O`ZLASHTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISHNING PEDAGOGIK MODELI

Soliyeva Gavharoy Yodgorjon qizi
Namangan davlat universiteti

Annotatsiya: *Ushbu tezisda hisoblash usullari fanini talabalarda mustaqil o`zlashtirishda dasturiy –metodik majmualarning o`rni va ularning bilim va ko`nikmalarini rivojlantirishda qo`llaniladigan metodikalar izohlab o`tilgan. Shuningdek talabalarning mustaqil ta'lim kompetensiyalarini shakllantirishning tashkiliy- pedagogik xususiyatlari yoritilib berilgan.*

Kalit so`zlar: *Dasturiy metodik majmua, hisoblash usullari, mustaqil ta'lim, kompetensiya, tashkiliy va pedagogik xususiyatlari va pedagogik model.*

Ta'rif: Bu ma'lum bir fan, kurs yoki ta'lim yo`nalishi uchun mo`ljallangan dasturiy ta'minot, uslubiy qo`llanma, o`quv rejalari, metodik materiallar va boshqa resurslarning integratsiyalangan to`plami – **Dasturiy-metodik majmua** deb ataymiz.

Dasturiy – metodik majmua atamasining **"dasturiy"** degan qismida mutaxassislik standarti, unga mos o`quv rejasi va fanning mazmunini ifodalovchi dasturlar bilan bir qatorda, kompyuter dasturiy ta'minoti asosida yaratilgan o`qitish jarayonini samaradorligini oshirishga yo`naltirilgan electron manbalar hamda ulardan, jumladan, multimedia va platforma vositalaridan foydalanishni ta'minlovchi dasturlar tushuniladi. Ya'ni "dasturiy" nomli atama bu holda variativ bo`lib, ishlatilish joyiga bog`liq ma'noga ega. Dasturiy metodik majmua o`qituvchining faoliyatida o`quv materialidan variativ foydalanishiga imkoniyat yaratadi va uning komponentlaridan biri – o`quv materialining electron formalarini

yaratishda an’anaviy metodik ishlanmalarni yaratishga nisbatan maxsus metodik yondashuvlarni qo`llanilishini talab etadi.

Modelda talabalarning mustaqil o’quv faoliyatlarini rivojlantirish uchun an’anaviy tarzdagi o’qituvchining faolligi va barcha materialni tushuntirish bilan bog’liq bo’lgan darslarning o’rniga ularning faolligini oshirish bilan bog’liq bo’lgan darslarni amalga oshirish hozirgi kundagi dolzarb masalalardan biridir. Shu munosabat bilan ta’lim jarayonida talabalarning mustaqil bilim olishlarini rivojlantirish, tashkil qilish, ularni mustaqil ravishda tegishli o’quv materialni izlash, topish, o’zlashtirish va bu o’quv materialarga bo’lgan ijodiy munosabatni shakllantirish muhim ahamiyatga egadir. O’qitish jarayonida talabalarning mustaqil o’quv faoliyatlarini rivojlantirish uchun zarur bo’lgan sharoitni hal qil ish yo’llarini birmuncha aniq belgilash uchun o’quv faoliyatning o’ziga xos bo’lgan ayrim pedagogik-psixologik tomonlarini qarab chiqish kerak bo’ldi. Mustaqil o’quv faoliyatning harakterli belgisi sifatidagi subyektiv yangilik talabaning o’quv faoliyatini boshqarish uchun imkoniyat yaratadi. Bunda talaba uchun noma’lum va yangilik bo’lgan narsa o’qituvchi uchun ma’lum bo’lishi shart va zarur.

Aynan shu sababli talabalarning mustaqil ta’lim kompetensiyalarini shakllantirish oliy ta’lim tashkiliy-pedagogik jarayonining muhim vazifasi hisoblanadi. Ushbu kompetensiyalar talabalarga kasbiy bilim va ko'nikmalarni muvaffaqiyatli o'zlashtirishga, o'z-o'zini tarbiyalash va o'z-o'zini rivojlantirishga, mustaqil kasbiy faoliyatga tayyorlashga yordam beradi.

Talabalarning mustaqil ta'lim kompetentsiyalarini shakllantirishning tashkiliy pedagogik xususiyatlari quyidagi jihatlarni o'z ichiga oladi:

- Talabaning faol pozitsiyasini rivojlantirish. O'quv jarayonini tashkil etish o'quvchilarning faolligi va mustaqilligini rivojlantirishga yordam berishi kerak. Bunga faol ta'lim usullarini qo'llash (guruhda ishlash, muammoli topshiriqlar, loyiha faoliyati), ma'lumotni (kutubxonalar, elektron resurslar) mustaqil izlash uchun shart-sharoitlarni yaratish, o'quvchilarning o'zini o'zi tashkil etishi va o'zini o'zi boshqarishini rag'batlantirish orqali erishish mumkin.

• Mustaqillik va o'z-o'zini nazorat qilishni rivojlantirish uchun sharoit yaratish. Talabalar o'z o'qishlarining maqsad va vazifalarini mustaqil ravishda belgilash, o'quv faoliyatini rejalashtirish, ularning natijalarini nazorat qilish imkoniyatiga ega bo'lishlari kerak. Shuningdek, o‘quvchilarning xato va kamchiliklarini tan olishlari, ularni bartaraf etish yo‘llarini taklif qilishlari mumkin bo‘lgan fikr-mulohazalar tizimini yaratish ham muhimdir.


• Axborotni mustaqil izlash va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish. Talabalar axborotni mustaqil izlash va tahlil qilishni, uning ishonchliligi va qo'llanilishini baholashni, mavjud ma'lumotlarga asoslanib qaror qabul qilishni o'rganishlari kerak.


• Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish. Internet tarmog‘i, elektron kutubxonalar, onlayn kurslar kabi zamonaviy texnologiyalar o‘quvchilarning mustaqil bilim olish jarayonini sezilarli darajada osonlashtirib, uni yanada samaraliroq qilish imkonini beradi. Ular sizga katta hajmdagi ma'lumotlarga kirish, boshqa talabalar va o'qituvchilar bilan muloqot qilish, tajriba va bilim almashish imkonini beradi.


• Ta’lim jarayonini individuallashtirish. Har bir o'quvchining o'ziga xos individual xususiyatlari va ehtiyojlari mavjud, shuning uchun ta'limni tashkil etishda ularni hisobga olish muhimdir. Bunga ta’lim jarayonini farqlash, dastur va o‘qitish usullarini har bir o‘quvchining ehtiyojlariga moslashtirish orqali erishish mumkin.

Bunday tashkiliy-pedagogik xususiyatlar talabalarda mustaqil bilim olish, bilimlarni tahlil qilish va qo‘llash, tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish imkonini beradi, bu esa ularning muvaffaqiyatli kasbiy faoliyatining muhim shartidir.

Biz oliy ta’lim muassasalari matematika yonalishi talabalariga Hisoblash usullari fanini samarali oqitish maqsadida Blended – learning va Flipped – learning texnologiyalariga asoslangan dasturiy – metodik majmualardan unumli foydalanish orqali mustaqil ta’limni tashkil etish algoritmi asosida takomillashtirdik.


BLENDED LEARNING (ARALASH O'QITISH)
SINFDA
ONLAYN (MUSTAQIL)
BLENDED LEARNING (ARALASH O'QITISH)
• Teoretik ma'lumotlar
• Muhokama va guruh ishlari
SINFDAGI O'RGANISH
ONLAYN O'RGANISH
• Masalalarni mustaqil yechish
• Video darslar va interaktiv resurslar
• Avtomatik testlar
SINFDAGI O'RGANISH
ONLAYN O'RGANISH
AN'ANAVIY SINFDAGI TA'LIM VA ONLAYN MUSTAQIL O'QISHGA UYG'UNLASHTIRILGAN O'QITISH USULI


FLIPPED LEARNING (TESKARI O'QITISH)
BIRINCHI BOSQICH: NAZARIYOTNI MUSTAQIL O'RGANISH
• Video darslarni ko'rish
• Elektron darsliklar va interaktiv resurslardan foydalanish
• Mustaqil topshiriqlarni bajarish
FLIPPED LEARNING (TESKARI O'QITISH)
• Muammolarni birgalikda yechish
• Munozaralar va guruh ishlari
• Amaliy topshiriqlarni bajarish
IKKINCHI BOSQICH:
FLIPPED LEARNING (TESKARI O'QITISH)
IKKKINCHI BOSQICH: SINFDA AMALIY MASHG'ULOT
• Muammolarni birgalikda yechish
• Munozaralar va guruh ishlari
TESKARI O'QITISH USULIDA NAZARIY BILIMLAR MUSTAQIL O'RGANILIB, DARSDA AMALIY MASALALAR VA MUHOKAMAGA E'TIBOR BERILADI


MAQSADLI
METODOLOGIK
JARAYON
NATIJAVIY
Maqsad: Dasturiy – metodik majmualar orqali talabalarda Hisoblash usullari fanini mustaqil o`zlashtirish metodikasini takomillashtirishning usul va vositalari
Talabalarning mustaqil ta’lim kompetensiyalarini shakllantirishning tashkiliy – pedagogik xususiyatlari
Talabaning faol pozitsiyasini rivojlantirish
Mustaqillik va o'z-o'zini nazorat qilishni rivojlantirish
Axborotni mustaqil izlash va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish
Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish
Ta’lim jarayonini individuallashtirish
Mustaqil ta’limni dasturiy-metodik majmualar orqali tashkil etish
Dasturiy-metodik majmuani tuzilmasi
Ma’ruza
Videoma’ruza
Taqdimot
Amaliy mashg`ulot
Mathcad, Maple, Flowgorithm, Python
Mustaqil ish
Yakuniy test
Kursni mustaqil o`rganish bo`yicha uslubiy ko`rsatma
Metodlar
Shaxsga yo`naltirilgan
Blended-learning metodi
Flipped-learning metodi
Vositalar
Internet
Smartphone
Telefon
Notebook
Online vebsitelar
Baholash mezonlari
Yuqori(86-100)
O`rta(71-85)
Past(56-70)
Natija: Dasturiy-metodik majmualar orqali talabalar Hisoblash usullari fanini mustaqil o`zlashtirish metodikasi takomillashtirildi

Foydalanilgan adabiyotlar

1. **Soliyeva G. Y., Eshnazarova M. Y.** Hisoblash usullari: darslik. — Namangan: **Mashrab**, 2025. — 304 b.
2. **Soliyeva G. Y.** O‘zbekiston va Hindiston ta’limida “hisoblash usullari” fanida Lagrange interpolyatsiya ko‘phadini o‘qitish metodikasi // *International Journal of Science and Technology*. — 2025. — Vol. 2, Iss. 3. — ISSN 3030-3443.
3. **Soliyeva G. Y.** Xorijiy va mahalliy tajribada mustaqil o‘rganishni tashkil etishda dasturiy-metodik ta’minotdan foydalanish va talabalarning mustaqil ishlash kompetensiyasini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish // Ilm-fan, texnologiya va ta’limda yangi paradigmalar: respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. — 2025. — B. 15–18.
4. **Soliyeva G. Y.** Improving the methodology for developing students' independent work competence // *Science and Innovation: International Scientific Journal*. — 2025. — Vol. 4, Iss. 10. — ISSN 2181-3337. — B. 95–101.
5. **Soliyeva G. Y.** Dasturiy-metodik majmualardan foydalanib hisoblash usullarini o‘qitish metodlarini tizimli tanlash // *Namangan davlat universiteti ilmiy axborotnomasi*. — 2025. — ISSN 2181-0427, ISSN 2181-1458. — B. 609–614.
6. **Soliyeva G. Y.** Ta’lim tizimida dasturiy-metodik majmua yaratish pedagogik muammo sifatida // *Ta’lim va taraqqiyot*. — 2025. — No. 4. — ISSN 2992-9008. — B. 389–398.
7. **Soliyeva G. Y.** Oliy ta’lim tizimida talabalarning hisoblash usullari kursi o‘qitishning metodik tizimi // Nazariy va amaliy fanlardagi ustuvor islohotlar va zamonaviy ta’limning innovatsion yo‘nalishlari: respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. — 2025. — Vol. 2. — B. 125–132.
8. **Soliyeva G. Y.** Dasturiy-metodik majmualar orqali talabalarda hisoblash usullari kursini mustaqil o‘zlashtirish metodikasini takomillashtirish // Yosh

matematiklarning yangi teoremalari: respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. — 2025. — B. 157–158.

9. **Soliyeva G. Y.** Mustaqil ta’lim faoliyatining zamonaviy pedagogika nuqtai nazaridan tahlili va uning ahamiyati // *Qo‘qon davlat pedagogika instituti ilmiy xabarlari*. — 2025. — ISSN 3030-3958. — B. 1294–1302.
10. **Soliyeva G. Y.** The role and significance of software-methodical complexes in increasing educational efficiency // Scientific review of the problems and prospects of modern science and education. — 2025. — B. 37–41.
11. **Soliyeva G. Y.** Hisoblash matematikasining qisqacha tarixi, predmeti va metodi // Pedagogika ta’lim va tarbiya transformatsiyasida fundamental, amaliy va innovatsion tadqiqotlarning konseptual asoslari: respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. — 2025. — B. 269–276.
12. **Soliyeva G. Y.** Dasturiy-metodik majmuani ishlab chiqish bosqichlari hamda pedagogik talablar // *Maktabgacha va maktab ta’limi ilmiy-metodik jurnali*. — 2026.
13. **Soliyeva G. Y.** Dasturiy-metodik majmualar orqali talabalarda hisoblash usullari fanini mustaqil o‘zlashtirish metodikasini takomillashtirish: elektron hisoblash mashinalari uchun dastur guvohnomasi. — DGU 56501. — 18.11.2025.
14. **Soliyeva G. Y.** Hisoblash usullari fani bo‘yicha o‘quv kontenti // Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g‘oya va yechimlar: II respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari.
15. **Soliyeva G. Y.** Hisobly platformasida ishlash bo‘yicha metodik tavsiyalar: uslubiy ko‘rsatma. — NamDU o‘quv-uslubiy kengashi 4-bayonnomasi asosida.
16. **Soliyeva G. Y.** Oliy ta’lim tizimida hisoblash usullari fanida chiziqli algebraik tenglamalar sistemasi usulini o‘qitish metodikasini takomillashtirish // *Namangan davlat universiteti ilmiy axborotnomasi*. — 2025. — No. 3. — ISSN 2181-0427, ISSN 2181-1458. — B. 1059–1061.

KUTUBXONA XIZMATLARIDA SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINI JORIY ETISH IMKONIYATLARI VA MUAMMOLARI

Sultanova Sadoqat Botir qizi
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi
Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

Annotatsiya. *Ushbu maqolada kutubxona xizmatlarida sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish imkoniyatlari va mavjud muammolari tahlil qilinadi. Xorijiy va mahalliy tadqiqotlar asosida avtomatlashtirish, foydalanuvchi tajribasini yaxshilash, axborot qidiruvini optimallashtirish masalalari yoritiladi. Shuningdek, texnik infratuzilma, kadrlar salohiyati, axloqiy va huquqiy muammolar aniqlanib, ularni bartaraf etish bo'yicha tavsiyalar beriladi. Natijalar kutubxonalar faoliyatini rivojlantirish uchun ilmiy-amaliy ahamiyatga ega bo'lgan istiqbolli yechimlarni ko'rsatadi va strategiyalarni belgilaydi.*

Kalit so'zlar: *Sun'iy intellekt, kutubxona xizmatlari, raqamli kutubxonalar, axborot qidiruvi, avtomatlashtirish, foydalanuvchi tajribasi, kutubxona innovatsiyalari, raqamli transformatsiya.*

An'anaviy kutubxonalar o'z faoliyatlarini yaxshilash va foydalanuvchilarga axborot xizmatini ko'rsatish imkoniyatlarini kengaytirish uchun doimiy ravishda yetakchi bo'lib kelmoqda. Bugungi kunda an'anaviy kutubxonalar o'z funksiyasini o'zgartirayotganligining asl sababi bu sun'iy intellekt (AI) texnologiyalarining keng qamrovda o'sib borayotganligi hisoblanadi. Tadqiqotchilar sun'iy intellektni kutubxona xizmatlarini o'zgartiruvchi vosita sifatida qaramoqda. Dunyo bo'ylab axborot kutubxona markazlariga sun'iy intellekt texnologiyalarini integratsiyasi bo'yicha qator loyihalar olib borilmoqda. Sun'iy intellekt kutubxona xizmatlarini transformatsiya qiluvchi asosiy omil sifatida ko'rilmoqda — shu jumladan raqamli xizmatlar, ma'lumot bazalari va foydalanuvchi interfeyslari. Kutubxonalarda sun'iy

intellekt bir qator bo‘limlarda joriy qilinishi mumkin. Eng asosiy bo‘lim bu xizmat ko‘rsatish bo‘limi hisoblanadi. Bundan tashqari AI asosida avtomatlashtirilgan xizmatlar ma’lumot qidirish, referens xizmatlari va foydalanuvchi tavsiyalarini taqdim etishda samaradorlikni oshiradi. Bu, ayniqsa talabalar va tadqiqotchilar uchun kutubxona ma’lumotlaridan tez va shaxsiylashtirilgan foydalanishni ta’minlaydi, ma’lumot xizmatlarini qo‘llab-quvvatlaydi, raqamli resurslarni kashf qilishni yaxshilaydi, ma’muriy samaradorlikni oshiradi va kutubxonachilar orasida professional rivojlanishga hissa qo‘shadi.Tanganing ikkinchi tomoni bo‘lgani kabi kutubxonalarda sun’iy intellekt integratsiyasining muammoli tomonlari, murakkab jarayonlari mavjud. Jumladan quyidagilarni misol qilishimiz mumkin:

AI integratsiyasiga yo‘l ochadigan asosiy muammolar:

- malakali mutaxassislar yetishmasligi,
- infratuzilma va texnik resurslar yetishmasligi,
- moliyaviy cheklovlar,
- va kadrlar texnologiyalarni qo‘llay olmasligi

Sun’iy intellekt texnologiyalarining akademik kutubxona xizmatlariga joriy etilishi so‘nggi yillarda ilmiy adabiyotlarda keng muhokama qilinmoqda. Xususan, xorijiy tadqiqotchi Zondi va hammualliflari bilan birga (2024) olib borilgan tadqiqotida sun’iy intellektning kutubxona xizmatlarida qo‘llanilishi bo‘yicha mavjud ilmiy adabiyotlar tizimli ravishda tahlil qilingan. Tadqiqotchilar AI texnologiyalarining kutubxona faoliyatini transformatsiya qilishdagi roli, o‘rni va ularning amaliy xizmatlarga ta’sirini aniqlashni asosiy maqsad qilib qo‘yganlar.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, sun’iy intellekt texnologiyalari akademik kutubxona xizmatlarida axborotni izlash jarayonini tezlashtirish, kataloglash va indekslashni avtomatlashtirish, shuningdek, foydalanuvchilarga ommaviy axborot xizmatlarini ko‘rsatish imkonini beradi. Mualliflar AI asosidagi tizimlar va AI asosida ishlovchi dasturlar foydalanuvchilarning axborot ehtiyojlarini aniqroq aniqlashga xizmat qilishini va bu orqali xizmatlar sifatini va samaradorligini oshirish imkoniyati mumkinligini ta’kidlaydilar. Shu bilan birga, maqolada sun’iy intellekt texnologiyalarini kutubxona xizmatlariga joriy etishda yuzaga kelayotgan asosiy

muammolar ham ochib berilgan. Xususan, malakali kadrlar yetishmasligi, texnik infratuzilmaning cheklanganligi, moliyaviy resurslarning kamligi va xodimlarning AI texnologiyalari bo‘yicha bilim darajasi pastligi AI integratsiyasini sekinlashtiruvchi omillar sifatida ko‘rsatilgan. Yuqoridagilar, ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlar kutubxonalari uchun dolzarb hisoblansada, bugungi kunda butun dunyo bo‘ylab kutubxonalardagi asosiy dolzarb muammoga aylanmoqda

Mualliflarning ta’kidlashicha, sun’iy intellekt texnologiyalarining muvaffaqiyatli tatbiqi uchun strategik rejalashtirish, oliy ta’lim muassasalariaro hamkorlik, ayniqsa kutubxona uchun kadr yetishtirayotgan ta’lim muassasalari va doimiy treninglar muhim ahamiyatga ega. Kutubxona xodimlarining raqamli va AI kompetensiyalarini rivojlantirish AI xizmatlaridan samarali foydalanishning asosiy shartlaridan biri sifatida baholanadi. Shu nuqtayi nazardan, tadqiqot AIni joriy etishda texnologik omillar bilan bir qatorda inson kapitalining ahamiyatini ham alohida urg‘ulaydi (Zondi et al., 2024).

Umuman olganda, mazkur adabiyotlar sharhi sun’iy intellekt texnologiyalarining akademik kutubxona xizmatlarini modernizatsiya qilishdagi katta salohiyatini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, AI texnologiyalarini joriy etish jarayoni kompleks yondashuvni talab qilishi, ya’ni texnologiya, boshqaruv va kadrlar tayyorlash masalalari o‘zaro uyg‘unlashgan holda olib borilishi zarurligi asoslab beriladi. Ushbu xulosalar kutubxona xizmatlarida sun’iy intellektdan foydalanish imkoniyatlarini o‘rganishga qaratilgan tadqiqotlar uchun muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Bugungi kundagi kutubxonalar an’anaviy axborot xizmatini ko‘rsatish va faqatgina raqamli savodxonlik bilan cheklanib qolmasdan, sun’iy intellekt savodxonligini ham o‘z ichiga olishi lozim, chunki “AI bo‘yicha savodxonlik” ilmiy jamiyatda hali to‘liq o‘rganilmagan soha hisoblanadi.

Chigwada (2024) tomonidan taqdim etilgan tadqiqotda akademik kutubxonalar uchun sun’iy intellekt bo‘yicha raqamli savodxonlik kursini ishlab chiqishga doir puxta yondashuv taklif etildi. Tadqiqotga ko‘ra, AI savodxonlik kursi faqat texnik

bilimlarni o‘z ichiga olmay, balki etik, ijtimoiy va amaliy komponentlarni ham qamrab olishi kerak, bu esa kutubxona foydalanuvchilari uchun mas’uliyatli va xavfsiz AI foydalanishni ta’minlaydi. Tadqiqot kursni ishlab chiqishda kutubxona mutaxassislari, talabalar, fakultetlar va IT bo‘limi o‘rtasida hamkorlik zarurligi ta’kidlangan. Xuddi shu asosda “AI savodxonligi” ni kutubxonalarda joriy etishda, u bir qancha bosqichlardan iborat bo‘lishi kerak. Jumladan:

1. AI nazariyasi va texnik asoslar: AI texnologiyalarining asosiy tushunchalari, generativ AI, mashinani o‘rganish tamoyillari.

2. Axborot etikasi va ijtimoiy oqibatlar: AI algoritmlaridagi xatarlar, bias (buzilish) va mas’uliyat masalalari.

3. Amaliy ko‘nikmalar: AI vositalaridan amaliy foydalanish (masalan, AI qidiruvlar, tavsiya tizimlari va boshqalar).

4. Hamkorlik va resurslar: kursni yaratishda kutubxona xodimlari, professor-o‘qituvchilar, talabalar va IT bo‘limi o‘rtasida yaqindan hamkorlik zarurligi.

Umuman olganda, AI texnologiyalarini kutubxona xizmatlarida tatbiq etish bo‘yicha nazariy va amaliy asoslarni murakkab tuzilgan reja asosida olib borishni talab etadi. Kutubxonalarda AI integratsiyasining jarayonida ijobiy tomonlari bilan birga, muhim to‘siqlarni ham vujudga keladi, bu esa kelajakda AI bilan bog‘liq strategik qarorlarni ishlab chiqishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. Shu bilan birga, sun’iy intellektning joriy etilishi faqat texnologik omil emas, balki kutubxona siyosati, kadrlar malakasi va strategik yondashuv bilan birga amalga oshirilishi lozimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. **Chigwada J.** A proposed framework for a digital literacy course for artificial intelligence in academic libraries // *South African Journal of Libraries and Information Science*. — 2024. — Vol. 90, No. 2. — DOI: 10.7553/90-2-2388.
2. **Zondi N. P.**, **Epizitone A.**, **Nkomo N.**, **Mthalane P. P.**, **Moyane S.**, **Luthuli M.**, **Khumalo M.**, **Phokoye S.** A review of artificial intelligence implementation in academic library services // *South African Journal of Libraries and*

Information Science. — 2024. — Vol. 90, No. 2. — P. 1–8. — DOI: 10.7553/90-2-2399.

3. **Zondi X.** et al. A review of artificial intelligence implementation in academic library services // *South African Journal of Libraries and Information Science*. — 2024. — Vol. 90, No. 2. — DOI: 10.7553/90-2-2399.
4. **South African Journal of Libraries and Information Science.** Vol. 90, No. 2. — 2024.
5. **Muallif ko‘rsatilmagan.** Sun’iy intellekt tizimlarini oliy ta’limda joriy etish: muammolar va istiqbollar.
6. **Inlibrary ilmiy elektron jurnali.** — 2024.

AGRESSIV XULQ-ATVORNI KELIB CHIQISHINING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK OMILLARI

To‘raboyev Azamat Muxamadullayevich

University of Business and Science

Annotatsiya: *Ushbu maqolada agressiv xulq-atvor shakllarining namoyon bo’lishi, ularni keltirib chiqaruvchi ijtimoiy-psixologik omillari ilmiy asosda qisqacha tahlil etilgan.*

Kalit so’zlar: *Ijtimoiy psixologiya, etnopsixologiya, sotsiologiya, falsafa, pedagogika, milliy g’oya, ma’naviyat, agressiv xulq-atvor, o’tish davri, oila muhiti, muloqot, ijtimoiy muhit, biologik va fiziologik.*

Yurtimiz istiqlolga erishgach, ma’nan va jisman sog’lom, barkamol avlodni tarbiyalash orqali kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etish birlamchi vazifa etib belgilab olindi. Mamlakatimizning Birinchi Prezidenti Islom Karimov

ta’kidlaganlaridek, “...milliy manfaatlarimiz, hayot tarzimizga zid bo’lgan ma’naviyat, madaniyat bayrog’i ostida kirib kelayotgan zararli g’oyalar va tahdidlarning mohiyatini ochib berish, fuqarolarimiz qalbida milliy tafakkur va sog’lom dunyoqarash asoslarini mustahkamlash alohida ahamiyat kasb etadi.”[86]

O’sib kelayotgan yosh avlodda sog’lom va mustahkam e’tiqodini shakllantirish ko’p qirrali jarayon bo’lib, ushbu muammoni ijtimoiy psixologiya, etnopsixologiya, sotsiologiya, falsafa, pedagogika, milliy g’oya, va ma’naviyat asoslari kabi fanlar izchil o’rganib kelmoqda.

Inson o’zi yashayotgan jamiyatdagi o’zgarishlarining faol ishtirokchisi ekan, uning faoliyatini muayyan g’oyalarga asoslangan e’tiqod, ishonch boshqaradi.

O’zmir shaxsining kamol topishida. uning ijtimoiylashuv jarayoni(jamiyat me’yorlarini egallashi, ijobiy xulq namunalarini o’zlashtirishi, “Men-obrazi”ning shakllanishi, yangi ijtimoiy maqomning yuzaga kelishi) muhim o’rin tutadi.

O’smirlik yoshi shaxsning balog’atga yetishi davri bo’lib, o’ziga xos «o’tish» davriga oid xususiyatlari tufayli kamolotning boshqa pog’onalaridan tubdan farqlanadi. O’smir organizmidagi anatomik-fiziologik o’zgarishlar natijasida, uning ruhiy-ichki olamida ham “yangilanishlar” paydo bo’ladi.

O’smirlik davrida og’ishgan xulq-atvor shakllarining namoyon bo’lish ehtimoli nihoyatda yuqori bo’ladi, “o’tish” davrida o’smir organizmida yuzaga keladigan morfologik va fiziologik o’zgarishlar, bola ruhiyatida ham ayrim keskin o’zgarishlarga sabab bo’ladi.

O’smirlik davri fanda “inqirozli xolatlar davri” deb ham ataladi, chunki ushbu yoshdagi bolalarda o’zini o’rab turga ijtimoiy muxitga hamda kattalarga nisbatan tanqidiy munosabat va e’tirozlar kuchayadi. Ularda “kattalik xissi”ning ortishi bilan, o’z-o’zini namoyish qilishga bo’lgan moyillik kuzatiladi.

[86] I.A.Karimov. Tarixiy xotirasiz kelajak yo’q. T.: “Muloqot”.1998 yil. 5-son.

Ayrim bolalar o’z bilim darajasining yetarli emasligi va tor dunyoqarashini so’nggi fasondagi kiyim-kechaklar, tashqi ko’rinish, qimmatbaho ziynatlar va so’nggi rusumdagi qo’l telefonlari bilan to’ldirishga intiladilar.

Moddiy jixatdan to’la ta’minlangan bolalarda egoizm(xudbinlik) va egosentrizm, ya’ni har qanday voqea-xodisaning markazida turish, hammaning diqqat-e’tiborida bo’lish istagi ustunlik qiladi.

O’smirlik davrida e’tiborga olinishi lozim bo’lgan eng muhim jihatlardan biri, hammaga birdek qarash asoratidan voz kechish sanaladi. Ota-onalar va pedagoglar o’smirlik yoshidagi yigit-qizlarga hamma narsani ta`qiqlash, ularni qo’rqitish yo’li bilan emas, balki ularning ruhiyatiga chuqurroq kirib borishlari va ongli munosabatni shakllantirishlari orqali yaqinlashishlari mumkin bo’ladi.

Shaxsning shakllanishida o’smirlik yoshi, ya’ni uning ijtimoiy, biologik va psixologik rivojlanishida murakkab davr hisoblanadi, hayot yo’lining mana shu muxim qismida o’smir shaxsining axloqiy sifatlari shakllanib boradi.

Xuddi shu davrda o’smirlarning aqliy kamoloti bilan birgalikda, ularning xarakter xususiyatlari ham shakllanadi.

O’smir xarakter xususiyatlari shakllanishiga asosiy ta’sir etuvchi omillar qatoriga asosan biologik, ijtimoiy va psixologik ta’sir vositalarini kiritamiz. Darhaqiqat, o’smir shaxsining shakllanishida yuqorida keltirilgan ta’sir vositalarining o’rni muximdir.

Xuddi shu davrda o’smir organizmida biologik, fiziologik qayta qurilish davri kechishi natijasida ularda agressiv xulq motivlari namoyon bo’ladi. O’smirlik davrida organizmning jismoniy va ruhiy jihatdan bir-biriga nomutanosib tarzda rivojlanishi kuzatiladi, jinsiy balog’atga yetish va funksional yangilanishlar tufayli gormonlar miqdorining o’zgarishi yuz beradi.

Bir tomondan bu o’smir organizmidagi barcha o’zgarishlar gipotalamus va endokrin bezlarning rag’batlantiruvchi va nazorat qiluvchi ta’siri ostida kechadi.

Ayrim gormonlarning ortiqcha ishlab chiqarilishi natijasida o’smir xatti-harakatida agressivlik(jizzakilik, serzardalik, qaysarlik) holatlari kelib chiqadi.

O’smir xatti-harakatlarida agressiv xulq-atvor ko’rinishlari kelib chiqishining asosiy sabablariga, uni o’rab turgan ijtimoiy muhit ta’sirini ham kiritishimiz mumkin, chunki, o’smir xarakter xususiyatlarining shakllanishi u yashab turgan muhit ta’siri ostida yuzaga keladi.

Agressiv xatti-harakat paydo bo’lishida ko’pgina omillar ishtirok etadi, jumladan, yosh, shaxsiy xususiyatlar, tashqi jismoniy va ijtimoiy sharoitlar. Masalan, agressivlikni shovqin, issiq, torlik, ekologik muammolar, meteo sharoitlar va h.k. kabi sharoitlar kuchlantirishi mumkin. Ammo ko’pgina shu masalani o’rganuvchi tadqiqotchilar fikricha, shaxsning agressiv xatti-harakatlari shakllanishida hal qiluvchi rolni bevosita ijtimoiy muhit o’ynaydi.

Ijtimoiy muhitning asosi bo’lgan oila, o’smir xulqi shakllanishiga katta ta’sir o’tkazadi. An’anaviy tarzda tarbiya asosiy instituti oila hisoblanadi. O’smir oilada olgan tarbiyaning keyin bir umrga saqlanib qoladi. Oilaning tarbiya instituti sifatida muhimligi shundaki, o’smir unda hayotining ko’p qismini o’tkazadi va shaxsga ta’sir etuvchi muddati bo’yicha birorta ham tarbiya institutlari oilaga teng kela olmaydi.

Bola tarbiyasida oilaning roli haqida E.Fromm: "Oila — o’ziga xos jamiyatning "psixologik vositachisi", shuning uchun oilada adaptatsiya jarayonida bola keyinchalik jamiyatda adaptatsiya va turli ijtimoiy muammolarni yechish asosi bo’lib qoladigan xarakterni shakllantiradi", degan edi.

Darhaqiqat, bola oilada qaysidir xarakter xislatlarini o’zida mujassamlashtirishi bilan ijtimoiy muhitda ham uni namoyon qiladi. Agressiyaning oilada namoyon bo’lish shakllari turlicha. Bu bevosita ijtimoiy yoki jinsiy zo’ravonlik, sovuqqonlik, salbiy baholar, shaxsni ruhan ezish, bolani emotsional qabul qilmaslik bo’lishi mumkin. Oila a’zolari agressiv xatti-harakatni o’zlari namoyish etishlari mumkin.

Bolaning agressiv xatti-harakati paydo bo'lishiga turli oilaviy omillar ta'sir etishi mumkin. Masalan, oilaviy birlashishning past darajasi, to'qnashuv, bola va ota-ona o'rtasidagi yetarli bo'lmagan yaqinlik, bolalar o'rtasidagi salbiy munosabatlar, oila tarbiyasining noadekvat usuli. Masalan, o'ta qattiq jazo qo'llaydigan, o'ta qattiq nazorat qiluvchi ota-onalar yoki aksincha, bolalar mashg'ulotlarini nazorat qilmaydigan ota-onalar farzandida uchraydigan agressiya bilan ko'proq duch kelishadi.

Tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, shaxsning agressiv xatti- harakatiga ta'sir etuvchi xususiyatlardan biri — bu frustratsiyani ko'tara olmaslik qobiliyati^lir. Ma'lumki, frustratsiya ehtiyojlarni qondirishda yoki maqsadga erishish yo'lida paydo bo'lgan to'siqlar tufayli kelib chiqqan holatdir. Xuddi shu paytda o'smir shaxsida ham ota-ona va yaqinlari uni tupgunmasligi va aksincha unga nisbatan qattaqqo'lligi natijasida agressiv xatti-harakatlar namoyon bo'lishini kuzatishimiz mumkin.

Demak, bolaning agressiv xulqi shakllanishida asosan ota-ona ta'siri kuzatiladi va oila tarbiyasidagi quyidagi omillar katta rol o'ynaydi:

— bola harakatidan qoniqmagan ota-ona reaktsiyasi;

— bolalar va ota-onalar o'rtasidagi munosabatning xarakteri;

— oila garmoniya va disgarmoniyasi darajasi;

— aka-uka, opa-sing'illar o'rtasidagi munosabatlar xarakteri;

— ota yoki ona yoki ikkovlari bilan bo'lgan yomon munosabat;

— bolalar o'zlarini hech narsaga yaramaydi deb hisoblashganini sezishsa yoki o'z his-tuyg'ulariga nisbatan beparvolikni sezishsa.

Shuningdek, o'smir ota-onalarning qo'llab-quvvatlamasligi va ularning qiziqishlariga beparvoligini sezsa, quyidagi vaziyatlar vujudga kelishi mumkin:

— jinoyatchilik faoliyatiga kirib ketishi;

— boshqa bolalarga qarshi chiqishi;

— o’z ota-onasiga nisbatan o’zlarini agressiv holda tutishlari mumkin.

Xulosa qilib aytish mumkinki, o’smirlarda uchraydigan agressiv xatti-harakatlar asosini avvalo oila muhiti tashkil qilishi va oiladagi o’zaro bir-birini psixologik tomondan tushunmasligi natijasidir. O’smirlik keskin o’zgarishlar davriligini hisobga olgan holda, ularga alohida e’tiborni qaratish maqsadga muvofiqdir. Aks holda esa, yuqoridagi salbiy xususiyatlar o’smir xarakterini, uning xatti-harakatini tubdan o’zgartirib yuboradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. **Akbarov S. Yu.** Rivojlanish psixologiyasi va pedagogik psixologiya: o‘quv qo‘llanma. — Namangan: Fazilat orgtex-servis x/k, 2021.
2. **Davletshin M. G.**, **Do‘stmuhamedova Sh.**, **Mavlonov M.**, **To‘ychiyeva Sh.**, **Djumabayeva M.** Yosh va pedagogik psixologiya. — Toshkent, 2007.
3. **Karimova V.** Ijtimoiy psixologiya. — Toshkent, 2007.
4. **G‘oziev E.** Umumiy psixologiya. — Toshkent, 2008.
5. **Nishonova Z. T.**, **Qurbonova Z.** Psixodiagnostika. — Toshkent, 2008.
6. **Ivanov P. I.**, **Zufarova M.** Umumiy psixologiya. — Toshkent, 2008.
7. **Komilova N. G‘.**, **Xaydarov F. I.** Muammoli o‘smir: moslashuv, tashxis, korreksiya usullari: uslubiy qo‘llanma. — Toshkent, 2008.
8. **To‘raboyev A.** Shaxsda kreativlik sifatlarini rivojlantirishning psixologik omillari // Maktabgacha va maktab ta’limi jurnali. — 2025. — DOI: 10.5281/zenodo.15641133.
9. **Nishonova M. Y.**, **Xalilov A. F.** Yosh avlodni tarbiyalashda oila, mahalla va maktab hamkorligida o‘qituvchining kasbiy kompetentligini oshirish // Obrazovanie, nauka i innovatsionnye idei v mire. — 2024. — Vol. 47, No. 3. — B. 149–153. — URL: https://newjournal.org/01/article/view/14974

10. **Muxamadullayev T. A., Gayratovich N. B.** Rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalar ta’lim-tarbiyasining zamonaviy holati va rivojlanish istiqbollari // Research Focus. — 2025.
11. **Baxtiyor Q.** The correlation relationship of the development of creativity in adolescents with achievement. — 2024.
12. **Qayumov B. Z.** O‘smirlarda kreativlik namoyon bo‘lishining hududiy tafovutlari // Maktabgacha va maktab ta’limi jurnali. — 2025. — Vol. 3, No. 6.
13. **Qayumov B. Z. O. G. L., Yo‘qubxo‘jayeva M. A. Q.** O‘quvchilarda kreativlik rivojlanishida shaxs individual xususiyatlarining roli // Science and Education. — 2025. — Vol. 6, No. 12. — B. 627–632.

RAQAMLI PEDAGOGIKA SHAROITIDA AXBOROTLI TA’LIM MODELLARI

Umarov Azizbek Vaxobovich
Andijon davlat pedagogika instituti

Annotatsiya: *Mazkur tezis raqamli pedagogika sharoitida axborotli ta’lim modellari mazmuni, tarkibiy qismlari va ularni loyihalash tamoyillarini yoritadi. Axborot oqimlari, o‘quv analitikasi, moslashuvchan ta’lim va raqamli resurslar integratsiyasi asosida model tanlash mezonlari asoslanadi hamda amaliy joriy etish shartlari tavsiflanadi.*

Kalit so‘zlar: *raqamli pedagogika; axborotli ta’lim; ta’lim modeli; o‘quv analitikasi; moslashuvchan ta’lim; raqamli resurs; didaktik dizayn.*

Raqamli pedagogika bugungi ta’lim amaliyotida nafaqat texnologiyalar majmuasi, balki o‘qitish va o‘rganishni ma’lumotlar, raqamli resurslar hamda

kommunikatsiya kanallari orqali qayta tashkil etuvchi didaktik yondashuv sifatida talqin qilinadi. Shu nuqtai nazardan “axborotli ta’lim modeli” deganda o‘quv maqsadlari, kontent, metodlar, baholash va qayta aloqa mexanizmlari o‘zaro bog‘langan hamda raqamli muhitda boshqariladigan tizim tushuniladi. Bunday modelning markazida axborot oqimlari turadi: o‘quvchi faoliyati natijalari (izlanishlar, topshiriqlar, testlar, forumdagi ishtirok), o‘qituvchi tomonidan beriladigan ko‘rsatmalar, platforma tomonidan yig‘iladigan analitik ma’lumotlar va tashqi resurslardan keladigan bilim bloklari yagona didaktik ssenariyga biriktiriladi. UNESCO raqamli ta’limni joriy etishda tizimlilik va inkluzivlikni (texnik infratuzilma, kompetensiyalar, kontent sifati, boshqaruv) birgalikda ko‘rishni ta’kidlaydi; bu fikr axborotli modelni faqat platforma tanlash bilan cheklab bo‘lmasligini, balki ta’lim jarayoni arxitekturasini boshidan loyihalash zarurligini ko‘rsatadi [5]. Mazkur tezisda axborotli ta’lim modellari raqamli pedagogika sharoitidagi didaktik qiymati, turlari va amaliy tatbiqi mezonlari izchil yoritiladi.

Axborotli ta’lim modellari nazariy asoslarida, avvalo, o‘quv jarayonini axborot tizimi sifatida ko‘rish g‘oyasi yotadi: kirish (maqsad, boshlang‘ich daraja, resurs), jarayon (faoliyatlar zanjiri, aloqa, nazorat), chiqish (kompetensiya, natija) hamda qayta aloqa (diagnostika, tavsiya, korreksiya). O‘zbekiston ta’lim tizimida raqamli transformatsiya jarayonlari kuchaygani sari metodik tizimni “raqamli resurs–didaktik vazifa–natija” bog‘lanishi orqali qayta asoslash dolzarblashdi. Xususan, R. H. Djuraev va hammualliflar raqamli ta’lim muhitini loyihalashda metodik ta’minot va pedagogik texnologiya uyg‘unligini yetakchi shart sifatida ko‘rsatadi; bu yondashuv axborotli modelda kontentni ko‘paytirish emas, balki o‘quv faoliyatini boshqarish algoritmlarini aniq belgilash kerakligini anglatadi [1]. Ushbu iqtibosdan kelib chiqib, axborotli ta’lim modeli “qaysi resurs bor?” savolidan ko‘ra “resurs qanday didaktik vazifani hal qiladi va natija qanday o‘lchanadi?” degan savollarni markazga qo‘yadi. Demak, raqamli pedagogika sharoitida modelning sifat ko‘rsatkichi — ma’lumotlarning to‘planishi emas, balki ularning pedagogik qarorga aylanish tezligi va aniqligidir.

Jahon ilmiy adabiyotlarida axborotli modellarning amaliy mexanizmi ko‘pincha “learning analytics” va “data-driven instruction” tushunchalari orqali ochib beriladi. G. Siemens o‘quv analitikasini o‘rganish jarayoniga oid izlarning (digital traces) tahlili orqali ta’limni tushunish va optimallashtirishga xizmat qiluvchi fanlararo yo‘nalish sifatida ta’riflaydi [4]. Bu g‘oya axborotli modelda qayta aloqaning sifatini tubdan o‘zgartiradi: an’anaviy sinf sharoitida qayta aloqa ko‘proq o‘qituvchi kuzatuviga tayanadi, raqamli muhitda esa faoliyatning mayda elementlari ham (vaqt, urinishlar soni, xatolar profili, marshrut) o‘lchanadi. Shu bilan birga, Siemensning yondashuvini amaliyotga ko‘chirishda ehtiyotkorlik talab etiladi: analitika “nazorat”ni kuchaytirish vositasi bo‘lib qolmasligi, aksincha, o‘quvchining individual trajektoriyasini qo‘llab-quvvatlovchi maslahat mexanizmiga aylanishi lozim. Demak, axborotli ta’lim modeli o‘quvchi mustaqilligini kengaytiradigan, biroq yo‘naltirilgan yordamni ham vaqtida taqdim etadigan muvozanatni topishi kerak.

Rus ilmiy maktabida raqamli didaktika masalasi axborotli modelning “tarkibiy birliklari”ni aniqlashga ko‘proq urg‘u beradi. V. I. Blinov va hammualliflar raqamli didaktikani o‘qitish maqsadlari, kontentning modul tuzilishi, interaktivlik, baholashning avtomatlashtirilgan elementlari va individuallashtirish instrumentlari birligi sifatida ko‘rsatadi [2]. Ushbu fikr axborotli modelni loyihalashda “modullilik” va “ssenariylilik” prinsiplarini ajratib ko‘rsatishga asos bo‘ladi: o‘quv kontenti kichik, qayta ishlatiladigan bloklarga (learning objects) ajratiladi; har bir blok kirish sharti, faoliyat, tekshiruv va chiqish mezoniga ega bo‘ladi. Natijada o‘qituvchi bir martalik dars rejasi emas, balki turli sharoitga moslasha oladigan didaktik konstruktordan foydalanadi. Biroq modul tuzilishi o‘z-o‘zidan sifat kafolati bermaydi: bloklar orasidagi mantiqiy bog‘lanish, tushunchalar evolyutsiyasi va murakkablikning bosqichma-bosqich oshishi ta’minlanmasa, o‘quvchi “parchalanib ketgan” bilimga ega bo‘lishi mumkin. Shuning uchun axborotli modelda kontent arxitekturasi bilan bir qatorda kognitiv yuklama va o‘quv motivatsiyasi ham nazorat qilinishi zarur.

Axborotli ta’lim modellari amaliyotda bir necha ko‘rinishda namoyon bo‘ladi. Birinchi ko‘rinish — LMS/LCMS markazli model: kurs strukturasini platforma belgilaydi, baholash test va topshiriqlar orqali avtomatlashtiriladi, kommunikatsiya forum va chatlarda yuritiladi. Ikkinchi ko‘rinish — adaptiv model: diagnostika natijasiga ko‘ra kontent yo‘nalishi o‘zgaradi, tavsiyalar beriladi, murakkablik dinamik boshqariladi. Uchinchi ko‘rinish — gibrid (blended) model: auditoriya va onlayn faoliyatlar bir-birini to‘ldiradi, raqamli izlar sinfdagi muhokamalarni rejalash uchun ishlatiladi. To‘rtinchi ko‘rinish — tarmoq (connectivist) model: o‘quvchi tashqi ochiq resurslar, jamiyatlar va bilim tarmoqlari bilan ishlaydi, o‘qituvchi esa kurator va fasilitator rolini kuchaytiradi. Bu yerda G. Salmonning e-moderatsiya bo‘yicha 5 bosqichli modeli raqamli muloqotning bosqichma-bosqich qurilishini asoslaydi: avval kirish va motivatsiya, so‘ng ijtimoiylashuv, axborot almashinuvi, bilim qurish va rivojlanish [3]. Salmonning iqtibosi axborotli ta’lim modelida kommunikatsiyani “qo‘shimcha” emas, balki bilimni konstruksiya qiluvchi mexanizm sifatida ko‘rishga undaydi. Amaliy jihatdan bu shuni anglatadiki, onlayn kursda forum shunchaki savol-javob maydoni bo‘lib qolmaydi; unda muammoli vazifalar, tahliliy munozaralar va refleksiya ssenariylari oldindan rejalashtiriladi.

Axborotli ta’lim modellarini tanlash va loyihalash mezonlari uch qatlamda ko‘riladi: (1) didaktik mezonlar — maqsad va natijaga moslik, kompetensiya xaritasi, nazoratning validligi; (2) texnologik mezonlar — platforma barqarorligi, ma’lumotlar xavfsizligi, integratsiya (SCORM/xAPI), mobil moslashuv; (3) tashkiliy-mezonlar — o‘qituvchi kompetensiyasi, metodik xizmat, kontentni yangilash sikli. UNESCO tavsiyalarida aynan shu ko‘p qatlamli yondashuv ta’kidlanib, raqamli transformatsiya “infratuzilma + pedagogika + boshqaruv” triadasi asosida olib borilishi qayd etiladi [5]. Bu iqtibosdan kelib chiqib, axborotli modelning muvaffaqiyati ko‘pincha texnik vosita emas, balki jamoaning metodik tayyorgarligi va jarayonni boshqarish intizomiga borib taqaladi: rollar taqsimoti, kontent egasi, analitika mas’uli, akademik halollik mexanizmlari, qo‘llab-

quvvatlash xizmati va monitoring indikatorlari aniq belgilansa, model barqaror ishlaydi.

Axborotli ta’lim modelini joriy etishning muhim sharti — o‘qituvchining raqamli-didaktik dizayn kompetensiyasini rivojlantirishdir. O‘qituvchi nafaqat mavzuni bilishi, balki o‘quv izlarini talqin qila olishi, shaxsiylashtirilgan tavsiya bera olishi, onlayn muloqotni boshqarishi va baholashning shaffof mezonlarini ishlab chiqishi kerak. Djuraev va hammualliflarning metodik ta’minotga urg‘u berishi aynan shu jihatni kuchaytiradi: raqamli muhitdagi “tayyor kontent” pedagogik ssenariyga ulanmasa, ta’lim samarasi pasayadi [1]. Shuningdek, Blinovlar ko‘rsatgan modul va baholash mexanizmlari ham o‘qituvchi dizayniga tayanadi: modul pasporti, rubrikalar, diagnostik topshiriqlar, qayta aloqa shablonlari — bularning barchasi axborotli modelning “ichki standarti”dir [2]. Shunday qilib, axborotli ta’lim modeli texnologiya atrofida emas, didaktik boshqaruv atrofida qurilganda raqamli pedagogikaning real imkoniyatlarini ochib beradi.

Xulosa: Raqamli pedagogika sharoitida axborotli ta’lim modellari o‘quv jarayonini ma’lumotlar asosida boshqarish, modul va ssenariylar orqali moslashuvchanlikni ta’minlash hamda kommunikatsiya va analitikani didaktik qarorga aylantirish imkonini beradi. Modelni tanlashda didaktik maqsadga moslik, texnologik integratsiya va tashkiliy tayyorgarlik bir butun tizim sifatida ko‘rilishi zarur. Amaliy joriy etishda o‘qituvchining raqamli-didaktik dizayn kompetensiyasi, qayta aloqa mexanizmlarining shaffofligi va kontentning uzluksiz yangilanishi hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. **Djuraev R. H., Tojiev M. T., Raximov A. O.** Raqamli ta’lim muhitida o‘qitish metodikasi : darslik. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021. – 256 b.
2. **Blinov V. I., Sergeev I. S., Esenina E. Yu.** Tsifrovaya didaktika: kontseptsiya i tekhnologii obucheniya. – Moskva: Izdatel’stvo «Pero», 2019. – 224 s.
3. **Salmon G.** E-moderating: The Key to Teaching and Learning Online. – London: Routledge, 2011. – 272 p.

4. **Siemens G.** Learning Analytics: The Emergence of a Discipline. – New York: Springer, 2013. – 210 p.
5. **UNESCO.** Education in a Digital World: Guidelines for Building Resilient and Inclusive Digital Learning Systems. – Paris: UNESCO Publishing, 2021. – 120 p.

ARAB TILINI O‘QITISHDA ZAMONAVIY METODLAR: KOMMUNIKATIV YONDASHUV VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINING O‘RNI

Xalilova Hilola Sharopovna
Rustamaliyeva Sumayya Sandjar qizi
Toshkent gumanitar fanlar universiteti

Annotatsiya. *Ushbu maqolada arab tilini zamonaviy usullarda o‘qitish, xususan kommunikativ yondashuv hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining (AKT) til o‘rgatish jarayonidagi o‘rni ilmiy manbalar, turli mamlakat olimlarining tadqiqotlari va shaxsiy ilmiy mulohazalar asosida tahlil qilindi.*

Kalit so‘zlar: *arab tili, AKT, integratsiya, grammatika, kommunikatsiya*

XXI asr globallashuv jarayonida chet tillariga, jumladan, arab tiliga bo‘lgan ehtiyoj keskin oshdi. Arab tili dunyoning eng boy tillaridan biri bo‘lib, BMTning rasmiy tillar qatorida turadi va siyosat, diplomatiya, iqtisod, dinshunoslik, madaniyat singari sohalarda muhim o‘rin egallaydi. Shu bois arab tilini xorijiy til sifatida o‘qitish metodikasini takomillashtirish, zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash, kommunikativ yondashuvdan samarali foydalanish bugungi kunda dolzarb masalalardan biridir. G‘arb, rus, turk va arab olimlarining arab tilini samarali o‘qitish

bo‘yicha ilmiy qarashlari, tahlil qilinsa, arab tilini o‘qitishda eng samarali metod — integratsiyalashgan kombinatsion model ekani ayon bo‘ladi. Bugungi kunda arab tilini o‘rgatuvchi mutaxassislar oldida turgan eng katta vazifa – tilni nazariy emas, balki amaliy kommunikativ kompetensiya darajasida o‘rgatishdir. Kommunikativ yondashuv XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab til o‘rgatishning asosiy paradigmasiga aylandi. Dell Hymes “Communicative Competence” konsepsiyasida tilni faqat grammatik qoidalar yig‘indisi emas, balki ijtimoiy vaziyatlarda to‘g‘ri qo‘llay olish qobiliyati sifatida belgilaydi[87]. Umumiy tahlillar asosida g‘arb olimlari arab tilini o‘qitishda kommunikativ qobiliyatlarni shakllantirish, tilni tabiiy shaklda o‘rgatish olg‘a suriladi. Larsen-Freeman ta’kidlashicha, til o‘rganish jarayoni o‘quvchi faol ishtirok etadigan, tabiiy muloqotga asoslangan dinamik jarayondir. Unga ko‘ra: “Tilni o‘qitishning maqsadi grammatik qoidalarni yodlash emas, balki o‘quvchiga real kommunikatsiya qilish imkoniyatini yaratishdir.”[88] Bu yondashuv arab tili darslarida sun’iy mashqlar o‘rniga real vaziyatlarda qo‘llaniladigan dialog, video roliklar, ijtimoiy muloqot modellarini joriy etishni nazarda tutadi. Tilning tabiiy jarayonlarda o‘zlashtirilishi ushbu tilni o‘rganuvchilarda yengillikni paydo qiladi. Doimiy eshitish orqali arab tilining grammatik jihatdan murakkab bo‘lgan e’roblash tizimini ham aynan tabiiy tarzda bosqichma-bosqichlikda shakllanib borishi natijasida, grammatik qoidalarni tez va oson o‘zlashtirilishiga olib keladi. J.Richardsning “Tilning rivojlanishi tabiiy ravishda sodir bo‘ladi: o‘quvchi eshitadi, tushunadi va keyin nutq hosil qiladi” – arab tili o‘qitishda kommunikativ til o‘rgatishni asosiy paradigma sifatida ta’riflaydi: “Til — muloqot tizimi. O‘quvchi grammatik mukammallik emas, ma’no yaratish qobiliyatiga ega bo‘lishi kerak”[89]. Shu bilan birgalikda darsni interaktiv o‘tishida o‘quvchini motivatsiyasini oshiruvchi interaktiv mashqlar bilan darslarni tashkil qilish ham muhim o‘ringa ega.

Rus olimlari esa ko‘proq arab tili o‘qitishda tizimli grammatika

[87] Hymes, D. (1972). On communicative competence. In Sociolinguistics (pp. 269–293). Harmondsworth: Penguin.
[88] Larsen-Freeman, D. (2000). Techniques and Principles in Language Teaching (2nd ed.). Oxford University Press
[89] Richards, J. C. (2006). Communicative Language Teaching Today. Cambridge University Press.

va struktural yondashuvga alohida e’tibor beriladi. Xorijiy tilni o‘rganishda grammatika asosiy o‘rin egallaydi, keyingi o‘rinlarda boshqa mahoratlar rivojlantiriladi. Arab tilining grammatik tizimini qat’iy struktura sifatida sharhlab, o‘qitish uni bosqichlarga bo‘lib o‘qitish ommalashgan. N.Yushmanovning fikricha: “Arab tili grammatikasi tartibli va mantiqiy tizimdir; uni ketma-ket o‘rgatish muloqot kompetensiyasining mustahkam zaminini yaratadi”.[90] Bu yondashuv arab tili o‘rganishda grammatik asoslarni mustahkamlaydi. Tilni bilish — bu xalq madaniyatini bilishdir; arab tili darslari arab madaniyatidan ajralmas bo‘lishi kerak. O‘rganilayotgan tilning madaniyatini o‘rganish orqali ushbu tilni his qilish imkoniyati vujudga keladi. Bu fikr arab tili o‘qitishda madaniyatlararo kompetensiyani alohida o‘rin tutishini ko‘rsatadi.

Turk arabshunoslaridan biri M.Yilmaz arab tilini o‘rgatishda amaliyotga asoslangan amaliy mashqlarni asosiy metod deb biladi: “O‘quvchi faol bo‘lgan dars, samarali darsdir. Arab tili amaliy muloqot asosida o‘rgatilganda natija yuqori bo‘ladi”.[91] Hozirgi kunda Turkiyada arab tilini o‘qitishda va ushbu tilni o‘qitish uchun kitoblar nashr qilishda salmoqli natijalarga erishilmoqda. Xususan ushbu kitoblarda arab tilini o‘rgatishda to‘rt bosqichli ketma-ketlikni taklif etadi: tinglash → nutq → o‘qish → yozish. “Tilni tabiiy tartibda o‘rgatish — o‘quvchi uchun eng qulay va samarali yo‘ldir”.[92]

Arab tilini xorijiy til sifatida o‘rgatuvchi arab mutaxassisi, Tammam Hassan arab tilining nafaqat grammatik, balki ma’no tizimi ham o‘rgatilishi kerakligini ta’kidlaydi. O‘zbekiston auditoriyalarida ko‘p hollarda arab tili hali ham grammatik tarjima usulida o‘qitiladi. Talabalar grammatik jihatdan mukammal gap tuza olsa ham, oddiy suhbatni olib borishda qiynaladi. Buning sababi — muloqotga yo‘naltirilgan vazifalar yetarli emas. Kommunikativ yondashuv aynan mana shu bo‘shliqni bartaraf etishga xizmat qiladi. Zamonaviy ta’lim texnologiyalarining kirib

[90] Юшманов, Н. (1990). Грамматика литературного арабского языка. Москва: Наука.
[91] Yılmaz, M. E. (2012). Yabancılara Arapça Öğretimi. Ankara: Nobel Yayınları.
[92] Hassan, T. (1979). Al-Lugha Al-‘Arabiyya: Ma‘naha wa Mabnaha. Cairo: ‘Alam al-Kutub.

kelishi til o‘qitish jarayonini tubdan o‘zgartirdi. So‘nggi yillarda oliy ta'limda LMS, Moodle, Quizlet, Kahoot va video darslardan foydalanish ko‘lami ortdi. Ammo ba’zi muammolar mavjud:

- barcha o‘qituvchilar AKTdan samarali foydalanishni bilmaydi;
- arab tilidagi sifatli elektron kontent yetarli emas;
- talabalarning nutqiy kompetensiyasiga yo‘naltirilgan interaktiv mashg‘ulotlar kam.

Shaxsiy kuzatuvlarimga ko‘ra, o‘qituvchilar ko‘p hollarda texnologiyani “ko‘rgazmali vosita” sifatida qo‘llashadi xolos. Aslida esa AKT:

- muloqot vazifalarini jonlantirishi,
- talabani mustaqil ishlashga undashi,
- real arab muhitini sinfga “ko‘chirib kelishi” mumkin.

Buning uchun resurslar yetarli, ammo metodik yondashuvni qayta ko‘rib chiqish zarur. Larsen-Freeman dars jarayonida AKT va kommunikativ metodni integratsiyalash “til o‘rganuvchining nutqiy faoliyatini real kommunikativ vaziyatda shakllantiradi”[93] – deya ta’kidlaydi.

Arab tilini o‘qitishda kommunikativ yondashuv va zamonaviy AKT vositalari samaradorligi jahon tilshunosligi tajribasida isbotlangan. Ular o‘quvchini faollashtiradi, tilni real hayotda qo‘llay olish imkonini yaratadi va motivatsiyani oshiradi. O‘zbekiston ta’lim tizimi ushbu tajribani qabul qilmoqda, biroq metodik jihatdan yanada chuqurlashuvga ehtiyoj mavjud. O‘qituvchi – metodni tanlaydigan emas, balki uni ijodkorona qo‘llaydigan shaxs bo‘lishi kerak. Tilni samarali o‘rgatish uchun kommunikativ muhit, texnologik resurslar va mazmunli topshiriqlarning uyg‘unligi ta’minlanishi zarur. Arab tilini o‘qitishda zamonaviy metodlar va AKT texnologiyalaridan foydalanish o‘quvchilarning til kompetensiyasini sezilarli darajada oshiradi. G‘arb olimlari tomonidan ishlab chiqilgan kommunikativ yondashuv, rus maktabining tizimli grammatikasi, turk olimlarining amaliy metodlari va arab olimlarining tabiiy o‘qitish modellari

[93] Larsen-Freeman, D. (2011). Techniques and principles in language teaching. Oxford University Press.

kombinatsiyasida yaratilgan integrativ metod arab tilini o‘rganishda eng samarali yondashuvdir. Bugungi kunda arab tili ta’limining muvaffaqiyati o‘qituvchining yangi texnologiyalar va pedagogik metodlarni uyg‘unlashtirgan holda qo‘llay olishi bilan bevosita bog‘liq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. **Harmer J.** The Practice of English Language Teaching. – Harlow: Pearson Longman, 2007.
2. **Hymes D.** On communicative competence // Sociolinguistics. – Harmondsworth: Penguin, 1972. – P. 269–293.
3. **Larsen-Freeman D.** Techniques and Principles in Language Teaching. – Oxford: Oxford University Press, 2000.
4. **Richards J. C.** Communicative Language Teaching Today. – Cambridge: Cambridge University Press, 2006.
5. **Larsen-Freeman D.** Techniques and Principles in Language Teaching. – Oxford: Oxford University Press, 2011.
6. **Yılmaz M. E.** Yabancılara Arapça Öğretimi. – Ankara: Nobel Yayınları, 2012.
7. **Yushmanov N.** Grammatika literaturnogo arabskogo yazyka. – Moskva: Nauka, 1990.

BO‘LAJAK TARBIYACHILARNING TASVIRIY-IJODIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH XUSUSIYATLARI

Xazratkulova Gulyora Tojiboyevna

O’zbekiston milliy pedagogika universiteti

Annotatsiya. *Mazkur maqolada tasviriy-ijodiy kompetensiyalarni rivojlantirishning pedagogik, psixologik va metodik xususiyatlari tahlil qilingan. Tasviriy faoliyat jarayonida shaxsning ijodiy fikrlashi, estetik didi va mustaqil yondashuvini shakllantirish masalalari yoritilgan. Tadqiqotda bo‘lajak pedagoglar faoliyatida tasviriy-ijodiy kompetensiyalarning ahamiyati asoslab berilib, ularni rivojlantirishga doir amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.*

Kalit so‘zlar: *tasviriy faoliyat, ijodkorlik, kompetensiya, estetik tarbiya, pedagogik faoliyat.*

Kirish

Zamonaviy ta’lim tizimida shaxsning ijodiy salohiyatini rivojlantirish muhim pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, tasviriy faoliyat orqali ijodiy kompetensiyalarni shakllantirish ta’lim oluvchilarning estetik dunyoqarashini kengaytirish, mustaqil fikrlashini rivojlantirish va kasbiy faoliyatga tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda pedagoglardan nafaqat nazariy bilim, balki ijodiy yondashuv, yangicha fikrlash va innovatsion faoliyat talab etilmoqda. Tasviriy-ijodiy kompetensiyalar shaxsning rasm chizish, ranglar bilan ishlash, obrazlar yaratish orqali o‘z fikr va hissiyotlarini ifodalash qobiliyatini namoyon etadi. Shu bois, ushbu kompetensiyalarni rivojlantirish xususiyatlarini o‘rganish va amaliyotga joriy etish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan, tasviriy-ijodiy kompetensiyalarni rivojlantirish masalasi nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham muhim hisoblanadi. Chunki zamonaviy ta’lim jarayonida pedagog shaxsining ijodkorligi ta’lim sifati va samaradorligini belgilovchi asosiy omillardan biri sanaladi. Tasviriy-ijodiy kompetensiyalar maktabgacha yoshdagi bolalarning obrazli tafakkuri, emotsional ifoda, estetik idrok, vizual-makonsal fikrlash va san’at vositalari orqali muloqot qilish kabi ko‘nikmalarini o‘z ichiga oladi. Bu kompetensiyalarni shakllantirish jarayoni bolaning mustaqil fikrlashi,

san’atni idrok etishi va shaxsiy tajribalarini estetik ifoda etish imkoniyatlariga asoslanadi.

Ilmiy manbalarda qayd etilishicha, tasviriy-ijodiy kompetensiyalar bolaning vizual-makonsal qobiliyatlari, go‘zallikni anglash va tasvirlash ehtiyoji hamda estetik munosabatining shakllanishida asosiy rol o‘ynaydi[94]. Bu jarayon orqali bola atrof-muhitni o‘ziga xos uslubda qabul qilishni, uni ifodalashni va ijodiy yondashishni o‘rganadi.

Tasviriy-ijodiy kompetensiya tushunchasi va mazmuni

Tasviriy-ijodiy kompetensiya shaxsning tasviriy san’at vositalari orqali ijodiy faoliyat olib borish, estetik baholash va mustaqil ijodiy qarorlar qabul qilish qobiliyatlarini o‘z ichiga oladi. Ushbu kompetensiya bilim, ko‘nikma, malaka va ijodiy tajribaning uyg‘unlashuvi natijasida shakllanadi. Pedagogik nuqtayi nazardan, tasviriy-ijodiy kompetensiya nafaqat texnik mahoratni, balki shaxsning ichki ijodiy ehtiyojlari, tasavvuri va emotsional holatini ham qamrab oladi. Tasviriy faoliyat jarayonida shaxs rang, shakl va kompozitsiya orqali borliqni idrok etadi va o‘z munosabatini ifodalaydi.

Tasviriy-ijodiy kompetensiyalarni shakllantirish quyidagi xususiyatlarga ega:

- ***Emotsional-hissiy yondashuv:*** bola o‘z hissiyotlarini rang, shakl, kompozitsiya orqali ifoda etadi;
- ***Obrazli-fikriy faoliyat:*** bola tasavvurlari asosida yangi obrazlar yaratadi;
- ***Estetik idrok:*** go‘zallikni anglash, baholash va yaratish qobiliyatlari shakllanadi;
- ***Faoliyatda mustaqillik:*** bola ijodiy faoliyatda mustaqil tanlovlar qilishni o‘rganadi;
- ***Madaniy-estetik rivojlanish:*** milliy qadriyatlar va san’at asarlari orqali tarbiyalanadi.

O‘zbekistonlik olimlar, jumladan A.X. Yo‘ldoshev[95], M. Mahkamova[96] va boshqalar o‘z tadqiqotlarida bolalarning tasviriy-ijodiy kompetensiyalarini rivojlantirishda milliy madaniyat, ijtimoiy muhit va didaktik o‘yinlarning roli muhimligini alohida ta’kidlaganlar.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda tasviriy-ijodiy kompetensiyalarni shakllantirish ularning estetik ongini rivojlantirish, obrazli fikrlashni chuqurlashtirish, emotsional sezgirlik va mustaqil ijodiy faoliyatga tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ilmiy-nazariy manbalar, ilg‘or pedagogik yondashuvlar va amaliy tajribalarga tayanib, tasviriy-ijodiy kompetensiyaning tarkibiy qismlarini aniqlab olish mazkur yo‘nalishdagi ta’lim jarayonini samarali tashkil etishda muhim asos bo‘lib xizmat qiladi.

Tasviriy-ijodiy kompetensiyalarni rivojlantirish xususiyatlari

Pedagogik xususiyatlar

Tasviriy-ijodiy kompetensiyalarni rivojlantirishda ta’lim jarayonining tizimli va izchil tashkil etilishi muhimdir. Mashg‘ulotlarda interfaol metodlar, ijodiy topshiriqlar va muammoli vaziyatlardan foydalanish ta’lim oluvchilarning faolligini oshiradi. Pedagog tomonidan yaratilgan ijodiy muhit shaxsning o‘zini erkin namoyon etishiga imkon beradi. Pedagogik jarayonda tasviriy faoliyatni to‘g‘ri rejalashtirish, ta’lim oluvchilarning individual imkoniyatlarini hisobga olish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa ijodiy kompetensiyalarning samarali shakllanishiga xizmat qiladi.

Psixologik xususiyatlar

Ijodiy faoliyat shaxsning ichki motivatsiyasi bilan bevosita bog‘liq. Tasviriy faoliyat jarayonida ishtirokchilarning qiziqishi, emotsional holati va o‘ziga

bo‘lgan ishonchi mustahkamlanadi. Ijobiy ruhiy muhit ijodiy fikrlashning rivojlanishiga xizmat qiladi.

Metodik xususiyatlar

Tasviriy-ijodiy kompetensiyalarni rivojlantirishda metodik yondashuvlar muhim ahamiyatga ega. Rasm chizish, applikatsiya, kollaj, loy va boshqa materiallar bilan ishlash kabi faoliyat turlari ijodkorlikni rivojlantirishga xizmat qiladi. Mashg‘ulotlarning murakkablik darajasi bosqichma-bosqich oshirib borilishi samaradorlikni ta’minlaydi.

Amaliy ahamiyati

Tasviriy-ijodiy kompetensiyalar pedagogik faoliyatda muhim kasbiy sifat hisoblanadi. Bo‘lajak pedagoglar ushbu kompetensiyalar orqali bolalarda estetik tarbiya, ijodiy fikrlash va mustaqil faoliyat ko‘nikmalarini shakllantira oladilar. Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, tasviriy faoliyatga asoslangan mashg‘ulotlar ta’lim jarayonining samaradorligini oshiradi. Xususan, maktabgacha ta’lim muassasalarida tasviriy faoliyat mashg‘ulotlarini samarali tashkil etish orqali bolalarda ranglarni farqlash, shakllarni idrok etish va tasavvur qilish qobiliyatlari rivojlanadi. Bu jarayonda tarbiyachining tasviriy-ijodiy kompetensiyasi yetakchi rol o‘ynaydi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, tasviriy-ijodiy kompetensiyalarni rivojlantirish shaxsning har tomonlama kamol topishida muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu kompetensiyalarni rivojlantirish pedagogik, psixologik va metodik jihatlarning uyg‘unligini talab etadi. Tasviriy faoliyatga yo‘naltirilgan ta’lim jarayoni ijodiy salohiyatni yuzaga chiqarishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. **O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi.** Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to‘g‘risida : 2020 yil 22 dekabrdagi 802-son qaror.

2. **Mirziyoyev Sh. M.** Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017. – B. 163.
3. **Yo‘ldoshev A. X.** Tasviriy san’at mashg‘ulotlarida bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasi. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2018.
4. **Abdullayev A.** Jajda prekrasnogo. – T., 1994. – 125 b.
5. **Gegel G. V.** Estetika : 4 jildda. – M., 1968. – 73 b.
6. **Gulyamov D. R.** Bilish jarayoni faolligi va neyropedagogik tadqiqotlar talqini // Pedagogika. – 2015. – № 5. – B. 29–35.
7. **Gulyamov D. R., Kalanxodjayeva K. B.** K voprosu ucheta osobennostey mejpolusharnoy funksionalnoy asimmetrii mozga obuchaemyx v uchebnom protsesse // Aktualnie problemi gumanitarnix i yestestvennix nauk. – 2018. – № 11. – S. 38–43.

ADABIYOT DARSLARIDA MUAMMOLI TA’LIM TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH ORQALI O‘QUVCHILARDA TANQIDIY TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISH

Xojimirzayeva Mohchehra Abrorjon qizi
Namangan davlat pedagogika instituti

Annotatsiya. *Mazkur maqolada adabiyot darslarida muammoli ta’lim texnologiyasidan foydalanish orqali o‘quvchilarda tanqidiy tafakkurni rivojlantirish masalasi yoritilgan. Tadqiqotning maqsadi muammoli vaziyatlar asosida o‘quvchilarning mustaqil fikrlash, tahlil qilish va dalillarga tayangan holda xulosa chiqarish ko‘nikmalarini shakllantirish imkoniyatlarini aniqlashdan iborat. Tadqiqot jarayonida tahlil, qiyoslash, kuzatish va pedagogik tajriba metodlaridan foydalanildi. Olingan natijalar muammoli ta’lim texnologiyasi asosida tashkil*

etilgan adabiyot darslari o‘quvchilarning tanqidiy tafakkurini samarali rivojlantirishini ko‘rsatdi. Tadqiqot xulosalari adabiyot ta’limida muammoli yondashuvni keng joriy etish zarurligini asoslaydi.

***Kalit so‘zlar**: muammoli ta’lim, tanqidiy tafakkur, adabiyot darsi, pedagogik texnologiya, muammoli vaziyat, tahlil, munozara.*

KIRISH

Bugungi ta’lim tizimining asosiy vazifalaridan biri o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, muammolarni tahlil qilish va dalillarga asoslangan xulosalar chiqarish qobiliyatini rivojlantirishdan iborat. Adabiyot fani bu borada alohida ahamiyat kasb etib, o‘quvchilarning badiiy tafakkuri, estetik didi va tanqidiy qarashlarini shakllantirishga xizmat qiladi. Shu sababli adabiyot darslarida muammoli ta’lim texnologiyasidan foydalanish dolzarb pedagogik muammo sifatida qaralmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

So‘nggi yillarda ta’lim jarayonida o‘quvchilarning mustaqil va tanqidiy tafakkurini rivojlantirish masalasi pedagogika fanining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Ayniqsa, muammoli ta’lim texnologiyasi o‘quvchilarni faol bilim egallash jarayoniga jalb etuvchi samarali pedagogik yondashuv sifatida ko‘plab olimlar tomonidan tadqiq etilgan.

Amerikalik faylasuf va pedagog J.Dyui muammoli ta’limni shaxs tafakkurini rivojlantirishning asosiy mexanizmi sifatida talqin qilib, o‘quvchi bilimni tayyor holda qabul qilmasdan, muammoli vaziyat orqali mustaqil kashf etishi zarurligini ta’kidlaydi. Uning fikricha, muammo asosida tashkil etilgan ta’lim jarayoni o‘quvchida tahlil qilish, faraz ilgari surish va mantiqiy xulosa chiqarish ko‘nikmalarini shakllantiradi.L.S. Vigotskiy ta’lim jarayonida fikrlash va nutqning o‘zaro bog‘liqligini asoslab, muammoli vaziyatlar o‘quvchining “yaqin rivojlanish zonasi”ni kengaytirishini ilmiy jihatdan isbotlaydi. Olim muammoli ta’limni o‘quvchini yuqori darajadagi tafakkur faoliyatiga olib chiqadigan vosita sifatida baholaydi.

Mahalliy tadqiqotchilar — M.Qodirov, J.Yo‘ldoshev, O.Hasanboeva va A.Zunnunovlarning ilmiy ishlarida ham muammoli ta’lim texnologiyasining nazariy

asoslari va amaliy ahamiyati keng yoritilgan. Ular muammoli savollar, munozarali topshiriqlar va badiiy matn asosida tashkil etilgan tahlillar o‘quvchilarning tanqidiy tafakkurini rivojlantirishda muhim rol o‘ynashini ta’kidlaydilar.

Adabiyot faniga oid metodik tadqiqotlarda muammoli ta’lim badiiy asar mazmunini chuqur anglash, qahramonlar xarakterini tahlil qilish va syujetdagi ziddiyatlarni ochishda samarali metod sifatida e’tirof etiladi. Adabiy matnlar tabiatan muammoli vaziyatlarga boy bo‘lgani sababli, ular tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun qulay didaktik material hisoblanadi.

Mazkur tadqiqot jarayonida muammoli ta’lim texnologiyasining adabiyot darslarida qo‘llanish imkoniyatlarini aniqlash maqsadida quyidagi ilmiy-pedagogik metodlardan foydalanildi:

– Ilmiy adabiyotlar tahlili – muammoli ta’lim va tanqidiy tafakkurga oid mahalliy va xorijiy manbalarni o‘rganish orqali nazariy xulosalar chiqarildi;

– Pedagogik kuzatish metodi – adabiyot darslarida o‘quvchilarning muammoli savollarga munosabati, fikrlash faolligi va munozaradagi ishtiroki tahlil qilindi;

– Qiyosiy tahlil – an’anaviy darslar va muammoli ta’lim asosida tashkil etilgan darslar natijalari solishtirildi;

– Pedagogik tajriba-sinov metodi – muammoli vaziyatlar asosida ishlab chiqilgan dars ishlanmalari amaliyotda sinab ko‘rildi;

– Tahlil va umumlashtirish – olingan natijalar asosida umumiy ilmiy xulosalar chiqarildi.

Mazkur metodlarning uyg‘un qo‘llanilishi tadqiqot natijalarining ishonchliligini ta’minlab, adabiyot darslarida muammoli ta’lim texnologiyasining tanqidiy tafakkurni rivojlantirishdagi samaradorligini ilmiy asosda yoritish imkonini berdi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, muammoli savollar, munozaralar va badiiy asar tahliliga asoslangan darslar o‘quvchilarning tanqidiy tafakkurini rivojlantiradi. O‘quvchilar voqealar sabab–oqibatini anglashga, qahramonlar xatti-harakatlarini baholashga va o‘z fikrini dalillashga o‘rganadilar. Bu jarayon

o‘quvchilarda mantiqiy izchillik, refleksiya va mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantiradi.Tadqiqot jarayonida adabiyot darslarida muammoli ta’lim texnologiyasini qo‘llash orqali o‘quvchilarning tanqidiy tafakkuri rivojlanish darajasi kuzatildi va tahlil qilindi. Tajriba-sinov ishlari davomida muammoli vaziyatlar asosida tashkil etilgan darslar o‘quvchilarning fikrlash faolligiga sezilarli ta’sir ko‘rsatgani aniqlandi.Avvalo, muammoli savollar asosida olib borilgan darslarda o‘quvchilarning dars jarayonidagi ishtiroki faollashdi. O‘quvchilar tayyor bilimni qabul qilishdan ko‘ra, badiiy asar mazmuni ustida mustaqil mulohaza yuritishga, qahramonlar xatti-harakatlarini sabab–oqibat munosabatida tahlil qilishga harakat qildilar. Bu esa tanqidiy tafakkurning asosiy komponentlari bo‘lgan tahlil qilish, solishtirish va xulosa chiqarish ko‘nikmalarining rivojlanishiga xizmat qildi.Pedagogik kuzatishlar shuni ko‘rsatdiki, muammoli vaziyatlar yaratilgan darslarda o‘quvchilar o‘z fikrini erkin ifodalashga intiladi, munozaralarda faol qatnashadi va qarama-qarshi nuqtai nazarlarni tahlil qilishga o‘rganadi. Xususan, qahramonlar qarorlarini baholashga qaratilgan savollar o‘quvchilarda alternativ fikrlashni rivojlantirdi. Bu holat o‘quvchilarning bir masalaga turli rakurslardan yondashish qobiliyatini shakllantirdi.Qiyosiy tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki, an’anaviy darslarga nisbatan muammoli ta’lim asosida tashkil etilgan adabiyot darslarida o‘quvchilarning matnni chuqur anglash darajasi yuqoriroq bo‘ldi. O‘quvchilar badiiy matndan dalil keltirish, iqtibos orqali fikrni asoslash va mantiqiy izchillikni saqlagan holda xulosa chiqarishga ko‘proq e’tibor qaratdilar.Shuningdek, refleksiya jarayonida o‘quvchilarning o‘z fikrini baholash ko‘nikmalari shakllanayotgani kuzatildi. Dars yakunida berilgan “Nimani bildim?”, “Qaysi dalil meni ishontirdi?”, “Mening fikrim qanday o‘zgardi?” kabi savollar o‘quvchilarning o‘z-o‘zini tahlil qilish qobiliyatini rivojlantirdi. Bu esa tanqidiy tafakkurning muhim belgilaridan biri hisoblanadi.Olingan natijalar J.Dyui va L.S.Vigotskiy tomonidan ilgari surilgan muammoli ta’lim nazariyasi bilan hamohang bo‘lib, muammoli vaziyatlar o‘quvchilarning yuqori darajadagi tafakkur faoliyatini faollashtirishini tasdiqlaydi. Shuningdek, mahalliy olimlar tomonidan ta’kidlanganidek, adabiyot

fanining mazmuniy imkoniyatlari muammoli ta’lim texnologiyasini samarali tatbiq etish uchun qulay shart-sharoit yaratadi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari adabiyot darslarida muammoli ta’lim texnologiyasidan foydalanish o‘quvchilarning tanqidiy tafakkurini rivojlantirishda samarali pedagogik vosita ekanligini ko‘rsatdi va uning ta’lim amaliyotiga keng joriy etilishi maqsadga muvofiqligini asoslab berdi.

XULOSA

Mazkur tadqiqot adabiyot darslarida muammoli ta’lim texnologiyasidan foydalanish o‘quvchilarning tanqidiy tafakkurini rivojlantirishda yuqori pedagogik samaradorlikka ega ekanligini ko‘rsatdi. O‘rganishlar shuni tasdiqladiki, muammoli vaziyatlar asosida tashkil etilgan darslar o‘quvchilarning mustaqil fikrlash, tahliliy yondashuv va dalillarga tayangan holda xulosa chiqarish ko‘nikmalarini izchil rivojlantiradi.Tadqiqot natijalariga ko‘ra, adabiyot fanining mazmuniy imkoniyatlari muammoli ta’lim texnologiyasini tatbiq etish uchun qulay pedagogik muhit yaratadi. Badiiy asarlar syujeti, qahramonlar xarakteri va kompozitsion ziddiyatlar muammoli savollar yaratish uchun tabiiy asos bo‘lib xizmat qiladi. Bu esa o‘quvchilarni faqat mazmunni anglash bilan cheklanmasdan, asarga tanqidiy nuqtai nazardan yondashishga undaydi.Shuningdek, muammoli ta’lim jarayonida munozara, bahs va refleksiya metodlarining qo‘llanilishi o‘quvchilarning muloqot madaniyati, alternativ fikrlash va o‘z pozitsiyasini himoya qilish qobiliyatini shakllantiradi. Bu jarayon o‘quvchilarning nafaqat intellektual, balki shaxsiy rivojlanishiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.Tadqiqot davomida qo‘llangan metodlar natijalari J.Dyui va L.S.Vigotskiy tomonidan ilgari surilgan muammoli ta’lim nazariyalarini amaliy jihatdan tasdiqladi hamda mahalliy pedagogik tajribalar bilan uyg‘unlashdi. Olingan ilmiy xulosalar adabiyot darslarida muammoli ta’lim texnologiyasini tizimli va rejalashtirilgan holda qo‘llash zarurligini ko‘rsatadi.Umuman olganda, adabiyot darslarida muammoli ta’lim texnologiyasini joriy etish o‘quvchilarning tanqidiy tafakkurini rivojlantirish, ularni mustaqil, tahliliy va ijodiy fikrlovchi shaxs sifatida shakllantirishda muhim pedagogik omil hisoblanadi. Mazkur tadqiqot natijalari umumta’lim maktablari va pedagogik

amaliyot uchun ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqishda nazariy asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. **Zunnunov A., Karimov B.** Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. — Toshkent: O‘qituvchi, 2019.
2. **Yo‘ldoshev J., Hasanboeva O.** Pedagogik texnologiyalar asoslari. — Toshkent, 2020.
3. **Qodirov M.** Ta’lim jarayonida muammoli o‘qitish usullari. — Toshkent, 2018.
4. **Dewey J.** How We Think. — New York, 2007.
5. **Vygotsky L. S.** Thought and Language. — Cambridge, 2012.

PEDAGOGIKANING IJTIMOIY FUNKSIYALARINING KARYERA DIZAYNI JARAYONIGA TA’SIRI: TARIXIY VA ZAMONAVIY TAHLIL

Xolmirzaeva Iroda Sobirjonovna
Turon universiteti Andijon filiali

Annotatsiya. *Ushbu maqola pedagogikaning ijtimoiy funksiyalarining karyera dizayni jarayoniga ta’sirini tarixiy va zamonaviy kontekstda tahlil qiladi. Tadqiqotda tarixiy pedagogik qarashlar, jumladan Sharq va Yevropa pedagogik an’analari, shuningdek Jadid maktabi tajribalari ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, zamonaviy pedagogik yondashuvlar, xususan innovatsion texnologiyalar, dizayn fikrlash (Design Thinking) va STEM integratsiyasi shaxsning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim vosita sifatida baholangan.*

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, pedagogikaning ijtimoiy funksiyalari nafaqat bilim berish va tarbiya bilan cheklanmaydi, balki shaxsning kasbiy rivojlanishi, karyera yo‘nalishini ongli tanlashi va innovatsion faoliyatga tayyorlanishida ham muhim rol o‘ynaydi. Shu asosda maqolada kasbiy rivojlanish va karyera dizayni jarayonida pedagogikaning ijtimoiy funksiyalarini samarali qo‘llash bo‘yicha tavsiyalar berilgan.

***Kalit so‘zlar**: pedagogika, ijtimoiy funksiyalar, karyera dizayni, kasbiy rivojlanish, dizayn fikrlash, STEM integratsiyasi.*

Kirish

Pedagogika nafaqat bilim berish va tarbiya vazifasini bajaradi, balki jamiyatdagi shaxslarning ijtimoiy moslashuvi, mehnat faoliyatiga tayyorgarligi va kasbiy rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi. Shu nuqtai nazardan, pedagogikaning ijtimoiy funksiyalari — shaxsni jamiyat talablariga moslashtirish, uning axloqiy, madaniy va kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish bilan bog‘liq jarayonlar majmui sifatida tushuniladi. Bu funksiyalar shaxsning nafaqat akademik bilim darajasini oshirish, balki karyera yo‘nalishida ongli tanlov qilishi va kasbiy faoliyatda samarali bo‘lishini ta’minlashga xizmat qiladi.

Karyera dizayni tushunchasi esa shaxsning kasbiy yo‘lini rejalashtirish, kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish va mehnat bozorida muvaffaqiyatli faoliyat yuritish imkoniyatlarini yaratish bilan bog‘liq. Pedagogikaning ijtimoiy funksiyalari va karyera dizayni o‘rtasidagi bog‘liqlik shundaki, pedagogik jarayon shaxsga kasbiy malaka va ijtimoiy ko‘nikmalarni shakllantirishda sistematik yordam beradi. Shu orqali shaxs nafaqat bilimli, balki kasbiy jihatdan ham barqaror va raqobatbardosh bo‘ladi.

Ushbu tadqiqotning dolzarbligi zamonaviy mehnat bozorining o‘zgaruvchanligi, professional malaka talablarining oshishi va karyera rejalashtirishga bo‘lgan ehtiyoj bilan izohlanadi. Maqsad esa pedagogikaning ijtimoiy funksiyalarini tarixiy va zamonaviy nuqtai nazardan tahlil qilish orqali ularning kasbiy rivojlanish va karyera dizayni jarayonidagi ahamiyatini aniqlashdir.

Shu bilan birga, tadqiqot karyera dizaynini shakllantirishda innovatsion pedagogik yondashuvlarning samaradorligini ko‘rsatishga qaratilgan.

Adabiyotlar tahlili

Pedagogikaning ijtimoiy funksiyalari tarix davomida turli madaniyat va pedagogik maktablarda turlicha talqin qilingan. Sharq pedagogik an’analarida ta’limning ijtimoiy funksiyasi shaxsni jamiyatga moslashtirish va axloqiy tarbiya bilan bog‘langan. Masalan, Xitoy va Hindiston pedagogik maktablarida shaxsning ijtimoiy mas’uliyati, kasbiy odob va etik qadriyatlarni shakllantirish birinchi darajali vazifa sifatida ko‘rilgan.

Yevropa pedagogik maktablarida esa ijtimoiy funksiyalar asosida shaxsning bilim, kreativlik va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilgan. XIX–XX asr pedagogik nazariyalarida shaxsning kasbiy tayyorgarligi va mehnat faoliyatiga moslashuvi, jamiyatdagi rolini belgilash muhim element sifatida qaralgan. Shu bilan birga, Jadid maktabi tajribalarida o‘quv jarayoni nafaqat bilim berish, balki yosh avlodni ijtimoiy jihatdan faol, zamonaviy jamiyatga mos shaxslar sifatida tarbiyalashga yo‘naltirilgan edi.

Zamonaviy pedagogik adabiyotlar esa innovatsion yondashuvlarni, xususan dizayn fikrlash (Design Thinking) va STEM integratsiyasini ijtimoiy funksiyalar bilan uzviy bog‘lashga e’tibor qaratadi. Dizayn fikrlash metodologiyasi shaxsni ijodiy muammolarni hal qilishga jalb qilsa, STEM yondashuvi texnologik va ilmiy savodxonlikni rivojlantirishga xizmat qiladi. Ushbu metodlar kasbiy rivojlanish kompetensiyalarini, ya’ni tanqidiy fikrlash, hamkorlik, muammolarni hal etish va innovatsion yondashuv ko‘nikmalarini shakllantirishda samarali vosita sifatida baholanadi.

Shunday qilib, tarixiy pedagogik qarashlar va zamonaviy talqinlar pedagogikaning ijtimoiy funksiyalarini shaxsni kasbiy jihatdan rivojlantirish va karyera dizayni jarayonida tizimli qo‘llashning ahamiyatini ko‘rsatadi. Adabiyotlar tahlili shuni tasdiqladiki, pedagogikaning ijtimoiy funksiyalari nafaqat tarbiya va bilim berish bilan cheklanmaydi, balki shaxsning kasbiy kompetensiyalarini

shakllantirish, mehnat bozorida raqobatbardosh va innovatsion faoliyat yuritishga tayyorlash jarayonida muhim rol o‘ynaydi.

Tadqiqot metodlari

Ushbu tadqiqotda pedagogikaning ijtimoiy funksiyalarining karyera dizayni jarayoniga ta’sirini aniqlash uchun bir qator nazariy va amaliy metodlardan foydalanildi.

Nazariy tahlil metodi yordamida tarixiy va zamonaviy pedagogik adabiyotlar, ilmiy maqolalar va ta’lim texnologiyalari tizimli ravishda o‘rganildi. Bu metod pedagogikaning ijtimoiy funksiyalari va kasbiy rivojlanish kompetensiyalari o‘rtasidagi bog‘liqlikni tushunishga xizmat qildi.

Taqqoslash metodi orqali tarixiy pedagogik qarashlar va zamonaviy yondashuvlar solishtirildi. Shu bilan aniqlandi: dizayn fikrlash va STEM integratsiyasi kabi innovatsion metodlar shaxsning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda an’anaviy yondashuvlarga nisbatan yuqori samaradorlikka ega.

Tizimli yondashuv pedagogikaning ijtimoiy funksiyalarini shaxsning kasbiy rivojlanishi va karyera dizayni jarayoni bilan integratsiyalash imkonini berdi. Bu metod orqali o‘quvchilar va mutaxassislarning bilim, ko‘nikma va ijtimoiy kompetensiyalari tizimli ravishda baholandi.

Shuningdek, pedagogik kuzatuv va amaliy tahlil usullari tadqiqotga real kontekstni kiritdi. Karyera dizayni jarayonida shaxslarning kasbiy yo‘nalishlarni tanlashi, muammolarni hal qilish ko‘nikmalari va ijodiy yondashuvdagi faoliyati kuzatildi va tahlil qilindi. Natijalar pedagogik funksiyalarning shaxsning kasbiy rivojlanishida qanchalik samarali ishlashini baholash imkonini berdi.

Umuman olganda, tadqiqot metodlari birgalikda pedagogikaning ijtimoiy funksiyalari va kasbiy rivojlanish kompetensiyalari o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni aniqlash va karyera dizayni jarayonidagi amaliy samaradorligini baholashga xizmat qildi.

Natijalar va muhokama

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, tarixiy pedagogik yondashuvlar shaxsning kasbiy rivojlanishida muhim poydevor vazifasini bajaradi. Sharqiy va

Yevropa pedagogik maktablarining tajribalari shuni isbotlaydiki, shaxsning ijtimoiy mas’uliyati, axloqiy qadriyatlar va mehnat odobini shakllantirish karyera yo‘nalishini ongli tanlash va samarali faoliyat yuritishda muhim ahamiyatga ega. Jadid maktabi pedagogik qarashlari esa shaxsni zamonaviy jamiyatga moslashtirish va kasbiy tayyorgarlikni rivojlantirishga yo‘naltirilganligi bilan ajralib turadi.

Zamonaviy pedagogik yondashuvlar, xususan dizayn fikrlash va STEM integratsiyasi, kasbiy rivojlanish jarayonini tizimli va interaktiv shaklda tashkil etishga imkon beradi. Pedagogikaning ijtimoiy funksiyalari orqali shaxs muammolarni hal qilish, tanqidiy fikrlash, hamkorlik va ijodiy yondashuv kabi kompetensiyalarni rivojlantiradi. Kuzatuv va amaliy tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki, dizayn fikrlash metodologiyasi o‘quvchilar va mutaxassislarning karyera yo‘nalishida ongli tanlov qilishini rag‘batlantiradi, real hayotiy vaziyatlarda innovatsion yechimlar ishlab chiqishga imkon yaratadi.

Shuningdek, zamonaviy metodlar an’anaviy pedagogik yondashuvlar bilan solishtirilganda, shaxsni faol ishtirok etishga undashi, mustaqil izlanish va refleksiya ko‘nikmalarini shakllantirishi bilan ajralib turadi. Natijalar pedagogikaning ijtimoiy funksiyalari kasbiy rivojlanish jarayonida faqat bilim berish bilan cheklanmasligini, balki shaxsning kasbiy kompetensiyalarini mustahkamlash, kreativ va innovatsion faoliyatga tayyorlashda ham muhim rol o‘ynashini ko‘rsatadi.

Umuman olganda, tarixiy va zamonaviy pedagogik yondashuvlarning uyg‘unligi karyera dizayni jarayonini samarali tashkil etish, shaxsni kasbiy jihatdan barqaror va raqobatbardosh qilish imkonini beradi.

Xulosa

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, pedagogikaning ijtimoiy funksiyalari kasbiy rivojlanish va karyera dizaynini tizimli ravishda shakllantirishda muhim vosita hisoblanadi. Tarixiy va zamonaviy pedagogik yondashuvlar shaxsning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish, muammolarni hal qilish, ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini mustahkamlashda uzviy rol o‘ynaydi. Shu bilan birga, pedagogikaning ijtimoiy funksiyalari shaxsni jamiyat talablariga moslashtirish,

karyera yo‘nalishini ongli tanlash va mehnat bozorida muvaffaqiyatli faoliyat yuritishga tayyorlash imkonini beradi.

Tadqiqot asosida quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi:

- **Malaka oshirish dasturlarida** pedagogikaning ijtimoiy funksiyalarini samarali qo‘llash, shaxsning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan trening va seminarlarni joriy etish.
- **Mentorlik va kouçing tizimlarini** ta’lim jarayoniga integratsiya qilish, shaxsga individual yondashuv orqali karyera dizaynini qo‘llab-quvvatlash.
- **Innovatsion pedagogik texnologiyalarni** — dizayn fikrlash, STEM yondashuvi va raqamli o‘quv vositalarini kasbiy rivojlanish jarayonida keng qo‘llash, shaxsning ijodiy va tanqidiy fikrlashini rivojlantirish.

Shu tariqa, pedagogikaning ijtimoiy funksiyalarini zamonaviy yondashuvlar bilan uyg‘unlashtirish karyera dizaynini tizimli, samarali va shaxs markazli shakllantirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. **O‘tkir N.** O‘zbekiston ijtimoiy pedagogikasining rivojlanish tarixi. — Toshkent: Fan, 2025.
2. **Karimov S.** Ijtimoiy pedagogikaning nazariy asoslari va shaxsning kasbiy rivojlanishiga ta’siri // Ta’lim va innovatsiyalar. — 2025. — T. 4, № 1. — B. 33–42.
3. **Smith J.**, **Brown T.** Design thinking: A creative approach to educational problems of practice // Procedia Computer Science. — 2017. — Vol. 112. — P. 1101–1110. — DOI: 10.1016/j.procs.2017.08.108.
4. **Johnson L.**, **White K.** Role of pedagogical approaches in fostering innovation among K–12 students in STEM education // Journal of Educational Technology & Society. — 2024. — Vol. 27, No. 2. — P. 56–70.
5. **Razzouk R.**, **Shute V.** What is design thinking and why is it important? // Review of Educational Research. — 2012. — Vol. 82, No. 3. — P. 330–348. — DOI: 10.3102/0034654312457429.

6. **Best M.**, **Taylor P.** Research activity and the new pedagogy: Why carrying out research is essential for effective learning // Frontiers in Psychology. — 2017. — Vol. 8. — Art. 1838. — DOI: 10.3389/fpsyg.2017.01838.
7. **Usmanova D.** Ta’limda innovatsion pedagogik texnologiyalarning kasbiy rivojlanishga ta’siri // O‘zbekiston pedagogika jurnali. — 2023. — T. 5, № 2. — B. 21–30.

RAQAMLI BAHOLASH VA REFLEKTIV YONDASHUVNING NAZARIY ASOSLARI

Xudayberganov Baxtiyor Madaminovich
Osiyo Xalqaro Universiteti

Annotatsiya: *Ta’lim tizimining raqamli transformatsiyasi baholash jarayonlarini takomillashtirish va ta’lim sifatini oshirishni talab etmoqda. Raqamli baholash texnologiyalari o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarini uzluksiz monitoring qilish, tezkor teskari aloqa taqdim etish hamda individual ta’lim yo‘nalishlarini shakllantirish imkonini beradi. Reflektiv yondashuv esa o‘quvchilarning o‘z o‘quv faoliyatini anglash, tahlil qilish va ongli ravishda boshqarishiga xizmat qiladi. Mazkur maqolada raqamli baholash va reflektiv yondashuvning nazariy asoslari tahlil qilinib, ularning pedagogik imkoniyatlari ochib beriladi. Tadqiqot natijalari raqamli baholash va reflektiv faoliyatning integratsiyasi ta’lim samaradorligini oshirishini ko‘rsatadi.*

Kalit so‘zlar: *raqamli baholash, reflektiv yondashuv, formativ baholash, metakognitsiya, ta’lim texnologiyalari.*

Kirish: Zamonaviy ta’lim tizimida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi o‘qitish jarayonining barcha bosqichlariga, jumladan, baholash tizimiga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. An’anaviy baholash usullari asosan o‘quv natijalarini yakuniy nazorat qilishga yo‘naltirilgan bo‘lib, o‘quvchilarning bilimlarni o‘zlashtirish jarayonidagi rivojlanish dinamikasini to‘liq aks ettira olmaydi.

Shu sababli, so‘nggi yillarda **raqamli baholash** va **reflektiv yondashuv** ta’lim nazariyasi va amaliyotida muhim ilmiy muammo sifatida qaralmoqda. Raqamli baholash o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini real vaqt rejimida aniqlash, tahlil qilish va baholash imkonini bersa, reflektiv yondashuv o‘quvchilarning o‘z ta’lim faoliyatini tahlil qilish, xatolarini anglash va ularni bartaraf etishiga xizmat qiladi.

Zamonaviy ta’lim tizimida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi ta’lim jarayonini tashkil etish va baholash mexanizmlarini takomillashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Xususan, raqamli baholash ta’lim sifatini oshirish, o‘quv jarayonini tizimli monitoring qilish hamda talabalarning individual rivojlanish trayektoriyasini shakllantirish imkonini beruvchi muhim pedagogik vosita hisoblanadi.

Raqamli baholash deganda elektron platformalar, axborot tizimlari va raqamli vositalar yordamida ta’lim oluvchilarning bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarini aniqlash, tahlil qilish hamda baholash jarayoni tushuniladi. Ushbu jarayonda baholash faqat yakuniy natijani qayd etish bilan cheklanmay, balki ta’lim jarayonining barcha bosqichlarini qamrab oladi.

An’anaviy baholash tizimlarida baholash asosan bilimlarning natijaviy ko‘rsatkichlariga yo‘naltirilgan bo‘lsa, raqamli baholashda talabalarning o‘quv faoliyati, faolligi, mustaqil ishlash qobiliyati va reflektiv fikrlashi ham inobatga olinadi. Shu bois raqamli baholash ta’lim jarayonining uzviy tarkibiy qismi sifatida qaraladi.

Raqamli baholash vositalariga onlayn testlar, elektron portfoliolar, avtomatlashtirilgan baholash tizimlari, virtual trenajyorlar hamda ta’lim platformalari kiradi. Ushbu vositalar yordamida talabalarning bilim darajasi bilan

bir qatorda, ularning o‘quv faoliyatidagi muammolar va rivojlanish ehtiyojlari aniqlanadi.

Reflektiv yondashuv ta’lim jarayonida talabaning o‘z o‘quv faoliyatini tahlil qilishi, o‘z bilim va tajribasini anglash hamda ularni baholashi bilan bog‘liq bo‘lgan pedagogik jarayondir. Refleksiya tushunchasi pedagogika va psixologiya fanlarida shaxsning ichki tafakkur faoliyati, ya’ni o‘z fikrlari va harakatlarini anglash jarayoni sifatida talqin etiladi.

Pedagogik nuqtayi nazardan refleksiya talabaning o‘z bilim darajasi, o‘quv jarayonidagi muvaffaqiyat va kamchiliklarini aniqlashi hamda ularni bartaraf etish yo‘llarini belgilash qobiliyatini ifodalaydi. Reflektiv yondashuv talabalarda tanqidiy fikrlash, o‘z-o‘zini nazorat qilish va mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Psixologik jihatdan refleksiya insonning o‘z faoliyatiga nisbatan ongli munosabatini shakllantirish, o‘z xatti-harakatlarini baholash va kelgusidagi faoliyatini rejalashtirish imkonini beradi. Shu sababli reflektiv yondashuv shaxsning intellektual va kasbiy rivojlanishida muhim ahamiyatga ega.

Ta’lim jarayonida refleksiyaning quyidagi turlari ajratiladi: kognitiv refleksiya, shaxsiy refleksiya va faoliyat refleksiyasi. Ushbu refleksiya turlari o‘zaro uzviy bog‘liq bo‘lib, talabalarning bilimlarni ongli o‘zlashtirishiga xizmat qiladi.

Mazkur maqolaning maqsadi — raqamli baholash va reflektiv yondashuvning nazariy asoslarini tahlil qilish hamda ularning zamonaviy ta’lim tizimidagi ahamiyatini ilmiy jihatdan asoslashdan iborat.

Tadqiqot metodlari: Tadqiqot nazariy-metodologik xarakterga ega bo‘lib, unda quyidagi metodlardan foydalanildi:

- pedagogik, psixologik va metodik adabiyotlarni tizimli tahlil qilish;
- raqamli baholashga oid nazariy modellarni qiyosiy o‘rganish;
- reflektiv yondashuvga oid ilmiy konsepsiyalarni umumlashtirish;
- ta’limda baholash va refleksiya masalalariga bag‘ishlangan mahalliy va xorijiy tadqiqotlarni tahlil qilish.

Metodologik asos sifatida **konstruktivistik ta’lim nazariyasi**, **formativ baholash konsepsiyasi** hamda **metakognitiv yondashuv** qabul qilindi. Ushbu yondashuvlar o‘quvchining bilimni faol ravishda egallashi va o‘z o‘qish jarayonini ongli boshqarishini nazarda tutadi.

Tadqiqot natijalari: Nazariy tahlil natijasida quyidagi ilmiy xulosalar shakllantirildi:

1. Raqamli baholash o‘quvchilarning bilimini aniqlash bilan birga, ularning o‘quv faoliyatini tahlil qilish va rivojlantirishga xizmat qiluvchi pedagogik vosita hisoblanadi.

2. Elektron testlar, elektron portfolio va ta’limiy analitika vositalari baholash jarayonining shaffofligi va obyektivligini oshiradi.

3. Reflektiv yondashuv o‘quvchilarning o‘z-o‘zini baholash, tanqidiy fikrlash va mas’uliyat hissini rivojlantiradi.

4. Raqamli baholash va reflektiv yondashuvning integratsiyasi o‘quvchilarning metakognitiv kompetensiyalarini shakllantirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

5. Ushbu yondashuvlar o‘qituvchining nazoratchi rolidan ko‘ra, ta’lim jarayonini boshqaruvchi va yo‘naltiruvchi rolini kuchaytiradi.

Muhokama: Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, raqamli baholashni faqat texnologik jarayon sifatida emas, balki pedagogik tizimning muhim tarkibiy qismi sifatida ko‘rib chiqish lozim. Reflektiv yondashuv bilan uyg‘unlashgan raqamli baholash o‘quvchilarning o‘qishga bo‘lgan ichki motivatsiyasini oshiradi va bilimlarning barqaror o‘zlashtirilishini ta’minlaydi.

Xorijiy va mahalliy ilmiy tadqiqotlar bilan qiyosiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, refleksiya bilan boyitilgan baholash tizimlari ta’lim sifatini oshirishda yuqori samaradorlikka ega. Shu bois, raqamli baholash tizimlarini ishlab chiqishda reflektiv faoliyatni qo‘llab-quvvatlovchi mexanizmlarni joriy etish zarur.

Xulosa: Xulosa qilib aytganda, raqamli baholash va reflektiv yondashuvning nazariy asoslari zamonaviy ta’lim tizimida muhim ilmiy-pedagogik ahamiyatga ega.

Ularning integratsiyasi ta’lim jarayonini shaxsga yo‘naltirilgan, moslashuvchan va samarali tashkil etish imkonini beradi.

Mazkur maqola natijalari ta’limda baholash tizimlarini takomillashtirish, elektron ta’lim resurslarini yaratish va innovatsion pedagogik faoliyatni rivojlantirish uchun nazariy asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. **Black P., Wiliam D.** Formativ baholash nazariyasini rivojlantirish // *Educational Assessment, Evaluation and Accountability*. – 2009. – 21-jild, 1-son. – 5–31-betlar.
2. **Boud D., Falchikov N.** Oliy ta’limda baholashni qayta ko‘rib chiqish: uzoq muddatli o‘rganish uchun. – London: Routledge, 2007. – 296 b.
3. **Gikandi J. W., Morrow D., Davis N. E.** Oliy ta’limda onlayn formativ baholash: adabiyotlar sharhi // *Computers & Education*. – 2011. – 57-jild, 4-son. – 2333–2351-betlar.
4. **Nicol D. J., Macfarlane-Dick D.** Formativ baholash va o‘z-o‘zini boshqarib o‘rganish: model va samarali teskari aloqaning yetti tamoyili // *Studies in Higher Education*. – 2006. – 31-jild, 2-son. – 199–218-betlar.
5. **Schön D. A.** Reflektiv mutaxassis: amaliyotda fikrlash. – Nyu-York: Basic Books, 1983. – 374 b.
6. **Taras M.** Talabalar tomonidan o‘z-o‘zini baholash: jarayon va natijalar // *Assessment & Evaluation in Higher Education*. – 2010. – 35-jild, 2-son. – 199–209-betlar.
7. **Zimmerman B. J.** O‘z-o‘zini boshqarib o‘rganishga aylanish: umumiy sharh // *Theory Into Practice*. – 2002. – 41-jild, 2-son. – 64–70-betlar.
8. **OECD.** Ta’limda innovatsiyalar va innovatsiyalar uchun ta’lim. – Parij: OECD Publishing, 2016. – 152 b.
9. **Bates A. W.** Raqamli davrda o‘qitish: ta’lim va o‘rganishni loyihalash bo‘yicha qo‘llanma. – Vankuver: BCcampus, 2019. – 470 b.

10. **Polat E. S.** Ta’lim tizimida yangi pedagogik va axborot texnologiyalari. – Moskva: Akademiya, 2010. – 272 b.

PEDAGOGIK JARAYONINING YANGI PARADIGMALARGA INTEGRATSIYASI

Ziyayeva Zilolaxon Murodjon qizi
Andijon Davlat Pedagogika instituti

Annotatsiya. *Ushbu maqolada pedagogik jarayonining yangi paradigmalariga o‘tish masalasi zamonaviy ta’lim tizimi nuqtayi nazaridan tahlil qilingan. Ta’lim jarayonida shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv, kompetensiyaviy ta’lim, konstruktivistik paradigma hamda raqamli texnologiyalarning pedagogik ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, yangi paradigmalar sharoitida o‘qituvchining roli va kasbiy faoliyatiga qo‘yilayotgan zamonaviy talablar asoslab berilgan. Tadqiqot natijalari pedagogik jarayonni samarali tashkil etish va ta’lim sifatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.*

Kalit so‘zlar: *pedagogik paradigma, ta’lim jarayoni, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim, kompetensiyaviy yondashuv, innovatsion ta’lim, raqamli texnologiyalar.*

INTRODUCTION (KIRISH).

Zamonaviy jamiyat rivoji, globallashuv jarayonlarining jadallashuvi va raqamli texnologiyalarning barcha sohalarga kirib kelishi ta’lim tizimi oldiga mutlaqo yangi talablarni qo‘ymoqda. Bugungi kunda jamiyat nafaqat muayyan bilimlarga ega bo‘lgan, balki mustaqil fikrlay oladigan, muammoli vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qiladigan, ijodkor va raqobatbardosh shaxslarni tayyorlashni taqozo etmoqda[1]. Shu

sababli pedagogik jarayonni an’anaviy yondashuvlar asosida tashkil etish ta’lim sifatini ta’minlashda yetarli samara bermayapti.

An’anaviy pedagogik paradigma asosan bilimlarni uzatish, yodlash va qayta tiklashga yo‘naltirilgan bo‘lib, unda o‘qituvchi yetakchi subyekt, o‘quvchi esa passiv qabul qiluvchi sifatida qaralgan[2]. Bunday yondashuv sanoat jamiyati sharoitida ma’lum darajada o‘zini oqlagan bo‘lsa-da, axborotlashgan va bilimlar jamiyati sharoitida o‘z dolzarbligini yo‘qotmoqda. Chunki bugungi ta’lim tizimi shaxsning individual rivojlanishi, kompetensiyalarni shakllantirish va hayot davomida o‘qib-o‘rganishga tayyorlikni talab qiladi.

Pedagogik paradigma tushunchasi ta’lim jarayonining maqsadi, mazmuni, metodlari va natijalarini belgilab beruvchi ilmiy-nazariy qarashlar tizimini ifodalaydi[3]. Har bir tarixiy bosqichda jamiyat ehtiyojlariga mos pedagogik paradigmalar shakllanib kelgan. Hozirgi davrda esa shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim, kompetensiyaviy yondashuv, konstruktivistik paradigma va raqamli pedagogika zamonaviy ta’lim tizimining metodologik asosiga aylanmoqda.

Mazkur tadqiqotning dolzarbligi shundaki, pedagogik jarayonining yangi paradigmalariga o‘tish nafaqat ta’lim mazmunini, balki o‘qituvchi va o‘quvchi faoliyatini, ta’lim metodlari va baholash tizimini ham tubdan o‘zgartirishni talab etadi. Shu bois ushbu maqolada pedagogik jarayonning yangi paradigmalarini ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilish, ularning zamonaviy ta’lim tizimidagi o‘rni va ahamiyatini asoslab berish maqsad qilib qo‘yildi.

METHODS (TADQIQOT METODOLOGIYASI).

Mazkur tadqiqotda pedagogik jarayonining yangi paradigmalariga o‘tish masalasi ilmiy-nazariy yondashuv asosida o‘rganildi. Tadqiqot jarayonida umumilmiy va maxsus pedagogik tadqiqot metodlaridan kompleks tarzda foydalanildi. Xususan, ilmiy-pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish metodi orqali mahalliy va xorijiy olimlarning pedagogik paradigmalar haqidagi qarashlari o‘rganildi[4].

Qiyosiy-taqqoslash metodi yordamida an’anaviy va zamonaviy pedagogik paradigmalar o‘rtasidagi farqlar, ularning afzallik va kamchiliklari aniqlandi.

Umumlashtirish va tizimlashtirish metodlari orqali yangi pedagogik paradigmalar tasniflandi hamda ularning ta’lim jarayoniga ta’siri ilmiy jihatdan asoslab berildi[5].

Shuningdek, konstruktivistik va kompetensiyaviy yondashuvlarga oid ilmiy manbalar tahlili asosida pedagogik jarayonni modernizatsiya qilishning metodologik asoslari belgilandi. Tadqiqot jarayonida konseptual tahlil metodi ham qo‘llanilib, pedagogik paradigmalar rivojining nazariy modeli ishlab chiqildi.

RESULTS (NATIJALAR).

Tadqiqot natijalari pedagogik jarayonining yangi paradigmalariga o‘tish ta’lim samaradorligini oshirishda muhim omil ekanini ko‘rsatdi. Xususan, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim paradigmasi o‘quvchilarning individual qobiliyatlari va ehtiyojlarini hisobga olish orqali ta’lim jarayonining samaradorligini ta’minlashi aniqlandi[6]. Ushbu paradigma o‘quvchilarda o‘z-o‘zini rivojlantirish, refleksiya va mustaqil ta’lim olish ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etilgan pedagogik jarayon natijasida o‘quvchilarda nafaqat nazariy bilimlar, balki amaliy faoliyatda qo‘llaniladigan kasbiy va hayotiy kompetensiyalar shakllanishi kuzatildi[7]. Bu esa zamonaviy mehnat bozori talablariga mos kadrlar tayyorlash imkonini beradi.

O‘zbekiston Respublikasi ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar ham pedagogik jarayonni yangi paradigmalar asosida rivojlantirishga qaratilgan. Davlat ta’lim standartlarining yangilanishi, kompetensiyaviy yondashuvning joriy etilishi, raqamli ta’lim platformalarining keng qo‘llanilishi pedagogik jarayonni zamonaviy talablar asosida tashkil etishga xizmat qilmoqda. Bu esa ta’lim sifatini oshirish, xalqaro ta’lim maydonida raqobatbardosh kadrlar tayyorlash imkonini bermoqda.

Mazkur maqolada pedagogik jarayonining yangi paradigmalariga o‘tishning nazariy asoslari, zamonaviy pedagogik yondashuvlarning mohiyati hamda ularning ta’lim jarayoniga ta’siri tahlil qilinadi. Shuningdek, yangi paradigmalar sharoitida o‘qituvchi va o‘quvchi faoliyatining o‘ziga xos jihatlari yoritilib, pedagogik jarayonni samarali tashkil etish masalalari ilmiy asosda ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari pedagogika sohasida faoliyat yuritayotgan mutaxassislar, tadqiqotchilar hamda ta’lim muassasalari uchun nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Konstruktivistik paradigma doirasida olib borilgan ta’lim jarayonida bilimlar o‘quvchilar tomonidan mustaqil ravishda o‘zlashtirilishi, muammoli vaziyatlar asosida bilim qurilishi aniqlandi[2]. Raqamli pedagogika vositalaridan foydalanish esa ta’lim jarayonining ochiqligi va moslashuvchanligini ta’minlab, individual ta’lim trayektoriyalarini shakllantirishga xizmat qilishi isbotlandi[3]. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim paradigmasi o‘quvchilarning individual imkoniyatlari, ehtiyojlari va qiziqishlarini hisobga olish orqali ta’lim samaradorligini oshiradi. Ushbu yondashuv o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, refleksiya va o‘z-o‘zini rivojlantirish kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Kompetensiyaviy yondashuv esa ta’lim natijalarini amaliy faoliyat bilan uzviy bog‘lab, zamonaviy mehnat bozori talablariga mos raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash imkonini beradi.

DISCUSSION (MUHOKAMA).

Olingan natijalar pedagogika fanida olib borilgan ilg‘or ilmiy tadqiqotlar bilan uyg‘un ekanini ko‘rsatadi. Jumladan, T. Kun pedagogik jarayondagi paradigmal o‘zgarishlarni jamiyat taraqqiyotining muhim sharti sifatida baholaydi. I.A. Zimnyaya shaxsga yo‘naltirilgan va kompetensiyaviy yondashuvlar ta’lim sifatini oshirishda yetakchi ahamiyatga ega ekanini ta’kidlaydi[6].

Shuningdek, Raven tomonidan ilgari surilgan kompetensiya nazariyasi mazkur tadqiqot natijalari bilan mos keladi. UNESCO tomonidan olib borilgan tadqiqotlar ham raqamli pedagogikaning ta’lim jarayonidagi samaradorligini tasdiqlaydi[9]. Demak, pedagogik jarayonining yangi paradigmalariga o‘tish global ta’lim tendensiyalariga mos keladi, tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, pedagogik jarayonining yangi paradigmalariga o‘tish jarayoni faqat metodik yoki texnologik yangilanishlar bilan cheklanib qolmasligi lozim. Mazkur jarayon ta’lim muassasalarida pedagogik madaniyat, boshqaruv tizimi va o‘qituvchilarning kasbiy ongini yangilash bilan uzviy bog‘liqdir. Agar yangi paradigmalar faqat tashqi shaklda joriy etilib, ularning mohiyati chuqur anglanmasa, kutilgan pedagogik samaradorlikka erishish qiyinlashadi. Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, shaxsga yo‘naltirilgan va kompetensiyaviy yondashuvlarni samarali joriy etishda

o‘qituvchilarning tayyorgarlik darajasi muhim omil hisoblanadi. Xususan, o‘qituvchilarning innovatsion va raqamli kompetensiyalarining yetarli emasligi yangi pedagogik paradigmalarni amaliyotga tatbiq etishda muayyan muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Bu holat Zimnyaya va Klarin tomonidan ilgari surilgan fikrlar bilan hamohang bo‘lib, ular pedagogik innovatsiyalar samaradorligi ko‘p jihatdan o‘qituvchi shaxsiga bog‘liqligini ta’kidlaydi.

Bundan tashqari, raqamli pedagogika paradigmalarining joriy etilishi ta’lim oluvchilarning mustaqil ta’lim olish imkoniyatlarini kengaytirishi bilan birga, axborot yuklamasining ortishi va ta’lim jarayonida yuzaki o‘zlashtirish xavfini ham keltirib chiqarishi mumkin. Shu sababli raqamli texnologiyalarni qo‘llashda pedagogik muvozanatni saqlash, ularni an’anaviy va interaktiv metodlar bilan uyg‘unlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Demak, muhokama qilingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, pedagogik jarayonining yangi paradigmalariga o‘tish tizimli va bosqichma-bosqich amalga oshirilishi zarur. Ushbu jarayon ta’lim mazmuni, metodlari, baholash tizimi va pedagog kadrlar tayyorlash jarayonini kompleks tarzda qamrab olgan taqdirdagina kutilgan ilmiy-amaliy samaraga erishish mumkin bo‘ladi.

CONCLUSION (XULOSA).

Xulosa qilib aytganda, pedagogik jarayonining yangi paradigmalariga o‘tish zamonaviy ta’lim tizimining strategik yo‘nalishi hisoblanadi. Shaxsga yo‘naltirilgan, kompetensiyaviy, konstruktivistik va raqamli pedagogika paradigmalarining joriy etilishi ta’lim sifatini oshirishga, mustaqil fikrlaydigan va raqobatbardosh shaxsni shakllantirishga xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari pedagogik jarayonni modernizatsiya qilishda nazariy va amaliy ahamiyatga ega bo‘lib, oliy va umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida qo‘llanishi mumkin. Olib borilgan ilmiy-nazariy tahlillar pedagogik jarayonining yangi paradigmalariga o‘tish zamonaviy ta’lim tizimini rivojlantirishning muhim va muqarrar bosqichi ekanini ko‘rsatdi. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, an’anaviy pedagogik paradigma hozirgi globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida ta’lim tizimi oldiga qo‘yilayotgan yangi talablarni to‘liq qondira olmayapti. Shu sababli pedagogik

jarayonni shaxsga yo‘naltirilgan, kompetensiyaviy, konstruktivistik hamda raqamli pedagogika paradigmalariga asoslangan holda qayta tashkil etish zarurati ilmiy jihatdan asoslandi. Konstruktivistik paradigma doirasida tashkil etilgan pedagogik jarayon bilimlarning tayyor holda berilmasligini, balki o‘quvchi tomonidan mustaqil ravishda o‘zlashtirilishini ta’minlaydi. Bu esa o‘quvchilarning tanqidiy va ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirib, ularni muammoli vaziyatlarda samarali qaror qabul qilishga tayyorlaydi. Raqamli pedagogika vositalaridan foydalanish ta’lim jarayonining ochiqligi, moslashuvchanligi va uzluksizligini ta’minlab, individual ta’lim trayektoriyalarini shakllantirish imkonini beradi. Tadqiqot davomida pedagogik jarayonining yangi paradigmalariga o‘tish o‘qituvchining kasbiy faoliyatida ham sifat jihatdan yangi bosqichni boshlab berishi aniqlandi. Zamonaviy o‘qituvchi endilikda faqat bilim beruvchi emas, balki ta’lim jarayonini loyihalovchi, o‘quvchilarni mustaqil izlanishga undovchi, innovatsion va raqamli texnologiyalarni samarali qo‘llay oladigan mutaxassis sifatida namoyon bo‘lmoqda. Bu esa o‘qituvchilarning doimiy kasbiy rivojlanishi, pedagogik kreativlik va raqamli savodxonligini oshirishni taqozo etadi.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasida ta’lim tizimini isloh qilish doirasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar pedagogik jarayonning yangi paradigmalar asosida rivojlanishiga mustahkam zamin yaratmoqda. Davlat ta’lim standartlarining yangilanishi, kompetensiyaviy yondashuvning joriy etilishi, raqamli ta’lim platformalarining kengayishi ta’lim sifatini oshirishga xizmat qilmoqda. Ushbu jarayonlar milliy ta’lim tizimini xalqaro ta’lim maydoniga integratsiyalashuvini ta’minlaydi.

Umuman olganda, pedagogik jarayonining yangi paradigmalariga o‘tish ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, innovatsion yondashuvlarni joriy etish va ta’lim sifatini oshirishning muhim omili hisoblanadi. Tadqiqot natijalari pedagogika nazariyasi va amaliyotini rivojlantirishda ilmiy ahamiyatga ega bo‘lib, oliy, o‘rta maxsus va umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida pedagogik jarayonni takomillashtirishda foydalanilishi mumkin. Kelgusidagi ilmiy izlanishlarda pedagogik jarayonining yangi paradigmalarini amaliyotga joriy etish

mexanizmlarini ishlab chiqish, raqamli pedagogika samaradorligini empirik tadqiqotlar asosida baholash hamda o‘qituvchilarning innovatsion kompetensiyalarini rivojlantirish masalalariga alohida e’tibor qaratish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. **Мирзиёев Ш. М.** Янги Ўзбекистон стратегияси. — Тошкент: Ўзбекистон, 2021. — URL: https://lex.uz/docs/5708880
2. **Турсунов С., Усмонов Б.** Педагогика. — Тошкент: Ўқитувчи, 2019. — URL: https://library.ziyonet.uz
3. **Сайидқосимов С.** Замонавий педагогик технологиялар. — Тошкент: Фан, 2018. — URL: https://ziyonet.uz
4. **Жўраев Р. Х.** Таълим жараёнини модернизациялашнинг педагогик асослари. — Тошкент, 2020. — URL: https://elibrary.namdu.uz
5. **Қодиров А. А.** Компетенциявий ёндашув асосида таълим сифатини ошириш // Халқ таълими. — 2021. — № 4. — URL: https://xalqtaimlimi.uz
6. **Зимняя И. А.** Педагогическая психология [Электронный ресурс]. — URL: https://znanium.com/catalog/product/1020068
7. **Абдуллаева М.** Шахсга йўналтирилган таълимнинг педагогик хусусиятлари // Педагогик таълим. — 2022. — № 2. — URL: https://pedagog.uz
8. **Raven J.** Competence in Modern Society [Electronic resource]. — URL: https://global.oup.com/academic/product/competence-in-modern-society-9780198797290
9. **UNESCO.** Education in a Digital World [Electronic resource]. — URL: https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000374050

AKADEMIK LITSEYLARDA FIZIKA TA'LIMIDA TANQIDIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRUVCHI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR

Arashova Dilobar Ruzimurotovna
IIV Buxoro akademik litseyi
Buxoro Davlat Universiteti

Annotatsiya: *Mazkur maqolada akademik litseylarda fizika fanini o'qitish jarayonida o'quvchilarning tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish masalalari yoritilgan. Fizika ta'limining mazmuni va xususiyatlaridan kelib chiqib, tanqidiy fikrlashning tahliliy, sintez, baholash va muammoli vaziyatlarni hal qilish kabi asosiy komponentlari tahlil qilinadi. Maqolada muammoli ta'lim va loyiha asosidagi ta'lim texnologiyalarining nazariy asoslari, ularning bosqichlari hamda fizika darslarida qo'llash imkoniyatlari amaliy misollar orqali ko'rsatib berilgan. Ushbu pedagogik yondashuvlar o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, ijodiy yondashuvi va real hayotiy muammolarni hal qilish qobiliyatini rivojlantirishda samarali ekanligi asoslab beriladi. Tadqiqot natijalari fizika ta'limida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish o'quvchilarning intellektual salohiyatini oshirishga xizmat qilishini ko'rsatadi.*

Kalit so'zlar: *tanqidiy fikrlash, fizika ta'limi, akademik litsey, muammoli ta'lim, loyiha asosidagi ta'lim, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, mustaqil fikrlash, ta'lim samaradorligi.*

Kirish: Zamonaviy ta'lim tizimida o'quvchilarning tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish ustuvor yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, akademik litseylarda fizika fanini o'qitishda tanqidiy fikrlash qobiliyatini shakllantirish alohida ahamiyat kasb etadi. Fizika fani o'z mohiyati jihatidan o'quvchilardan tahlil qilish, mulohaza yuritish, muammolarni hal qilish va mustaqil xulosalar chiqarish ko'nikmalarini talab qiladi.

Tanqidiy fikrlash va uning ahamiyati: Tanqidiy fikrlash - bu ma’lumotlarni ongli ravishda tahlil qilish, baholash, sintez qilish va asoslangan xulosalar chiqarish qobiliyatidir. Fizika ta’limida tanqidiy fikrlash quyidagi komponentlarni o‘z ichiga oladi:

- **Tahliliy fikrlash** - fizikaviy hodisalarni tarkibiy qismlarga ajratish, ular orasidagi bog‘lanishlarni aniqlash qobiliyati. O‘quvchilar murakkab fizikaviy jarayonlarni soddaroq elementlarga bo‘lib, ularning o‘zaro ta’sirini o‘rganishadi.
- **Sintez qobiliyati** - turli ma’lumotlarni birlashtirish va yangi xulosalar chiqarish ko‘nikmasini anglatadi. Bu jarayonda o‘quvchilar olgan bilimlarini umumlashtirish va yangi kontekstda qo‘llash imkoniyatiga ega bo‘ladilar.
- **Baholash va tanqidiy yondashuv** - ma’lumotlarning ishonchliligini tekshirish, turli yechimlarni solishtirish va eng optimal yo‘lni tanlash qobiliyatidir. O‘quvchilar eksperimental natijalarni baholash, xatolarni aniqlash va ularning ta’sirini tahlil qilishni o‘rganadilar.
- **Muammoli vaziyatlarni hal qilish** - real hayotiy muammolarga fizika qonuniyatlarini qo‘llash va noan’anaviy yechimlar topish ko‘nikmasi. Bu jarayon ijodiy yondashuv va mustaqil fikrlashni talab qiladi.

Muammoli ta’lim texnologiyasi: Muammoli ta’lim - tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning eng samarali usullaridan biridir. Bu texnologiya o‘quvchilar oldiga muammoli vaziyatlar qo‘yish va ularni mustaqil hal qilishga undash asosida qurilgan.

Muammoli ta’limning asosiy bosqichlari:

Birinchi bosqichda muammoli vaziyat yaratiladi. O‘qituvchi o‘quvchilarga qarama-qarshilik yoki noaniqlik bilan to‘liq vaziyatni taqdim etadi. Masalan, elektr zanjirlarini o‘rganishda: “Nima uchun parallel ulangan lampochkalardan biri o‘chsa, qolganlari yonishda davom etadi, ketma-ket ulanganda esa barcha lampochkalar o‘chadi?” Bunday savol o‘quvchilarda qiziqish uyg‘otadi va javob izlashga undaydi.

Ikkinchi bosqichda muammoni anglash va tahlil qilish amalga oshiriladi. O‘quvchilar muammo mohiyatini tushunishlari, ma’lum va noma’lum ma’lumotlarni ajratishlari kerak. Ular o‘zlarining oldingi bilimlariga tayangan holda, muammoning qanday echimga ega bo‘lishi mumkinligini taxmin qiladilar.

Uchinchi bosqich farazlar qo‘yish va ularni tekshirish bilan bog‘liq. O‘quvchilar turli yechim yo‘llarini taklif qiladilar, ular orasidan eng maqbulini tanlaydilar va eksperimental yoki nazariy yo‘l bilan tekshiradilar.

To‘rtinchi bosqichda xulosa chiqarish va natijalarni umumlashtirish amalga oshadi. O‘quvchilar topilgan yechimni tahlil qiladi, uni boshqa vaziyatlarda qo‘llash imkoniyatlarini o‘rganadi.

Amaliy misollar:

Mexanika bo‘limida: “Avtomobil tormozlagan paytda yo‘lovchilar nima uchun oldinga egiladilar?” Bu savol inertsiya qonunini tushunishga yordam beradi. O‘quvchilar kundalik hayotda kuzatadigan hodisani fizika qonuniyatlari bilan bog‘lashadi.

Molekulyar fizika bo‘limida: ‘Nima uchun qishda derazalardagi oynalar ichki tomondan muzlab qoladi?” O‘quvchilar harorat, namlik va kondensatsiya jarayonlari o‘rtasidagi bog‘liqlikni tahlil qilishadi.

Optika bo‘limida: “Dengiz tubidagi baliqchilar qayiqni qanday ko‘rishadi va nima uchun?” Bu savol nur sinishi hodisasini chuqur tushunishga yordam beradi.

Muammoli ta’lim o‘quvchilarning mustaqil fikrlash, izlanish va kashfiyot qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Ular tayyor javoblarni qabul qilish o‘rniga, bilimlarni o‘zlari “kashf etadilar”, bu esa chuqurroq tushunish va uzoq muddat esda qolishni ta’minlaydi.

Loyiha asosidagi ta’lim: Loyiha asosidagi ta’lim - bu o‘quvchilarning real muammolarni hal qilish jarayonida bilim va ko‘nikmalarni egallashi asosida tashkil etiladigan ta’lim metodidir. Fizika ta’limida bu yondashuv ayniqsa samarali, chunki u nazariy bilimlarni amaliyotga bog‘lashga imkon beradi.

Loyiha turi va amalga oshirish: Tadqiqot loyihalari eksperimental ishlarni o‘z ichiga oladi. Masalan, “Turli materiallarning issiqlik o‘tkazuvchanligini

taqqoslash” loyihasi. O‘quvchilar turli materiallar (metall, yog‘och, plastik, shisha)dan tayyorlangan bir xil o‘lchamdagi namunalarni tayyorlaydilar. Keyin issiqlik manbai yordamida ularning qizish tezligini o‘lchaydilar. Natijalarni grafiklar shaklida taqdim qilish, tahlil qilish va xulosa chiqarish orqali o‘quvchilar termodinamika qonuniyatlarini amalda qo‘llashni o‘rganadilar.

Muhandislik loyihalari amaliy qurilmalar yaratishga qaratilgan. “Quyosh energiyasidan foydalanadigan qurilma loyihalash” misolida o‘quvchilar quyosh panellari, akumulyatorlar va elektr zanjirlarini birlashtirib, kichik masshtabda ishlayotgan tizim yaratishadi. Bu jarayonda ular energiya konversiyasi, samaradorlik va ekologik masalalarni hisobga olishadi.

Modellashtirish loyihalari fizikaviy jarayonlarning kompyuter yoki fizik modellarini yaratishni o‘z ichiga oladi. ‘Sayyoralar harakati simulyatsiyasi” loyihasi doirasida o‘quvchilar gravitatsiya qonunlarini qo‘llab, Python yoki boshqa dasturlash tillari yordamida sayyoralar orbitasini modellashtiradilar.

Loyiha ishlarining bosqichlari: Rejalashtirish bosqichida o‘quvchilar loyiha maqsadini aniqlashtiradi, ishni bosqichlarga bo‘lishadi, zarur resurslarni belgilaydilar. Bu bosqichda ular tashkiliy ko‘nikmalarni rivojlantiradilar.

Ma’lumot to‘plash va tahlil qilish bosqichida adabiyotlar bilan ishlash, eksperimentlar o‘tkazish, ma’lumotlar bazasini yaratish amalga oshiriladi. O‘quvchilar turli manbalardan ma’lumot to‘plash, ularni tanqidiy baholash va sistematizatsiya qilish ko‘nikmalarini egallaydilar.

Amalga oshirish bosqichida amaliy ishlar, tajribalar, modellar yaratish yoki hisoblashlar bajariladi. Bu eng ijodiy va mehnat talab qiladigan bosqichdir.

Natijalarni taqdim etish va himoya qilish bosqichida prezentatsiya tayyorlash, xulosalar shakllantiriladi va loyiha jamoa yoki ekspertlar oldida himoya qilinadi. Bu jarayon o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutq ko‘nikmalarini, o‘z fikrini asoslab berish qobiliyatini rivojlantiradi.

Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish jihatidan afzalliklari: Loyiha ishlari o‘quvchilarni real muammolar bilan yuzma-yuz keltiradi, bu esa amaliy fikrlashni rivojlantiradi. Ular nazariy bilimlarning hayotiy ahamiyatini anglashadi va fizikani

abstrakt fan sifatida emas, balki kundalik hayotda qo‘llaniladigan amaliy vosita sifatida idrok etadilar.

Mustaqil izlanish va tadqiqot ko‘nikmalari shakllanadi. O‘quvchilar o‘z bilimlarini mustaqil kengaytirish, yangi ma’lumotlar izlash va ularni tahlil qilish yo‘llarini o‘rganadilar.

Muammolarni kreativ yechish qobiliyati rivojlanadi. Loyiha ishi davomida turli xil qiyinchiliklar paydo bo‘ladi va o‘quvchilar noan’anaviy yechimlar topishga majbur bo‘ladilar.

Hamkorlikda ishlash va kommunikativ ko‘nikmalar yaxshilanadi. Guruh loyihalari o‘quvchilarga fikr almashish, bir-birini tinglash, kelishmovchiliklarni hal qilish va jamoada samarali ishlash tajribasini beradi.

Interaktiv ta’lim usullari: Interaktiv metodlar o‘quvchilarning faol ishtirokligi va o‘zaro hamkorligiga asoslangan ta’lim texnologiyalaridir. Fizika darslarida bu usullar o‘quvchilarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi.

Munozara va diskussiya metodlari: “Aylanma stol” texnikasi barcha ishtirokchilarning tenglik asosida fikr almashishini ta’minlaydi. Fizikaviy konsepsiyalar bo‘yicha munozaralar, masalan: “Yadro energetikasi: foyda va zararlar nisbati” mavzusida o‘quvchilar ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy jihatlarni muhokama qiladilar. Har bir o‘quvchi o‘z pozitsiyasini faktlar bilan asoslashi, raqiblarning dalillarini tahlil qilishi va mantiqiy xulosalar chiqarishi talab etiladi.

“Muzokaralar” texnikasida qarama-qarshi nuqtai nazarlarni himoya qilish ko‘nikmalari rivojlanadi. Masalan, “Kosmosni tadqiq qilishga sarflanadigan mablag‘lar: zaruriyat yoki isrof?” mavzusida bir guruh o‘quvchilar kosmik tadqiqotlarning ilmiy va texnologik yutuqlarini asoslaydi, ikkinchi guruh esa bu mablag‘larni Yerdagi muammolarni hal qilishga yo‘naltirish zarurligini ta’kidlaydi.

Kichik guruhlarda ishlash: “Brainstorming” (aqliy hujum) texnikasi ijodiy fikrlashni rag‘batlantiradi. Masalan, “Gravitatsiyadan himoyalanish mumkinmi?” mavzusida o‘quvchilar barcha g‘oyalarni, hatto g‘ayritabiiy tuyulganlarini ham

erkin bildiradilar. Keyinchalik bu g‘oyalar tanqidiy tahlil qilinadi va ilmiy nuqtai nazardan baholanadi.

“Jigsaw’ (puzzle) texnikasida har bir guruh a’zosi ma’lum mavzuning bir qismini chuqur o‘rganadi, keyin o‘z bilimlarini boshqalar bilan bo‘lishadi. Masalan, elektromagnit to‘lqinlar mavzusida bir o‘quvchi radio to‘lqinlar, ikkinchisi mikroto‘lqinlar, uchinchisi infraqizil nurlanish haqida ma’lumot tayyorlaydi.

Teskari sinf (Flipped Classroom)texlogiyai: Teskari sinf modeli an’anaviy ta’lim jarayonini o‘zgartirib, nazariy materiallarni o‘rganishni uyga, amaliy mashg‘ulotlarni esa darsga ko‘chiradi. Bu yondashuv o‘quvchilarning faol o‘rganishi va tanqidiy fikrlashini rivojlantirishga yordam beradi.

Teskari sinf tizimining tuzilishi: Uyda bajariluvchi ishlar videodarslar, interaktiv prezentatsiyalar, o‘quv materiallari bilan tanishishni o‘z ichiga oladi. O‘qituvchi qisqa (10-15 daqiqalik) videodarslar tayyorlaydi yoki tayyor video resurslardan (Khan Academy, YouTube Science kanallar) foydalanadi. O‘quvchilar o‘z tezligida materiallar bilan tanishadilar, zarur bo‘lsa, videoni to‘xtatib qaytadan ko‘rishlari mumkin.

Darsda amaliy mashg‘ulotlar: masalalar yechish, tajribalar o‘tkazish, guruh loyihalari amalga oshiriladi. O‘qituvchi ko‘proq mentor va yo‘l ko‘rsatuvchi rolini o‘ynaydi, individual yondashuvni ta’minlaydi. O‘quvchilar bilimlarini amalda qo‘llashadi, savollar berishadi va chuqurroq tushunishga erishadilar.

Amalga oshirish bosqichlari: Tayyorgarlik bosqichida o‘qituvchi sifatli video materiallar tayyorlaydi yoki tanlaydi. Videolar qisqa, aniq va vizual elementlar bilan boyitilgan bo‘lishi kerak. Har bir video oxirida o‘quvchilar tushunganligini tekshirish uchun savol-topshiriqlar beriladi.

O‘quvchilarni tizim bilan tanishtirish bosqichida yangi yondashuvning maqsadi va usuli tushuntiriladi. O‘quvchilarga uyda mustaqil o‘rganish strategiyalari o‘rgatiladi: yozuvlar yuritish, muhim joylarni belgilash, tushunmagan savollarni yozib qo‘yish.

Monitoring va baholash bosqichida o‘quvchilarning uyda o‘rganishi nazorat qilinadi. Bu online testlar, qisqa quiz yoki refleksiv yozuvlar orqali amalga

oshiriladi. O‘qituvchi har bir o‘quvchining qaysi mavzularda qiynalganligini aniqlaydi.

Darsda qo‘llash bosqichida nazariy bilimlar amaliy kontekstda mustahkamlanadi. O‘quvchilar murakkab masalalarni yechishadi, tadqiqot olib borishadi yoki loyiha ustida ishlashadi.

Tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda afzalliklari: O‘quvchilar aktiv o‘rganuvchilarga aylanadi, passiv eshituvchi emas. Ular o‘z bilimlarini mustaqil qurish, savollar berish va javoblarni izlash orqali chuqurroq tushunishga erishadilar.

Individuallashtirish imkoniyati - har bir o‘quvchi o‘z tezligida o‘rganadi. Ba’zi o‘quvchilar videoni bir marta ko‘rishi kifoya qilsa, boshqalari takroriy ko‘rish orqali tushunishadi. Bu differensiyalangan yondashuvni ta’minlaydi.

Darsda ko‘proq vaqt amaliy mashg‘ulotlarga ajratiladi. O‘quvchilar tajriba qilishadi, muammolarni hal qilishadi va hamkorlikda ishlashadi. Bu tanqidiy fikrlash uchun eng yaxshi muhitdir.

Xulosa: akademik litseylarda fizika fanini o‘qitishda tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish ta’lim samaradorligini oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Fizika fanining mazmuni o‘quvchilardan tahlil qilish, solishtirish, umumlashtirish va mustaqil xulosalar chiqarishni talab etadi, bu esa tanqidiy fikrlashni shakllantirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. **Anderson T., Dron J.** Learning technology through three generations of pedagogy // International Review of Research in Open and Distributed Learning. – 2011.
2. **Arashova D. R.** Raqamlashtirish sharoitida akademik litsey o‘quvchilarining fizika faniga oid tayanch kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi // Pedagogik mahorat. – 2025. – № 6. – B. 222–225.
3. **Safarova N. N., Abdukarimova R. A.** Pedagogik kompetentlik va kreativlik. – Buxoro: Buxara Hamd Print, 2022. – 188 b.

4. **Safarova N. N.** Zamonaviy ta’limda raqamli texnologiyalardan foydalanish istiqbollari // Ta’lim va innovatsion tadqiqotlar. – Buxoro, 2023. – № 12. – B. 250–253.

ДИДАКТИЧЕСКОЕ ОБОСНОВАНИЕ МОДЕЛИ КОМПЕТЕНЦИЙ УРОВНЯ GRADE 1 ДЛЯ СПЕЦИАЛИСТОВ-ИСПОЛНИТЕЛЕЙ

Асадова Хулкар Боймановна

АО “O‘ZLITINEFTGAZ”

Аннотация. *Статья посвящена дидактическому обоснованию и детальной спецификации авторской модели профессиональных компетенций для базового уровня (Grade 1) подготовки специалистов-исполнителей в нефтегазовой отрасли. Рассматривается процесс операционализации теоретической модели в систему диагностируемых критериев и наблюдаемых дескрипторов деятельности. Особое внимание уделяется роли теории поэтапного формирования умственных действий П.Я. Гальперина как методологического ядра, обеспечивающего технологичность формирования алгоритмизированных действий. Представлена структура пяти ключевых компетенций для уровня Grade 1, каждая из которых раскрыта через конкретные показатели и поведенческие индикаторы. Разработанная система служит основой для создания валидного диагностического инструментария и проектирования практико-ориентированных учебных модулей в системе корпоративного обучения.*

Ключевые слова: *дидактическое обоснование, модель компетенций, Grade 1, специалист-исполнитель, дескрипторы, критериальное оценивание, поэтапное формирование действий, корпоративное обучение.*

Введение. В контексте модернизации системы корпоративного обучения особую актуальность приобретает проблема перехода от описания компетенций к созданию дидактически обеспеченных механизмов их формирования, особенно на базовом исполнительском уровне [1]. Эффективность подготовки специалистов уровня Grade 1 определяет не только операционную надежность производства, но и служит фундаментом для последующего профессионального роста [2].

Целью данной статьи является представление дидактического обоснования и содержательной спецификации модели компетенций для специалистов-исполнителей, обеспечивающей управляемость и диагностируемость процесса обучения.

Теоретико-методологические основы проектирования модели. Дидактическое проектирование модели компетенций уровня Grade 1 базируется на интеграции компетентностного и деятельностного подходов с ведущей ролью теории поэтапного формирования умственных действий П.Я. Гальперина [3]. Данная теория предоставляет строгий психологический механизм для перевода требуемой компетенции в систему управляемых учебных задач. Для уровня исполнителя ключевым является формирование полной ориентировочной основы действия (ООД) первого типа, при которой обучаемый получает готовую систему ориентиров для безошибочного выполнения стандартных операций. Дидактический процесс строится на принципах алгоритмизации учебного содержания, моделирования типовых производственных ситуаций и обеспечения немедленной обратной связи, что гарантирует доведение исполнительских действий до уровня надежного навыка [4].

Спецификация компетенций и система критериев для уровня Grade 1. Модель включает пять ключевых компетенций, содержание которых для специалиста-исполнителя конкретизировано через систему показателей и поведенческих дескрипторов [5]. Дескрипторы формулируются в терминах

наблюдаемых и измеримых действий, что обеспечивает объективность оценки [6].

Таблица 1. Спецификация компетенций, показателей и дескрипторов для уровня Grade 1

Компетенция	Ключевой показатель	Дескриптор деятельности (наблюдаемое действие)
К1. Технологическая компетентность	Следование регламентам	Выполняет стандартные операции (замер параметров, пуск/остановка оборудования) строго в соответствии с инструкцией.
	Базовый контроль оборудования	Осуществляет визуальный контроль работы скважин и установок, идентифицирует очевидные отклонения (течь, посторонний шум, вибрация).
К2. Аналитическое мышление и принятие решений	Анализ данных	Систематизирует данные суточных рапортов, корректно заносит показатели в установленные формы.
	Принятие решений по инструкции	Сравнивает фактические технологические параметры с нормативными значениями. При обнаружении отклонений следует предписанному алгоритму действий (доклад старшему смены).
К3. Управление проектами и процессами	Соблюдение регламентов и сроков	Точно соблюдает последовательность операций и временные рамки при выполнении порученного этапа работ.

	Участие в процессах	Корректно заполняет первичную технологическую документацию (журналы, рапорты).
К4. Экологическая и промышленная безопасность (HSE)	Соблюдение правил HSE	Применяет средства индивидуальной защиты (СИЗ) в соответствии с требованиями рабочей зоны.
	Идентификация опасностей	Распознаёт очевидные источники опасности (открытые люки, разливы, повреждённая изоляция) и немедленно докладывает о них.
К5. Коммуникация и работа в команде	Четкость передачи информации	Ясно и структурированно излагает информацию при сменных брифингах, в устных и письменных докладах.
	Эффективность взаимодействия	Корректно взаимодействует с членами смены и смежных служб для решения текущих производственных задач.

Критериальная система оценивания и диагностический инструментарий. На основе представленных дескрипторов разработана критериальная система оценивания, позволяющая перейти от качественных описаний к количественным измерениям. Для каждой компетенции определены уровни сформированности (низкий, достаточный, высокий), соответствующие степени соответствия действий эталонным дескрипторам [7]. Данная система является основой для разработки комплекса диагностических средств, включающего:

Банк тестовых заданий закрытого типа, проверяющих знание регламентов и алгоритмов (когнитивный компонент) [8].

